SOTUVGA CHIQARISH TAQIQLANADI.

RMKJ

Ona tili

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

11

„O‘qituvchi“ NMIU
100206, Toshkent sh.,
Yangishahar ko‘chasi, 1.
Tel.: (+99871) 224-04-12
www.oqituvchi.uz
info@oqituvchi.uz

ISBN 978-9943-22-492-6

11

O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

ONA TILI

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2020

UO‘K 373.5.016:811.512.133(075.3)
KBK 74.268.1
O 58

Tuzuvchilar:

SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA, SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA, SOHIBA BOBONAZAROVA

Taqrizchilar:

N. B. Mirzayeva – Filologiya fanlari nomzodi. Toshkent shahri Olmazor tumani 326-DIU maktabi direktori;

S. A. Ergasheva – Farg‘ona viloyati Quva tumani 62-IDUMI ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Xalq ta’limi a’lochisi;

Z. A. Sodiqova – Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi;

Ch. G‘. Mardiyeva – Samarqand viloyati Payariq tumani 92-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Xalq ta’limi a’lochisi.

Ushbu qo‘llanma Respublika ta’lim markazi huzuridagi Filologiya (ona tili, adabiyot, o‘zbek tili) fanlari bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashining 2020-yil 25-iyul 2-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-22-492-6

© S. Atoyeva va b.
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2020.

KIRISH

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me’yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko‘ra o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni *tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish* kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 28-oktabrdagi 266-sonli buyrug‘iga asosan tayanch o‘quv rejaga o‘zgartirishlar kiritildi, 10–11-sinflar uchun ona tili faniga yil davomida ajratilgan 34 soat 68 soatga ko‘paydi. Amaldagi 10–11-sinf ona tili fani o‘quv dasturi hamda darsligi 34 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘shilgan 34 soat uchun o‘quv amaliyoti jarayonida qo‘shimcha o‘quv materiallariga, o‘quv qo‘llanmaga ehtiyoj sezildi. Shuni inobatga olgan holda 2020–2021-o‘quv yilida 10–11-sinf o‘quvchilari qo‘liga „Ona tili“ darsligining 2-qismi yetkazib berildi. 11-sinf „Ona tili“ darsligining yangi qismida talaffuz va imlo me’yorlari, so‘z qo‘llash me’yorlari, nutqning grammatik va punk-

tuatsion me’yorlariga oid mavzular ta’limiy-didaktik topshiriqlar bilan boyitildi, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsda o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish savodxonligini oshirish hamda nutqiy (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida nutqiy mavzular va matnlar kiritildi. Berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va illustratsiyalar grammatik mavzu bilan bog‘-landi.

Qo‘lingizdagi mazkur metodik qo‘llanmada o‘quvchilarga ona tili fanidan bilim berish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriq-larning bajarilish yechimi hamda matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. Mustaqil bajarish uchun matn tayyorlash va uni audionutq shaklida taqdim qilish vazifalari berildi. To‘g‘ri, barcha o‘quvchi ham dars mashg‘ulotlariga telefon olib bormaydi. Buning uchun uyda bajarilgan vazifani o‘quvchi telegram messenjerida ochilgan o‘z sinfi guruhiga yoki fan o‘qituvchisining shaxsiy kabinetiga telegram orqali yuborishini, so‘ng esa audiomatnlar dars jarayonida eshittirilishini tavsiya qilamiz.

Yosh avlod qalbida ona tiliga muhabbat, ona tilini e’zozlash urug‘-larini qadashdek mashaqqatli va mas’uliyatli ishingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

11-SINF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLIYATI NATIJALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

NUTQIY KOMPETENSIYA

(tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)

Tinglab tushunish:

- sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi;
- nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi;
- ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni, muloqot jarayonida o‘ziga qaratilgan nutqni yoki o‘zgalarning o‘zaro muloqot jarayoni – suhbat mohiyatini tasavvur qila oladi, eslaydi, tushunadi;
- darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni, so‘z, ibora va atama (termin)larni o‘qib tushunadi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajrata oladi, umumlashtirib xulosalay oladi.

Gapirish:

- nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og‘zaki bayon eta oladi;
- o‘rganilgan matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qila oladi;
- berilgan topshiriq, ma’lumotni qanday ketma-ketlikda bajarish usulini og‘zaki ifodalab, grammatik tamoyil va ma’lumotlarni og‘zaki bayon qila oladi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni ajrata oladi, tushunadi, taqqoslaydi, fikrini umumlashtirib og‘zaki munosabat bildiradi;
- tanish va notanish mavzularda muloqot boshlay oladi, muloqotni davom ettiradi, mavzu mohiyatini ochuvchi, suhbatga aloqador savollar bera oladi.

O‘qish:

- turli janrdagi tanish, notanish matnni tinish belgilariga amal qilgan holda ifodali, ravon o‘qiy oladi;
- berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni o‘qib tushunadi;
- turli janrdagi matnlarni o‘qib, o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera oladi;
- gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshuralarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunadi.

Yozish:

- imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda ijodiy matnlar yarata oladi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini yozma bayon qila oladi;
- fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi;
- grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tanish va notanish vaziyatda yozma bayon qila oladi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunib ajratadi, taqqoslaydi, umumlashtirib, yozma munosabat bildira oladi;
- so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon eta oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 22–25 ta gapdan iborat matn yarata oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 170–180 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi;
- ish qog‘ozlari (bayonnoma, bayonnomadan ko‘chirma, tavsiyanoma, rasmiy va shaxsiy xatlar)ni yoza oladi.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

(leksika, uslubiyat, nutq madaniyati, tinish belgilariga oid)

Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanadi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyish manbalarini izohlay oladi.

Nutq madaniyati: o‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyatini, madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlarni, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, jo‘yaliligi, ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalana oladi.

11-SINF UCHUN YOZMA ISHLAR HAJMI

Diktant	Matn yaratish	Bayon	Insho
170–180 so‘z	22–25 ta gap	35–45 ta gap	3–3,5 bet

O‘ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Ta’limiy maqsad: o‘zbek tili va uning taraqqiyoti haqida kirish suhbatini o‘tkazish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy va umummadaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars 1-topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘. Hoshimov qalamiga mansub „Charxpalak“ matni o‘qilib, unda ifodalangan g‘oya haqida fikrlashiladi. O‘quvchilar milliy qadriyat, bobomeros an’analar, ustoz-shogirdlik maqomi haqidagi mulohazalarini bayon qiladilar (*o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi).

Yechim: ariqdagi charxpalak „yog‘och gardishi ko‘hna“, „temir paqirchalari zanglab ketgan“, „parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan“ va „birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek“ bo‘lsa-da, o‘z ishini davom ettiradi: „Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi“.

Ustozlar ham shunday: umri davomida yosh avlodga ming mashaqqat bilan bilim beradi. Fidoyi mehnati bilan kelajakni yaratayotganini aslo minnat qilmay va o‘z ishidan og‘rinmay, bolalarni ma’rifat ziyosidan bahramand qilishda davom etaveradi.

„Aqliy hujum“ uyushtiriladi: „Yosh avlod – „bir tomchi suv“, katta hayot yo‘lida o‘z ustozlaringiz mehnatini, chekkan zahmatini oqlash uchun nima qilishi zarur?“

O‘quvchilarning javobi umumlashtirilgach, yangi mavzu o‘qituvchi tomonidan slaydlar yordamida batafsil tushuntirib beriladi. Masalan, „Tildagi o‘sish-o‘zgarishlar“ jadvaliga murojaat qilinadi:

So‘z yasash orqali (ichki imkoniyat)	dasturchi, ahdnoma, kafolatnoma, idoralararo, hukumatlararo, davlatlararo, nodavlat, nohukumat, notijorat, nomoddiy, mahalliylashtirish, kompyuterlashtirish, modellashtirish…
Eskirgan so‘zlarni qayta tilga olib kirish hisobiga	ma’naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh, matbaa, muallif, munaqqid, tashxis, tijorat…
So‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash orqali	vazir, viloyat, tuman, hokim, zobit…
Salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlarga ijobiy tus berish orqali	biznes, biznesmen, millioner, savdogar, fermer, janob, kapital, parlament, firma…
Xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirish orqali (tashqi imkoniyat)	audiovizual, antiterror, bakalavr, bankomat, barter, birja, gimnaziya, diler, investitsiya, investor, internet, kredit, litsey, magistr, monitoring, multimedia, reyting, sertifikat

1-mashqda berilgan „Ona tuproq“ she’ri tinglanadi (*tinglab tushunish*). Uning g‘oyasi aks etgan misralar tahlil qilinadi (*gapirish*). Milliy meros, ona tili va unga posbonlik haqidagi mulohazalar bayon etilib, har bir band uchun sarlavha topib yoziladi (*yozish*).

Namuna:

1. Buyuk ajdodlar beshigi – Vatan.
2. Faxr tuyg‘usi.
3. Asl farzandlar – Vatan posbonlari.
4. Munosib vorislar.

2-mashqda Alisher Navoiyning so‘z, til borasidagi fikrlari audio shaklida eshittirilishi maqsadga muvofiq va bu bilan *tinglab tushunish* kompetensiyasi rivojlanadi. Tilning inson faoliyatidagi o‘rni haqida bahs-munozara yuritish orqali *gapirish*, asosiy g‘oyani ifodalovchi tezislar tuzish orqali esa *yozish* kompetensiyasi shakllanadi.

Tezis namunalari:

1. Ona tili – millatning ruhi. Xalqning ma’naviy qiyofasi, or-nomusi, orzu-umidlari, qolaversa, istiqboli ona tilida mujassam.

2. Har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi jonajon, betakror tili ham bo‘ladi. Inson dunyoga kelibdiki, uning o‘z Vatani, onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo‘lsa, ona tili ham shunchalik ulug‘dir.

3. Ona tiliga muhabbat, avvalo, ona allasi bilan inson qalbiga singadi. Ona allasi shunday ilohiy kuchga egaki, uni eshitgan har bir inson umrining oxiriga qadar allaning betakror ohangini sog‘inib yashaydi.

4. So‘z mo‘tabar, uni anglash va ehtiyotkorona qo‘llash zarur.

3-mashqdagi matnni o‘qib, o‘quvchilarning unga munosabatlari tinglanadi. „Har kimdan bir ma’lumot“ usulida o‘quvchilar o‘zbek tilining taraqqiyoti haqida o‘z bilganlarini qisqa ilmiy matn shaklida yozadilar (*o‘qish, gapirish, yozish*).

4-mashqdagi matn yuzasidan o‘quvchilar „Zanjir usulida“ bittadan fikr aytadilar. Shu asosda sarlavhalar topiladi.

Namunalar:

Tining cheksiz imkoniyati
Til bo‘lmaganda...
Tilning ma’rifiy ahamiyati
Til – taraqqiyot omili.

5-mashqqa o‘tishdan oldin o‘qituvchi „Sirli sandiqcha“ni olib kiradi va savol beradi: „Kundalik hayotimizda qanday sehrli so‘zlarni qo‘llaymiz?“ O‘quvchilar „Assalom“, „Rahmat“, „Sog‘ bo‘ling“, „Tashakkur“, „Uzr“ kabi so‘zlarni aytadilar, o‘qituvchi ham sandiqchadan shu kabi so‘zlar yozilgan karton varaqlarini oladi. Shundan so‘ng „So‘z sehri“ she’ri tinglanadi. Shunday „sehrli so‘zlar“ga ko‘proq misollar keltiriladi (*minnatdorman, kechiring, ofarin, hormang, barakalla* kabi). O‘qituvchi mazkur mashqni bajarish jarayonida muomalaning ahamiyatiga diqqat qaratadi. Har qanday eshik muomala kaliti bilan ochilishi, „Chiroyli muomala – ishning yarmi bitdi“, degan fikrni o‘quvchilar ongiga singdirishi tavsiya qilinadi.

LUG‘AT ISHI

So‘z	Izohi	Misol
BRIFING	Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.	„UzReport“ telekanalida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish agentligi matbuot xizmatining OAV vakillari bilan o‘tkazgan brifingi namoyish qilindi. („*Xabar.uz*“)
IBTIDO	Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning boshlanish davri	Ko‘ngul mulkini toroj – Aylagan ishq istilosidir. Na bo‘lgay oxiri, bu Istiloning ibtidosidir. (*E.Vohidov*)

INTIHO	Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning tugash, nihoyalanish davri	Ibtidomiz intihodan xabarlidir, Quvonchi oz, g‘ami o‘lim qadarlidir. (*U. Azim*)
ISTIFODA	Foydalanish, ishlatish. *Istifoda qilmoq* (yoki *etmoq*) – foydalanmoq, ishlatmoq	Amal qilmoqdin ahdi istifoda Dedilar: „Nuri iymondur ziyoda“. (*So‘fi Olloyor*)
MUNAQQID	Adabiy, ilmiy, publitsistik asarlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini o‘rganish hamda baholash bilan shug‘ullanuvchi adabiyotshunos, tanqidchi	Sharof Rashidov ayni chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham qalam tebratgan edi . (*S. Mirvaliyev)*
TASHXIS	1. Kasallik xarakteri va bemorning ahvoli haqidagi qisqacha tibbiy xulosa	To‘g‘ri tashxis – shifoning boshlanishi. (*„Tashxis“ gaz.*)
	2. Odamdan boshqa jonli va jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirishdan iborat badiiy san’at turi	Tahlil doirasiga tortilgan baytlar jonlantirish – tashxis san’atining go‘zal namunalari bo‘lib, bu baytlar g‘azalda o‘ziga xos lirik voqeabandlikni tashkil etgan. (*I. Haqqul*)
TIJORAT	Savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari	Alisher Navoiy Xoja Ubaydullohning fazilatlaridan biri tijorat-savdo ishlari bilan shug‘ullanib, o‘z mollarini turli joylarga yuborgani masalasini ta’kidlaydi. (*B. Valixo‘jayev*)
UNSUR	Butunni tashkil etgan murakkab narsaning tarkibiy qismi	Sen ularning shohi bo‘lding, chin so‘zing, Ha, barcha unsurlar podshosi o‘zing. (*E. Vohidov*)

Mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan savollarga o‘quvchilar javob topadilar va ballarni qo‘lga kiritadilar.

O‘qituvchi mavzuni xulosalaydi va uyga **6-mashq**ni berib, darsni yakunlaydi.

NUTQ MADANIYATI

Ta’limiy maqsad: nutq madaniyati haqida tushuncha berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga muomala madaniyatini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: turli vaziyatlarda madaniyatli muloqot olib borish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars avvalida o‘quvchilar bilan shirinsuxanlik, so‘zni anglash va o‘z o‘rnida ishlata bilish haqida „Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur“ mavzusi bo‘yicha suhbat tashkil qilinadi. Yozuv taxtasiga so‘z odobi haqida ibratli fikrlar yozilgan varaqlar ilinadi. O‘quvchilar mazkur fikrlar yuzasidan o‘z mulohazalarini bildiradilar.

1. Dunyoda oqilona so‘z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.
2. So‘z doriga o‘xshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi.
3. Har bir so‘zni haqiqiy deb so‘zlayverish xato, ammo haqiqiy so‘zni tinglash va unga amal qilish farzdir.
4. Til shirinligi ko‘ngilga yoqimli, yumshoqligi foydalidir.
5. Tili yomon kishi o‘z ko‘ngliga jarohat yetkazgani kabi boshiga ham ofat yetkazadi.
6. Ko‘ngli va tili bir bo‘lgan kishining aytgan so‘zi butun bo‘ladi.
7. Aytilmagan so‘z – sof oltin. Tildan chiqqan so‘z esa mis demakdir.
8. So‘z o‘likni tiriltirur, tirikni o‘ldirur.
9. So‘z borki, tinglovchi taniga jon kiritadi, so‘z borki, aytuvchi boshini yelga beradi.

„Aqliy hujum“: tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar yuzasidan qaysi allomalarning fikrlarini, amalga oshirgan ishlarini bilasiz?

Darslikdagi topshiriqni bajarish asosida *tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Matn bilan tanishiladi. Ota-onaga murojaat qilishda farzand burchi yuzasidan munozara uyushtiriladi. Fikrlar asosida har bir o‘quvchi matn uchun o‘z xulosasini yozadi va o‘qib beradi.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun unga namu-

naviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko‘zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo‘lgan muddaoning to‘liq borib yetishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi. Bular grammatik jihatdan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zlangan ma’noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta’sirchan bo‘lishini taqozo qiladiki, ularga nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Nutq madaniyati – madaniy nutq, tilshunoslikning sohasi sifatida adabiy til me’yorlari, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Unda, eng avvalo, fikrning aniq, ravon, mantiqan to‘g‘ri, sof, ta’sirli va maqsadga muvofiq bo‘lishi talab qilinadi. Notiqlik san’atida e’tiborni tortish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ma’lum o‘rinlarda dialektal, jargon so‘zlarni ishlatish holati kuzatiladi. Nutq madaniyatida bu holatga yo‘l qo‘yilmaydi. Notiqlik san’atida intonatsiya, jest (qo‘l, yuz harakatlari)ga ko‘p e’tibor qaratiladi. Lekin har ikkisida ham fikr o‘quvchi yoki tinglovchiga yetib borib, ma’lum ta’sir ko‘rsatsa, yaxshi nutq sanaladi. Tilni yaxshi bilish tilning grammatik qonun-qoidalarini, lug‘at boyligini hamda fonetik va stilistik xususiyatlarini puxta o‘zlashtirib olish bilan belgilanadi. Demak, tilshunoslikda „nutq madaniyati“ termini, asosan, ikki xil ma’noda qo‘llanishi quyidagi slayd orqali tushuntiriladi:

Nutq madaniyati

Tildan maqsadga va nutqiy vaziyatga mos foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtira bilishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jamidir.	Tilshunoslikning tildan maqsadli, nutq vaziyatiga muvofiq foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirishni ilmiy o‘rganish va o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi hisoblanadi.

Darslikda berilgan mashq va topshiriqlar shartiga ko‘ra bajariladi, o‘quvchilar har bir mashqdagi misollarda ifodalangan fikrlarga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradilar. Jumladan, **7-mashq**da Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov olg‘a surgan g‘oyaga diqqat qilinadi: *„O‘z fikrini mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin“.*

Sinf ikki guruhga bo‘linib, quyidagi jadval asosida g‘oyani muhokama qiladilar:

Oqlovchilar	Qoralovchilar
Har bir mansabdor shaxs, avvalo, xalq manfaatini himoya qilishi shart. Xalqning tilini bilmay turib, uning qalbini, dardini tushuna olmaydi. Rahbar ona tilida ravon va ta'sirchan so'zlay olishi kerak.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bizning yurtimizda hech bir til kamsitilmaydi. Shuning uchun oddiy xodim bo'ladimi yoki rahbar bo'ladimi, istagan tilida gapirishi mumkin.

8-mashqda til odobi haqida maqollar berilgan bo'lib, o'quvchilar ularda ifodalangan fikrlarni bayon qiladilar (*gapirish*). O'zlari ham shunday mazmundagi maqollarni topib yozadilar (*yozish*).

Namuna:

1. Yomon so'z bo'lmasa,
   Yaxshi so'z bo'lmaydi.

2. Yomon so'zlab sovutma,
   Jon og'ritib ovutma.

3. Yaxshi so'z kuldirar,
   Yomon so'z o'ldirar.

4. Yaxshi so'z suyuntirar,
   Yomon so'z kuyintirar.

5. Yaxshi so'z to'rga eltar,
   Yomon so'z – go'rga.

6. Yaxshi so'z – yurak yog'i,
   Yomon so'z – yurak dog'i.

7. Yaxshi so'z – tanga malham,
   Yomon so'z – yurakka g'am.

8. Yaxshi so'z qand yedirar,
   Yomon so'z pand yedirar.

9. Yaxshi so'zdan – vafo,
   Yomon so'zdan – vabo.

10. Yaxshi so'zdan moy eriydi,
    Yomon so'zdan soy quriydi.

9-mashqqa asosan nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida „Zanjir" usulida yozma matn tuziladi: har bir o'quvchi bittadan gap yozadi va barcha gaplar birlashtirilib, yaxlit matn hosil qilinadi (*gapirish va yozish*).

Matn namunasi:

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni o'ta muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

So‘zga oshuftalik, nutqning latifligidan, undagi so‘zlarning favqulodda uyg‘unligidan zavqlanish, go‘zal va ta’sirli nutq tuzishga ayricha havas, bunday san’at sohibiga hayrat bilan qarash o‘zbeklarning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga mos libos kiydira bilish, so‘z bilan tinglovchining qulog‘ini emas, balki qalbini ham zabt etish Sharqda, xususan, o‘zbeklarda tarbiyalanganlikning, ziyolilikning yetakchi belgilaridan hisoblangan. Shuning uchun ham bizning ming yillik madaniyatimiz va ma’naviyatimiz tarixida notiqlik san’ati, voizlik san’ati, nutq odobi o‘zining teran ildizlariga ega.

10-mashq. Matnni o‘qing. Madaniyatlilik va nutq madaniyati o‘rtasidagi aloqadorlik haqida o‘rtoqlaringiz bilan bahslashing (*o‘qish, gapirish, yozish*).

O‘quvchilar ushbu mashqni bajarish jarayonida quyidagi jadvalni to‘ldirishlari tavsiya qilinadi:

Madaniyatli inson deb kimni aytish mumkin?	**Madaniyatsiz odamni qanday ta’riflaysiz?**

11-mashqdagi Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan olingan matn eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Undagi fikrlarga har bir o‘quvchi qisqa satrlarda (tezis shaklida) yozma munosabat bildiradi (*yozish*).

LUG‘AT ISHI

Jon kuydirmoq – ruhan kuchli, bezovtalangan holda, g‘amxo‘r bo‘lmoq. *Misol*: Bugun hammamiz jon kuydirib ishladik.

Yuziga oyoq qo‘ymoq – behurmat qilish darajasida hisoblashmaslik.

Varianti: yuziga oyoq bosmoq; yuziga oyoq tiramoq. *Misol*: Akasining shuncha qilgan yaxshiligiga qaramay, baribir yuziga oyoq qo‘yibdi-da.

„Tinglay olasizmi?“ metodidan foydalanib, nutq bilan bog‘liq psixologik daqiqalar o‘tkaziladi. Savollar asosida har bir o‘quvchining nutqiy madaniyatiga baho beriladi.

1. Mavzu yoki suhbatdoshingiz sizni qiziqtirmasa, suhbatni tezda tugatishga harakat qilasizmi?

2. Suhbatdoshingizning juz’iy kamchiliklari sizni bezovta qiladimi?

3. Noto‘g‘ri tushuntirish sizni g‘azablantirishi mumkinmi?

4. Siz notanish odamlar bilan gaplashishdan qochasizmi?

5. Siz suhbatdoshingizni to‘xtata olasizmi?

6. O‘zingizni siz bilan gaplashayotgan odamni tinglayotgandek ko‘rsatasizmi?

7. Agar suhbatdoshingiz siz uchun yoqimsiz mavzuni boshlasa, suhbatning yo‘nalishini o‘zgartirasizmi?

8. Agar suhbatdoshingizda ayrim so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuzi bo‘lsa, uning nutqini to‘g‘rilaysizmi?

9. Suhbatdoshingiz bilan takabburona ohangda gaplashishingiz mumkinmi?

10. O‘zingizni ravon va ta’sirchan nutq sohibi deb hisoblaysizmi?

12-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

MADANIY NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY SIFATLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar haqida ma’lumot berish; ma’naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun madaniy nutq inson faoliyatida muhim omillardan sanalishi haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni muomala madaniyatiga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning matn bilan mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmay, ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchiga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday ta’sir quvvatiga ega bo‘lishi uchun, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlar mavjud bo‘lishi kerak. Nutqning madaniyligini ta’minlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha bo‘lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Nutqning to‘g‘riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning jo‘yaliligi.
5. Nutqning sofligi.
6. Nutqning boyligi.

Ana shu sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog‘liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya’ni nutqda to‘g‘rilik sifatining mavjud-

ligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.

Topshiriq. Atoqli tilshunos Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan parcha o‘qiladi. Nutq rang-barangligining tinglovchiga ta’siri haqida fikrlashiladi, topshiriq orqali *o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Topshiriq. Sayfi Saroyining berilgan baytidagi so‘zning o‘rnini bilish haqidagi fikriga munosabat bildiriladi:

Oqil o‘z so‘zin o‘rnida so‘zlagay
Ham javobini munosib ko‘zlagay.

(Oqil odam so‘zni o‘z o‘rnida aytadi va javobini ham oldindan ko‘ra biladi. Bu o‘rinda so‘zlovchining dili va tili bir bo‘lishi, aytgan so‘ziga amal qilishi zarurligi, so‘zi boshqa-yu ishi boshqa bo‘lgan kishi nutqining qadri bo‘lmasligi nazarda tutiladi, ya’ni o‘tkir aql sohibining shaxsiyati masalasiga e’tibor qaratiladi)

Sinf uch guruhga bo‘linadi. 1-guruh **13-mashq**, 2-guruh **14-mashq**, 3-guruh **15-mashq**da berilgan matn ustida ish olib boradi. Har bir matn tahlilida asosiy tushunchalar ajratib olinadi va muallif keltirgan misollar orqali mazkur fikrlarga munosabat bildiriladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi		Misol
Ipidan ignasigacha	butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil	**Varianti:** ignasidan ipigacha **Ma’nodoshi:** miridan sirigacha; qilidan quyrug‘igacha **O‘xshashi:** boshdan oyoq	*1. Qiziquvchan odam hamma narsani ipidan ignasigacha bilishni istaydi.* *2. Boy savdoni miridan sirigacha suv qilib ichvorgan.*
Istarasi issiq	xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador	**Varianti:** yulduzi issiq; sitorasi issiq **Zidi:** so‘xtasi sovuq	*1. Biram istarasi issiq ayol ekan-a?* *2. Hov so‘xtasi sovuq, savdoni halol qil.*

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

Qo‘shimcha ma’lumot:

Telefonda gaplashish uchun bir nechta muhim qoidalar:

- suhbatni salom bilan boshlang;
- raqamga ishonchingiz komil bo‘lmasa, xotiradan raqam termang;
- zarurat bo‘lmasa, bemahalda qo‘ng‘iroq qilmang;
- agar muloqot paytida telefon tasodifan uzilib qolsa, qo‘ng‘iroq qilgan odam qayta bog‘lanishga urinib ko‘radi;
- shaxsiy suhbatlar boshqalar oldida noqulay. Shuning uchun shaxsiy masala bo‘yicha murojaat qilib, avval suhbatlashish imkoniyati bor yoki yo‘qligini so‘rang;
- shaxsiy masala yuzasidan ishda yoki o‘qishda bo‘lgan odamga keraksiz ravishda qo‘ng‘iroq qilmang;
- ish vaqtida telefonda suhbatni qisqa qiling, suhbat 3–5 daqiqadan oshmasligi lozim;
- agar qo‘ng‘iroq qilayotgan shaxs raqam terayotganda adashgan bo‘lsa, unga muloyimlik bilan javob bering.

16-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

NUTQNING TO‘G‘RILIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyati haqidagi ta’limotning markaziy masalasi ekanligi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga estetik tarbiya berish; fikrlash orqali nozik ma’nolarni anglab yetishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar tafakkuri va nutqini o‘stirish; nutqning to‘g‘ri, aniq, mantiqiy bo‘lishiga erishish.

Adabiy me’yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg‘un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an’anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida quyidagi me’yorlar farqlanadi:

1) leksik (so‘z qo‘llash) me’yorlar;
2) talaffuz me’yorlari;
3) so‘z yasalishi me’yorlari;
4) morfologik me’yorlar;
5) sintaktik me’yorlar;
6) uslubiy me’yorlar.

To‘g‘rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me’yorlariga to‘la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me’yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘lmaydi. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish

mumkin emas. Ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, nutqni to‘g‘ri tuzishga erishish, har bir til birligini o‘rniga qo‘yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biri sanaladi.

Aytish joizki, nutqning to‘g‘riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo‘lib, maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarda aynan to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ba’zan badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me’yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylik uchun xizmat qiladi.

Topshiriqda berilgan gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi grammatik shakllarning adabiy til me’yorlariga qay darajada muvofiq qo‘llanganligi haqida fikr yuritiladi (*o‘qish va gapirish*).

Yaxshisi, chopqillab chiqqin-da, kesak otib, boyqushni **uchirtirib yubor**. – Yaxshisi, chopqillab chiqqin-da, kesak otib, boyqushni **uchirib yubor**.

Yechim: bu gapda yetakchi fe’l tarkibida *-tir* orttirma nisbat shakli ortiqcha qo‘llangani sababli ega va kesim shaxs-sonda o‘zaro moslashmay qolgan. Mazkur qo‘shimcha olib tashlanishi joiz.

Ko‘l yoqasidan o‘tgan zaxkashning muzdek salqin zaxob **suviga** qiy-chuvlashib **cho‘milishamiz**. – Ko‘l yoqasidan o‘tgan zaxkashning muzdek salqin zaxob **suvida** qiy-chuvlashib **cho‘milamiz.**

Yechim: gapda *suviga* so‘zi sheva tarzida qo‘llanib, o‘rin-payt kelishigi shakli o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ishlatilgan; *cho‘milishamiz* fe’li birgalik nisbat emas, balki aniq nisbat shaklida qo‘llanishi zarur. Shunda ega va kesim shaxs-sonda moslashadi: *biz cho‘milamiz*.

17-mashqdagi parchada badiiy maqsad bilan so‘z yasalishi me’yorlaridan chekinish holati izohlanadi.

Yechim: Abdulla Qodiriy „O‘tkan kunlar“ romanida **qorong‘uzor** shaklida so‘z yasagan. Aslida *-zor* qo‘shimchasi aniq otlardan o‘rin-joy otlarini yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi. *Qorong‘u* so‘zi esa belgi bildiruvchi sifat so‘z turkumi sanaladi. Keltirilgan parchadagi go‘zal va nafis tasvirdagi *ko‘ngil mevasi, qora voqea, kecha rangi, bundagi daraxtlar, o‘z mevalari, qorong‘ulikning quchog‘i, mevazorning ichkarisi* kabi birikmalar bilan *qorong‘uzor* so‘zi uyg‘unlik hosil qilgan va Otabek qalbida qorong‘ulikning yaxlit tasviri jonlangan. *Qorong‘uzor* so‘zi yasalishida adabiy til me’yorlaridan chekinish holati kuzatilib, badiiy-estetik maqsad bilan ruhiyat tasvirini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

18-mashq asosida *o‘qish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Matn ko‘chiriladi. *Otlanmoq* so‘zi bilan bog‘liq holda leksik me’yor turg‘unligi izohlanadi.

O‘tmishda: *yo‘lga otlandi – yo‘lga ot minib chiqdi*.

Bugun: *yo‘lga otlandi – yo‘lga mashina minib chiqdi.*

19-mashq yuzasidan muhokama uyushtiriladi. ***Fuqaro*** so‘zining tilimizda me’yorlashgani haqida fikrlashiladi.

Yechim:

Arab tilida	*Faqir* so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, „yo‘qsil“, „kambag‘al“, „muhtoj“, „bechora“ ma’nolarini bildiradi.
O‘zbek tilida	1. Bu so‘z „tabaa, raiyat, shuningdek, grajdanlik“ ma’nosini kasb etgan. 2. *Men* so‘zi odob yuzasidan *fuqaro, faqir-u haqir* deb qo‘llangan.

20-mashqni bajarish tartibi:

- she’riy parcha audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*);
- undagi g‘ayrioddiy birikmalar aniqlanadi va adabiy me’yordan chekinish yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*);
- daftarga birikma tarzida yoziladi (*yozish*).

Yechim: *tovushlarning kichigi, tovushlarning ulug‘i, tovushlarning hidi, tovushlarning bo‘yi, tovushlarning sovug‘i, tovushlarning ilig‘i, tovushlarning rangi-ro‘yi, tovushlarning shirin-achchig‘i, tovushlarning yumshog‘i, tovushlarning qattig‘i.*

Shoir *tovushlarning* so‘zini takror qo‘llab, badiiylik hosil qilgan. Tushuncha ifodasi uchun g‘ayrioddiy birikmalar yaratgan.

LUG‘AT ISHI

Ich-etini yemoq – ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikr-o‘yini boshqalarga aytmay).

Varianti: ichini yemoq; etini yemoq.

Ma’nodoshi: o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq.

O‘*xshashi*: ichini kemirmoq; o‘zini o‘zi yeb qo‘ymoq.

Kayfiyati buzuq – kayfiyati yomon, xafa.

Ma’nodoshi: ta’bi xira; ta’bi tirriq.

O‘*xshashi*: avzoyi buzuq.

Mustaqil ish. She’rni tinglang (o‘qing). Unda ifodalangan g‘oyani aniqlab, mavzuga aloqador jihatini izohlab bering. Me’yordan tashqari so‘zlarni yozing (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Har so‘zida „bu“, „anu“,
„Haligi“, „so‘ng“, „qanaqa“,
„Bu-bu“ deydi – nima bu,
„Shunaqa“si – qanaqa?
Tiliga kelib qolgan
So‘zdan qayta olmasa,
„Bu“ qo‘shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.
O‘zingiz o‘ylab ko‘ring,
Nima bu, qanaqasi?
Qachon qolar O‘tkirning
„Nima“, „bu“, „anaqa“si?
To‘g‘ri, aniq gap tuzib,
Javob bergin so‘roqqa,
Xizmat qilsin har so‘zing
Fikringni to‘latmoqqa.
Mazmun nomli mo‘ljalga
So‘z otilgan o‘q bo‘lsin.
Nishonga tegmay qolgan
Bitta o‘q ham yo‘q bo‘lsin. *(E. Vohidov. „Nutq“)*

Darslikdagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi.

22-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

1. Gulsara tim qora tuflisini do‘qillatib xonamga kirdi. – E, qaldirg‘ochmi u? Yaxshi odamlarning uyiga in qo‘yadi, deyishadi... **Kampliment** emas, Quvvatjon... Singlim**mi** uyida **den rojdeniya**da edik. Uning eri **shishka**lardan. Sudya. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Hademay birikkita **sovlig‘im qo‘zilaydi**. **Og‘iz** ich**gali** bemalol tashrif buyurishlaring mumkin. (*Sh. Xolmirzayev*) 3. Akalari izidan **Samarqand** borsa, „Ko‘nglim shuni xohladi, borib aytinglar otamga“, – deb ularni qaytarib yuborgan ekan. (*Erkin A’zam*) 4. Yo‘q**, qorin janoblari to‘qlar, ertalab baliq yegan edik,** faqat choy bo‘lsa kifoya, – dedi u kulib. (*N. Aminov*)

Yechim: berilgan gaplardagi adabiy til me’yorlariga nomuvofiq qo‘llangan, ammo badiiy vazifa bajargan birliklarni topish va izohlash lozim.

1-gapda qo‘llangan *kampliment* (birovga yoqish uchun maqtov aytish, yaxshi gapirish, xushmuomalalik qilish), *den rojdeniya* (tug‘ilgan kun), *shishka* (boy, boyligi ko‘p odam; amaldor) kabi varvar so‘zlar

hamda *singlimmi* dialekt so‘zi badiiy nutq talabi bilan personaj tabiatini ifodalashga xizmat qilgan. 2-gapda *sovlig‘im (urg‘ochi qo‘y) qo‘zilaydi, og‘iz (yangi tug‘gan qo‘yning xom suti)* kabi dialektal birliklar qahramonning hududiy mansubligi (qishloq chorvadori)ga ishora sifatida badiiy nutq talabi bilan ishlatilgan. *Ichgali* so‘zidagi *-gali* qo‘shimchasi ham uslubiy vazifa bajargan. 3-gapda ham *Samarqand* so‘zidagi jo‘nalish kelishigining tushirib qoldirilishi og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos. 4- gapda esa og‘zaki nutq uslubiga xos kinoyaviy, hazil ma’noni ifodalovchi *qorin janoblari to‘qlar*, *ertalab baliq yegan edik* (go‘yo *qorin bilan birga* ma’nosida) birikmalari qo‘llangan.

YOZMA NUTQNING TO‘G‘RILIGI VA ME’YOR

Ta’limiy maqsad: yozma nutqning to‘g‘riligi, adabiy til me’yoriga muvofiqligiga erishish, nutqning to‘g‘riligiga putur yetkazuvchi vositalar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni komillikka, barkamollikka undash orqali ularga axloqiy sifatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida adabiy til me’yorlariga amal qilish malakasini rivojlantirish.

Nutqning to‘g‘riligi uning adabiy til me’yorlariga muvofiq kelishidir. Darslikdagi nazariy ma’lumotda adabiy tilning yozma shaklida to‘g‘rilik sifatining ta’minlanishi uchun ikki me’yorga amal qilish lozimligi uqtirilgan. Bu me’yorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) me’yorlari; 2) tinish belgilari (punktuatsion) me’yorlari. Quyida adabiy til me’yorlari yuzasidan to‘liq ma’lumotlar keltirilgan:

Talaffuz me’yorlari. Unli va undosh talaffuzi, so‘z tarkibidagi qo‘sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili so‘zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo‘shma fe’llar, so‘z birikmalari, morfologik ko‘rsatkichlar, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzlari.

Morfologik me’yorlar. Adabiy til dialekt va shevalardan o‘z morfologik me’yorlariga ko‘ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda so‘zlarning kelishiklarda turlanishi, fe’llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so‘z va so‘z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko‘ramiz.

Sintaktik me’yorlar. Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlari.

Imloviy me'yorlar. Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me'yorlariga tayanadi. Bu me'yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o'z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

Lug'aviy me'yorlar. Har bir xalq tili o'sha millat a'zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo'lgan so'z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo'lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so'zlashuv tili esa adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so'zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha so'zlar adabiy tilda qo'llanilavermaydi.

Imlo me'yorlari mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy an'analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo'llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so'zlar, morfemalar kabi til birliklari bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o'rin tutadi. Bu belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir.

Topshiriq. Berilgan gaplardagi imlo me'yorlariga amal qilinmagan o'rinlarni aniqlang.

1. Fuqarolar yig'inlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda jamoatchilik komissiyalarining o'rni sezilarli **bo'layapti**. 2. „Barakalla, ota o'g'il, bopladingiz!" O'g'li Hasanboyni bag'riga mahkam bosib, shunday deyishni diliga **tukkan** Ma'rufjon Hayitboyevni suhbatga tortamiz. (*Gazetadan*)

Yechim: 1-gap kesimi xato yozilgan. **-yap** shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-ayap** holida talaffuz qilinsa ham, **-yap** yoziladi: **bo'lyapti.** Ikkinchi gapdagi ***-gan*** o'tgan zamon sifatdoshi **k, q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilgandagina talaffuzda va imloda **-kan, -qan** shakliga aylanadi, lekin **tugmoq** so'zining asosi **tug** so'zi bo'lgani uchun **tuggan** tarzida yoziladi.

23-mashqni bajarish tartibi:

1. Gaplar bilan tanishiladi (*o‘qish*).

2. Gaplardagi bugungi adabiy me’yorlarga zid holda qo‘llangan so‘zlar aniqlanadi (*gapirish*).

3. Ular muvofiq muqobili bilan almashtirib yoziladi (*yozish*).

Yechim:

T.r.	Gapda berilgan birlik	Muqobili
1	Ilmgoh	ilm maskani, oliygoh, institut, universitet, oliy o‘quv dargohi
2	Bilimgoh	
3	Nomini tutib	nomini aytib
4	Nohiya ro‘znomasi	tuman gazetasi
5	Ro‘znomasi**da**	gazetasi**ga**
6	Jarida	jurnal, to‘plam

24-mashq. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qilinib, ular ifodalayotgan ohang va mazmuni izohlanadi.

Yechim:

1-gap. Gapning birinchi qismida so‘roq ma’nosi ifodalangan: *Bozorqul aka, nima bo‘ldi?* Keyingi gapdagi ko‘p nuqta so‘zlovchining nutq vaziyatidagi ruhiy holatini ochiq ko‘rsatish maqsadida qo‘llangan.

2-gap. *Bezgak* so‘zi takror qo‘llanib, kuchli hayajonni ifodalash uchun undov belgisi qo‘yilgan.

3-gap. *Yubilyar* so‘zi kinoya ma’nosini bergani uchun qo‘shtirnoq ichiga olingan. So‘zlovchi do‘q-po‘pisasini kuchaytirish hamda kuchli hayajonini sezdirish maqsadida undov *(o‘v student!)* va qo‘shaloq belgi *(bas qilasanmi, yo‘qmi?!)* qo‘llangan.

4-gap. Bu gapdagi undalmalar (*Dezdemona-a, Otello*) kuchli ohang bilan, *Qani mening ro‘molcham?!* jumlasida ham so‘roq, ham do‘q ma’nosi hayajon aralash berilyapti.

25-mashqni bajarishda tinish belgilari ustida ishlanadi.

Yechim:

T.r.	Berilgan gap	Tahrirlangan gap	Izoh
1	Chol salmoqlab gap boshladi: – E, xotin, o‘lmaydigan odam bormi? (*Said Ahmad*)	Chol salmoqlab gap boshladi: – E xotin, o‘lmaydigan odam bormi? (*Said Ahmad*)	Undov va undalma orasida vergul ishlatilmaydi.

2	Orif aka saratonning jazirama, kunlaridan birida, Ergashga bergan va'dasiga muvofiq, bog'lardan xabar olgani Ko'ykiga chiqib ketdi. (*Asqad Muxtor)*	Orif aka saratonning jazirama kunlaridan birida, Ergashga bergan va'dasiga muvofiq, bog'lardan xabar olgani Ko'ykiga chiqib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	*Jazirama* so'zi sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarib, uyushmagani uchun undan keyin vergul qo'yilmaydi.
3	O'zingiz xabar bermaysizmi ishqilib? – Matkarimov xezlanib o'rnidan turib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	O'zingiz xabar bermaysizmi, ishqilib? – Matkarimov xezlanib o'rnidan turib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	*Ishqilib* kirish so'zi gap oxirida kelgan va vergul bilan ajratiladi.
4	Kimingiz bo'ladi, bu xotin? – deb so'radi dabdurustdan.	Kimingiz bo'ladi bu xotin? – deb so'radi dabdurustdan.	Gap bo'laklari inversiyaga uchragan, ega va kesim orasidagi vergul kerak emas.
5	Yigitdan tayinli javob ololmasligini bilsa ham yana so'radi: – Kim telefon qilgandi? – Bilmadim, mehmon kelibdi shekilli... (*Tohir Malik)*	Yigitdan tayinli javob ololmasligini bilsa ham, yana so'radi: – Kim telefon qilgandi? – Bilmadim, mehmon kelibdi, shekilli... (*Tohir Malik)*	**-sa** shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita sifatida xizmat qilgani sababli *bilsa ham* birikmasidan keyin hamda *shekilli* kirish so'zidan oldin vergul qo'yiladi.

26-mashqda berilgan gaplar tarixiy asarlardan olingani sababli leksik, morfologik va sintaktik vositalar ham tarixiylikni kasb etgan. Mazkur gaplar hozirgi uslubiy me'yorlarga mos ravishda qayta tuziladi va farqli jihatlari izohlanadi (*o'qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

T.r.	Tarixiy mazmundagi gap	Qayta tuzilgan shakli
1.	Sohibqiron hayratda anchagacha so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash'oridin aytsin.	Sohibqiron hayratda anchagacha so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – u siznikidir, biz olmaymiz… Ammo bizga she'rlaridan aytsin.

2	Aytmaydur,– deyishdi chollar. – Qo‘rg‘onimiz atrofida yer quchib nigun bo‘lgan yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh aning dilig‘a hikmat kalomini solmag‘ay...	Aytmaydi, – deyishdi chollar. – Qo‘rg‘onimiz atrofida yer quchib teskari yotgan (halok bo‘lgan) yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh uning diliga hikmat so‘zini solmaydi...
3	Norasidani ko‘rdingmu? – dedilar Sohibqiron bosh ko‘tarmay.	Yosh bolani (*norasida – voyaga yetmagan*) ko‘rdingmi? – dedilar Sohibqiron bosh ko‘tarmay.
4	Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehriyat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig‘ chirmagan dunyo ishlaridin sal chalg‘itishga urunamen.	Ular dunyo ishlari bilan juda band. Men ularga ilohiy joziba (*mo‘jizalar*) borligini eslatib, dillarini tikanak sim kabi chirmagan dunyo ishlaridan sal chalg‘itishga urinaman.
5	Dayrda ko‘p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo‘lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri biladur.	Dunyoda ko‘p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har nima bo‘lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri bilandir.

27-mashq. Yozma nutqning to‘g‘riligiga ta’sir etayotgan o‘rinlarga diqqat qilinadi, paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolar to‘g‘rilab yoziladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

1. It beparvo, **yondosh** ketyapti, goho uchgan qushlar ovoziga diqqat qilib, shalpang quloqlarini dikkaytiradi, hamrohlariga ma’nodor qaraydi, so‘ng yana lo‘killab yo‘lida davom etadi. (*Sh. Xolmirzayev*)

2. Hammasi tinch, salom deb yuborishdi… – dedi Rahim Saidov masalaga qanday **yondashishni** o‘ylar ekan. (*O‘. Umarbekov*)

3. Mahallada k atta tayyorgarlik bilan **o‘tkazilgan** tadbirda keksa-yu yosh faol ishtirok etdi. (*Gazetadan*)

4. Bahor kelishi bilan bog‘larda ko‘chat **o‘tqazish** ishlari avj oldi. (*Gazetadan*)

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misol
Ko‘z ilg‘amas I	bilinar-bilinmas, mayda	*Ko‘z ilg‘amas zarralar mikroskop ostida yaxshi ko‘rinadi.*
Ko‘z ilg‘amas II	cheksiz, poyoni (oxiri) ko‘rinmaydigan	*Osmonga qara, ko‘z ilg‘amas kenglikni tasavvur qila olasanmi?*

Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlab, mavzu umumlashtiriladi va xulosa qilinadi. **28-mashq** uyga vazifa qilib beriladi.

MUSTAHKAMLASH

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning nutq madaniyati, madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar, yozma nutqning to'g'riligi va me'yor mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda estetik did va axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda o'zaro muloqot davomida ichki his-tuyg'ularni nutq vaziyatiga qarab ifoda eta olish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsni quyidagi kichik she'riy parcha bilan boshlash tavsiya etiladi:

So'zing xatoli bo'lmasin,
Kibr-u havoli bo'lmasin,
Elga maloli bo'lmasin,
Nutqing ravon bo'lsin, bolam. (*Iqbol Nazarov*)

Topshiriq. She'rga munosabatingizni tezis shaklida yozma ifodalang va izohlab bering. Ushbu jarayonda *tinglab tushunish, yozish, o'qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Darslikdagi savol va topshiriqlarga javob berish bo'yicha „Zina-ma-zina" musobaqasi o'tkaziladi. Beshtadan o'quvchi yozuv taxtasi oldiga chiqarilib, bir safga tiziladi. O'qituvchi ketma-ket o'tilgan mavzular yuzasidan savollar beradi. To'g'ri javob bergan o'quvchi bir qadam oldinga, noto'g'ri javob bergan o'quvchi esa bir qadam ortga yuradi. Marraga hammadan oldin yetib kelgan o'quvchilar g'olib deb topiladi.

1-topshiriq slaydda o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi.

Yechim: ushbu matnni bir marta o'qiganda idrok qilish biroz qiyin kechadi. Ikkinchi bor o'qish orqali fikrni uqish mumkin. Abdulla Qahhordek so'z ustasining asl maqsadi ana shu qayta o'qish orqali anglashiladi. Matn nutq madaniyligini ta'minlayotgan kommunikativ sifatlarga mos keladi.

2-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Alibek Rustamovning „So'z xususida so'z" asaridan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi (*o'qish*). 2. O'zbek tilida sinonimlarning ma'no nozikliklari berilgan misollar yordamida izohlanadi (*gapirish*). 3. Ma'nodoshlar klaster tarzida daftarga tushiriladi (*yozish*).

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. Darslikdagi topshiriqlar guruhlarga taqsimlanadi.

3-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qiladi (*o‘qish*).

2. Unda nutq madaniyligini ta’minlovchi qaysi sifatlar buzilganligi aytilayotgani yuzasidan o‘quvchilar o‘z xulosalarini tezis shaklida yozadilar va taqdimot qiladilar (*yozish, gapirish*).

Yechim: matnda nutqning to‘g‘riligi, aniqligi va mantiqiyligi sifatlarining buzilishi haqida so‘z bormoqda. Muallif tarjimashunoslikda badiiy asarlarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi natijasida yuzaga keladigan g‘aliz tushunchalar xususida bong urib, bunday „so‘zma-so‘z ko‘chirish“ („kopirovka“) usulining salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida ogohlantirgan.

4-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Berilgan parcha o‘qiladi (*o‘qish*).

2. Atoqli adib Odil Yoqubovning o‘zbek tili boyligi haqidagi fikrlari yuzasidan o‘quvchilar fikrlarini tezis sifatida yozadilar va taqdimot qiladilar (*yozish, gapirish*).

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti	O‘xshashi	Misollar
Ko‘ngliga qo‘l solmoq	eng yashirin fikr-o‘yini bilishga harakat qilmoq	yuragiga qo‘l solmoq	qo‘yniga qo‘l solmoq	*Qizingning ko‘ngliga qo‘l solib ko‘r-chi, nima dardi bor ekan?*
Ko‘nglida kiri yo‘q	kek saqlamaydigan, g‘arazi yo‘q	yuragida kiri yo‘q	ko‘ngli toza	*Bu odamni yaxshi taniyman: ko‘nglida kiri yo‘q, yuragi toza.*

5-topshiriq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING ANIQLIGI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga nutqning aniqligi, nutqda ko‘p ma’noli, ma’nodosh, shakldosh va paronim so‘zlarni o‘rinli qo‘llash zarurligi haqida bilim berish hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to‘g‘rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili, zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo‘lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo‘lgan materiali o‘rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

a) sinonimlardan o‘rinli foydalanish;

b) antonimlardan to‘g‘ri foydalanish;

c) ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘rinli qo‘llash;

d) so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash;

e) iboralarni to‘g‘ri qo‘llash.

Nutq oldiga u aniq bo‘lishi kerak, deb talab qo‘yilganda til birligi hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi muvofiqlik tushuniladi. Masalaga shu talablardan kelib chiqib yondashiladigan bo‘lsa, nutq aniqligi nutq madaniyati va mas’uliyatining g‘oyat zarur sharti bo‘lib qoladi. Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma’nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir. Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan quyidagilarni o‘rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash;

b) nutqda ishlatiladigan so‘zning otlashgan ma’nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo‘llashlardan qochish;

c) so‘zning ko‘p ma’noliligiga jiddiy e’tibor berish, ko‘p ma’noli so‘z nutqda qo‘llanganda o‘zining qaysi ma’noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so‘zning boshqa ma’no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko‘z oldiga keltirish; omonimlarning xususiyatlarini adabiy me’yoriy ifodalar bilan yetkazish.

Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so‘z ma’nolarini yetarli anglash, nutq mazmuniga e’tibor bilan qarash aniq nutq tuzish malakasining shakllanishi uchun imkon beradi. So‘z ma’nosi, uning nozikliklarini yaxshi o‘zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo‘lmaydi. Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma’nodosh, ko‘p ma’noli so‘zlar, paronimlar, so‘zlarning uslubiy bo‘yog‘i kabilardagi ma’no o‘ziga xosliklarini yaxshi tasavvur qilmoq zarur.

1-topshiriq. *Surat – sur'at, toblanmoq – tovlanmoq, azm – azim, asr – asir* juftliklaridagi so‘zlarning ma'nolariga izoh bering.

„O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ yordamida ushbu paronim juftliklarning lug‘aviy ma'nosini aniqlaymiz:

1) *surat* – qo‘lda chizilgan rasm, tasvir yoki fotosurat; *sur'at* – ish-harakat, voqea-hodisaning jadallik darajasi;

2) *toblanmoq* – taftida, alangasida isitmoq, qizdirmoq; *tovlanmoq* – rang-barang tuslanmoq, jilvalanmoq;

3) *azm* – qat'iy qaror, jazm; *azim* – g‘oyat katta, ulkan, zo‘r;

4) *asr* – yuz yillik davr; *asir* – ozodlikdan mahrum etilgan kishi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarda qaysi so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetganligini aniqlang.

1. Korxonaga yangi zamonaviy **texnologiya** o‘rnatildi.
2. Korxonaga yangi zamonaviy **texnika** joriy etildi.

Yechim: ushbu gaplarda qo‘llangan *texnologiya* va *texnika* so‘zlarining lug‘aviy ma'nosini „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ yordamida aniqlashga harakat qilamiz.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayoni, usul va vositalari haqidagi bilimlar majmuyi.

Texnika – ishlab chiqarishda qo‘llanadigan mexanizm, moslama kabi mehnat qurollari.

Bu so‘zlar qo‘llanishi va ma'no ifodalashiga ko‘ra gaplar juftligida almashib qolgan. 1-gapda „**texnika**“ so‘zini, 2-gapda **„texnologiya“** so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Korxonaga yangi zamonaviy **texnika** o‘rnatildi.
2. Korxonaga yangi zamonaviy **texnologiya** joriy etildi.

29-mashq orqali *tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi. **Tavsif** va **tasvir** so‘zlarining ma'nolari, ulardagi farqli jihatlar va qo‘llanish o‘rinlari quyida berilgan jadval asosida izohlanadi hamda daftarga qayd etiladi.

Tushuncha nomi	Izohi	Xususiyati	Misol
Tavsif	Bir narsa sifatlarining og‘zaki yoki yozma bayoni	Tavsifdan kishida tushuncha hosil bo‘ladi	*Bir mashinaning tuzilishi va ishini bayon qilish*

Tasvir	Bir narsaning surati, shakli, rasmi	Tasvirdan tasavvur vujudga keladi	*Shu mashinaning rasmi yoki tuzilish chizmasi*

30-mashq ham shu tartibda bajariladi. Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan **chopmoq** va **yugurmoq** ma’nodosh so‘zlarining tavsifi bilan tanishiladi, ulardagi o‘ziga xosliklarga diqqat qilinadi.

<table>
<tr><th>Tushuncha nomi</th><th>Tub ma’nosi</th><th>Umumiy tomoni</th><th>Farqli tomoni</th></tr>
<tr><td rowspan="2">Chopmoq va yugurmoq</td><td rowspan="2">*chopmoq* – „qo‘lni biror qurol bilan yoki qurolsiz ko‘tarib urib, biror ishni amalga oshirmoq“</td><td>harakatning tezlashishi, ildam yurish</td><td>*chopmoq* qo‘lga aloqador, *yugurmoq* – oyoqqa.</td></tr>
<tr><td colspan="2">*Yer chopmoq* deganda „ketmonni ko‘tarib yerga urish“, *qilich chopmoq* deganda „qilichni ko‘tarib urish“, *go‘sht chopmoq* deganda „boltani ko‘tarib urish“, *ot chopmoq* deganda „qamchini ko‘tarib urish“ nazarda tutilgan.</td></tr>
</table>

31-mashq. Gaplarni o‘qing. **Saboq** va **dars** so‘zlari ma’nolaridagi farqni izohlashga harakat qiling, shu asosda yozma matn tuzing (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: tilimizda *dars, saboq* so‘zlarida ma’nodoshlik bor, ammo ularning qo‘llanishi farqli. *Saboq* so‘zi eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lib, u tarixiy mavzudagi matnlarda ko‘proq qo‘llanishi mumkin, bu so‘zning hozirgi tildagi *„ibrat“, „namuna“* shakli ko‘chma ma’noda faol ishlatiladi: *tarix saboqlari, turmush saboqlari* kabi.

Saboq ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, o‘qish-o‘rganishning ma’lum mavzuga bag‘ishlangan, belgili vaqt davom etadigan bo‘lagi; ko‘chma ma’noda *ibrat*, *namuna* degan ma’nolarni ham ifodalaydi.

Dars so‘zi ham ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, o‘quv yurtlarida ilm, ma’lumot olish yoki berish maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulot; ko‘chma ma’noda *tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat* degan ma’nolarni ifodalaydi.

32-mashqni bajarish tartibi: 1. Matn o‘qiladi (*o‘qish*).

2. *Muhabbat* tushunchasini ifodalaydigan so‘zlar ro‘yxati tuziladi (*yozish*).

3. Bu so‘zlarning rango-rangligiga diqqat qilinadi va ma’no nozikliklarini namoyon qiluvchi gaplar tuziladi (*gapirish*).

MUHABBAT. *Yoqtirib qolmoq, ko‘ngil bermoq, moyil bo‘lmoq, xushtor bo‘lmoq, oshufta bo‘lmoq, dil bermoq, bedil bo‘lmoq, mubtalo bo‘lmoq, maftun bo‘lmoq, mahbub bo‘lmoq, oshiq bo‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq, ishqi tushmoq, ishqi foniy, ishqi boqiy, sevgi, mehr.*

ISHQ. Vatanga moyil bo‘lmoq, Vatanni sevmoq, ota-ona mehri, farzandning ota-onani yaxshi ko‘rishi, farzand mehri.

Farqlang: yoqtirib qolmoq – ko‘ngil bermoq, ko‘ngil bermoq – oshiq bo‘lmoq, oshiq bo‘lmoq – sevmoq, sevmoq – muhabbat, muhabbat – yaxshi ko‘rmoq, yaxshi ko‘rmoq – mehr.

33-mashq. Ma’nodosh va paronim so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetgan o‘rinlar aniqlanadi.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz **mujda** yuborish shunchalar mushkul edimi? (*Murod Mansur*) – Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz **xabar** yuborish shunchalar mushkul edimi?

Izoh: mujda – *xushxabar, quvonchli xabar* degan ma’noni ifodalagani uchun bu o‘rinda uning ma’nodoshi bo‘lgan **xabar** so‘zini ishlatgan ma’qul.

2. Boshqa shaxsning **kechirmalarini** tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (*M. Nasibullin*) – Boshqa shaxsning **kechinmalarini** tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi.

Izoh: kechirmalar – avvalo, bu so‘z fe’lning bo‘lishsiz shakli bo‘lib, turlana olmasligini eslatamiz va bu gapda nutq aniqligiga putur yetmaslik maqsadida kishining ruhiy holatiga ta’sir qiladigan his-tuyg‘ular ma’nosini ifodalagan **kechinmalar** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

3. Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, **yoqilg‘i** kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (*Sh. Boshbekov*) – Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, **yonilg‘i** kerak emas – batareyalardan oziqlanadi.

Izoh: yoqilg‘i – issiqlik energiyasi olish uchun yoqiladigan ashyo bo‘lgani uchun bu o‘rinda uning paronimi bo‘lgan *yonadigan suyuq modda* ma’nosini ifodalagan **yonilg‘i** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

4. Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka **o‘tqazib** qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman. (*Said Ahmad*) – Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka **o‘tkazib** qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman.

Izoh: **o‘tqazib** – *ekmoq* yoki *kimsaning o‘tirishi uchun joy bermoq* ma’nolarini anglatgan bu so‘z o‘rniga uning paronimi bo‘lgan *joyini o‘zgartirmoq, ko‘chmoq* ma’nolarini ifodalagan **o‘tkazmoq** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

5. Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z **qobiqlarini** ochdi. (*M. Nasibullin*) – Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z **qovoqlarini** ochdi.

Izoh: **qobiq** so‘zi *po‘st, ustki qatlam* ma’nolarini anglatgani uchun ushbu gapda *ko‘z kosasini qoplovchi, ochilib-yopilib turadigan teri* ma’nolarini ifodalagan **qovoq (qoboq)** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misol
Yetti uxlab tushiga kirmaslik	mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik	*Shu odamnikiga to‘yga borish yetti uxlab tushimga kirmagandi.*
Yetti uxlab tushida ko‘rmaslik	hech qachon ko‘rmaslik	*Yetti uxlab tushimda ko‘rmasam, deyman.*
Yuragi tars yorilib ketayozdi	sabr-chidami tugab, xunob bo‘lib ketmoq	*Boshlig‘imiz komissiya daragini eshitib, yuragi tars yorilib ketayozdi.*
Yuragi qoq yorila yozdi	sevinib, juda kuchli hayajonlanmoq	*O‘g‘lining qaytib kelganiga Jannat xolaning yuragi qoq yorila yozdi.*

O‘quvchilar darslikda berilgan savollarga javob beradilar.

34-mashq uyga beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING ANIQLIGI VA BADIIY NUTQ

Ta’limiy maqsad: nutqning aniqligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy ma’naviy boyliklarimizni qadrlash hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matnni lisoniy tahlil qilish asosida so‘zlarning ma’no nozikliklarini, uslubiy bo‘yoqdorligini anglay bilish, badiiy tasvir vositalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutqning aniqligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan savol-javob qilinadi. Yangi mavzuni tushuntirish uchun avval darslikda berilgan **topshiriq**qa diqqat qilinadi. Gaplar o‘qilib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday maqsad bilan nutqqa olib kirilgani izohlanadi.

1. Agar bu sovuq **so‘fi** kirib kelgan bo‘lmasa, ikki yosh qizning qish bo‘yi to‘plangan ko‘ngil g‘ashliklari biroz sho‘xlik bilan ancha yozilgan bo‘lardi.

Izoh: so‘fi – masjidda azon aytuvchi kishi, muazzin.

2. Siz, axir, men bilan **bir shapaloq** yerni talashib, shu to‘g‘rida **nari-beri bo‘lishib,** shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...

Izoh: bir shapaloq yer – *shapaloq* – qo‘lning besh panja va kaftdan iborat qismi, *bir shapaloq yer* birikmasi tarkibida *oz miqdorda, kichikkina* ma’nosini ifodalamoqda; **nari-beri bo‘lishib** – qo‘shma fe’l, *xafalashmoq, arazlashmoq, janjallashmoq* ma’nosida.

3. Uning yuzlari kulgan, tishsiz – **kemtik** og‘zi sevinch bilan ochilgan edi. Akasi o‘z gapini **yedirolmagach** – Qurvonbibi bilan maslahat qilib turib – masalani eshon boboga arz qildi. (Cho‘lpon)

Izoh: kemtik – narsaning uchgan, singan, kertilgan, buzilgan, nuragan joyi, *kemtik og‘zi – tishlari tushgan;* ***gapini yedirolmagach*** *– yemoq, ovqat iste’mol qilmoq, gap yedirmoq* ko‘chma ma’noda *gapini o‘tkaza olmadi, gapiga ko‘ndira olmadi tarzida qo‘llangan*. Ko‘chma ma’no metafora usuli orqali hosil bo‘lgan.

Metafora – ikki narsa, holat o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi orqali yangi ma’no hosil qilish usuli, so‘zlashuv va badiiy nutqda qo‘llanadi. So‘zning ko‘chma ma’nosi faqat kontekstda, ya’ni boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llanganda yuzaga chiqadi.

Xulosa: badiiy matnga ham aniqlik, ham ta’sirchanlik baxsh etish maqsadida ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalanilgan. *Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar, ma’lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik asosiy bo‘lganligi uchun so‘z ma’nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutqning asosiy vazifasi estetik ta’sir etishdan iboratligi uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma’nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so‘zlar o‘z va hatto ko‘chma ma’nolaridan tashqari ham o‘ziga xos yangidan yangi ma’no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta’minlashi mumkin.*

Masalan, *Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi.* (Cho‘lpon, „Kecha va kunduz“) gapidagi *g‘ururning kaltaklanishi* va *kular yuzini no‘qtalamoq* birikmalarida ***kaltaklanishi*** va ***no‘qtalamoq*** so‘zlari kasb etgan ma’no nozikliklari (*„g‘ururni azobli darajada poymol qilish“, „keskin va tamoman to‘xtatmoq“*) bilan matnga ham aniqlik, ham ta’sirchanlik baxsh etgan.

Oddiy nutqda *qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo‘ladi. Qor – yonmaydigan narsa. Ammo *Qalovini topsang, qor yonar* degan maqolda, ya’ni badiiy nutqda fikr obrazli va mubolag‘ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Sinf uch guruhga bo‘linib, 1-guruhga 35-mashq, 2-guruhga 36-mashq, 3-guruhga 37-mashq ustida lisoniy tahlil olib borish topshiriladi. Bu mashqlarni bajarishda „Tushunchalar tahlili“ usulidan foydalanish mumkin.

35-mashqni bajarish tartibi:

1-guruhda matn bilan tanishiladi (*o‘qish va tinglab tushunish*). Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yangi ma’no nozikliklarini kasb etishiga diqqat qilinadi. Ularning o‘rniga ma’nodoshlarini qo‘yib ko‘rib, yuzaga kelgan uslubiy va mazmuniy farqlar izohlanadi (*gapirish*).

Qo‘yish uchun so‘zlar:

chekindi – *orqaga qaytmoq, tugamoq*;

yog‘du yopirildi – ko‘chma ma’noda *ko‘plashib kelib tushmoq, yoyilib tarqalmoq;*

quyosh yurishini – yurmoq – *ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq*;

quyoshning uzoqlashgisi kelmadi – uzoqlashmoq – biror kimsa yoki narsadan nari (uzoq) ketmoq; yiroqlashmoq.

Yechim: bu harakatlar inson yoki hayvonlarga xos bo‘lib, *tun, yog‘du, quyosh*ga nisbatan qo‘llanishida **jonlantirish** usuli orqali yangi ma’no hosil qilingan. Ma’lumki, badiiy nutqda so‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik har doim mos bo‘lavermaydi. Jumladan, mazkur matndagi ajratib ko‘rsatilgan **chekindi, yopirildi**, **yurishini** so‘zlari ham o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga yangi ifoda qo‘shishga xizmat qilmoqda. Jumladan, **chekindi** so‘zi o‘zi ma’nodosh bo‘lgan *ortga tisarilmoq, orqaga ketishga majbur bo‘lmoq* birikmalariga nisbatan obrazli, badiiy nutqqa oid ekanligi hamda tun so‘ziga jonlantirish ifodasini qo‘shishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, matndagi **yopirildi** so‘zi ham o‘zi ma’nodosh bo‘lgan *ko‘plashib, gala bo‘lib*

kelib bosmoq; yoyilib tarqalmoq birikmalariga nisbatan **yog‘du** so‘ziga obrazli ifoda hamda shaxslantirish ma’nosini yuklayotganligi bilan farqlanadi. Quyoshning **yurishi** birikmasida esa **yurish** so‘zi o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga tantanavorlik, jonlantirish, obrazlilik kabi ma’nolarni yuklamoqda. Ta’kidlash kerakki, so‘zlarning bunday ko‘chma ma’nolarda kelib, o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga yangi ma’no nozikliklarini qo‘shishi, asosan, badiiy matnlar va tasvirlarda uchraydi.

36-mashqni bajarish tartibi:

2-guruh gaplarni o‘qiydi (*o‘qish*). Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘ziga xos tarzda qo‘llanishiga diqqat qilinadi. Ularning nutq aniqligini ta’minlashdagi o‘rnini baholash borasida fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanadi (*gapirish*).

Izoh:

bezgaknamo – bezgak kasaliga yo‘liqqan odamga o‘xshagan;

xabargir – xabar yetkazuvchi;

qizg‘aldoqzor – qizg‘aldoqlar o‘sgan joy;

yulduzlanmoqda – kunlar yulduzday yorishib, yaxshiliklar ko‘paymoqda;

oylanmoqda – kunlar oyday yorishib, yaxshiliklar ko‘paymoqda;

serbahs – ko‘p bahslashadigan.

Ushbu so‘zlar **okkazionalizmlar** hisoblanadi. Okkazionalizm umumiste’molga to‘g‘ri kelmaydigan, ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan individual ma’noga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, faqat shu matndagina qo‘llanadi.

37-mashqni bajarish tartibi:

3-guruh parchani o‘qiydi. Undagi badiiy tasvirga xizmat qilgan ma’nolarni aniqlab, ifodalangan g‘oya atrofida fikrlashiladi.

Yechim: ushbu mashqda badiiy tasvirga xizmat qilgan so‘zlar sifatida ***chiroqlarim, insonlik yo‘li, nozik dil, egizak so‘z, yetti olamning kaliti, mehri-yu sehri*** birliklarini keltirish mumkin. Mazkur birliklar (so‘z va so‘z birikmalari) ko‘chma ma’nolarda qo‘llanib, o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosini to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’noda emas, balki obrazli ifodalashga xizmat qilmoqda va badiiy mantiq bilan tasavvur hosil qilinadigan badiiy tasvir yaratmoqda.

LUG‘AT ISHI

Mazasi qochdi – 1. Sog‘lig‘i yomonlashdi. *Varianti*: mazasini qochirmoq. *O‘xshashi*: tobi qochdi. 2. Biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. *Ma’nodoshi*: mazasi ketdi. *Misollar*: 1. O‘g‘lining tashvishi

bechora onaning mazasini qochirdi. 2. Oxirgi paytlarda holsizlanib, tobi qochdi. 3. Qo‘shnisi bilan oralari buzildi-yu, tirikchilikning mazasi ketdi.

Mum tishlamoq – mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik. *Ma’nodoshi*: og‘ziga tolqon solmoq; og‘ziga qatiq ivitmoq. *O‘xshashi*: „lom-mim“ demadi; dami chiqmadi; damini chiqarmadi; og‘zini ochmadi. *Misollar*: 1. Sababini so‘raganida hech kim lom-mim demadi. 2. Anvar kirdi, ammo shofyorning ham, ustaning ham dami chiqmadi. 3. Hamma jim, hatto, hech qachon chakagi tinmaydigan singlim ham mum tishlab olgan. 4. Arazladi, shekilli, uyga yetguncha og‘ziga tolqon solganday jim ketdi. 5. Og‘zingda qatiq ivitganmisan, nega ovozing chiqmaydi? ***Darslikdagi savollarga javob berish orqali mavzu mustahkamlanadi.***

38-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING MANTIQIYLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi lisoniy shartlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga milliy an’ana va urf-odatlarimizga hurmat hissini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqan to‘g‘ri fikrlash va shu asosda til birliklarini o‘rinli tanlay bilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Yangi mavzu „Tinglab tushunish“ usulida ta’rif bilan boshlanadi.

Ta’rif: nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z (ibora) aniq maqsadda mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Ta’rif darslikdagi **topshiriq** asosida mustahkamlanadi. Berilgan matn o‘qiladi va fikr mantig‘idagi buzilish haqida fikrlar o‘rtaga tashlanadi (*o‘qish va gapirish*). Husayn Boyqaroning nozik fahm-farosatiga o‘quvchilar baho beradilar.

Yechim: nutqda til vositalarining mantiq qonuniyatlariga mos ravishda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Yuqoridagi matn parchasida keltirilgan „*U shu qadar go‘zal va nozikki, yog‘ayotgan yomg‘ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o‘zini o‘nglab oladi*“ degan fikrda mantiqiylikning buzilish holati mavjud. Mazkur mantiqiy buzilish izohi sifatida matndagi „*Yuqoridan pastga tushayotgan yog‘in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo‘la olmaydi*“ degan jumlalarni keltirish mumkin.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir, chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiy. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib yetmasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mantiqiylik shartlari:

a) tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilish;

b) uslubiy me’yorga amal qilish;

c) leksik-semantik va sintaktik me’yorga rioya qilish.

Nutqni shakllantirishdagi e’tiborsizlik oqibatida ba’zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolga diqqat qilaylik: ***Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish rejalarini muddatidan oldin bajardilar.*** (*Gazetadan*) Gapda so‘zlarning tartibi to‘g‘ri bo‘lmaganligi, *olti oylik* birikmasining *davlatga* so‘zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetyapti (*olti oylik davlat*), fikrni bayon qilishda xatolik yuz beryapti.

Nutqning mantiqiy bo‘lishi so‘zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina til hodisasi sanalmasdan, tildan tashqarida bo‘lgan omil sifatida ham qaraladi. Ya’ni bunda notiqdan tilni yaxshi bilish bilan birga, o‘zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida keng bilimga ega bo‘lish ham talab qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash, o‘quvchilarning masalaning mohiyatini anglab yetishlari uchun 20 daqiqalik **„Munozara daqiqalari“** tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar 2 guruhga – „Nazariyotchilar“ va „Amaliyotchilar“ga bo‘linadi. Yuqoridagi matn asosida bahs yuritadilar, har ikki tomon yakuniy xulosalarini bayon qiladi. (O‘qituvchi yo‘naltirib turadi, xolos.)

39-mashqni bajarish tartibi:

1. **Yugurib charchamaydigan chayir** mashinasi dam tepalikka, aylanma yo‘llar osha dam pastlikka, kishining nigohi tushsa yuragi shig‘illab ketadigan jarliklar yoqasidan o‘tib, yana **ko‘tarilib qolardi**.

Yechim: 1) ***yugurib charchamaydigan*** – bu ifoda odamga nisbatan qo‘llanadi, texnikaning oyog‘i yo‘q va shu bois bu birikma noo‘rin qo‘llangan; 2) ***chayir*** so‘zi *baquvvat, pishiq* kabi ma’nolarda inson tabiati, jismoniy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Lekin gapda *mashina* so‘ziga nisbatan o‘z ma’nosida ishlatish biroz mantiqsizlikni yuzaga keltiradi va ushbu birikmani faqat ko‘chma ma’nodagina badiiy mantiq bilan idrok etish mumkin; 3) 1-gapdagi *mashinaning* ***ko‘tarilib qolishi*** ifodasini ham ***parvoz*** ma’nosida tushunish mantiqsizlikni yuzaga keltiradi.

2. Qiya, aylanma yo‘llarda ko‘p yurganiga qaramay, yigit juda ehtiyotkorlik bilan mashinani **olib borardi**.

Yechim: ***olib borardi*** ifodasi aslida *ko‘tarib yoki yetaklab bormoq* kabi ma’noda tushuniladi. Shu bois ham jumladagi *yigitning mashinani* ***„olib borishi“***ni o‘z ma’nosida emas, balki faqat obrazli ma’noda idrok etish joiz. Oddiy nutq uchun *haydab borardi* deyish mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi.

3. Uning yoqimli **qiliqlari**, ovozi eshitilib ketganday bo‘ladi. (*Mirmuhsin*)

Yechim: **qiliq** so‘zi „g‘ayritabiiy yoki nojo‘ya ish“ ma’nosida ishlatiladi. Shu bois „yoqimli qiliq“ bo‘lmaydi. Shuningdek, ovoz eshitiladi, lekin jumladagi *„qiliqlari... eshitilib ketganday bo‘ladi“* ifodasida mantiqiy buzilish bor. *Qiliqlari* va *ovozi* so‘zlari *eshitilib* fe’liga bog‘langan. Aslida qiliqlar eshitilmaydi, ko‘zga ko‘rinadi.

4. Ko‘zim o‘ngidan **hadsiz** odamlar o‘tdi.

Yechim: **had** so‘zi hudud, joyga nisbatan qo‘llanadi. Shu bois odmlarga nisbatan ishlatish mantiqan noto‘g‘ri. ma’nosini bildirib, hudud, joyga nisbatan qo‘llanadi. Shu bois odamlarga nisbatan ishlatilishi mantiqan noto‘g‘ri.

5. Qo‘llari, oyoqlari o‘ziga bo‘ysunmay, o‘z-o‘zidan harakatlanar, uni **qayoqqadir olg‘a eltardi.** (*M. Nasibullin*)

Yechim: ***olg‘a*** so‘zi *oldin*ga ma’nosini bergani uchun *qayoqqadir* so‘zi ortiqcha. *Eltardi* fe’li ham bu yerda mantiqning buzilishini keltirib chiqargan.

40-mashqni bajarish tartibi:

1. Boyqush qarg‘ish olgan, qadimdan qolgan shunday gap bor. U qaysi xonadonga qo‘nib, **ovoz chiqarsa**, noxushlik **alomat**idan **darak** emish. (*S. Ravshanov*)

Yechim: birinchi gapda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘rni almashib qo‘llangan. Gapni *boyqush qarg‘ish olganligi to‘g‘risida qadimdan qolgan shunday gap bor* shaklida o‘qish jumlani tushunishni osonlashtiradi. Ikkinchi gapda *ovoz chiqarsa* fe’lining o‘rnida *sayrasa* fe’lini qo‘llagan ma’qul edi, shuningdek, ushbu gapdagi *darak va alomat* so‘zlari mantiqan bir xil ma’no ifodalagani uchun bittasi ortiqcha.

2. U nihoyatda ehtiyot bo‘lib harakat qilayotganini uyqu elitgan **ko‘zlari bilan sezdi.** (*N. Jaloliddin*)

Yechim: *ko‘z* sezgi a’zosi emas, ko‘z bilan sezilmaydi, balki ko‘riladi.

3. Qish. Yanvar havosi juda sovuq. **Laylakqor** hadeb **savalagani-savalagan.** (*S. Ravshanov*)

Yechim: *savalamoq* so‘zi, odatda, ko‘chma ma’noda yomg‘irga nisbatan ishlatiladi. Mazkur ifodani qorning yerga shiddat bilan tushishi manzarasini tasavvur etgan holda ko‘chma, obrazli ma’nodagina tushunishimiz mumkin.

4. Odamlar **nochorlikdan**, **yegani narsasi yo‘qligidan** ro‘za tutib yurishibdi. (*S. Ravshanov*)

Yechim: **ro‘za tutmoq** ko‘chma ma’noda qo‘llansa, mantiqiy buzilish bo‘lmaydi. Bu yerda mantiqning buzilishi shundaki, ro‘za nochorlikdan va yegani narsa yo‘qligidan tutilmaydi. Shu bois gapni *odamlar nochorlik va yeyishga ovqatlari yo‘qligi sababli kunlarini och-nahor va ro‘zador o‘tkazishardi* tarzida o‘zgartirish orqali jumladagi ma’noni mantiqan to‘g‘rilash mumkin.

Ilm-fanda *faraz qilish* yoki o‘ylab chiqarishga o‘rin yo‘q. Fanning rivojlanishi faqat kashfiyotga bog‘liq. Fanda fikr bildirish, ishonaman deyish – bilmagan bilan barobar. (*Gazetadan*)

Yechim: ilm-fanda *faraz qilish* yangilikka olib boruvchi asosiy yo‘llardan biri sanaladi. Aynan faraz qilish bilan aksiomalar teoremaga aylanadi. *Fikrlash* tushunchasi esa *bilish* tushunchasiga juda yaqin. Bu yerda birinchi gap mazmunini keyingi gaplar inkor qilyapti.

Hikoya va suhbatdan tashqari o‘zbek tilini yaxshi o‘rganish, unga qiziqishni uyg‘otish maqsadida til o‘rgatishga oid o‘yinlar, kichik-kichik she’rlar, *badantarbiya* va ashulalar berib boriladi. (*S. Jo‘rayev*)

Yechim: *badantarbiya*ning til o‘rganishga mantiqan aloqasi yo‘q. Bundan tashqari, badantarbiya berib borilmaydi, balki bajariladi.

Imzoga qo‘l qo‘yish mahalida gurs etib yerga quladi.(*Gazetadan*)

Yechim: *imzo qo‘ymoq* va *qo‘l qo‘ymoq* aynan bitta narsa, shuning uchun *imzo qo‘yish* birikmasining o‘zi yetarlidir.

Tahrirlangan matn namunasi

Chuqur atrofida biroz yurgandan so‘ng it iz ***ortidan*** olg‘a tashlandi. Mana, birdan to‘xtab qoldi. Tumshug‘i bilan yerni ***iskadi***-da, oldingi oyoqlari bilan qorni titkilay boshladi... It tashvishli g‘ingshib leytenantga suykaldi, so‘ng yerni iskagancha, ***pastlikka***, jilg‘a tomonga yo‘l oldi. Chuqurda qor ***ko‘p yog‘ib*** qalinlashgan. It o‘sha tomon o‘zini otdi, nihoyat, jilg‘a oldida taqqa to‘xtadi. G‘azabli irillab, usti muzlagan qorni ***tirnay boshladi.*** Qor ostida allaqanday qora narsa ko‘rindi. It ***old oyoqlariga mahkam tiralib***, o‘sha qora narsani **tishlab**, butun kuchi bilan torta boshladi...

Qish kunlari qisqa: ***birpasda*** qorong‘i tushadi. Sovuq ***zabtiga*** olib boryapti. Men goh ***hakkalab sakrayman***, goh ***kaftlarimni bir-biriga*** ishqalayman.

Sovuq **qahriga** olib boryapti. Men goh **sakrab hakkalayman**, goh **qo‘llarimni** ishqalayman. Boshqalar ham mendan qolishmaydi. Sovuq **jonni tindirmagani** shu bo‘lsa kerak-da. (*M. Nasibullin)*	Boshqalar ham mendan qolishmaydi. Sovuq jonni ***azoblashi*** shu bo‘lsa kerak-da.

41-mashqni bajarish tartibi:

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti:	Misollar
Nog‘orasiga o‘ynamoq	kimningdir izmi, yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish ko‘rmoq	nog‘orasiga o‘ynatmoq; childirmasiga o‘ynamoq	*1. Seni hali nog‘oramga o‘ynataman.* *2. Ba’zan jahli chiqadi: uning childirmasiga qachongacha o‘ynaydi?*
Oyog‘iga bolta urmoq	mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq	**Ma’nodoshi:** payini qirqmoq	*1. Raqiblari Davronovning ham oyog‘iga bolta urishdi.* *2. Bojxonachilar noqonuniy tovar aylanmasining „payini qirqishdi“.*

Darslikdagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi va umumlashtiriladi.

42-mashq uyga vazifa sifatida beriladi.

Yechim: berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo‘llangan so‘zlar o‘rniga mantiqan mosi qo‘yib ko‘chiriladi.

1. Sattorov yolvorgan **qiyofada** ko‘zlarimga umidvor qaradi.

2. Ikkalamiz ham **noxush** ko‘ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi.

3. Sattorov zarda bilan planshetni irg‘itib yubordi-da, mening so‘zlashimga **e’tibor** bermay, sakrab o‘rnidan turdi.

4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning fotosuratlarini ham **yoyib** qo‘ygan edim.

5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga keldi-da, meni odatdagiday so‘roqlarga ko‘mib yubordi. (*M. Nasibullin*)

6. U jamiyat taraqqiyoti uchun insonlarning ma’naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (*A. Olimov*)

MANTIQIYLIK VA GRAMMATIK VOSITALAR

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi lisoniy shartlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: milliy an’ana va urf-odatlarimizga hurmat hissini shakllantirish, til boyliklaridan samarali foydalanishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqan to‘g‘ri fikrlash va shu asosda til birliklarini o‘rinli tanlay bilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutq mantiqiyligining asosiy lingvistik sharti leksik-semantik va sintaktik me’yorga amal qilishdir.

So‘zlarni bir-biriga mazmunan bog‘lash, ular o‘rtasidagi grammatik aloqani to‘g‘ri shakllantirish sintaktik me’yorga amal qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Mana bu misolda *kuy* va *raqs* so‘zlarining suxandon tomonidan uyg‘un tarzda qo‘llanib yuborilishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: *Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling*. (*Televideniyadan*) Kuyni tinglash mumkin, ammo raqsni-chi?

Ba’zan so‘zlarni tushirib qoldirishlar natijasida yuz beradigan metonimiya hodisasi hamma vaqt ham to‘g‘ri tushunilavermasligi mumkin: *Oyposh xola gorchichnik qo‘yib bo‘lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo‘yarda-qo‘ymay choyga o‘tqazdi.* (*M.Jaloliddinova*)

Ko‘r-ko‘rona qilingan tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi: *Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi.* („*Mushtum*“ *jurnalidan*)

Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko‘rinishlarida ham o‘rtaga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko‘raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda fikrlar qat’iy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq qurilishi esa biroz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go‘yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko‘rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy

asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko‘lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma’lum bo‘ladi.

Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so‘zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo‘yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir. So‘zlarning o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyligi bo‘lsa, so‘z birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo‘ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir. Xulosa qilganimizda, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Darslikdagi *topshiriq*da qo‘yilgan muammo yechiladi. Berilgan gapni o‘qib, qaysi til vositasini noto‘g‘ri qo‘llash tufayli nutqning mantiqiyligi buzilgani izohlanadi.

Sudning kimyoviy ekspertizasi T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligi, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligi **aniqlandi**. (*Gazetadan*)

Yechim: gap grammatik jihatdan noto‘g‘ri shakllantirilgan. Gapning egasi (*sudning kimyoviy ekspertizasi*) mavjud bo‘lsa-da, kesim majhul nisbatda (*aniqlandi*) berilgan. Natijada, ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvi buzilgan. Jumla qurilishini quyidagicha ikki xil tartibda berish mumkin:

Sudning kimyoviy ekspertizasi tomonidan T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligi, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligi aniqlandi.

Sudning kimyoviy ekspertizasi T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligini, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligini aniqladi.

Sinf uch guruhga bo‘linadi. 1-guruhga 43-mashq, 2-guruhga 44-mashq, 3-guruhga 45-mashq lisoniy tahlil qilish uchun beriladi. Ma’lum vaqt belgilanadi. Ajratilgan vaqt tugagach, guruhlar o‘z tadqiqotini taqdim qilishadi.

43-mashqni bajarish tartibi:

1. Agarda shunga qaror qilgan bo‘lsa, mazkur amaliyotni, albatta, reja asosida amalga oshirgan ma’qul. Ya’ni malakali mutaxassisga murojaat qilishi, zaruriy qon tahlillarini topshirishi, yurak faoliyatlari tekshiruvi, qon kasalliklari, sog‘lom bo‘lishi zarur.

Yechim: 1) 1-gapda qon kasalliklari birikmasi ortiqcha; 2) asosdosh so‘zlarning qo‘llanishi *(amaliyot, amalga)* ma’noga putur yetkazgan; 3) gap qurilishida ham uslubiy g‘alizlik uchraydi. Jumlani quyidagi ko‘rinishga keltirish orqali uslubiy ravonlik va mantiqni me’yorlashtirish mumkin:

Agar shunga qaror qilgan bo‘lsa, mazkur amaliyotni reja asosida o‘tkazgan ma’qul. Ya’ni malakali mutaxassisga murojaat qilish, zarur qon tahlillarini topshirish, yurak faoliyatini tekshirtirish orqali sog‘lom bo‘lishga erishish mumkin.

Tashqi ko‘rinishni o‘zgartirishdan oldin bu haqiqatan kerakmikin, deb o‘z-o‘zingizga savol bering. Balki, **to‘g‘ri** turmush tarzini olib borish bilan bularni o‘zgartirish mumkindir ham. (*Gazetadan*)

Yechim: gap qurilishida ma’noga va uslubiy ravonlikka ta’sir ko‘rsatuvchi o‘rinlar uchraydi. Asosiy mazmunni saqlab qolgan holda 2-gap qurilishini quyidagi ko‘rinishda o‘zgartirish maqsadga muvofiq: *Tashqi ko‘rinishni o‘zgartirishdan avval bu qay darajada muhimligi borasida o‘z-o‘zingizga savol bering. Balki,* ***sog‘lom*** *turmush tarzini olib borish natijasida tashqi ko‘rinishni yaxshilash mumkindir ham.*

3. Bobom bu yil askarlarimizga, kam deganda, uch vagon qovun-tarvuz jo‘natmasam, **do‘ppimni osmonga otaman** deb, kecha-kunduz polizdalar. (*S. Ravshanov*)

Yechim: ibora noto‘g‘ri tanlangani sababli gap mazmunidan sezilib turgan ma’no ifodalanmay, umuman qarama-qarshi ma’no kelib chiqqan. Ya’ni shu ishni bajarmasam (*3 vagon qovun-tarvuz yetishtirmasam*), *do‘ppimni osmonga otaman* (xursand bo‘laman) ma’nosi ifodalanib, rejalashtirilgan vazifa bajarilmasligidan xursand bo‘lish degan ma’no tushunilmoqda. Jumlani quyidacha o‘zgartirish maqsadga muvofiq: *Bobom bu yil askarlarimizga, kam deganda, uch vagon qovun-tarvuz jo‘natmasam,* ***otimni boshqa qo‘yaman*** *deb, kecha-kunduz polizdalar.*

44-mashqni bajarish tartibi:

1. Fursatdan foydalanib, institut jamoasi va ekspertlari nomidan barcha yurtdoshlarimizni Yangi 2018-yil bilan chin dildan qutlay**miz** va oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishda bir tan-u bir jon bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimiz ravnaqi uchun hormay-tolmay ishlash-**lari**ga chaqira**man**. (*Gazetadan*)

Yechim: 1) kesimlar tarkibida qo‘llangan shaxs-son qo‘shimchalaridagi har xillik (*qutlaymiz, chaqiraman*) gap mazmunida mantiqiy chalkashlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda; 2) *-lari* qo‘shimchasi ortiqcha qo‘llangan.

Fursatdan foydalanib, institut jamoasi va ekspertlari nomidan barcha yurtdoshlarimizni Yangi 2018-yil bilan chin dildan qutlaymiz va oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishda bir tan-u bir jon bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimiz ravnaqi uchun hormay-tolmay ishlashga chaqiramiz.

2. Huquqni muhofaza qiluvchi organ**lar**, sud**lar**, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruh**lar** komissiya bilan hamkorlikda joylarga chiqib, har bir mahkum bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali ularning shaxsi o‘rganib **chiqildi**. (*G. To‘laganova*)

Yechim: 1) gapning egasi (*ishchi guruhlar*) mavjud bo‘lsa-da, kesim majhul nisbatda (*o‘rganib chiqildi)* berilgan; 2) *-lar* qo‘shimchasi juda ko‘p marta qo‘llangan (*organ**lar**, sud**lar**, jamoat tashkilot**lar**i, vakil**lar**idan, ishchi guruh**lar**, joy**lar**ga, u**lar**ning*). Ayniqsa, *ishchi guruhlar* birikmasida *guruh* so‘zi jamlovchi ot bo‘lgani va bu yerda jamlash-umumlashtirish ma’nosini ifodalayotgani uchun *-lar* qo‘shimchasini qo‘llash ortiqcha.

Huquqni muhofaza qilish organi, sud, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruh komissiya bilan hamkorlikda joylarga chiqib, har bir mahkum bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali ularning shaxsini o‘rganib chiqdi.

3. Qonunga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun ayblov tomonining, **shu jumladan**, jabrlanuvchining **roziligini** talab etilmaydi. (G. To‘laganova)

Yechim: 1) *shu jumladan* kirish birikmasi noto‘g‘ri qo‘llangan, chunki jabrlanuvchi ayblov tomoni jumlasiga kirmaydi; 2) tushum kelishigi shakli (*roziligini)* xato qo‘llangan, chunki gap kesimi majhul nisbat shaklida bo‘lganida tushum kelishigidagi vositasiz to‘ldiruvchi bilan birika olmaydi.

Qonunga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun ayblov tomonining, shuningdek, jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. (*G. To‘laganova*)

4. Bug‘doyrang cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari **sutdek** oppoq. Lekin o‘zlari sira tinchimaydilar. (*S. Ravshanov*)

Yechim:

1) *sutdek* o‘xshatishi mantiqan noto‘g‘ri qo‘llangan;

2) *o‘zlari* olmoshi ortiqcha, chunki bu olmosh ta’kid ma’nosida uslubiy vazifa bajaradi.

Bug‘doyrang cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari qordek oppoq. Lekin sira tinchimaydilar. (*S. Ravshanov*)

45-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing, nutqning mantiqiylik sifatiga putur yetkazgan leksik, morfologik va sintaktik vositalarni izohlang.

Yechim:

Ayol kabinetga kirib kelishi bilan uni qayerdadir ko‘rganga **o‘xshab ketdim**.	Ayol kabinetga kirib kelishi bila**noq** uni qayerdadir ko‘rganga **o‘xshadim**.
Bu ish uchun kerakli ko‘nikmani, uquvni hayotning o‘zi **tug‘diradi,** tarbiya, bilim beradi.	Bu ish uchun kerakli ko‘nikmani, uquvni hayotning o‘zi **yaratadi**, tarbiya, bilim beradi.
Shunday qilib, **uni** bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi.	Shunday qilib, **u** bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi.
„Balki“ degan taxmin tergovchi faoliyatida zo‘r **chora – narsa** emas, ammo uni hisobga **olinma**sa ham bo‘lmaydi.	„Balki“ degan taxmin tergovchi faoliyatida zo‘r **uslub** emas, ammo uni hisobga **olmasa** ham bo‘lmaydi.
So‘zni **uning uchun yoqinqiragan** mavzudan boshladim.	**Gap**ni **unga yoqadigan** mavzudan boshladim.
Eh, qancha chilvir u? Yonib **kul** bo‘ldi-ku o‘sha chilvirlar. Hammasi yonib **jizg‘anak** bo‘ldi-ku.	Eh, qancha chilvir u? Yonib **jizg‘anak** bo‘ldi-ku o‘sha chilvirlar. Hammasi yonib **kul** bo‘ldi-ku.
Hozir ona yuragida nafrat va xo‘rlanganlik hislarigina **bo‘lgan**.	Hozir ona yuragida nafrat va xo‘rlanganlik hislarigina **bor.**

LUG‘AT ISHI

Og‘zining tanobi qochmoq – behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. *Ma’nodoshi*: og‘zi qulog‘iga yetmoq; boshi ko‘kka yetmoq; terisiga sig‘may ketmoq; qo‘yi mingga yetmoq. *Misollar:* 1. Salimjon yaqin oshnasi Xoldorni ko‘rdi-yu, birdan chehrasi ochilib, og‘zining tanobi qochdi. 2. Bu xabardan Sobirning og‘zi qulog‘iga yetdi.

Payiga tushmoq – 1. Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qilmoq. *Ma’nodoshi*: iziga tushmoq; ketiga tushmoq; orqasiga tushmoq. *O‘xshashi*: payidan tushmoq. 2. Manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qilmoq. *Ma’nodoshi*: ketiga tushmoq. *Misol*: Hamma narsani chetga surib, yengil pul topish payiga tushdi.

Savollar asosida mavzu mustahkamlanadi va xulosalanadi.

46-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

Matn ko‘chiriladi va unda mantiqiylik sifatining ta’minlanishida ishtirok etgan sintaktik birliklar izohlanadi.

Yechim: 1) hikoya matni personajning xotiralari asosiga qurilgan bo‘lib, jumlalar mantiqan bir-biri bilan izchil bog‘langan; 2) yillar hisobi bir-biriga mos kelgan, fe’lning o‘tgan zamon shakllari matn mazmunidagi zamon ma’nosining mantiqiyligini ta’minlagan (boshidan kechir**ib**di, joylashtirish**gan ekan,** eshit**dim**, eshit**dik** kabi); 3) gaplardagi so‘zlar tartibi to‘g‘ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg‘un bo‘lishi natijasida mantiqan to‘g‘ri nutq (yozma matn) hosil bo‘lgan fe’llar orqali bayon qilingan; 4) matnni qismlarga ajratishda ham mantiqiylik ta’minlangan.

MANTIQIYLIK VA MATN KOMPOZITSIYASI

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi me’yorlari va matn kompozitsiyasi uyg‘unligi yuzasidan bilim berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizni e’zozlash hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish, matnni mantiqan to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmasini hosil qilish.

Nutq mantiqiyligining buzilishi matn sintaksisi sathida, ya’ni gaplarning o‘zaro mazmuniy-sintaktik bog‘lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma’lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, shunga ko‘ra bog‘li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog‘lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik abzas va mustaqil gaplarni bog‘lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko‘rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabilar)ning qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mantiqiy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik gaplar, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

3. Kompozitsion bog‘lilik. Bunday bog‘lilik *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi* tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi. Yaxlit matnning mantiqiy-

ligini ta’minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o‘z aksini topmog‘i lozim. Mantig‘i sog‘lom matn „biri tog‘dan, biri bog‘dan“ fikrlar „bo‘tqa“sidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq kompozitsiya bo‘lishi zarur. Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo‘ladi, ya’ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o‘rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo‘lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, „qissadan hissa“ qilinadi. Shu tariqa, fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy asarlarning qurilishidagina emas, balki alohida olingan so‘zlar o‘rtasidagi logik-grammatik munosabatda ham izchillik buzilganday bo‘lishi mumkin: *qayg‘uli quvonch, ojiz jasorat, totli azob, buyuk ahmoqlik* kabi. Birikma tarkibidagi ma’nosi zid so‘zlarning har birining ma’nosi saqlab qolingan holda yangi bir matniy ma’no kelib chiqadi va ular badiiy san’atlar doirasida ***oksyumoron*** deb ataladi.

Masalan:

Men-chi, u kun, ne so‘z bilan bayon etayki,
O‘z qabrimning tepasida o‘zim turardim.
Dedim, falak, nega meni shu holga solding,
Haddu poyon bormi alam, dard-u sabrimga.
O‘zim ***tirik mozor*** bo‘lib kelib turibman
Menga nasib etmagan shu sovuq qabrimga. (*E.Vohidov*)

47-mashqda „Otalar so‘zi“ kitobidan olingan maqolani audio shaklida eshittirish tavsiya qilinadi. Undagi fikrning mantiqiy izchilligi va muntazam bayoni, til vositalarining o‘zaro munosabatidagi tugallikka e’tibor qilinadi. Bu mashq orqali *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

48-mashqni bajarish tartibi: „Mentalitet“ matni o‘qiladi (*o‘qish* kompetensiyasi). Matn mazmuni yuzasidan suhbat uyushtirilib, tarbiyaviy maqsad amalga oshiriladi (*gapirish* kompetensiyasi).

Mentalitet – (nem. *mentalitat* < lot. mens, mentis – aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlari)ni ham qamrab oladi.

Matnning abzaslarga ajratilishi tahlil qilinadi. Buning uchun har bir abzas uchun tezis tayyorlanadi (*yozish* kompetensiyasi):

- amerikalik gazeta rahbarining bizdagi mahallaga qiziqishi (G‘arbning Sharqqa qiziqishi masalasi);
- hamma gap hayot tarzining shakllanganida;
- ota-o‘g‘il munosabatiga ikki xil qarash (amerikacha demokratiya tantanasi – o‘zbeklarda „oqpadar“lik tamg‘asi);
- mehmonnavozlik masalasidagi farq (o‘zbekona mehmondo‘stlik tavsifi);
- mahalla mohiyatini mahallada yashagan tushunadi.

49-mashqni bajarish uchun sinf to‘rt guruhga bo‘linib, vazifa beriladi: **1-guruh** *demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar ishtirokida ilmiy matn; **2-guruh** *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari ishtirokida publitsistik matn; **3-guruh** *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar ishtirokida badiiy matn; **4-guruh** *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi* tarzidagi sintaktik qurilmalar ishtirokida rasmiy matn tayyorlaydi. Har bir guruh mazkur vositalarning matn kompozitsiyasidagi o‘rni (gap va gap qismlarini izchil bog‘lashi va mazmuniy tizim hosil qilishi)ni izohlaydi.

50-mashqda „Qalam“ matni berilgan. Undagi mantiqiylik sifati va kompozitsiya yaxlitligi quyidagi reja asosida tushuntirilishi tavsiya qilinadi:

1. Ajdodlarimiz foydalangan qalam va uning turlari.
2. Qalam takomili.
3. „Qalam“ so‘zining ko‘chma ma’nolari.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti	Ma’nodoshi
Podadan oldin chang chiqarmoq	ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan ilgari gapirib yurmoq	podadan avval chang chiqarmoq *E, shoshma-sang-chi, podadan avval chang chiqarma.*	to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq *Kim senga to‘ydan ilgari nog‘ora qoq, dedi?*

Sirka-si suv ko‘tar-maydigan	tanqidga mutlaqo chidamaydigan	*O‘rtog‘ing sirkasi suv ko‘tarmay-digan bola-da, salga arazlab qoladi.*	

Savollar asosida mavzu umumlashtiriladi va xulosalanadi.
50-mashq uyga vazifa qilib topshiriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING SOFLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning sofligi me’yorlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.
Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga ekologik ong va ekologik madaniyatni singdirish.
Rivojlantiruvchi maqsad: nutqning sofligiga putur yetkazadigan noadabiy so‘zlardan foydalanmaslik ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur mavzu nihoyatda dolzarb sanaladi. Dars avvalida o‘quvchilar orasida „Qanday nutqni toza, sof deb ataymiz?“ degan savol asosida debat tashkil qilish tavsiya etiladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini imkon boricha misollar yordamida asoslab berishlariga alohida ahamiyat qaratish zarur. Debat yakunida o‘qituvchi tomonidan quyidagi ma’lumot yozilgan slayd ko‘rsatiladi:

Nutqning sofligi deganda unda til birliklarining ishlatilishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi.

Nutqimizning sof, toza bo‘lishiga xalaqit beradigan lingvistik birliklar jadvali

1	Dialektizm	shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz	San, manglayi qara badkirdor, na sababdan mundoq yomon so‘zlarni elga tarqatding? (*Mirmuhsin*)
2	Varvarizm	o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari	– Pozdravlyayu s baranom, aka Javlun, – dedi hayratda qolgan Mullaqand. – E malades. Ibi, bo bu eshok bachchaning dumiga nima bo‘ldi? (*S.Ahmad*)

3	Kanselarizm	rasmiy-idoraviy uslubga xos bo‘lgan so‘z va iboralar	O‘rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga! (*A.Qahhor*)
4	Parazit so‘zlar	Nutqda odat tusiga kirib qolib, ko‘p qaytariladigan so‘z va birikmalar	Xo‘sh, bu gapni, shu... opang bilmasin-a, xo‘sh, tushundingmi? (*M.Mahmud*)
5	Vulgar so‘zlar	dag‘al, haqorat so‘z va iboralar	– Betingni murdasho‘y ko‘rgurlar! Qari-qartang bir momoni gunohga botirgan senlarni Xudo ko‘tarsin! (*T.Murod*)

Mavzu yuzasidan berilgan bilim darslikdagi matn va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

Topshiriq. Berilgan gaplarni o‘qing, nutqning sofligi sifatiga putur yetkazgan vositalarni aniqlang.

1. **Sizlarnikidaqa situatsiya**da har qanday bola ham bunday natijalarga erisholmaydi. (*Jurnaldan*) 2. Viktorinaga qatnashish jarayonida bir g‘oya tug‘ildi. (*Gazetadan*)

Yechim: topshiriqda berilgan gaplarda nutq sofligi sifatiga salbiy ta’sir etayotgan unsurlar sifatida dialektal so‘z (*sizlarnikidaqa – sizlarnikiday*), varvarizmlar (*situatsiya – vaziyat, viktorina – savol-javob o‘yini, bilimlar bahsi*) qo‘llanmoqda.

52-mashqni bajarish tartibi:

1. Hamqishloqlarning bu bolaga **ichlari achir, Xudo bergan** birgina o‘g‘ilni shunchalik qiynab qo‘yganlari uchun **orqavarotdan** uning ota-onasini tanirdilar. (*N.Abdiyeva*)

Yechim: 1) 2-gapning qurilishi noto‘g‘ri; 2) gap mazmuni tushunarsiz; 3) nutq sofligini buzayotgan dialektizmlar: *ichlari achir, Xudo bergan, orqavarotdan.*

2. Qonun loyihasiga ko‘ra, **energetik** ichimliklarni o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga **realizatsiya qilish** fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi mumkin. (*Gazetadan*)

Yechim: *energetik* – varvar so‘z o‘rnida *quvvat beruvchi* so‘zini ishlatsa ma’qul; *realizatsiya qilish* – kanselarizm (*sotish* so‘zini qo‘llash mumkin).

3. Maktabimizda yuqori sifatga ega **„smart-class“** tashkil qilindi. (*M. Najmiddinova*)

Yechim: varvarizmga mansub „smart-class“ (*innovatsion texnologiyalar asosida chuqurlashtirilgan dastur bo‘yicha o‘qitiladigan, raqamlashtirilgan „aqlli“ sinf*) so‘zi ishlatilgan bo‘lsa-da, bu birlik asta-sekin lug‘at qatlamidan o‘rin olyapti.

4. Shundan buyon **mundial** saralashidagi omadsizlik termamizni tark etmayapti. (*Gazetadan*)

Yechim: 1) *mundial* – varvar so‘z; 2) *termamiz* so‘zi o‘rnida *terma jamoamiz* birikmasi qo‘llanishi zarur.

5. Bu yerda esa **overtaymlarsiz** ish bitmadi: 2:2 ko‘rinishidagi durangdan so‘ng bolqonliklar hal qiluvchi golni urishdi. (*Gazetadan*)

Yechim: bu gapda ham varvarizm – *overtaym* so‘zi qo‘llangan (*overtaym – futbol musobaqalarida o‘yinning asosiy vaqtidan keyin belgilanadigan qo‘shimcha daqiqalar*).

6. Bu nutq matbuotga chiqishiga qadar esa Messi o‘zi uchun odatiy **shedevr** gol urishga ulguradi. (*Gazetadan*)

Yechim: varvarizmga mansub *shedevr* (eng oliy darajadagi fan, texnika, san’at mahsuli, yuqori mahorat natijasi, noyob iste’dod) so‘zi o‘rnida *noyob, durdona* so‘zini qo‘llash mumkin.

7. Tez orada hammaning og‘ziga tushgan 15 yoshli **vunderkind** bilan uchrashdi. (*Gazetadan*)

Yechim: bu gapda varvarizmga xos *vunderkind* (o‘z yoshidagi boshqa bolalarning intellektual rivojlanish darajasidan ustun, iqtidori tan olingan bola) so‘zi ishlatilgan.

Xulosa: o‘zbek tilida muqobili bo‘lgan chet so‘zlarni nutqda qo‘llash har ikki tilga ham hurmatsizlik sanaladi. Ayniqsa, bugungi kunda radio, televideniye va matbuotda ham xorijiy so‘zlarni qo‘llashga ruju qo‘yishni zamonaviylik belgisi emas, balki madaniyatsizlik deb baholash zarur.

53-mashqni bajarish tartibi: 1. Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*). 2. „Ishlamaydigan“, ya’ni parazit so‘zlarning nutq sofligiga zarari haqida o‘quvchilar bilan „Mendan bir ma’lumot“ usulida suhbat uyushtiriladi (*gapirish*). Har bir o‘quvchi matn asosida bittadan fikr aytadi. Bunda misollar keltirishga ham alohida ahamiyat qaratiladi:

- tilshunoslikda parazit so‘zlar ko‘proq og‘zaki nutqda kuzatiladi;
- parazit so‘zlar odat tusiga kirib qoladi;
- lug‘atlarda aniq ma’noga ega til birliklari o‘z ma’nosidan tashqarida qo‘llanadi;
- ravon so‘zlash ko‘nikmasini egallamaganlik, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo‘lmasin, „yopish“, keyingi gapni o‘ylab topish uchun *e-e-e, hm-m-m, he-ye-ye* kabi tovush „oqim“lari, *xo‘o‘o‘sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi so‘z va iboralar ishlatiladi;
- bunday so‘zlarni ko‘p qo‘llash ba’zan kishining laqabiga aylanib ketishi mumkin;
- parazit so‘zlar nutq sofligini buzadi;
- nutqda ifodalangan ma’lumotni qabul qilish aniqligiga putur yetkazadi.

Xulosa: asosiy quroli so‘z bo‘lgan mutaxassislargina emas, balki muloqot jarayonining barcha qatnashchilari parazit so‘zlarning o‘z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim.

54-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn tinglanadi (*tinglab tushunish*).
2. Qahramon nutqidagi **shu** so‘zining qanday ma’no tashiyotgani yoki tashimayotgani izohlanadi (*gapirish*).
3. „Ishlamaydigan“, ya’ni parazit so‘zlarni olib tashlab, dialogik matn qayta yoziladi (*yozish*) va yuzaga kelgan farq aniqlanadi.

***Tahrirlangan matn namunasi**:*

– Xo‘jayin, bizning mashina dovonning naryog‘ida radiatori teshilib, qolib ketibdi.

– Qanaqa mashina? – dedi hayron bo‘lib Mirvali.

– Hozir Toshkent tomondan kelayotgan bir „Jiguli“ garajga kelib shundoq dedi.

– Qanaqa mashina, deb so‘rayapman.

– Asalchining yukini Toshkentga olib ketgan mashina.

– Nega menga aytasan, garaj mudiriga ayt.

– Xotini to‘lg‘oq tutib, kasalxonaga olib ketgandi.

– Bo‘pti, bosh mexanikka ayt.

LUG‘AT ISHI

Soyasiga ko‘rpacha solmoq – izzat-hurmat qilishni me’yoridan o‘tkazib yubormoq. *Varianti*: soyasiga ko‘rpacha yozmoq; soyasiga

ko‘rpacha to‘shamoq. *O‘xshashi*: boshiga ko‘tarmoq. *Misollar*: 1. Direktor bo‘lgach, soyasiga ko‘rpacha soladiganlar ko‘paydi. 2. Qiziq, shu bolani hadeb boshiga ko‘taradi.

Tinkasi qurimoq – toliqmoq, darmonsizlanmoq. *Varianti*: tinka-madori qurimoq. *Ma’nodoshi*: holdan toymoq; hushdan ketmoq. *Misollar*: 1.Hujjat to‘g‘rilash uchun shaharga qatnayverib tinkasi quridi. 2.Holdan toygan, tinka-madori qurigan bo‘ri, nihoyat, bir amallab tepalikka chiqib oldi. 3. Qarilik qursin, bolam, holdan toydim.

Savollar asosida mavzu umumlashtiriladi va xulosalanadi.

NUTQNING SOFLIGI VA BADIIY NUTQ

Ta’limiy maqsad: nutqning sofligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ota-onani e’zozlash, o‘zidan kattalarni hurmat qilish hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn sofligini ta’minlovchi me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Namunaviy nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo‘lishi, turli g‘ayriadabiy va g‘ayriaxloqiy til birliklaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning til jihati bo‘lib, nutqiy soflikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda bo‘layotgan o‘zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo‘lishi lozim.

Badiiy nutqda nutqning sofligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Nutqimizning sof bo‘lishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar qaysilar? Bular, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. To‘g‘ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo‘lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma’lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma’lum g‘oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Dialektal so‘zlarning badiiy adabiyotda o‘rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo‘lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dialektizmlar va adabiy til doirasida me’yorni belgilash tilimizdagi mas’uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Aytaylik, muallif milliy ruhni bermoqchi, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilmoqchi yoki boshqa bir maqsadni ko‘zlagan bo‘lsin. Ana shunday paytlarda tilning bu unsurlariga murojaat qilish hatto zarur. Badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma’rifiy saviyasiga urg‘u berish uchun o‘zbek tiliga kirib o‘zlashmagan chet so‘z va so‘z birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini bo‘rttirib ifodalash niyatida dag‘al va haqorat so‘z-iboralar, shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi o‘z ma’nosidan begona qilingan, ya’ni ishlamaydigan so‘z va iboralar ishlatilishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan so‘z va iboralar rasmiy uslubdagina qo‘llanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatilishi o‘rinli bo‘lmaydi. Ammo personajning madaniy-ma’naviy saviyasini kinoyaviy ta’kidlash maqsadida, ya’ni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qo‘llanishi kuzatiladi. Shuni yodda tutish muhimki, tilda kanselarizm, parazit so‘zlar va vulgarizm unsurlarini qo‘llashga ijobiy hodisa sifatida emas, balki me’yorning buzilishi deb qarash hamda ularni nutqda qo‘llamaslik lozim.

Xullas, nutqimizning sofligi uchun kurash undan foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo‘lishi kerak. Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapirishimiz mumkin bo‘ladi.

Nazariy bilimni mustahkamlash uchun darslikka murojaat qilinadi.

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing va shevaga oid birliklarning nima maqsadda qo‘llanganligini izohlashga harakat qiling.

1. **Juringlar**! Qaytishda cho‘milamiz! – dedi Oqboy. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. **Shuytib** kepqolganman-da men bu yoqlarga, bolam. (*Erkin A’zam*) 3. Mana, Salomxon **aytvotti**, xijolat bo‘ladigan hech gap o‘tmabdi-ku. (*Murod Mansur*) 4. Sharif **akamgila** xat berib **yubordila**, – dedi. (*Tohir Malik*)

Yechim: badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllardan foydalanilgan: 1-gapda *juringlar – yuringlar*; 2-gapda *shuytib – shunday qilib*; 3-gapda *aytvotti – aytyapti*; 4-gapda *akamgila – akamlar, yubordila – yubordilar.*

2-topshiriq. Parchada tagiga chizilgan so‘zlarning qanday badiiy maqsadga xizmat qilayotganini tushuntiring.

Muxbir: – **Xo‘sh, xo‘sh, endi tak**... kechirasiz, kelinlaringiz orasida mayin kuladigani bormi?

Farmon: – Ha, bor. Mana, Sotti juda mayin, juda chiroyli kuladi. (*Said Ahmad)*

O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim, **yashamagur,** uni ham rasvo qildi. Bolaginamga ega chiqib, burnidan ip o‘tkazib oldi bu **dog‘uli**. (*Said Ahmad*)

Yechim: birinchi matnda shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun parazit so‘z (*xo‘sh, xo‘sh*) va varvarizm *(tak*), ikkinchi matnda esa qahramonning ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini ifodalash niyatida vulgarizm unsurlari – dag‘al va haqorat so‘zlar (*yashamagur, dog‘uli*) ishlatilgan.

56-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday badiiy maqsadda qo‘llanganini izohlang.

1. Mingboshi erkin-erkin kuldi: – Tavba de, **betavfiq**! Astag‘firullo, de! – Miryoqub „astag‘firullo“ o‘rniga uyat bir so‘z aytdi. Mingboshi beshbattar yoyilib kuldi. – A **battol**-ey! O **battol**-ey! – dedi u. (*Cho‘lpon*) 2. Tuf de, ko‘zing tegadi, **kasofat**! Shu so‘zingni menga aytsang, tishingni sug‘urib olardim. (*Oybek*) 3. Bu yerda ish yomonmi? Raisning gapini eshitding-ku, **yer yutkur**! (*O‘.Umarbekov*) 4. Hazarni biladimi bu **go‘rso‘xta**. Hukumat**ni** qo‘liga tushsa, otuv berardi. (*Murod Mansur*) 5. Endi Qizilsoyga yaqin borsang, o‘ldiraman, **juvonmarg**! (*Erkin A’zam)*

Yechim: qahramon ichki dunyosini, tarbiyalanganlik darajasini bo‘rttirib ifodalash niyatida muallif ularning nutqida vulgar birliklar: dag‘al va haqorat so‘z-iboralarni qo‘llagan. 4-gapda shevaga xos grammatik vosita (*hukumat**ni***) ishlatilgan.

57-mashqda atoqli adib Abdulla Qahhor qalamiga mansub matn berilgan. Matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*) va unda nutqning qaysi sifatiga bee’tiborlik haqida gap ketayotgani ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi (*gapirish*): bunda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan yaproqqa belgi qo‘yadilar. O‘qituvchi belgilarni hisoblab, sonini aniqlaydi. So‘ngra to‘g‘ri javobni aytib, g‘oliblarni rag‘batlantiradi.

Xulosa: yozuvchi nutqning boyligi sifatiga diqqatni tortib, tilning xalqona jozibadorligini, badiiy-estetik saviyasini pasaytirgan jihatlarni nazarda tutgan.

58-mashqdagi gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan parazit so‘zlar shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanganligi izohlanadi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar
Tishi o‘tmaydi	1. Biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi. 2. Yenga olmaslik; o‘zlashtira olmaslik. 3. Idrok qilolmaslik, uqib yoki tushunib ololmaslik.	*Men uni yaxshi bilaman: uncha-muncha-ning tishi o‘tmaydi.* *Masala juda qiyin ekan, yechishga tishim o‘tmayapti.*
Xamirdan qil sug‘urganday	osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz	*Ishni xamirdan qil sug‘urganday hal qilgan nafs bandalari qilmishlariga yarasha javob berdilar.*
Xamir uchidan patir	katta, ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism	*Bu natijalar, albatta, xamir uchidan patir yoki dengizdan bir tomchidek gap.*

O‘tilganlarni mustahkamlash maqsadida „7x7“ usulidan foydalanish mumkin. O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘sh kataklardan iborat jadvalni doskaga ilib qo‘yadi.

Sinf yettita kichik guruhga bo‘linadi. Nutq mantiqiyligi, sofligi va badiiy nutq uslubiyati yuzasidan olingan bilimlarni umumlashtirish maqsadidagi didaktik mashq yo‘nalishi tushuntiriladi. Slaydda badiiy nutqqa xos tasviriy vositalar ko‘rsatiladi. Har bir guruh o‘z yo‘nalishi bo‘yicha mos birliklarni jadvalga joylashtiradi.

Quyida badiiy nutqqa xos tasviriy vositalar keltirildi**.** O‘qituvchi ularni aralash holda slaydda berishi tavsiya qilinadi.

1. O‘xshatishlar: oynaday tiniq buloq, mumday erimoq, toshday qattiq bardosh, oyday yorug‘ yuz, ko‘zday qo‘shni, soyaday ergashmoq, bo‘yraday joy.

2. Jonlantirishlar: mung‘aygan bog‘, vijdoni uyg‘ondi, osmonni suygan daraxt, qiynoqlar qiynalib qoldi, bahor uyg‘ondi, tog‘lar yastanib yotar, yulduz uchdi.

3. Metaforalar: to‘nka, jim o‘tir; yulduzlar bilan uchrashuv; gulim, kel; uxla, qo‘zichog‘im; ko‘nglim ul oydadur; qush uyasida ko‘rganini qiladi; arslonim chempion bo‘ldi.

4. Iboralar: yuragiga qil sig‘maydi, do‘ppisini osmonga otmoq, to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq, soyasiga salom bermoq, tili qisiq, ilonning yog‘ini yalagan, kapalagi uchib ketdi.

5. Varvarizmlar: koroche, tak shto, chicken, okey, malades, uje, savsem, tochno, zvonok, zajigalka, mister.

6. **Shevaga xos so‘zlar:** oshna (do‘st), ena (buvi), acha (buvi), chalop (ayron), qoqirim (tumovga qarshi tayyorlanadigan ayronning bir turi), bichak (somsa), kadi (oshqovoq), hazorispan (isiriq).

7. **Parazit so‘zlar:** habba, innaykeyin, deylik, men sizga aytsam, haligi, xo‘sh, esa-chi, o‘sha, masalan.

Darslikdagi savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalarini qo‘lga kiritadilar.

59-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqning kommunikativ sifatlari, xususan, to‘g‘rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik yuzasidan olgan BKMlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy urf-odatlarimizga, ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Savol va topshiriqlarni „Kichik guruhlarda ishlash“ usulida o‘rganish tavsiya etiladi. Har bir guruhga bittadan savol berib, tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Guruhlar bir-birining javoblarini to‘ldirishi mumkinligi aytiladi (*o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi).

1-topshiriqni bajarishda „Hamkorlikda ishlaymiz“ metodi tavsiya qilinadi. O‘quvchilar gaplarni o‘qib, nutqning aniqligini ta’minlashga ta’sir qilayotgan til birliklarini aniqlaydilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim:

1. Kechikib kirgan qish endi kun sayin sovug‘ini **kuchaytira boshlagan edi** *(jonlantirish)*. Qor yo‘q, lekin **ertalab yalang‘och daraxtlarda va tomlarda qalingina qirov yaltiraydi** *(sifatlash)*. *(Oybek)*

2. G‘afur G‘ulomning fikr-u yodi **tug‘ilayotgan she’r**da edi (*jonlantirish)*. Frontdan qaytishda **bombalar portlagan o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda** silkinib ketayotgan yuk mashinasida ham yoza berdi (*sifatlash*). *(Said Ahmad)*

3. Yaqin ikki haftadan beri **ko‘z ochirmayotgan** kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida **chiyillaydi, g‘uvillaydi;** tomlarda **vishillaydi,** yopiq eshik va darchalarga **bosh urib, uf tortadi** *(jonlantirish)*. *(Abdulla Qahhor)*

2-topshiriq. Berilgan „Tomsuvoq“ matni audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Matn yuzasidan quyidagi savollar berilib, uning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlashiladi:

1. Tomsuvoq qilish udumi (lo‘mboz) o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qanday fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan?

2. Kampirning o‘g‘lini „nodon bola“, „nobakor“ deb atashini qanday izohlaysiz?

3. „Ko‘chaning tuprog‘i – ko‘pchilikning haqi“, degan fikrga qo‘shilasizmi?

O‘quvchilar matnning kompozitsion tuzilishini aniqlaydilar: kirish, asosiy qism va xulosaga ajratadilar, ular o‘rtasidagi mazmuniy mutanosiblikni izohlaydilar (*gapirish*).

Matnning kompozitsion tuzilishi
Kirish Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...
Asosiy qism O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loy handaq qazilgan ekan. Somon, katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdan yumshabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov handaqqa tushib loy solib berib turdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi... Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchimning keksa onasi kelib qoldi. Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchimizning oldiga bordi. – Nima qilding? – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qilib qo‘yding?! Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida, ayniqsa, mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi. – Nima qipman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirpiratib. – Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! Nega ko‘chadan loy qildilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi, nobakor! Ko‘pchilikning haqi-ku bu! Bir zum harsillab turdi-da, to‘satdan yig‘lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o‘tirib oldi. Hammamiz qaytadan tomga chiqdik. Suvoq qilishdan ko‘ra loyni ko‘chirish qiyin bo‘larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko‘chadagi loy handaqni to‘ldirib qo‘ydik.

Xulosa

Oradan yillar o‘tib, kampir ko‘z yumganida tumonat odam uni o‘sha ko‘chadan so‘nggi manzilga ko‘tarib bordi.

Ko‘cha tuprog‘i iliq edi... Mayin edi... *(O‘. Hoshimov)*

Izoh: matn kompozitsion tuzilishida mazmuniy mutanosiblik, bog‘lilik mavjud.

Kirish qismida xalqimizning ajoyib udumlaridan biri bo‘lgan tomsuvoq haqida gap boradi. Hasharning hamjihatlikda qilinishi, ayniqsa, oqibat va shafqat tushunchasi orqali tarbiya beriladi.

Asosiy qismda tomsuvoq jarayoni hikoya qilinadi. Gaplarning izchilligi, mazmuniy bog‘liqligi ta’minlangan. Personajlar nutqi jonli, jozibador, xalqona ohangga ega. „Halollik“, „ko‘pchilikning haqi“ tushunchalari obrazli ochib berilgan.

Nihoyat, yozuvchi voqea yuzasidan xulosa chiqarishni o‘quvchi hukmiga havola qiladi. Hikoyaning boshidan oxirigacha o‘tgan „qizil ip“ – **tuproq** asli xalqning asriy ruhiyati, o‘lmas qadriyatlariga ishoradir.

3-topshiriqda o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, so‘zlovchining nutqi qaysi shevaga mansubligini aniqlaydilar va lug‘at daftarlariga tushiradilar (*o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlanadi).

Oka, unaqa vaqtim yo‘q, – dedi shofyor. – Nochorlikdan **chiqovuzde**. *(Sh. Xolmirzayev)*	Toshkent shevasi
Bundan **kattakoniyam** bor. **Apasiyam** bor. *(Sh. Xolmirzayev)*	Surxondaryo shevasi
Bugun Aravonda katta uloq, deng, **ashaqqa** borish kerak. **Endivla** jo‘naymiz, deb turuvdik. *(Tohir Malik)*	Andijon shevasi
Ertaga **biznikiga** nonushta qilsak. *(Said Ahmad)*	Samarqand – Buxoro shevasi
Bundaychikin polvonni yana qaytib davraga **yonoshtirmaslik** kerak! *(Tog‘ay Murod)*	Qashqadaryo shevasi

LUG‘AT ISHI

Boshi shishmoq – o‘ylayverib gangimoq. *Ma’nodoshi*: boshi qotmoq; miyasi g‘ovlab ketmoq. *Misol*: Janjal nimadan chiqqanini o‘ylayverib boshim shishib ketdi.

Enka-tenkasi chiqmoq – 1. Qiynalib ketmoq. *Varianti*: enka-tenkasini chiqarmoq. 2. To‘satdan qattiq qo‘rqmoq. *Misollar*: 1. Uf, yana qancha bor, rosa enka-tenkamiz chiqdi. 2. Voy o‘lmasam, enka-tenkam chiqib ketay dedi-ku!

4-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi. O‘quvchilar matnni ko‘chirib, undagi badiiy maqsad bilan voqelangan adabiy me’yordan chekinish holatlarini aniqlaydilar.

Yechim:

– Kechirasiz, Quvvatjon, – deb yana gap qotdi Gulsara. – **Pisatel**larning **dacha**si bor, deb eshitardim. „Dam olish uyi“ga **o‘xshiydimi**? Boya **biznesmen**lar ham ko‘p **dediyiz.** Demak, sanatoriy **tip**ida?

– Farq qiladi, – dedim. – Uning nomi **to‘lasicha** „Yozuvchilarning ijod va istirohat bog‘i“ deyiladi. Uch qavatli imorat... Ko‘pchilik xonalari bir kishilik. Yashash, ishlash uchun sharoit bor...

– O, yaxshi ekan. Yozda Toshkentda nafas **obo‘miy** qoladi... Bilasizku **o‘ziyiz**?

– Ha.

– **Ponyatno**, – deb qo‘ydi Gulsara. Keyin yana so‘radi: – Bizni begona deb...

– O‘-o‘, yo‘q. Unaqangi temir qoidalar bizda yo‘q... Umuman, uyushmamizdayam **ilgaritdan** qandaydir demokratiya bor edi.

– E-e, yozuvchilaringiz ham bir-birini juda qamatishgan ekan, – dedi Tavakkal.

– Ha, – dedim. – Afsuski, shunday bo‘lgan... (*Sh. Xolmirzayev*)

NUTQNING BOYLIGI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda nutqning boyligi va uni ta’minlovchi vositalar haqidagi tushunchalarni rivojlantirish; og‘zaki va yozma nutqda o‘rinsiz takrorlardan foydalanish g‘alizlik keltirib chiqarishini matn tahlili orqali ko‘rsatish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali unga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash; tilimizni qadrlash, uni himoya qilish ko‘nikmasini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalarini shakllantirish.

1-topshiriqni bajarishda „Muharrir maktabi“ metodi tavsiya qilinadi. Berilgan parchada ayni bir xil birikmaning bir necha marta qo‘llanishi natijasida nutqning kambag‘allashayotganiga diqqat qilinadi va izohlanadi (*o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Asosiy matn	Tahrir qilingan matn
Men esa, iloji boricha, **kuchimning boricha** chopib, jinoyatchidan ortda qolmaslikka, uning qorasini ko‘zdan yo‘qotmaslikka tirishaman... Valitov yo‘l ustiga gursullab ag‘anadi, Davletshin chaqqonlik bilan uning ustiga minib oldi... **Bor kuchi bilan** tipirchilab, oyoqlari bilan tepinib ko‘rsa ham, Valitov uni ustidan irg‘itib tashlay olmadi... Biz yetib kelgan edik. **Bor kuchim bilan** uning qo‘liga yopishdim. (M. Nasibullin)	Men esa, iloji boricha, *oyog‘imni qo‘limga olib,* chopib, jinoyatchidan ortda qolmaslikka, uning qorasini ko‘zdan yo‘qotmaslikka tirishaman... Valitov yo‘l ustiga gursullab ag‘anadi, Davletshin chaqqonlik bilan uning ustiga minib oldi... *Jon-jahdi bilan* tipirchilab, oyoqlari bilan tepinib ko‘rsa ham, Valitov uni ustidan irg‘itib tashlay olmadi... Biz yetib kelgan edik. *Zo‘r berib* uning qo‘liga yopishdim.

2-topshiriqdagi matn o‘qiladi. Ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanish o‘rinlariga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish va yozish kompetensiyalari rivojlanadi*).

Yechim: ilonning yog‘ini yalagan, ayyor, mug‘ambir (ibora va so‘z ma’nodoshligi); chaqqon – ildam. Iboraning qo‘llanishi qahramon xarakterini yorqin ochishga ko‘mak bergan.

Nutq ta’sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo‘lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘zlar, ma’nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.) dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al hisoblanadi va uning ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya’ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo‘llanilgan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o‘lchanadi.

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga turlicha til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so‘zlar, ularning ma’nolari,

so‘z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo‘lmog‘i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo‘lsa, notiq o‘z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko‘proq ega bo‘ladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o‘rin tutadi.

60-mashq *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Bajarish tartibi:

1. Matn eshittiriladi.
2. Mazmuni bo‘yicha tarbiyaviy daqiqa o‘tkaziladi.
3. **Ota** va **padar** so‘zlarining ma’nodoshligidan nutq boyligini ta’minlashda qanday foydalanilganligi izohlanadi.

Izoh: bu matnda **ota** so‘zi ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma (*ustoz*) ma’noda qo‘llangan va shu tariqa matn ta’sirchanligi ta’minlangan.

61-mashqda berilgan matnlar o‘qiladi, ma’nodosh so‘zlar aniqlanib, sinonimik qator tarzida daftarga yoziladi. Ularning qo‘llanishiga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

1-gapda *sas, ovoz, sado; yovuz, dahshatli* ma’nodoshlarini qo‘llash natijasida badiiy tasvirdan anglashilayotgan mazmun kuchaytirilgan.

2-gapda *do‘st, o‘rtoq, birodar* ma’nodoshlarini qo‘llash orqali so‘zni takror qo‘llashning oldi olingan; *tarix* so‘zi uning ma’nodoshi bo‘lgan *o‘tmish* so‘zi orqali izohlangan.

62-mashq uchun „2+“ metodi tavsiya etiladi. Birinchi guruh so‘z shaklidagi, ikkinchi guruh esa ibora shaklidagi sinonimlarni topib, juftlik hosil qilishlari kerak (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

Leksik ma’nodoshlik	Sintaktik ma’nodoshlik
og‘ir – zalvarli	baqadek tosh qotgan – hayratdan tosh qotgan
tabassum qilmoq – kulmoq	kutgan hol yuz bermadi – quturmadi
avvaliga – so‘ng	

63-mashqni bajarishda „Qayta hikoya“ metodi tavsiya etiladi. Matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi yoki audio shaklida eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matndagi obraz tasviridagi so‘z va birikmalarni yodda saqlab, qayta hikoya qilib berishlari kerak. Bu mashq orqali *tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Yechim:

Yigit qiyofasining tasviri	Birinchi yordamchi tasviri
Yoshi qirqda, lekin o‘ttiz yoshdek (**ko‘rinishi yosh, zahmat chekmagan**); qomatdor, xipcha, sochlari orqaga taralgan, silliq taralib, ustidan lok sepilgan **(tashqi ko‘rinishiga e’tiborli)**; to‘qrang kostyumi sutday oppoq ko‘ylakda, misoli tanburning toriday tarang (**kiyimni ham tanlab kiyadi**); yuzida tavoze, ammo jilmaygani sezilmaydi (**sirtiga suv yuqtirmaydi**).	Dehqonsifat (**kiyim tanlamaydi**); semiribroq ketgan (**sog‘lig‘iga e’tiborsiz**); yoshi ham biror ellikni qoralagan (**tajribali**); gaplari keskin va bejog‘siz (**rostgo‘y va dangalchi**).

LUG‘AT ISHI

Iboralar	Izohi		Misollar
Ep bilmaslik	Noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq	**Ma’nodoshi:** ep ko‘rmaslik	*Hotam ortiqcha adi-badi aytib o‘tirishni o‘ziga ep ko‘rmadi.*
Esi ketmoq I	1. Qiynalib holsizlanmoq	**O‘xshashi:** holdan toymoq; holdan ketmoq	*Eskini yamaguncha esing ketadi.*
	2. Qayta-qayta mehribonlik, xayrixohlik bildirmoq	*Har gal qishloqqa borganida opasi aylanib-o‘rgilib esi ketadi.*	
Esi ketmoq II	Xayoli biror narsa haqidagi o‘y-xotiralar bilan band	*Yana bolalik xotiralariga esi ketdi.*	

Darslikdagi savollarga javob topilib, baholar izohlab qo‘yiladi. **64-mashq** uyga vazifa qilib beriladi.

Yechim:

	Sinonimik juftlik	Ifodalanayotgan birlik
1	shovqinlanmoq – boshiga ko‘tarmoq	leksik-frazeologik

	yoqtirmaslik – jini qurishib turish	leksik-frazeologik
2	halim tabiat – yumshoq ko‘ngil	leksik-frazeologik
3	qarab chiqmoq – axtarmoq – titkilamoq	leksik-leksik-leksik
4	yig‘ladi – dod soldi – ho‘ngramoqdan beri bo‘lmoq – ko‘zi yoshga jiqqa to‘lmoq; unmoq – o‘smoq	leksik-frazeologik leksik-leksik

Izoh: nutqda leksik va frazeologik sinonimlarni qo‘llash natijasida takrorlarning oldi olinadi, jozibadorlik va ekspressivlik ortadi, nutqning ta’sirchanligi ta’minlanadi.

NUTQNING BOYLIGINI TA’MINLOVCHI VOSITALAR

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar haqida tushuncha berish; og‘zaki va yozma nutq tuzishlarida ma’nodoshlardan foydalanish orqali o‘rinsiz takrorning oldini olish.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish orqali kitobxonlik madaniyatini oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutq boyligini ta’minlayotgan vositalarni aniqlay olish ko‘nikmasini shakllantirish; *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalarini rivojlantirish.







Mavzu uchun quyidagi videotopishmoq-matndan foydalanish tavsiya qilinadi:

Olimlarning hisoblab chiqishlariga ko‘ra, „Rus poeziyasining quyoshi“ o‘z asarlarida 21197 ta betakror so‘z ishlatgan. „Tragediyalar qiroli“ salkam 20 mingta, „Don Kixot“ romani muallifi 1000 taga yaqin so‘z zaxirasiga ega bo‘lgan.

„Shams ul-millat“ esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so‘z qo‘llagan. Boisi shuki, buyuk shoir nafaqat turkiy, balki forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan. (*O.Hoshimov*)

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va

yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarining, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy matnda ijodkor niyati, o'y-xayoliga bog'liq ravishda adabiy me'yor doirasidan tashqarida bo'lgan til shakllari ishlatilishi ham mumkin. Eskilik va yangilik o'rtasidagi kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham, ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. O'z nutqining boy va ta'sirchan bo'lishini istaydigan har bir kishi o'z lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

<table>
<tr><th colspan="2">Nutqning boyligini ta'minlovchi vositalar</th></tr>
<tr><td>Leksik vositalar</td><td rowspan="4">1.Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochish maqsadida ma'nodoshlardan foydalanish.
2. Sodda va qo'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplarini qo'llash.</td></tr>
<tr><td>Semantik vositalar</td></tr>
<tr><td>Grammatik vositalar</td></tr>
<tr><td>Intonatsion vositalar</td></tr>
</table>

Darslikdagi **topshiriq** „Topqirlar" metodida bajariladi (*tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi). Matnda *kapalak* so'zining yetti marta takrorlanishi natijasida nutqning leksik boyligi zarar ko'rgan.

Yechim:

Asosiy matn	Tahrirlangan matn
Kapalaklarni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan **kapalak**larga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularning hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalak**ka ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa? O‘tkir **kapalak**ni ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **kapalak** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O‘tkir **kapalak**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **kapalak**ni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi. (*A. Sodiqov , „Tog‘da“ hikoyasi*)	**Kapalak**larni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan **bu tabiat mo‘jizalari**ga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularning hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalak**ka ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa?! O‘tkir **u**ni ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **ipak qanotli** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O‘tkir **gul shaydosi**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **jajji farishta**ni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi.

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo‘llanadigan takrorlardan farqlash lozim.

Ko‘proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta’kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog‘lovchi, so‘z, so‘z birikmasi, gaplar takrorlanadi.

Quyidagi parchalardan nazariy ma’lumotni dalillash maqsadida foydalanish mumkin:

1. She’riyat, yo‘llaringda sening,
Eh, kimlar zor-u zor kezmagan.
Eh, kimlar chok etib ko‘ksini,
Qalbini g‘ijimlab ezmagan. (*R.Parfi*)

2. Bobomiz hovlisi Farg‘onada ***bo‘ladi.***
Dalasi Farg‘ona adog‘ida ***bo‘ladi***.
Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi.
Suv gavhar zilol – gavhar zilol suv bo‘ladi.
Suv egilmish tollar majnun-majnun sollanadi. (*T. Murod*)

3. **Nega *inson*** o‘zini ayamaydi, aziz Momo Yer? Axir bor-yo‘g‘i birgina joni bor-ku uning, ikkitamas-ku.

Nega shunday fidoyilar o‘ladi? ***Nega*** yer o‘pirilib, osmon uzilib tushmaydi ***inson*** o‘lganida, ***inson*** yiqilganida?! (*T. To‘la*)

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun **„FSMU“ metodi** tavsiya etiladi:

F – mavzu bo‘yicha **fikr**ingizni bayon qiling.
S – fikringiz **sabab**ini bildiring.
M – **misol**lar keltiring.
U – fikringizni **umumlashtiring.**

65-mashqqa „Audionutq“ metodini tatbiq etish tavsiya qilinadi. Bajarish jarayonida *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

1. Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, ozod-ozod to‘lin oy samoda nur sochdi. Bir **malak bor edi**, **kelin bo‘ldi,** bir **jayron bor edi,** qafasga tushdi, bir **qiz bor edi,** turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo‘ydi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: bu gapda takrorlar (***bor edi***) orqali ma’no ta’kidlangan. Ham ma’no ko‘chishi yuz bergan, ham o‘xshatish hodisasi qo‘llangan. Sxemada ko‘ramiz:





2. Farzand ko‘rgach, Ra’no haqiqatan ham gul-gul ochildi. Qizlik go‘zalligi bu tarovat oldida hech nima bo‘lmay qoldi. Gul **edi**, Xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak **edi**, barq urib ochildi. Bulut **edi**, yomg‘irini ayamay to‘kdi. Quyosh **edi,** harorat-la porladi. Oy **edi,** to‘lishdi. Kecha **edi,** bag‘ri yulduzga to‘ldi. Qush **edi**, jo‘shib-jo‘shib sayradi. Zilol **edi,** sharqirab oqdi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: matnda Ra’noning onalik baxti tasvirini berishda ta’kidni kuchaytirish maqsadida takrorlar hamda o‘xshatishning go‘zal namunalari keltirilgan:



Edi to‘liqsiz fe’lining takrori badiiylikni ta’minlagan

66-mashq „Intervyu“ metodidan foydalangan holda bajariladi.

1. Matn bilan tanishiladi (*o‘qish, tinglash*).
2. Hozirgi zamon ma’nosining ifodalanishiga diqqat qilinadi.
3. Grammatik ma’nodoshlikning boy nutq tuzishdagi ishtiroki yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

Yechim: yer haydamoqda, urug‘ sepyapti (*har ikkala til vositasi shaklan va mazmunan hozirgi zamon);* **shimarib olgan** (*shaklan o‘tgan*

zamon, mazmunan hozirgi zamon); **yer haydab, ekin ekayotir** (*shaklan va mazmunan hozirgi zamon*); yer haydaydi, xirgoyi qilib qo‘yadi (*har ikkalasi shaklan kelasi zamon, mazmunan hozirgi zamon*).

Izoh: barcha fe’l shakllari mazmunan hozirgi zamonni ifodalagan;

yer ***yumshoq,*** *havo* ***yoqimli,*** *ishning unumi* ***yaxshi,*** *ruhlari* ***ko‘tarinki*** birikmalari tarkibidagi sifatlar tasviriy matnning jozibadorligini ta’minlagan;

yumshoq, yoqimli, yaxshi, ko‘tarinki so‘zlariga ma’nodoshlar topiladi (*yozish*).

Namuna:

yumshoq – muloyim, mayin…

yoqimli – huzurbaxsh, zavq bag‘ishlovchi…

yaxshi – durust, zo‘r, yuqori…

ko‘tarinki – xursand, shod…

67-mashqqa „Hamkorlar“ metodini qo‘llash tavsiya etiladi. Badiiy va ilmiy-ommabop matnda o‘rikka berilgan tavsiflar qiyoslanadi. Nutqning boylik sifati, ayniqsa, badiiy uslubda ahamiyatliligi tushuntiriladi.

Yechim:

<table>
<tr><th>Matnlar</th><th>O‘xshashlik</th><th>Farqlilik</th></tr>
<tr><td>Qandak o‘rik
Otim bor,
Xo‘p mazali
Totim bor.
Mag‘izimga
berkitgan
Qandim bor,
Novvotim bor.
(E. Vohidov)</td><td rowspan="2">Ikkala matnda ham bir tushuncha – o‘rik tavsifi berilgan.</td><td>- badiiy uslubga xos;
she’riy ritmga solingan;
- badiiy tasvir vositalari qo‘llangan: sifatlash (mazali), jonlantirish (mag‘izimga berkitgan);
- intoq mavjud (jonsiz narsa so‘zlayapti);
- estetik zavq beradi;
- obrazlilik kuchli.</td></tr>
<tr><td>O‘rik – ra’noguldoshlar oilasiga mansub mevali o‘simlik. Vatani – O‘rta Osiyo. O‘zbekistonda, asosan, oddiy o‘rik turi ekiladi. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg‘ish; danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillari bor; shirin, shirinnordon. O‘rik – yaxshi asal beruvchi daraxt. (O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi)</td><td>- ilmiy uslubga xos;
- nasriy bayon;
- tavsifda aniqlik, tushunarlilik, ommaboplik belgisi ustun;
- botanikaga oid terminlar (ra’noguldoshlar oilasi, mevali o‘simlik, mevasi etli, danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillar, tur, daraxt) berilgan;
- hissiylik mavjud emas.</td></tr>
</table>

68-mashqqa „Tahrir maktabi“ metodi tavsiya etiladi. Gaplar o‘qiladi va nutqning boyligini ta’minlayotgan birliklar izohlanadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: 1-gapda **ko‘ngling tusagan** (ibora), **ma’rifat, ziyo** (sinonimlar) mavjud; so‘zlashuv uslubiga xos buyruq gapda maslahat ma’nosi ifodalangan, o‘ziga xos kinoyaviy intonatsiya kuchli. 2-gapda **tugab – izzatimiz bitib** (leksik-frazeologik ma’nodoshlik); *mehmonlik izzatimiz bitib* birikmasi orqali kinoya ma’nosi ifodalangan. 3-gapda **ot – tulpor, xush ko‘ramiz – yaxshi ko‘ramiz** (leksik ma’nodoshlik), **tamom o‘zidan ketgan – butkul unutib** (frazeologik-leksik ma’nodoshlik), qisman saj mavjud (unutib – yugurib – sindirib); **yaxshi ko‘ramiz** fe’li I shaxs ko‘plik shaklida tursa-da, kamtarlik ma’nosida I shaxs birlik mazmuniga ega; xitob orqali (**Uch-a, jonivor! Uch, akang qarag‘ayning xo‘rozlari!**), ***akang qarag‘ayning xo‘rozlari*** jumlasi esa so‘zlashuv nutqiga xos jonlilikni bag‘ishlagan.

69-mashqni bajarishda „Suxandon“ metodi tavsiya etiladi. She’riy parchani qiyomiga keltirib ifodali o‘qish bo‘yicha kichik tanlov tashkil qilinadi. Eng yaxshi badiiy o‘qish ustasiga „SUXANDON“ maqomi taqdim etiladi. Leksik takrorning qanday maqsad bilan qo‘llangani izohlanadi.

Shag‘irlaydi betinim daryo,
Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar,
Shag‘irlaydi qorong‘i dunyo,
Shag‘irlaydi vodiy, daralar. (*Hamid Olimjon*)

She’rdagi intonatsion ta’kid va voqelik tasviri ifodasini berish maqsadida *shag‘irlaydi* so‘zi takror qo‘llangan va badiiy nutqqa go‘zal ohang bag‘ishlagan.

Izoh: tun payti shunday osudalik cho‘kadiki, „tiq“ etgan tovush ham jaranglab eshitiladi. Tun qo‘yniga cho‘mgan daryo, jar, vodiy-daralar – dunyoning o‘ziga xos sokin musiqasini shoir *shag‘irlaydi* so‘zini qo‘llash orqali ravshan ifodalab bera olgan.

LUG‘AT ISHI

Esi chiqib ketmoq – nihoyatda qattiq qo‘rqmoq. *Varianti*: esxonasi chiqib ketmoq. *Ma’nodoshi*: jon-poni chiqib ketmoq; joni halqumiga kelmoq. *O‘xshashi*: kayfi uchmoq; yuragi chiqib ketmoq. *Misollar:* 1. Anzirat xolaning bu xabardan esi chiqib ketay dedi. 2.Gapning ochig‘i, jonim halqumga kelib qoldi.

Yuzidan o‘ta olmaslik – biror ishni qilishda kimningdir ra’yi, xohishi bilan hisoblashmoq. *Misol:* shartta hammasidan voz kechib ketgisi kelar, biroq mehribon yangasining yuzidan o‘ta olmasdi.

Uyga vazifa beriladi.

70-mashq. Matnni ko‘chiring. Nutqning boyligini ta’minlayotgan ma’nodosh so‘z va iboralarni aniqlang.

Amir bo‘la(xolavachcha)miz **ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq**, aksariyat savdo ahliga xos **kirishimli,** sal narsaga **yon beruvchi** yigit. U menga juda mehribon, „bolajonim“lab **boshiga ko‘taradi**. Qisqasi, Xudo berganini **birodarlari bilan bo‘lishadigan hotamtoy, muruvvatli** inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham **kek-g‘araz**ini sezmaganman, hamisha **bag‘rini ochib** muomala qiladi. To‘g‘ri, andak **kinoya aralash**, andak **piching-u istehzo bilan**. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyanning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini **xush ko‘rmaslik – iqi suymaslik**mi yoki arzimas bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib **adovat chohi**ga aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi **xarxasha-yu janjal** evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, „o‘gay“ jiyan – Amirga esa odatdagi yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (*Erkin A’zam*)

NUTQNING JO‘YALILIGI

Ta’limiy maqsad: *o‘quvchilarga nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar haqida tushuncha berish; og‘zaki va yozma nutq tuzishlarida ma’nodoshlardan foydalanish orqali o‘rinsiz takrorning oldini olish.*

Tarbiyaviy maqsad: *matnlarni tahlil qilish orqali muomala madaniyatiga rioya qilishni o‘rgatish.*

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriqni bajarishda **„Qayta hikoya“ metodi**dan foydalanish mumkin. Kaykovusning „Qobusnoma“ asaridan olingan parcha o‘qiladi. Gapni o‘z joyini topib gapirishning foydasi haqida fikrlashiladi. *Tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Tilingni yaxshi hunar **bila** o‘rgat**g‘il** va muloyim so‘z**din** boshqa narsani odat qilma**g‘il. Nedin**kim, tilga har **nechuk** so‘zni o‘rgatsang, shuni ayt**ur**, so‘zni o‘z joyida ishlat**g‘il,** so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u **harnechuk** yaxshi so‘z bo‘lsa ham, yomon, nobop eshitil**ur**. Shuning uchun behuda so‘zlama**g‘ilki**, foydasiz**dur**. Bunday befoyda so‘z ziyon keltir**ur** va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim. Hakimlar deb**dur**lar: „So‘z bir nash’a**dur**, undan xumor paydo bo‘*lur*“. (*Kaykovus*)

Topshiriqlar:

1. Matnni qayta hikoya qiling.

2. Ajratilgan so‘z va qo‘shimchalarning hozirgi kundagi variantlarini toping va daftaringizga yozing.

Izoh: **„So‘z bir nash’adur, undan xumor paydo bo‘lur“** jumlasida *nash’a* so‘zi she’riyatda *estetik lazzat, huzur, gasht* ma’nosini, *xumor* so‘zi esa *mushtoqlik, zo‘r istak* degan ma’noni anglatishini hisobga olsak, hikmatdan shunday mazmun chiqadi: so‘z lazzat, huzur bag‘ishlagani uchun (odamda) unga mushtoqlik, chanqoqlik paydo bo‘ladi.

Agar nutq o‘zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan jo‘yali, ya’ni o‘z o‘rnida bo‘lmasa, u maqsad manziliga borib yetmaydi. Jo‘yalilik yo‘q joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati yo‘qoladi.

Xalqimiz donoligining bebaho boyligi, o‘zbek so‘zining ko‘rki bo‘lgan maqol va matallarda ham bu fikr qayta-qayta uqtirilgan: *„So‘zga tushmagan so‘zni aytma, Sozga tushmagan g‘azalni“; „Jo‘yali so‘z jo‘yasin topar, Jo‘yasiz so‘z iyasin (yegasin) topar“; „Jo‘yaga tuya ham cho‘kadi“; „O‘rinli so‘zga tuya cho‘kadi, O‘rinsiz so‘zga hamma so‘kadi“.*

Kimningdir og‘ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun tuziladigan nutqda ortiqcha chiroylilik, jimjimadorlik, ko‘tarinkilik, tantanavorlik bo‘lmasligi lozim, aks holda nutq o‘rinli hisoblanmaydi. Umuman, nutqning o‘rinlilik sifatini ta’minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan mazmunni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog‘i lozim.

Sinf to‘rt guruhga bo‘linib, darslikdagi mashqlar guruhlarga tahlil uchun bo‘lib beriladi. Ma’lum vaqt ajratiladi. Har bir guruh o‘ziga taqsimlangan matn tahlilini taqdimot qilib beradi.

1-guruh tomonidan **71-mashq**da berilgan matn „Dialog“ usulida o‘qiladi. Nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlar aniqlanadi (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: **O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l**, deganlari haq ekan. (*„Xonadon“ gazetasidan*)

Izoh: suhbatdosh asli Farg‘onada tug‘ilgan, biroq Toshkentda yashaydi. Uning tilidan aytilgan maqol Vatandan ayriliqda yashash azobini tortganlarga nisbatan qo‘llanadi. Farg‘ona ham, Toshkent ham bir mamlakat hududida joylashgan va bordi-keldida hech qanday monelik tug‘ilmaydi. Shuning uchun *„O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l“* maqoli o‘rinsiz hisoblanadi.

2-guruhga **72-mashq**ni bajarish uchun **„Tahrir maktabi“ metodi** tavsiya etiladi. Berilgan gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar nutqning joʻyalilik sifatini nima uchun buzayotganligi izohlanadi *(oʻqish va gapirish)*.

T.r.	Berilgan gap	Tahrirlangan gap	Izoh
1	Nimalar qilyapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan **yaltoqlanib** Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (*M. Nasibullin*)	Nimalar qilyapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (*M. Nasibullin*)	*Yaltoqlanmoq – laganbardorlik, xushomadgoʻylik qilmoq. Yolvoruvchan ovoz* birikmasi bilan *yaltoqlanib* soʻzi birga qoʻllanib, mantiqsizlikni yuzaga keltirgan.
2	Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, **shangʻillagancha** quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar. (*S. Ravshanov*)	Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar.	*Shangʻillamoq – baland ovozda baqirib gapirmoq.* Farzandning oʻz onasiga nisbatan bu soʻzni qoʻllashi millatimizga xos emas.
3	Ertalab men maktabga, bobom esa harbiy komissariatga joʻnab ketdik. Oʻqishdan kelsam, oyim hali daladan qaytmabdilar. Bobom nimagadir xafa. – Keldingmi, **doʻndigʻim**? – deb xomush jilmaydilar. (*S. Ravshanov*)	Ertalab men maktabga, bobom esa harbiy komissariatga joʻnab ketdik. Oʻqishdan kelsam, oyim hali daladan qaytmabdilar. Bobom nimagadir xafa. – Keldingmi, **bolam**? – deb xomush jilmaydilar. (*S. Ravshanov*)	*Doʻndiq – boʻy-basti kelishgan, doʻmboqqina, loʻppi; yoqimtoy.* 1. Bu soʻz, odatda, qiz bolaga nisbatan qoʻllanadi. 2. Boboning ruhiyatiga *doʻndiq* soʻzi mos tushmagan.

4	„Tikuvchilik fabrikasida biroz ushlanib qoldim, shekilli, u shu orada, bu yerga qanday qilib kelib qoldi ekan!“ deya uning chaqqonligiga **rashkim** keldi shu topda. (*M. Nasibullin*)	„Tikuvchilik fabrikasida biroz ushlanib qoldim, shekilli, u shu orada, bu yerga qanday qilib kelib qoldi ekan!“ deya uning chaqqonligiga **hasadim** keldi shu topda.	*Rashk – qizg‘anish; kunchilik; ko‘ra olmaslik; raqiblik.* Gap mazmunidan kelib chiqib, *rashk* so‘zi *hasad* so‘ziga almashtirilishi lozim.

3-guruh **73-mashq**da berilgan parcha bilan tanishadi. Matnda bola, to‘rtinchi sinf o‘quvchisi tilidan qilingan hikoyada nutqning jo‘yalilik sifatiga salbiy ta’sir etgan so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni tavsiflashga harakat qiladilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: quyida matnda qo‘llanilgan ayrim so‘zlar izohi berilgan:

	So‘zlar	**Izohi**
1	beozor	ozor bermaydigan, dilni og‘ritmaydigan, muloyim
2	dilkash	kishini o‘ziga tortuvchi, suhbatlashsa, zavq, lazzat oladigan
3	odamoxun	odamgarchilikni biladigan, odamning izzat-hurmatini bajo keltiradigan
4	haytovur	har qalay, nima bo‘lsa ham, qanday bo‘lsa ham
5	mulla	madrasa ta’limini olgan shaxs
6	tamaddi qilmoq	ovqatlanmoq
7	sipo	kamtar, kamsuqum, oddiy; odmi kiyim

1) to‘rtinchi sinf bolasi yosh jihatidan **beozor, dilkash, odamoxun** so‘zlarini qo‘llashi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi;

2) **haytovur** so‘zi o‘rnida **ishqilib** modal so‘zini qo‘llagan ma’qul;

3) yosh bola o‘zidan ancha katta odamni **mulla Hamdam** deb aytishi odob-axloq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydi;

4) **sipo, tamaddi** so‘zlari nofaol so‘zlar hisoblanadi, shuningdek, bu so‘zlar 9–10 yashar bola nutqiga xos ham emas;

5) **matndagi voqea tartibi buzilgan:**

– mulla Hamdam kirib keldi;

– bola maktabdan kelib, endi tamaddi qilayotgan edi, darvoza taqilladi;

– mulla Hamdam kelibdi.

4-guruh **74-mashqdagi** parchani o‘qiydi. O‘quvchilar matnda qo‘llangan **xush kelibsiz** iborasining nutq sharoitiga muvofiq emasligi natijasida yuzaga kelgan jo‘yasizlikni tushuntiradilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: qabristonning tepasiga „Xush kelibsiz!“ degan tantanavor shiorni ilib qo‘yish kulgili emas, balki axloqiy-siyosiy jihatdan achinarli holatdir. Insonlar qabristonga biror yaqin insonini dafn etgani yoki vafot etgan jigarlarini yo‘qlash, ziyorat qilish maqsadida borishadi. **„Xush kelibsiz“** iborasi bunday kayfiyat uchun jo‘yali emas.

LUG‘AT ISHI

	Iboralar	Izohi	Ma’nodoshi: o‘takasini yormoq. O‘xshashi: kayfini uchirmoq.	Misollar
1	Yuragini yormoq I	qattiq cho‘chitmoq, qo‘rqitmoq		*1.Baqirma, o‘takamni yorib yubording-ku. 2.Shumxabar bangining yuragini yorib, kayfini uchirib yubordi.*
2	Yuragini yormoq II	ichidagi istak yoki dardini aytmoq	**Varianti:** ko‘nglini yormoq	*Nima qilay, opa, siqilganimdan sizga yuragimni yordim-da.*

75-mashq uyga beriladi.

JO‘YALILIK VA USLUBLAR

Ta’limiy maqsad: jo‘yalilik va uslublar munosabati yuzasidan tushuncha berish orqali o‘quvchilarda nutq madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish asosida o‘quvchilarga nojo‘ya so‘zlamaslik, jamoat joylarida, oilada muomala madaniyatiga amal qilish tushunchalarini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Topshiriq. Berilgan parchadagi **jamg‘armoq** so‘zining ma’nosi va uning ko‘proq rasmiy uslubga xoslanganligi haqida fikr yuritiladi (*o‘qish*). Keltirilgan gapda bu so‘zning o‘z o‘rnini topgan-topmaganligi izohlanadi (*gapirish*).

Ramazon aytuvchilar ko‘payib ketgan edi... Mabodo ulardan oldinroq biror eshikka borib qolsak, **jamg‘argan** narsalarimizni zo‘ravonlik bilan tortib olishardi. *(S. Ravshanov)*

Izoh: berilgan gapda *jamg‘armoq* so‘zi *yig‘moq, to‘plamoq* ma’nolarida ishlatilgan.

Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari bor. Bir uslubga xoslangan so‘z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o‘tkazilishi nojoiz, o‘rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning jo‘yaliligi buzilishi mumkin.

Jo‘yalilik sifatini o‘rganishda nutqning yozma va og‘zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida jo‘yalilik o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, yozma va og‘zaki nutqning voqe bo‘lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko‘ra bu ikki nutq shaklining o‘ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning jo‘yaliligiga putur yetadi.

Albatta, badiiy nutqda jo‘yalilik o‘ziga xos namoyon bo‘ladi.

Sinf uch guruhga bo‘linadi. Darslikdagi mashqlar guruhlarda ishlanadi. Tahlil qilingan matnlar yuzasidan taqdimot qilinadi. Mashqlarni bajarish jarayonida *tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. O‘quvchilar jamoaviy ahillikda ishlab, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish ko‘nikmasini egallaydilar**.**

76-mashqni bajarish tartibi: matn bilan tanishiladi. Unda qahramon tilida **o‘lmoq** so‘zining jo‘yasiz qo‘llanishi uning madaniy saviyasini ta’kidlashga xizmat qilayotgani izohlanadi.

O‘lmoq so‘zining quyida berilgan sinonimlari matndagi jo‘yasiz qo‘llangan so‘z o‘rniga qo‘yib ko‘riladi va 1-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar tomonidan munosabat bildiriladi.

O‘lmoq – vafot etmoq, dunyodan o‘tmoq, ko‘z yummoq, qazo qilmoq, yashashdan to‘xtamoq, rihlat qilmoq, yuragi urishdan to‘xtamoq, bandalikni bajo keltirmoq, paymonasi tugamoq.

77-mashqni bajarish tartibi:

1. Parcha bilan tanishiladi.

2. Diniy va’z uslubini so‘zlashuv uslubiga ko‘chirish natijasida yuzaga kelayotgan yumoristik kulgi izohlanadi.

2-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar munosabat bildiradi.

Yechim: avval namunadagidek lug‘at-jadval tayyorlanadi:

So‘zlar	Izohi
Qiroat	Qur’on oyatlarini tavjid qoidalariga rioya qilgan holda o‘qish
Muftiy	musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniy
Fuzalo	o‘qimishli kishilar; donishmandlar, ziyolilar
Shariat	islom huquq tizimida musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalar majmuyi
Fatvo	shar’iy hukm chiqarish; matndagi ma’nosi: kafillik, kafolat, ishonch
Alhol	ayni vaqtda, hozirda, shu paytda
Mullo	madrasa ta’limini olgan kishi
Pora	parchalangan narsaning bir qismi; bo‘lak, parcha
Xatm	tugatish, tamom qilish, oxiriga yetkazish
Maxluqi olloh	xudo yaratgan jonzot

Izoh: xar – eshak; kabut – ko‘k.

Vafo attor shar’iy hiyla ishlatadi: mulla sifatida besh daqiqa ichida eshakni rangi ko‘k, qornida homilasi borligi haqida kafolat beradi.

78-mashqni bajarish tartibi:

1. Parcha bilan tanishiladi.

2. Er va xotinning maqomini atayin almashtirish natijasida, ya’ni nutqning jo‘yalilik sifatining buzilishi asosida yaratilgan o‘tkir kulgining mohiyati izohlanadi.

3-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar munosabat bildiradi.

Yechim: „Debat“ metodi orqali matnga tayangan holda erkak va ayolning odatiy oilaviy vazifalari jadvalga yoziladi:

Erkakning vazifalari	Ayolning vazifalari
uy ta’mirlash	idish-tovoqlarni yuvish
daraxtlarni butash	bolani kiyintirish
sigir-buzoqlarga qarash	kiyimlariga dazmol bosish
tomorqaga ekin ekish	hamma yoqni orasta qilib qo‘yish
mashina tuzatish	un elab, xamir qorish

bozorlik qilish	sigir sog‘ib, qatiq ivitish
hosilni yig‘ishtirish	ko‘ylakchalar tikish

O‘quvchilar xulosasida foydalanishi uchun so‘zlar: *yigitlik oriyati; oilada er va xotin maqomi; mehnat taqsimoti; turmushning „musht“i; ichkuyov – itkuyov; ichkuyovdan it afzal.*

LUG‘AT ISHI

	Iboralar	Izohi	Varianti	Misollar
1	Yuragi orqasiga tortib ketmoq	bir lahza ich-ichidan qo‘rquv aralash qattiq hayajonlanmoq	yuragi orqasiga urib ketmoq	*Bir lahzaga yuragi orqasiga tortib ketdi.*
2	Yuragi toshib ketmoq	kechinmalari ichiga sig‘may, kimgadir aytish ehtiyoji tug‘ilmoq		*Quvonchdanmi, bilmadim, Yuragim toshib ketdi,* *Balki bu sevgimikan, Hislarim jo‘shib ketdi.*

Darslikda berilgan mavzuni mustahkamlovchi savollarga o‘quvchilar javob beradilar va ballarni qo‘lga kiritadilar.

79-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: nutqning boyligi va jo‘yaliligi mavzulari yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimni takrorlash va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda mentalitetimizga xos so‘zlashish qoidalariga rioya qilgan holda o‘z fikrlarini erkin bildira olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni rasmda tasvirlangan diagramma asosida og‘zaki matn tuzish bilan boshlash tavsiya qilinadi. *Tinglab tushunish, gapirish, yozish*, *o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Berilgan diagrammani matnga aylantirib o‘qing. Tuzilgan gaplarni bir sarlavha ostida birlashtirib, daftarga yozing. Nutqingizda o‘rinsiz takrorni yuzaga keltirmaslikka harakat qiling.

Tuzgan matningizning uslubiy belgilarini izohlang.

1-topshiriqni bajarish tartibi:

1. O‘tkir Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ kitobidan olingan matn audio shaklida tinglanadi (*tinglab tushunish*).

2. Badiiy maqsad bilan qo‘llangan leksik, grammatik va intonatsion takrorlar aniqlanib, ularning nutq boyligini ta’minlashdagi ahamiyati izohlanadi (*gapirish*).

3. Har bir abzas mazmuni uchun tezis topib yoziladi (*yozish*).

Yechim:

Leksik takrorlar	**Grammatik takrorlar**	**Intonatsion takrorlar**
odamzod	**So‘z turkumlari takrori:** odamlar (ot)	**So‘roq intonatsiyasi:** Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi?
nima uchun	**Yuklama:** -ku	**His-hayajon intonatsiyasi:** Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku!
undan ko‘ra	**Sodda gap:** Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? **Qo‘shma gap:** Undan ko‘ra sholg‘om eksa, qozoniga tushadi-ku.	**Xabar intonatsiyasi**: Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor.

Namuna:

1. Kaftdek hovlidagi gul.
2. Bulbul chah-chahi bergan huzur.
3. Yulduzlarni tomosha qilish zavqi.
4. Kitob ohanrabosi.
5. Mo‘jizakor alla.
6. Xotira.
7. Ma’naviyat – insoniylik belgisi.

2-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Asqad Muxtorning „Chinor“ romanidan olingan parcha o‘qiladi (*o‘qib tushunish*).

2. Yozuvchi nutqning boyligini ta’minlash maqsadida qanday gap qoliplaridan foydalangani aniqlanadi va izohlanadi (*gapirish*).

3. O‘quvchilar o‘qituvchi matndan ajratib ko‘rsatgan birliklarni daftarga yozadilar va ularning matn qurilishidagi ahamiyati haqida gapiradilar (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Atov gap	Sodda gaplar	Qo‘shma gaplar
Hali oppoq tong	Nur uyg‘otgan qushcha tovushining kumush xalqachalari osmonga o‘rlab ketdi.	Quloq solmaganga bu tovush eshitilmaydi ham, lekin Ochil buva uchun hozir tong ham go‘yo mana shu shovullashdangina iborat edi.
	Nim shabadada yashil bulutning har joy-har joyi sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ridan chiqib kelgan sokin va qudratli shovullash olamni tutdi.	Ana shu tog‘ qishlog‘ida bunday qoyatosh serob, ular yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda ko‘prik, choyxonalarda supa vazifasini o‘taydi.
	U guzardagi katta oq tosh supada tikka turibdi.	

Ajratib ko‘rsatilgan birliklar: *nur uyg‘otgan qushcha, kumush halqachalar, osmonga o‘rlab ketdi, nim shabada, yashil bulut, sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ri, shovullash olamni tutdi, katta oq tosh supa, yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda ko‘prik, choyxonalarda supa.*

3-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Matnlar bilan tanishiladi (*o‘qish*).

2. Ajratib ko‘rsatilgan iboralar ma’nodosh so‘zlar bilan almashtirib ko‘riladi. Iboralarning nutq boyligini ta’minlashdagi o‘rni tavsiflanadi (*gapirish*).

Yechim: mashqni bajarishda „Tushunchalar tahlili“ metodidan foydalanish tavsiya qilinadi.

	Tushuncha (iboralar)	Izohi
1	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik

2	Havosini olmoq	mashqini olmoq, yo‘l-yo‘rig‘ini, usuluni yaxshi egallamoq; o‘rganmoq
3	Quloqni qomatga keltiradigan	juda baland, quloqni kar qilgudek (tovush, ovoz)
4	Es-hushini yig‘olmaslik	parishonlikdan qutula olmaslik; aqli idrok etolmaslik
5	Tagiga yetolmaslik	mohiyatini, sababini oxirigacha aniqlay olmaslik
6	Qattiq gapirmoq	xafa qiladigan, ko‘ngilsiz, malolli so‘z aytmoq
7	Cho‘rt kesmoq	o‘zganing gapini keskin, shart, shartta to‘xtatmoq
8	Ko‘ngliga qaramoq	ra’yiga, xohish-istagiga muvofiq ish tutmoq
9	Yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq	kishi ruhi, dilidagi notinch, bezovta holat; notinchlik, bezovtalik
10	Yo‘lga solmoq	tartibga chaqirmoq; to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmoq

LUG‘AT ISHI

Yuragi qon bo‘lmoq – 1. Diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq. 2. Ruhan azoblanmoq. *Variantlari:* yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq; bag‘ri qon bo‘lmoq; yurak-bag‘ri xun bo‘lmoq; bag‘ri xun bo‘lmoq; qon bo‘lmoq.

Ma’nodoshi: yuragi siqilmoq, yuragi ezilmoq. *Misollar*: 1. Ko‘z yoshlarim marjondek tizildi bu kun, Yuragim qon bo‘ldi, ezildi bu kun. (*Qo‘shiqdan*) 2. Nuri onasining ahvolini ko‘rib, yana yuragi siqildi. (*Oybek*) 3. Axir, yurak-bag‘rim xun bo‘ldi-ku, bolam! (*Said Ahmad*)

O‘pkasi to‘lmoq – iztirob chekib, yig‘lab yuborish holatiga yetmoq. *O‘xshashi*: xo‘rligi kelmoq yig‘lamoqdan beri bo‘lmoq. *Misol*: Cholning tovushi o‘zgardi, o‘pkasi to‘ldi, shekilli, birpas tek qolib, keyin gapirdi. (*Abdulla Qahhor*)

4-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING IFODALILIGI

Ta’limiy maqsad: til vositalarini ifoda maqsadiga muvofiq tarzda tanlash hamda bu vositalardan samarali foydalana bilish yuzasidan bilim berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hamjihat bo‘lishga, jamoada ishlash va bir-birining fikrini hurmat qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqdagi ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan birliklarni aniqlash va amaliyotga joriy qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

So‘zlovchining o‘z nutqiga munosabati juda muhim, shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochiladi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa yaxshilanadi. Nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga jiddiy ta’sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni o‘ziga jalb qila oladigan bo‘lishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib bo‘lgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi. Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog‘ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e’tibor qilinsa, ilmiy uslubda o‘rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo‘ladi.

Tilda ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta’minlashga qiynalmaydi.

Nutqning ta’sirchanligiga erishishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, takror kabi badiiy tasvir vositalarining o‘rni beqiyos. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir. Nutqning ta’sirchanligini oshirishda ohang ham muhim o‘rin tutadi. Ohangning o‘zgarishi nafaqat ta’sirchanlikni, ba’zan gap mazmunining o‘zgarishiga ham sababchi bo‘ladi.

l-topshiriqqa diqqat qaratiladi. She’r matni slaydda ko‘rsatiladi yoki audio shaklda eshittiriladi. O‘quvchilar undagi **q** tovushining takrori natijasida yuzaga kelayotgan ifodalilikni izohlashga harakat qiladilar (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Izoh: Bu she’rda ***q*** tovushining takrori alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Alliteratsiya – nutqda tovushlarning bir-biriga ohangdosh bo‘lish

hodisasi. ***Q*** tovushining takrori she’rda ma’lum estetik-emotsional vazifa bajargan va nutqning hissiy ta’siri kuchaygan.

Qo‘shimcha: tovushlar takrori faqatgina she’rda emas, tez aytishlarda ham uchraydi. O‘qituvchi tovushlar takrori mavjud bo‘lgan turli janrlarga mansub bir nechta matnni havola qiladi, o‘quvchilar esa ularni tahlil qiladilar.

Masalan: **S**ochilgan **s**ochingdek **s**ochilsa **s**iring, Anor yuzlaringni kimga tutasan. *(Cho‘lpon)*

Qi**sh**da ki**sh**mi**sh** pi**sh**masmi**sh**,
Pi**sh**sa ki**sh**mi**sh**, qi**sh**masmi**sh**. (*Tez aytish*)

Ku**y**lagan ku**y**ingdan o‘rgila**y**in,
Anvo**y**i ku**y**larga bo**y** buloq. (*Qo‘shiqdan*)

2-topshiriqni bajarish orqali ham *tinglab tushunish, o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Berilgan so‘z juftliklari qiyoslanib, bu so‘zlarning ifodalilik imkoniyatlaridagi farq izohlanadi.

Yechim: bu yerda *izn bermoq* – badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, unda ifodalilik kuchliroq ifodalangan. *Ruxsat bermoq* – ilmiy yoki publitsistik uslublarda qo‘llanadi va bu uslublarda, odatda, ifodalilikka ehtiyoj sezilmaydi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridan hisoblanadi. *Raqam qilmoq* – badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, bunda ham ifodalilik *qayd qilmoq* so‘ziga nisbatan kuchliroq.

Sinf to‘rt guruhga bo‘linib, darslikdagi mashqlar guruhlarga tahlil uchun taqsimlanadi.

1-guruh. 80-mashqni bajarish tartibi:

Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’riy parchalar o‘qiladi (*o‘qish*).

Ulardagi nutqiy ifodalilikni ta’minlayotgan leksik va fonetik vositalar aniqlanadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu she’riy parchada nutqiy ifodalilikni ta’minlayotgan leksik va fonetik vositalar mavjud. Birinchi bandda **q** tovushining takrori alliteratsiyani hosil qilgan. Ikkinchi bandda **b** tovushining takrori alliteratsiyaga misol bo‘ladi va bu yerda „*Bo‘lar elning bolalari bir-birin der*“ jumlasi xalq og‘zaki ijodi mahsuli – maqol hisoblanadi. Uchinchi bandda **k** va **q** tovushlari uyg‘unligi mavjud. *Kapalakday* – o‘xshatish, *qoshingga qo‘nib* – metonimiya. Ushbu fonetik va leksik vositalar nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

2-guruh. **81-mashq**ni bajarish tartibi:

Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*).

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ifodaliligining ta’minlanishiga diqqat qilinadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu matnda nutq ifodaliligiga xizmat qilgan vositalar metaforalardir. Metaforik ma’no ko‘chishi predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Nutq jarayonida metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Metaforik ma’no ko‘chishi turli so‘z turkumlari doirasida kuzatilishi mumkin. Yuqoridagi gaplarda **fe’l** (*yuragida tugilib yotgan, tugunni yechib yuborgan, da’volari sinib, tugilib kelgan alamlarini, bo‘shliqlarga yoyib yuborgan*), **sifat** (*sovuq yuzlari, sovuq so‘filarning*) so‘z turkumlari doirasida kuzatilgan.

3-guruh. **82-mashq**ni bajarish tartibi:

Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*).

Nutqiy ifodalilikni ta’minlash maqsadida qo‘llangan birliklar aniqlanadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu matnda kinoya „adolatpesha“, „bechora“, „jazolash“ – ifodalilikni ta’minlagan vosita. Kinoya so‘z ma’nosini aks ma’noda qo‘llashdir. Yozuvda kinoyani ifodalash uchun so‘z qo‘shtirnoq ichiga olinadi. So‘zlarning aks ma’nosi o‘z ma’nosidan ko‘ra kuchliroq bo‘ladi. Matnning sarlavhasida ham „Himmatni qarang!“ kinoya ma’nosi mavjud.

4-guruh. **83-mashq**ni bajarish tartibi:

„Manzara“ she’ri ifodali o‘qiladi (*o‘qish*).

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rni izohlanadi (*gapirish*).

Yechim: she’rda nutq ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qilgan ko‘chim turi metaforadir. Metaforik ma’no ko‘chishi turlicha bo‘lishi mumkin. Shulardan biri jonlantirish bo‘lib, u metaforaning maxsus turi sifatida og‘zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o‘xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatib kelinadi. Jonlantirish insonga va jonli mavjudotga xos belgilarni tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko‘chirishdir. She’rda *qushlarning majnuntol boshini suvga egishlari*, *bulutning unga rahmi kelib yig‘lashi, qushlar qochgandan so‘ng majnuntolning bosh ko‘tarishi, bulutlar orqasidan quyoshning kulib qarashi, majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi* jonlantirishning go‘zal namunalaridir.

LUG‘AT ISHI

Iboralar	Izohi	Varianti: / Ma’nodoshi:	Misollar
Qildan qiyiq axtarmoq	Yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq	**Varianti:** qildan qiyiq qidirmoq **Ma’nodoshi:** tirnoq orasidan kir izlamoq	Har qaysimiz o‘lib-tirilib ishlasak-da, ***qildan qiyiq axtarib***, guruhimizni gazetada qoralab chiqishsa, alam qilarkan. *(H.Numon)*
Qora terga botmoq	Haddan tashqari zo‘r berish natijasida mo‘l-ko‘l terlamoq	**Varianti:** qora terga tushmoq	Nizomjon shu kuni ***qora terga botib*** bug‘doy o‘rdi. *(Said Ahmad)*

Mavzuni mustahkamlashda o‘qituvchi „Zakovatli zukko“ metodidan foydalanib, savollar yordamida o‘quvchilarning tezkor fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi, ularning tafakkur tezliklarini oshirishga yordam berishi mumkin.

84-mashq uyga beriladi va darsga yakun yasaladi.

IFODALILIK VA IBORA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga frazeologik iboralar ifodalaydigan ma’nolar so‘z ma’nolaridan farqlanishi, iboralarning ekspressivligi, bo‘yoqdorligi, obrazliligi haqida bilim berish va uni mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga e’tiqodli bo‘lishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda nutq ifodaliligini ta’minlovchi vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mavzuni tushuntirishdan oldin o‘quvchilar diqqati darslikda berilgan **topshiriq**qa qaratiladi. She’riy parcha o‘qilib, unda qo‘llangan ***jonni baxsh etmoq, boshga ko‘tarmoq*** iboralarining ma’nolari va ularda aks etgan ifodalilikni izohlash orqali *o‘qish, tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Yechim: mazkur topshiriq shartiga ko‘ra, avvalo, matnda qo‘llangan iboralarning izohi tayyorlanadi. So‘ngra ularda aks etgan ifodalilikning ahamiyati yuzasidan mulohaza yuritiladi.

Jonni baxsh etmoq – har qanday og‘ir shartni, talabni bajarishga tayyor, o‘zini qurbon qilishga ham rozi bo‘lmoq. *Variantlari:* jonini bermoq, jonini fido qilmoq.

Boshga ko‘tarmoq – yuksak darajada hurmat-izzat qilmoq. *O‘xshashi:* soyasiga ko‘rpacha solmoq.

Iboraning atash ma’nosi biror so‘zning atash ma’nosiga teng, lekin iborada mavjud bo‘lgan qo‘shimcha ma’no so‘zda bo‘lmaydi yoki so‘znikidan „kuchli“ bo‘ladi. Iboradagi ana shu qo‘shimcha ma’no, ya’ni uslubiy va hissiy ma’no uning ifodalilik xususiyatini oshiradi. Yuqoridagi she’rda ham *jonini baxsh etmoq* va *boshga ko‘tarmoq* iboralari badiiy uslubga xoslikni, kuchli ijobiy emotsional ma’noni ifodalayotganligi bilan ahamiyatlidir.

85-mashq. Parchani o‘qing, undagi **xursand bo‘lmoq** so‘zi va **boshi osmonga yetmoq** iborasi (leksik-frazeologik ma’nodoshlik) o‘rtasidagi ifodalilik darajasi farqini tushuntiring.

Yechim: matndagi **xursand bo‘lmoq** (so‘z) va **boshi osmonga yetmoq** (ibora) o‘rasidagi asosiy farq ularda qo‘shimcha ma’noning bor yoki yo‘qligida.

Xursand bo‘lmoq so‘zida qo‘shimcha ma’no (uslubiy yoki hissiy ma’no) mavjud emas. Bu so‘z biron bir uslubga xoslanmagan, ijobiy yoki salbiylik bo‘yog‘i yo‘q, belgining kuchli yoki kuchsizligiga ko‘ra ham betaraf so‘z hisoblanadi;

boshi osmonga yetmoq iborasida esa qo‘shimcha ma’no mavjud. Bu ibora *behad sevinmoq* ma’nosida qo‘llanilib, xursandchilikni o‘ta yuqori darajada ifodalash uchun ishlatiladi va uslubiy jihatdan ham xoslangan, badiiy uslubga mansub.

Mustaqil ish. „Guruhlarda ishlash“ usulidan foydalanib, so‘z va ibora o‘rtasidagi farqni o‘quvchilarga yanada mukammalroq tushuntirish mumkin. O‘quvchilar 3 ta guruhga bo‘linadilar. Ularga quyida berilgan namunadagiday kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar so‘z va iboralarni qatnashtirib gap tuzishlari lozim. Bunda ibora va uning ma’nosiga teng keluvchi so‘zga bir xil gap tuziladi va ularning farqi izohlanadi.

So‘z	Ibora	Misollar
itoatkor	„gah“ deganda qo‘liga qo‘nadi	*O‘zi o‘g‘lim noshud: xotinini **„gah“ deb qo‘lga qo‘nadigan** qilib olmadimi, bunday erkakdan og‘ildagi buzoq yaxshi. (S.Ahmad) – O‘zi o‘g‘lim noshud: xotinini **itoatkor** qilib olmadimi, bunday erkakdan og‘ildagi buzoq yaxshi.*

nihoyatda go‘zal	bir qoshiq suv bilan yutguday	*O‘zi **bir qoshiq suv bilan yutguday** ekan-u, shu... kiyinishi bizga to‘g‘ri kelmaydi-da.– O‘zi **nihoyatda go‘zal** ekan-u, shu... kiyinishi bizga to‘g‘ri kelmaydi-da.*
aralash-moq	burnini tiqmoq	*Uyda o‘tirib qolgan erkak har narsaga **burnini tiqaveradi**. – Uyda o‘tirib qolgan erkak har narsaga **aralashaveradi.***
betoqat, jirtaki	yuragi tor	*Sabr qil, namuncha **yuraging tor**?– Sabr qil, namuncha **betoqat, jirtakisan**?*
abjir	yulduzni benarvon uradigan	*Asad bolaligidan **yulduzni benarvon uradigan**lar xilidan edi. – Asad bolaligidan **abjir** edi.*
g‘amboda	ko‘ksi dog‘	*Ishqdan **ko‘ksi dog‘**lar gapirsin. – Ishqdan **g‘amboda**lar gapirsin.*

Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi va har bir guruhga darslikdagi mashqlar taqsimlanadi. O‘quvchilar belgilangan muddat ichida matnni tahlil qilib izohlaydilar, xulosalarini tezis shaklida bayon etadilar. Mazkur jarayonda *o‘qib tushunish, yozish, gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

1-guruh. 86-mashq. Matndagi iboralarning ma’nolarini izohlang, ulardagi to‘g‘ri ma’nolar asosida yaratilgan kulgining mohiyatini tushuntiring.

Yechim: matnda ***chuchvarani xom sanamoq, sirkasi suv ko‘tarmaydigan*** iboralari va ***„Jo‘jani kuzda sanaydilar“*** maqoli qo‘llangan. Izohlari quyidagicha:

chuchvarani xom sanamoq – xom xayol qilib yurmoq, xomtama bo‘lmoq;

sirkasi suv ko‘tarmaydigan – tanqidga mutlaqo chidamaydigan;

jo‘jani kuzda sanaydilar – bir ishni boshlamay turib yoxud bir ishga endigina qo‘l urib: „Ana unday qilib yuboraman, mana bunday qilib yuboraman“ deb maqtanadigan odamlarga: „Hali shoshmay turing, bu yog‘i nima bo‘ladi-yu, nima qo‘yadi, ish bitgandan keyin gapiring-da“ degan ma’noda aytiladi.

Ma’lumki, iboralar har doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Iboraning shakli va mazmuni o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Ba’zan iboralar erkin birikmalarga teng keladi. Mohir yozuvchi mana shu imkoniyatdan foydalanib, ya’ni turg‘un birikmalarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari-

ni anglagan holda ko‘chma ma’nolarda qo‘llangan birliklarning to‘g‘ri ma’nosini izohlab, undan yumorga boy matn yarata olgan.

2-guruh. 87-mashq. ***Ignaday narsani tuyaday qilmoq – bo‘rttirmoq; igna ustida o‘tirmoq – bezovta bo‘lmoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – mo‘min, yuvosh; tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan – tegajoq, xira*** juftliklaridagi iboralarning ifodalilik darajasi haqida fikrlashing.

Tilning lug‘at boyligidagi so‘zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Berilgan iboralarda ekspressivlik, obrazlilik, alohida ifodalilik uning ma’nosiga teng so‘zga qaraganda ancha kuchli.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi bilan ***tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan*** iborasi antonimik juftlikni hosil qiladi.

Misollar:

Vahimachi ***ignaday narsani tuyaday qilib*** gapiradi. – Vahimachi ***bo‘rttirib*** gapiradi.

Majlis tugaguncha ***ignaning ustida o‘tirdi***. – Majlis tugaguncha ***bezovta bo‘ldi***.

Bu odamni ***qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan***, degandinglar, yutaman, deyapti-ku. – Bu odamni ***mo‘min, yuvosh***, degandinglar, yutaman, deyapti-ku.

Mahallamizning boshida ***tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan*** bola yashaydi. – Mahallamizning boshida ***tegajoq, xira*** bola yashaydi.

3-guruh. 88-mashq. Berilgan parchadagi iboralarni toping. Ularning matn ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

Yechim: ushbu matnda ***ko‘zi tushmoq*** (ko‘rmoq), ***qo‘lini ushlaydi*** (to‘xtatadi), ***qo‘l ko‘targani*** (uringani), ***yo‘l qo‘ymaslik*** (voqe bo‘lishiga imkon bermaslik), ***chap bermoq*** (tutqich bermay, ro‘para kelmay, aldab o‘zini olib qochmoq, qochib yurmoq) iboralari qo‘llangan bo‘lib, ularning matn ifodaliligini ta’minlashdagi o‘rni beqiyosdir. Agar matnda *ko‘zi tushmoq* iborasi o‘rniga *ko‘rmoq* yoki *chap bermoq* iborasi o‘rniga *qochmoq* so‘zlari qo‘llanganda edi, matnning emotsional-ekspressiv hamda uslubiy bo‘yog‘i yo‘qolar, fikr juda jo‘n ifodalangan bo‘lar edi. Chunki matnning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini kuchaytirish uchun bu so‘zlarning o‘zi yetarli emas. Iboralar bilan ifodalangan fikr esa obrazli va jozibali bo‘ladi.

4-guruh. 89-mashq. Berilgan she’rdagi iboraning badiiy qimmatini baholashga harakat qiling.

Yechim: shoir ***kapalagi uchib ketmoq*** (qattiq cho‘chish, qo‘rqmoq) iborasini juda noziklik bilan qo‘llab, ijodiy topilma yaratgan: **kapalak** so‘zi ham to‘g‘ri ma’noda, ham ibora tarkibida ko‘chma ma’noda she’r ifodaliligini ta’minlashda nafaqat leksik-frazeologik, balki fonetik vosita vazifasini ham bajargan. Leksik vosita sifatida emotsionallikni kuchaytirgan bo‘lsa, **k** harfining takrori alliteratsiyani hosil qilgan.

90-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA KO‘CHIMLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, ma’no ko‘chish turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hurmatni saqlash, jamoada bir-birini qo‘llab-quvvatlash ruhida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash, so‘z ma’nosi ko‘chishini nutqda erkin qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash nutq ifodaliligini ta’minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko‘chma ma’no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlatishning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular *ko‘chimlar* nomi bilan umumlashtiriladi. Ko‘chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya’ni ikki narsa yoki tushuncha o‘rtasidagi muayyan munosabat (o‘xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Ko‘chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Metafora so‘zi yunoncha bo‘lib, „ko‘chirish“, „ko‘chirma“ demakdir. Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o‘rni va paytga munosabati jihatidan o‘xshashligiga asoslaniladi. Masalan, choynakning jo‘mragi odamning burniga, dengizning quruqlikka suqulib kirgan joyi odamning qo‘ltig‘iga o‘xshatiladi. Metafora ko‘proq odam tana a’zosi nomiga (bosh, yuz, burun, og‘iz, quloq, til, oyoq); kiyim qismiga (etak, yoqa); hayvon, parranda yoki hasharotning biror a’zosi nomi (qanot, dum)ga o‘xshatib hosil qilinadi.

Narsa va hodisa orasidagi o‘xshashlik quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) shakliy o‘xshashlik: *odamning qulog‘i – qozonning qulog‘i, qush uchdi – odam uchdi;*

2) joylashish o‘xshashligi: *itning dumi – samolyotning dumi, qo‘shni odam – qo‘shni dala;*

3) mazmunan o‘xshashlik: *tomdan yiqilmoq – imtihondan yiqilmoq, sovuq havo – sovuq xabar, qaynoq suv – qaynoq liniya, achchiq o‘t – achchiq sovuq, tomdan tushmoq – mansabdan tushmoq, odam o‘tirdi – fabrika o‘tirdi, akkumulyator o‘tirdi.*

Nutq jarayonida metaforadan o‘rinli foydalanganda so‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo‘lib, nutq ta’sirchan, jozibali chiqadi.

Metonimiya so‘zi yunoncha „yangi nom qo‘yish“, „nomni o‘zgartirish“, „qayta nomlash“ demakdir. Makon va zamondagi o‘zaro bog‘liqligi asosida bir narsa va hodisaning nomini ikkinchiga ko‘chirish – metonimiya. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o‘xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog‘liq predmet, belgi, holatdan birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi.

Masalan:

Fuzuliyni oldim qo‘limga, Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi (H.Olimjon) gapida *Fuzuliy* va *asar* (Fuzuliyning kitobini oldim qo‘limga) bir-biriga bog‘liq bo‘lib, tejash uchun *kitob* so‘zi tushirib qoldirilgan. Natijada, *Fuzuliy* so‘zi shaxs ma’nosini emas, *kitob* so‘ziga xos ma’noni ifodalagan.

Metonimiya turli ko‘rinishda bo‘ladi:

1) o‘ringa munosabatiga ko‘ra: *bir stakan (suv) ichdim, bir kosa (ovqat) yedim, qishloq uyquda;*

2) vaqtga ko‘ra: *o‘nga (yosh) kirdim, yarim yillik (imtihon) topshirildi*;

3) muallif va asar orasidagi munosabatga ko‘ra: *Pushkinni (asar) o‘qidim*.

Metonimiya asosidagi ko‘chma ma’no – fikrni lo‘nda va ta’sirchan bayon qilish vositasi.

Sinekdoxa yunoncha *synecdoche* so‘zidan olingan bo‘lib, „birga anglash“ demakdir. Qism bilan butun munosabati asosida ma’no ko‘chirish sinekdoxa usuli sanaladi. Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ham yuritiladi. Ammo, undan farqli ravishda, sinekdoxada miqdoriy tavsifga asoslanadi. Masalan, *bosh, tuyoq* so‘zi (ya’ni qism) orqali hayvon (ya’ni butun) tushuniladi. *Yurak, tirnoq* so‘zi (ya’ni qism) orqali *odam* (ya’ni butun) anglashiladi. Sinekdoxada butun orqali qism ham anglashishi mumkin. Masalan, *besh qo‘l barobar emas* gapida *qo‘l* (ya’ni butun) so‘zi orqali *barmoq* so‘zining ma’nosi anglashilmoqda.

Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko‘rmagan (Oybek) gapida qism (tuyoq) orqali butun (mol) ifodalanayotir.

Topshiriq. Berilgan misralarda ***lochin*** so‘zining qanday ma’noda qo‘llanganini tushuntiring, undagi ko‘chma ma’no nima asosda yuzaga kelganini ayting.

Qutlug‘ joy ko‘p erur ushbu dunyoda,
Yulduzni ko‘zlagan lochin ham talay. *(A. Oripov)*

Yechim: ma’lumki, so‘zlar o‘z ma’nosi bilan betaraf bo‘lsalar ham, uslubiy ma’no ifodalashi uchun ularning ma’nosi kontekstda ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. She’rda *lochin* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, metaforik ma’no ko‘chishi kuzatilgan. Ijodkor ushbu so‘zni uslubiy mazmun olishi, badiiy uslubga xoslanishi uchun ham ko‘chma ma’noda qo‘llagan. Bu yerda „yulduzni ko‘zlagan lochin“ deganda, aslida, ***baland marralarni ko‘zlagan yurt farzandlari*** nazarda tutilgan.

91-mashq. Cho‘lponning „Kecha va kunduz“ romanidan olingan parchani o‘qing va ko‘chimlarni aniqlang, ularning ifodalilik jihatidan qimmatini izohlang.

Yechim: ushbu parchada qo‘llangan metaforalar**:**
bahor *sevinchi;*
ko‘ngillarni *qitiqlay boshladi*;
tabiatning *dildiragan tanalari*;
iliq qon *yugurdi;*
tollarning ko‘m-ko‘k *sochpopuklari selkillab tushmoqqa boshladi*;
suvlarning *g‘amli yuzlari kuldi;*
suvlar … *horg‘in-horg‘in* oqsalar-da;
suvlar … *erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar*;
bodroq *nash’asi;*
o‘sma ildizidan yana *bosh ko‘tarib chiqdi*;
go‘zal ko‘zlarning *supasida yonboshlashni* muncha *yaxshi ko‘rar ekan* bu ko‘kat.

Yozuvchi asarda ilgari qo‘llanmagan original ko‘chimlar yaratgan va bunday ko‘chimlarning ifodaliligi yuqori bo‘ladi. Matnda metaforaga juda yaqin bo‘lgan vosita – o‘xshatishlar ham nutq ifodaliligiga xizmat qilgan (*qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday, bo‘shalgan qul singari).*

92-mashq. Gaplarni o‘qing. Ularda metonimiya va sinekdoxa yo‘li bilan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolarni izohlang.

Yechim: 1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning ***choklarini*** (metonimiya – tikayotgan gazlamasi) tikishib, xizmatingizni qilib ***yotardim*** (metafora)! *(Cho‘lpon)*

2. Toki ***g‘olib ekan muzaffar o‘lka*** (metafora), Sha’niga she’r aytmoq shoirga odat. *(A. Oripov)*

3. O‘zbek ***Navoiyni*** (metonimiya – Navoiy asarlarini) o‘qimay qo‘ysa, ***Oltin*** (metafora) boshning kalla bo‘lgani shudir. *(E. Vohidov)*

4. Balki, tush ko‘rganday qolursiz hayron, Eshitib ***Toshkentning*** (metonimiya – Toshkent shahrining) ***sabr-u toqatin*** (metafora). *(A. Oripov)*

5. Sevgidan ***yetim***-u (metafora), umrdan yarim, ***Qurigan*** ko‘ksi (metafora)da ***yolg‘iz belanchak*** (metonimiya). Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim, Abadiy visol deb bildi kelinchak. *(A. Oripov)*

6. Bashirjon yoniga ag‘darildi: „Rahmatli chol to‘g‘ri aytarkan. Undan-ku, ***bir tirnoq*** (sinekdoxa – farzand) – men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman“. *(N. Aminov)*

93-mashq. Berilgan misralarda *sor, burgut, lochin* so‘zlarining qanday ma’noda qo‘llanganini tushuntiring, undagi ko‘chma ma’no nima asosda yuzaga kelganini yozma bayon qiling. O‘zingiz ham shunday ko‘chimlar qatnashgan misollarni yozib keling.

Yechim:

Metaforalar:

Tog‘ egasi – sor, burgutlar;

Farg‘ona, Xorazm sor, lochinlari.

O‘xshatishlar:

Qushlar kabi *uchguvchi,* ***Uchar qushday*** *yosh yigitlar.*

94-mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘chimlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Ammo siz hurmatlilarga ma’lumdirki, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an ***tuyoqimiz*** *(sinekdoxa – farzand)* va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. *(Abdulla Qodiriy)*

2. Yuzlari ***tandirdan endi uzilgan nonday*** (*o‘xshatish*) qizil, mo‘ylovli bir odam uloq ***boshi***ga (*metafora*) keldi. Ana shu ***mo‘ylov*** (*sinekdoxa – odam, kishi)* bakovul bo‘ldi. *(Tog‘ay Murod)*

3. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaftiga urdi. Yoqimli hid dimog‘ini ***qitiqladi*** (metafora). *(O‘.Umarbekov)*

4. Kamarlar odatda tog‘ning ***beli***da (metafora), shamoldan pana, atrof yaxshi ko‘rinadigan yerda bo‘ladi. *(Sh. Xolmirzayev)*

95-mashq. She’rni ifodali o‘qing. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligi ta ’minlanishiga diqqat qiling.

Yechim: she’rda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda metafora asosida ma’no ko‘chgan bo‘lib***, gullarning o‘yga tolishi, iymanib, nozlanishi, quyoshni kutishi, atirgulning quyoshdan ko‘zini olmasligi, hayrat bilan quyoshga tikilishi*** metafora asosidagi jonlantirishdir. Jonsiz predmetlarga insonlarga xos xususiyatlarni ko‘chirish (jonlantirish) kitobxon ko‘z o‘ngida oddiy tabiat hodisalarini yanada yorqinroq ifodalashga yordam beradi.

LUG‘AT ISHI

Aravani quruq olib qochmoq – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. *Varianti*: aravani olib qochmoq, quruq aravani olib qochmoq. *Misollar*: 1. – Saidg‘ozi aka! – dedi kinoyali jilmayib, – hadeb aravani quruq olib qochavermang. Siz bilgan siyosatni biz ham bilamiz. (*S.Anorboyev*) 2. Aka, aravani rosa olib qochasiz-da, ishongim kelib ketadi.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – nihoyat darajada beozor, mo‘min. *Misollar*: 1. Kuyovimiz – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan yigit. 2. Bilaman, mingboshi menga hozircha ehtiyot bo‘lib, o‘zini qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, juda yuvosh va sodda qilib ko‘rsatib so‘zlayapti. (*Sh.Rizo*)

96-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA KINOYA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda kinoyaning yuzaga kelishi, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, iboralarni kinoyaviy qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: ota-onaga, do‘stlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, insoniy fazilatlarni ardoqlashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosida nutq vaziyatiga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

So‘zni teskari ma’noda ishlatish kinoya deyiladi. Kinoya so‘zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo‘lganligi uchun ham so‘z yoki iboraning to‘g‘ri ma’nosiga zid, ya’ni inkor, emotsional-ekspressiv bo‘yoqli ma’no voqelanadi. Bunday kinoyaviy ma’noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham muhim ahamiyatga ega.

Bizni **„homiy“**lardan himoya qilg‘il
Degan sharq xalqida piching – duo bor.
Xo‘sh, janobi oliy, qaysi sho‘rlik xalq
Sizning **„himoyangiz“**ga qolmish intizor. (*G‘.G‘ulom*)

Bu o‘rinda *homiy* so‘zi *zolim*, *himoya* so‘zi *zulm* so‘zi ma’nosida ishlatilgan. Kinoyada so‘z yoki iboraning tildagi ma’nosi bilan nutqda reallashgan ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi zidlik kuchli ta’kid oladi va shunga ko‘ra birdaniga diqqatni jalb etadi. Kinoyaviy qo‘llangan so‘z yoki ibora og‘zaki nutqda o‘ziga xos, farqli intonatsiya bilan aytilsa, yozuvda ko‘pincha qo‘shtirnoq bilan ajratiladi.

Bir so‘zda namoyon bo‘lgan zid ma’nolar tilshunos olimlar N. Mahmudov va Y. Odilov tomonidan tayyorlangan „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“da tavsiflangan.

Mavzuni mustahkamlash darslikdagi **topshiriq**ni bajarish bilan boshlanadi. Berilgan ikki gapda qo‘llangan ***kichkina*** so‘zining ma’nolaridagi farq izohlanadi.

Yechim: mashqda qo‘llangan ***kichkina*** so‘zi 1-gapda o‘z ma’nosida, 2-gapda esa o‘z ma’nosiga mutlaqo zid (Qobil bobo uchun uddalab bo‘lmas darajada ***juda katta***) ma’nosida ishlatilgan. So‘zning o‘z ma’nosidan ko‘ra ko‘chma ma’nosi, ayniqsa, u bosh ma’no bilan zid bo‘lsa, ifodalilik yanada kuchayadi.

97-mashqda „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“da tavsiflangan bir so‘zda namoyon bo‘lgan zid ma’nolarga diqqat qilinadi. O‘z ma’nosiga zid holda ishlatilgan nutqiy ko‘chma ma’no asosida voqelangan kinoya izohlanadi.

Ushbu mashqda berilgan so‘zlarning ma’nosi o‘rganib chiqilgach, „Tanqidiy tafakkur“ metodidan foydalanib **mustaqil ish** berish mumkin. Bunda o‘quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda so‘zlar yozilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu so‘zlarning o‘z va kinoyaviy (zid ma’noli) gaplar tuzishlari lozim. (Mashqni bajarishda N. Mahmudov va Y. Odilovning „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“dan foydalanish tavsiya qilinadi.)

So‘zlar	O‘z ma’nosi	Kinoyaviy ma’nosi
botir		
yaxshi		
qadrdon		
hunar		
nodir		

Sinf uch guruhga bo‘linadi va darslikdagi mashqlar guruhlarga taqsimlab beriladi. Bu mashqlarni bajarish jarayonida *o‘qish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

98-mashq. Berilgan gaplarda kinoyaviy ma’noda qo‘llangan so‘zlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Sen!.. – Toshbolta unga ham ikki og‘iz **„shirin“** gaplaridan aytmoqchi edi, qizining ko‘zlariga ko‘zi tushib, shashtidan qaytdi. *(Tohir Malik)* 2. Maxdum o‘zining chekkan tashvishida haqli bo‘lib chiqdi. Anvarning tevaragida **„xolis“** maslahatgo‘ylar ham ko‘rinishib qoldilar. *(Abdulla Qodiriy)* 3. „O‘ttiz ikki tangadan soliq yig‘, emish... Bizning xalqni yer yutsin. Azizbekning **tulkiligiga** uchdi-da, uning kechagi zulmlarini unutdi, yetmish kunlab bir zamon jon berib, jon olib, nihoyat, xizmat haqqi uchun o‘ttiz ikki tanga **„mukofot“,** eng keyingi burda noningni ham ber!“ *(Abdulla Qodiriy)* 4. Xullas, podsho hazratlarining farmoniga muvofiq o‘n yetti yoshdan qirq yetti yoshgacha bo‘lgan yigitlar mardikorlikka olinishi kerak emish... Bunday **„iltifot“**ga viloyat boylari, mirshablar, mingboshilar panja orasidan qarasalar-da, bu aksar mehnat ahlining qonini qaynatib yubordi. *(J. Abdullaxonov)* 5. Ovutish lozim bo‘lib qolsa, bittasini emas, hammasini ikkita „**shirin“** so‘z bilan **„ovutib“** tashlayman. *(A. Muqimov)*

99-mashq. Matnni o‘qing. O‘z ma’nosiga zid holda qo‘llangan iboralar ma’nolarini izohlab, kinoya haqidagi fikrlaringizni yozma bayon qiling.

Yechim: *„nur yog‘ilib“ turgan – badqovoq, ko‘rimsiz; „minnatdor bo‘lsang, bosaman“ – zo‘rg‘a, tamanno va takabburlik bilan; „yaxshi ko‘rsa“ – ko‘rishga ko‘zi yo‘q;* keltirilgan kinoyalar matn mazmunining ta’sirchanligini oshirishga, diqqatni tortishga xizmat qilib, obrazlilikni kuchaytirgan.

100-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolariga diqqat qiling. Qaysi gaplarda so‘zlar kinoya bilan qo‘llanganligini tushuntiring (*o‘qish va gapirish*).

O‘z ma’nosi	Kinoyaviy ma’nosi	Izoh
Ombor hovlisi birpasda qiy-chuv bo‘lib ketdi. Qayoqdandir Mirvosiq paydo bo‘lib qoldi. – ***Yashang***, ota! – dedi u. – Anchadan beri qo‘lga tushirolmay yuruvdik. *(O‘. Umarbekov)*	**Yashang-e!** Kalkulator olib hisoblab ko‘rsangiz ham bo‘lardi, hisobchi xonim! Nima gap so‘rasa, bahonangiz tap-tayyor-a! (*E. A’zam*)	Hisob-kitobga noshudlik piching, istehzo aralash kinoya bilan „olqishlangan“.

Kampir juda ***dono*** xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi deb, qadrdon uyidan jilmasdi. (*S.Ahmad*)	Voy **dono-ye**! O‘zingku bir institutni o‘n yilda zo‘rg‘a bitirding, endi odam qatoriga kirib, boshqalarga aql o‘rgatadigan bo‘lib qoldingmi?! *(A.A’zam)*	Kesatiq ma’nosi kinoya orqali ifodalangan
Shakuriy muallim bolaning ***burroligi***, zakovatidan behad quvondi. (*N.Rahmat)*	Mulla Ostonaquldagi zehn ***burroligi*** yetti yilda ham „Haftiyak“dan nari o‘tishga yo‘l qo‘ymadi. (*G‘.G‘ulom*)	Zehn pastligi, bilimsizlik sub’yektiv kulgi bilan kinoya qilingan.

101-mashq „Davom ettir“ usulida bajariladi. Sifat turkumiga mansub bir necha so‘z yozuv taxtasiga yozib qo‘yiladi. Bir o‘quvchi so‘zni o‘z ma’nosida, ikkinchi o‘quvchi kinoyaviy ma’noda qo‘llab, gap tuzishda musobaqalashadilar.

Namuna:

Sen yaxshisan, Men yomondirman,
Sen borsanki, Men omondirman. *(E. Vohidov)* –
Ja yaxshisan o‘zing ham,
Yomonni yomonlama.
Menga qara, ey odam,
Zamonni yomonlama. *(Iqbol Mirzo)*

Tavsiya qilingan so‘zlar: *sodda, kamyob, muqaddas, boy, baland, zukko, silliq, ravon.*

LUG‘AT ISHI

Ibora	**Izohi**	***Varianti:***	**Misol**
Qo‘li kalta	imkoniyati cheklangan	qo‘li qisqa **Zidi:** qo‘li uzun	O‘ylab qarasam, do‘ppi tor ekan, kattaroq ish qilishga qo‘limiz kalta ekan. (*I.Rahim*)
Qo‘lini sovuq suvga urmaslik	qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaslik	***Varianti:*** qo‘lini sovuq suvga urmaslik	Nusratilla ro‘zg‘orda qo‘lini sovuq suvga urmaydi, ota mulkiga biror tiyinlik naf qo‘shgan emas. (*A.Muxtor*)

102-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA O‘XSHATISHLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilar ongida o‘xshatishlarni nutqiy uslublarda qo‘llash hamda nutq ifodaliligidagi ahamiyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, bu vositalardan samarali foydalana bilish kompetensiyasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning badiiy imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni tilimizga nisbatan hurmat hamda muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash va ularni hayoti davomida mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘xshatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta’minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi.

Ushbu mavzudagi barcha mashqlarni bajarishda N. Mahmudov, D.Xudoyberganovaning „O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati“dan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ***oltindek (-day)*** so‘zining o‘xshatish unsuri sifatida ifodalilikni kuchaytirishdagi ishtirokini izohlang (*tinglab tushunish, gapirish*).

O‘shanda bo‘ychan o‘spirin otasi bilan birga ekib, parvarishlagan bug‘doy **oltindek *sarg‘ayib*** pishayotgan edi. *(G‘.Karimiy)*

Izoh: bu gapdagi *oltindek* o‘xshatishi „sap-sariq, sarg‘aymoq“ ma’nosida bug‘doyning sariq rangini yanada yorqinroq ifodalash uchun qo‘llangan.

Yaproq quyosh nurida **oltindek *tovlanib,*** yengil tebranganicha ko‘kka dadil bo‘y cho‘zib turardi. *(O‘.Umarbekov)*

Izoh: bu gapda esa oltinning yaltiroqlilik xususiyatidan yaproqning sariq rangda jilolanib - tovlanishini kuchliroq tasvirlash uchun foydalanilgan.

Bular so‘zlab bergan har bir hikoya, o‘zi shundoqqina **oltinday** kitob. *(Zulfiya)*

Izoh: bu yerda *oltindek* o‘xshatishi *qimmatli, bebaho* ma’nosida qo‘llangan.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi o‘xshatishlarni izohlang, ularni yaratishda ijodkor mahorati haqida gapiring (*o‘qish va gapirish*).

So‘fining tani shu topda **Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday** qizib yonardi. *(Cho‘lpon)*

Izoh: bu gapdagi o‘xshatish erkin o‘xshatish bo‘lib, u Eshonga ishonib rasvo bo‘lgan, Haj ilinjida kun o‘tkazgan Razzoq so‘fining ruhiy holatini favqulodda aniqlik bilan ifodalash maqsadida Cho‘lpon tomonidan yaratilgan.

Xayollar qo‘ymaydi o‘z holimizga – **Lo‘livachchalardek** yopishqoq, kir-chir. *(Iqbol Mirzo)*

Izoh: bu ham erkin o‘xshatish bo‘lib, yozuvchi o‘zini tark etmayotgan xayolni favqulodda kutilmagan, xayolga umuman aloqasi bo‘lmagan o‘xshatish bilan ifodalaydiki, bunday o‘xshatishlar originalligi, ohoriyligi bilan ajralib turadi.

103-mashqni bajarish jarayonida quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi (*o‘qish va gapirish*).

O‘q so‘zining izohlari	**Qo‘llanishi**	**Misol**
To‘g‘ri, adil	Asosan, egri bo‘lmagan ko‘cha, yo‘l va boshqa narsalar haqida	Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o‘rniga bog‘-rog‘ga ko‘milgan, ko‘chalari **o‘qday** to‘g‘ri, oppoq, ko‘rkam qishloq barpo qildi. (*O. Yoqubov)*
To‘g‘ri	Rost, adolatli so‘z, shuningdek, g‘irromlikni bilmaydigan odam haqida	**Yoydek** to‘g‘ri bo‘lmoqlik kibr-u havoga yo‘l ochmasligi lozim... – negadir o‘ylanib qoldi sohibqiron. (*M. Ali)*
Botmoq, tegmoq, teshib o‘tmoq, sanchilmoq, qadalmoq	Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so‘z, o‘y-xayol haqida	Uning so‘zlari garchi **o‘q kabi** botayotgan bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (*T. Malik)* U ketdi, ketdi-yu endi shum o‘ylar Sanchilaveradi qalbga **misli o‘q.** (*A.O‘ktam)*
Uchmoq	Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq	Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga **o‘q kabi** uchib borarman. (*R. Parfi)* Bizdan uzr so‘rab, „pat-pat“iga o‘tirdi-yu, **o‘qday** uchirib ketdi. (*M.M. Do‘st)*

Otilmoq	Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida	Qamchi yeb o‘rganmagan uchqur bedov oldinga **o‘qday** otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. (*P. Qodirov)*
Otilib chiqmoq	Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so‘z, xitob va shu kabilar haqida	Ko‘kragidan shu so‘zlar **o‘qday** otilib chiqdi: „Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o‘rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi“. (*A. Qahhor)*
Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq	Qattiq, dag‘al, quloqqa ozor beradigan darajada eshitiladigan ovoz, gap-so‘z haqida	Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissyorning tajang qich-qirig‘i Zuhraning quloqlariga **o‘qday** kirdi. (*O‘. Hoshimov)*
Qadamoq, tikmoq	Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko‘z haqida	Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o‘ziga **o‘qdek** qadalib turgan bir juft ko‘zni ko‘rib qoldi. (*E. A’zam)*

Tilshunos olimlarning ta’kidlashicha, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Turg‘un o‘xshatishlar etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi.

104-mashq. Hassos shoir Erkin Vohidov asarlaridan olingan she’riy parchalarni o‘qing, ulardagi erkin va turg‘un o‘xshatishlarni aniqlab, izohlang.

Erkin o‘xshatish mavjud gaplar	Turg‘un o‘xshatish mavjud gaplar
Yarq etgan toleday quyosh ko‘rindi, O‘lkamda bahordir, o‘lkamda bahor.	Bu vatanda bir Vatan Qurmoqni istaydir ko‘ngil, O‘zni ozod **qush kabi** Ko‘rmoqni istaydir ko‘ngil... Sarhad uzra **soqchidek** Turmoqni istaydir ko‘ngil

Ko‘rakdek og‘izni Yumarmiz har dam, Ochmasam **chanoq-** **dek** Dilni endi ham, Men nechuk shoirman, Men nechuk odam?	Mevalarki, **cho‘g‘day** qip-qizil, Husni yoqut, shirinlikda bol.
Va yo aytmangki, **mo‘rt toldek** Shamollarda sinib ketdi.	Uni kiyib Matmusa, Yigit bo‘ldi **chaqmoqday**.
Dunyoda **o‘z yurtimizdek** jononasi yo‘q, London, Parij – shaharmi? Bir choyxonasi yo‘q.	

105-mashq „Hasharda“ yoki „Navro‘z“ mavzusida matn tuzing, unda turg‘un va erkin o‘xshatishlardan foydalaning (*yozish, o‘qish, gapirish*).

106-mashq. Gaplarni o‘qing. Erkin o‘xshatishlarni aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring, ma’nosini izohlang (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: 1. Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – **kasal odamning kulishiday** og‘ir, bir xil **sovuq hazillarday** malol keltiruvchi, **yolg‘on xushomadlarday** ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi. *(Cho‘lpon)* 2. Hamma uyquda. Yangi yog‘gan qor oyoq ostlarida **g‘irchillama etik singari** ovoz berib yotardi. To‘shakcha ustidagi dumaloq bolish – tepasi qor, ikki yoni quruq – **chala bo‘yalgan tuxum singari** chuchmal va g‘alati ko‘rinardi. *(Cho‘lpon)* 3. Kun issig‘idan anor yuzlari bo‘rtinib ketgan. *Baxt yo‘llariday* oq va keng manglayda **marvarid donalariday** mayda ter. *(G‘afur G‘ulom)* 4. **Ilon chaqqan kishidek** dovdir va besaranjom ko‘zlari bilan tevarakka bejo-bejo nazar tashlar edi. *(Abdulla Qodiriy)* 5. Ko‘chada yuk ortilgan tuyalar ko‘p. Qing‘ir-qiyshiq ko‘cha ular uchun go‘yo **sichqonning qopqoniday** bo‘lganidan tiqilib qolishgan. *(Oybek)*

107-mashq. Gaplarni o‘qing. O‘xshatish etalonlarini aniqlang, ularning nutq ifodaliligidagi o‘rnini tushuntiring.

Yechim: yuqoridagi mashq tahlilida „O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati“dan olingan izohlardan foydalanish o‘rinli:

Kalladek – yumaloq va uncha katta bo‘lmagan. Ko‘proq tosh, qovun-tarvuz kabilar haqida.

Ini buzilgan chumoliday – ko‘plashib, birgalikda harakat qilmoq; muayyan bir joyda tartibli-tartibsiz harakat qilmoq, g‘ujg‘on o‘ynamoq.

Qo‘chqorday – pahlavon, botir, suyumli. Asosan, o‘g‘il farzand, bolalar haqida.

Toychoqday – gijinglamoq, shataloq otmoq, o‘ynoqlamoq, irg‘ishlamoq; sho‘x, yoqimtoy. Yosh bolalar va mashina, suv, soy kabi harakatli narsalar haqida.

To‘ygan qo‘ziday – bu erkin o‘xshatish bo‘lib, biror narsadan xotirjam, beparvo o‘tirgan odam haqida.

Mast tuyaday – bu o‘xshatishning *tuyaday* shakli turg‘unlashgan bo‘lib, *mast tuyaday* o‘xshatishi *kuchli chayqalmoq, g‘ayriodatiy harakatlar qilish* ma’nosida qo‘llangan.

LUG‘AT ISHI

Qo‘ltig‘iga suv purkamoq – biror ishni qilishga o‘chakishtirmoq, gijgijlamoq. *Misol:* Eshonning xotinini kimdir tezlayapti, kimlardir qo‘ltig‘iga suv purkayapti. (*S.Ahmad*)

Hasratidan chang chiqmoq – ortiq darajada norozilik bilan gapirmoq. *Misol:* Maxsum… Qo‘chqorning musulmoni komil bandalarga ko‘p ozor berayotganini gapirib, hasratidan chang chiqdi. (*S. Anorboyev*)

Darslikda berilgan savol va topshiriqlar yuzasidan o‘quvchilarning fikrlari so‘raladi. **108-mashq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga chiqadigan nutqning kommunikativ sifatlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zgalar fikriga hurmat va toqat qilish, murosali qarorga kela olishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

1-topshiriq. Berilgan so‘z va ibora juftliklari ishtirokida gaplar tuzing. Shundan kelib chiqib so‘z va iboraning ifodalilik imkoniyatlarini tavsiflang (*o‘qish, yozish, gapirish*).

Izoh: topshiriqni bajarishda sinf kichik guruhlarda ishlashi mumkin. O‘quvchilarni 6 ta guruhga bo‘lib, har bir guruhga darslikda berilgan so‘z va ibora juftligi taqsimlanadi:

1) xafa – ichiga chiroq yoqsa yorishmaydigan;
2) xursand – og‘zi qulog‘ida;
3) sho‘x – yerga ursang, ko‘kka sapchiydigan;
4) lallaygan – og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadigan;

5) yuvosh – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan;
6) hovliqmoq – o‘pkasini qo‘ltiqlamoq.

Namuna:

Bo‘lib o‘tgan voqealar Salimga juda qattiq ta’sir qilgan, ayni damda bog‘ ichida sayr qilarkan, juda **xafa** edi. – Bo‘lib o‘tgan voqealar Salimga juda qattiq ta’sir qilgan, ayni damda bog‘ ichida sayr qilarkan, **ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi**.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Ko‘chimlarning turini aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi o‘ziga xosligini tavsiflang (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: ko‘chimlar nutq ifodaliligini ta’minlash maqsadida qo‘llanib, ko‘chma ma’no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etgan:

Matnda qo‘llangan o‘xshatishlar:
shoxlarini shirtillatib uzguday yog‘gan yomg‘ir;
bulutlar azim daryodek.
Matnda qo‘llangan metaforalar:
qosh qoraya boshladi;
osmon pardasi ochilmadi;
bulutlar quyuqlashib;
bulutlar ... Sharqqa tomon oqib bormoqda;
yoqimli shabadasi uzoqqa bormadi;
ko‘rpachaga ko‘kragini berib, yostiqni quchoqlab yotgan.

3-topshiriq. Erkin Vohidovning „Boshindadir“ she’ridan olingan parchani o‘qing. Matn mazmuniga singdirib yuborilgan zaharxandani tushunishga harakat qiling. Yaqqol kinoyaviy qo‘llangan so‘zni topib, uning qarama-qarshi ma’noda namoyon bo‘lishiga diqqat qiling.

Yechim: she’rda yaqqol kinoyaviy ma’noda qo‘llangan so‘z ***„rahmat“*** so‘zi bo‘lib, bu so‘z o‘zining aksi –***„la’nat, ta’na-dashnom“*** ma’nosini juda yorqin ifodalagan. She’rdagi ***nay misol, sandiqdayin, savatdek*** kabi o‘xshatishlar zaharxanda bilan aytilmoqchi bo‘lgan ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She’rda otasiga boqimanda, biroq „zamonaviy urf“ – moda bo‘yicha kiyinishni kanda qilmaydigan „erkak“lar yumoristik kulgi tig‘iga olingan.

LUG‘AT ISHI

Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq – 1. Tanishdek tuyulmoq. 2. O‘ziga tortmoq, yoqimli bo‘lmoq. *Varianti*: ko‘ziga o‘tday ko‘rinmoq. *Zidi*: ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq. *Misol*: „…Ko‘zimga issiq ko‘rinasan, qayerliksan, o‘g‘lim?“ (*A. Muhiddin*)

Yuzi shuvut bo‘lmoq – uyatli holatda qolmoq. *Varianti*: beti shuvut bo‘lmoq, yuzi shamgin bo‘lmoq. *Zidi*: yuzi yorug‘ bo‘lmoq. *Misol*: Yuzimizni shuvut qilganing yetmay, tiriklayin judo qilding. (*S.Zunnunova*)

4-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring. Turg‘un o‘xshatishlarning nutq ifodaliligiga ta’sirini baholang (*yozish, o‘qish, gapirish*).

1. Bo‘ldi-da endi, voy-bo‘! Bitta gapni **achchiq ichakday** cho‘zaveradimi! *(Sh. Boshbekov)* 2. Olomon ichidan bir kosib yigitcha bo‘ynini **xo‘rozday** cho‘zib, baralla qichqirdi. *(Oybek)* 3. Avvallari bunday holga tushgan odamni ko‘rganda, xuddi **jismiga paykon sanchilgan sherdek** o‘kirib dunyolarni buzadigan Yusuf hozir miq etmasdi. *(Ulug‘bek Hamdam)* 4. Butun shahar **arining uyasidek** qaynaydi. *(Sh. Boshbekov)* 5. Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola **sharpaday** unsiz yurib keldi-da, zinadan ayvonga ko‘tarildi. *(O‘.Hoshimov)*

Yechim: mashqdagi gaplarda qo‘llangan o‘xshatishlar turg‘un o‘xshatishlar bo‘lib, ular o‘zi ifodalagan ma’no bilan birgalikda so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham bildiradi. Masalan, ***achchiq ichakday*** o‘xshatishida so‘zlovchining salbiy munosabati yaqqol seziladi.

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ TEXNIKASI

Ta’limiy maqsad: nutq hosil qilishda nafas olish va nafas chiqarishning o‘rni haqida o‘quvchilarga batafsil ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘zgalar tanqididan to‘g‘ri xulosa chiqarish, o‘zgalar fikriga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutq hosil qilishda zarur bo‘lgan sifatlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mazkur darsni o‘tishdan oldin o‘qituvchi nutq texnikasi, urg‘u va to‘xtam (pauza) tushunchalari yuzasidan yaxshi xabardor bo‘lishi zarur. Quyi sinflarda faqat urg‘u bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan, nutq texnikasi tushunchasi esa yangi mavzu sanaladi. Talab darajasida shakllangan nutq texnikasi kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim qismi hisoblanadi. Nutq texnikasi deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami tushuniladi. Nutq texnikasini yetarli darajada egallashda umumiy tarzda bo‘lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur.

Nutq texnikasi unsurlari: 1. Artikulatsiya. 2. Diksiya. 3. Orfoepiya. 4. Nafas. 5. Ovoz.

Nutq texnikasining muhim bir qismi bu artikulatsiyadir. Nutq a'zolarining me'yoriy harakatiga *artikulatsiya* deb ataladi. Talaffuz organlari bo'lgan lab, jag', til nutq jarayonida turlicha shaklda harakatlanadi. *Fonatsiya* – nutqni hosil qilish paytida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Bunda nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish – *diksiya*, nutq oqimining mazmun ifodasiga uyg'un tarzda tez yoki sekinligi kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Albatta, ovozning sifati ham nutq texnikasidagi muhim jihatlardan biridir. Masalan, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yoqimli bo'lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan „libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad – muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi.

Topshiriqni bajarish tartibi:

Darslikda berilgan hikoyat matni o'quvchilarga audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Ba'zi so'zlarning izohi tayyorlanadi:

rag'bat – bu yerda *kuchli xohish-istak* ma'nosida;

muazzin – masjidda azon aytuvchi xodim;

mukaddar – xafa; g'amga botgan;

javonmard – baland himmatli zot;

ittifoq aylamoq – bu yerda *kelishmoq, bitim tuzmoq* ma'nosida.

Matn mazmuni yuzasidan o'quvchilar bilan kichik suhbat tashkil qilinadi (*gapirish*). „Suhbat" metodidan foydalanib, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Matnda ifodalangan muazzinga ta'rif bering.
2. Amirning muazzin haqidagi qaroriga qanday munosabat bildirasiz?
3. Ortga qaytib kelgan muazzin amirni nega zulmkorlikda aybladi?
4. Amir nima uchun muazzinga yigirma oltinni olishga ko'nmaslikni maslahat berdi?
5. Hikoyat mazmunidan amirning shaxsiyati haqida nima deya olasiz?
6. Siz amirning o'rnida qanday yo'l tutgan bo'lardingiz va sizning qaroringizning muazzin ovozi sifatiga ta'siri bo'larmidi? Fikrlaringizni rivojlantiring.

Har bir o‘quvchi o‘z munosabatini tezis shaklida daftarda bayon qiladi (*yozish*) va sinfdoshlarini mulohazasi bilan tanishtiradi (*o‘qish*).

109-mashq. Parchani o‘qing. Qahramonning ayrim tovushlar talaffuzidagi nuqsonlariga e’tibor bering, tovushni aniq talaffuz qilish zaruriyati haqida fikrlashing (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: ushbu matn bo‘yicha „Munozara“ metodidan foydalanib, o‘quvchilar o‘rtasida qizg‘in muhokama uyushtirsa bo‘ladi. O‘qituvchi bu muhokama uchun quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

1. Matn O‘. Hoshimovning qaysi asaridan olingan va siz ushbu asar bilan tanishmisiz?
2. Ayrim kichkina bolalarning ba’zi tovushlarni ayta olmaslik holatlariga duch kelganmisiz?
3. Odam o‘z nutqidagi nuqsonlarni to‘g‘rilashi mumkinmi?
4. Nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish uchun qanday yo‘l tutish kerakligini bilasizmi?
5. Chiroyli gapirish uchun qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim?

110-mashq. Matn eshittiriladi. Unda ifodalangan fikrlar atrofida mulohaza yuritiladi (*tinglab tushunish va gapirish*).

Izoh: bu mashq o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish va turli doiralarda nutq so‘zlash ko‘nikmasini egallash uchun motivatsiya vazifasini bajarishi zarur. O‘qituvchi mashhur yunon notig‘i Demosfen amalga oshirgan ishning mohiyatini o‘quvchilar ongiga yetkazishda quyidagi rasmlardan qiyosiy foydalanishi mumkin: 1-rasmda bo‘lajak notiqning dengiz bo‘yidagi nutqiy mashqlari manzarasi, 2-rasmda Demosfenning Afina demokratik guruhi yo‘lboshchisi sifatida nutq so‘zlash jarayoni tasvirlangan:





Burro talaffuzni shakllantirishda tez aytishlar muhim ahamiyatga ega.

111-mashqda tez aytish namunalari keltirilgan. Ikki bosqichli „Quvnoq musobaqa“ tashkil qilinadi: 1-bosqichda darslikda berilgan tez aytishlar bo‘yicha, 2-bosqichda o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan tez aytishlari bo‘yicha bellashadilar. Musobaqada so‘zlarni to‘g‘ri, aniq va to‘liq talaffuz qilish qoidasiga rioya etilishi lozim. G‘olib o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

LUG‘AT ISHI

„Ha-hu“ deguncha – juda qisqa muddatda, tezda. *Ma’nodoshi*: „hash-pash“ deguncha; ko‘z ochib yumguncha. *Misol*: Odamning umri qanday tez o‘tib ketadi, „ha-hu“ deguncha ko‘klam ham kelib qolibdi. (*G‘.G‘ulom*)

Hushi boshidan uchmoq – esankiramoq. *Ma’nodoshi*: hushini yo‘qotmoq. *Misol*: Mahmud akaning hushi boshidan uchib, yelkasidagi xurjunining og‘irligini ham sezmay, serrayib qotib qoldi. (*N.Maqsudiy*)

112-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars nihoyalanadi.

NUTQ TEXNIKASIDA URG‘U VA TO‘XTAM (PAUZA)

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga urg‘u, so‘z urg‘usi va uning ma’no ajratuvchanlik xususiyati bilan bog‘liq uslubiy vazifasi, turli adabiy janrlarga oid asarlarni o‘qishda urg‘u va to‘xtam (pauza)ning ahamiyati haqida ma’lumot berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: tushunarli, chiroyli, ravon so‘zlash madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqiy vaziyatlarda urg‘uning xususiyatlarini aniqlash; tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Matn qanchalik mukammal bo‘lmasin, u talqin etilishiga qarab, muayyan ta’sir kuchiga ega. O‘tilgan mavzudan ayon bo‘ldiki, nutq texnikasi deyilganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lgani uchun uning texnikasi ham ikki xil bo‘ladi:

1. Og‘zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

To‘xtam (pauza) ovozni vaqtincha to‘xtatish (to‘xtab qolish, dam olish, oraliq) bo‘lib, bu davrda nutq a’zolari artukulatsiyadan to‘xtaydi

va nutq oqimi uziladi. To‘xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko‘riladi. Shuni ta’kidlash joizki, matnning duch kelgan joyida nafas rostlanmaydi.

To‘xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Bugungi darsda to‘xtamning ikki asosiy turi: mantiqiy to‘xtam va ruhiy to‘xtam ustida ishlanadi. Mantiqiy to‘xtam nutqning mantiq tomoni bilan bog‘liq bo‘lib, so‘z guruhlarini bir-biridan aniq ajratish, matnning ma’nosini to‘la ochish uchun xizmat qiladi. Bu to‘xtam mantiq qonunlariga bo‘ysunib, sintaktik talablarga rioya qilinmaydi. So‘zlovchining kuchli hayajonini, borliq voqea – hodisalaridan olgan taassurotlarini ifodalovchi to‘xtam ruhiy to‘xtam deyiladi. Ruhiy to‘xtam emotsionallik bo‘yog‘i bilan bog‘liq.

Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin „Izohli vizual diktant“ olish tavsiya qilinadi. Bunda o‘quvchilar ham ko‘rib, ham yozib boradilar.

Izoh davomida o‘quvchilar quyi sinflarda o‘zlashtirgan bilimlari bo‘yicha klaster tayyorlaydilar. Bu jarayonda urg‘u bilan bog‘liq quyidagi ma’lumotlar yodga olinadi:

1) o‘zbek tilida urg‘u, asosan, oxirgi bo‘g‘inga tushadi: *ishchí, ishchilár, ishchilargá;*

2) rus yoki boshqa chet tillardan kirgan so‘zlarda urg‘u olgan tovush aniq talaffuz qilinadi: *stól, fléjka, texnológiya, ófis, adápter, stadión*;

3) xuddi shunday so‘zlardagi urg‘u olmagan tovushlar kuchsiz talaffuz qilinadi: *rektor – rektir, televizor – televizir, kompyuter – kampyutir*;

4*) muhim, muhit, mumkin, musiqa* so‘zlaridagi **i** tovushi aniq talaffuz qilinishi kerak, aks holda bu tovush o‘rnida **u** tovushi eshitilishi mumkin.

1–2-topshiriqlarni bajarish jarayonida *tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. **1-topshiriq**da berilgan juftliklardagi so‘zlarning urg‘u va ma’no jihatdan farqlari misollar yordamida izohlanadi. Berilgan so‘zlarni avval o‘qituvchining o‘zi talaffuz qilib beradi, so‘ng o‘quvchilar urg‘uga e’tibor qaratgan holda takrorlaydilar.

Olmá (ot) – ólma (fe’l);
Akadémik (ot) – akadeмík (sifat);

Bog‘dan o‘tgan ariqda qip-qizil *olmá* qalqib kelardi. – Birovning narsasini egasidan so‘ramay *ólma*.

Mehri. Har bir meditsina personali *akadémik* Ivan Pavlov nazariyasiga binoan, shaxsiy gigiyenani o‘ziga shartli refleks qilib olishi kerak. (*S. Ahmad)* – „Fan“ nashriyotida nashr etilgan Oybek asarlarining 20

jildligi, H. Olimjon asarlarining 10 jildligi *akadem*ík nashr hisoblanadi. (O‘zME)

Qo‘shimcha ma’lumot:

suzmá (ot, *quyuq qatiq*) – súzma (fe’l, *suvda suzish* yoki *ovqatni suzish*)

tortmá (ot) – tórtma (fe’l)

qatlamá (ot) – qátlama (fe’l)

bolaginá (ot, -*gina* kichraytirish) – bolágina (ot, -*gina* yuklama)

gráfik (ot, *chizma*) – grá fik (ot, *mutaxassis*) – grafík (sifat, *grafik tasvir)*

2-topshiriqdagi gaplar „Kim ohangga usta?“ usulida o‘quvchilarga o‘qitib ko‘riladi. Oxirida o‘qituvchi shunday o‘qib berishi kerakki, o‘quvchilar gaplarning intonatsiyasiga mos ravishda uning mazmuniy turini yaqqol anglay olishsin:

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi. (*Darak gap*)

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi? (*So‘roq gap*)

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi! (*His-hayajon gap*)

Nutqning madaniyligini ta’minlashda undagi ohang ham alohida o‘rin tutadi. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida urg‘u, to‘xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya kabi unsurlar ishtirok etadi. Og‘zaki madaniy nutq tuzayotgan kishi ana shu unsurlarni aniq va to‘g‘ri namoyon qilishi zarur. Nutq oqimidagi noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz to‘xtam (pauza) hatto fikrning yanglish anglanishiga ham olib kelishi mumkin. „Gapda intonatsion o‘zgarish bo‘lar ekan, bu, odatda, sintaktik bo‘linishning, mazmunning boshqaligini ko‘rsatadi“. (*A.G‘ulomov*)

Masalan: 1. *Katta mevali // daraxt* (mevasi katta) – *katta // mevali daraxt* (daraxt katta).

2. *Qalin // muqovali kitob* (kitobning o‘zi qalin) – *qalin muqovali // kitob* (muqovasi qalin).

3. *Uchta bolali // xotin* (uchta bolasi bor xotin) – *uchta // bolali xotin* (bolasi bor uchta xotin). (misollar A. G‘ulomovdan)

4. Afandi podshoga qarab: „*Siz ahmoq odam emassiz*“ – dedi. (latifa) – *Siz ahmoq // odam emassiz* (ahmoq odamsiz).

5. *Kimsan // yomon bola bo‘lmaydi* – yaxshi bola bo‘ladi; *Kimsan yomon // bola bo‘lmaydi* – yaxshi bola bo‘lmaydi, umuman odam bo‘lmaydi.

6. *Bolalar orqasini o‘girib turgan Afandini savalab ketishdi: savalab ketishdi* (yaxlit intonatsiya) – tarkibli kesim; *savalab // ketishdi* – hol-kesim.

Intonatsiya gapning mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

113-mashqni bajarish davomida *o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. O‘quvchilar so‘z va gap urg‘usi hamda to‘xtam qoidalariga rioya qilgan holda she’rni o‘qib, unda ifodalangan fikrlarni nasriy bayon qilishga harakat qiladilar. She’r mazmunidan kelib chiqib, maqollarni topib yozadilar.

Yechim:

Hatto shohning Ishqi tushgan qurbaqa	Shohning ishqi qurbaqaga tushibdi
Yaxshi so‘zga inidan Chiqadigan ilonlar	**Yaxshi so‘zga ilon inidan chiqar** (Yomon so‘zga pichoq qinidan chiqar.)
Sira bosgan izidan Qaytmaydigan arslonlar	(Yigit so‘zidan,) **arslon izidan qaytmas**
Inga sig‘mas dumiga G‘alvir bog‘lagan sichqon	Chichqon sig‘mas iniga, G‘alvir bog‘lar dumiga
Bolasin botirim deb, Alqagan qo‘rqoq quyon	**Quyon bolasini botirim der** (It bolasini qoplonim der.)
Do‘stlardan ayrilganni Yeydigan ayiqlar bor	**Ayrilganni ayiq yer** (Bo‘linganni bo‘ri yer.)
Changi chiqsa ham, dong‘i Chiqmaydigan yolg‘iz ot	Yolg‘iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas

114-mashq „Saylab yoz“ usulidan foydalanib bajariladi. Matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*).

Yechim: sinf uch guruhga bo‘linadi va birinchi guruh darak gaplarni, ikkinchi guruh so‘roq gaplarni, uchinchi guruh buyruq gaplarni ajratib ko‘rsatadi:

Hikoyatning tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildiradilar (*gapirish*).

Namuna:

Ahillikda ish bitar, Ish bitsa ham, qish bitar.

Ahil ishlasang, ish unar, Har mushkul oson bo‘lar.

Aka-uka yakdil bo‘lmasa, ro‘zg‘ori but bo‘lmaydi.

Xulosa: Ikkisi bir bo‘lmaganning qandoq qilib biri ikki bo‘lsin?! – Ikki aka-uka ahil bo‘lmasa, ularning biri ikki bo‘lmaydi (bir so‘mi ikki so‘m bo‘lmaydi, daromadi ko‘paymaydi).

115-mashqni bajarish tartibi: Matn undagi gaplarning mazmuniga mos ohang bilan hamda so‘z va gap urg‘ularini to‘g‘ri belgilagan holda o‘qiladi (*o‘qish*).

Matn yuzasidan har bir o‘quvchi rivoyatdan chiqargan ibratli xulosasini yozma bayon qiladi (*yozish*).

Namunalar:

Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo‘lar chiroyli.

Bog‘ni boqsang – bog‘ bo‘lur,
Botmon dahsar yog‘ bo‘lur.

Boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘lur,
Yurak-bag‘ring dog‘ bo‘lur.

Xazina g‘oyibdan emas, mehnatdan.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar	
Labi labiga tegmaydi	juda tez va ko‘p gapirmoq	*Yangi kotibamiz juda sergap ekan: labi labiga tegmaydi-ya?*	
Labini tishlamoq	kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq	**O‘xshashi**: tilini tishlamoq	*Oynisa opa jahli chiqqanini bildirmaslik uchun labini tishladi.* *Anvar javob berolmay tilini tishladi.*

Mavzuni mustahkamlash maqsadida savollarga javob beriladi. Faol qatnashgan o‘quvchilar bahosi qo‘yiladi. **116-mashq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. BAYONNOMA

Ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarni ish qog‘ozlari bilan tanishtirish; bayonnoma yozish ko‘nikmasini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘zni anglash, tanlash va o‘rinli qo‘llash madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

Adabiy tilning muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan, rasmiylik bo‘yog‘i va shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanalishi ma’lum. Bu uslub diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog‘ozi singari ish yuritish qog‘ozlarida qo‘llaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda, ko‘pincha, darak va buyruq gaplar qo‘llanadi.

„Ish yuritish“ kitobidan olingan matn (**1-topshiriq**) bilan tanishiladi (*o‘qish*), o‘quvchilar „Zanjir“ usulida tushungan ma’lumotlarini aytadilar (*gapirish*):

1-o‘quvchi: „o‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur“.

2-o‘quvchi: „Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak“.

3-o‘quvchi: „O‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallamay turib, bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi“.

4-o‘quvchi: „Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o‘z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Ular o‘zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lmasa, ish vaqtlarining hammasini – 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham, ijobiy natijaga erishish qiyin“.

2-topshiriq „Tadqiqot“ usulida quyidagi jadvalni to‘ldirish bilan amalga oshiriladi (*o‘qish va gapirish*):

T.r.	Hujjatga qo‘yiladigan talablar	Aks holda...
1	Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga javob berishi lozim.	Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo‘la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

2	Hujjatlar matni xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘nda-lik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat bo‘lishi zarur.	Ortiqcha yoki noo‘rin so‘z qo‘llash, jumlalarni noto‘g‘ri tuzish hujjat mazmunining tushunarliligi-ga putur yetkazadi.
3	Ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe’l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifoda-si uchun ham „harakat nomi“ deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi.	Hujjat turida qo‘llanadigan ifo-dalarni almashtirish shakllanib bo‘lgan qolipning buzilishiga olib keladi.
4	Majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o‘tgan (yoki hozir-gi-kelasi) zamondagi fe’l shakllarining qo‘llanish darajasi ancha yuqori.	Fe’l shakllarining no‘o‘rin qo‘llani-shi (masalan, xabar mayli shakllari-ni faol qo‘llash) hujjat maqsadining aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3-topshiriq esa „Bayonnoma“ hujjati tilining sintaktik qurilishi haqi-da bo‘lib, o‘quvchilar berilgan ma’lumot asosida klaster tayyorlaydilar:

1. Asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.
2. Ham xabar berish (axborot), ham buyurish vazifalari amalga oshadi.
3. Gap tarkibida odatdagi so‘z tartibiga qat’iy rioya qilinadi.
4. Gap qurilishi tasniflash, mayda qismlarga ajratish, bu qismlarning sabab-oqibat, shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi.

4-topshiriqda berilgan matn o‘qiladi. Matn mazmunidan kelib chiqib, „Adashgan tushunchalar tahlili“ jadvali to‘g‘rilab to‘ldiriladi.

1	Bayonnoma	U voqelikning o‘rni, vaqti va holati haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi.
2	Maqsadi	Bayonnoma yozishni tashkil qilish, tuzish va va rasmiylashtirishni amalga oshiradi.
3	Asoslovchilik vazifasi (ahamiyati)	Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

4	Kotib(a)	Doimiy ish ko‘ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay’at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko‘ruvchi organlar (konferensiyalar, yig‘ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlari bayonnoma yozish bilan asoslanadi.
5	Javobgarlik	Turli yig‘ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

Tekshirish uchun jadval:

1	Bayonnoma	Turli yig‘ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.
2	Maqsadi	U voqelikning o‘rni, vaqti va holati haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi.
3	Asoslovchilik vazifasi (ahamiyati)	Doimiy ish ko‘ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay’at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko‘ruvchi organlar (konferensiyalar, yig‘ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlari bayonnoma yozish bilan asoslanadi.
4	Kotib(a)	Bayonnoma yozishni tashkil qilish, tuzish va rasmiylashtirishni amalga oshiradi.
5	Javobgarlik	Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar
Kuni qolmoq	1. Biror ishni bajarishda qaram bo‘lmoq	*Toza qaqajonlarga kuningiz qolibdi-ku, bolam. (Oydin)*
	2. Foydalanishga majbur bo‘lmoq	*„Hay, ishi nimasi, bolam, kunimiz sening topadigan pulingga qoptimi?!“ (A.Muxtor)*

Ko‘zi mosh-dek ochilmoq	jazolanib, hushyor tortmoq	*„Bilib qo‘y, bola, ko‘zing moshdek ochilganda ostonamga yalinib kelma“. (A. Korjovov)*

5-topshiriq uyga beriladi va dars yakunlanadi.

BAYONNOMADAN KO‘CHIRMA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda bayonnomadan ko‘chirma olish haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga jamoaviy ahillik, do‘stlik tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish.

1-topshiriq bayonnomaning tarkibiy tuzilishi aks etgan jadval asosida tushuntiriladi. Hujjat matnining imlosiga diqqat qilinadi.

T.r.	**Zaruriy qismlar:**
1	Muassasa nomi
2	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
3	Shartli raqami
4	Hujjatning nomi (Bayonnoma)
5	Yig‘ilish sanasi
6	Yig‘ilish joyi
7	Tasdiqlash belgisi (agar bayonnoma tasdiqlanishi zarur bo‘lsa)
8	Yig‘ilish raisi va kotibning familiyasi
9	Matn: a) kun tartibi; b) „eshitildi“; d) „so‘zga chiqdilar“; e) „qaror qilindi“.
10	Ilovalar (agar ular mavjud bo‘lsa)
11	Imzolar

2-topshiriqda berilgan „Bayonnomadan ko‘chirma“ matnining tarkibiy tuzilishi o‘rganiladi va „Bayonnoma matnining tarkibiy tuzilishi“ jadvali bilan qiyoslanadi.

T.r.	**Zaruriy qismlar:**
1	Muassasa nomi

2	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
3	Sana (majlis sanasi)
4	Shartli raqami
5	Hujjatning nomi (bayonnomadan ko‘chirma)
6	Bayonnoma tuzilgan joy
7	Matn: a) kun tartibi; b) „eshitildi“; d) „qaror qilindi“.
8	Imzolar
9	Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi (muhr bilan)

„***Qiyosiy tahlil“ asosida xulosa chiqariladi:***

Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo‘lgan bo‘laklargina olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo‘lsa, kerakli masala bo‘yicha qabul qilingan qaror ko‘chiriladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	O‘xshashi	Misol
Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq	imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq	ko‘rpaga qarab oyoq uzatmoq	*Bu yog‘iga endi ko‘rpangga qarab oyoq uzat, isrofning ham uvoli bor, o‘g‘lim. (M.M.Do‘st)*
Yuragi po‘killamoq	Biror yoqimsiz ishning yuz berishidan hadiksiramoq		*„Baqirishga-ku baqirib qo‘ydi, endi nima bo‘ladi? Akasining yuziga qanday qaraydi?“ – xayoli chuvalashib ketgan Murodning yuragi po‘killardi. (S.Ashur)*

3-topshiriq „Konveyer“ usulida bajariladi. Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi va bayonnomaning yozish kerak bo‘lgan qismlari taqsimlanadi:

1-guruh	Muassasa nomi
	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
	Shartli raqami
	Hujjatning nomi (Bayonnoma)
	Yig‘ilish sanasi
	Yig‘ilish joyi
	Yig‘ilish raisi va kotibning familiyasi
	Kun tartibi
2-guruh	„Eshitildi“ qismi matni
3-guruh	„So‘zga chiqdi“ qismi matni
4-guruh	„Qaror qilindi“ qismi matni

To‘rtala guruh ishi birlashtirilib, yaxlit bayonnoma matni hosil qilinadi. Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. **4-topshiriq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

TAKRORLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning yil davomida o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash va takrorlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga insoniy fazilatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘rganilgan nazariy bilimlarni kundalik hayotda o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

Darslikda berilgan savollarga o‘quvchilar „Zinama-zina“ usulida javob beradilar. Buning uchun sinf to‘rt guruhga bo‘linib, har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Savollar ketma-ket beriladi, javob bergan o‘quvchi bir qadam oldinga, javob berolmagan yoki xato qilgan o‘quvchi bir qadam ortga yuradi. Shu tariqa belgilangan marraga eng avval yetib kelgan guruh g‘olib bo‘ladi.

117-mashq asosida „Kim topqir?“ musobaqasi o‘tkaziladi. Berilgan gaplardagi sheva unsurlari adabiy me’yor shakliga aylantiriladi.

1	Sen me**ni** boshim**di** aylantirma, – deya muallimning gapini cho‘rt kesdi u.	Sen mening boshimni aylantirma, – deya muallimning gapini cho‘rt kesdi u.	

2	Qishloq**di** dunyo tanidi nima, tanimadi nima?	Qishloqni dunyo tanidi nima, tanimadi nima?	Mazkur gaplarda ijodkor qahramonlar qiyofasi va xarakterini ochish uchun sheva unsurlarini qo‘llagan
3	Birov kelib qurbaqa bosgan qudug‘imga toza suv quyib ber**ay**midi?	Birov kelib qurbaqa bosgan qudug‘imga toza suv quyib berarmidi?	
4	Yo **ulimdi** musobaqaga yuborganim uchun menga bir so‘m ber**ay**midi?	Yo o‘g‘limni musobaqaga yuborganim uchun menga bir so‘m berarmidi?	
5	**Shohmot**ning **ketidan** kim boyib ketdi o‘zi, a, kim?	Shaxmatning ortidan kim boyib ketdi o‘zi, a, kim?	
6	Bizdi **andi** deb o‘ylayotgan bo‘lsang, adashasan!	Bizni sodda deb o‘ylayotgan bo‘lsang, adashasan!	

118-mashqda berilgan matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). O‘quvchilar hikoyatdan olgan hissalarini bayon qiladilar (*gapirish*). So‘ngra matnga sarlavha topib, reja tuziladi (*yozish*). Kirish, asosiy qism va xulosa o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlik aniqlanadi.

Sarlavha namunalari:

Malol.

G‘o‘r farzand.

Oqibatsiz o‘g‘il.

Taxminiy reja:

I. Kirish. Ona yosh edi... Bola go‘dak edi.

II. Asosiy qism:

1. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borardi:

a) qishloq guzaridagi noma’lum qush;

b) bolaning hayrat to‘la so‘roqlari;

d) mehr bilan qaytarilgan javoblar.

2. Bola yigit bo‘ldi:

a) daraxt shoxidagi laylak;

b) onaning nursiz so‘roqlari;

d) o‘g‘il shoshib turibdi: mingta ishi bor!

III. Xulosa: Qaytar dunyo: o‘g‘ilning ham g‘o‘r, go‘dak bolalari bor.

119-mashq bilan tanishiladi (*o‘qish)*. Matndagi tagiga chizilgan chet so‘z va birikmalar qahramonning ma’naviy qiyofasini ochishga qay darajada xizmat qilayotganiga diqqat qilinadi. „Qiyosiy tahlil“ metodi asosida matn chet so‘z va birikmalardan tozalanadi. Yuzaga kelgan farq badiiy obraz qiyofasini o‘zgartira olgan-olmagani xususida mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

– Mumkinmi? Gud moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men, k sojaleniyu, sizning sochineniyelaringizni o‘qigan emasman. Xotya, eshitganman. V osnovnom, mamashkalar haqida yozarkansiz. Itak, to‘rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi, pomoyemu, o‘n to‘rtda. Shu yil o‘n to‘rtga kiradi. Kopiya papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliymi, ko‘zining razrezi.... Papasi zamministr edi. (*O‘.Hoshimov*)	– Mumkinmi? Tongingiz xayrli bo‘lsin! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni tanishtirsam... Jonetta Qobulovna Xaltayeva! Men, afsuski, sizning asarlaringizni o‘qigan emasman. Biroq eshitganman. Asosan, onaxonlar haqida yozarkansiz. Xullas, to‘rtta bolam bor. Maratjon – Nukusda. Internatda. Yoshi... bir daqiqa, menimcha, o‘n to‘rtda. Shu yil o‘n to‘rtga kiradi. Naq otasining nusxasi. Chirroyli! Qoramag‘izligimi, ko‘z bichimi... Otasi vazir muovini edi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Ma’nodoshi:	Misol
Ko‘zining paxtasi chiqmoq	G‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaymoq	ko‘zi qinidan chiqib keta yozdi	– Tuhmat qilma! – baqirdi rais ko‘zining paxtasi chiqib. (*Q.Norqobil*)
Ko‘zining yog‘ini yemoq	o‘zini kimgadir yaqin ko‘rsatib, uning xayrixohligidan shaxsiy manfaati yo‘lida foydalanmoq		Sizda vijdon degan narsa yo‘q! Ko‘zimning yog‘ini yeb, boshimga ish tushganda qochdingiz. (*S. Ahmad*)

Uyga „Mening hayotdagi maqsadim“ mavzusida matn yaratish topshiriladi va dars yakunlanadi.

TALAFFUZ VA IMLO

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning quyi sinflarda talaffuz va imlo yuzasidan olgan bilimlarini yanada boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar ongi va qalbiga ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy meros bilan faxrlanish tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matnlar tahlili asosida to‘g‘ri talaffuz va savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish.

1.1-mashqda berilgan „Fasohat gulshani“ matni Minhojiddin Mirzo qalamiga mansub.

Yechim: MTRK filmotekasidan „Adiblar xiyoboni“ videoroligini namoyish qilish barobarida „Fasohat gulshani“ matnining audio shakli tinglanadi. Mashqni bajarishda „Qayta hikoya“ metodini qo‘llash tavsiya qilinadi. Matnning lisoniy tahlilini amalga oshirish davomida o‘quvchilarda *tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish* kompetensiyalari shakllantiriladi.

Fasohat – *arab*. gapga chechanlik, notiqlik; nutqning to‘g‘riligi:

1) chiroyli va yoqimli so‘zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi;

2) lisoniy xususiyat, nozik qirralar.

So‘zlar	Ma’nosi
„Unsiya“	*arab*. „Do‘stlik uyi“
istiqomat	*arab*. turg‘unlik, barqarorlik; hayot kechirmoq
oshyon	*f-t.* in, uya; uy qabati
botin	*arab*. ichki tomon, ich; ko‘ngil
ash’or	*arab*. she’rlar
xayrxoh	*ar+f*. (xayrixoh) ezgulik, yaxshilik istovchi
„Bog‘i Eram“	jannat bog‘i; *ko‘chma*: gullab-yashnagan obod joy; gulshan
muanbar	*arab*. anbar surtilgan, xushbo‘y
saodatgoh	*arab*. baxtga to‘la oshyon
„Musallo“	*arab.* joynamoz; katta masjid, namozgoh
shukronalik	*arab+f*. shukur qilish, qanoatli va mamnun holat
qo‘llagay	yoqlamoq, quvvatlamoq, yordam, ko‘mak, madad bermoq; tatbiq etmoq, ishlatmoq

1.2-mashqni bajarish uchun o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, 1.1-mashqda berilgan matndan talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imlo-da aks etmaydigan so‘zlar va yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlarni aniqlab yozadilar.

Talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan so‘zlar	Yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlar
qayd, do‘stlar, ijod, shogird, kamolot, bunyod etgan, muanbar, saodatgoh, bahor, saylgoh, orzumand	deb, atalib, etgan, topgan, taratib, boqib, aytgan, sochguvchi,o‘tdi, yoqib, oqib

1.3-mashq. Testlarning javobi.

1. **D.** Muanbar, kamoloti, shukronalik, Ixlosiya, saylgoh.

2. **C.** „Ul zot Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi“. (Hasan xoja Nisoriy) (*Bobur haqida aytilgan fikr*)

1.4-mashqda berilgan so‘zlardan talaffuzi va imlosi moslarini aniqlab yozish topshirig‘i berilgan.

Yechim: admiral, parta, divan, biyobon, xushxabar, ayrim, yig‘loqi, memuar, idrok, snayper, soddadil.

1.5-mashq asosida „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi tashkil qilinadi.

Yechim:

Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Xitoycha so‘zlar	Rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar
Kitob, maktab, mutolaa, san’at, abadiy, qal’a, taraqqiyot, tamaddun, mahalla	anor, nodon, darvoza, dasturxon, siyoh, barg, oftob, tuxum, mo‘ysafid	lag‘mon, choy, shiypon, manti	1) samolyot, paroxod, stol; 2) palto, tonna – fransuzcha; tank, futbol, smartfon (smart+phone aqlli telefon), logistika – inglizcha; shtab, soldat – nemischa; megapolis – yunoncha

1.6-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi (*o‘qish*).

2. „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi tashkil qilinadi – o‘quvchilar talaffuzi va imlosi mos birliklarni saylab, yozib boradilar (*yozish*).

3. Ustoz shoirning xijolatli ahvolga tushgani sababi izohlanadi (*gapirish*).

Yechim: bir kuni, Mirtemir, uyiga bordim, domla, adabiyot, juda yaxshi, zukko odam, suhbat asnosida, ko‘zga yaqin, …

Izoh: Navoiy ijodi go‘yo ummonga o‘xshaydi: uning tubiga hech kim yetib bora olmagan. Bir baytini o‘qib, mag‘zini chaqqandek bo‘lasiz. Biroz vaqt o‘tib shu baytni takror o‘qisangiz, endi butunlay boshqacha ma’no topasiz. Mirtemir domla buyuk shoir dahosi oldida xijolat bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. O‘zlashma so‘zlar talaffuzi qanday xususiyatlarga ega?

O‘zlashma so‘zlar asos holatida talaffuzi va imlosi jihatidan farq qiladi.

2. O‘zlashma so‘zlar talaffuzining imlosidan farqlanishi qanday tarixiy asoslarga ega?

Bunda xalqning o‘sha chet tilini bilmasligi, ayniqsa, so‘zni o‘z talaffuziga moslab aytishi sababli o‘zlashma so‘zlarning imlosi va aytilishida farq yuzaga kelgan. Masalan: ***shkaf-ishkop, jemfer-jimpir, stakan-istakon*** *kabi.*

3. Talaffuz va imlo munosabati turli nutq uslublarida qanday aks etadi?

Nutq uslublarida so‘zni aslidagidek qo‘llash lozim. Hatto og‘zaki muloqot, so‘zlashuv jarayonida ham to‘g‘ri talaffuzga rioya qilish zarur. So‘zning to‘g‘ri talaffuz qilinishi „O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati“da to‘liq aks etgan.

4. Quyidagi matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning talaffuzi va imlosini izohlang. Sabablarini tushuntiring.

Yechim: muallif personaj xarakterini ochib berish uchun oddiy xalq tilida o‘zlashma so‘zlarning buzib talaffuz qilinishi holatidan mohirlik bilan foydalangan: *Girmon – Germaniya, Maskov – Moskva, Istalin – Stalin, po‘shta – pochta, kamandir – komandir, medol – medal.*

1.1- va 1.2-topshiriqlar uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNLILAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqimizdagi o‘zgaruvchan unlilar haqidagi bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, yomonlik qilmaslik kerakligini matn tahlili orqali singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

2.1-mashq o‘quvchilarda *o‘qish va tinglab tushunish* kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. „Xotira mashqi“ usulidan foydalanib, matndagi ajratilgan so‘zlarning imlosi va talaffuziga diqqat

qilinadi. O‘quvchilarning mashq shartida berilgan savollarga javoblari umumlashtirilib, matnning tarbiyaviy jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Ba’zi, taom, fuqaro, ma’lum, yasovul, yeydigan, qog‘oz, anvoyi, azbaroyi, orqa, javob, qilmish, ko‘rnamak, jazolayman.

2.2-mashqni „Talaffuz mashqi“ usuli orqali bajarish tavsiya etiladi.

Yechim:

Aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlari mavjud so‘zlar	**Aytilganidek yoziladigan unli harflari mavjud so‘zlar**
„Sh**a**shmaqom“, kulg**i,** and**a**za, tr**o**tuar, bah**a**vo, k**a**vush, to‘p**o**lon, m**u**miyo, televideniy**e,** sup**u**rgi, **o**rbita, hur**i**liqo, f**a**oliyat, naq**a**r**o**t, mug‘**a**mbir, k**o**vatok, avt**o**m**o**bil, b**a**hodir, eskalat**o**r, f**o**t**o**grafiya, mumk**i**n, pantomim**e,** t**a**voze, m**u**-olaja, yug**u**rmoq	chavandoz, xattot, otameros, ajab-tovur, o‘g‘rilamoq, sedana, toyg‘anmoq, ibtido, ho‘plam, gi-na-kudurat, kibernetika, aftodahol, dafina, kukkulamoq, qiyqirmoq

2.3-mashq. Testlarning yechimi:

1. B. Muomala.
2. D. Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurma.

2.4-mashq. Boshqotirmada gap qaysi o‘yin turi haqida ketayotganini matndagi ajratilgan birikma (*ikki tirsak orasidagi masofa*)ga tayanib rasmlar orasidan toping va shu so‘zdagi unli tovushlar talaffuziga diqqat qiling.

Yechim: 1. Domino 2. **Shaxmat** 3. Poker (karta) 4. Shashka.

Shaxmat – shohmot.

2.4-mashqda o‘quvchilar talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzib, daftarga yozadilar.

Yechim: o‘tov, alanga, tomosha, prujina, qulduramoq, tutun, mevafurush, **uzangi,** uchqun, munchoq, **parashut**, mineral, oyoq-yalang, ovunmoq, turtinmoq, **jo‘shqin**, kometa, kuldirgich, **mash-g‘ulot, palata**, suyulmoq.

Atrofdagi ko‘m-ko‘k adirlar – **o‘tov**larda botirlar yotar. (*Sh. Rahmon*)

Qo‘ziboy **uzangi**ga oyog‘ini tirab qaddini rostladi-da, qamchi dastasi bilan yo‘lning chap tomonini ko‘rsatdi. (*S. Ahmad*) Ey ulug‘ daryoning bolakaylari, daryodek jo‘shqindir g‘ayratlaringiz. (*Sh. Rahmon*) O‘g‘li yo‘qolgan kuni ertalab musiqa muallimi kelgan, **mashg‘ulot** o‘tkazgan edi. (*S. Zunnunova*) Kasalxona uning yotib yurgan sharoitidan yuz chandon a’lo edi, to‘shaklari ham yangi, oppoq, **palata** issiq, ovqat

vaqtida tayyor... (*Sh. Xolmirzayev*) Havo desanti uchun yetarli miqdorda **parashut** keltirildi.

2.6-mashq. Matnni o‘qing. Undagi talaffuzi va imlosi nomuvofiq so‘zlarni aniqlang. O‘z xulosangizni bir jumlada ifoda qiling.

Yechim: O‘rmon mudhish tezlikda yonardi. Kichkinagina **chumchuq** yo‘lidagi daryodan panjalari bilan suv **olib**, o‘rmon ustiga **uchdi** va tag‘in daryoga **shoshdi**.

O‘rmonning yonishini **ilojsiz kuzatib** turgan hayvonlardan biri baqirdi:

– Hoy, o‘rmonni bir tomchi suv bilan **qutqarasanmi**?

Chumchuq **javob** berdi:

– Mening qo‘limdan keladigani shu… (*R. N. Guntekin)*

Xulosa: dod-faryod ko‘targandan ko‘ra qurbing yetganicha mushkul vaziyatdan chiqishga harakat qil. „Ha“ degan tuyaga madad bo‘libdi, deydilar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Nima uchun aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlar va yozilganidek aytilmaydigan unli harflar „aldoqchi tovushlar“ deb yuritiladi?

Unli tovushlar talaffuzi bilan unli harflar ko‘p hollarda farqlanadi, shuning uchun ular „aldoqchi tovushlar“ deb yuritiladi.

Mumkin, muhim, tuyilmoq kabi so‘zlarda ikkinchi bo‘g‘indagi „i“ unlisining „u“ ga moyil aytilishini izohlang.

Birinchi bo‘g‘indagi unli ta’sirida *mumkun, muhum, tuyulmoq* tarzida talaffuz qilinadi.

3. Berilgan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Matndan imlosi va talaffuzi nomuvofiq so‘zlarni aniqlab yozing.

Yechim: Agar baxt-**saodat** istasang, g‘urur, **manmanlikdan yiroq** bo‘l, hikmatli so‘zlarni sokinlik va itoat **bilan** tingla, takabburlik, adovat va **qanoat**sizlikdan hazar qil. Qayg‘u-alamlar ustingga **hujum** qilsalar, bu hujumlarga o‘z **odob**sizliging **sababchidir**. (*J. Rumiy*)

Boshingga tushadigan ko‘rgiliklarga o‘z fe’ling sababchi bo‘ladi.

2.1- va 2.2-topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi.

NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNDOSHLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqdagi undoshlarning talaffuz va imlosi haqida bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga qanoat va shukur qilish xayrli ne’mat ekanligini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

3.1-mashq. *O‘qib (tinglab) tushunish va gapirish* kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tavsiya qilingan. Matn ajratilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qilib o‘qiladi. Izohlashda „Fonetik tahlil“ usulidan foydalansa ham bo‘ladi.

Namuna: odob – odop (jarangli tovush jarangsiz tovushga aylangan) Odob (*odop*), vaqt (*vaxit*), qiyinchilik (*qiyinchilig*), qanchalik (*qanchalig*), foyda (*poyda*), momiq (*momig‘*), tovuq (*tovig‘*), payt (*payit*), ko‘ngli (*ko‘yni*), qalb (*qalip*), shafqat (*shapqat*), sabr (*sabir*), tirikchilik (*tirigchilig*), keyin (*kegin*), farzand (*parzan*), javob (*jovop*), taqdirladi (*taxtirladi*).

3.2-mashqda matn yuzasidan topshiriqlarni **„**Intervyu“ metodini qo‘llagan holda bajarish tavsiya qilinadi (*gapirish*).

3.3-mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar yozilganidek aytilmaydigan undosh harflari mavjud so‘zlarni aniqlab daftarga yozadilar.

Yechim: ertala**b**, muzlat**k**ich, a**f**v, a**f**g‘on, sha**f**qat, xushnu**d**, ma**z**a, bunyo**d**, a**v**tobus, i**j**timoiy, i**z**quvar, loyi**q**, jo**n**bozlik, meta**ll**, beshi**k**, picho**q**, **f**ursat, marvari**d**, zavo**d**, i**z**tiro**b**, kongre**ss**, ko‘ri**n**moq, kilovat**t**, daroma**d**, poyez**d**, qo‘ng‘iro**q**, suvo**q**, e’tiqo**d**, **s**ochmoq, belbo**g**‘.

3.4-mashq. O‘quvchilar „Sabrliga tole yor“ matni asosida berilgan testni yechadilar.

To‘g‘ri javoblar:

D. Sovun kirni ochar, Sabrsiz – sirni.

C. Yuragiga, shunday, ko‘ngli, borligi, go‘zalligini.

3.5-mashqni bajarish uchun sinf uch guruhga bo‘linib, jadvalni tez va to‘g‘ri to‘ldirish bo‘yicha musobaqalashadilar.

Yechim:

Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlar	**Talaffuzi va imlosi farqli so‘zlar**	**Qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlar**

tuz, qush, matonat, yordamlash, quvvat, baralla, metr, tortin, kamxarj, taqiqla, sukunat, zulm	to‘g‘ra, aylana, darz, javon, kofe, buromad, qasd qil, qayd et	yorug‘lik, yurak, o‘rin, ko‘ngil, o‘sha, ushoq, mavqe, sen, o‘g‘il, bag‘ir, so‘roq, tepalik, olti, shaharsozlik

3.6-mashqda matnni o‘qish va unga berilgan sarlavhalardan mosini tanlash vazifasi berilgan. O‘quvchilar o‘zlari tanlagan sarlavhani izohlaydilar (*yozish va gapirish*).

Yechim: Matosi – go‘zal xulq, ipi – murosa.

Qator kelgan undosh harflar ishtirok etgan so‘zlar: *zabardast, donishmand, xulq, sabrdan.*

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

Quyidagi hikoyat yuzasidan o‘z xulosangizni ikki jumlada bildiring. Matndan imlosi talaffuziga mos kelmagan so‘zlarni ko‘chiring.

Yechim: so‘zlarni aniqlashda mavzudan kelib chiqib, undoshlarga diqqat qilish maqsadga muvofiq.

– Basralik bir **arab**ning javohirchilarga shunday hikoya **aytib** berganini **eshitgandim**: „Bir paytlar sahroda yo‘limni **yo‘qotdim**. Yonimda na yeydigan taom, na ichadigan bir qultum suv bor edi. O‘lishimga ishongan onimda uzoqda bir to‘rvani **ko‘rib** qoldim. Shunday yugurdimki, o‘sha **paytdagi** hayajonimni hech qachon unutolmayman. To‘rvani **ochdim**. Qarasam, uning ichi to‘la oltin ekan! To‘rvada non va suvning yo‘qligidan shunchalik **xafa** bo‘ldimki, bu achchiq **iztirobni** hech qachon unutolmayman“. Hikoyani **eshitib**, boriga shukur qilish ham ne’mat-dir, degan xulosaga keldim. (*Shayx Sa’diy Sheroziy)*

Xulosa. Ochlik va yashash uchun kurashda oltinning hech qimmati yo‘qligi, har bir narsa o‘z o‘rnida qadrli ekanligi aytilmoqda.

3.1- va 3.2-topshiriqlar uyga berilib, dars yakunlanadi**.**

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: nutqimizdagi o‘zgaruvchan unlilar va undoshlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: muammoli vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslik va tadbir topish xislatlarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn va lug‘at ustida ishlash orqali imo-ishoralar, raqamlar, belgi-simvollarni ham o‘qishni o‘rganish.

4.1-mashqda berilgan „Ramzlar tili“ matni bilan tanishiladi (*o‘qish va gapirish*).

4.2-mashqni „Tushunchalar tahlili“ usuli yordamida bajarish tavsiya qilinadi (*gapirish*).

Yechim:

Tushuncha (ramz)	Izohi
savdogar	taqdir; vosita
qafas	nafs
to‘tiqush va to‘tilar to‘dasi	inson ruhi va yo‘l ko‘rsatuvchilar (tasavvuf ahli)
qafasdagi qushning harakati	haqqa yetish uchun nafsni o‘ldirish
„o‘lim“dan so‘ng tirilishning xulosasi	komillik
Hindiston to‘tilarining holati	nafsdan ustun komillarning baxtiyorligi; shavq

4.3-mashq. Matn xulosasi: 1. Donoga ishora, nodonga kaltak.

4.4-mashq. Matndagi ajratilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib, jadvalga joylashtirishda „Audiodiktant“ usulidan foydalanish mumkin (*yozish*).

Yechim:

Talaffuzi va imlosi mos so‘zlar	Talaffuzi va imlosi mos bo‘lmagan so‘zlar
savdogar, tadorik, keltir, mening, hasrat, qoyalik, tijorat, bunday, yetkazdi, savdo-sotiq, xatoyim, chiday olmadi, bog‘dagi, meni, hiyla, asirlik	sa**f**ar, azo**b**, darax**t**zor, to**g**‘, g‘a-ri**b**, to‘xati**b**, **f**alon, na**f**as, do‘s**t**, va**q**t, tashri**f** buyurgan, ta**a**ssurot, xursan**d**, saba**b**, g‘ish**t**, yiqili**b**, yig‘la**b**, o‘li**k**, qut**u**ldim

4.5-mashq. Qavs ichidagi qaysi qo‘shimcha qo‘shilganda so‘zda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lishi izohlanadi (*yozish va gapirish*).

Yechim: savdo-sotiqqa; o‘likka; tadorigi, tadorikka; xatoyim, xatosi; yig‘la, yig‘lar; meni, mening; shunda, shunday; sayroqi, sayrovchi; boqqa (yozuvda "bog'ga" tarzida yoziladi).

4.6-mashq „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“dan foydalanib bajariladi. Bunda „+ texnologiyasi“ni qo‘llash tavsiya qilinadi.

So‘zlar	O‘zlashma/o‘zlashma emasligi				So‘z turkumi			
	o‘z qatlam	rus-cha	tojik-cha	arab-cha	ot	fe’l	son	sifat
savdogar			+		+			
bir	+						+	
tashrif				+	+			
mehmon			+		+			
uy	+				+			
taassurot				+				
hamjins			+					+
xursand			+					+
ko‘rmoq	+					+		
deraza	+				+			
daraxt			+		+			
hiyla				+	+			
aldamoq	+					+		
qutulmoq	+					+		
rioya				+	+			

4.1- va 4.2-topshiriq uyga vazifa qilib berilib, dars yakunlanadi.

URG‘U TALAFFUZI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga urg‘u talaffuzi, urg‘u ta’sirida sodir bo‘ladigan ma’noviy o‘zgarishlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘zni to‘g‘ri tanlab, chiroyli gapirish madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘z va o‘zlashma so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘u ta’sirida ma’nosini farqlay olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Darslikdagi **5.1-mashq**ni bajarish asosida o‘quvchilarning *o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. *O‘qish* (yoki *tinglash*) orqali „Kitob Xalqaro Kenglik Stansiyasi“ matni bilan tanishiladi. Matn ostida berilgan savollarga javob topib, kichik suhbat tashkil qilinadi:

Sinf to‘rt guruhga ajratiladi va mashq sharti bajariladi:

urg‘u 1-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *gradus, Bamberg, ikkinchi*;

urg‘u 2-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *noyabr, Hafizov, Sergeyev, Yaponiya;*

urg‘u 3-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *asteroidlar, ekologiya*;

urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *yangi, xalqaro, geografik, parallelda, sentabrida, zenit-teleskop, rasadxonada, sayyora, Aleksey, Kenglik stansiyasi, Italiyada, obyekt, kosmik, mahalliy, astronomik, pavilyon.*

Xulosa: o‘zlashma so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilsa, urg‘u oxirgi bo‘g‘inga ko‘chadi.

Ilmiy manbalarda o‘zbek adabiy tili me’yorlari tasnifida urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash, ya’ni aksentologik me’yor alohida ta’kidlanadi. Demak, aksentologik me’yor urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq me’yordir. Urg‘u semantik (ma’no farqlovchi), morfologik (grammatik ma’no ifodalovchi), uslubiy vazifa bajaruvchi fonetik hodisa hisoblanadi. O‘zlashma so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishga intilish natijasida o‘zbek tilining urg‘u tizimida ma’lum o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu hol urg‘uning o‘zlashma so‘zda erkin qo‘llanishida, shuningdek, qisman urg‘u orqali so‘z ma’nosini farqlashda ko‘rinmoqda. Urg‘u yordamida yozuvda farqlanmaydigan so‘zlar o‘zaro farqlanadi. Buni quyidagi so‘zlar misolida ham kuzatish mumkin: *atlas – atlas, fizik – fizik, bosma – bosma, hozir – hozir.* Anglashiladiki, urg‘uning o‘zgarishi so‘z ma’nosining o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli har bir so‘zdagi urg‘uni o‘z o‘rnida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Til sohibida o‘z qatlam so‘zlarining talaffuzi muammo tug‘dirmaydi. O‘zlashma so‘zlarning talaffuzini esa so‘zni tinglash, lug‘at asosida mashq qilish bilan o‘zlashtirish mumkin. So‘zlarni urg‘usiga rioya qilib talaffuz qilish madaniy nutq belgisi sanaladi.

5.2-mashq. Berilgan o‘zlashma so‘zlarning urg‘usini to‘g‘ri qo‘yib o‘qiladi va ular ishtirokida gaplar tuziladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Advokatúra, notariál, adresát, lokál, valúta, bróker, ménejer, kardiográmma, logístika, parláment, audít, gipermárket, ekólog, kokós, motoróller, avtotránsport, fléshka, vebinár, platfórma.

Internet tarmoqlarida ***advokatura*** *sohasiga oid yangiliklarni ko‘plab topish mumkin. Ishonchnoma* ***notarial*** *tasdiqlanmasa, vakolatga ega bo‘lmaydi. Korxonada* ***audit*** *tekshiruvini o‘tkazish rejalashtirilgan. Yosh darsturchilar tomonidan masofaviy ta’lim* ***platforma****si yaratildi.*

5.3-mashq. Qaysi so‘zlarda urg‘u belgisi noto‘g‘ri qo‘yilganligi aniqlanadi va to‘g‘rilab yoziladi (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Mexaník (kuch), (mevazor) **bog‘lár**, **geologík** (qidiruv), (faxriy) akadémik, **etník** (qatlam), kollókvium (ma’ruzasi), infeksión (o‘choq), megapólis (hudud), **memoriál** (obida), qándaydir (kishi), **ko‘ylakbóp** (mato).

5.4-mashq. Test yechimi:

1. O‘zbek tilidagi urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydigan so‘zlar qaysi qatorda berilgan:

A. Hamisha, albatta, afsuski, hatto, kimdir.

2. So‘z urg‘usi bilan bog‘liq to‘g‘ri fikrni toping:

A. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi -chi, -mi, -ku, -dir, -gina, -da, -oq (-yoq) yuklamalari urg‘u olmaydi.

5.5-mashq. Juftliklardagi urg‘u ta’sirida sodir bo‘ladigan ma’no o‘zgarishini aniqlang.

Yechim: sinf ikki guruhga bo‘linadi. 1-guruh ma’nosi o‘zgarmagan, 2-guruh ma’nosi urg‘u ta’sirida o‘zgargan so‘zlarni yozadi. Gap juftliklari izohlanadi (*o‘qish, yozish, gapirish*).

1. **O‘**zlarimi (*kesatish ma’nosi olmoshga yuklangan*)? Qaysi shamol uchirdi? – Bugungi ishni qizlar o‘zlar**i** (*olmosh, III shaxs ko‘plik shakli*) bitirib qo‘yishar ekan.

2. Uzoqdagi nishonni k**o‘**zlar (*fe’l*) ekanman, o‘qim bexato ketsa, snayper safdoshlarimni yer tishlatishini yaxshi bilar edim. – Jimgina boqib turgan bu ko‘zl**a**r (*ot, ko‘plik shakli*) juda tanish, qiziq, qayerda ko‘rganman?

3. Ma, yuvib ye, y**a**ngi (*ravish*) uzilgan. O‘zimizning tomorqadan! – Kasallikka qarshi yang**i** (*sifat*) usulni qo‘llash, yangi preparatlarni sinovdan o‘tkazish talab etilmoqda.

4. Heech shu shah**a**rcha (ravish) odatlaring qolmadi-qolmadi-da, Orziqulov. – Qurilajak bu shaharch**a** (*ot, kichraytirish shakli*) harbiylarning oilalariga munosib sovg‘a bo‘ladi.

5. Osm**a** (*sifat*) ko‘prikdan o‘tib, buloq bo‘yiga tushib bordim. – Behuda bilan yelkangga gunoh xaltasini **o**sma (*fe’l*), savobingni ko‘paytir.

5.6-mashqdagi gaplar o‘qiladi. Urg‘u ta’sirida talaffuzda sodir bo‘layotgan tovush o‘zgarishlari izohlanadi (*o‘qish, gapirish*).

Izoh: ba’zan bir tovush talaffuzda ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko‘rsatiladi. Berilgan mashqda ***xo‘o‘p, aancha, uzoooq, o‘o‘o‘tiribman, uchchiga, jaa, yashshamagur, qo‘ydiiing, yumm-yumm, xo‘o‘sh*** so‘zlariga uslubiy vazifa yuklatilgan.

5.1- va 5.2-topshiriqlar uyga beriladi. Bu topshiriqlarni bajarishga o‘quvchilardan ijodkorlik bilan yondashish talab qilinadi.

QO‘SHIB YOZILADIMI, AJRATIB?

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga so‘zlarni qo‘shib yoki ajratib yozishga doir imloviy savodxonlik bilimini berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga mumtoz musiqani qadrlash, kuyni tinglab his qilish tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: qo‘shma va juft so‘zlar, murakkab tarkibli birikmalarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur mavzuni o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida“gi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“dan foydalanish tavsiya qilinadi.

6.1-mashqni bajarish tartibi:

1) matnni „Cho‘li Iroq“ kuyi hamrohligida eshittirish maqsadga muvofiq bo‘ladi (*tinglab tushunish*);

2) „Menga so‘z bering“ usulida har bir o‘quvchi matndan va kuydan ta’sirlangan holatini bir jumla bilan bildiradilar (*gapirish*);

3) matn ostida berilgan savollarga javob berish asnosida musiqa fani bilan integratsiya yuzaga keltiriladi (*o‘qish va gapirish*);

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan „Navo“ kuyi bilan bog‘liq parcha yodga olinadi va ikkala matn misolida kuyning inson ruhiyatiga ta’siri haqida mulohaza yuritiladi (*tinglab tushunish va gapirish*);

4) matn uchun mos sarlavha topib yoziladi (*yozish*).

Namunalar:

Kuy og‘ushida

Sehrli kuy

„Cho‘li Iroq“ nolasi

6.2-mashq yuqoridagi matn asosida bajariladi.

Yechim: sinf uch guruhga bo‘linadi va 1-guruh qo‘shma so‘zlarni, 2-guruh juft so‘zlarni, 3-guruh takroriy (*bu kabi so‘zlar matnda ancha*) so‘zlarni terib yozadi.

Qo‘shma so‘zlar: *namozshom, qo‘shtabaqa, poyabzal, toshbag‘ir, oqko‘ngil, bag‘rikeng, g‘arq bo‘ldi, kinofilm, hikoya qilardi, ishora qildi;*

juft so‘zlar: *sirli-sehrli, muloyim-u oqko‘ngil, tubsiz-nihoyasiz, g‘amli-alamli;*

takroriy so‘zlar: *ich-ichiga, qancha-qancha, ne-ne, ming-ming, uzoq-uzoq, yurak-yuraklarini, yig‘lab-yig‘lab, faryod solib-faryod solib, olis-olislardan.*

6.3-mashq asosida „Bu so‘z bizniki“ bellashuvi o‘tkaziladi.

Yechim:

1) to‘g‘ri yozilgan so‘zlar: *sarf qil, sotib ol, bodomqovoq, devqomat, sheryurak, Urto‘qmoq, O‘rta Osiyo, Oqtepa, erktalab, bilar ekan, xushfe’l, pirpirak, birpas, O‘zMU, hayhaylamoq, AQSH, qo‘ziqorin, Qo‘rg‘ontepa, Yangiturmush, tomorqa, Bo‘zsuv, yozaveramiz, jiqqamusht, birato‘la, lang ochiq, o‘rinbosar, ishyoqmas, beshotar, och sariq, ertapishar, Ekobozor, qushqo‘nmas, jigarrang, Shirmonbuloq, suvosti.*

2) ikki guruh jadvalni to‘ldiradi, bunda so‘zlarni to‘g‘rilab yozish talab qilinadi.

1-guruh: hamma vaqt, to‘q qizil, keta ber, sakkiz yuz, har xil, Yuqori Chirchiq, liq to‘la, Uzoq Sharq, o‘n bir.

2-guruh: Kavkazoldi, Mirzacho‘l, Boltiqbo‘yi, Ochildasturxon, yarimtayyor, Jiydakapa.

6.4-mashqni kichik guruhlarda bajarish ham ijodiy raqobatni yuzaga keltiradi, ham vaqtdan unumli foydalaniladi. Rasmlar to‘rtta guruhga bo‘lib beriladi (*yozish, o‘qish*). Qo‘shma so‘zlar hosil qilib, gaplar tuziladi. *Namuna:*

bolari, asalari. *Olcha guli tegrasida bolarilar g‘ujg‘on o‘ynaydi*;

qo‘ziqorin. *Bolalar momaqaldiroqdan so‘ng bodrab chiqqan qo‘ziqorinlarni terish uchun o‘rmonga yugurishdi;*

moychechak. *Tomoq og‘riganda moychechak damlamasi bilan g‘arg‘ara qilish tavsiya etiladi;*

atirgul. *Atirgullar orasiga ekilgan rayhon shabadada yengil silkinadi.*

6.5-mashq „Kim chaqqon?“ musobaqasi bilan bajariladi.

Hosil qilingan qo‘shma so‘zlar: *fotokamera, televizion ko‘rsatuv – teleko‘rsatuv, diskyuritkich, vebsahifa, kinoteatr, elektrchoynak, radiostansiya.*

6.6-mashqda rus tilidan aynan olingan (*unter-ofitser, metrsekund, shtab-kvartira, fors-major*) yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan o‘zlashgan (*kilovatt-soat*) so‘zlar chiziqcha bilan yozilishi tushuntiriladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar hamkorlikda bajariladi.

Qo‘shma va juft so‘z qismlarining ma’nosi alohida-alohida aniqlanishi mumkinmi? Ularning bir tarkibli so‘zga o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

Ikki mustaqil so‘zning birikib yasalishidan qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar hosil bo‘ladi. Bir tarkibli so‘zlar esa sodda so‘z sanaladi. Qo‘shma so‘z qismlari o‘z ma’nosini yo‘qotadi va yangi tushuncha hosil bo‘ladi: *kirsovun* (yuvish vositasi), *dalachoy* (o‘simlik nomi), *olovqalb* (xususiyat belgisi). Juft so‘z yangi lug‘aviy ma’no anglatsa, yasama so‘z hisoblanadi: *bordi-keldi (aloqa), issiq-sovuq (ahvol), quyuq-suyuq (ovqat).* Masalan, ***chol-kampir*** so‘zining ma’nosi *chol va kampir*, ***aka-uka*** so‘zining ma’nosi *aka va uka*, ***asta-sekin*** so‘zining ma’nosi *asta va sekin* so‘zining alohida-alohida atash ma’nosidan farqlanmaydi. Demak, bular yasama so‘z emas.

O‘zbek tilida *multi, nano, mikro, bio, avto, mini, eko, anti* kabi vositalar yordamida hosil qilingan birliklarni qo‘shma so‘z deb olsa bo‘ladimi? Bu so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlarga qo‘shilib, qo‘shma so‘z hosil qilgan holatlariga misol keltiring. Masalan: *avtoulov, multiilova.*

Quyidagi so‘zlar o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi sanaladi:

*- **multi** (lot. multum – ancha, ko‘p): multiilova, multimillioner, multitasvir;*

*- **mikro** (yunon. mikros – kichik, juda mayda): mikroto‘lqin, mikroqarz, mikroiqtisodiyot, mikroavtobus;*

*- **mini** (lot. minimus – eng kichik) **minimal** so‘zining qisqa shakli: minitest, minimarket, miniloyiha, minidastur;*

*- **nano** (lot. milliardning bir qismi): nanotuzilma, nanoo‘lchov, nanouzatma, nanotexnologiya;*

*- **avto** (yunon. autos – o‘zi, o‘zim): avtoolam, avtoturargoh, avtobo‘yoq;*

*- **bio** (yunon. bios – hayot): bioiqlim, bioqurilma, biomaydon, bioeritma;*

*- **eko** (yunon. oikos – vatan, uy) **ekologiya** so‘zining qisqa shakli: ekotizim, ekosanoat, ekobozor, ekoxonadon, ekoturizm.*

Mazkur qisqartmalar orasidagi ***anti*** *(yunon. anti – qarshi, zid)* grammatik vositasi old qo‘shimcha (prefiks) sifatida qo‘shma so‘z yasamaydi: *antitanachalar, antiquvvat, antihujum, antitezkorlik*.

Matndagi qo‘shib va ajratib yozilgan so‘zlar imlosi izohlanadi.

Yechim: *AQSH* – tarkibli nom (*Amerika Qo‘shma Shtatlari*)ning bosh harflaridan iborat qisqartma qo‘shib yoziladi.

DIQQAT QILING!

Ba’zan qisqartma so‘zlar orasiga nuqta qo‘yib yozish holatlari ham uchrab qoladi, bu imlo qoidalariga mutlaqo ziddir. Shuni yodda saqlash lozimki, qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: SamDU, TDPU. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma esa ajratib yoziladi: O‘zXDP MK (*O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashi)*, O‘zR VM (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamas*i).

AQSH Kongressi kutubxonasi – davlatning muhim madaniy tashkiloti nomini anglatgan tarkibli nom qismlari ajratib yoziladi;

150 (bir yuz ellik) million, 1800 (bir ming sakkiz yuz), 1 million 700 ming (bir million yetti yuz ming) – murakkab son qismlari ajratib yoziladi;

AQSH Prezidenti – tarkibli oliy lavozim nomi qismlari ajratib yoziladi;

kitobsevarlar (ot+fe’l) – qo‘shma so‘z *-ar* qo‘shimchasi bilan tugagani sababli uning qismlari qo‘shib yoziladi;

tashkil etilgan, tashrif buyuradi – qo‘shma fe’l qismlari ajratib yoziladi.

6.1- va 6.2-topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi.

Yechim: Bog‘dagi yumush uchun hamma narsani: tokqaychi, qo‘larra, tesha, belkurak, iskana, zambilgacha taxt qilib qo‘ydim. Ishga kirishishdan oldin biroz atrofni tomosha qildim. **Bo‘tako‘z**, qo‘ng‘iroqgul, **gulsafsarlar** isi atrofni tutgan. Ariq bo‘yidagi **tog‘olcha** va **ko‘ksulton**ga rang kirib qolibdi. Havoda zarg‘aldoq, **havorang**, och sariq, tim qora, hol-hol kapalaklar o‘ynaydi. Oyoq ostidagi maysalar ochko‘zlik bilan quyoshga intiladi. Qayoqdandir qizilishtonning „to‘q-to‘q“ ovozi kela boshladi. **Orombaxsh** havodan chuqur nafas oldim-da, yeng shimarib ishga tushib ketdim.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda matnni lisoniy tahlil qilish va lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga so‘zdan ehtiyotkorona va farosat bilan foydalanish tarbiyasini berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda turli vaziyatlarda mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutq odobining zarur sharti yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeyidan qat’i nazar, suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiy munosabat va hurmat-ehtirom hisoblanadi. Mana shu omillar bo‘lgan joyda so‘zlovchining o‘z shaxsini ustun qo‘yishiga, fikrini ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishiga, suhbatdoshini mensimasligiga o‘rin qolmaydi. Bunday paytlarda, odatda, suhbat ijobiy yakunlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishi: qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha ish qog‘ozlari rasmiy uslubda shakllanadi. Bu uslubning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari, binobarin, ushbu ko‘rinishlarning o‘z me’yorlari mavjud. O‘tilishi lozim bo‘lgan mavzu rasmiy uslubga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

7.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Tabrik mavzusidagi matnlar bilan tanishiladi *(o‘qish, tinglab tushunish*).

2. Faol qo‘llangan til birliklari va ijodkorning badiiy topilmalari aniqlanadi (*gapirish*).

Matnlar	Til birliklari:	Badiiy topilmalar:
1-matn	el-yurt oldidagi buyuk xizmatlari; muborak sakson yoshga qadam qo‘ydi; qalamining o‘tkirligi; sharafli nomga munosib ijodkor; uzoq umr tilaymiz	o‘zbek adabiyotining chinorlaridan, oqsoqollaridan biri; betakror qahramonlar galereyasi
2-matn	uzoq umr tilayman; ellik yoshing qutlug‘ bo‘lsin, oltmishga tomon yo‘ling bexatar bo‘lsin	bitta tokchani to‘ldiradigan kitob; boz ustiga yaxshi chol bo‘ldi; Jambil umridek uzoq umr, Oybekcha donolik, G‘afur G‘ulomga xos quvnoqlik, Qahhorcha zukkolik; o‘zbeklarning qozog‘i, qozoqlarning o‘zbegi.

7.2-mashqni bajarish uchun mavzular o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Tabriknomalar o‘qitiladi va ichidan eng original mazmundagisi aniqlanadi (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Hayot faqat quvonch-shodliklardan iborat emasligi, inson umri davomida ayriliqlarga duch kelishi mumkinligi, eng muhimi, boshiga yaqinlaridan ajralish azobi tushganlarga ta’ziya bildirish, tasalli berish va ko‘nglini ko‘tarish odamgarchilik belgisi ekanligi **7.3-mashq**ni bajarish asosida alohida ta’kidlanadi. Bunday vaziyatlarda kerakli so‘zni topa olish va qo‘llay bilish ham yuksak nutqiy madaniyat sanaladi.

Hamdardlik mavzusidagi matnlarda faol qo‘llanadigan birliklar aniqlanadi (*o‘qish, yozish, gapirish*).

Birinchi matn:	**Ikkinchi matn:**
og‘ir musibat; bevaqt o‘lim; chuqur hamdardlik bildiraman; qalbimni larzaga soldi; yorqin xotira; qalbimizda abadiy yashaydi; sabr-toqat va bardosh tilayman	qayg‘uli kun, olamdan o‘tdilar; katta yo‘qotish; hamdardligimni bildiraman; oxiratlari obod bo‘lsin

Telegram messenjeri xabarlari orasida tilaknomalarning rang-barangligi o‘quvchilarda tilak bildirish, inson kayfiyatini ko‘tarish, ruhiyatiga taskin berish ko‘nikmalarini shakllantirishda salmoqli o‘rin tutayotgani sir emas. Bunday xabarlar o‘quvchilarda axborotlar bilan tanishish, ularni saralash, tanlash va o‘rinli foydalanishni shakllantirishi bilan yana ham ahamiyatli. **7.4-mashq**dagi ijtimoiy tarmoqlardan olingan tilaknomalar eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Bunday xabarlarning yoqimli ta’siri yuzasidan o‘quvchilar fikrlarini bildiradilar (*gapirish*). O‘zlarining ham tajribalaridan namunalar aytib berishlari suhbatni yanada qiziqarli qiladi.

Xalqaro doiradagi xatlar, xabar va yo‘llanmalar rasmiy uslubga xos janrlar hisoblanadi. Diplomatik doira darajasidagi yozishmalarni bitishda so‘z tanlashga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan qaraladi. **7.5-mashq**da favqulodda vaziyat tufayli hamdardlik mavzusidagi yo‘llanma yuzasidan xabar matni berilgan. O‘quvchilar xabar bilan tanishadilar (*o‘qish*), xalqaro munosabatlarni iliqlashtirishda tabrik va hamdardlik mavzusidagi yo‘llanmalarning alohida ahamiyatga ega ekanligiga diqqat qilinadi. O‘quvchilar qanday munosabatlar bilan xabar yo‘llash mumkinligi haqida o‘z bilganlari bilan o‘rtoqlashadilar (*gapirish*).

7.6-mashq o‘quvchilarni kutilmagan murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi. Mashqni bajarish orqali ta’ziya ifodalari tilimiz leksik qatlamida mahkam o‘rnashgani va bu birliklarni farosat bilan o‘rinli qo‘llashning muhimligi ta’kidlanadi.

Ta’ziya ifodalariga misollar:

umumiy ifodalar: sabr bersin; bandasining aytgani emas, Yaratganning buyurgani bo‘larkan; Alloh rahmatiga olsin; Allohning irodasi; oxirati obod bo‘lsin; jannatlarda javlon ursin; savoblari oldilariga dasturxon, boshlariga soyabon bo‘lsin; nomayi a’mollarini o‘ngidan bersin; yotgan joyi nurga to‘lsin...

yoshga nisbatan: umrini farzandlariga qo‘shib bersin; ulug‘ yoshda ketibdilar – to‘ylari ekan; hurlarga qo‘shilib yursin; yerga kerak ekan – olibdi; dunyoning bir qavati shularniki ekan...

jinsga nisbatan: shoyistayi jannat qilsin...

Uyda mustaqil bajarish uchun berilgan **7.1- va 7.2- topshiriqlar** uyda mustaqil bajarish uchun berilgan bo‘lib, ijodkorlik bilan yondashiladi.

NUTQDA O‘RINLI VA NOO‘RIN SO‘ZLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga til birliklarini o‘rinli qo‘llash bilan bog‘liq nutqiy madaniyat haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: tilga e’tiborli bo‘lish, muloqot jarayonida so‘z odobiga rioya qilish qoidalarini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: so‘z ma’nosini anglash va o‘rinli qo‘llash, matnni tahrir qila olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mavzu turli vaziyatlarda so‘z tanlash va so‘zlash odobi bilan bog‘liq. O‘quvchilarga „Aqliy hujum“ uyushtiriladi: „Shirinso‘zlilik deganda nimani tushunasiz? Dilozorlik deganda-chi?“

Xalqimiz orasida „Topib so‘zlagan ishini bitiradi, qopib so‘zlagan eshikdan quviladi“, „So‘zning o‘ttiz ikki xil narxi bor“, – degan naqllar yuradi. O‘rinli so‘zlash uchun, ayniqsa, ma’nodosh so‘zlarning uslubiy bo‘yoqdorligini, paronim so‘zlarning ma’nolarini puxta bilish talab qilinadi. **8.1-mashq**da berilgan matn bilan tanishiladi. Noo‘rin qo‘llangan so‘zlar o‘rniga muqobilini qo‘yib, qayta o‘qiladi (*o‘qib tushunish*).

Yechim:

RUHIY MUAMMOLAR DAVOSI

Kitoblarning ruhiyatni **davolashda** ishlatilishi haqida **eshitganmisiz**? Psixologlar o‘z mijozlariga kitoblar **tavsiya**

odam o‘z muammosidan chiqish **yo‘l**ini topa olishi mumkin. Masalan, psixolog sizning muammongiz bilan tanishgach, aynan shu yoki shunga o‘xshash muammoga **duch** kelgan odam haqidagi kitob (biografik yoki avtobiografik bo‘lishi ham mumkin)ni tavsiya qiladi. Kitobni o‘qib, qahramon bilan ma’lum bir yo‘llarni bosib o‘tar ekansiz, sizga insaytlar (avval ma’lum bo‘lmagan yechimni **to‘satdan** anglash) keladi.

Psixolog sizga istalgan janrdagi, **mazmun**dagi kitoblarni tavsiya qilishi mumkin. Detektiv va sarguzasht kitoblar real vaziyatdan chalg‘ishga yordam bersa, ilmiy-fantastik adabiyot esa **faol**lik va tasavvurni **kuchatiradi. Tarixiy** asarlar **hayot**dagi maqsadni aniqlashtirishga yordam beradi. Diniy-axloqiy kitoblar kishida sabr-qanoatni tarbiyalaydi. Yumor va satira janridagi asarlar ijobiy kayfiyat ulashib, psixologik himoyaga o‘rgatadi. Aforizmlar **to‘plami** fikrlarni tartiblaydi va tiniqlashtiradi. San’at haqidagi kitoblar esa **hayrat** hissini uyg‘otadi.

Kitob nafaqat bilim va dunyoqarashni o‘stirishda, balki ruhiyatimizda muvozanat o‘rnatishda ham foydali ekanini anglagandirsiz?

8.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlar tanlab qo‘yiladi va mashq davom ettiriladi. Berilgan gaplarda umumiy mazmun – kitob haqida qiziqarli ma’lumotlar aks etganligiga diqqat qilinadi.

Yechim:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning „Al-jabr va al-muqobala“ kitobi atigi 80 betdan iborat, ammo bu kitobning dovrug‘i **asr**lar osha butun jahonga **yoyilgan**. 2. Londondagi birinchi **xalq** kutubxonasining asoschisi S. Fenkorning talabi bilan kitob varaqlarini buklagan kishilarga nisbatan jazo chorasi qo‘llangan: aybdorlar jazolangan yoki 7 yil qamoqqa **hukm** qilingan. 3. Kitobdan o‘zingizga yoqqan voqea **xayoli** bilan oz muddat bo‘lsa-da, yashab ko‘rganmisiz? (*A. Muxtor*) 4. Bir **marta** o‘qiladigan kitobning hozirgi kuni bor, takror-takror o‘qiladigan asarning **yorug‘** kelajagi bor. *(A. Dyuma)* 5. Abu Rayhon Beruniy yozgan 150 ta kitobning 70 tasi **astronomiya**ga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi ob-havo masalalariga, 3 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi **qadimshunoslik** va etnografiyaga, to‘rttasi falsafaga va 18 tasi adabiyotga **bag‘ishlangan**. (*U. Karimov*) 6. Rimning mashhur shoiri Franchesko Petrarka (1304–1374)ning izzat-ikromini shu darajada joyiga qo‘yishganki, u o‘z sayohati davomida **asl** muxlislaridan biri bo‘lgan zargarning uyida bir kecha **tunagach**, xonadon sohibi shu xonaning devoriga oltin suvini yuritib chiqqan ekan. 7. Kopernikning 40 yil davomida yozgan „Sayyoralarning quyosh

tevaragida aylanishi“ nomli kitobida keltirilgan **dalil**lar bugungi nazariyotchilar uchun haqiqiy maktab bo‘ldi. 8. Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki kutubxona eramizning uchinchi asrida azim Xorazmda **vujudga kelgan**.

NUTQDAGI TAQIQLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga nutqdagi taqiqlar haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘z odobi va muloqotda muloyimlik xislatini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqiy fikr yuritish va ravon so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutqda ayrim tushunchalar odob-axloq, jamiyat madaniyati va etikasi me’yorlariga ko‘ra ochiq aytilmaydi, balki o‘rnida „yumshoq“, „qog‘ozga o‘ralgan“ ifodalar qo‘llanadi. Bunday „taqiq“lar *tabu* deb nomlanadi.

Tabu (tabu, tabo, taboo) so‘zi Polineziyaning tonga tilidan olingan bo‘lib, *man etmoq, taqiqlamoq* tushunchasini anglatadi. Tabuning etnogenezasini, ya’ni qayerda, qachon paydo bo‘lganligi, qaysi urug‘, qabila yoki xalqning udumi ekanligini aytib berish mushkul. Zotan, u ijtimoiy, tarixiy etnografik hodisa bo‘lib, til va tafakkur kabi qadimiydir. Uning ildizlari ibtidoiy ongning, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo‘lishi, borliqning ilohiylashtirilishi (fetishizm), ruh tushunchasining paydo bo‘lishi (animizm), ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya – tanosux), hayvonlarga sig‘inish (animalizm) yoki, umuman, totemik, mifologik tasavvurlarga borib taqaladi.

9.1-mashq. Matn bilan tanishiladi. Ajratib ko‘rsatilgan ifodalar izohlanib, ular o‘rniga hozirgi kunda so‘zlashuvda qaysi so‘zlar ishlatilishi yuzasidan fikr-mulohaza yuritiladi (*o‘qish va gapirish*).

Yechim:

...Qutidor yana tushunolmay taajjub bilan mehmonlarga qarab oldi.

– Tushunolmadim..

– Ya’ni Otabek bu kungacha salomat, – dedi Ziyo aka yana. – Ammo mundan keyingi **sog‘lig‘i sizning qo‘lingizda... (ixtiyoringizda)**

– Menim qo‘limda?

– Sizning ixtiyoringizda (Otabekning sog‘lig‘i qizingiz Kumush bilan bog‘liq).

– Otabek kabi bir yigitning sog‘lig‘i har bir aqlli kishi uchun maqsad bo‘lsa ham, – dedi taajjub bilan Qutidor, – lekin so‘zingizning shu-

nisi qiziqdirkim, **bir yigitning sog‘lig‘i ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo‘lsin (Otabekning taqdiri nega menga bog‘liq).**

Ziyo aka boyag‘i vaziyatini buzmadi:

–Ajablanmangiz (hayron bo‘lmang), o‘rtoq, – dedi, – bekning mundan keyingi sog‘lig‘i sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas – to‘g‘ri gap. Qutidor to‘sindan muddaoning kim va nima to‘g‘risida bo‘lg‘anlig‘ini payqab qoldi va o‘zida bir turlik **o‘ng‘aysizlik sezdi… (noqulaylikni his etdi)** Ziyo shohichi o‘z tomonidan ham yana bir muncha gaplarni qo‘shib-chatib, so‘zini tugatdi. Qutidor yaxshig‘ina o‘ng‘aysizlangan edi. Qutidorgina emas, sovchilar ham o‘ng‘aysizlangan edilar. **Masalaning noziklig‘iga (nikoh masalasining jiddiyligiga)** uchavlari ham tushunarlar va shuning uchun ittifoq qilgandek **chuqur bir sukutka ketgan edilar…(uzoq vaqt hech kim gapirmadi).** Garchi muddao kun kabi oshkora bo‘lgan bo‘lsa ham, nima uchundir qutidor yana o‘zini tag‘ofilga solib so‘radi:

– U kimning qizi emish?

Ziyo shohichi qutidor tarafidan o‘ziga beriladirgan shu savolni kutib turg‘an edi.

– Sizning karimangiz (sizning qizingiz), – dedi.

Qutidor o‘zining joysiz savolidan o‘kinib yerga qaradi. O‘rtada tag‘in so‘zsizlik, o‘ng‘aysizlik boshlandi. Bir necha fursat shu yo‘sun jimgina o‘lturishkandan keyin yana Ziyo shohichining o‘zi gapirishka to‘g‘ri keldi:

– Biz o‘zimizning bu kelishimizda sizning uchun **dunyoga orzug‘uliq bir o‘g‘ul hadiya etkanimizdek (sizga bir kuyov topdik),** inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun **mujassamai iffat (hayo, ibo mujassam) bo‘lg‘an bir rafiqa tuhfa qilarmiz (hayoli, iboli qizga uylantiramiz)**. (*Abdulla Qodiriy*)

9.2-mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagilardan mosini tanlab qo‘ying va sabablarini izohlang.

Yechim: 1. Ukam **sariq** bo‘lib qoldi, shuning uchun na’matak damlab ichiryapmiz. 2. Xayri xola **chechak** bo‘lib, tashqariga chiqolmay qolibdi. 3. Nihoyat, afting qurg‘ur **asfalasofilinga ravona bo‘libdi.** 4. Devor eski, ehtiyot bo‘ling: orasida **oti yo‘q** bo‘lmasin yana. 5. Qarasam, chuqur to‘la **arg‘amchi**! Vashillab yotibdi!

Izoh: kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba’zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Jumladan, jin, arvoh va shunga o‘xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo‘lgan. Bunday xalqlar jin va arvohlarga yaqin bo‘lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o‘ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shu-

ningdek, hozir ham qabila bo‘lib yashayotgan elatlarda qabila boshliqlari o‘lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvohlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go‘yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar yetkazishi mumkin emish. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o‘z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan. Oqibatda, man etilgan so‘zlar o‘rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so‘zni ishlatish zaruriyati tug‘ilgan. Masalan: *qizamiq* so‘zi o‘rniga *gul* so‘zi, *chayon* so‘zi o‘rniga *eshak, oti yo‘q* so‘zlarining ishlatilishi bunga misol bo‘la oladi.

9.3-mashq. Nutqdagi „taqiq“lar ishtirok etgan maqollar bilan tanishiladi. Ular ishtirokida matn yaratiladi (*o‘qish, gapirish, yozish*). Bu maqollar, odatda, „kosa tagida nimkosa“ qabilida qo‘llanadi.

Namunaviy matnlar:

Ota-onalarimiz „Bolam yomonlarga qo‘shilib qolmasin“, deb hali oq-qorani endi taniy boshlagan farzandlari uchun qayg‘uradilar. Albatta, ularning xavotirlari o‘rinli, chunki muhit shaxsga bolaligida katta ta’sir o‘tkazishi mumkin. Lev Tolstoyning „Baldan so‘ng“ hikoyasida „Muhit odamni xarob qiladi“ degan jumla bor. Bunda yomon muhit nazarda tutilgan. Agar noqobil farzand voyaga yetsa, demak, ularda yomon muhitga moyillik bolalikdan qolgan bo‘ladi. **„Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topadi“**, deyishadi. Jamoalarda fe’l-atvori, qiziqishi yaqin kishilar o‘z-o‘zidan bir davra bo‘lib olishadi, o‘zlariga muhit yaratishadi. Bu hayot qonuni bo‘lsa kerak.

Olmaning tagiga olma tushadi. O‘g‘il-qizning fe’l-atvori, xatti-harakati, gap-so‘zi – xoh ijobiy jihatdan bo‘lsin, xoh salbiy jihatdan bo‘lsin – ota-onasinikidan keskin farq qilmaydi, o‘xshash yo yaqin bo‘ladi.

Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. Mazkur eng qadimiy maqollardan biri milodiy V asrda lotin tilshunosi A. Makrobiyning „Grammatika“ kitobida keltirilgan. Maqolning to‘g‘ri ma’nosi shuki, qarg‘a-quzg‘unlar ochiq yerda qolgan odam yoki hayvon murdasining avval ko‘zini, keyin go‘shtini cho‘qib yerkan. Ammo tirik qarg‘a va quzg‘un hech qachon o‘lik qarg‘a va quzg‘unning ko‘zini cho‘qimas ekan. Majoziy ma’nosi: zolim va qonxo‘rlar boshqalarga har qancha jabr-

sitam qilsalar-da, bir-birlariga yomonlik sog‘inmaydilar, bir-birlarining yonini olib, qo‘llab-quvvatlaydilar.

Manba: „Hikmatnoma“ (O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati)

9.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. **D**. Hurmat asosidagi.

Izoh: er-xotin nutqidagi hurmat asosidagi bunday ifodalar yosh avlodda nikoh va oila bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga oilada er va xotin munosabatlarini mustahkamlaydi, ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi. Bu esa farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, sharqona an’analar va o‘zbekona milliy ruhning davomiyligini ta’minlaydi.

2. **B**. Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, uchirib yubormasang bo‘ldi.

Izoh: „yumshoq“ qilib aytilgan fikr aslida „singlingga kuyov topildi, uni qo‘ldan chiqarib yuborma“ ma’nosini bildiradi.

9.5-mashq. Ajratilgan so‘zlarning salbiy yoki ijobiy mazmundagi „taqiq“ asosida qo‘llanganiga aniqlik kiritib, bu so‘zlarning umumiy belgisi topiladi va qator davom ettiriladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Salbiy mazmun	Ijobiy mazmun
to‘ng‘iz qo‘pibdi	dunyodan chiqib ketadir
yer tishladi	peshanamizga sig‘madi
asfalasofilinga ketdi	ko‘zini yumdi
o‘ldi	shahid bo‘ldi
yer yutibdi	omonatini topshirdi

Izoh: mazkur ifodalar „o‘lmoq“ so‘zining salbiy va ijobiy bo‘yoqqa ega ko‘rinishlari hisoblanadi.

9.6-mashq. Matn o‘g‘rilar nutqiga oid. Yashirin so‘zlar o‘rniga madaniy nutq so‘zlarini qo‘yib o‘qiladi.

Izoh: o‘g‘rilar o‘z olamiga begonalarni aralashtirishni, sirlaridan boshqalar xabardor bo‘lishini istashmaydi. Shu maqsadda ma’noni yashiradigan turli so‘zlardan foydalanadilar. Bular umumxalq tilidan olingan bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlardir. O‘g‘rilar

nutqida qo‘llanuvchi so‘zlarga: „Arra qilmoq“ (o‘g‘rilangan narsani bo‘lib olmoq), „Nota topshirmoq“ (kelishib olmoq,o‘g‘rilik sodir etiladigan joyning rejasini topshirmoq), „ayiq“ (shayka boshlig‘i), „tulki“ (qo‘lga tushmas o‘g‘ri), „soqqa“ (pul) va boshqalar misol bo‘lishi mumkin. Ochiq ma’noli so‘z va iboralar qo‘llanganda esa nutqning ta’sir kuchi va o‘ziga xos uslubi yo‘qoladi, bu bilan o‘g‘rilarning xarakterli qirralari ham ochilmay qoladi.

Mustahkamlovchi savol va topshiriqlar asosida mavzuga xulosa yasaladi.

1. „Taqiq“ so‘zlar til odobi uchun qanday ahamiyatga ega?

Kishilarning o‘zaro so‘zlashuvda ayrim narsalarning nomini aytishdan, ayrim so‘zlarni qo‘llashdan va talaffuz qilishdan qochishi hodisasi uchraydi. Shuning uchun ham kishilar o‘z nutqlarini madaniy, yoqimli qilishga, qo‘pol, odobsiz, aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qiladi.

2. „Taqiq“lardagi „parda“lab gapirish va qo‘pol ifodalash xususiyati hayotdagi qanday vaziyatlarda uchraydi?

So‘zlashuv nutqida ko‘proq quyidagi vaziyatlarda uchraydi:

a) er-xotin nutqida;

b) oila qurish va homiladorlik bilan bog‘liq hollarda;

c) o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda;

d) kishilarning jismoniy kamchiliklarini ifodalovchi hollarda;

e) shifokorlar tilida qo‘llanishiga ko‘ra.

3. Rivoyat bilan tanishib, o‘quvchilar fikrlarini bayon qiladilar.

Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etadi. „Mahbub ul-qulub“ asarida voizlar, til odobi xususida fikr yuritsa, „Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etadi. Nafaqat e’tirof etadi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidlaydi.

Husayn Boyqaroning vafot etgan sevimli xotini haqida Navoiy: *„Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?“* jumlasi bilan murojaat qilishni o‘rgatadi. Xabarni eshitgan shoh osoyishtalik bilan *„Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak“* degan nozik va yumshoq javobni berib, buni Navoiyga yetkazishni topshiradi. Bu yerda ***gul so‘ldi*** jumlasi ***xotiningiz o‘ldi*** ifodasining „pardali“, „yumshoq“, shuningdek, inson ko‘nglini og‘ritmaydigan holdagi ko‘rinishidir.

9.1- va 9.2-topshiriq uyga vazifa qilib beriladi.

EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga evfemizm va disfemizmlar haqida ma’lumot berish hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga muloqot davomida so‘zni anglash va o‘rinli qo‘llash odobini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavzu asosida olgan bilimlarni mustaqil qo‘llash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Yangi mavzu yuzasidan nazariy ma’lumot berishdan avval darslikdagi **10.1-mashq** bajariladi.

Bajarish tartibi: parchalar bilan tanishiladi (*o‘qish*); ajratib ko‘rsatilgan birliklar ikki guruhga bo‘linib ko‘chiriladi (*yozish*).

Yechim: ajratib ko‘rsatilgan birliklar ikki guruhga bo‘lib ko‘chiriladi:

kishiga ijobiy ta’sir qiladigan so‘zlar: *sochimning oqiga qaramayin, kayvoni, menginani lozim ko‘ribdilarmi, farishtali ayol;*

kishiga salbiy ta’sir qiladigan so‘zlar: *peshanang nimaga bundayin sho‘r, olamdan bepusht o‘tgin, juvonmarg o‘lgin, og‘zingdan chiqib, yoqangga yopishsin, Qofqazni sotishgan, kofir to‘ng‘izlardan himoya qilgan, „eshak“, esim qursin.*

Savollarga javob beriladi (*gapirish*):

1. Parchalarda Surxon vohasiga xos qanday so‘z birikmasi, ibora va jumlalar qo‘llangan?

Javob: momo, mazammat, kayvoni, hamsoya...

2. Ijodkorlarga xos xalqona ruh qaysi ifodalarda ko‘proq uchragan deb o‘ylaysiz?

Javob: Abdulla Oripovning mana bu so‘zlarini eslaymiz: „Xalqning o‘lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini, nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli“. Darhaqiqat, milliylikdan holi bo‘lgan tuyg‘u ta’sir kuchidan ayriladi. Milliy ruhdan mosuvo tafakkur bamisoli qanotsiz qushga o‘xshaydi. Xalqimiz ta’birlarini o‘z o‘rnida qo‘llash, xalq tilida mavjud bo‘lgan iboralardan, o‘xshatishlardan unumli foydalanish badiiyatni kuchaytiradi, ta’sir quvvatini oshiradi. Parchalarda xalq ruhini aks ettirgan ifodalarga diqqat qilaylik:

Peshanang nimaga bundayin sho‘r, sochimning oqiga qaramayin, ayollar bosh chayqadi, hamsoya, Yaratganga shukur, el savobini olar bo‘libman.

10.2-mashq asosida „Kim chaqqon?“ musobaqasi uyushtiriladi. Berilgan so‘zlar jadvalga tez va to‘g‘ri joylashtirilishi kerak.

„Yumshoq“ ifodalar	Yostiqdosh, ojiza, turmush o‘rtog‘i, jufti halol, umr yo‘ldoshi, zavj(a), rafiq(a), onasi, dadasi, bu kishim, farzandlik bo‘ldi, yengillashib oldi, ko‘zi yoridi, qutulib oldi, „holva“, „qo‘chqor“, davomchili bo‘ldi, jon taslim qildi, joni uzildi, u dunyoga rihlat qildi, omonatini topshirdi, egasiga kerak bo‘ldi
Betaraf ifodalar	o‘ldi, halok bo‘ldi, qazo qildi
Qo‘pol ifodalar	xotin, er, yer tishladi, to‘ng‘iz qo‘pdi, yer yutdi

10.3-mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan nuqtalar o‘rniga mosini tanlang.

Yechim: 1. – Uyqungiz o‘chdimi, **otasi?** – Ha...O‘zing-chi, yana xastalik azob beryaptimi? *(O. Yoqubov)* 2. Shu turishida opasi Boburga onasining endi **beva** qolgan o‘ttiz yetti-o‘ttiz sakkiz yasharli paytlarini eslatib yubordi. *(P. Qodirov)* 3. Yana, albatta, ko‘rishmoqqa umidim bor, hozircha **xayr**. (*„Onalar_kanali“dan*) 4. Bu amakining o‘g‘li urushdan **oyog‘idan ayrilib** keldi. (*„Suhbat“dan*) 5. Qo‘shnimiz **sal bundayroq,** lekin hech kimga zarari tegmaydi.*(T. Murod)* 6. Qarang-a, bu odam o‘zi **kal** bo‘lsa ham, dimog‘i balandni ko‘zlarkanmi? *(O. Bobojonov)*

10.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. **C**. Odamlar beton tagida qolib o‘lardi.
2. **A**. Siz yanglishyapsiz.

10.5-mashq. Yoshi ulug‘ odamlarga nisbatan qo‘llanadigan evfemizmlarni uslubiy bo‘yog‘iga ko‘ra tartiblang.

Ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar	sochiga oq oralagan; belidan quvvat ketgan ko‘zidan nur ketgan; so‘nggi manzilga tayyorgarlik ko‘rayotgan; yoshi o‘tgan; yoshi bir joyga yetgan; yoshi ulg‘aygan; umrining kuzagi o‘tib, qishi boshlangan; umri poyoniga yetib qolgan; yo‘li oxirlagan
Salbiy bo‘yoqdor so‘zlar	sochlari oqargan; yuzlarini ajin bosgan; sharti ketib, parti qolgan; qarigan; keksalik nuqsi urgan; to‘ridan go‘ri yaqin; o‘limi yaqin; qartayib qolgan; pishib qolgan

10.6-mashq. Berilgan so‘zlar qatorini davom ettirish bo‘yicha musobaqa uyushtiring:

boshi ochiq – uylanmagan, ro‘zg‘or qilmagan, bo‘ydoq, erga tegmagan, turmush qurmagan, turmushga chiqmagan...

sergap – mahmadona, ezma, gap sotuvchi, javraqi...

semiz – to‘ladan kelgan, do‘mboq...

yengiltak – yengil oyoq, xulqi buzuq...

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Evfemizm va disfemizmlar, asosan, qaysi uslublarda qo‘llanadi?

Javob: evfemizm bu og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llaniladigan ma’nosi neytral va so‘zining „vazifasi“ emotsional bo‘lgan so‘z bo‘lib, qo‘pol yoki „beodob“ so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladi. Evfemizm inson faoliyatining barcha sohalarida keng qo‘llanadi. Ayniqsa, so‘zlashuv, ilmiy, publitsistik uslublarda evfemizmning turli ko‘rinishlarini ko‘proq uchratish mumkin.

2. Mehmondorchilik bilan bog‘liq qanday evfemizmlarni bilasiz? Rolli o‘yin (dialog) shaklida namoyish qilishga urinib ko‘ring.

Namuna:

– Assalomu alaykum, bobojon!

– Va alaykum assalom! Kel, *bo‘talogim*, o‘tir. *Ko‘zim yo‘lingda* edi. *Umrim ham poyoniga yetay deb qoldi*, qariganda yaqinlariga suyanib qolar ekan odam. Seni ko‘rib, *boshim osmonga yetdi*. Vaqti-vaqti bilan *issiq-sovug‘imizdan* xabar olib tur. Buvisi, *qozon osdingmi*? Atagan-laringni olib kel.

– Ovora bo‘lmang, men tezda turaman. *Qosh qorayguncha* uyga yetib olishim kerak.

3. Masallar o‘qiladi. Ajratilgan so‘zlarning o‘rnida quyida berilgan evfemizm va disfemizmlarni qo‘llab, yuzaga kelgan farq izohlanadi *(o‘qish, gapirish)*:

– Odamlar **ajoyib-da,** devorning qulog‘i bor, sekin gapiringlar, deb meni **aybdor** qilishadi, – debdi Devor.

– E’tibor berma, ular bir-birlaridan shubhalanib, sendan xavotirlanishadi, – debdi Shift.

Izoh: fikrda yumshoqlik (evfemizm) mavjud.

***

Namuncha yerga **qapishmasang,** – debdi Shamol.

Yerning mehri o‘ziga tortadi-da, – debdi Qor.

Izoh: ifodada qo‘pollik (disfemizm) vujudga keldi.

***

Toshko‘mir buncha qop-qora, **ko‘rimsiz** bo‘lmasa, – debdi Kesak. Sirtdan baho berma, uning bag‘ri naqadar issiq, – debdi Tosh.

Izoh: ifoda bayonida yumshoqlik (evfemizm) paydo bo‘ldi.

Mustaqil bajarish uchun uyga vazifa sifatida **10.1- va 10.2-topshiriq** beriladi. Dars yakunlanadi.

OLMOSHLAR USLUBIYATI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga olmosh so‘z turkumiga xos bo‘lgan uslubiy xususiyatlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va nutqini erkin bayon qilish ko‘nikmasini hosil qilish.

Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar quyidagilar sanaladi:

U, bu, shu olmoshlari o‘rnida ***bir*** (yoki ***bir xil)*** so‘zi qo‘llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.* ***Men*** olmoshi o‘rnida ***kamina*** so‘zi, ***siz*** o‘rnida ***o‘zlari*** so‘zi qo‘llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo‘q. Siz va’da bergan edingiz. – O‘zlari va’da bergan edilar.* Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig‘ilishlarda ***men*** olmoshining o‘rnida ***biz*** olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko‘rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.* Hurmatni ifodalash uchun ***sen*** olmoshi o‘rnida ***siz*** olmoshi ishlatiladi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha, hurmatsizlikni ifodalash uchun esa ***sen*** olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar.* Ko‘rsatish olmoshlari ta’kidlash, ajratish ma’nolarini ifodalaydi: *Kitob – bu dono maslahatchi.*

11.1-mashqni bajarish tartibi: she’riy parchalar bilan tanishiladi (*o‘qish, tinglab tushunish*).

Olmoshlarni topib, ularning badiiy matnlarda qo‘llanishiga e’tibor beriladi. She’rlarda olmoshlarni takror qo‘llashdan maqsad nima ekanligi yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

Izoh: ***ul, shul, ul, o‘shal, sanga, anga, ondin*** kabi olmoshlari mumtoz adabiyotda o‘sha davrga xos me’yoriy vazifani bajargan bo‘lsa, hozirgi she’riy nutqda esa tantanavorlik, ko‘tarinkilik uchun ishlatiladi.

Na, ne olmoshlari dialektal xususiyatga ega bo‘lib, badiiy uslubda ishlatiladi.

Ne olmoshi takrorlanib ishlatilganda (ne-ne) ma’noning ortiqligini, hayajonning kuchliligini bildiradi.

11.2-mashq. Berilgan matnlardan olmoshlarni aniqlab, uslubiy qo‘llanishi yuzasidan „*Muhokama daqiqalari*“ni uyushtiring.

1. – Domlajon, **shugina** o‘qisin, odam bo‘lsin, deymiz-da. Otasi ham, **men** ham **bundan hech narsamizni** ayamaymiz. Xudoga shukur, **bu** ham yuzimizni yerga qaratmay kelyapti. *(O. Hoshimov)* 2. **Bu** atrofda **o‘zlaridan** boshqa **hech kim** yashamas ekan-da? Qo‘rqmaysizmi? Tog‘lik joy… *(O. Husanov)* 3. **Shunda qayerdandir** juda tanish bir ovoz keldi. Birdan sergaklanib alangladi. Nahotki… **bu Sizmi**? **Qayerdan** paydo bo‘ldingiz? **Qanchalar** kutganimni bilasizmi **Sizni**? *(Sh. Isaxonova)* 4. – E,odammisan **o‘zi**?! – To‘rayev **uning** tirsagidan ushlab **o‘ziga** qaratdi. – **Nima bo‘ldi**? Tanimayapsanmi? *(Sh. Xolmirzayev)* 5.– Yana **men, mengina** jonim achiydi, **qachongacha shuning** ortidan yurmoqchisan-a? *(O. Hojiyeva)* 6. – Tag‘in noto‘g‘ri xayolga borma. **U-bu** deb qo‘ygan bo‘lsam, aybga buyurma, uka. *(S. Ahmad)*

Izoh: olmoshlar shaxs, narsa-buyum, belgi yoki miqdorning aniq nomini bildirmay, ular o‘rnida qo‘llanadi. Olmoshlarning aniq ma’nosi matn yoki nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab oydinlashadi. Demak, matnsiz olmoshlarning ma’nosi, nimani ko‘rsatishi noma’lum bo‘lib qoladi. Masalan, „shu o‘lka“, „shuncha kitob“ kabi birikmalarning ham ma’nosi faqat matnda aniqlashadi. Ko‘rinadiki, olmoshning muhim belgilaridan biri uning mavhum va umumlashgan ma’nolarni ifodalashidir. Ana shu ma’no xususiyati bilan olmosh umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalab, ot, sifat, son kabi so‘zlarning muqobili bo‘lib keladi. Bu holat olmoshlar uslubiy xususiyatining bir tomoni bo‘lsa, ikkinchisi, ularning o‘zaro sinonim bo‘lib ishlatilishidir. Ya’ni biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishidir. Bundan tashqari, olmoshlarning har bir ko‘rinishi o‘ziga xos hissiy ta’sirchanlik xususiyatlariga ham ega.

11.3-mashq. Said Ahmadning ijodkor O‘tkir Hoshimov haqidagi fikrlari bilan tanishing. Matndagi ko‘rsatish olmoshlari uslubiyatiga diqqat qiling. Sizning-cha, ijodkorning baxti nimada? (*tinglab tushunish, gapirish*)

Izoh: ko‘rsatish olmoshlari so‘zlovchi bilan ko‘rsatilayotgan narsa sodir bo‘lgan vaqtga qarab ishlatiladi. ***Shu*** olmoshi ham, ***bu*** olmoshi kabi ma’noga ega, ammo ***shu*** olmoshida ta’kid ma’nosi kuchli: *Ayniqsa, yosh kitobxonlarning shundoq mashhur yozuvchi bilan suhbatlashganlaridan ko‘zlari yashnab ketadi.*

Mana shu, mana bu, ana shu kabi olmoshlar narsani ajratib ko‘rsatadi. Uning vaqt, masofa jihatdan so‘zlovchiga yana ham yaqinligini ta’kidlaydi: – *Bolam, men hu anavi maktabda farroshman. Buni men maktab kutubxonasidan olgan manavi kitobni o‘qib bildim*.

O‘sha ko‘rsatish olmoshi so‘zlovchiga ilgaridan ma’lum bo‘lgan, ilgari eslatib o‘tilgan narsa, vaqt yoki hodisani ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi: ... *o‘sha yigirma yil umrimni shu ukalarimga bo‘lib berishga tayyorman, deb javob qilardim.*

U, bu, shu, o‘sha kabi ko‘rsatish olmoshlari betaraf uslubda qo‘llanadi.

Mana, ana kabi olmoshlar esa ko‘proq so‘zlashuv uslubi nutqida ishlatiladi. Bu ikki uslubga olmoshlarning birgalikda ishlatilishi ko‘rsatishni yanada kuchaytiradi, ta’kidni bo‘rttirish, his-hayajonni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ijodkorning baxti nimada?

El-yurtini sevgan, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun sidqidildan xizmat qilgan farzandlarni tarix ham siylaydi. Xalqimizning tinch, to‘kin va barqaror hayoti, yorug‘ kelajagi yo‘lida ijod qilayotgan insonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir. Ijod baxti – har bir qalam sohibi uchun muhim va yo‘qotgisi kelmaydigan tuyg‘u.

„So‘zda sehr, she’rda esa hikmat bor“, – deyishadi. Ijod baxti so‘z sehrini, sir-asrorini izlash, topish, anglash baxtidir. Ijodkor o‘z asarlari orqali mo‘jizakor hayotning va inson qalbining eshiklarini ocha olsa, ijodining har bir satrida hikmat balqib tursa, insonlar undan bahramand bo‘lishsagina, mana shu baxtni his qila oladi, deb o‘ylaymiz.

11.4-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarning uslubiy vazifalarini izohlang (*yozish va gapirish*).

1. – Kelinposhsha, ovqatni suzdingizmi? – Suzdim, oyijon. **Bularnikini** alohida olib qo‘ydim. – Er-xotin birovlar oldida ochiq murojaat o‘rnida *u (bu), ular*, *bu(lar)* kabi olmoshlar orqali muomala qiladi.

2. – E, Qalashboyevmi? Chayqovchi u, **bizning** molni qishlog‘idagi do‘konga oborib ikki hissa qimmatiga sotadi. **Bular** o‘ziga oladi, hojatlarini chiqarish kerak. – *Biz* olmoshi *men* o‘rnida turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanadi: kamtarlik, faxrlanish, kesatiq, manmanlik kabi. *Bular* olmoshi esa o‘z ma’nosida qo‘llangan.

3. ***Bu kishim*** namuncha tez arazlamasa? – *Erim* so‘zining evfemik ifodasi qo‘llanib, hurmat ma’nosi aks etgan.

4. Ishni **senlar** buzdingmi, hammasi uchun endi **o‘zlaring** javob berasanlar! – Bu gapdagi olmoshlar orqali so‘zlovchining tinglovchiga hurmatsizligi, bepisand munosabati ifodalangan.

5. Rahmat, muxbir uka, umid qilamanki, hujjatlarimizni ko‘rib chiqib, **o‘sha** fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz! – Ko‘rsatish olmoshi uslubiy vazifa bajarmagan.

6. – Bu bog‘ni kim barpo qilibdi o‘zi? – **Biz-da**, xo‘jayin, qo‘ldan kelgancha… – Kamtarlik, ta’kid ma’nosi *biz* olmoshi orqali ifoda qilingan.

11.5-mashq. Testning yechimi.

1.B. Mehnatsiz bir nafas yo‘q, biz ilhomga shaydoyi. (*Mirtemir)*

Izoh: *biz* olmoshi *men* olmoshi o‘rnida o‘zini ta’kidlamaslik, kamtarlik ma’nosini ifodalash uchun qo‘llangan.

2. B. Uyda hech kim yo‘q, erim ham ishga ketgan.

Izoh: berilgan gaplarda qo‘llangan „turmush o‘rtog‘im“, „adasi“, „jufti halolim“ ifodalari „bular“ olmoshi kabi „erim“ so‘zining evfemizmlaridir.

11.6-mashq. Matnlardagi noodatiy qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1. – Sen gapir, – dedi kuyov.

– **O‘zi** gapirsin-da (***O‘zingiz*** *gapiring-da*), – dedi qayliq.

– Nimani gapirayin?

– O‘zimizning oqshomlardan gapirsin. Qirdagi bug‘doy o‘rimidan gapirsin.

– Sen gapir... Men senga zardoli terib berganimni.

– **O‘zi** gapirsin (***O‘zingiz*** *gapiring*), qo‘llari zardoli shoxlarida bo‘lsa-da, ko‘zlari qayda ekanini... *(T. Murod)*

2. – **O‘zi (*Alloh*)** beraman desa, qo‘shqo‘llab beradi. Sendan-mendan so‘rab o‘tirmaydi. Ma, ol, qulim, deydi. Mana ko‘rasan...

– Aytganingiz kelsin, otasi. *(T. Malik)*

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Evfemizmlarni qo‘llash oilaviy muhitga qanday ta’sir ko‘rsata oladi?

Oddiy adabiy nutqda taqiqlangan so‘zlar va iboralar evfemizm bilan almashtiriladi. Bu aloqa jarayonida bunday so‘zlarni ishlatishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni oldini olish, suhbatdosh aloqada noqulaylik sezmasligi uchun oilaviy muhitning axloqiy talablaridan kelib chiqadi.

2. Er-xotin munosabatlarida III shaxs ko‘plik olmoshi qo‘llanadi. Bu odatning sof milliy ildizi haqida o‘ylab ko‘ring.

O‘tmishda yigit va qiz unashtirilishi bilan, xususan, nikohga kirishi bilan bir-birlarining nomini atamaslik ko‘pgina xalqlar kabi bizda ham qat’iylashtirilgan. Boshqacha qilib aytganda, xotin (I shaxs) eri

(II shaxs)ga qaratilgan fikrini *ular, o‘zlari, o‘zi* (III shaxs) olmoshi qatnashgan gap orqali bayon etadi.

3. She’riy parchalarni o‘qing. Noo‘rin qo‘llangan kishilik olmoshlarining uslubiyati haqida fikrlashing.

Izoh: she’riy parchalarda *men* va *sen* kishilik olmoshlarini noo‘rin qo‘llash orqali mazmunning sayozlashuvi yuz bergan. O‘zbek tilining grammatik xususiyatlariga asosan *men* olmoshi, odatda, gapda qo‘llanmaydi. *Sen* olmoshi esa muallif tomonidan ritmni zo‘rma-zo‘raki hosil qilish maqsadida takror-takror qo‘llanib, uslubiy g‘alizlikni paydo qilgan va nutq saviyasini tushirgan.

11.1- va 11.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi.

MUSTAHKAMLASH DARSI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning mavzular bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: insonparvarlik, o‘zaro hurmat, ona tiliga ehtirom tuyg‘ularini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash, og‘zaki hamda yozma nutq malakasini rivojlantirish.

1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Ajratilgan olmoshlar uslubiyatini izohlang (*o‘qish va gapirish*).

„Hammaning kelini abitta o‘tiriiib kashta tiksa, **meniki** (I shaxs birlik kishilik ilmoshi, -niki qo‘shimchasini olib, „mening kelinim“ ma’nosini ifodalagan) kitobga termiladi! Olima-da!“ Qudasi Qurbon kampirning ma’rakada katta-kichikka eshittirib va atayin **unga** (III shaxs birlikdagi kishilik olmoshi „Sobira xolaga“ ma’nosini ifodalagan) tegizib shang‘illashi Sobira xolaga og‘ir botdi. U ma’rakadan so‘ng boshda tuguni bilan qudasinikiga o‘tdi.

– Quda, – dedi. – Mana **siz** (II shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshi II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o‘rnida kelib, hurmat ma’nosini ifodalagan) kelin-kevat ko‘rgan kayvoni xotinsiz.

Matnda qo‘llangan olmoshlar shu tariqa tahlil qilinadi.

2-topshiriq. Berilgan iboralar va maqollarga mos izohlar tanlanadi.

Yechim: ot tepkisini ot ko‘tarar – mardga mardlik qilmoq, mard xatoni kechira oladi, nomard bunga qodir emas; oyog‘i uzangiga yetmagan, qo‘yniga yarimta non ketmagan – noshud, nodon, bo‘lmas odam; zamonaning ozgani – otdan eshakning o‘zgani – donolar ustidan no-

donlarning g‘olib kelishi; yaxshi it o‘ligini ko‘rsatmas – aqlli odam o‘z g‘amini o‘zi yeb, birovga og‘irligini tushirmaydi; bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq – ayyor, tullak odam hamisha xavfli; Turkistonda qo‘y bir so‘m, kela-kela o‘n bir so‘m – narx-navoning oshishi, qimmatchilik.

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘z tanlanadi.

1. Aylanayin So‘fi Olloyor hazratim, sadag‘angiz ketayin, hazratim, menga shafqat qiling. Ko‘pga bergan tirnoqni mendan-da ayamang. (*T. Murod*) 2. Ko‘r ham hassasini bir marta yo‘qotadi. (*Maqol*) 3. Bu libos yoshingizni katta ko‘rsatyapti. (*So‘zlashuvdan*) 4. Onasi, shu yerdamisan, fotihaga kelganlarga ko‘chatning hammasini ulashinglar, ikkitadan, uchtadan beringlar. Jannatdan chiqqan mevalar bular, denglar. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Ma’lum bo‘lishicha, Oyqiz Bahodirga bolaligidayoq beshikkerti qilingan ekan. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Malika bo‘y yetganda husni jamolining ovozasi yetti iqlimga yoyilibdi. *(Ertakdan)*

4-topshiriq. Qatorlar musobaqa shaklida davom ettiriladi:

1) harbiy sir talabiga ko‘ra harbiy qismlar, hududlarning shartli belgilari:

„A“ punkti, „OMON“chilar, „Bars“, „Shunqor“, „Lochin“...

2) kasallik nomlarini oshkor etmaslik tabulari: gul, chechak (qizamiq), oq (pes), uzun og‘riq (sil)…

3) katta yig‘inlarda, obro‘li odamlar ichida etikani saqlash nuqtayi nazaridan qo‘llanadigan tabular: yuqori, hurmatli boshlig‘imiz, markaz, otaxonimiz…

4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar: taqsir, menga qarang, olampanoh, azizim, toychog‘im, onasi, dadasi…

5) an’analar bilan bog‘liq evfemik vositalar: „chilla saqlash“, „ota-ko‘rdi“, „kampir o‘ldi“, „itirillar“, „sochsiypatar“, „qo‘lushlatar“, „kelin salom“…

5-topshiriq. Testlarning yechimi:

1. **A**. AQSHda – ayiq, Avstraliyada – kenguru, Kanadada – bug‘u, Hindistonda – sigir, O‘zbekistonda – humo.

2. **A**. O‘zlari ijozat bersalar, mashg‘ul bo‘lur edik.

6-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Fikr davom ettiriladi: *Shuni unutmangki, hayotdagi sinovlar insonni yengib qo‘ymasligi kerak, chunki ular...*

Namuna:

Shuni unutmangki, hayotdagi sinovlar insonni yengib qo‘ymasligi kerak, chunki ular halokatli, tuzatib bo‘lmaydigan xatoga olib kelishi mum-

kin. Insonning kelajagi, dunyodagi, jamiyatdagi mavqeyi uning faoliyatiga bog‘liq. Faoliyat uning aqliy qobiliyatiga va mehnatiga bog‘liq bo‘lib, kelgusi taqdirini va baxtini belgilaydi.

2. Matnda qo‘llangan olmoshlar uslubiyati izohlanadi.

Izoh: berilgan murakkab qo‘shma gapda ikkita olmosh ishtirok etgan:.

1) **shuni –** ko‘rsatish olmoshi, turlangan, qo‘shma gapning bosh gap qismida kelib, to‘ldiruvchi ergash gap bilan ma’nodoshlik hosil qilgan;

2) **ular** – III shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshi, ot (sinovlar) so‘z turkumi o‘rnida kelgan, ta’sirchanlikni kuchaytirish, ta’kidlash ma’nolarini ham ifodalagan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Narsa-voqea va joylarni muqaddaslashtirish qanday omillarga bog‘liq?

Tirik bo‘lmagan jonsiz buyumlarga sig‘inish ibtidoiy odamlarning ovchilik, xo‘jalik yuritish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ovchi o‘zi ovlagan hayvonning tishini sug‘urib olib, uni bo‘yniga taqib yurgan. Ibtidoiy odamlarning tasavvuriga ko‘ra, yirtqich, qudratli hayvonning tishi bilan birgalikda uning kuchi va qudrati ham ibtidoiy odamga o‘tib, unga doimo omad olib kelishi kerak edi. Hozirgi davrda uyning eshigi, ostonasiga baxt keltirishiga ishonib taqa osib qo‘yish; devorga, eshikka tikan, qalampir va boshqa narsalarni osib qo‘yish ham fetishizmga taalluqlidir. Transport vositalariga har xil baxtsiz hodisalardan himoya qilish maqsadida osib qo‘yiladigan hayvon tishlari, tirnoqlari, qushlarning patlari, tikanlari ham fetishizmning bugungi kunda namoyon bo‘lishiga misol bo‘la oladi.

2. Bugungi kunimizda olovga sig‘inish e’tiqodining qaysi qoldiqlari yashab kelmoqda?

Olovga sig‘inuvchi „majusiy“ deb ataladi. Majusiylar Alloh taoloni nurlarning nuri deb e’tiqod qiluvchi toifadandir. Ayrim chekka hududlarda to‘y kuni kuyov kelinni ko‘tarib, olov atrofida aylantirishi, chillali uyda qirq kun davomida chiroqning yoqib qo‘yilishi, yog‘ga botirilgan yetti pilikni yoqib tilovat tushirish kabi udumlar bugungi kunda olovga sig‘inish e’tiqodining yashab kelayotgan ko‘rinishlari sanaladi.

3. Matnni o‘qing. Yashirin so‘zlarni qo‘llash zaruriyati nima uchun kerak?

Ma’lum bir maxfiy tashkilot a’zolari tomonidan bir-birini tanib olish, rejani yashirish, sir tutish, o‘zini oshkor qilmaslik maqsadida turli shartli belgilar qo‘llaniladi.

Mustaqil bajarish uchun uyga **1–2-vazifalar** berilib, dars yakunlanadi.

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda matn va lug‘at bilan ishlash bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, evfemizmga oid bilimlarni kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni rivojlantirish, ularni badiiy ijodga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

12.1-mashq. Matn bilan tanishiladi (*o‘qib tushunish*).

12.2-mashq. „Mehrobdan chayon“ asaridan olingan ushbu parchaning davomi bilan qiziqib ko‘ring. Voqea qaysi ayanchli hodisa bilan tugaydi?

Madalixon bu fatvodan keyin dardini ichiga yutishga majbur bo‘lib, ammo ikkinchi tarafdan o‘zining orzusiga qarshi borgan ulamoni sekin-sekin „ilmiy“ ishlardan olib, ular o‘rniga yangilarini qo‘ya boshlaydi. O‘z orzusiga zamin hozirlagach, bir necha yilni o‘tkazib, yana ulamoga shu to‘g‘rida fatvo so‘rab murojaat qiladi. Tabiiy, yaqindagina og‘zi oshga yetgan yangi ulamolar o‘z valine’matlari bo‘lgan Madalixonga xiyonat qilmaydilar-da:

– „Banazdi mujtahiddini kirom asli e’tibor aqdi shar’iydir. Otangiz marhum: „nikohlanaman“ deb aytgan bo‘lsalar ham, „nikohlandim“ deb aytmaganlar. Bas, amiralmo‘minin mazkurani o‘z nafslariga aqdi shar’iy qilsalar joiz va durustdir. „Vallohi a’lam bissavob“, deb fatvonomani „binni mufti marhum“, „binni mudarris marhum“, „binni Ho‘qandiy marhum“ muhri bohaybatlari bilan qalashtirib beradilar va Madalixon to‘y va tomoshalar bilan murod-maqsadiga yetadi…

Kimlarning vositasi bilandir mazkura go‘zal kanizning ta’rifi Buxoro amiri – amir Nasrullo (Botir) xonga yetib, u ham ilgaridan haligi kanizga g‘oyibona oshiq bo‘lgan edi, ammo qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham, shu kanizni qo‘lga kirgizish fikrida bosh og‘ritib, nos chekib yurgan Botirxonning qulog‘iga bu xabari jonso‘z yetib, dimog‘idan dud chiqadi va darhol Buxoroning zabardast ulamo, mufti, a’lo peshvolarini o‘z huzuriga chorlab, darg‘azab, voqeani so‘zlaydi va ulardan darhol bir „fatvo“ talab qiladi. Ulamoyi kirom ham darhol masalani eshitar-eshitmas, fatvo yozadilarki:„Bir jamoa mo‘minlariga amir bo‘lgan zotning vazifai shar’iysi shuldirkim, islomda ustivor turgay, ahkomi islomni kamokon ijro qilg‘ay. Har bir amirikim arkoni islomdan zarracha yuz

o‘girsa, u kimarsa jamoai islom ustiga amir emas, sharirdir. Farg‘ona va Turkiston mamlakatining alhol amiri bo‘lgan Muhammad Alixon volidining mankuhasi, ya’ni volidayi ayni va rizoisini o‘z aqdig‘a olibdir (emizgan onasiga uylanibdir), nauzan billoh, nauzan billoh. Oyat va ahodisi sharifa va ba chahori mazhab va ba nazdi mujdahidini kirom va ulamoi zulehtirom muttafaqun alayh kofirdir. Kazolika o‘shandog‘ murtadning qatli avvalo digar islom amirlariga va ba’daz barcha mo‘minlarga farzi ayndir!“

„Xolisona“ bu fatvoga amir Nasrullo „betarafona“ qiymat berib, „din yo‘lida xolis bir jihodi akbar“ deb jam’iy qo‘shinlari bilan Farg‘ona ustiga yurish qiladi. Amiri Nasrulloning bu „xolisona“ jihodi Turkiston xonlig‘i tomonidan qanday muqovamatlarga uchradi va ikki tarafdan qancha boshlar kesildi, natijada Madalixon shikast topdi hamda amir Nasrulloxon tomonidan qatl qilindi.

12.3-mashq. Matnga sarlavha toping va reja tuzing.

Amir Umarxonning kanizi

Reja:

1. G‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatni...
2. Shariat biyobonida sarson qolgan muhabbat.

12.4-mashq. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan evfemizmlar o‘rniga berilgan so‘zlarni qo‘yib, qayta o‘qing va xulosangizni ikki jumlada bayon qiling: *sevmoq, yetilmaganlik, uylanmoq, o‘lmoq, podsho bo‘lmoq, saqlamoq, to‘siq bo‘lmoq, chiqmoq, xotin qilib olishga qarshi.*

Turkiston xonlig‘i tarixidan xabardor kishilarga ma’lumdirki, Amir Umarxon oxir umrida o‘z saroyidagi yosh kanizlardan birini **sevib qoladi.** Kaniz yosh bo‘lg‘anligi va **yetilmaganligi** uchun unga **uylana olmay** vaqt kutadir. Shu kutib yurish yillarida Umarxon murodiga yetolmay **o‘ladi**, o‘g‘li Madalixon **podsho bo‘ladi.**

Oradan bir necha yillar o‘tib, boyag‘i kaniz qiz balog‘atka erishadir va bir husniga o‘n husn qo‘shulib, otaning bolasi bo‘lg‘an Madalixonni ham o‘ziga oshiq qiladir. O‘z saroyida o‘skan bu qizni yosh xon hamisha **ko‘z o‘ngida saqlasa** ham, **biroq**... **tarixning** bizga xabar berishiga qarag‘anda, Madalixon shu qizning dardida necha yillar yonadir. Chunki ulamolar bu go‘zalni Madaliga ona maqomida hisoblab, nima uchundir xonning **xotin qilib olishiga qarshi bo‘ladilar**: „Otangiz, agarchandi kanizni o‘z nikohlariga olmag‘an bo‘lsalar ham, lekin balog‘atka erishgach olarman, deb niyat qilganlar. Binobarin, bu kaniz sizga ona maqomida, **shari’at to‘sqinlik qiladi**!“ *(A. Qodiriy)*

Xulosa: Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, evfemizlar aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z, ibora o‘rnida silliqroq, pardali so‘zlarni qo‘llash ehtiyoji bilan ishlatiladigan ijobiy bo‘yoqqa ega so‘z va iboralardir. Ikkinchi matnni badiiy qimmati disfemizmlar tufayli tushib, odob doirasidan chetga chiqish holati kuzatildi.

12.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, matnda qo‘llangan ko‘hna so‘zlarning bugungi muqobili bo‘yicha jadval to‘ldiriladi (*yozish*).

xonlig‘i	xonligi
oxir umrida	so‘nggi yillarida
muhabbat qo‘yadir	muhabbat qo‘yadi
yosh bo‘lg‘anligi	yosh bo‘lganligi
balog‘atka yetmaganligi	balog‘atga yetmaganligi
taxtka	taxtga
agarchandi	agarki
boyag‘i	boyagi
o‘skan	o‘sgan
qarag‘anda	qaraganda

12.6-mashq. Izohli lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning ma’nosi tushuntiriladi:

kaniz, ulamo, maqom, shariat.

Kaniz (f-t) – 1. Tutqin ayol, cho‘ri. 2. Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol.

Ulamo (a) – 1. Olim, olimlar. 2. Shariat qonunlarini, diniy bilimlarni mukammal biladigan mulla.

Maqom (a) – 1. O‘rin, joy. 2. Martaba, mavqe.

Shariat (a) – Musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy, fuqarolik qonun va qoidalari majmui.

12.1- va 12.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi.

Yechim: hayotda shu kabi ustalarning „adashishlari“ oqibatida aka-ukalar orasidagi mehr-oqibat rishtasi mahkam bog‘lanadi.

Terak tomiriga tayanar, odam – tug‘ishganlariga.

Tirnoqni etdan ayirib bo‘lmas.

Ota – xazina, aka-uka – tayanch.

Og‘a-ini arazli bo‘lsa ham, g‘arazli bo‘lmas.

SO‘Z VA IBORA TENG EMAS

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilar ongida so‘z va iboraning farqi, hissiy ta’sir kuchi haqida bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, bu vositalardan samarali foydalana bilish kompetensiyasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hamjihat bo‘lishga, jamoada ishlash va bir-birining fikrini hurmat qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tilning hissiy ta’sir kuchini oshirishda iboralardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Dars so‘z va iboraning farqi, iboraning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltiriladi.

13.1-mashqda berilgan matn bilan tanishiladi (*tinglab tushunish*). Iboralarni aniqlab, ularga mos izohlar topiladi *(yozish*). Asar tilining hissiy ta’sir kuchida iboralarning qanday ahamiyatga ega ekani yuzasidan fikrlashiladi (*gapirish*).

Yechim: quyidagi iboralar qo‘llangan:

Bo‘shashib chiqmoq – hovuridan tushmoq, gapidan, niyatidan qaytmoq, bo‘sh kela boshlamoq, hafsalasi pir bo‘lmoq.

Pasti-balandini tanishtirmoq – turli ikir-chikir, mayda-chuyda (qonun-qoida)larini tanitmoq.

Odam qilmoq – tarbiyalab, chin insonga, yaxshi fazilat sohibiga aylantirmoq.

Qoqqanda qozig‘im, osganda cho‘michim qolmadi – nihoyatda qiynalib ketdim.

Tepa sochi tikka bo‘lmoq – bir lahzaning o‘zida nihoyatda qattiq g‘azablanmoq.

Ko‘zidan o‘t chaqnamoq – qattiq asabiylashmoq, g‘azablanmoq.

Yo‘l ko‘rsatmoq – nima ish qilish lozimligi haqida maslahat bermoq.

Bundan tashqari, matnda quyidagi maqol ham qo‘llangan:

Siylaganni sigir bilmas – bu maqolni o‘z izzatini bilmaydigan, birov tomonidan o‘ziga qilingan yaxshilikni bilmaydigan, qadrlamaydigan, yaxshilikka javoban yaxshilik qilish u yoqda tursin, hatto, yomonlik bilan javob qaytaradigan yaramas, badfe’l, badxulq va h.k. shu kabi jirkanch illat egalariga nisbatan qo‘llaydilar.

13.2-mashq. Gaplardagi iboralarni aniqlab, ularni berilgan so‘z va birikmalar bilan almashtiring. Qaysi birida bo‘yoqdorlik kuchli ekanini izohlang (*o‘qish, gapirish*).

Yechim: ushbu mashqni ishlashda o‘qituvchi „Qiyosiy tahlil“ metodidan foydalanib, o‘quvchilardan har ikkala gapni qiyoslashni so‘raydi. O‘quvchilar ibora yoki so‘z va birikmalar qatnashgan gaplarning farqini topishga harakat qilishadi. Ushbu gaplarni qiyoslash jarayonida ko‘rish mumkinki, iboralar ishtirok etgan gaplarda uslubiy va hissiy ma’no mavjud. Iboralar ifodalagan ma’no obrazli va jozibali bo‘ladi. Shu xususiyati bilan u so‘z ifodalagan ma’nodan farq qiladi. Hatto ayrim ibora bildirgan ma’noni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Shved olimlari yaqinda tabassum vaqtida ajralib chiqadigan baxt garmonlarini hisoblab chiqishibdi.

Ochiq yuz bilan birgina tabassum qilish 400 dona plitka shokoladni iste’mol qilganchalik samara berar ekan. Endi lotereyada omadingiz kelmasa ham, **mamnun qiladigan** latifa tinglamasangiz ham, **xursand bo‘lavering. Shod bo‘ling,** axir tabassum tekin-ku! Buning ustiga **nihoyatda charchatadigan** hech qanday quvvat sarflamaysiz.

Qarang-a, mana man degan shved olimlari kulgi kuchini endigina aniqlagan bo‘lsalar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bir necha yuz yillar oldin **kulib qarashning** yashirin sirlaridan boxabar bo‘lganlar va doimo tabassumda yurishni maslahat berganlar. *(„Norbekov.uz“)*

Tavsiya qilingan izohlar: *mamnun qiladigan; xursand bo‘lavering; shod bo‘ling; nihoyatda charchash; kulib qarash.*

13.3-mashq. Gaplardagi ajratilgan so‘zlarni berilgan iboralar sirasidan mosi bilan almashtiring.

Yechim: 1. Siz **ko‘ngil chog‘ligingizda** o‘zingizdan quvonch energiyasini tarqatasiz, **bahri dilingiz ochiladi** va uni qayerga yubormang, sizga quvonchli tuyg‘ular, quvonchli vaziyatlar, **labidan kulgu arimaydigan** odamlar bilan qaytib keladi. Masalan, radiodan **ko‘nglingizga xush keladigan** kuyni tinglab **boshingiz ko‘kka yetsa**, **ko‘z ochib yumguncha** hayotning tuhfasiga ega bo‘lasiz, kayfiyatingiz chog‘ bo‘ladi – bularning hammasi tortishish qonunining kuchidir. *(Deyl Karnegi)*

13.4-mashq. Quyidagi iboralar asosida og‘zaki gaplar tuzing.

Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan; nomi ulug‘, suprasi quruq; katta boshini kichik qilmoq; dami ichida qolmoq; suvdan quruq chiqmoq.

Namuna: 1. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bu voqea hammani birdek karaxt etgan, hamma hayron edi. 2. Bu lavozimning nomi ulug‘, suprasi quruq ekanligini bilganimda edi, direktordan shu lavozimga meni qo‘yishini so‘ramagan bo‘lardim. 3. Katta boshimni kichik qilib oldingizga keldim, quruq qaytarmassiz. 4. To‘satdan onam kelib gapga aralashdi-yu, damim ichimda qoldi. 5. Bu safar ham suvdan quruq chiqaman deb o‘ylama, endi senga ishonadigan ahmoq yo‘q.

13.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi o‘tkaziladi. Berilgan iboralarni 1-guruh sinonimik juftlik, 2-guruh antonimik juftlik shaklida yozadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

Sinonimik juftlik	
almisoqdan beri	almisoqdan qolgan
ammamning buzog‘i	og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadi
anqoga shafe	anqoning urug‘i
jag‘i tinmadi	labi labiga tegmaydi
og‘ziga muhr bosilgan	og‘zida osh damlamoq

Antonimik juftlik	
yerga urmoq	ko‘kka ko‘tarmoq
yuragi keng	yuragi tor
ko‘ngli joyiga tushdi	yuragiga g‘ulg‘ula tushdi
jag‘ida jag‘ qolmadi	og‘ziga mum solgan

13.6-mashq. Omonim ibora qatnashgan gap juftliklariga diqqat qiling. Ularning ma’nosini izohlang (*o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Dam bermoq:
istirohat qilishga, hordiq chiqarishga imkon bermoq;
havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq.

Ichagi uzildi:
qotib-qotib kulmoq;
juda-juda ochiqmoq.

Boshini yemoq:
juda ko‘p meva qilmoq;
yo‘q qilmoq, halok qilmoq.

Yuz o‘girmoq:
aloqani uzmoq, muomalada bo‘lishni istamaslik;
boshini burib qaramoq.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, iboralar omonimlik xususiyatiga ega.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Metafora yo‘li bilan hosil qilingan iboralarga misol keltiring.

Frazeologik ma’no ibora tarkibidagi biror so‘zning ko‘chma ma’nosiga asoslanishi mumkin. Masalan: *shirin so‘z, achchiq gap, ishning ko‘zi, bel bog‘lamoq* kabi.

2. *Kalima keltirmoq* va *kalima o‘girmoq* iboralari orasida qanday farq bor? Misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.

Kalima keltirmoq – kalimayi shahodatni aynan aytmoq, musulmon bo‘lmoq, kalimayi shahodatni takrorlab yurmoq ma’nosini anglatadi. *Kalima o‘girmoq* ham shunday ma’noda qo‘llanadi, ammo bu iboralarning farqi uslubiy xoslanishi va qo‘shimcha hissiy ma’noga ega ekanligidadir. *Kalima o‘girmoq* iborasida hissiy ma’no kuchliroq ifodalangan.

3. Suhbat matnini o‘qing. Unda qo‘llangan iboralarning izohli lug‘atini tayyorlang**.**

Yechim: ushbu matnda quyidagi iboralar qo‘llangan:

Jag‘i tinmay – tinmasdan ko‘p gapirmoq

Bag‘riginam xun bo‘ldi – ziq bo‘ldi, ruhan azoblandi

Aravani quruq olib qochdi – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi

Suprasida chaksa un yo‘q, uyida sichqonlar hassa tayanib qolgan, lekin tom boshida qo‘sh tandir – aslida hech narsasi yo‘q gadoy, ammo odamlar orasida o‘zini juda davlatmand qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladigan odamlarga nisbatan qo‘llanadi

Lom-mim demay – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

Ichiga yutdi – yashirdi, pinhon tutdi

Bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda – umri tugay deb qolgan

Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq – arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ish qilib qo‘ydi.

13.1 – 13.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi. Dars yakunlanadi.

MAQOLNI O‘RINLI QO‘LLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda maqol va uning ta’sirchanlik ko‘lami haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: maqollardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ziyraklik, ijodiy fikrlash sifatlarini rivojlantirish.

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri, shu bilan birga, til birligi ham. U – ixcham, mazmuniy va ta’sirchanlik ko‘lami baland ifoda. Maqollar biror nutq vaziyatiga xos bo‘ladi, shuning uchun, ko‘pincha, bir-birini inkor etadi:

Yaxshilik qil, umidvor bo‘l. – Yaxshilik qil – unut.
Maqollar evfemizm vazifasini ham bajaradi.

14.1-mashq. Matn bilan tanishing. Maqollarni aniqlang va ularning mos izohlarini toping. Matn badiiyligida maqollarning qanday o‘rni borligi xususida fikrlashing (*o‘qish va gapirish*).

„Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin“, – deganlari shu-da…

El og‘zida **„Ot bosgan joyni toy bosadi“**, degan naql yuradi. Shunga ko‘ra Tursunali ot bo‘lsa, shogirdi toy misol edi. Qo‘polroq tarzda tavsif berilsa, Tursunali tupurgan-u, u yalagan edi. Ustozi qamalganida uning ham paytavasiga qurt tushdi. Har holda ustozi oshni o‘zi oshalagani bilan unga yalatib turardi. Yangi direktor Yaratganga emas, rahbarlariga shukur qiladi: hartugul o‘sha laganlarni olishdi-yu, yalaganlarga marhamat darvozalarini ochishdi. Ular anglashmadiki, yaloqxo‘rlarning nafsi oshalaganlardan ham buzuqroq bo‘ladi. **„Oshalagan qorni to‘ygunicha yeydi, yaloqxo‘r esa ko‘zi to‘ygunicha“**. Ko‘zning hech qachon to‘ymasligi esa barchaga ayon. Xususan, kattalarning xizmatini qilib yurib, fe’l-atvorlarini bilib olgan Toshboltaga ham ma’lum bu. Shu sababli qizi tilga olinganda uning ko‘zlarini o‘yib olgisi kelgan bo‘lsa-da, o‘z aravasini o‘zi tortib ketishga qurbi yetmasligini bilgani uchun o‘zini tiydi. „Yaloqxo‘r“ deb yangi direktordan nafratlangani bilan tirjayib, unga qulluq qilib turishga majbur edi…

– Ming qilsayam, urug‘ urug‘-da, – dedi. – **Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi**... *(T. Malik).*

Yechim: mashqni bajarishda Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning „Hikmatnoma“ asaridan foydalanish zarur. Matnda qo‘llangan maqollarning izohiga e’tibor qaratamiz:

Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin – majoziy ma’noda ozgina boylikka yoki muvaffaqiyatga erishgach, o‘zining avvalgi ayanchli holini unutib, shishinib, bosar-tusarini bilmay qoladigan, boshqalarni mensimay, „oyoq uchi“da ko‘rsatadigan takabbur odamlarga nisbatan achchiq kinoya tarzida qo‘llaniladi.

Ot bosgan joyni toy bosadi – ota-bobolaring g‘ayratli, dovyurak, katta-katta ishlarga qo‘l uradigan, hech narsadan qaytmaydigan, erinmaydigan odamlar edi-ku, nega endi sen unday qilmayapsan?! Erinyapsanmi yo qo‘rqyapsanmi; qo‘rqma ham, erinma ham! Yengil-yelpi ishlar bilan shug‘ullanib, „turmushimni bir amallab o‘tkazsam bo‘ldida, menga nima, jon koyitib?!“ degan fikrni xayolingga ham keltirma, og‘irroq, kattaroq ishlarni ko‘zla, shuning harakatida bo‘l! – degan ma’noda nasihat qiladilar.

Oshalagan qorni to‘ygunicha yeydi, yaloqxo‘r esa ko‘zi to‘ygunicha – ya’ni qorni och odam qorni to‘yguncha yeydi va to‘yadi, yaloqxo‘r, ko‘zi och odam esa ko‘zi to‘yguncha yeydi, qorni to‘ysa ham, ko‘zi hech qachon to‘ymaydi, – degan ma’noda qo‘llaniladi.

Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi – astoydil ayiraman desa, tirnoqni etdan ayirish mumkin, lekin hech kim o‘laqolsa bunday qilmaydi. Chunki tirnoqni etdan ayirgandan ortiq og‘riq dunyoda bo‘lmasa kerak. Maqolda ota-onani bolalardan, bolalarni ota-onadan, tug‘ishganlar va chin do‘st-u qadrdonlarni bir-biridan ayirib bo‘lmasligi, ayirish qiyinligi, ayrilgan taqdirda esa ularning qattiq iztirob chekishlarini majoziy ma’noda ifodalamoq uchun shunday deyilgan.

14.2-mashq. Matnlardagi maqollarni aniqlab, oddiy gaplar bilan almashtiring.

I	Itining tuvagi oltindan bo‘lib ketar edi.	Juda katta manfaat ko‘rar edi.
II	Insofli odam oshini yer, insofsiz – boshini.	Insoflilik yaxshi samara beradi, insofsizlikning esa oqibati yomon bo‘ladi.
III	Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.	Yolg‘on gap baribir bir kun yuzaga chiqadi.
	Ona rozi – Xudo rozi.	Onani rozi qilish dunyodagi eng muhim yumushlardan biridir.
IV	Kimga aza, kimga to‘y?	Hayot adolatsiz: kimgadir yaxshi bo‘lgan narsa kim uchundir yomon bo‘lishi mumkin.
	Shanbada bichma, jumada ko‘chma.	Har narsaning o‘z vaqti soati bor.
	Sichqonning ini ming tanga bo‘lmaydimi menga desa.	Qochgani joy topolmasa, menga nima?!

14.3-mashq. Matnlardagi tegishli gaplarni berilgan maqollarning mosi bilan almashtiring. Fikr mazmunida yuzaga kelgan farqni izohlang.

1. – Yolg‘izligim, yakkaligim kimga xalal beryapti, ena?

– ***Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas,*** bolam, bunday shumshayib o‘tiraverganing bilan ish o‘z-o‘zidan yurishib qolmaydi-ku. Oshna-og‘aynilaring, yor-do‘stlaring bilan kengash, birgalikda harakat qil.

2. Bir o‘rmonda bolta paydo bo‘lib, daraxtlarga qirg‘in keltiribdi. Og‘ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so‘rashibdi. „Bolta deganlaring nima o‘zi? U nimadan ishlangan?“ – deb so‘rabdi Eman. „Bolta – temirdan yasalgan bir matoh“, – deb javob beribdilar. „O‘zi-ku, temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?“ – deb so‘rabdi Eman. „Yo‘q, – debdilar, – dastasi og‘ochdan, o‘zimizdan“. ***O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da’voga,*** – degan ekan Eman.

3. Jolinus hakim bir kimsa donishmand bir zotning yoqasidan tutib, uni haqorat qilayotganini ko‘rdi va shunday dedi:

– ***Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas.***

14.4-mashq. Maqollar juftligini o‘qing. Ularning bir-birini inkor etishi yuzasidan „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling va o‘z mulohazangizni bayon eting.

1. Gap bilan kerilma, ish bilan keril. – Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga.

2. Tekin bo‘lsa, mix yut. – Tekin tomoq tish sindirar.

3. Yomon ko‘rgan kishingga yomon narsangni ber. – Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.

4. Har kim boshiga yog‘gan qorni o‘zi kuraydi. – Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

14.5-mashq. Rasmlar asosida yil fasllari bilan bog‘liq maqollar topib yoziladi.

Yechim:

1. Yoz mevasi – qishga dori.
Yozda g‘amlangan oziq qishga darmondori bo‘lar.
Yozda mevaga to‘ysang, qishda doriga hojat yo‘q.

2. Qishning qori mo‘l rizq-ro‘z keltirar.
Qor yog‘di – don yog‘di.
Qishning qori – bug‘doyning zo‘ri.

14.6-mashq. „Mening taqdimotim“ tanlovi uyushtiriladi.

Yechim: maqollardan ba’zilarining qanday vaziyatlarda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

1. Uzoq bo‘lsa ham, yo‘l yaxshi, yomon bo‘lsa ham, el yaxshi – inson faqat jamiyatda, insonlar orasidagina yuksalib, haqiqiy inson bo‘la oladi. Yaxshimi, yomonmi har bir inson bizga hayotda o‘ziga yarasha dars, tajriba beradi. Inson uchun eng muhimi shu: insonlar orasida bo‘lish. Yoki kengroq ma’noda tushunadigan bo‘lsak, hayotda inson uchun juda muhim bo‘lgan narsadan noligan, shikoyat qilgan insonlarga nisbatan shu maqol qo‘llanadi.

2. Hayronman Shoniyozning ishiga, etik sotib, paytava olib yurishiga – aslida paytava etik kiyish uchun kerak. Etiksiz paytavani olib yurish mantiqsizlik. Hayotda ham biron ishni qilmoqchi bo‘lgan odam shu ishni qilish uchun juda muhim bo‘lgan narsani qo‘yib, ikkinchi darajali narsalarga e’tibor bergan holatda shu maqol qo‘llaniladi.

3. Sulaymon o‘ldi – devlar qutuldi – bu maqol diniy afsonaga asoslangan. Mazkur maqol majoziy ma’noda qo‘llanadi: biror yurt yo oila boshlig‘i o‘z yurti yo oilasini qattiqqo‘llik bilan mahkam ushlab, tinchitib turgan, vaqti soati yetib olamdan o‘tgach, yurt yomonlari yoki noqobil farzandlar o‘z yomonliklarini qila boshlasalar, odamlar ularga qarata: „Ha, Sulaymon o‘lib, devlar qutulibdi-da“, deb qo‘yadilar.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

1. Nutq jarayonida maqollar va hikmatli so‘zlarni qo‘llash qanday ahamiyat kasb etadi? Ular nutq vaziyatini yumshatishga qay darajada xizmat qiladi?

Maqollar va hikmatli so‘zlarni o‘rganib, xotirada saqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay bilish kishining so‘z san’atkori, donishmand bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Mumtoz adabiyotda maqol qo‘llash bilan bog‘liq qanday she’riy san’at yaratiladi? Misollar keltiring.

Mumtoz adabiyotda maqol qo‘llash orqali irsoli masal san’ati yaratiladi. Masalan: Ayog‘ingga tushar har lahza gisu, Masaldurkim, chirog‘ tubi qorong‘u.

3. Berilgan parchani o‘qing. Undagi maqollarning izohini tayyorlang.

Yechim: ushbu matnda qo‘llangan maqollar izohlanadi.

Ro‘zg‘or – g‘or – maqolda oila tebratish oson ish emasligi, kamchiliklari tugamasligi va sabr-matonatli bo‘lish kerakligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Ro‘zg‘or tushdi boshga – qo‘l tegmadi oshga – ushbu maqolda ham ro‘zg‘or tebratishning oson ish emasligini qayd etib, chidamli, bardoshli bo‘lishga da’vat etadilar va bu borada qiynalayotgan odamga tasalli beradilar.

Erta turganga – rizq qo‘sha, erta turmasang, barmog‘ingni osha – xalqimiz qadim-qadimdan saharlab turgan odam rizqqa ega bo‘lishiga ishonadi va ushbu maqol orqali hammani shunga da’vat etadi, erta turmaslik shu kunning rizqini qirqishi haqida ogohlantiradi.

Hovli olma, qo‘shni ol – majoziy ma’noda uy olmoqchi bo‘lgan odam qo‘shnilariga ahamiyat berishi kerakligi uqtiriladi, chunki insonni bir uyda tinib-tinchib yashab ketishida qo‘ni-qo‘shnilarning qanday inson ekanligining ham ahamiyati katta.

Gilam sotsang, qo‘shniga sot – bir chetida o‘zing o‘tirasan – majoziy ma’nosi: biror narsangni sotadigan yoki birovga tekinga beradigan bo‘lsang, notanishga, yetti yot begonaga emas, o‘z tanishlaringga, yaqinlaringga, qo‘ni-qo‘shningga sotganing yo berganing ma’qul. Chunki ular bu narsani har ko‘rganda seni eslaydilar, sendan minnatdor bo‘ladilar, vaqti kelib o‘sha narsangning foydasi o‘zingga ham tegib qoladi.

Qari bilganni pari bilmas – bu maqolda qariyalarning oqil, donoligi, tajribakorligi, mehribonligi, adolat yuzasidan ish ko‘rishi va boshqalar qayd etilib, ularni hurmatlash, aytgan so‘zlariga quloq solib, bergan pand-nasihatlariga amal qilish zarurligi uqtiriladi.

Mustaqil bajarish uchun **14.1 – 14.2-topshiriq**lar uyga vazifa qilib beriladi.

TASVIRIY IFODA – KO‘TARINKI NUTQ VOSITASI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda tasviriy ifoda hamda so‘zning farqli tomonlari, tasviriy ifodaning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyati haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona-Vatanga sadoqatli hamda milliy qadriyatlarimizga e’tiqodli bo‘lish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirishda tasviriy ifodalardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Tasviriy ifoda (parafraza) – narsalar nomining bo‘yoqdor muqobili bo‘lgan birikma. U uslubiy chegaralangan, ko‘proq publitsistikaga xos: 1. *Yoshlarning aql gimnastikasiga qiziqishlari ortib bormoqda.*

2. Oltin qanot qushlar uchsin.

Tasviriy ifoda aniq tushunchani bildirishi bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi bilan farqlanadi.

So‘z ma’nosining kengayishi va ko‘chgan holda qo‘llanishi tilning, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biri. So‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash – lug‘at boyligini ko‘rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta’minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.Tasviriy ifoda ko‘proq ot va sifat turkumiga mansub. Ba’zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo‘llanishi (*zangori ekran, oynayi jahon – televizor*) mumkin. Demak, tasviriy ifodaga omonimlik ham xos.

15.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qiladi va unga sarlavha tanlanadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Sarlavha namunalari:

Halol va harom tushunchasi

Onamning o‘gitlari

Haromdan hazar

Halollik va harom ko‘rinishlari

2. Matn mazmuni uch jumlada bayon etiladi (*yozish, o‘qish*).

Halol va haromni farqlab olish odamning ikki dunyosi uchun ham muhimdir. Jamiyatdagi illatlar: giyohvandlik, ichkilikbozlik, korrupsiya kabilar qanchadan qancha oilalarning buzilishiga sababchi bo‘lmoqda. Jinoyatchilarni oynayi jahon orqali fosh etib, sud hukmiga topshirish davr talabidir.

3. Ajratilgan ifodalar mos so‘zlar bilan almashtiriladi (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Ikki dunyosi – buguni va ertasi; yomonliklar kaliti – ichkilikbozlik; oq ajal – aroq, giyohvand modda; balog‘at ostonasidan o‘tmagan – ulg‘aymagan, voyaga yetmagan; taraqqiyot kushandasi – korrupsiya; payi qirqilmoq – tugatilmoq; jamiyatga tushgan qurtlar – jinoyatchilik; oynayi jahon – televizor; hayot ko‘zgusi – gazeta; adolat qo‘rg‘oni – sud.

15.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan ifodalarga mos so‘zlar qo‘ying.

Yechim: 1. Xotira va qadrlash kuni arafasida Toshkentdagi G‘alaba bog‘ida barpo etilgan „Shon-sharaf muzeyi“da birinchi o‘zbek generali – ***Sobir Rahimov*ning** o‘n tonnalik haykali qad rostladi. 2. Bu kun nafaqat II jahon urushi qatnashchilari, balki ***baynalmilal jangchilar*** – afg‘onchilar holidan ham xabar olindi. 3. Insoniyat tinchligi uchun jonini qurbon qilganlar poyiga kelajak bunyodkorlari – ***yoshlar*** gulchambarlar qo‘yishdi. 4. Davlatimiz sarhadlarida tinim bilmay sergak turgan tinchlik himoyachilari – ***harbiylar*** va kun-u tun halovatimizni ta’minlayotgan osoyishtalik posbonlari – ***ichki ishlar xodimlari*** hamisha hurmat-e’tiborga loyiqdirlar. 5. Yurtimiz tinch ekan, musaffo osmonda tinchlik elchilari – ***kabutarlar*** qanot qoqib uchaveradilar.

15.3-mashq. Adabiy bilimingizga tayanib, berilgan ifodalarga mos izohlarni aniqlang. Ro‘yxatni davom ettirish bo‘yicha musobaqalashing.

1) g‘azal mulkining sultoni – **Alisher Navoiy;**

2) millatni birlikka chorlagan shoir – **Turdi Farog‘iy**;

3) o‘zbek romanchiligi maktabining asoschisi – **Abdulla Qodiriy**;

4) o‘zbek she’riyatida vafo va sadoqat timsoli – **Zulfiya;**

5) qisqa hikoyalar ustasi – **Abdulla Qahhor**;
6) vaqtga haykal qo‘ygan shoir – **G‘afur G‘ulom**;
7) baxt va shodlik kuychisi – **Hamid Olimjon**;
8) erk kuychisi – **Cho‘lpon;**
9) g‘azalga qayta jon bag‘ishlagan shoir – **Erkin Vohidov;**
10) ilohiy ishq kuychisi – **Mashrab**.

15.4-mashq. Ikki guruhga bo‘lining va *„Kim topqir?“* bellashuvini tashkil qilib, jadvalni to‘ldiring.

Yechim:

Bitta predmetga ikki va undan ortiq tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar	**Ikki predmetga bitta tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar**
Maqol – so‘z ko‘rki, otalar so‘zi, fikr qaymog‘i, hikmatli so‘z	*Bahor elchisi – qaldirg‘och, boychechak*
Televizor – zangori ekran, oynayi jahon	*Aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*
Tabiiy gaz – zangori olov, beminnat yordamchi	*Oq ajal – aroq, giyohvand modda*
Sher – hayvonlar shohi, o‘rmon qiroli	*Qora oltin – neft, ko‘mir*

15.5-mashq. Testlarning yechimi:

1**. B.** Fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli, yasharish fasli.

Izoh: tiriklikning bayrami deganda bahor fasli nazarda tutilgan va bahor fasliga nisbatan fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli, yasharish fasli kabi tasviriy ifodalarni qo‘llashimiz mumkin.

2.**C.** Pele, Tayson.

Izoh: Pele – futbol qiroli, Mayk Tayson – „temir musht“li bokschi.

15.6-mashq. Tasviriy ifodalar uchun bir umumiy nom topishga harakat qiling. O‘zingiz yashaydigan hududda shunga o‘xshash joy nomlarini ayting (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Tavsiya: ushbu mashqni ishlashda „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘ladi va bir guruhga yuqoridagiga o‘xshash joy nomlarini topishni, ikkinchi guruhga esa ularni izohlashni topshiradi. O‘rni bilan guruhlarning vazifasi o‘zgaradi. Ikkinchi guruh tasviriy ifodalarni topadi, birinchi guruh esa uni izohlaydi. Izohlash jarayonida turli farqli fikrlar hosil bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi yakuniy xulosani berishi lozim.

INDONEZIYA – „orollardagi Hindiston“
LIVAN – „oq tog‘“
MAROKASH – „uzoq g‘arb“
PEKIN – „shimoliy poytaxt“
YAMAN – „yer cheti“
Manba: geografiya.uz/nomlar so‘zlaganda.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini yaratishda tasviriy ifoda qanday ahamiyatga ega? Odatda, qaysi so‘z turkumlarida ko‘proq tasvirlab ifodalash uchraydi?

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini beradi. Tasviriy ifoda ko‘pincha ot va sifat turkumiga mansub bo‘ladi.

2. „Osmonning ko‘z yoshlari qalbimga tomchilaydi“, gapi misolida tasviriy ifodaning inson ruhiyatiga bog‘liqlik jihatini izohlashga urining.*Osmonning ko‘z yoshlari – yomg‘ir, bu tasviriy ifodada obrazlilik, jozibadorlik kuchli bo‘lib, inson ruhiyatidagi sohir ma’yuslik go‘zal tarzda tasvirlangan.*

3. Tasviriy ifodalar qatori: *yaylov bahodirlari (cho‘ponlar), sportimiz malikalari (gimnastikachilar), asr vabosi (giyohvandlik), oq oltin ijodkorlari (paxtakorlar), charm qo‘lqop ustalari (bokschilar), kumush tola (pilla), zavod „noni“ (temir), yerning yopinchig‘i (osmon), oq chashma (sut), qo‘shiqlar mamlakati (Hindiston), yashil qit’a (Avstraliya), dunyo tomi (Pomir), kumush choyshab (qor), non shahri (Toshkent), baxt qushi (Humo), afsonaviy qush (semurg‘), ko‘kning fonusi (oy)...*

15.1 – 15.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun vazifa sifatida beriladi.

15.1-topshiriq shartiga ko‘ra, berilgan ma’nodosh tasviriy ifodalardan tanlab, matn tuziladi.

15.2-topshiriq. Rasm asosidagi tasviriy ifodalar ro‘yxati:

Hayvonlar (o‘rmon) qiroli; sahro kemasi, oynayi jahon (zangori ekran), po‘lat qush, dala malikasi.

ORTIQCHA QO‘SHIMCHALAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda grammatik qo‘shimchalar va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llashning ahamiyati haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, uning kelajagiga ishonch tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

16.1-mashq. Matnni tinglang. Siz matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz? Ikkinchi tinglashda ortiqcha qo‘shimchalarni aniqlang (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*).

Yechim:

Sarlavha namunalari:

Qalbdagi bo‘rilar

Ezgulik va yovuzlik kurashi

Murosasiz olishuv

Ikki kuchning abadiy jangi

RIVOYAT

Keksa donishmand o‘z nabirasiga shunday hayotiy haqiqatini so‘zlab berdi:

– Har bir inson qalbida ikki kuch doimiy kurashishadi. Bu xuddi ikkita bo‘rining olishuvisiga o‘xshaydi. Bo‘rilarning birisini bejizga yovuzlik timsoli deyilmaydi: unda hasad, xusumat, g‘araz, alam, adovatsizlik, behurmatsizlik, xudbinlik, yolg‘on kabi illatlari mujassam. Ikkinchi bo‘ri esa ezgulik va yaxshilikni timsoli: unda mehr, muhabbat, saxovat, sadoqat, umid va ishonch kabi fazilatlar jamlangan. Har ikkisi o‘zaro murosasiz, betinimsiz olishadi.

Bobosining so‘zlaridan g‘oyat ta’sirlangan nabira biroz o‘ylanib turgach, so‘raydi:

– Oxirisida qaysi bo‘rini yengadi?

Donishmand tabassum bilan shunday javobni berdi:

– Qalbingdagi qaysi bo‘rining ko‘proq parvarishlasang, o‘sha yengib chiqadi.

16.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘ying.

Yechim: Mamlakat ishiga nafi eng ko‘p tegadigan toifa uch xildir: birinchisi bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo‘lsa, ikkinchisi botir, sheryuraklardir. Ular bo‘ri – yovga qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruhni so‘zamol kotiblar tashkil etadi.

Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolarni hal etishda yordamga keladi.

Botirlar qo‘liga qilich tutguday bo‘lsa, yov titroqqa tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishini osonlashtiradi. Undan mashaqqat tugunlari yechiladi. *(Yusuf Xos Hojib)*

16.3-mashq. Har bir qatorni nomlab, undagi ortiqcha qo‘shimcha larni olib tashlang.

Yechim:

1) kelishik qo‘shimchalari: -ga, -ning, -dan, -da, -ni, -ka.

2) ot yasovchi qo‘shimchalar: -paz, -bon, -soz, -chi, -don, -zor, -kash;

3) sifat yasovchi qo‘shimchalar: -li, -(v)iy, -simon, -mand, -siz, no-, -dor;

4) sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar: -ta, -(i)nchi, -tadan, -ala, -ov;

5) fe’lning nisbat qo‘shimchalari: -ar, -giz, -(i)n, -t, -(i)l, -tir;

6) ravish yasovchi qo‘shimchalar: -lab, -larcha, -cha, -ona, -an, -chasiga.

16.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. C. Tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, qaratqich kelishigi.

2. B. Nafsini jilovlagan sulton bo‘lar.

16.5-mashq. Mumtoz she’riyat talabiga ko‘ra jo‘nalish kelishigi shakllarining qo‘llanilishiga e’tibor qiling. Bu shakllarni noto‘g‘ri qo‘llangan deya olasizmi? (*o‘qish, tinglab tushunish, gapirish*)

Izoh: ma’lumki, mumtoz she’riyatda qo‘shimchalarning qo‘llanilishi hozirgidan farq qiladi. Ularni noto‘g‘ri qo‘llangan deya olmaymiz. Qo‘shimchalar she’riy nutq talabi bilan ham noodatiy holatda qo‘llanilishi mumkin.

16.6-mashq. She’rlarni o‘qing. Badiiy asarlarda qo‘shimchalarni qo‘llash bilan sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga diqqat qilib, sababini izohlang (*o‘qish, tinglab gapirish*).

Izoh: ba’zan she’riyatda badiiy uslub talabi bilan qo‘shimchalar qisqarib yoki o‘z o‘rnini o‘zgartirib qo‘llanilishi mumkin. Masalan, qaratqich va tushum kelishiklari qo‘shimchalari badiiy uslubda, xususan, she’riyatda -n shaklida qisqargan holda qo‘llanilishi va matnga ekspressivlik, poetik ohang baxsh etishi mumkin. Yuqoridagi misollarda *olamg‘a, ko‘nglumdin* so‘zlaridagi qo‘shimchalar -ga, -dan qo‘shimchalarining eski tilimizdagi shakllaridir. *Manim* so‘zida -ning qaratqich kelishigi -im shaklida qo‘llangan. *Olibmi ketding, solibmi ketding* so‘zlarida qo‘shimchalar o‘zining odatdagi o‘rnida qo‘llanmagan. Aslida, *olib ketdingmi, solib ketdingmi* shaklida qo‘llanilishi kerak edi. Lekin bu yerda badiiy uslub talabi bilan ularning o‘rni o‘zgargan.

„Blits savol“ metodidan foydalanib, o‘quvchilardan quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi.

1. Ba’zan qo‘shimchalarni takror qo‘llashning o‘ziga xosligi nimada: sizningcha, bu to‘g‘rimi yo noto‘g‘rimi?

Badiiy nutq talabi va ifoda maqsadiga ko‘ra qo‘shimchalar takror qo‘llanishi mumkin.

2. Qo‘shimchalarning tejalishi, asosan, qaysi nutqiy uslubda ko‘proq uchraydi?

Qo‘shimchalarning tejalishi, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslublarda uchraydi.

Yechim: *O‘zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi Muhayyo Usmonovaning amaliyot ishlari uchun tutgan daftari.*

16.1–16.2-topshiriqlar uyga beriladi.

Tahrirlangan matn:

HARBIY POLIGONGA SAYOHAT

„Harbiy poligonda bir kun“ shiori ostida Surxondaryo viloyati Termiz shahri umumta’lim maktablarining bir guruh o‘quvchilari hududda joylashgan dala-o‘quv maydoniga tashrif buyurishdi. Mudofaa vazirligiga qarashli qismda xizmat burchini o‘tayotgan oddiy askarlarning poligondagi bir kunlik faoliyati, o‘tkazilayotgan jangovarlik ruhiyatidagi ma’naviy, axloqan-ruhan tayyorgarlik mashg‘ulotlarini kuzatish, mashqlarda bevosita ishtirok etish uchun kelgan yoshlar dala-o‘quv maydonida iliq kutib olindi. Yoshlardagi ilk harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda harbiylik sohasiga qiziqish uyg‘otish, Vatanning sarhadlarini himoya qilishning naqadar sharafli va mas’uliyatli vazifa ekanligini o‘g‘il-qizlar qalbiga singdirishdek ezgu maqsadlar ko‘zlangan sayohat mazmunli o‘tdi. Harbiy poligondagi birgina kun o‘quvchilarga olam-olam taassurot baxsh etdi. *(„Tong yulduzi“ gazetasidan)*

QO‘SHIMCHALAR TANLOVI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda qo‘shimchalar va ularning turlari, ulardagi variantlilik, omonimlik haqidagi bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning betakror imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni tilimizga hurmat hamda muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda grammatik qo‘shimchalarni ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash va ularni hayoti davomida mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars qo‘shimchalarda variantlilik va omonimlik xususiyatlarini aniqlash hamda izohlashga yo‘naltiriladi.

17.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn bilan tanishiladi. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalarning har ikkisi ham qo‘yilishi o‘rinli ekaniga diqqat qilinadi. Xalqimizga xos milliy an’ana haqida kichik suhbat tashkil qilinadi (*o‘qish, gapirish*).

MEHMONDORCHILIK

Erta turib olganimni ko‘rgan onam hayron. Bugun biznikiga mehmon kelishini kechayoq opam telefonda ammamga **aytayotganida (aytayotganidan)** bilib olganman. Onam qo‘limga savat tutqazdi. Zing‘illab tomorqamiz ortidagi sayhonlikka o‘tdim. Bu **yerga (yerda)** olmazor barpo qilganmiz. Biroz **bog‘ni (bog‘da)** aylandim. Uch yil oldin ekkan olma shoxlari mevasi **ko‘pligiga (ko‘pligidan)** yerga tegay-tegay deydi. Qip-qizil **pishganlarini (pishganlaridan)** saralab, savatni to‘ldirdim-da, uyga qaytdim.

… Ana dasturxon-u, mana dasturxon! Davra ham qizigandan qizidi. Otam ora-sira mulozamat qilib turibdi:

– Qani, **oshni (oshdan)** olinglar, yozilishib-yozilishib o‘tiringlar. Bugun shu yerda qolasizlar, hech qayoqqa ketish yo‘q.

Kelganlardan (kelganlarning) biri gapga ustaroq ekan:

– **Gapingizga (gapingizni)** tushundik, aka, mehmonning kelishi o‘z ixtiyorida, ketishi esa mezbonning ixtiyorida, demoqchisiz-da.

– Ha, yashang! – xursand bo‘ladi otam. – Mana uy, anavi yerda bog‘ bor. Shu yerda **turaverasizlar (turaveringlar).**

– Nasib qilsa, ikki oy ichida maktabning yangi binosini qurib bitiramiz. Bizdan qishloq bolalariga esdalik bo‘lib **qolsin (qoladi)**.

Eshitgan **yangiliklarimni (yangiliklarimdan)** jo‘ralarimga aytmasam bo‘lmaydi. Ko‘chaga otildim. **Sentabrdan (sentabrda)** yangi maktabda o‘qish boshlanadi!

17.2-mashq. „Mehmondorchilik“ matnida qo‘shimcha tanlash natijasida mazmunda o‘zgarish yuz berayotgani yoki mazmunga ta’sir qilmayotgani haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilar o‘rtasida bahs-munozara uyushtirish mumkin. O‘qituvchi munozara uchun quyidagi savollarni o‘rtaga tashlashi mumkin:

1. Bir qo‘shimcha turli ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkinmi?
2. Sinonim qo‘shimchalarni har doim almashtirib qo‘llash o‘rinli bo‘ladimi?
3. Qo‘shimcha tanlash nutq uslubiga bog‘liqmi?
4. Variantdosh qo‘shimchalar bilan ma’nodosh qo‘shimchalar qanday farqlanadi?

17.3-mashqda nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavsdagi mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplar yoziladi (*yozish)*.

1. Tanqidchi adabiyot bog‘ining bog‘bonidir, u butoqlar**ni** qaychilash**da** adashmasligi kerak. 2. Shoir va yozuvchilar**ning** asarlari**da** xalq**ning** yuragi urib turadi. 3. Yaxshi adiblar asarlari orqali inson qalbi ezgulikka to‘y**in**adi. 4. Qalam shun**day** qudrat**li** kuchki, uning haq so‘zini hech kim o‘chira olmaydi. 5. Iste’dodli ijod**kor**, aslida, hayotdan zavq**lan**adi. 6. Yozuvchining asar mazmuniga o‘zi duch kelgan voqealar**ni** ham singdirib yuborishi hayotiy**lik**ni ta’minlaydi.

14.4-mashqda she’riy misralar berilgan.

Yechim:

Shoir topilmalari	**Qo‘shimchaning grammatik xususiyati**	**Izoh**
odam**zor**	o‘rin-joy otini yasaydi	„Huvullagan odamzor“ birikmasi orqali shoir „odamlar o‘sib turgan bog“ da o‘z ruhining yolg‘iz sayrini ifodalagan.
ko‘ngilzor	o‘rin-joy otini yasaydi	Misrada dunyo insoniyat qalbida mavj urib turuvchi tug‘yonlardan iborat ekaniga ishora qilingan.
zamonsoz	sifat va ot yasovchi omonim qo‘shimcha	Bu o‘rinda „zamonsoz yuz“ ifodasi orqali shoir zamonga moslashib oladigan „buqalamun“ kimsalarga nisbat beryapti.
menshunos	shaxs otini yasaydi	Muallif o‘z „men“i – o‘z qobig‘i bilan ovora odamlarni nazarda tutgan.
ko‘ngil-bozlik	faoliyat-jarayon otini yasaydi	Shoir inson ko‘ngli bilan o‘ynashishdek razil illatni „ko‘ngilbozlik“ deb nomlagan.
nag‘makor	ham sifat, ham ot yasovchi omonim qo‘shimcha sanaladi	Bu yerda so‘zning turfa ohang bilan tovlanishi haqida fikr yuritilmoqda.

Qo‘shimcha turi	Xususiyati	Misollar
Variantdosh qo‘shimcha	Bir qo‘shimchaning turli ko‘rinishlari	*yurtga – beshikka – bog‘ga – qayiqqa – dunyog‘a – kima; olamdan – olamdin; kelyapti – kelmoqda – kelayotir*
Ma’nodosh qo‘shimcha	Bir umumiy ma’noga ega	*badavlat – davlatli – davlatmand; kelganiga xursand – kelganidan xursand; eshikdan sig‘madi – eshikka sig‘madi*
Omonim qo‘shimcha	Shakli bir xil, ma’nosi turlicha	*ishsiz odam – suvni ichasiz – to‘xtovsiz yugurmoq; to‘lqin kuchi – sotqin kishi – bolani boqqin; o‘qqa uchmoq – qisqa gap – kirni chayqa(moq)*

17.5-mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. A. O‘z vaqtida yetib kelganing(-ga, -dan) xursand bo‘ldim.

Izoh: bu gapda qo‘shimchalar ma’nodoshligi mavjud; *yetib kelganiga* va *yetib kelganidan* so‘zlarining har ikkalasiga *nima sababdan*? degan so‘roqni bera olamiz. Har ikkala qo‘shimcha sabab ma’nosini ifodalashga xizmat qilmoqda.

2. B. Malol kelmasa agar, eshikni narigi tomonidan yopsalar. *(Said Ahmad)*

Izoh: shart mayli *-sa* qo‘shimchasi („yopsalar“) qo‘shimchasi buyruq ma’nosi bilan birga kinoyani ham ifodalamoqda.

17.6-mashq. Gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi „noodatiy“ qo‘shimchalarni aniqlab, qo‘llanish sababi tushuntiriladi (*o‘qish, gapirish*).

1. Bu gapning oxiriga **so‘rov** belgisini qo‘y. 2. She’r shunday sho‘xshanlansin, bo‘lolmasin o‘xshashi, Fikr kunday ravshanlansin, **qoralmasin** quyoshi. *(G‘. G‘ulom)* 3. Do‘rmanchaga ketdim o‘tib, Yoqamni har soat tutib, Yotdim ul oqshom g‘am yutib, Dashti **qaroqchizor** ekan. *(Muqimiy)* 4. Har ko‘cha obod, hamon men turfa vayron ko‘chamen, Yozda **changiston-u** qishda **balchig‘iston** ko‘chamen. *(E. Vohidov)* 5. Ne baxt, **Quyoshiston** ta’rifli diyor Nurli peshanamga bo‘libdi nasib. *(E. Vohidov)* 6. **Manim** peshanamga nelar yozilgan. Saltanatning taqdiri na bo‘lur, qay birini bilasiz? *(Odil Yoqubov)*

Izoh: ushbu gaplarda qo‘llangan noodatiy qo‘shimchalar badiiy uslubda obrazlilikni ta’minlashga xizmat qilgan.

„Tezkor savol-javob“ metodidan foydalanib o‘quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi.

1. *Labing qirg‘og‘idan oqqan zaharni Ko‘z yummayin* ***ichgum****, beshubha. (Shekspir) –* ***Ichgim*** *keldi zilol suvingdan. (M. Yusuf)*

Izoh: birinchi gapda – *ichaman* ma’nosida (I shaxs birlik, fe’lning kelasi zamon shakli); ikkinchi gapda – harakat nomi (I shaxs birlik, egalik shakli).

3. *Valijon – ilon yog‘ini yalagan yigit. – Valijon – ilonning yog‘ini yalagan yigit.*

Izoh: *ilon* so‘zi qaratqich kelishigi shaklida qo‘llansa, ibora (ilonning yog‘ini yalagan – ayyor) hosil bo‘ladi.

17.1 – 17.2-topshiriqlar uyda bajarish uchun beriladi.

Tahrirlangan matn

Nuriddin Yanisning bu gaplarini fahm etmadi, tushunmaganini yashirmay so‘radi:

– Odamlar bo‘riga o‘xshasa, deysizmi?

– Ha, bo‘riga o‘xshasa... Bo‘rilar odamlar kabi bir-birlarini g‘ajimaydilar. Ular ahil-totuv yashaydilar. Ular ozodlikni hech nimaga alishmaydilar. Bunday ahillik, bunday mag‘rurlik boshqa hech bir jonzotda yo‘q. Sen sirkda bo‘rini o‘ynatganlarini hech ko‘rganmisan? Ha, ko‘rmagansan. Fildan tortib to ilonga qadar bir luqma ovqat uchun insonlarga masxara bo‘ladi. Faqatgina bo‘ri bo‘ysunmaydi. Sen turkiylardansan. Ajdodlaring e’tiqod qilgan ramz nima bo‘lganini bilasanmi? Qurt, ya’ni bo‘ri. Turkiylar bayrog‘ida bo‘ri tasviri bo‘lgan, deb eshitganman. Turkiylar qadimda shunday erksevar bo‘lgan ekanlar. E, u zamonlar o‘tib ketdi. – Yanis shunday deb xo‘rsindi… *(T. Malik)*

Xulosa: turkiylar erksevar xalq bo‘lganlar, bugungi avlod ham o‘z ajdodlariga munosib voris bo‘lishlari kerak.

NUTQDA SHAKL VA MAZMUN MOSLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqda shakl va mazmun mosligiga doir yangi bilim berish hamda matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda mantiqan to‘g‘ri fikr yuritish va so‘zlash malakasini shakllantirish.

Darsning tashkiliy qismi o‘tkazilgandan keyin uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida nutqda shakl va mazmun mosligiga doir nazariy va amaliy bilim beriladi.

18.1-mashq. Matnni o‘qing. Gaplarni mazmuniga mos holda qavs ichida berilgan so‘zlardan mosi bilan to‘ldiring.

Yechim: Mustahkam do‘stlik **munosabatlari** – hayotda baxt va shodlikka erishishning ishonchli vositalaridan biri.

Yaqinda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, do‘st va qarindosh-urug‘i mo‘l odam ko‘proq **kularkan,** kamroq **xavotirga tusharkan** va natijada uzoq umr ko‘rarkan.

Bolaligimda otam: „Uchta yaqin do‘sti bor odam – haqiqiy badavlat odam“, – deya tez-tez takrorlab turardi. Men bu **naqshinkor fikrni** hech qachon yodimdan chiqarmayman, sizga ham unga jiddiy munosabatda bo‘lishni **tavsiya qilaman**. Ba’zan mustahkam do‘stlik aloqalarini o‘rnatish uchun qulay muhit-sharoitni tark etishga, o‘zingiz unchalik yaqindan bilmagan kishilar bilan **azoblanishga** va samimiy munosabat o‘rnatishga to‘g‘ri keladi. Agar do‘stlik **urug‘ini** eksangiz, albatta, ajoyib do‘stlar timsolida **mo‘l-ko‘l** hosil yig‘ib olasiz.

Davralarda o‘zingiz tanishishni istagan odamning yoniga boring, o‘zingizni tanishtiring. Har qanday inson zotida mehrga, samimiyatga ehtiyoj bor, shu sababli ko‘pchilik sizning tashabbusingizdan **mamnun bo‘ladi**. Agar tanishishni istamagan taqdirda ham nima bo‘libdi? Menga ro‘yxushlik bermadi, deb **siqilmang**. Bu odam nimani yo‘qotganini o‘ylab ko‘ring-da, mulozamat bilan keyingi suhbatdoshga o‘ting. (*Robin Sharma*)

18.2-mashq. Gaplarni ixchamlashtiring. She’riy parchalarni sodda gaplarga aylantirib yozing (*o‘qish, yozish*).

Dushmaning bilan o‘tirgan odamdan uzoq bo‘l.

Ey do‘stim, sensiz bu jahon menga qayg‘uli, shodligim ham tatimaydi.

O‘ziga ravo ko‘rmaganni yori (do‘sti)ga ham ravo ko‘rmagan inson haqiqiy yor (do‘st)dir.

Do‘st bilan vayrona uying ham oboddir.

Do‘sti ko‘pning qaddi bukilmaydi, mard odam mol-u jondan kechsa ham, do‘stidan kechmaydi.

Ayrim sotqin do‘stlardan ko‘ra baland daraxtlar azizroq, qadrliroqdir.

18.3-mashq. Sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring.

– Do‘st deganda shunday odamni bilginki, u senga go‘yo oyna bo‘lsin.

– Agar sendan birov yuz o‘girsa, sen ham uni unut.

– Haqiqiy do‘stdan yaxshi shifokor yo‘q, chunki u qalb jarohatlarini davolaydi.

– Haqiqiy do‘st shunday odamki, u sening yutuqlaringdan quvonadi.

– Kimning sodiq do‘stlari bor bo‘lsa, u inson chinakam baxtlidir.

– Haqiqiy do‘st bo‘lsang, yaxshilikni u senga muhtoj bo‘lmasidan qil.

Fikrni ixcham ifodalash – madaniy nutq belgisi. Shuning uchun ilmiy matndagi so‘zlar, gaplar miqdorining yuqori chegarasi belgilab beriladi, quyi chegara ko‘rsatilmaydi. Fikrni uzun yoki ko‘p jumlalar bilan ifodalash, ko‘pincha, ijobiy qabul qilinmaydi. Shuning uchun gaplarni ixchamlashtirish, matn mazmunini qisqa ifodalash madaniy nutq mezonlaridan hisoblanadi.

Boshlab qo‘yilgan, uzilib qolgan jumlani mantiqan va usluban to‘g‘ri davom ettirish ham so‘zlovchining mahorati hisoblanadi.

18.4-mashq. Gaplardagi g‘alizliklarni bartaraf qiling.

Namuna: Aqli ko‘pni dov olmas, do‘sti ko‘pni yov olmas.

Yechim:

1. Aqli ko‘pni dov olmas, do‘sti ko‘pni **yov** olmas.
2. Do‘stlik do‘sti uchun **o‘z manfaatlaridan voz kechish**, fidokor bo‘lish hamda xudbinlik illatidan ozod bo‘lishdir.
3. **Yot** oshingga qaraydi, do‘st – boshingga.
4. Kimlarningdir kulgisi va rohatini deb do‘stingizni mazax qilish **xayolingizga kelmasin,** chunki bu do‘stingizga juda og‘ir botadi.
5. Dushmaningdan yashirganingni do‘stingga aytma, zero, do‘stlikning **abadiyligiga** kafillik yo‘q.
6. Do‘stlik ishonchsizlik boshlangan joyda o‘z **intihosiga** yetadi.

18.5-mashq. Gaplarni musobaqa tarzida davom ettiring.

1. Chinakam do‘st aytgan har bir o‘git sirti zahar bo‘lsa-da, **ichi asaldir**.
2. Dushmaningga ham shunday samimiy munosabatda bo‘lginki, **u ham do‘stingga aylansin.**
3. Kimki farovon kuningda do‘stlikni da’vo qilsa, **u haqiqiy do‘st emas.**
4. Boringni bir yo‘la sochma do‘stga ham, **u ham bir kuni dushmanga aylanishi mumkin.**
5. Xiyonatkor do‘st – qo‘yningdagi ilon, **sodiq do‘st – belingdagi xanjar.**
6. Do‘stlar bilan suhbatlashayotganda ham hushyor bo‘l, **ularning ham o‘z do‘stlari bor.**

18.6-mashq. Gaplarni ixchamlashtiring.

Haqiqiy do‘st tubsizlikka tushib ketishingga yo‘l qo‘ymaydigan insondir.

Hiyla ishlatadigan g‘addor do‘st dushmandan yomon.

Ota-onasiz o‘zini g‘arib sezgan, dili kemtik kishining qarindosh-urug‘lar qatoridagi mehribon odami bu do‘stdir.

Dushmanlarim otgan toshdan emas, do‘stlarim otgan guldan boshim yorildi.

Ko‘zlarim uchun do‘stlarim manzarasidan-da mahbubroq, quloqlarim uchun do‘stlarim haqidagi xushxabardan-da yaxshiroq musiqa yo‘q.

Agar dushman orasida nizo, jang bo‘lsa, xotirjam bo‘l, yovlarning tili bir bo‘lganda esa, hushyor bo‘l.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida umumlashtiriladi.

1. Matn mazmunini qisqa ifodalashda gaplarni ixchamlashtirishning qanday yo‘llari bor?

Ortiqcha cho‘zib yuborilgan, g‘aliz jumlalarni qisqartirish, keraksiz tafsilotlarni matndan chiqarish, so‘z birikmalarining gap mazmuniga mos keladigan ixcham va mazmundorini tanlay bilish katta ahamiyatga ega. Nutqiy ifodalarni ixchamlashtirish yuzasidan matnga kiritiladigan tuzatishlarini ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) tasvir doirasidagi tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlashtirish;

2) tafsilotlarni saqlagan holda matnni ixchamlashtirish.

Tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlash – ikkinchi darajali qisqartirish hisoblanib, matnning umumiy mazmuniga ortiqcha ta’sir qilmaydigan narsa – hodisalar talqinining matndan chiqarib tashlanishidir.

2. *Har qanday inson zotida qahrga, samimiyatga ehtiyoj bor* gapidagi ortiqcha so‘z olib tashlansa, fikr mazmuni qanday o‘zgaradi?

Qahrga so‘zi olib tashlansa, insonning faqat ezgulikka talpinib yashashi haqidagi ma’no anglashiladi.

3. Berilgan nasriy bayondagi fikrni she’riy jumlaga aylantirishga harakat qiling. *Do‘stlik shunday bir daraxtki, urug‘i vafo, shoxlari umid, yaproqlari saodatdir. Do‘stlik bir shahardirki, kaliti ishonch, aholisi vafodorlardir. Do‘stlikni o‘z hayotingizdan haydab solish – zaminni quyoshsiz qoldirish bilan barobar.*

Namuna: Do‘stlik go‘yo daraxt, urug‘i – vafo,
Shoxlari umiddir, yaproq - saodat.
Do‘stlik shahar bo‘lsa, kaliti - ishonch,

Vafodor ahliga yashash – farog‘at.
Aslo haydab solmang do‘stlik ne’matin,
Quyoshsiz zaminni tutmasin zulmat.

18.1- va 18.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi.

Yechim:

Parchaning janrini masal deb nomlash mumkin. Muallif insoniy hamdardlik, mehr-oqibat, sadoqat tuyg‘usi haqida fikr yuritgan.

Bahor chog‘i gulga burkanganimda boshim ustida bolarilar g‘ujg‘on o‘ynab, alyor aytdi.

Yoz pallasi yaproqlarim zumraddek tovlanganda qushlar shoxlarimda panoh topib, oshyon qurdi.

Saraton oftobi olamni yondirganda yo‘lovchilar soyamdan bahramand bo‘lib, jon saqladi.

Kuz kelib, mevalarim g‘arq pishganda odamlar uzib, to‘yguncha tanovul qildilar.

Nogahon bir nomard tanamga bolta urgan edi, sendan boshqa hamma har yoqqa qochdi-ketdi!

TINISH BELGILARINI TO‘G‘RI QO‘LLASH

Ta’limiy maqsad: tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashga doir yangi bilim berish hamda matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy an’ana va urf-odatlarimizni qadrlash hissini kuchaytirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash orqali to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash va shu asosda talaffuz me’yorlarini o‘zlashtirish malakasi shakllantiriladi.

19.1-mashq. „O‘rdak emas, burgut bo‘ling“ matni o‘qiladi. Unda ishlatilgan tinish belgilarining qo‘yilish sabablariga diqqat qilinadi (*o‘qib tushunish va gapirish*).

19.2-mashq. Tinish belgilarini qo‘yib parchani ko‘chiring. Masallardan xulosa chiqarib, uni qisqa sarlavha shaklida yozing (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Yechim:

Har narsada hikmat bor

1. Yo‘l yoqasida bir gadoy tilanchilik qilib turar edi. Bir otliq odam

yonidan o‘tib ketayotib, qamchisi bilan uni bir urdi va yo‘lida davom etdi. Gadoy uning orqasidan qarab:

– Baxtli bo‘l, – dedi. Buni ko‘rib turgan bir yo‘lovchi:

– U seni ursa-yu, sen unga baxt tilasang, bu qanaqasi? – deb so‘radi.

Shunda tilanchi:

– Agar u baxtli bo‘lsa, meni urmas edi, – deb javob berdi.

Hayot tajribasi

2. Katta Mushuk dumi bilan o‘ynayotgan mitti Mushukchadan so‘radi:

– Nega dumingni quvlayapsan?

Mushuk javob berdi:

– Bir mushuk uchun eng asosiy narsa baxt ekanligini, baxt esa dumimdaligini bildim. Dumimni tutganimda, albatta, baxtga erishaman.

Shunda katta Mushuk:

– Yoshligimda men ham dumimni baxt deb bilardim, keyinchalik shuni anglab yetdimki, uni quvlasam, mendan uzoqlashadi, aksincha, qachon o‘z ishim bilan xotirjam ovora bo‘lib yursam, doimo izimdan ergashadi, – dedi mitti Mushukchaga.

19.3-mashq. Tinish belgilari qo‘llanishidagi xatoliklarni aniqlang.

L.N.Tolstoy mulohazalari asosida o‘zingizning baxt to‘g‘risidagi tasavvuringizni bir jumlada bayon qiling.

1. Odamning eng baxtli chog‘i – boshqalarga yaxshilik qilgan onlari.

2. Og‘ir baxtsizliklar uzoq cho‘zilmaydi, maydalari esa e’tibor berishga arzimaydi.

3. Hayotda faqat birgina chinakam baxt bor, u ham bo‘lsa, boshqalar uchun yashamoqlikdir.

4. Haqiqiy baxt daryoga o‘xshaydi: qanchalik chuqur bo‘lsa, shunchalik shovqinsiz oqadi.

5. Agar baxtli yashashni istasangiz, baxtni maqsadga bog‘lang, odamlar yoki narsalarga emas.

6. Baxtli oilalar bir-biriga juda o‘xshaydi, ammo baxtsiz oilalarning har biri o‘zicha baxtsiz.

Namunalar:

Baxt – hayotda borligim, yashash zavqini tuyayotganim.

Baxt – yaqinlarimga kerakligim, hayotda o‘z o‘rnimga ega ekanligim.

Tinish belgilari yozma nutqda gap mazmunidan kelib chiqqan holda qo‘llanadi. Ularni qo‘llash gap mazmuni va qurilishiga ta’sir qiladi. Tinish belgilari gap mazmuni aniqligining shartidir.

19.4-mashq. Tasviriy matndagi tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ifodali o‘qiladi. Insonning umr fasllari haqida mulohaza yuritiladi.

Tong.
Quyoshli ufq.
Maysazor.
Maysazorda kunning go‘dakligi
Emaklaydi qiyqirib.
Yuragida umid g‘unchasi,
Yuzlarida quvonch chechagi,
Ko‘zlarida omad shu’lasi.
Tush.
Maysazor.
Maysazorda o‘spirin kun
Halloslaydi sher misol.
Yuragida shiddat to‘foni,
Yuzlarida hayrat gulxani,
Ko‘zlarida g‘ayrat chaqmog‘i.
Shom.
Maysazor.
Maysazorda sukunat sayri.
Keksaygan kun
Yonboshlaydi qirga hansirab.
Yuragida xayol to‘lqini,
Yuzlarida hasrat uchquni,
Ko‘zlarida armon buluti. (*N. Norqul*)

Izoh: inson umrini yil fasllariga qiyoslash uning tabiat bilan mushtarakligidan dalolatdir. Bahor – yoshlik, yoz – yetuklik, kuz – keksalik, qish – umr poyoni, deya ta’riflanadi.

19.5-mashq. Testlarning yechimi:

1. **D**. Ikki nuqta, qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta.

„Urush va tinchlik“ romanining bir joyi bor: „Biz birovlarni bizga qilgan yaxshiligiga qarab emas, o‘zimizning ularga qilgan yaxshiliklarimizga qarab yaxshi ko‘ramiz“, deyilgan. (T.Sodiqova)

2. B. „Baxt“ o‘zi nimadir, anglay olmadim.

19.6-mashq. Gap juftliklaridagi tinish belgilarini qo‘llash bilan bog‘liq mazmuniy o‘zgarishlar aniqlanadi.

1. Baxtli-taxtli bo‘lgin, onang kabi baxtsiz bo‘lma. – Baxtli-taxtli bo‘lgin onang kabi, baxtsiz bo‘lma.

Onang kabi baxtsiz bo‘lma. – Onang kabi baxtli-taxtli bo‘l.

2. Hoy ahmoq, o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali? – Hoy, ahmoq o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali?

Ahmoq – undalma vazifasida kelgan. **– Ahmoq** (sifatlovchi) **o‘g‘il.**

3. Yigit boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas. – Yigit, boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas.

Yigit (sifatlovchi) **boshingdan. – Yigit –** undalma**.**

4. Erta tong. Yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar. – Erta tong yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar.

Erta tong – atov gap. **– Erta tong(da)** hol vazifasida kelgan**.**

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

1. Qaysi tinish belgilari qo‘shaloq holda ishlatiladi?

Qo‘shtirnoq („“), ikki nuqta (:), ba’zan undov belgisi (!!).

2. Nashriyot ishlarida qisqartirilgan so‘zlar qanday tinish belgilari bilan qo‘llanadi?

Nuqta (.) qo‘yiladi: A.Oripov, A.Qod., h.k., shu k.

3. Inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘rinlarda qanday tinish belgilarini ishlatasiz?

Ko‘p nuqta (…), undov belgisi (!).

19.1 – 19.2-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: matnda shakl va mazmun mosligiga doir bilimlarni matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ziyraklik, o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda matn turlarini farqlash, asosiy fikrlarni ilg‘ay olish, xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida matn turlarini farqlay bilish, asosiy fikrlarni ilg‘ay olish, to‘g‘ri baholash va xulosalash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

20.1-mashq. Matnga qo‘yiladigan talablar bilan tanishiladi.

1. Mos sarlavha qo‘yish.
2. Matndagi asosiy fikr(lar)ni anglab olish.
3. Matn turi va unga xos belgilarni aniqlash.
4. Matn ijodkorining mahoratini belgilash.
5. Matnning til xususiyatlarini aniqlash: muallifning so‘z tanlay olish mahoratini baholash va lug‘at bilan ishlash.
6. Fikr mazmunini bir jumlada xulosa sifatida ifodalash.

20.2-mashq. Matn turlari va ularning tahlili bayon etilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqiladi va mulohaza yuritiladi *(gapirish)*.

20.3-mashq. Berilgan matnning tahlilini tayyorlang. Uning asosiy g‘oyasi haqida fikringizni bildiring.

XXI asrda muvaffaqiyat qozonish uchun qanday ko‘nikmalar ustida ishlash kerakligini bilasizmi? „Men doimo uddalash qiyin bo‘lgan ishni qilaman. Shundagina men uni qanday bajarish mumkinligini bilib olaman“,– deb yozgan edi Pablo Pikasso. Ishda yuksalish, baxtiyor yashash va muvaffaqiyatga erishishda quyidagi ko‘nikma va qobiliyatlarning o‘rni yuqori: - kreativlik, ijodkorlik, ijodiy yondashuv; - tanqidiy fikrlash; - murakkab muammolarni hal qilishga ko‘p yechimli yondashuv; - odamlarni boshqarish ko‘nikmasi (menejment); - hissiy aql-zakovat (intellekt); - muzokara olib borish qobiliyati; - odamlar bilan o‘zaro samimiy muloqot (kommunikativlik). Maktab partasidanoq ushbu ko‘nikmalarni egallashga va o‘rganishga urinish yorqin kelajagingiz garovi bo‘lishi mumkin. (*Internet ma’lumotlaridan)*	***Sarlavha:*** „Yorqin hayot garovi“. ***Asosiy fikr:*** shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonishga intilish uchun motivatsiya berish. ***Matn turi:*** muhokama. ***Ijodkor mahorati:*** hayot pillapoyalaridan mustaqil va mustahkam ko‘tarilish uchun zarur ko‘nikmalarni tavsiya qilish. ***Matnning tili:*** kreativlik, ko‘p yechimli yondashuv, intellekt, muzokara olib borish qobiliyati, kommunikativlik. ***Xulosa:*** „Hayotga maktab partasidan tayyorlan!“

20.4-mashq. Matnlar tahlili:

I. Sarlavha: „Aftoda daraxt“.

Asosiy fikr: izg‘irinda qolgan daraxt ahvolini aks ettirish.

Matn turi: tasviriy matn.

Ijodkor mahorati: tabiat tasviri orqali inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish.

Matnning tili: shams – quyosh, qavs – burj nomi, aftoda – xafahol, g‘amgin.

Xulosa: „Adirda aftoda yashar bir daraxt“.

II. Sarlavha: „Piyola va ishq“.

Asosiy fikr: insonga hayot bir bora beriladi, ikkinchi imkoniyatga esa barcha haqli.

Matn turi: hikoya matni.

Ijodkor mahorati: mavlono Rumiyning go‘zal lutfi hayotsevarlikka undaydi.

Matnning tili: nimtabassum – yarim tabassum, jilmayish;
tark qilmoq – voz kechmoq.

Xulosa: „Hayot davom etadi, to‘xtab qolmaydi“.

20.5-mashqni bajarish tartibi:

1) matn o‘qiladi va turi aniqlanadi (*o‘qish, gapirish*);

2) unga sarlavha topiladi (*yozish*).

Sarlavha: „Umid“.

Asosiy fikr: umid hech qachon insonga xiyonat qilmaydi, undan ajralmaydi. Hamma undan manfaatdor.

Matn turi: hikoya matni.

Ijodkor mahorati: rivoyat orqali qahramonning aql darajasi, hayot tarziga ishora qiladi.

Xulosa: „Umid doimo hamrohingiz bo‘lsin“.

20.6-mashq. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linib, har bir guruh quyida berilgan so‘zlardan foydalanib, matn yaratsin.

1-guruh: hikoya matni.

2-guruh: tasviriy matn.

3-guruh: muhokama matni.

Tavsiya etiladigan so‘zlar: mehr-oqibat, jonsarak, himmat, momaqaldiroq, to‘la-to‘kis, obod, mushtarak, avaylamoq, fidokor, jasorat, qadr-qimmat, yetakchi, olqishlamoq.

20.1- va 20.2-topshiriqlar uyga beriladi. Dars yakunlanadi.

Yechim:

Matn tahlili:

1. **Sarlavha:** „Shaxsiy kundalik“.

2. Asosiy fikr(lar): shaxsiy kundalik yuritishning foydaliligi yuzasidan mushohada yuritish; kundalik inson tasavvurini boyitishga yordam beradi, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

3. Matn turi: muhokama matni.

4. Ijodkor mahorati: kundalik yuritishning foydali jihatlarini qiziqarli bayon qilgan.

5. Matnning tili (lug‘at bilan ishlash): *peshlaydigan* – tartibga soladigan.

6. Xulosa: „Hayotingiz o‘ylashga arziydimi, demak, yozish kerak“.

MUSTAHKAMLASH DARSI

Ta’limiy maqsad: shakl va mazmun mosligiga doir tushunchalarni matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: ilm egallash, bu yo‘lda sabr va iroda kuchini tarbiyalash tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda o‘z dunyoqarashini kengaytirish va mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars yuzasidan berilgan barcha materiallar „Nobel mukofoti“ mavzusiga oid bo‘lganligi uchun ushbu darsni „Konferensiya“ usulida o‘tish tavsiya etiladi. Buning uchun darslikdagi mashqlar, topshiriqlar va savollar oldindan o‘quvchilarga taqsimlanadi hamda ularning o‘zlari ham ma’lumotlarni qo‘shimcha boyitishlari talab qilinadi.

1-topshiriq. Matnning audio shakli tinglanadi (*tinglab tushunish*).

2-topshiriq. Dars davomida quyidagi savollarga javob topish vazifasi oldindan beriladi::

1. Olim o‘z mukofoti qaysi fan vakillariga berilmasligini vasiyat qilgan?

Olimning vasiyatiga ko‘ra, Nobel mukofoti matematiklarga taqdim etilmaydi. Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Leffler qirol Oskar II ga murojaat qilib, matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis ettirgan va Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan. Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblagan hamda o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.

2. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan mashhur insonlardan kimlarni bilasiz?

Aziz Sanjar – biokimyo va biofizika professori (AQSH)
Aleksandr Isayevich Soljenitsin – rus yozuvchisi
Romen Rolland – fransuz yozuvchisi, musiqashunos, jamoat arbobi
Pablo Neruda – chililik shoir, diplomat
Najib Mahfuz – arab yozuvchisi (Misr)
Pasternak Boris Leonidovich – rus shoiri

3-topshiriq. Quyidagi izohlardan matnda ajratilgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini aniqlab, imlosini yodda tuting.

1) **fond** – davlat, muassasa va shu kabilarning muayyan maqsad uchun ajratilgan puli, mablag‘i, moddiy boyliklari; jamg‘arma; qat’iy, barqaror daromad keltiruvchi qimmatbaho qog‘ozlar;

2) **an’ana** – hayotda qaror topgan, topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar;

3) **bank** – kredit-moliya muassasasi;

4) **akademiya** – ilm-fan yoki san’atni rivojlantirishga hissa qo‘shgan malakali olimlariga ega bo‘lgan oliy ilmiy muassasa;

5) **nominatsiya** – ijodkorlik, ish-faoliyat sohasi bo‘yicha musobaqa-tanlovlarga nomzodlar ko‘rsatish va g‘olibni aniqlash jarayoni.

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Noto‘g‘ri qo‘llangan qo‘shimchalarni topib, tahrir qiling va ko‘chiring (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: Dunyoning g‘aroyib mukofotlaridan biri Shnobel (Ignobel) mukofoti bo‘lib, u nufuzli Nobel mukofotining teskarisi sanaladi. Bu mukofot 1991-yilda ta’sis qilingan va shubhalili, hayotda qo‘llanilmaydigan ilmiy kashfiyotlar uchun beriladi.

Qizig‘i shundaki, g‘olibga nominantlarning soxta va kulgili ilmiy yutuqlari mohiyati aks etgan haykalcha hamda allaqachon muomaladan chiqarilgan 10 trillion Zimbabve dollari topshiriladi. (*Internet ma’lumotlaridan*)

5-topshiriq. Testlarning yechimi:

1. C. Nobel o‘z mol-mulkini o‘limidan so‘ng fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga mukofot tariqasida berishni vasiyat qilgan edi.

2. D. Alfred Nobelning Beatrisa Chenchi haqida „Nemeziada“ nomli 4 aktdan iborat she’riy pyesa yozgani ma’lum.

6-topshiriq. Matndagi qo‘shma gaplarni aniqlab, sodda gaplarga aylantiring. Tinish belgilarining qo‘yilishi sababini izohlang.

Yechim:

Qo‘shma gap	Sodda gap shakli
Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Leffler qirol Oskar II ga murojaat qilib, matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis ettirgan va Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan.	Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Lefflerning qirol Oskar II ga murojaati asosida matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis etilgani Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan.

Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblagan hamda o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.	Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblab, o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida umumlashtiriladi.

1-vazifa yechimi: dinamit ixtirosi tufayli boyib ketgan, aslida, tinchliksevar bo‘lgan Alfred Nobel mablag‘ini beshta soha vakillari kashfiyotiga bag‘ishladi. Uning maqsadi, asosan, „amaliy“ foyda keltirgan olimlarni rag‘batlantirish bo‘lgan. Nobel mukofoti fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga beriladi.1968-yilda Shvetsiya davlat banki o‘zining 300 yilligi munosabati bilan iqtisod fanlari sohasidagi yutuqlar uchun beriladigan qo‘shimcha Nobel mukofotini ta’sis etgan.

1888-yilda Alfredning ukasi Lyudvig Kannda vafot etadi. Bir fransuz gazetasi yanglishib ixtirochiga bag‘ishlab, „Le marchand de la mort est mort“ – „O‘lim savdogari o‘ldi“ sarlavhasi ostida ta’ziya e’lon qiladi. Nobel chuqur hayratda qoladi, chunki u halokatli portlovchi moddaning ixtirochisi sifatida insoniyat xotirasida qolishni istamasdi. Ko‘pchilik Nobel aynan shuning uchun ham butun mol-davlatini ilm-fanga vasiyat qilib yuborgan deyishadi, ya’ni u o‘limidan keyin o‘zini reabilitatsiya qilinishini va ismi o‘lim keltiradigan portlovchi modda ixtirochisi sifatida emas, balki nufuzli ilmiy mukofot ta’sischisi sifatida yodga olishlarini istagan.

2-vazifa yechimi: Gabriel Garsia Markes, Ernest Xeminguey, Robindranat Tagorlar adabiyot sohasida Nobel mukofotiga erishgan buyuk yozuvchilardir.

ISH QOG‘OZLARI BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: matn va topshiriqlar asosida ish qog‘ozlarini yuritishga doir tushunchalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: savodxonlik insonni yuksaltiruvchi omillardan biri ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda ish qog‘ozlari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Darsning tashkiliy qismi o‘tkazilgandan keyin uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida ish qog‘ozlarini yuritishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi.

21.1 – 21.2-mashq. Bayonnoma matni bilan tanishib chiqiladi. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qilinadi (*o‘qish va gapirish, yozish*).

21.3 – 21.4-mashq. Bayonnomadan ko‘chirma matni bilan tanishiladi. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

21.5-mashq. Berilgan shaxsiy va rasmiy xat namunalari bilan tanishiladi (*o‘qish*). Ularning o‘xshash va farqli tomonlari VENN diagrammasida ifodalanadi (*gapirish, yozish*).

Izoh: shaxsiy xatlar kishilarning shaxsiy hayotiga tegishli bo‘lib, uning qolipi majburiy emas. Rasmiy xatlar esa idoralararo, davlatlararo munosabatlar uchun xos bo‘lgan yozma hujjat sanaladi.

21.6-mashq. Mashqning izohi.

Tavsiyanoma yuridik yoki jismoniy shaxslarga beriladi. Uning maqsadi shaxsga ishonch bildirib, uni biror lavozim-mansabga, tegishli ish joyiga yoki o‘qishga tavsiya qilishdan iborat.

Tavsiyanomaning tuzilishi:

Tavsiyanoma muallifining ma’lumotlari.

Asosiy matn (tavsif).

Sana, imzo, ism-sharif.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar bajariladi.

1. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo‘ladi?

2. Elektron hujjatlar „Maykrosoft!“ („Microsoft“)ning qaysi dasturlarida tayyorlanadi?

World Wide Web xizmati (WWW) hamda **Elektron pochta (E-mail)** kabi dasturlardan foydalaniladi. **WWW** xizmatini, odatda, Internet bilan tenglashtiradilar. Aslida, WWW xizmati – bu Internetning ko‘p tarmoqli xizmatlaridan biridir.

Elektron pochta (E-mail). Bu xizmat turi ham dastlabki elektron xizmatlardan hisoblanadi. Internetda uni ta’minlash uchun maxsus pochtali serverlar ishlatiladi. Internetda bitta kompyuter bir nechta server va har xil xizmatlar vazifasini bajarishi mumkin.

3. Berilgan ish qog‘ozlarini tarkibiy qismlari joylashuviga ko‘ra jadvalga joylashtiriladi.

Sodda ish qog‘ozlari	Murakkab ish qog‘ozlari
e’lon	*shartnoma*
tabriknoma	*tavsifnoma*
ariza	*bayonnoma*
taklifnoma	*dalolatnoma*
tilxat	*hisobot*
ishonchnoma	*taqriz*
tushuntirish xati	*buyruq*
faks	*rezyume*
bildirishnoma	*tarjimayi hol*
	so‘rovnoma

21.1-topshiriq. Yechim: quyon barcha jonivorlar nomidan sherga zolim bo‘ri ustidan **arznoma (shikoyat xati)** yozgan. Arznoma ijrosini tekshirish vazifasi aynan shu bo‘rining o‘ziga topshirilishi majoziy timsollar orqali hajv ostiga olingan.

Ramziy timsollar: quyon – oddiy xalq vakili; bo‘ri – hududiy amaldor; ayiq – boshliq o‘rinbosari; sher – yuqori mansabli rahbar.

Masalda ko‘tarilgan mavzu hamma zamonda dolzarb bo‘lib kelgan. Xalq qabulxonasi yoki jurnalistlar aralashmaguncha muammolarni hal qilishga hech kim shoshmaydi. Shikoyat qilganlarni ta’qib qilish holatlari bugun ham hayotimizda uchrab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. 11-sinf „Ona tili“ darsligi. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

2. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf „Ona tili“ darsligi (2-qism). – Toshkent: „O‘QITUVCHI“ NMIU, 2020.

3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: „Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi“ nashriyoti, 2009.

5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: „Ma’naviyat“, 2013.

7. Mahmudov N., Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: „O‘QITUVCHI“, 1978.

9. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

10. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. So‘z qo‘llash san’ati. – „Jayhun“ nashriyoti, www.ziyouz.com kutubxonasi.

11. Rustamova D. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari. – Farg‘ona, 2018.

12. Karimov S., Mahmatmurodov Sh., Karimova O. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: „O‘zbekiston“, 2003.

13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

14. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. Ona tili (qomusiy lug‘at). – Toshkent, 2009. www.ziyouz.com kutubxonasi.

MUNDARIJA

Kirish.....3
11-sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar....5
Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish).....5
Lingvistik kompetensiya (leksika, uslubiyat, nutq madaniyati, tinish belgilariga oid).....6
O‘zbek tili va uning taraqqiyoti.....7
Nutq madaniyati.....11
Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar.....15
Nutqning to‘g‘riligi.....17
Yozma nutqning to‘g‘riligi va me’yor.....21
Mustahkamlash.....26
Nutqning aniqligi.....27
Nutqning aniqligi va badiiy nutq.....32
Nutqning mantiqiyligi.....36
Mantiqiylik va grammatik vositalar.....41
Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi.....46
Nutqning sofligi.....49
Nutqning sofligi va badiiy nutq.....53
Mustahkamlash.....57
Nutqning boyligi.....60
Nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar.....64
Nutqning jo‘yaliligi.....70
Jo‘yalilik va uslublar.....74
Mustahkamlash.....77
Nutqning ifodaliligi.....81
Ifodalilik va ibora.....84
Ifodalilik va ko‘chimlar.....88
Ifodalilik va kinoya.....92
Ifodalilik va o‘xshatishlar.....96

Mustahkamlash.....100
Nutq madaniyati va nutq texnikasi.....102
Nutq texnikasida urg‘u va to‘xtam (pauza).....105
Ish qog‘ozlari ustida ishlash. Bayonnoma.....109
Bayonnomadan ko‘chirma.....113
Takrorlash.....115
Talaffuz va imlo.....117
Nutqda o‘zgaruvchi unlilar.....120
Nutqda o‘zgaruvchi undoshlar.....122
Matn va lug‘at bilan ishlash.....124
Urg‘u talaffuzi.....126
Qo‘shib yoziladimi, ajratib?.....129
Matn va lug‘at bilan ishlash.....132
Nutqda o‘rinli va noo‘rin so‘zlar.....135
Nutqdagi taqiqlar.....137
Evfemizm va disfemizmlar.....142
Olmoshlar uslubiyati.....145
Mustahkamlash darsi.....149
Matn va lug‘at bilan ishlash.....152
So‘z va ibora teng emas.....155
Maqolni o‘rinli qo‘llash.....158
Tasviriy ifoda – ko‘tarinki nutq vositasi.....163
Ortiqcha qo‘shimchalar.....166
Qo‘shimchalar tanlovi.....169
Nutqda shakl va mazmun mosligi.....173
Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.....177
Matn va lug‘at bilan ishlash.....180
Mustahkamlash darsi.....183
Ish qog‘ozlari bilan ishlash.....185
Foydalanilgan adabiyotlar.....188

**SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA,
SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA,
SOHIBA BOBONAZAROVA**

ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
11- sinf o‘qituvchilari uchun
metodik qo‘llanma

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

Muharrir *N. Rustamova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Sobirova*

Nashriyot litsenziyasi AA№0040. 10.12.2019. Original-maketdan
bosishga ruxsat etildi 09.12.20. Bichimi 60×90 $^{1}/_{16}$. Kegli 11 shponli.
Times garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi.
Shartli b. t. 12.0. Hisob-nashriyot t. 12.0.
Adadi 18 704 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnoma № 27-20.

Respublika
Ta'lim Markazi
t.me/edurtm_uz

O 58

S. Atoyeva va b.

Ona tili, 11- sinf [Matn]: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11- sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / S. Atoyeva, Sh. Shahobiddinova, S. Majidova, G. Yo‘lchiyeva, S. Bobonazarova – Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 192 bet.

ISBN 978-9943-22-492-6

UO‘K 373.5.016:811.512.133(075.3)
KBK 74.268.1

11

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

ONA TILI

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2020

UO‘K 373.5.016:811.512.133(075.3)
KBK 74.268.1
O 58

Tuzuvchilar:

SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA, SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA, SOHIBA BOBONAZAROVA

Taqrizchilar:

N. B. Mirzayeva – Filologiya fanlari nomzodi. Toshkent shahri Olmazor tumani 326-DIU maktabi direktori;

S. A. Ergasheva – Farg‘ona viloyati Quva tumani 62-IDUMI ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Xalq ta’limi a’lochisi;

Z. A. Sodiqova – Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi;

Ch. G‘. Mardiyeva – Samarqand viloyati Payariq tumani 92-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Xalq ta’limi a’lochisi.

Ushbu qo‘llanma Respublika ta’lim markazi huzuridagi Filologiya (ona tili, adabiyot, o‘zbek tili) fanlari bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashining 2020-yil 25-iyul 2-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-22-492-6

© S. Atoyeva va b.
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2020.

KIRISH

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me’yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko‘ra o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni *tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish* kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 28-oktabrdagi 266-sonli buyrug‘iga asosan tayanch o‘quv rejaga o‘zgartirishlar kiritildi, 10–11-sinflar uchun ona tili faniga yil davomida ajratilgan 34 soat 68 soatga ko‘paydi. Amaldagi 10–11-sinf ona tili fani o‘quv dasturi hamda darsligi 34 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘shilgan 34 soat uchun o‘quv amaliyoti jarayonida qo‘shimcha o‘quv materiallariga, o‘quv qo‘llanmaga ehtiyoj sezildi. Shuni inobatga olgan holda 2020–2021-o‘quv yilida 10–11-sinf o‘quvchilari qo‘liga „Ona tili“ darsligining 2-qismi yetkazib berildi. 11-sinf „Ona tili“ darsligining yangi qismida talaffuz va imlo me’yorlari, so‘z qo‘llash me’yorlari, nutqning grammatik va punk-

tuatsion me’yorlariga oid mavzular ta’limiy-didaktik topshiriqlar bilan boyitildi, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsda o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish savodxonligini oshirish hamda nutqiy (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida nutqiy mavzular va matnlar kiritildi. Berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va illustratsiyalar grammatik mavzu bilan bog‘landi.

Qo‘lingizdagi mazkur metodik qo‘llanmada o‘quvchilarga ona tili fanidan bilim berish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. Mustaqil bajarish uchun matn tayyorlash va uni audionutq shaklida taqdim qilish vazifalari berildi. To‘g‘ri, barcha o‘quvchi ham dars mashg‘ulotlariga telefon olib bormaydi. Buning uchun uyda bajarilgan vazifani o‘quvchi telegram messenjerida ochilgan o‘z sinfi guruhiga yoki fan o‘qituvchisining shaxsiy kabinetiga telegram orqali yuborishini, so‘ng esa audiomatnlar dars jarayonida eshittirilishini tavsiya qilamiz.

Yosh avlod qalbida ona tiliga muhabbat, ona tilini e’zozlash urug‘larini qadashdek mashaqqatli va mas’uliyatli ishingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

11-SINF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLIYATI NATIJALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

NUTQIY KOMPETENSIYA

(tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)

Tinglab tushunish:

- sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi;
- nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi;
- ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni, muloqot jarayonida o‘ziga qaratilgan nutqni yoki o‘zgalarning o‘zaro muloqot jarayoni – suhbat mohiyatini tasavvur qila oladi, eslaydi, tushunadi;
- darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni, so‘z, ibora va atama (termin)larni o‘qib tushunadi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajrata oladi, umumlashtirib xulosalay oladi.

Gapirish:

- nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og‘zaki bayon eta oladi;
- o‘rganilgan matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qila oladi;
- berilgan topshiriq, ma’lumotni qanday ketma-ketlikda bajarish usulini og‘zaki ifodalab, grammatik tamoyil va ma’lumotlarni og‘zaki bayon qila oladi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni ajrata oladi, tushunadi, taqqoslaydi, fikrini umumlashtirib og‘zaki munosabat bildiradi;
- tanish va notanish mavzularda muloqot boshlay oladi, muloqotni davom ettiradi, mavzu mohiyatini ochuvchi, suhbatga aloqador savollar bera oladi.

O‘qish:

- turli janrdagi tanish, notanish matnni tinish belgilariga amal qilgan holda ifodali, ravon o‘qiy oladi;
- berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni o‘qib tushunadi;
- turli janrdagi matnlarni o‘qib, o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera oladi;
- gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshuralarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunadi.

Yozish:

- imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda ijodiy matnlar yarata oladi;
- mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini yozma bayon qila oladi;
- fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi;
- grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tanish va notanish vaziyatda yozma bayon qila oladi;
- turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunib ajratadi, taqqoslaydi, umumlashtirib, yozma munosabat bildira oladi;
- so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon eta oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 22–25 ta gapdan iborat matn yarata oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 170–180 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi;
- ish qog‘ozlari (bayonnoma, bayonnomadan ko‘chirma, tavsiyanoma, rasmiy va shaxsiy xatlar)ni yoza oladi.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

(leksika, uslubiyat, nutq madaniyati, tinish belgilariga oid)

Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanadi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyish manbalarini izohlay oladi.

Nutq madaniyati: o‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyatini, madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlarni, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, jo‘yaliligi, ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalana oladi.

11-SINF UCHUN YOZMA ISHLAR HAJMI

Diktant	Matn yaratish	Bayon	Insho
170–180 so‘z	22–25 ta gap	35–45 ta gap	3–3,5 bet

O‘ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Ta’limiy maqsad: o‘zbek tili va uning taraqqiyoti haqida kirish suhbatini o‘tkazish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy va umummadaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars 1-topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘. Hoshimov qalamiga mansub „Charxpalak“ matni o‘qilib, unda ifodalangan g‘oya haqida fikrlashiladi. O‘quvchilar milliy qadriyat, bobomeros an’analar, ustoz-shogirdlik maqomi haqidagi mulohazalarini bayon qiladilar (*o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi).

Yechim: ariqdagi charxpalak „yog‘och gardishi ko‘hna“, „temir paqirchalari zanglab ketgan“, „parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan“ va „birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek“ bo‘lsa-da, o‘z ishini davom ettiradi: „Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi“.

Ustozlar ham shunday: umri davomida yosh avlodga ming mashaqqat bilan bilim beradi. Fidoyi mehnati bilan kelajakni yaratayotganini aslo minnat qilmay va o‘z ishidan og‘rinmay, bolalarni ma’rifat ziyosidan bahramand qilishda davom etaveradi.

„Aqliy hujum“ uyushtiriladi: „Yosh avlod – „bir tomchi suv“, katta hayot yo‘lida o‘z ustozlaringiz mehnatini, chekkan zahmatini oqlash uchun nima qilishi zarur?“

O‘quvchilarning javobi umumlashtirilgach, yangi mavzu o‘qituvchi tomonidan slaydlar yordamida batafsil tushuntirib beriladi. Masalan, „Tildagi o‘sish-o‘zgarishlar“ jadvaliga murojaat qilinadi:

So‘z yasash orqali (ichki imkoniyat)	dasturchi, ahdnoma, kafolatnoma, idoralararo, hukumatlararo, davlatlararo, nodavlat, nohukumat, notijorat, nomoddiy, mahalliylashtirish, kompyuterlashtirish, modellashtirish…
Eskirgan so‘zlarni qayta tilga olib kirish hisobiga	ma’naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh, matbaa, muallif, munaqqid, tashxis, tijorat…
So‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash orqali	vazir, viloyat, tuman, hokim, zobit…
Salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlarga ijobiy tus berish orqali	biznes, biznesmen, millioner, savdogar, fermer, janob, kapital, parlament, firma…
Xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirish orqali (tashqi imkoniyat)	audiovizual, antiterror, bakalavr, bankomat, barter, birja, gimnaziya, diler, investitsiya, investor, internet, kredit, litsey, magistr, monitoring, multimedia, reyting, sertifikat

1-mashqda berilgan „Ona tuproq“ she’ri tinglanadi (*tinglab tushunish*). Uning g‘oyasi aks etgan misralar tahlil qilinadi (*gapirish*). Milliy meros, ona tili va unga posbonlik haqidagi mulohazalar bayon etilib, har bir band uchun sarlavha topib yoziladi (*yozish*).

Namuna:

1. Buyuk ajdodlar beshigi – Vatan.
2. Faxr tuyg‘usi.
3. Asl farzandlar – Vatan posbonlari.
4. Munosib vorislar.

2-mashqda Alisher Navoiyning so‘z, til borasidagi fikrlari audio shaklida eshittirilishi maqsadga muvofiq va bu bilan *tinglab tushunish* kompetensiyasi rivojlanadi. Tilning inson faoliyatidagi o‘rni haqida bahs-munozara yuritish orqali *gapirish*, asosiy g‘oyani ifodalovchi tezislar tuzish orqali esa *yozish* kompetensiyasi shakllanadi.

Tezis namunalari:

1. Ona tili – millatning ruhi. Xalqning ma’naviy qiyofasi, or-nomusi, orzu-umidlari, qolaversa, istiqboli ona tilida mujassam.

2. Har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi jonajon, betakror tili ham bo‘ladi. Inson dunyoga kelibdiki, uning o‘z Vatani, onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo‘lsa, ona tili ham shunchalik ulug‘dir.

3. Ona tiliga muhabbat, avvalo, ona allasi bilan inson qalbiga singadi. Ona allasi shunday ilohiy kuchga egaki, uni eshitgan har bir inson umrining oxiriga qadar allaning betakror ohangini sog‘inib yashaydi.

4. So‘z mo‘tabar, uni anglash va ehtiyotkorona qo‘llash zarur.

3-mashqdagi matnni o‘qib, o‘quvchilarning unga munosabatlari tinglanadi. „Har kimdan bir ma’lumot“ usulida o‘quvchilar o‘zbek tilining taraqqiyoti haqida o‘z bilganlarini qisqa ilmiy matn shaklida yozadilar (*o‘qish, gapirish, yozish*).

4-mashqdagi matn yuzasidan o‘quvchilar „Zanjir usulida“ bittadan fikr aytadilar. Shu asosda sarlavhalar topiladi.

Namunalar:

Tining cheksiz imkoniyati
Til bo‘lmaganda...
Tilning ma’rifiy ahamiyati
Til – taraqqiyot omili.

5-mashqqa o‘tishdan oldin o‘qituvchi „Sirli sandiqcha“ni olib kiradi va savol beradi: „Kundalik hayotimizda qanday sehrli so‘zlarni qo‘llaymiz?“ O‘quvchilar „Assalom“, „Rahmat“, „Sog‘ bo‘ling“, „Tashakkur“, „Uzr“ kabi so‘zlarni aytadilar, o‘qituvchi ham sandiqchadan shu kabi so‘zlar yozilgan karton varaqlarini oladi. Shundan so‘ng „So‘z sehri“ she’ri tinglanadi. Shunday „sehrli so‘zlar“ga ko‘proq misollar keltiriladi (*minnatdorman, kechiring, ofarin, hormang, barakalla* kabi). O‘qituvchi mazkur mashqni bajarish jarayonida muomalaning ahamiyatiga diqqat qaratadi. Har qanday eshik muomala kaliti bilan ochilishi, „Chiroyli muomala – ishning yarmi bitdi“, degan fikrni o‘quvchilar ongiga singdirishi tavsiya qilinadi.

LUG‘AT ISHI

So‘z	Izohi	Misol
BRIFING	Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.	„UzReport“ telekanalida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish agentligi matbuot xizmatining OAV vakillari bilan o‘tkazgan brifingi namoyish qilindi. („*Xabar.uz*“)
IBTIDO	Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning boshlanish davri	Ko‘ngul mulkini toroj – Aylagan ishq istilosidir. Na bo‘lgay oxiri, bu Istiloning ibtidosidir. (*E.Vohidov*)

INTIHO	Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning tugash, nihoyalanish davri	Ibtidomiz intihodan xabarlidir, Quvonchi oz, g‘ami o‘lim qadarlidir. (*U. Azim*)
ISTIFODA	Foydalanish, ishlatish. *Istifoda qilmoq* (yoki *etmoq*) – foydalanmoq, ishlatmoq	Amal qilmoqdin ahdi istifoda Dedilar: „Nuri iymondur ziyoda“. (*So‘fi Olloyor*)
MUNAQQID	Adabiy, ilmiy, publitsistik asarlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini o‘rganish hamda baholash bilan shug‘ullanuvchi adabiyotshunos, tanqidchi	Sharof Rashidov ayni chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham qalam tebratgan edi . (*S. Mirvaliyev)*
TASHXIS	1. Kasallik xarakteri va bemorning ahvoli haqidagi qisqacha tibbiy xulosa	To‘g‘ri tashxis – shifoning boshlanishi. (*„Tashxis“ gaz.*)
	2. Odamdan boshqa jonli va jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirishdan iborat badiiy san’at turi	Tahlil doirasiga tortilgan baytlar jonlantirish – tashxis san’atining go‘zal namunalari bo‘lib, bu baytlar g‘azalda o‘ziga xos lirik voqeabandlikni tashkil etgan. (*I. Haqqul*)
TIJORAT	Savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari	Alisher Navoiy Xoja Ubaydullohning fazilatlaridan biri tijorat-savdo ishlari bilan shug‘ullanib, o‘z mollarini turli joylarga yuborgani masalasini ta’kidlaydi. (*B. Valixo‘jayev*)
UNSUR	Butunni tashkil etgan murakkab narsaning tarkibiy qismi	Sen ularning shohi bo‘lding, chin so‘zing, Ha, barcha unsurlar podshosi o‘zing. (*E. Vohidov*)

Mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan savollarga o‘quvchilar javob topadilar va ballarni qo‘lga kiritadilar.

O‘qituvchi mavzuni xulosalaydi va uyga **6-mashq**ni berib, darsni yakunlaydi.

NUTQ MADANIYATI

Ta’limiy maqsad: nutq madaniyati haqida tushuncha berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga muomala madaniyatini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: turli vaziyatlarda madaniyatli muloqot olib borish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars avvalida o‘quvchilar bilan shirinsuxanlik, so‘zni anglash va o‘z o‘rnida ishlata bilish haqida „Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur“ mavzusi bo‘yicha suhbat tashkil qilinadi. Yozuv taxtasiga so‘z odobi haqida ibratli fikrlar yozilgan varaqlar ilinadi. O‘quvchilar mazkur fikrlar yuzasidan o‘z mulohazalarini bildiradilar.

1. Dunyoda oqilona so‘z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.
2. So‘z doriga o‘xshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi.
3. Har bir so‘zni haqiqiy deb so‘zlayverish xato, ammo haqiqiy so‘zni tinglash va unga amal qilish farzdir.
4. Til shirinligi ko‘ngilga yoqimli, yumshoqligi foydalidir.
5. Tili yomon kishi o‘z ko‘ngliga jarohat yetkazgani kabi boshiga ham ofat yetkazadi.
6. Ko‘ngli va tili bir bo‘lgan kishining aytgan so‘zi butun bo‘ladi.
7. Aytilmagan so‘z – sof oltin. Tildan chiqqan so‘z esa mis demakdir.
8. So‘z o‘likni tiriltirur, tirikni o‘ldirur.
9. So‘z borki, tinglovchi taniga jon kiritadi, so‘z borki, aytuvchi boshini yelga beradi.

„Aqliy hujum“: tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar yuzasidan qaysi allomalarning fikrlarini, amalga oshirgan ishlarini bilasiz?

Darslikdagi topshiriqni bajarish asosida *tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Matn bilan tanishiladi. Ota-onaga murojaat qilishda farzand burchi yuzasidan munozara uyushtiriladi. Fikrlar asosida har bir o‘quvchi matn uchun o‘z xulosasini yozadi va o‘qib beradi.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun unga namu-

naviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko‘zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo‘lgan muddaoning to‘liq borib yetishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi. Bular grammatik jihatdan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zlangan ma’noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta’sirchan bo‘lishini taqozo qiladiki, ularga nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Nutq madaniyati – madaniy nutq, tilshunoslikning sohasi sifatida adabiy til me’yorlari, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Unda, eng avvalo, fikrning aniq, ravon, mantiqan to‘g‘ri, sof, ta’sirli va maqsadga muvofiq bo‘lishi talab qilinadi. Notiqlik san’atida e’tiborni tortish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ma’lum o‘rinlarda dialektal, jargon so‘zlarni ishlatish holati kuzatiladi. Nutq madaniyatida bu holatga yo‘l qo‘yilmaydi. Notiqlik san’atida intonatsiya, jest (qo‘l, yuz harakatlari)ga ko‘p e’tibor qaratiladi. Lekin har ikkisida ham fikr o‘quvchi yoki tinglovchiga yetib borib, ma’lum ta’sir ko‘rsatsa, yaxshi nutq sanaladi. Tilni yaxshi bilish tilning grammatik qonun-qoidalarini, lug‘at boyligini hamda fonetik va stilistik xususiyatlarini puxta o‘zlashtirib olish bilan belgilanadi. Demak, tilshunoslikda „nutq madaniyati“ termini, asosan, ikki xil ma’noda qo‘llanishi quyidagi slayd orqali tushuntiriladi:

Nutq madaniyati

Tildan maqsadga va nutqiy vaziyatga mos foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtira bilishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jamidir.	Tilshunoslikning tildan maqsadli, nutq vaziyatiga muvofiq foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirishni ilmiy o‘rganish va o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi hisoblanadi.

Darslikda berilgan mashq va topshiriqlar shartiga ko‘ra bajariladi, o‘quvchilar har bir mashqdagi misollarda ifodalangan fikrlarga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradilar. Jumladan, **7-mashq**da Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov olg‘a surgan g‘oyaga diqqat qilinadi: *„O‘z fikrini mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin“.*

Sinf ikki guruhga bo‘linib, quyidagi jadval asosida g‘oyani muhokama qiladilar:

Oqlovchilar	Qoralovchilar
Har bir mansabdor shaxs, avvalo, xalq manfaatini himoya qilishi shart. Xalqning tilini bilmay turib, uning qalbini, dardini tushuna olmaydi. Rahbar ona tilida ravon va ta'sirchan so'zlay olishi kerak.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bizning yurtimizda hech bir til kamsitilmaydi. Shuning uchun oddiy xodim bo'ladimi yoki rahbar bo'ladimi, istagan tilida gapirishi mumkin.

8-mashqda til odobi haqida maqollar berilgan bo'lib, o'quvchilar ularda ifodalangan fikrlarni bayon qiladilar (*gapirish*). O'zlari ham shunday mazmundagi maqollarni topib yozadilar (*yozish*).

Namuna:

1. Yomon so'z bo'lmasa,
   Yaxshi so'z bo'lmaydi.

2. Yomon so'zlab sovutma,
   Jon og'ritib ovutma.

3. Yaxshi so'z kuldirar,
   Yomon so'z o'ldirar.

4. Yaxshi so'z suyuntirar,
   Yomon so'z kuyintirar.

5. Yaxshi so'z to'rga eltar,
   Yomon so'z – go'rga.

6. Yaxshi so'z – yurak yog'i,
   Yomon so'z – yurak dog'i.

7. Yaxshi so'z – tanga malham,
   Yomon so'z – yurakka g'am.

8. Yaxshi so'z qand yedirar,
   Yomon so'z pand yedirar.

9. Yaxshi so'zdan – vafo,
   Yomon so'zdan – vabo.

10. Yaxshi so'zdan moy eriydi,
    Yomon so'zdan soy quriydi.

9-mashqqa asosan nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida „Zanjir" usulida yozma matn tuziladi: har bir o'quvchi bittadan gap yozadi va barcha gaplar birlashtirilib, yaxlit matn hosil qilinadi (*gapirish va yozish*).

Matn namunasi:

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni o'ta muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

So‘zga oshuftalik, nutqning latifligidan, undagi so‘zlarning favqulodda uyg‘unligidan zavqlanish, go‘zal va ta’sirli nutq tuzishga ayricha havas, bunday san’at sohibiga hayrat bilan qarash o‘zbeklarning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga mos libos kiydira bilish, so‘z bilan tinglovchining qulog‘ini emas, balki qalbini ham zabt etish Sharqda, xususan, o‘zbeklarda tarbiyalanganlikning, ziyolilikning yetakchi belgilaridan hisoblangan. Shuning uchun ham bizning ming yillik madaniyatimiz va ma’naviyatimiz tarixida notiqlik san’ati, voizlik san’ati, nutq odobi o‘zining teran ildizlariga ega.

10-mashq. Matnni o‘qing. Madaniyatlilik va nutq madaniyati o‘rtasidagi aloqadorlik haqida o‘rtoqlaringiz bilan bahslashing (*o‘qish, gapirish, yozish*).

O‘quvchilar ushbu mashqni bajarish jarayonida quyidagi jadvalni to‘ldirishlari tavsiya qilinadi:

Madaniyatli inson deb kimni aytish mumkin?	**Madaniyatsiz odamni qanday ta’riflaysiz?**

11-mashqdagi Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan olingan matn eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Undagi fikrlarga har bir o‘quvchi qisqa satrlarda (tezis shaklida) yozma munosabat bildiradi (*yozish*).

LUG‘AT ISHI

Jon kuydirmoq – ruhan kuchli, bezovtalangan holda, g‘amxo‘r bo‘lmoq. *Misol*: Bugun hammamiz jon kuydirib ishladik.

Yuziga oyoq qo‘ymoq – behurmat qilish darajasida hisoblashmaslik. *Varianti*: yuziga oyoq bosmoq; yuziga oyoq tiramoq. *Misol*: Akasining shuncha qilgan yaxshiligiga qaramay, baribir yuziga oyoq qo‘yibdi-da.

„Tinglay olasizmi?“ metodidan foydalanib, nutq bilan bog‘liq psixologik daqiqalar o‘tkaziladi. Savollar asosida har bir o‘quvchining nutqiy madaniyatiga baho beriladi.

1. Mavzu yoki suhbatdoshingiz sizni qiziqtirmasa, suhbatni tezda tugatishga harakat qilasizmi?

2. Suhbatdoshingizning juz’iy kamchiliklari sizni bezovta qiladimi?

3. Noto‘g‘ri tushuntirish sizni g‘azablantirishi mumkinmi?

4. Siz notanish odamlar bilan gaplashishdan qochasizmi?

5. Siz suhbatdoshingizni to‘xtata olasizmi?

6. O‘zingizni siz bilan gaplashayotgan odamni tinglayotgandek ko‘rsatasizmi?

7. Agar suhbatdoshingiz siz uchun yoqimsiz mavzuni boshlasa, suhbatning yo‘nalishini o‘zgartirasizmi?

8. Agar suhbatdoshingizda ayrim so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuzi bo‘lsa, uning nutqini to‘g‘rilaysizmi?

9. Suhbatdoshingiz bilan takabburona ohangda gaplashishingiz mumkinmi?

10. O‘zingizni ravon va ta’sirchan nutq sohibi deb hisoblaysizmi?

12-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

MADANIY NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY SIFATLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar haqida ma’lumot berish; ma’naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun madaniy nutq inson faoliyatida muhim omillardan sanalishi haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni muomala madaniyatiga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning matn bilan mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmay, ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchiga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday ta’sir quvvatiga ega bo‘lishi uchun, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlar mavjud bo‘lishi kerak. Nutqning madaniyligini ta’minlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha bo‘lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Nutqning to‘g‘riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning jo‘yaliligi.
5. Nutqning sofligi.
6. Nutqning boyligi.

Ana shu sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog‘liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya’ni nutqda to‘g‘rilik sifatining mavjud-

ligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.

Topshiriq. Atoqli tilshunos Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan parcha o‘qiladi. Nutq rang-barangligining tinglovchiga ta’siri haqida fikrlashiladi, topshiriq orqali *o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Topshiriq. Sayfi Saroyining berilgan baytidagi so‘zning o‘rnini bilish haqidagi fikriga munosabat bildiriladi:

Oqil o‘z so‘zin o‘rnida so‘zlagay
Ham javobini munosib ko‘zlagay.

(Oqil odam so‘zni o‘z o‘rnida aytadi va javobini ham oldindan ko‘ra biladi. Bu o‘rinda so‘zlovchining dili va tili bir bo‘lishi, aytgan so‘ziga amal qilishi zarurligi, so‘zi boshqa-yu ishi boshqa bo‘lgan kishi nutqining qadri bo‘lmasligi nazarda tutiladi, ya’ni o‘tkir aql sohibining shaxsiyati masalasiga e’tibor qaratiladi)

Sinf uch guruhga bo‘linadi. 1-guruh **13-mashq**, 2-guruh **14-mashq**, 3-guruh **15-mashq**da berilgan matn ustida ish olib boradi. Har bir matn tahlilida asosiy tushunchalar ajratib olinadi va muallif keltirgan misollar orqali mazkur fikrlarga munosabat bildiriladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi		Misol
Ipidan ignasigacha	butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil	**Varianti:** ignasidan ipigacha **Ma’nodoshi:** miridan sirigacha; qilidan quyrug‘igacha **O‘xshashi:** boshdan oyoq	*1. Qiziquvchan odam hamma narsani ipidan ignasigacha bilishni istaydi.* *2. Boy savdoni miridan sirigacha suv qilib ichvorgan.*
Istarasi issiq	xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador	**Varianti:** yulduzi issiq; sitorasi issiq **Zidi:** so‘xtasi sovuq	*1. Biram istarasi issiq ayol ekan-a?* *2. Hov so‘xtasi sovuq, savdoni halol qil.*

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

Qo‘shimcha ma’lumot:

Telefonda gaplashish uchun bir nechta muhim qoidalar:

- suhbatni salom bilan boshlang;
- raqamga ishonchingiz komil bo‘lmasa, xotiradan raqam termang;
- zarurat bo‘lmasa, bemahalda qo‘ng‘iroq qilmang;
- agar muloqot paytida telefon tasodifan uzilib qolsa, qo‘ng‘iroq qilgan odam qayta bog‘lanishga urinib ko‘radi;
- shaxsiy suhbatlar boshqalar oldida noqulay. Shuning uchun shaxsiy masala bo‘yicha murojaat qilib, avval suhbatlashish imkoniyati bor yoki yo‘qligini so‘rang;
- shaxsiy masala yuzasidan ishda yoki o‘qishda bo‘lgan odamga keraksiz ravishda qo‘ng‘iroq qilmang;
- ish vaqtida telefonda suhbatni qisqa qiling, suhbat 3–5 daqiqadan oshmasligi lozim;
- agar qo‘ng‘iroq qilayotgan shaxs raqam terayotganda adashgan bo‘lsa, unga muloyimlik bilan javob bering.

16-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

NUTQNING TO‘G‘RILIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyati haqidagi ta’limotning markaziy masalasi ekanligi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga estetik tarbiya berish; fikrlash orqali nozik ma’nolarni anglab yetishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar tafakkuri va nutqini o‘stirish; nutqning to‘g‘ri, aniq, mantiqiy bo‘lishiga erishish.

Adabiy me’yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg‘un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an’anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida quyidagi me’yorlar farqlanadi:

1) leksik (so‘z qo‘llash) me’yorlar;
2) talaffuz me’yorlari;
3) so‘z yasalishi me’yorlari;
4) morfologik me’yorlar;
5) sintaktik me’yorlar;
6) uslubiy me’yorlar.

To‘g‘rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me’yorlariga to‘la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me’yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘lmaydi. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish

mumkin emas. Ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, nutqni to‘g‘ri tuzishga erishish, har bir til birligini o‘rniga qo‘yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biri sanaladi.

Aytish joizki, nutqning to‘g‘riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo‘lib, maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarda aynan to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ba’zan badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me’yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylik uchun xizmat qiladi.

Topshiriqda berilgan gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi grammatik shakllarning adabiy til me’yorlariga qay darajada muvofiq qo‘llanganligi haqida fikr yuritiladi (*o‘qish va gapirish*).

Yaxshisi, chopqillab chiqqin-da, kesak otib, boyqushni **uchirtirib yubor**. – Yaxshisi, chopqillab chiqqin-da, kesak otib, boyqushni **uchirib yubor**.

Yechim: bu gapda yetakchi fe’l tarkibida *-tir* orttirma nisbat shakli ortiqcha qo‘llangani sababli ega va kesim shaxs-sonda o‘zaro moslashmay qolgan. Mazkur qo‘shimcha olib tashlanishi joiz.

Ko‘l yoqasidan o‘tgan zaxkashning muzdek salqin zaxob **suviga** qiy-chuvlashib **cho‘milishamiz**. – Ko‘l yoqasidan o‘tgan zaxkashning muzdek salqin zaxob **suvida** qiy-chuvlashib **cho‘milamiz.**

Yechim: gapda *suviga* so‘zi sheva tarzida qo‘llanib, o‘rin-payt kelishigi shakli o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ishlatilgan; *cho‘milishamiz* fe’li birgalik nisbat emas, balki aniq nisbat shaklida qo‘llanishi zarur. Shunda ega va kesim shaxs-sonda moslashadi: *biz cho‘milamiz*.

17-mashqdagi parchada badiiy maqsad bilan so‘z yasalishi me’yorlaridan chekinish holati izohlanadi.

Yechim: Abdulla Qodiriy „O‘tkan kunlar“ romanida **qorong‘uzor** shaklida so‘z yasagan. Aslida *-zor* qo‘shimchasi aniq otlardan o‘rin-joy otlarini yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi. *Qorong‘u* so‘zi esa belgi bildiruvchi sifat so‘z turkumi sanaladi. Keltirilgan parchadagi go‘zal va nafis tasvirdagi *ko‘ngil mevasi, qora voqea, kecha rangi, bundagi daraxtlar, o‘z mevalari, qorong‘ulikning quchog‘i, mevazorning ichkarisi* kabi birikmalar bilan *qorong‘uzor* so‘zi uyg‘unlik hosil qilgan va Otabek qalbida qorong‘ulikning yaxlit tasviri jonlangan. *Qorong‘uzor* so‘zi yasalishida adabiy til me’yorlaridan chekinish holati kuzatilib, badiiy-estetik maqsad bilan ruhiyat tasvirini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

18-mashq asosida *o‘qish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Matn ko‘chiriladi. *Otlanmoq* so‘zi bilan bog‘liq holda leksik me’yor turg‘unligi izohlanadi.

O‘tmishda: *yo‘lga otlandi – yo‘lga ot minib chiqdi*.

Bugun: *yo‘lga otlandi – yo‘lga mashina minib chiqdi.*

19-mashq yuzasidan muhokama uyushtiriladi. ***Fuqaro*** so‘zining tilimizda me’yorlashgani haqida fikrlashiladi.

Yechim:

Arab tilida	*Faqir* so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, „yo‘qsil“, „kambag‘al“, „muhtoj“, „bechora“ ma’nolarini bildiradi.
O‘zbek tilida	1. Bu so‘z „tabaa, raiyat, shuningdek, grajdanlik“ ma’nosini kasb etgan. 2. *Men* so‘zi odob yuzasidan *fuqaro, faqir-u haqir* deb qo‘llangan.

20-mashqni bajarish tartibi:

- she’riy parcha audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*);
- undagi g‘ayrioddiy birikmalar aniqlanadi va adabiy me’yordan chekinish yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*);
- daftarga birikma tarzida yoziladi (*yozish*).

Yechim: *tovushlarning kichigi, tovushlarning ulug‘i, tovushlarning hidi, tovushlarning bo‘yi, tovushlarning sovug‘i, tovushlarning ilig‘i, tovushlarning rangi-ro‘yi, tovushlarning shirin-achchig‘i, tovushlarning yumshog‘i, tovushlarning qattig‘i.*

Shoir *tovushlarning* so‘zini takror qo‘llab, badiiylik hosil qilgan. Tushuncha ifodasi uchun g‘ayrioddiy birikmalar yaratgan.

LUG‘AT ISHI

Ich-etini yemoq – ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikr-o‘yini boshqalarga aytmay).

Varianti: ichini yemoq; etini yemoq.

Ma’nodoshi: o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq.

O‘*xshashi*: ichini kemirmoq; o‘zini o‘zi yeb qo‘ymoq.

Kayfiyati buzuq – kayfiyati yomon, xafa.

Ma’nodoshi: ta’bi xira; ta’bi tirriq.

O‘*xshashi*: avzoyi buzuq.

Mustaqil ish. She’rni tinglang (o‘qing). Unda ifodalangan g‘oyani aniqlab, mavzuga aloqador jihatini izohlab bering. Me’yordan tashqari so‘zlarni yozing (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Har so‘zida „bu“, „anu“,
„Haligi“, „so‘ng“, „qanaqa“,
„Bu-bu“ deydi – nima bu,
„Shunaqa“si – qanaqa?
Tiliga kelib qolgan
So‘zdan qayta olmasa,
„Bu“ qo‘shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.
O‘zingiz o‘ylab ko‘ring,
Nima bu, qanaqasi?
Qachon qolar O‘tkirning
„Nima“, „bu“, „anaqa“si?
To‘g‘ri, aniq gap tuzib,
Javob bergin so‘roqqa,
Xizmat qilsin har so‘zing
Fikringni to‘latmoqqa.
Mazmun nomli mo‘ljalga
So‘z otilgan o‘q bo‘lsin.
Nishonga tegmay qolgan
Bitta o‘q ham yo‘q bo‘lsin. *(E. Vohidov. „Nutq“)*

Darslikdagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi.

22-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

1. Gulsara tim qora tuflisini do‘qillatib xonamga kirdi. – E, qaldirg‘ochmi u? Yaxshi odamlarning uyiga in qo‘yadi, deyishadi... **Kampliment** emas, Quvvatjon... Singlim**mi** uyida **den rojdeniya**da edik. Uning eri **shishka**lardan. Sudya. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Hademay birikkita **sovlig‘im qo‘zilaydi**. **Og‘iz** ich**gali** bemalol tashrif buyurishlaring mumkin. (*Sh. Xolmirzayev*) 3. Akalari izidan **Samarqand** borsa, „Ko‘nglim shuni xohladi, borib aytinglar otamga“, – deb ularni qaytarib yuborgan ekan. (*Erkin A’zam*) 4. Yo‘q**, qorin janoblari to‘qlar, ertalab baliq yegan edik,** faqat choy bo‘lsa kifoya, – dedi u kulib. (*N. Aminov*)

Yechim: berilgan gaplardagi adabiy til me’yorlariga nomuvofiq qo‘llangan, ammo badiiy vazifa bajargan birliklarni topish va izohlash lozim.

1-gapda qo‘llangan *kampliment* (birovga yoqish uchun maqtov aytish, yaxshi gapirish, xushmuomalalik qilish), *den rojdeniya* (tug‘ilgan kun), *shishka* (boy, boyligi ko‘p odam; amaldor) kabi varvar so‘zlar

hamda *singlimmi* dialekt so‘zi badiiy nutq talabi bilan personaj tabiatini ifodalashga xizmat qilgan. 2-gapda *sovlig‘im (urg‘ochi qo‘y) qo‘zilaydi, og‘iz (yangi tug‘gan qo‘yning xom suti)* kabi dialektal birliklar qahramonning hududiy mansubligi (qishloq chorvadori)ga ishora sifatida badiiy nutq talabi bilan ishlatilgan. *Ichgali* so‘zidagi *-gali* qo‘shimchasi ham uslubiy vazifa bajargan. 3-gapda ham *Samarqand* so‘zidagi jo‘nalish kelishigining tushirib qoldirilishi og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos. 4-gapda esa og‘zaki nutq uslubiga xos kinoyaviy, hazil ma’noni ifodalovchi *qorin janoblari to‘qlar*, *ertalab baliq yegan edik* (go‘yo *qorin bilan birga* ma’nosida) birikmalari qo‘llangan.

YOZMA NUTQNING TO‘G‘RILIGI VA ME’YOR

Ta’limiy maqsad: yozma nutqning to‘g‘riligi, adabiy til me’yoriga muvofiqligiga erishish, nutqning to‘g‘riligiga putur yetkazuvchi vositalar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni komillikka, barkamollikka undash orqali ularga axloqiy sifatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida adabiy til me’yorlariga amal qilish malakasini rivojlantirish.

Nutqning to‘g‘riligi uning adabiy til me’yorlariga muvofiq kelishidir. Darslikdagi nazariy ma’lumotda adabiy tilning yozma shaklida to‘g‘rilik sifatining ta’minlanishi uchun ikki me’yorga amal qilish lozimligi uqtirilgan. Bu me’yorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) me’yorlari; 2) tinish belgilari (punktuatsion) me’yorlari. Quyida adabiy til me’yorlari yuzasidan to‘liq ma’lumotlar keltirilgan:

Talaffuz me’yorlari. Unli va undosh talaffuzi, so‘z tarkibidagi qo‘sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili so‘zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo‘shma fe’llar, so‘z birikmalari, morfologik ko‘rsatkichlar, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzlari.

Morfologik me’yorlar. Adabiy til dialekt va shevalardan o‘z morfologik me’yorlariga ko‘ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda so‘zlarning kelishiklarda turlanishi, fe’llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so‘z va so‘z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko‘ramiz.

Sintaktik me’yorlar. Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlari.

Imloviy me'yorlar. Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me'yorlariga tayanadi. Bu me'yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o'z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

Lug'aviy me'yorlar. Har bir xalq tili o'sha millat a'zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo'lgan so'z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo'lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so'zlashuv tili esa adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so'zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha so'zlar adabiy tilda qo'llanilavermaydi.

Imlo me'yorlari mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy an'analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo'llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so'zlar, morfemalar kabi til birliklari bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o'rin tutadi. Bu belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir.

Topshiriq. Berilgan gaplardagi imlo me'yorlariga amal qilinmagan o'rinlarni aniqlang.

1. Fuqarolar yig'inlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda jamoatchilik komissiyalarining o'rni sezilarli **bo'layapti**. 2. „Barakalla, ota o'g'il, bopladingiz!" O'g'li Hasanboyni bag'riga mahkam bosib, shunday deyishni diliga **tukkan** Ma'rufjon Hayitboyevni suhbatga tortamiz. (*Gazetadan*)

Yechim: 1-gap kesimi xato yozilgan. **-yap** shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-ayap** holida talaffuz qilinsa ham, **-yap** yoziladi: **bo'lyapti.** Ikkinchi gapdagi ***-gan*** o'tgan zamon sifatdoshi **k, q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilgandagina talaffuzda va imloda **-kan, -qan** shakliga aylanadi, lekin **tugmoq** so'zining asosi **tug** so'zi bo'lgani uchun **tuggan** tarzida yoziladi.

23-mashqni bajarish tartibi:

1. Gaplar bilan tanishiladi (*o‘qish*).

2. Gaplardagi bugungi adabiy me’yorlarga zid holda qo‘llangan so‘zlar aniqlanadi (*gapirish*).

3. Ular muvofiq muqobili bilan almashtirib yoziladi (*yozish*).

Yechim:

T.r.	Gapda berilgan birlik	Muqobili
1	Ilmgoh	ilm maskani, oliygoh, institut, universitet, oliy o‘quv dargohi
2	Bilimgoh	
3	Nomini tutib	nomini aytib
4	Nohiya ro‘znomasi	tuman gazetasi
5	Ro‘znomasi**da**	gazetasi**ga**
6	Jarida	jurnal, to‘plam

24-mashq. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qilinib, ular ifodalayotgan ohang va mazmuni izohlanadi.

Yechim:

1-gap. Gapning birinchi qismida so‘roq ma’nosi ifodalangan: *Bozorqul aka, nima bo‘ldi?* Keyingi gapdagi ko‘p nuqta so‘zlovchining nutq vaziyatidagi ruhiy holatini ochiq ko‘rsatish maqsadida qo‘llangan.

2-gap. *Bezgak* so‘zi takror qo‘llanib, kuchli hayajonni ifodalash uchun undov belgisi qo‘yilgan.

3-gap. *Yubilyar* so‘zi kinoya ma’nosini bergani uchun qo‘shtirnoq ichiga olingan. So‘zlovchi do‘q-po‘pisasini kuchaytirish hamda kuchli hayajonini sezdirish maqsadida undov *(o‘v student!)* va qo‘shaloq belgi *(bas qilasanmi, yo‘qmi?!)* qo‘llangan.

4-gap. Bu gapdagi undalmalar (*Dezdemona-a, Otello*) kuchli ohang bilan, *Qani mening ro‘molcham?!* jumlasida ham so‘roq, ham do‘q ma’nosi hayajon aralash berilyapti.

25-mashqni bajarishda tinish belgilari ustida ishlanadi.

Yechim:

T.r.	Berilgan gap	Tahrirlangan gap	Izoh
1	Chol salmoqlab gap boshladi: – E, xotin, o‘lmaydigan odam bormi? (*Said Ahmad*)	Chol salmoqlab gap boshladi: – E xotin, o‘lmaydigan odam bormi? (*Said Ahmad*)	Undov va undalma orasida vergul ishlatilmaydi.

2	Orif aka saratonning jazirama, kunlaridan birida, Ergashga bergan va’dasiga muvofiq, bog‘lardan xabar olgani Ko‘ykiga chiqib ketdi. (*Asqad Muxtor)*	Orif aka saratonning jazirama kunlaridan birida, Ergashga bergan va’dasiga muvofiq, bog‘lardan xabar olgani Ko‘ykiga chiqib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	*Jazirama* so‘zi sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarib, uyushmagani uchun undan keyin vergul qo‘yilmaydi.
3	O‘zingiz xabar bermaysizmi ishqilib? – Matkarimov xezlanib o‘rnidan turib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	O‘zingiz xabar bermaysizmi, ishqilib? – Matkarimov xezlanib o‘rnidan turib ketdi. (*Asqad Muxtor*)	*Ishqilib* kirish so‘zi gap oxirida kelgan va vergul bilan ajratiladi.
4	Kimingiz bo‘ladi, bu xotin? – deb so‘radi dabdurustdan.	Kimingiz bo‘ladi bu xotin? – deb so‘radi dabdurustdan.	Gap bo‘laklari inversiyaga uchragan, ega va kesim orasidagi vergul kerak emas.
5	Yigitdan tayinli javob ololmasligini bilsa ham yana so‘radi: – Kim telefon qilgandi? – Bilmadim, mehmon kelibdi shekilli... (*Tohir Malik)*	Yigitdan tayinli javob ololmasligini bilsa ham, yana so‘radi: – Kim telefon qilgandi? – Bilmadim, mehmon kelibdi, shekilli... (*Tohir Malik)*	**-sa** shart mayli qo‘shimchasi ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vosita sifatida xizmat qilgani sababli *bilsa ham* birikmasidan keyin hamda *shekilli* kirish so‘zidan oldin vergul qo‘yiladi.

26-mashqda berilgan gaplar tarixiy asarlardan olingani sababli leksik, morfologik va sintaktik vositalar ham tarixiylikni kasb etgan. Mazkur gaplar hozirgi uslubiy me’yorlarga mos ravishda qayta tuziladi va farqli jihatlari izohlanadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

T.r.	Tarixiy mazmundagi gap	Qayta tuzilgan shakli
1.	Sohibqiron hayratda anchagacha so‘z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash’oridin aytsin.	Sohibqiron hayratda anchagacha so‘z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – u siznikidir, biz olmaymiz… Ammo bizga she’rlaridan aytsin.

2	Aytmaydur,– deyishdi chollar. – Qo‘rg‘onimiz atrofida yer quchib nigun bo‘lgan yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh aning dilig‘a hikmat kalomini solmag‘ay...	Aytmaydi, – deyishdi chollar. – Qo‘rg‘onimiz atrofida yer quchib teskari yotgan (halok bo‘lgan) yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh uning diliga hikmat so‘zini solmaydi...
3	Norasidani ko‘rdingmu? – dedilar Sohibqiron bosh ko‘tarmay.	Yosh bolani (*norasida – voyaga yetmagan*) ko‘rdingmi? – dedilar Sohibqiron bosh ko‘tarmay.
4	Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehriyat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig‘ chirmagan dunyo ishlaridin sal chalg‘itishga urunamen.	Ular dunyo ishlari bilan juda band. Men ularga ilohiy joziba (*mo‘jizalar*) borligini eslatib, dillarini tikanak sim kabi chirmagan dunyo ishlaridan sal chalg‘itishga urinaman.
5	Dayrda ko‘p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo‘lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri biladur.	Dunyoda ko‘p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har nima bo‘lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri bilandir.

27-mashq. Yozma nutqning to‘g‘riligiga ta’sir etayotgan o‘rinlarga diqqat qilinadi, paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolar to‘g‘rilab yoziladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

1. It beparvo, **yondosh** ketyapti, goho uchgan qushlar ovoziga diqqat qilib, shalpang quloqlarini dikkaytiradi, hamrohlariga ma’nodor qaraydi, so‘ng yana lo‘killab yo‘lida davom etadi. (*Sh. Xolmirzayev*)

2. Hammasi tinch, salom deb yuborishdi… – dedi Rahim Saidov masalaga qanday **yondashishni** o‘ylar ekan. (*O‘. Umarbekov*)

3. Mahallada k atta tayyorgarlik bilan **o‘tkazilgan** tadbirda keksa-yu yosh faol ishtirok etdi. (*Gazetadan*)

4. Bahor kelishi bilan bog‘larda ko‘chat **o‘tqazish** ishlari avj oldi. (*Gazetadan*)

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misol
Ko‘z ilg‘amas I	bilinar-bilinmas, mayda	*Ko‘z ilg‘amas zarralar mikroskop ostida yaxshi ko‘rinadi.*
Ko‘z ilg‘amas II	cheksiz, poyoni (oxiri) ko‘rinmaydigan	*Osmonga qara, ko‘z ilg‘amas kenglikni tasavvur qila olasanmi?*

Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlab, mavzu umumlashtiriladi va xulosa qilinadi. **28-mashq** uyga vazifa qilib beriladi.

MUSTAHKAMLASH

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning nutq madaniyati, madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar, yozma nutqning to'g'riligi va me'yor mavzulari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda estetik did va axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda o'zaro muloqot davomida ichki his-tuyg'ularni nutq vaziyatiga qarab ifoda eta olish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsni quyidagi kichik she'riy parcha bilan boshlash tavsiya etiladi:

So'zing xatoli bo'lmasin,
Kibr-u havoli bo'lmasin,
Elga maloli bo'lmasin,
Nutqing ravon bo'lsin, bolam. (*Iqbol Nazarov*)

Topshiriq. She'rga munosabatingizni tezis shaklida yozma ifodalang va izohlab bering. Ushbu jarayonda *tinglab tushunish, yozish, o'qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Darslikdagi savol va topshiriqlarga javob berish bo'yicha „Zina-ma-zina" musobaqasi o'tkaziladi. Beshtadan o'quvchi yozuv taxtasi oldiga chiqarilib, bir safga tiziladi. O'qituvchi ketma-ket o'tilgan mavzular yuzasidan savollar beradi. To'g'ri javob bergan o'quvchi bir qadam oldinga, noto'g'ri javob bergan o'quvchi esa bir qadam ortga yuradi. Marraga hammadan oldin yetib kelgan o'quvchilar g'olib deb topiladi.

1-topshiriq slaydda o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi.

Yechim: ushbu matnni bir marta o'qiganda idrok qilish biroz qiyin kechadi. Ikkinchi bor o'qish orqali fikrni uqish mumkin. Abdulla Qahhordek so'z ustasining asl maqsadi ana shu qayta o'qish orqali anglashiladi. Matn nutq madaniyligini ta'minlayotgan kommunikativ sifatlarga mos keladi.

2-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Alibek Rustamovning „So'z xususida so'z" asaridan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi (*o'qish*). 2. O'zbek tilida sinonimlarning ma'no nozikliklari berilgan misollar yordamida izohlanadi (*gapirish*). 3. Ma'nodoshlar klaster tarzida daftarga tushiriladi (*yozish*).

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. Darslikdagi topshiriqlar guruhlarga taqsimlanadi.

3-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qiladi (*o‘qish*).

2. Unda nutq madaniyligini ta’minlovchi qaysi sifatlar buzilganligi aytilayotgani yuzasidan o‘quvchilar o‘z xulosalarini tezis shaklida yozadilar va taqdimot qiladilar (*yozish, gapirish*).

Yechim: matnda nutqning to‘g‘riligi, aniqligi va mantiqiyligi sifatlarining buzilishi haqida so‘z bormoqda. Muallif tarjimashunoslikda badiiy asarlarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi natijasida yuzaga keladigan g‘aliz tushunchalar xususida bong urib, bunday „so‘zma-so‘z ko‘chirish“ („kopirovka“) usulining salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida ogohlantirgan.

4-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Berilgan parcha o‘qiladi (*o‘qish*).

2. Atoqli adib Odil Yoqubovning o‘zbek tili boyligi haqidagi fikrlari yuzasidan o‘quvchilar fikrlarini tezis sifatida yozadilar va taqdimot qiladilar (*yozish, gapirish*).

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti	O‘xshashi	Misollar
Ko‘ngliga qo‘l solmoq	eng yashirin fikr-o‘yini bilishga harakat qilmoq	yuragiga qo‘l solmoq	qo‘yniga qo‘l solmoq	*Qizingning ko‘ngliga qo‘l solib ko‘r-chi, nima dardi bor ekan?*
Ko‘nglida kiri yo‘q	kek saqlamaydigan, g‘arazi yo‘q	yuragida kiri yo‘q	ko‘ngli toza	*Bu odamni yaxshi taniyman: ko‘nglida kiri yo‘q, yuragi toza.*

5-topshiriq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING ANIQLIGI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga nutqning aniqligi, nutqda ko‘p ma’noli, ma’nodosh, shakldosh va paronim so‘zlarni o‘rinli qo‘llash zarurligi haqida bilim berish hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to‘g‘rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili, zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo‘lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo‘lgan materiali o‘rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

a) sinonimlardan o‘rinli foydalanish;

b) antonimlardan to‘g‘ri foydalanish;

c) ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘rinli qo‘llash;

d) so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash;

e) iboralarni to‘g‘ri qo‘llash.

Nutq oldiga u aniq bo‘lishi kerak, deb talab qo‘yilganda til birligi hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi muvofiqlik tushuniladi. Masalaga shu talablardan kelib chiqib yondashiladigan bo‘lsa, nutq aniqligi nutq madaniyati va mas’uliyatining g‘oyat zarur sharti bo‘lib qoladi. Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma’nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir. Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan quyidagilarni o‘rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash;

b) nutqda ishlatiladigan so‘zning otlashgan ma’nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo‘llashlardan qochish;

c) so‘zning ko‘p ma’noliligiga jiddiy e’tibor berish, ko‘p ma’noli so‘z nutqda qo‘llanganda o‘zining qaysi ma’noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so‘zning boshqa ma’no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko‘z oldiga keltirish; omonimlarning xususiyatlarini adabiy me’yoriy ifodalar bilan yetkazish.

Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so‘z ma’nolarini yetarli anglash, nutq mazmuniga e’tibor bilan qarash aniq nutq tuzish malakasining shakllanishi uchun imkon beradi. So‘z ma’nosi, uning nozikliklarini yaxshi o‘zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo‘lmaydi. Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma’nodosh, ko‘p ma’noli so‘zlar, paronimlar, so‘zlarning uslubiy bo‘yog‘i kabilardagi ma’no o‘ziga xosliklarini yaxshi tasavvur qilmoq zarur.

1-topshiriq. *Surat – sur'at, toblanmoq – tovlanmoq, azm – azim, asr – asir* juftliklaridagi so‘zlarning ma’nolariga izoh bering.

„O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ yordamida ushbu paronim juftliklarning lug‘aviy ma’nosini aniqlaymiz:

1) *surat* – qo‘lda chizilgan rasm, tasvir yoki fotosurat; *sur'at* – ish-harakat, voqea-hodisaning jadallik darajasi;

2) *toblanmoq* – taftida, alangasida isitmoq, qizdirmoq; *tovlanmoq* – rang-barang tuslanmoq, jilvalanmoq;

3) *azm* – qat’iy qaror, jazm; *azim* – g‘oyat katta, ulkan, zo‘r;

4) *asr* – yuz yillik davr; *asir* – ozodlikdan mahrum etilgan kishi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarda qaysi so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetganligini aniqlang.

1. Korxonaga yangi zamonaviy **texnologiya** o‘rnatildi.
2. Korxonaga yangi zamonaviy **texnika** joriy etildi.

Yechim: ushbu gaplarda qo‘llangan *texnologiya* va *texnika* so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ yordamida aniqlashga harakat qilamiz.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayoni, usul va vositalari haqidagi bilimlar majmuyi.

Texnika – ishlab chiqarishda qo‘llanadigan mexanizm, moslama kabi mehnat qurollari.

Bu so‘zlar qo‘llanishi va ma’no ifodalashiga ko‘ra gaplar juftligida almashib qolgan. 1-gapda „**texnika**“ so‘zini, 2-gapda **„texnologiya“** so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Korxonaga yangi zamonaviy **texnika** o‘rnatildi.
2. Korxonaga yangi zamonaviy **texnologiya** joriy etildi.

29-mashq orqali *tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan parcha bilan tanishib chiqiladi. **Tavsif** va **tasvir** so‘zlarining ma’nolari, ulardagi farqli jihatlar va qo‘llanish o‘rinlari quyida berilgan jadval asosida izohlanadi hamda daftarga qayd etiladi.

Tushuncha nomi	Izohi	Xususiyati	Misol
Tavsif	Bir narsa sifatlarining og‘zaki yoki yozma bayoni	Tavsifdan kishida tushuncha hosil bo‘ladi	*Bir mashinaning tuzilishi va ishini bayon qilish*

Tasvir	Bir narsaning surati, shakli, rasmi	Tasvirdan tasavvur vujudga keladi	*Shu mashinaning rasmi yoki tuzilish chizmasi*

30-mashq ham shu tartibda bajariladi. Alibek Rustamovning „So‘z xususida so‘z“ kitobidan olingan **chopmoq** va **yugurmoq** ma’nodosh so‘zlarining tavsifi bilan tanishiladi, ulardagi o‘ziga xosliklarga diqqat qilinadi.

<table>
<tr><th>Tushuncha nomi</th><th>Tub ma’nosi</th><th>Umumiy tomoni</th><th>Farqli tomoni</th></tr>
<tr><td rowspan="2">Chopmoq va yugurmoq</td><td rowspan="2">*chopmoq* – „qo‘lni biror qurol bilan yoki qurolsiz ko‘tarib urib, biror ishni amalga oshirmoq“</td><td>harakatning tezlashishi, ildam yurish</td><td>*chopmoq* qo‘lga aloqador, *yugurmoq* – oyoqqa.</td></tr>
<tr><td colspan="2">*Yer chopmoq* deganda „ketmonni ko‘tarib yerga urish“, *qilich chopmoq* deganda „qilichni ko‘tarib urish“, *go‘sht chopmoq* deganda „boltani ko‘tarib urish“, *ot chopmoq* deganda „qamchini ko‘tarib urish“ nazarda tutilgan.</td></tr>
</table>

31-mashq. Gaplarni o‘qing. **Saboq** va **dars** so‘zlari ma’nolaridagi farqni izohlashga harakat qiling, shu asosda yozma matn tuzing (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: tilimizda *dars, saboq* so‘zlarida ma’nodoshlik bor, ammo ularning qo‘llanishi farqli. *Saboq* so‘zi eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lib, u tarixiy mavzudagi matnlarda ko‘proq qo‘llanishi mumkin, bu so‘zning hozirgi tildagi *„ibrat“, „namuna“* shakli ko‘chma ma’noda faol ishlatiladi: *tarix saboqlari, turmush saboqlari* kabi.

Saboq ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, o‘qish-o‘rganishning ma’lum mavzuga bag‘ishlangan, belgili vaqt davom etadigan bo‘lagi; ko‘chma ma’noda *ibrat*, *namuna* degan ma’nolarni ham ifodalaydi.

Dars so‘zi ham ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, o‘quv yurtlarida ilm, ma’lumot olish yoki berish maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulot; ko‘chma ma’noda *tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat* degan ma’nolarni ifodalaydi.

32-mashqni bajarish tartibi: 1. Matn o‘qiladi (*o‘qish*).

2. *Muhabbat* tushunchasini ifodalaydigan so‘zlar ro‘yxati tuziladi (*yozish*).

3. Bu so‘zlarning rango-rangligiga diqqat qilinadi va ma’no nozikliklarini namoyon qiluvchi gaplar tuziladi (*gapirish*).

MUHABBAT. *Yoqtirib qolmoq, ko‘ngil bermoq, moyil bo‘lmoq, xushtor bo‘lmoq, oshufta bo‘lmoq, dil bermoq, bedil bo‘lmoq, mubtalo bo‘lmoq, maftun bo‘lmoq, mahbub bo‘lmoq, oshiq bo‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq, ishqi tushmoq, ishqi foniy, ishqi boqiy, sevgi, mehr.*

ISHQ. Vatanga moyil bo‘lmoq, Vatanni sevmoq, ota-ona mehri, farzandning ota-onani yaxshi ko‘rishi, farzand mehri.

Farqlang: yoqtirib qolmoq – ko‘ngil bermoq, ko‘ngil bermoq – oshiq bo‘lmoq, oshiq bo‘lmoq – sevmoq, sevmoq – muhabbat, muhabbat – yaxshi ko‘rmoq, yaxshi ko‘rmoq – mehr.

33-mashq. Ma’nodosh va paronim so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetgan o‘rinlar aniqlanadi.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz **mujda** yuborish shunchalar mushkul edimi? (*Murod Mansur*) – Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz **xabar** yuborish shunchalar mushkul edimi?

Izoh: mujda – *xushxabar, quvonchli xabar* degan ma’noni ifodalagani uchun bu o‘rinda uning ma’nodoshi bo‘lgan **xabar** so‘zini ishlatgan ma’qul.

2. Boshqa shaxsning **kechirmalarini** tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (*M. Nasibullin*) – Boshqa shaxsning **kechinmalarini** tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi.

Izoh: kechirmalar – avvalo, bu so‘z fe’lning bo‘lishsiz shakli bo‘lib, turlana olmasligini eslatamiz va bu gapda nutq aniqligiga putur yetmaslik maqsadida kishining ruhiy holatiga ta’sir qiladigan his-tuyg‘ular ma’nosini ifodalagan **kechinmalar** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

3. Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, **yoqilg‘i** kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (*Sh. Boshbekov*) – Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, **yonilg‘i** kerak emas – batareyalardan oziqlanadi.

Izoh: yoqilg‘i – issiqlik energiyasi olish uchun yoqiladigan ashyo bo‘lgani uchun bu o‘rinda uning paronimi bo‘lgan *yonadigan suyuq modda* ma’nosini ifodalagan **yonilg‘i** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

4. Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka **o‘tqazib** qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman. (*Said Ahmad*) – Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka **o‘tkazib** qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman.

Izoh: **o‘tqazib** – *ekmoq* yoki *kimsaning o‘tirishi uchun joy bermoq* ma’nolarini anglatgan bu so‘z o‘rniga uning paronimi bo‘lgan *joyini o‘zgartirmoq, ko‘chmoq* ma’nolarini ifodalagan **o‘tkazmoq** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

5. Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z **qobiqlarini** ochdi. (*M. Nasibullin*) – Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z **qovoqlarini** ochdi.

Izoh: **qobiq** so‘zi *po‘st, ustki qatlam* ma’nolarini anglatgani uchun ushbu gapda *ko‘z kosasini qoplovchi, ochilib-yopilib turadigan teri* ma’nolarini ifodalagan **qovoq (qoboq)** so‘zini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misol
Yetti uxlab tushiga kirmaslik	mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik	*Shu odamnikiga to‘yga borish yetti uxlab tushimga kirmagandi.*
Yetti uxlab tushida ko‘rmaslik	hech qachon ko‘rmaslik	*Yetti uxlab tushimda ko‘rmasam, deyman.*
Yuragi tars yorilib ketayozdi	sabr-chidami tugab, xunob bo‘lib ketmoq	*Boshlig‘imiz komissiya daragini eshitib, yuragi tars yorilib ketayozdi.*
Yuragi qoq yorila yozdi	sevinib, juda kuchli hayajonlanmoq	*O‘g‘lining qaytib kelganiga Jannat xolaning yuragi qoq yorila yozdi.*

O‘quvchilar darslikda berilgan savollarga javob beradilar.

34-mashq uyga beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING ANIQLIGI VA BADIIY NUTQ

Ta’limiy maqsad: nutqning aniqligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy ma’naviy boyliklarimizni qadrlash hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matnni lisoniy tahlil qilish asosida so‘zlarning ma’no nozikliklarini, uslubiy bo‘yoqdorligini anglay bilish, badiiy tasvir vositalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutqning aniqligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan savol-javob qilinadi. Yangi mavzuni tushuntirish uchun avval darslikda berilgan **topshiriq**qa diqqat qilinadi. Gaplar o‘qilib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday maqsad bilan nutqqa olib kirilgani izohlanadi.

1. Agar bu sovuq **so‘fi** kirib kelgan bo‘lmasa, ikki yosh qizning qish bo‘yi to‘plangan ko‘ngil g‘ashliklari biroz sho‘xlik bilan ancha yozilgan bo‘lardi.

Izoh: so‘fi – masjidda azon aytuvchi kishi, muazzin.

2. Siz, axir, men bilan **bir shapaloq** yerni talashib, shu to‘g‘rida **nari-beri bo‘lishib,** shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...

Izoh: bir shapaloq yer – *shapaloq* – qo‘lning besh panja va kaftdan iborat qismi, *bir shapaloq yer* birikmasi tarkibida *oz miqdorda, kichikkina* ma’nosini ifodalamoqda; **nari-beri bo‘lishib** – qo‘shma fe’l, *xafalashmoq, arazlashmoq, janjallashmoq* ma’nosida.

3. Uning yuzlari kulgan, tishsiz – **kemtik** og‘zi sevinch bilan ochilgan edi. Akasi o‘z gapini **yedirolmagach** – Qurvonbibi bilan maslahat qilib turib – masalani eshon boboga arz qildi. (Cho‘lpon)

Izoh: kemtik – narsaning uchgan, singan, kertilgan, buzilgan, nuragan joyi, *kemtik og‘zi – tishlari tushgan;* ***gapini yedirolmagach*** *– yemoq, ovqat iste’mol qilmoq, gap yedirmoq* ko‘chma ma’noda *gapini o‘tkaza olmadi, gapiga ko‘ndira olmadi tarzida qo‘llangan*. Ko‘chma ma’no metafora usuli orqali hosil bo‘lgan.

Metafora – ikki narsa, holat o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi orqali yangi ma’no hosil qilish usuli, so‘zlashuv va badiiy nutqda qo‘llanadi. So‘zning ko‘chma ma’nosi faqat kontekstda, ya’ni boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llanganda yuzaga chiqadi.

Xulosa: badiiy matnga ham aniqlik, ham ta’sirchanlik baxsh etish maqsadida ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalanilgan. *Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar, ma’lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik asosiy bo‘lganligi uchun so‘z ma’nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutqning asosiy vazifasi estetik ta’sir etishdan iboratligi uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma’nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so‘zlar o‘z va hatto ko‘chma ma’nolaridan tashqari ham o‘ziga xos yangidan yangi ma’no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta’minlashi mumkin.*

Masalan, *Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi.* (Cho‘lpon, „Kecha va kunduz“) gapidagi *g‘ururning kaltaklanishi* va *kular yuzini no‘qtalamoq* birikmalarida ***kaltaklanishi*** va ***no‘qtalamoq*** so‘zlari kasb etgan ma’no nozikliklari (*„g‘ururni azobli darajada poymol qilish“, „keskin va tamoman to‘xtatmoq“*) bilan matnga ham aniqlik, ham ta’sirchanlik baxsh etgan.

Oddiy nutqda *qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo‘ladi. Qor – yonmaydigan narsa. Ammo *Qalovini topsang, qor yonar* degan maqolda, ya’ni badiiy nutqda fikr obrazli va mubolag‘ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Sinf uch guruhga bo‘linib, 1-guruhga 35-mashq, 2-guruhga 36-mashq, 3-guruhga 37-mashq ustida lisoniy tahlil olib borish topshiriladi. Bu mashqlarni bajarishda „Tushunchalar tahlili“ usulidan foydalanish mumkin.

35-mashqni bajarish tartibi:

1-guruhda matn bilan tanishiladi (*o‘qish va tinglab tushunish*). Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yangi ma’no nozikliklarini kasb etishiga diqqat qilinadi. Ularning o‘rniga ma’nodoshlarini qo‘yib ko‘rib, yuzaga kelgan uslubiy va mazmuniy farqlar izohlanadi (*gapirish*).

Qo‘yish uchun so‘zlar:

chekindi – *orqaga qaytmoq, tugamoq*;

yog‘du yopirildi – ko‘chma ma’noda *ko‘plashib kelib tushmoq, yoyilib tarqalmoq;*

quyosh yurishini – yurmoq – *ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq*;

quyoshning uzoqlashgisi kelmadi – uzoqlashmoq – biror kimsa yoki narsadan nari (uzoq) ketmoq; yiroqlashmoq.

Yechim: bu harakatlar inson yoki hayvonlarga xos bo‘lib, *tun, yog‘du, quyosh*ga nisbatan qo‘llanishida **jonlantirish** usuli orqali yangi ma’no hosil qilingan. Ma’lumki, badiiy nutqda so‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik har doim mos bo‘lavermaydi. Jumladan, mazkur matndagi ajratib ko‘rsatilgan **chekindi, yopirildi**, **yurishini** so‘zlari ham o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga yangi ifoda qo‘shishga xizmat qilmoqda. Jumladan, **chekindi** so‘zi o‘zi ma’nodosh bo‘lgan *ortga tisarilmoq, orqaga ketishga majbur bo‘lmoq* birikmalariga nisbatan obrazli, badiiy nutqqa oid ekanligi hamda tun so‘ziga jonlantirish ifodasini qo‘shishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, matndagi **yopirildi** so‘zi ham o‘zi ma’nodosh bo‘lgan *ko‘plashib, gala bo‘lib*

kelib bosmoq; yoyilib tarqalmoq birikmalariga nisbatan **yog‘du** so‘ziga obrazli ifoda hamda shaxslantirish ma’nosini yuklayotganligi bilan farqlanadi. Quyoshning **yurishi** birikmasida esa **yurish** so‘zi o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga tantanavorlik, jonlantirish, obrazlilik kabi ma’nolarni yuklamoqda. Ta’kidlash kerakki, so‘zlarning bunday ko‘chma ma’nolarda kelib, o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosiga yangi ma’no nozikliklarini qo‘shishi, asosan, badiiy matnlar va tasvirlarda uchraydi.

36-mashqni bajarish tartibi:

2-guruh gaplarni o‘qiydi (*o‘qish*). Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘ziga xos tarzda qo‘llanishiga diqqat qilinadi. Ularning nutq aniqligini ta’minlashdagi o‘rnini baholash borasida fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanadi (*gapirish*).

Izoh:

bezgaknamo – bezgak kasaliga yo‘liqqan odamga o‘xshagan;

xabargir – xabar yetkazuvchi;

qizg‘aldoqzor – qizg‘aldoqlar o‘sgan joy;

yulduzlanmoqda – kunlar yulduzday yorishib, yaxshiliklar ko‘paymoqda;

oylanmoqda – kunlar oyday yorishib, yaxshiliklar ko‘paymoqda;

serbahs – ko‘p bahslashadigan.

Ushbu so‘zlar **okkazionalizmlar** hisoblanadi. Okkazionalizm umumiste’molga to‘g‘ri kelmaydigan, ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan individual ma’noga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, faqat shu matndagina qo‘llanadi.

37-mashqni bajarish tartibi:

3-guruh parchani o‘qiydi. Undagi badiiy tasvirga xizmat qilgan ma’nolarni aniqlab, ifodalangan g‘oya atrofida fikrlashiladi.

Yechim: ushbu mashqda badiiy tasvirga xizmat qilgan so‘zlar sifatida ***chiroqlarim, insonlik yo‘li, nozik dil, egizak so‘z, yetti olamning kaliti, mehri-yu sehri*** birliklarini keltirish mumkin. Mazkur birliklar (so‘z va so‘z birikmalari) ko‘chma ma’nolarda qo‘llanib, o‘zi birikib kelgan so‘z ma’nosini to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’noda emas, balki obrazli ifodalashga xizmat qilmoqda va badiiy mantiq bilan tasavvur hosil qilinadigan badiiy tasvir yaratmoqda.

LUG‘AT ISHI

Mazasi qochdi – 1. Sog‘lig‘i yomonlashdi. *Varianti*: mazasini qochirmoq. *O‘xshashi*: tobi qochdi. 2. Biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. *Ma’nodoshi*: mazasi ketdi. *Misollar*: 1. O‘g‘lining tashvishi

bechora onaning mazasini qochirdi. 2. Oxirgi paytlarda holsizlanib, tobi qochdi. 3. Qo‘shnisi bilan oralari buzildi-yu, tirikchilikning mazasi ketdi.

Mum tishlamoq – mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik. *Ma’nodoshi*: og‘ziga tolqon solmoq; og‘ziga qatiq ivitmoq. *O‘xshashi*: „lom-mim“ demadi; dami chiqmadi; damini chiqarmadi; og‘zini ochmadi. *Misollar*: 1. Sababini so‘raganida hech kim lom-mim demadi. 2. Anvar kirdi, ammo shofyorning ham, ustaning ham dami chiqmadi. 3. Hamma jim, hatto, hech qachon chakagi tinmaydigan singlim ham mum tishlab olgan. 4. Arazladi, shekilli, uyga yetguncha og‘ziga tolqon solganday jim ketdi. 5. Og‘zingda qatiq ivitganmisan, nega ovozing chiqmaydi? ***Darslikdagi savollarga javob berish orqali mavzu mustahkamlanadi.***

38-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING MANTIQIYLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi lisoniy shartlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga milliy an’ana va urf-odatlarimizga hurmat hissini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqan to‘g‘ri fikrlash va shu asosda til birliklarini o‘rinli tanlay bilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Yangi mavzu „Tinglab tushunish“ usulida ta’rif bilan boshlanadi.

Ta’rif: nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z (ibora) aniq maqsadda mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Ta’rif darslikdagi **topshiriq** asosida mustahkamlanadi. Berilgan matn o‘qiladi va fikr mantig‘idagi buzilish haqida fikrlar o‘rtaga tashlanadi (*o‘qish va gapirish*). Husayn Boyqaroning nozik fahm-farosatiga o‘quvchilar baho beradilar.

Yechim: nutqda til vositalarining mantiq qonuniyatlariga mos ravishda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Yuqoridagi matn parchasida keltirilgan „*U shu qadar go‘zal va nozikki, yog‘ayotgan yomg‘ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o‘zini o‘nglab oladi*“ degan fikrda mantiqiylikning buzilish holati mavjud. Mazkur mantiqiy buzilish izohi sifatida matndagi „*Yuqoridan pastga tushayotgan yog‘in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo‘la olmaydi*“ degan jumlalarni keltirish mumkin.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir, chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiy. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib yetmasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mantiqiylik shartlari:

a) tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilish;

b) uslubiy me’yorga amal qilish;

c) leksik-semantik va sintaktik me’yorga rioya qilish.

Nutqni shakllantirishdagi e’tiborsizlik oqibatida ba’zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolga diqqat qilaylik: ***Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish rejalarini muddatidan oldin bajardilar.*** (*Gazetadan*) Gapda so‘zlarning tartibi to‘g‘ri bo‘lmaganligi, *olti oylik* birikmasining *davlatga* so‘zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetyapti (*olti oylik davlat*), fikrni bayon qilishda xatolik yuz beryapti.

Nutqning mantiqiy bo‘lishi so‘zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina til hodisasi sanalmasdan, tildan tashqarida bo‘lgan omil sifatida ham qaraladi. Ya’ni bunda notiqdan tilni yaxshi bilish bilan birga, o‘zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida keng bilimga ega bo‘lish ham talab qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash, o‘quvchilarning masalaning mohiyatini anglab yetishlari uchun 20 daqiqalik **„Munozara daqiqalari“** tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar 2 guruhga – „Nazariyotchilar“ va „Amaliyotchilar“ga bo‘linadi. Yuqoridagi matn asosida bahs yuritadilar, har ikki tomon yakuniy xulosalarini bayon qiladi. (O‘qituvchi yo‘naltirib turadi, xolos.)

39-mashqni bajarish tartibi:

1. **Yugurib charchamaydigan chayir** mashinasi dam tepalikka, aylanma yo‘llar osha dam pastlikka, kishining nigohi tushsa yuragi shig‘illab ketadigan jarliklar yoqasidan o‘tib, yana **ko‘tarilib qolardi**.

Yechim: 1) ***yugurib charchamaydigan*** – bu ifoda odamga nisbatan qo‘llanadi, texnikaning oyog‘i yo‘q va shu bois bu birikma noo‘rin qo‘llangan; 2) ***chayir*** so‘zi *baquvvat, pishiq* kabi ma’nolarda inson tabiati, jismoniy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Lekin gapda *mashina* so‘ziga nisbatan o‘z ma’nosida ishlatish biroz mantiqsizlikni yuzaga keltiradi va ushbu birikmani faqat ko‘chma ma’nodagina badiiy mantiq bilan idrok etish mumkin; 3) 1-gapdagi *mashinaning* ***ko‘tarilib qolishi*** ifodasini ham ***parvoz*** ma’nosida tushunish mantiqsizlikni yuzaga keltiradi.

2. Qiya, aylanma yo‘llarda ko‘p yurganiga qaramay, yigit juda ehtiyotkorlik bilan mashinani **olib borardi**.

Yechim: ***olib borardi*** ifodasi aslida *ko‘tarib yoki yetaklab bormoq* kabi ma’noda tushuniladi. Shu bois ham jumladagi *yigitning mashinani* ***„olib borishi“***ni o‘z ma’nosida emas, balki faqat obrazli ma’noda idrok etish joiz. Oddiy nutq uchun *haydab borardi* deyish mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi.

3. Uning yoqimli **qiliqlari**, ovozi eshitilib ketganday bo‘ladi. (*Mirmuhsin*)

Yechim: **qiliq** so‘zi „g‘ayritabiiy yoki nojo‘ya ish“ ma’nosida ishlatiladi. Shu bois „yoqimli qiliq“ bo‘lmaydi. Shuningdek, ovoz eshitiladi, lekin jumladagi *„qiliqlari... eshitilib ketganday bo‘ladi“* ifodasida mantiqiy buzilish bor. *Qiliqlari* va *ovozi* so‘zlari *eshitilib* fe’liga bog‘langan. Aslida qiliqlar eshitilmaydi, ko‘zga ko‘rinadi.

4. Ko‘zim o‘ngidan **hadsiz** odamlar o‘tdi.

Yechim: **had** so‘zi hudud, joyga nisbatan qo‘llanadi. Shu bois odmlarga nisbatan ishlatish mantiqan noto‘g‘ri. ma’nosini bildirib, hudud, joyga nisbatan qo‘llanadi. Shu bois odamlarga nisbatan ishlatilishi mantiqan noto‘g‘ri.

5. Qo‘llari, oyoqlari o‘ziga bo‘ysunmay, o‘z-o‘zidan harakatlanar, uni **qayoqqadir olg‘a eltardi.** (*M. Nasibullin*)

Yechim: ***olg‘a*** so‘zi *oldin*ga ma’nosini bergani uchun *qayoqqadir* so‘zi ortiqcha. *Eltardi* fe’li ham bu yerda mantiqning buzilishini keltirib chiqargan.

40-mashqni bajarish tartibi:

1. Boyqush qarg‘ish olgan, qadimdan qolgan shunday gap bor. U qaysi xonadonga qo‘nib, **ovoz chiqarsa**, noxushlik **alomat**idan **darak** emish. (*S. Ravshanov*)

Yechim: birinchi gapda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘rni almashib qo‘llangan. Gapni *boyqush qarg‘ish olganligi to‘g‘risida qadimdan qolgan shunday gap bor* shaklida o‘qish jumlani tushunishni osonlashtiradi. Ikkinchi gapda *ovoz chiqarsa* fe’lining o‘rnida *sayrasa* fe’lini qo‘llagan ma’qul edi, shuningdek, ushbu gapdagi *darak va alomat* so‘zlari mantiqan bir xil ma’no ifodalagani uchun bittasi ortiqcha.

2. U nihoyatda ehtiyot bo‘lib harakat qilayotganini uyqu elitgan **ko‘zlari bilan sezdi.** (*N. Jaloliddin*)

Yechim: *ko‘z* sezgi a’zosi emas, ko‘z bilan sezilmaydi, balki ko‘riladi.

3. Qish. Yanvar havosi juda sovuq. **Laylakqor** hadeb **savalagani-savalagan.** (*S. Ravshanov*)

Yechim: *savalamoq* so‘zi, odatda, ko‘chma ma’noda yomg‘irga nisbatan ishlatiladi. Mazkur ifodani qorning yerga shiddat bilan tushishi manzarasini tasavvur etgan holda ko‘chma, obrazli ma’nodagina tushunishimiz mumkin.

4. Odamlar **nochorlikdan**, **yegani narsasi yo‘qligidan** ro‘za tutib yurishibdi. (*S. Ravshanov*)

Yechim: **ro‘za tutmoq** ko‘chma ma’noda qo‘llansa, mantiqiy buzilish bo‘lmaydi. Bu yerda mantiqning buzilishi shundaki, ro‘za nochorlikdan va yegani narsa yo‘qligidan tutilmaydi. Shu bois gapni *odamlar nochorlik va yeyishga ovqatlari yo‘qligi sababli kunlarini och-nahor va ro‘zador o‘tkazishardi* tarzida o‘zgartirish orqali jumladagi ma’noni mantiqan to‘g‘rilash mumkin.

Ilm-fanda *faraz qilish* yoki o‘ylab chiqarishga o‘rin yo‘q. Fanning rivojlanishi faqat kashfiyotga bog‘liq. Fanda fikr bildirish, ishonaman deyish – bilmagan bilan barobar. (*Gazetadan*)

Yechim: ilm-fanda *faraz qilish* yangilikka olib boruvchi asosiy yo‘llardan biri sanaladi. Aynan faraz qilish bilan aksiomalar teoremaga aylanadi. *Fikrlash* tushunchasi esa *bilish* tushunchasiga juda yaqin. Bu yerda birinchi gap mazmunini keyingi gaplar inkor qilyapti.

Hikoya va suhbatdan tashqari o‘zbek tilini yaxshi o‘rganish, unga qiziqishni uyg‘otish maqsadida til o‘rgatishga oid o‘yinlar, kichik-kichik she’rlar, *badantarbiya* va ashulalar berib boriladi. (*S. Jo‘rayev*)

Yechim: *badantarbiya*ning til o‘rganishga mantiqan aloqasi yo‘q. Bundan tashqari, badantarbiya berib borilmaydi, balki bajariladi.

Imzoga qo‘l qo‘yish mahalida gurs etib yerga quladi.(*Gazetadan*)

Yechim: *imzo qo‘ymoq* va *qo‘l qo‘ymoq* aynan bitta narsa, shuning uchun *imzo qo‘yish* birikmasining o‘zi yetarlidir.

Tahrirlangan matn namunasi

Chuqur atrofida biroz yurgandan so‘ng it iz ***ortidan*** olg‘a tashlandi. Mana, birdan to‘xtab qoldi. Tumshug‘i bilan yerni ***iskadi***-da, oldingi oyoqlari bilan qorni titkilay boshladi... It tashvishli g‘ingshib leytenantga suykaldi, so‘ng yerni iskagancha, ***pastlikka***, jilg‘a tomonga yo‘l oldi. Chuqurda qor ***ko‘p yog‘ib*** qalinlashgan. It o‘sha tomon o‘zini otdi, nihoyat, jilg‘a oldida taqqa to‘xtadi. G‘azabli irillab, usti muzlagan qorni ***tirnay boshladi.*** Qor ostida allaqanday qora narsa ko‘rindi. It ***old oyoqlariga mahkam tiralib***, o‘sha qora narsani **tishlab**, butun kuchi bilan torta boshladi...

Qish kunlari qisqa: ***birpasda*** qorong‘i tushadi. Sovuq ***zabtiga*** olib boryapti. Men goh ***hakkalab sakrayman***, goh ***kaftlarimni bir-biriga*** ishqalayman.

Sovuq **qahriga** olib boryapti. Men goh **sakrab hakkalayman**, goh **qo‘llarimni** ishqalayman. Boshqalar ham mendan qolishmaydi. Sovuq **jonni tindirmagani** shu bo‘lsa kerak-da. (*M. Nasibullin)*	Boshqalar ham mendan qolishmaydi. Sovuq jonni ***azoblashi*** shu bo‘lsa kerak-da.

41-mashqni bajarish tartibi:

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti:	Misollar
Nog‘orasiga o‘ynamoq	kimningdir izmi, yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish ko‘rmoq	nog‘orasiga o‘ynatmoq; childirmasiga o‘ynamoq	*1. Seni hali nog‘oramga o‘ynataman.* *2. Ba’zan jahli chiqadi: uning childirmasiga qachongacha o‘ynaydi?*
Oyog‘iga bolta urmoq	mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq	**Ma’nodoshi:** payini qirqmoq	*1. Raqiblari Davronovning ham oyog‘iga bolta urishdi.* *2. Bojxonachilar noqonuniy tovar aylanmasining „payini qirqishdi“.*

Darslikdagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi va umumlashtiriladi.

42-mashq uyga vazifa sifatida beriladi.

Yechim: berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo‘llangan so‘zlar o‘rniga mantiqan mosi qo‘yib ko‘chiriladi.

1. Sattorov yolvorgan **qiyofada** ko‘zlarimga umidvor qaradi.

2. Ikkalamiz ham **noxush** ko‘ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi.

3. Sattorov zarda bilan planshetni irg‘itib yubordi-da, mening so‘zlashimga **e’tibor** bermay, sakrab o‘rnidan turdi.

4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning fotosuratlarini ham **yoyib** qo‘ygan edim.

5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga keldi-da, meni odatdagiday so‘roqlarga ko‘mib yubordi. (*M. Nasibullin*)

6. U jamiyat taraqqiyoti uchun insonlarning ma’naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (*A. Olimov*)

MANTIQIYLIK VA GRAMMATIK VOSITALAR

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi lisoniy shartlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: milliy an’ana va urf-odatlarimizga hurmat hissini shakllantirish, til boyliklaridan samarali foydalanishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqan to‘g‘ri fikrlash va shu asosda til birliklarini o‘rinli tanlay bilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutq mantiqiyligining asosiy lingvistik sharti leksik-semantik va sintaktik me’yorga amal qilishdir.

So‘zlarni bir-biriga mazmunan bog‘lash, ular o‘rtasidagi grammatik aloqani to‘g‘ri shakllantirish sintaktik me’yorga amal qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Mana bu misolda *kuy* va *raqs* so‘zlarining suxandon tomonidan uyg‘un tarzda qo‘llanib yuborilishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: *Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling*. (*Televideniyadan*) Kuyni tinglash mumkin, ammo raqsni-chi?

Ba’zan so‘zlarni tushirib qoldirishlar natijasida yuz beradigan metonimiya hodisasi hamma vaqt ham to‘g‘ri tushunilavermasligi mumkin: *Oyposh xola gorchichnik qo‘yib bo‘lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo‘yarda-qo‘ymay choyga o‘tqazdi.* (*M.Jaloliddinova*)

Ko‘r-ko‘rona qilingan tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi: *Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi.* („*Mushtum*“ *jurnalidan*)

Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko‘rinishlarida ham o‘rtaga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko‘raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda fikrlar qat’iy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq qurilishi esa biroz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go‘yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko‘rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy

asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko‘lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma’lum bo‘ladi.

Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so‘zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo‘yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir. So‘zlarning o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyligi bo‘lsa, so‘z birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo‘ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir. Xulosa qilganimizda, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Darslikdagi *topshiriq*da qo‘yilgan muammo yechiladi. Berilgan gapni o‘qib, qaysi til vositasini noto‘g‘ri qo‘llash tufayli nutqning mantiqiyligi buzilgani izohlanadi.

Sudning kimyoviy ekspertizasi T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligi, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligi **aniqlandi**. (*Gazetadan*)

Yechim: gap grammatik jihatdan noto‘g‘ri shakllantirilgan. Gapning egasi (*sudning kimyoviy ekspertizasi*) mavjud bo‘lsa-da, kesim majhul nisbatda (*aniqlandi*) berilgan. Natijada, ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvi buzilgan. Jumla qurilishini quyidagicha ikki xil tartibda berish mumkin:

Sudning kimyoviy ekspertizasi tomonidan T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligi, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligi aniqlandi.

Sudning kimyoviy ekspertizasi T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligini, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligini aniqladi.

Sinf uch guruhga bo‘linadi. 1-guruhga 43-mashq, 2-guruhga 44-mashq, 3-guruhga 45-mashq lisoniy tahlil qilish uchun beriladi. Ma’lum vaqt belgilanadi. Ajratilgan vaqt tugagach, guruhlar o‘z tadqiqotini taqdim qilishadi.

43-mashqni bajarish tartibi:

1. Agarda shunga qaror qilgan bo‘lsa, mazkur amaliyotni, albatta, reja asosida amalga oshirgan ma’qul. Ya’ni malakali mutaxassisga murojaat qilishi, zaruriy qon tahlillarini topshirishi, yurak faoliyatlari tekshiruvi, qon kasalliklari, sog‘lom bo‘lishi zarur.

Yechim: 1) 1-gapda qon kasalliklari birikmasi ortiqcha; 2) asosdosh so‘zlarning qo‘llanishi *(amaliyot, amalga)* ma’noga putur yetkazgan; 3) gap qurilishida ham uslubiy g‘alizlik uchraydi. Jumlani quyidagi ko‘rinishga keltirish orqali uslubiy ravonlik va mantiqni me’yorlashtirish mumkin:

Agar shunga qaror qilgan bo‘lsa, mazkur amaliyotni reja asosida o‘tkazgan ma’qul. Ya’ni malakali mutaxassisga murojaat qilish, zarur qon tahlillarini topshirish, yurak faoliyatini tekshirtirish orqali sog‘lom bo‘lishga erishish mumkin.

Tashqi ko‘rinishni o‘zgartirishdan oldin bu haqiqatan kerakmikin, deb o‘z-o‘zingizga savol bering. Balki, **to‘g‘ri** turmush tarzini olib borish bilan bularni o‘zgartirish mumkindir ham. (*Gazetadan*)

Yechim: gap qurilishida ma’noga va uslubiy ravonlikka ta’sir ko‘rsatuvchi o‘rinlar uchraydi. Asosiy mazmunni saqlab qolgan holda 2-gap qurilishini quyidagi ko‘rinishda o‘zgartirish maqsadga muvofiq: *Tashqi ko‘rinishni o‘zgartirishdan avval bu qay darajada muhimligi borasida o‘z-o‘zingizga savol bering. Balki,* ***sog‘lom*** *turmush tarzini olib borish natijasida tashqi ko‘rinishni yaxshilash mumkindir ham.*

3. Bobom bu yil askarlarimizga, kam deganda, uch vagon qovun-tarvuz jo‘natmasam, **do‘ppimni osmonga otaman** deb, kecha-kunduz polizdalar. (*S. Ravshanov*)

Yechim: ibora noto‘g‘ri tanlangani sababli gap mazmunidan sezilib turgan ma’no ifodalanmay, umuman qarama-qarshi ma’no kelib chiqqan. Ya’ni shu ishni bajarmasam (*3 vagon qovun-tarvuz yetishtirmasam*), *do‘ppimni osmonga otaman* (xursand bo‘laman) ma’nosi ifodalanib, rejalashtirilgan vazifa bajarilmasligidan xursand bo‘lish degan ma’no tushunilmoqda. Jumlani quyidacha o‘zgartirish maqsadga muvofiq: *Bobom bu yil askarlarimizga, kam deganda, uch vagon qovun-tarvuz jo‘natmasam,* ***otimni boshqa qo‘yaman*** *deb, kecha-kunduz polizdalar.*

44-mashqni bajarish tartibi:

1. Fursatdan foydalanib, institut jamoasi va ekspertlari nomidan barcha yurtdoshlarimizni Yangi 2018-yil bilan chin dildan qutlay**miz** va oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishda bir tan-u bir jon bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimiz ravnaqi uchun hormay-tolmay ishlash-**lari**ga chaqira**man**. (*Gazetadan*)

Yechim: 1) kesimlar tarkibida qo‘llangan shaxs-son qo‘shimchalaridagi har xillik (*qutlaymiz, chaqiraman*) gap mazmunida mantiqiy chalkashlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda; 2) *-lari* qo‘shimchasi ortiqcha qo‘llangan.

Fursatdan foydalanib, institut jamoasi va ekspertlari nomidan barcha yurtdoshlarimizni Yangi 2018-yil bilan chin dildan qutlaymiz va oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishda bir tan-u bir jon bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimiz ravnaqi uchun hormay-tolmay ishlashga chaqiramiz.

2. Huquqni muhofaza qiluvchi organ**lar**, sud**lar**, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruh**lar** komissiya bilan hamkorlikda joylarga chiqib, har bir mahkum bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali ularning shaxsi o‘rganib **chiqildi**. (*G. To‘laganova*)

Yechim: 1) gapning egasi (*ishchi guruhlar*) mavjud bo‘lsa-da, kesim majhul nisbatda (*o‘rganib chiqildi)* berilgan; 2) *-lar* qo‘shimchasi juda ko‘p marta qo‘llangan (*organ**lar**, sud**lar**, jamoat tashkilot**lar**i, vakil**lar**idan, ishchi guruh**lar**, joy**lar**ga, u**lar**ning*). Ayniqsa, *ishchi guruhlar* birikmasida *guruh* so‘zi jamlovchi ot bo‘lgani va bu yerda jamlash-umumlashtirish ma’nosini ifodalayotgani uchun *-lar* qo‘shimchasini qo‘llash ortiqcha.

Huquqni muhofaza qilish organi, sud, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruh komissiya bilan hamkorlikda joylarga chiqib, har bir mahkum bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali ularning shaxsini o‘rganib chiqdi.

3. Qonunga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun ayblov tomonining, **shu jumladan**, jabrlanuvchining **roziligini** talab etilmaydi. (G. To‘laganova)

Yechim: 1) *shu jumladan* kirish birikmasi noto‘g‘ri qo‘llangan, chunki jabrlanuvchi ayblov tomoni jumlasiga kirmaydi; 2) tushum kelishigi shakli (*roziligini)* xato qo‘llangan, chunki gap kesimi majhul nisbat shaklida bo‘lganida tushum kelishigidagi vositasiz to‘ldiruvchi bilan birika olmaydi.

Qonunga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun ayblov tomonining, shuningdek, jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. (*G. To‘laganova*)

4. Bug‘doyrang cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari **sutdek** oppoq. Lekin o‘zlari sira tinchimaydilar. (*S. Ravshanov*)

Yechim:

1) *sutdek* o‘xshatishi mantiqan noto‘g‘ri qo‘llangan;

2) *o‘zlari* olmoshi ortiqcha, chunki bu olmosh ta’kid ma’nosida uslubiy vazifa bajaradi.

Bug‘doyrang cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari qordek oppoq. Lekin sira tinchimaydilar. (*S. Ravshanov*)

45-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing, nutqning mantiqiylik sifatiga putur yetkazgan leksik, morfologik va sintaktik vositalarni izohlang.

Yechim:

Ayol kabinetga kirib kelishi bilan uni qayerdadir ko‘rganga **o‘xshab ketdim**.	Ayol kabinetga kirib kelishi bila**noq** uni qayerdadir ko‘rganga **o‘xshadim**.
Bu ish uchun kerakli ko‘nikmani, uquvni hayotning o‘zi **tug‘diradi,** tarbiya, bilim beradi.	Bu ish uchun kerakli ko‘nikmani, uquvni hayotning o‘zi **yaratadi**, tarbiya, bilim beradi.
Shunday qilib, **uni** bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi.	Shunday qilib, **u** bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi.
„Balki“ degan taxmin tergovchi faoliyatida zo‘r **chora – narsa** emas, ammo uni hisobga **olinma**sa ham bo‘lmaydi.	„Balki“ degan taxmin tergovchi faoliyatida zo‘r **uslub** emas, ammo uni hisobga **olmasa** ham bo‘lmaydi.
So‘zni **uning uchun yoqinqiragan** mavzudan boshladim.	**Gap**ni **unga yoqadigan** mavzudan boshladim.
Eh, qancha chilvir u? Yonib **kul** bo‘ldi-ku o‘sha chilvirlar. Hammasi yonib **jizg‘anak** bo‘ldi-ku.	Eh, qancha chilvir u? Yonib **jizg‘anak** bo‘ldi-ku o‘sha chilvirlar. Hammasi yonib **kul** bo‘ldi-ku.
Hozir ona yuragida nafrat va xo‘rlanganlik hislarigina **bo‘lgan**.	Hozir ona yuragida nafrat va xo‘rlanganlik hislarigina **bor.**

LUG‘AT ISHI

Og‘zining tanobi qochmoq – behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. *Ma’nodoshi*: og‘zi qulog‘iga yetmoq; boshi ko‘kka yetmoq; terisiga sig‘may ketmoq; qo‘yi mingga yetmoq. *Misollar:* 1. Salimjon yaqin oshnasi Xoldorni ko‘rdi-yu, birdan chehrasi ochilib, og‘zining tanobi qochdi. 2. Bu xabardan Sobirning og‘zi qulog‘iga yetdi.

Payiga tushmoq – 1. Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qilmoq. *Ma’nodoshi*: iziga tushmoq; ketiga tushmoq; orqasiga tushmoq. *O‘xshashi*: payidan tushmoq. 2. Manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qilmoq. *Ma’nodoshi*: ketiga tushmoq. *Misol*: Hamma narsani chetga surib, yengil pul topish payiga tushdi.

Savollar asosida mavzu mustahkamlanadi va xulosalanadi.

46-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

Matn ko‘chiriladi va unda mantiqiylik sifatining ta’minlanishida ishtirok etgan sintaktik birliklar izohlanadi.

Yechim: 1) hikoya matni personajning xotiralari asosiga qurilgan bo‘lib, jumlalar mantiqan bir-biri bilan izchil bog‘langan; 2) yillar hisobi bir-biriga mos kelgan, fe’lning o‘tgan zamon shakllari matn mazmunidagi zamon ma’nosining mantiqiyligini ta’minlagan (boshidan kechir**ib**di, joylashtirish**gan ekan,** eshit**dim**, eshit**dik** kabi); 3) gaplardagi so‘zlar tartibi to‘g‘ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg‘un bo‘lishi natijasida mantiqan to‘g‘ri nutq (yozma matn) hosil bo‘lgan fe’llar orqali bayon qilingan; 4) matnni qismlarga ajratishda ham mantiqiylik ta’minlangan.

MANTIQIYLIK VA MATN KOMPOZITSIYASI

Ta’limiy maqsad: nutqning mantiqiyligi me’yorlari va matn kompozitsiyasi uyg‘unligi yuzasidan bilim berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizni e’zozlash hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish, matnni mantiqan to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmasini hosil qilish.

Nutq mantiqiyligining buzilishi matn sintaksisi sathida, ya’ni gaplarning o‘zaro mazmuniy-sintaktik bog‘lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma’lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, shunga ko‘ra bog‘li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog‘lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik abzas va mustaqil gaplarni bog‘lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko‘rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabilar)ning qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mantiqiy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik gaplar, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

3. Kompozitsion bog‘lilik. Bunday bog‘lilik *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi* tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi. Yaxlit matnning mantiqiy-

ligini ta’minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o‘z aksini topmog‘i lozim. Mantig‘i sog‘lom matn „biri tog‘dan, biri bog‘dan“ fikrlar „bo‘tqa“sidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq kompozitsiya bo‘lishi zarur. Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo‘ladi, ya’ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o‘rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo‘lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, „qissadan hissa“ qilinadi. Shu tariqa, fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy asarlarning qurilishidagina emas, balki alohida olingan so‘zlar o‘rtasidagi logik-grammatik munosabatda ham izchillik buzilganday bo‘lishi mumkin: *qayg‘uli quvonch, ojiz jasorat, totli azob, buyuk ahmoqlik* kabi. Birikma tarkibidagi ma’nosi zid so‘zlarning har birining ma’nosi saqlab qolingan holda yangi bir matniy ma’no kelib chiqadi va ular badiiy san’atlar doirasida ***oksyumoron*** deb ataladi.

Masalan:

Men-chi, u kun, ne so‘z bilan bayon etayki,
O‘z qabrimning tepasida o‘zim turardim.
Dedim, falak, nega meni shu holga solding,
Haddu poyon bormi alam, dard-u sabrimga.
O‘zim ***tirik mozor*** bo‘lib kelib turibman
Menga nasib etmagan shu sovuq qabrimga. (*E.Vohidov*)

47-mashqda „Otalar so‘zi“ kitobidan olingan maqolani audio shaklida eshittirish tavsiya qilinadi. Undagi fikrning mantiqiy izchilligi va muntazam bayoni, til vositalarining o‘zaro munosabatidagi tugallikka e’tibor qilinadi. Bu mashq orqali *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

48-mashqni bajarish tartibi: „Mentalitet“ matni o‘qiladi (*o‘qish* kompetensiyasi). Matn mazmuni yuzasidan suhbat uyushtirilib, tarbiyaviy maqsad amalga oshiriladi (*gapirish* kompetensiyasi).

Mentalitet – (nem. *mentalitat* < lot. mens, mentis – aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlari)ni ham qamrab oladi.

Matnning abzaslarga ajratilishi tahlil qilinadi. Buning uchun har bir abzas uchun tezis tayyorlanadi (*yozish* kompetensiyasi):

- amerikalik gazeta rahbarining bizdagi mahallaga qiziqishi (G‘arbning Sharqqa qiziqishi masalasi);
- hamma gap hayot tarzining shakllanganida;
- ota-o‘g‘il munosabatiga ikki xil qarash (amerikacha demokratiya tantanasi – o‘zbeklarda „oqpadar“lik tamg‘asi);
- mehmonnavozlik masalasidagi farq (o‘zbekona mehmondo‘stlik tavsifi);
- mahalla mohiyatini mahallada yashagan tushunadi.

49-mashqni bajarish uchun sinf to‘rt guruhga bo‘linib, vazifa beriladi: **1-guruh** *demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar ishtirokida ilmiy matn; **2-guruh** *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari ishtirokida publitsistik matn; **3-guruh** *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar ishtirokida badiiy matn; **4-guruh** *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi* tarzidagi sintaktik qurilmalar ishtirokida rasmiy matn tayyorlaydi. Har bir guruh mazkur vositalarning matn kompozitsiyasidagi o‘rni (gap va gap qismlarini izchil bog‘lashi va mazmuniy tizim hosil qilishi)ni izohlaydi.

50-mashqda „Qalam“ matni berilgan. Undagi mantiqiylik sifati va kompozitsiya yaxlitligi quyidagi reja asosida tushuntirilishi tavsiya qilinadi:

1. Ajdodlarimiz foydalangan qalam va uning turlari.
2. Qalam takomili.
3. „Qalam“ so‘zining ko‘chma ma’nolari.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Varianti	Ma’nodoshi
Podadan oldin chang chiqarmoq	ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan ilgari gapirib yurmoq	podadan avval chang chiqarmoq *E, shoshma-sang-chi, podadan avval chang chiqarma.*	to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq *Kim senga to‘ydan ilgari nog‘ora qoq, dedi?*

Sirka-si suv ko‘tar-maydigan	tanqidga mutlaqo chidamaydigan	*O‘rtog‘ing sirkasi suv ko‘tarmay-digan bola-da, salga arazlab qoladi.*	

Savollar asosida mavzu umumlashtiriladi va xulosalanadi.
50-mashq uyga vazifa qilib topshiriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING SOFLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqning sofligi me’yorlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.
Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga ekologik ong va ekologik madaniyatni singdirish.
Rivojlantiruvchi maqsad: nutqning sofligiga putur yetkazadigan noadabiy so‘zlardan foydalanmaslik ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur mavzu nihoyatda dolzarb sanaladi. Dars avvalida o‘quvchilar orasida „Qanday nutqni toza, sof deb ataymiz?“ degan savol asosida debat tashkil qilish tavsiya etiladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini imkon boricha misollar yordamida asoslab berishlariga alohida ahamiyat qaratish zarur. Debat yakunida o‘qituvchi tomonidan quyidagi ma’lumot yozilgan slayd ko‘rsatiladi:

Nutqning sofligi deganda unda til birliklarining ishlatilishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi.

Nutqimizning sof, toza bo‘lishiga xalaqit beradigan lingvistik birliklar jadvali

1	Dialektizm	shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz	San, manglayi qara badkirdor, na sababdan mundoq yomon so‘zlarni elga tarqatding? (*Mirmuhsin*)
2	Varvarizm	o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari	– Pozdravlyayu s baranom, aka Javlun, – dedi hayratda qolgan Mullaqand. – E malades. Ibi, bo bu eshok bachchaning dumiga nima bo‘ldi? (*S.Ahmad*)

3	Kanselarizm	rasmiy-idoraviy uslubga xos bo‘lgan so‘z va iboralar	O‘rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga! (*A.Qahhor*)
4	Parazit so‘zlar	Nutqda odat tusiga kirib qolib, ko‘p qaytariladigan so‘z va birikmalar	Xo‘sh, bu gapni, shu... opang bilmasin-a, xo‘sh, tushundingmi? (*M.Mahmud*)
5	Vulgar so‘zlar	dag‘al, haqorat so‘z va iboralar	– Betingni murdasho‘y ko‘rgurlar! Qari-qartang bir momoni gunohga botirgan senlarni Xudo ko‘tarsin! (*T.Murod*)

Mavzu yuzasidan berilgan bilim darslikdagi matn va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

Topshiriq. Berilgan gaplarni o‘qing, nutqning sofligi sifatiga putur yetkazgan vositalarni aniqlang.

1. **Sizlarnikidaqa situatsiya**da har qanday bola ham bunday natijalarga erisholmaydi. (*Jurnaldan*) 2. Viktorinaga qatnashish jarayonida bir g‘oya tug‘ildi. (*Gazetadan*)

Yechim: topshiriqda berilgan gaplarda nutq sofligi sifatiga salbiy ta’sir etayotgan unsurlar sifatida dialektal so‘z (*sizlarnikidaqa – sizlarnikiday*), varvarizmlar (*situatsiya – vaziyat, viktorina – savol-javob o‘yini, bilimlar bahsi*) qo‘llanmoqda.

52-mashqni bajarish tartibi:

1. Hamqishloqlarning bu bolaga **ichlari achir, Xudo bergan** birgina o‘g‘ilni shunchalik qiynab qo‘yganlari uchun **orqavarotdan** uning ota-onasini tanirdilar. (*N.Abdiyeva*)

Yechim: 1) 2-gapning qurilishi noto‘g‘ri; 2) gap mazmuni tushunarsiz; 3) nutq sofligini buzayotgan dialektizmlar: *ichlari achir, Xudo bergan, orqavarotdan.*

2. Qonun loyihasiga ko‘ra, **energetik** ichimliklarni o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga **realizatsiya qilish** fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi mumkin. (*Gazetadan*)

Yechim: *energetik* – varvar so‘z o‘rnida *quvvat beruvchi* so‘zini ishlatsa ma’qul; *realizatsiya qilish* – kanselarizm (*sotish* so‘zini qo‘llash mumkin).

3. Maktabimizda yuqori sifatga ega **„smart-class“** tashkil qilindi. (*M. Najmiddinova*)

Yechim: varvarizmga mansub „smart-class“ (*innovatsion texnologiyalar asosida chuqurlashtirilgan dastur bo‘yicha o‘qitiladigan, raqamlashtirilgan „aqlli“ sinf*) so‘zi ishlatilgan bo‘lsa-da, bu birlik asta-sekin lug‘at qatlamidan o‘rin olyapti.

4. Shundan buyon **mundial** saralashidagi omadsizlik termamizni tark etmayapti. (*Gazetadan*)

Yechim: 1) *mundial* – varvar so‘z; 2) *termamiz* so‘zi o‘rnida *terma jamoamiz* birikmasi qo‘llanishi zarur.

5. Bu yerda esa **overtaymlarsiz** ish bitmadi: 2:2 ko‘rinishidagi durangdan so‘ng bolqonliklar hal qiluvchi golni urishdi. (*Gazetadan*)

Yechim: bu gapda ham varvarizm – *overtaym* so‘zi qo‘llangan (*overtaym – futbol musobaqalarida o‘yinning asosiy vaqtidan keyin belgilanadigan qo‘shimcha daqiqalar*).

6. Bu nutq matbuotga chiqishiga qadar esa Messi o‘zi uchun odatiy **shedevr** gol urishga ulguradi. (*Gazetadan*)

Yechim: varvarizmga mansub *shedevr* (eng oliy darajadagi fan, texnika, san’at mahsuli, yuqori mahorat natijasi, noyob iste’dod) so‘zi o‘rnida *noyob, durdona* so‘zini qo‘llash mumkin.

7. Tez orada hammaning og‘ziga tushgan 15 yoshli **vunderkind** bilan uchrashdi. (*Gazetadan*)

Yechim: bu gapda varvarizmga xos *vunderkind* (o‘z yoshidagi boshqa bolalarning intellektual rivojlanish darajasidan ustun, iqtidori tan olingan bola) so‘zi ishlatilgan.

Xulosa: o‘zbek tilida muqobili bo‘lgan chet so‘zlarni nutqda qo‘llash har ikki tilga ham hurmatsizlik sanaladi. Ayniqsa, bugungi kunda radio, televideniye va matbuotda ham xorijiy so‘zlarni qo‘llashga ruju qo‘yishni zamonaviylik belgisi emas, balki madaniyatsizlik deb baholash zarur.

53-mashqni bajarish tartibi: 1. Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*). 2. „Ishlamaydigan“, ya’ni parazit so‘zlarning nutq sofligiga zarari haqida o‘quvchilar bilan „Mendan bir ma’lumot“ usulida suhbat uyushtiriladi (*gapirish*). Har bir o‘quvchi matn asosida bittadan fikr aytadi. Bunda misollar keltirishga ham alohida ahamiyat qaratiladi:

- tilshunoslikda parazit so‘zlar ko‘proq og‘zaki nutqda kuzatiladi;
- parazit so‘zlar odat tusiga kirib qoladi;
- lug‘atlarda aniq ma’noga ega til birliklari o‘z ma’nosidan tashqarida qo‘llanadi;
- ravon so‘zlash ko‘nikmasini egallamaganlik, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo‘lmasin, „yopish“, keyingi gapni o‘ylab topish uchun *e-e-e, hm-m-m, he-ye-ye* kabi tovush „oqim“lari, *xo‘o‘o‘sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi so‘z va iboralar ishlatiladi;
- bunday so‘zlarni ko‘p qo‘llash ba’zan kishining laqabiga aylanib ketishi mumkin;
- parazit so‘zlar nutq sofligini buzadi;
- nutqda ifodalangan ma’lumotni qabul qilish aniqligiga putur yetkazadi.

Xulosa: asosiy quroli so‘z bo‘lgan mutaxassislargina emas, balki muloqot jarayonining barcha qatnashchilari parazit so‘zlarning o‘z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim.

54-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn tinglanadi (*tinglab tushunish*).
2. Qahramon nutqidagi **shu** so‘zining qanday ma’no tashiyotgani yoki tashimayotgani izohlanadi (*gapirish*).
3. „Ishlamaydigan“, ya’ni parazit so‘zlarni olib tashlab, dialogik matn qayta yoziladi (*yozish*) va yuzaga kelgan farq aniqlanadi.

***Tahrirlangan matn namunasi**:*

– Xo‘jayin, bizning mashina dovonning naryog‘ida radiatori teshilib, qolib ketibdi.

– Qanaqa mashina? – dedi hayron bo‘lib Mirvali.

– Hozir Toshkent tomondan kelayotgan bir „Jiguli“ garajga kelib shundoq dedi.

– Qanaqa mashina, deb so‘rayapman.

– Asalchining yukini Toshkentga olib ketgan mashina.

– Nega menga aytasan, garaj mudiriga ayt.

– Xotini to‘lg‘oq tutib, kasalxonaga olib ketgandi.

– Bo‘pti, bosh mexanikka ayt.

LUG‘AT ISHI

Soyasiga ko‘rpacha solmoq – izzat-hurmat qilishni me’yoridan o‘tkazib yubormoq. *Varianti*: soyasiga ko‘rpacha yozmoq; soyasiga

ko‘rpacha to‘shamoq. *O‘xshashi*: boshiga ko‘tarmoq. *Misollar*: 1. Direktor bo‘lgach, soyasiga ko‘rpacha soladiganlar ko‘paydi. 2. Qiziq, shu bolani hadeb boshiga ko‘taradi.

Tinkasi qurimoq – toliqmoq, darmonsizlanmoq. *Varianti*: tinka-madori qurimoq. *Ma’nodoshi*: holdan toymoq; hushdan ketmoq. *Misollar*: 1.Hujjat to‘g‘rilash uchun shaharga qatnayverib tinkasi quridi. 2.Holdan toygan, tinka-madori qurigan bo‘ri, nihoyat, bir amallab tepalikka chiqib oldi. 3. Qarilik qursin, bolam, holdan toydim.

Savollar asosida mavzu umumlashtiriladi va xulosalanadi.

NUTQNING SOFLIGI VA BADIIY NUTQ

Ta’limiy maqsad: nutqning sofligi me’yorlari va badiiy nutqning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan bilim berish va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ota-onani e’zozlash, o‘zidan kattalarni hurmat qilish hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn sofligini ta’minlovchi me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Namunaviy nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo‘lishi, turli g‘ayriadabiy va g‘ayriaxloqiy til birliklaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning til jihati bo‘lib, nutqiy soflikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda bo‘layotgan o‘zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo‘lishi lozim.

Badiiy nutqda nutqning sofligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Nutqimizning sof bo‘lishiga xalaqit berayotgan lingvistik elementlar qaysilar? Bular, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. To‘g‘ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo‘lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma’lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma’lum g‘oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Dialektal so‘zlarning badiiy adabiyotda o‘rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo‘lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dialektizmlar va adabiy til doirasida me’yorni belgilash tilimizdagi mas’uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Aytaylik, muallif milliy ruhni bermoqchi, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilmoqchi yoki boshqa bir maqsadni ko‘zlagan bo‘lsin. Ana shunday paytlarda tilning bu unsurlariga murojaat qilish hatto zarur. Badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma’rifiy saviyasiga urg‘u berish uchun o‘zbek tiliga kirib o‘zlashmagan chet so‘z va so‘z birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini bo‘rttirib ifodalash niyatida dag‘al va haqorat so‘z-iboralar, shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi o‘z ma’nosidan begona qilingan, ya’ni ishlamaydigan so‘z va iboralar ishlatilishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan so‘z va iboralar rasmiy uslubdagina qo‘llanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatilishi o‘rinli bo‘lmaydi. Ammo personajning madaniy-ma’naviy saviyasini kinoyaviy ta’kidlash maqsadida, ya’ni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qo‘llanishi kuzatiladi. Shuni yodda tutish muhimki, tilda kanselarizm, parazit so‘zlar va vulgarizm unsurlarini qo‘llashga ijobiy hodisa sifatida emas, balki me’yorning buzilishi deb qarash hamda ularni nutqda qo‘llamaslik lozim.

Xullas, nutqimizning sofligi uchun kurash undan foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo‘lishi kerak. Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapirishimiz mumkin bo‘ladi.

Nazariy bilimni mustahkamlash uchun darslikka murojaat qilinadi.

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing va shevaga oid birliklarning nima maqsadda qo‘llanganligini izohlashga harakat qiling.

1. **Juringlar**! Qaytishda cho‘milamiz! – dedi Oqboy. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. **Shuytib** kepqolganman-da men bu yoqlarga, bolam. (*Erkin A’zam*) 3. Mana, Salomxon **aytvotti**, xijolat bo‘ladigan hech gap o‘tmabdi-ku. (*Murod Mansur*) 4. Sharif **akamgila** xat berib **yubordila**, – dedi. (*Tohir Malik*)

Yechim: badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllardan foydalanilgan: 1-gapda *juringlar – yuringlar*; 2-gapda *shuytib – shunday qilib*; 3-gapda *aytvotti – aytyapti*; 4-gapda *akamgila – akamlar, yubordila – yubordilar.*

2-topshiriq. Parchada tagiga chizilgan so‘zlarning qanday badiiy maqsadga xizmat qilayotganini tushuntiring.

Muxbir: – **Xo‘sh, xo‘sh, endi tak**... kechirasiz, kelinlaringiz orasida mayin kuladigani bormi?

Farmon: – Ha, bor. Mana, Sotti juda mayin, juda chiroyli kuladi. (*Said Ahmad)*

O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim, **yashamagur,** uni ham rasvo qildi. Bolaginamga ega chiqib, burnidan ip o‘tkazib oldi bu **dog‘uli**. (*Said Ahmad*)

Yechim: birinchi matnda shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun parazit so‘z (*xo‘sh, xo‘sh*) va varvarizm *(tak*), ikkinchi matnda esa qahramonning ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini ifodalash niyatida vulgarizm unsurlari – dag‘al va haqorat so‘zlar (*yashamagur, dog‘uli*) ishlatilgan.

56-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday badiiy maqsadda qo‘llanganini izohlang.

1. Mingboshi erkin-erkin kuldi: – Tavba de, **betavfiq**! Astag‘firullo, de! – Miryoqub „astag‘firullo“ o‘rniga uyat bir so‘z aytdi. Mingboshi beshbattar yoyilib kuldi. – A **battol**-ey! O **battol**-ey! – dedi u. (*Cho‘lpon*) 2. Tuf de, ko‘zing tegadi, **kasofat**! Shu so‘zingni menga aytsang, tishingni sug‘urib olardim. (*Oybek*) 3. Bu yerda ish yomonmi? Raisning gapini eshitding-ku, **yer yutkur**! (*O‘.Umarbekov*) 4. Hazarni biladimi bu **go‘rso‘xta**. Hukumat**ni** qo‘liga tushsa, otuv berardi. (*Murod Mansur*) 5. Endi Qizilsoyga yaqin borsang, o‘ldiraman, **juvonmarg**! (*Erkin A’zam)*

Yechim: qahramon ichki dunyosini, tarbiyalanganlik darajasini bo‘rttirib ifodalash niyatida muallif ularning nutqida vulgar birliklar: dag‘al va haqorat so‘z-iboralarni qo‘llagan. 4-gapda shevaga xos grammatik vosita (*hukumat**ni***) ishlatilgan.

57-mashqda atoqli adib Abdulla Qahhor qalamiga mansub matn berilgan. Matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*) va unda nutqning qaysi sifatiga bee’tiborlik haqida gap ketayotgani ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi (*gapirish*): bunda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan yaproqqa belgi qo‘yadilar. O‘qituvchi belgilarni hisoblab, sonini aniqlaydi. So‘ngra to‘g‘ri javobni aytib, g‘oliblarni rag‘batlantiradi.

Xulosa: yozuvchi nutqning boyligi sifatiga diqqatni tortib, tilning xalqona jozibadorligini, badiiy-estetik saviyasini pasaytirgan jihatlarni nazarda tutgan.

58-mashqdagi gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan parazit so‘zlar shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanganligi izohlanadi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar
Tishi o‘tmaydi	1. Biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi. 2. Yenga olmaslik; o‘zlashtira olmaslik. 3. Idrok qilolmaslik, uqib yoki tushunib ololmaslik.	*Men uni yaxshi bilaman: uncha-muncha-ning tishi o‘tmaydi.* *Masala juda qiyin ekan, yechishga tishim o‘tmayapti.*
Xamirdan qil sug‘urganday	osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz	*Ishni xamirdan qil sug‘urganday hal qilgan nafs bandalari qilmishlariga yarasha javob berdilar.*
Xamir uchidan patir	katta, ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism	*Bu natijalar, albatta, xamir uchidan patir yoki dengizdan bir tomchidek gap.*

O‘tilganlarni mustahkamlash maqsadida „7x7“ usulidan foydalanish mumkin. O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘sh kataklardan iborat jadvalni doskaga ilib qo‘yadi.

Sinf yettita kichik guruhga bo‘linadi. Nutq mantiqiyligi, sofligi va badiiy nutq uslubiyati yuzasidan olingan bilimlarni umumlashtirish maqsadidagi didaktik mashq yo‘nalishi tushuntiriladi. Slaydda badiiy nutqqa xos tasviriy vositalar ko‘rsatiladi. Har bir guruh o‘z yo‘nalishi bo‘yicha mos birliklarni jadvalga joylashtiradi.

Quyida badiiy nutqqa xos tasviriy vositalar keltirildi**.** O‘qituvchi ularni aralash holda slaydda berishi tavsiya qilinadi.

1. O‘xshatishlar: oynaday tiniq buloq, mumday erimoq, toshday qattiq bardosh, oyday yorug‘ yuz, ko‘zday qo‘shni, soyaday ergashmoq, bo‘yraday joy.

2. Jonlantirishlar: mung‘aygan bog‘, vijdoni uyg‘ondi, osmonni suygan daraxt, qiynoqlar qiynalib qoldi, bahor uyg‘ondi, tog‘lar yastanib yotar, yulduz uchdi.

3. Metaforalar: to‘nka, jim o‘tir; yulduzlar bilan uchrashuv; gulim, kel; uxla, qo‘zichog‘im; ko‘nglim ul oydadur; qush uyasida ko‘rganini qiladi; arslonim chempion bo‘ldi.

4. Iboralar: yuragiga qil sig‘maydi, do‘ppisini osmonga otmoq, to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq, soyasiga salom bermoq, tili qisiq, ilonning yog‘ini yalagan, kapalagi uchib ketdi.

5. Varvarizmlar: koroche, tak shto, chicken, okey, malades, uje, savsem, tochno, zvonok, zajigalka, mister.

6. **Shevaga xos so‘zlar:** oshna (do‘st), ena (buvi), acha (buvi), chalop (ayron), qoqirim (tumovga qarshi tayyorlanadigan ayronning bir turi), bichak (somsa), kadi (oshqovoq), hazorispan (isiriq).

7. **Parazit so‘zlar:** habba, innaykeyin, deylik, men sizga aytsam, haligi, xo‘sh, esa-chi, o‘sha, masalan.

Darslikdagi savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalarini qo‘lga kiritadilar.

59-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqning kommunikativ sifatlari, xususan, to‘g‘rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik yuzasidan olgan BKMlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy urf-odatlarimizga, ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Savol va topshiriqlarni „Kichik guruhlarda ishlash“ usulida o‘rganish tavsiya etiladi. Har bir guruhga bittadan savol berib, tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Guruhlar bir-birining javoblarini to‘ldirishi mumkinligi aytiladi (*o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi).

1-topshiriqni bajarishda „Hamkorlikda ishlaymiz“ metodi tavsiya qilinadi. O‘quvchilar gaplarni o‘qib, nutqning aniqligini ta’minlashga ta’sir qilayotgan til birliklarini aniqlaydilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim:

1. Kechikib kirgan qish endi kun sayin sovug‘ini **kuchaytira boshlagan edi** *(jonlantirish)*. Qor yo‘q, lekin **ertalab yalang‘och daraxtlarda va tomlarda qalingina qirov yaltiraydi** *(sifatlash)*. *(Oybek)*

2. G‘afur G‘ulomning fikr-u yodi **tug‘ilayotgan she’r**da edi (*jonlantirish)*. Frontdan qaytishda **bombalar portlagan o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda** silkinib ketayotgan yuk mashinasida ham yoza berdi (*sifatlash*). *(Said Ahmad)*

3. Yaqin ikki haftadan beri **ko‘z ochirmayotgan** kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida **chiyillaydi, g‘uvillaydi;** tomlarda **vishillaydi,** yopiq eshik va darchalarga **bosh urib, uf tortadi** *(jonlantirish). (Abdulla Qahhor)*

2-topshiriq. Berilgan „Tomsuvoq“ matni audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Matn yuzasidan quyidagi savollar berilib, uning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlashiladi:

1. Tomsuvoq qilish udumi (lo‘mboz) o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qanday fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan?

2. Kampirning o‘g‘lini „nodon bola“, „nobakor“ deb atashini qanday izohlaysiz?

3. „Ko‘chaning tuprog‘i – ko‘pchilikning haqi“, degan fikrga qo‘shilasizmi?

O‘quvchilar matnning kompozitsion tuzilishini aniqlaydilar: kirish, asosiy qism va xulosaga ajratadilar, ular o‘rtasidagi mazmuniy mutanosiblikni izohlaydilar (*gapirish*).

Matnning kompozitsion tuzilishi
Kirish Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...
Asosiy qism O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loy handaq qazilgan ekan. Somon, katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdan yumshabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov handaqqa tushib loy solib berib turdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi... Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchimning keksa onasi kelib qoldi. Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchimizning oldiga bordi. – Nima qilding? – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qilib qo‘yding?! Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida, ayniqsa, mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi. – Nima qipman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirpiratib. – Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! Nega ko‘chadan loy qildilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi, nobakor! Ko‘pchilikning haqi-ku bu! Bir zum harsillab turdi-da, to‘satdan yig‘lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o‘tirib oldi. Hammamiz qaytadan tomga chiqdik. Suvoq qilishdan ko‘ra loyni ko‘chirish qiyin bo‘larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko‘chadagi loy handaqni to‘ldirib qo‘ydik.

Xulosa

Oradan yillar o‘tib, kampir ko‘z yumganida tumonat odam uni o‘sha ko‘chadan so‘nggi manzilga ko‘tarib bordi.

Ko‘cha tuprog‘i iliq edi... Mayin edi... *(O‘. Hoshimov)*

Izoh: matn kompozitsion tuzilishida mazmuniy mutanosiblik, bog‘lilik mavjud.

Kirish qismida xalqimizning ajoyib udumlaridan biri bo‘lgan tomsuvoq haqida gap boradi. Hasharning hamjihatlikda qilinishi, ayniqsa, oqibat va shafqat tushunchasi orqali tarbiya beriladi.

Asosiy qismda tomsuvoq jarayoni hikoya qilinadi. Gaplarning izchilligi, mazmuniy bog‘liqligi ta’minlangan. Personajlar nutqi jonli, jozibador, xalqona ohangga ega. „Halollik“, „ko‘pchilikning haqi“ tushunchalari obrazli ochib berilgan.

Nihoyat, yozuvchi voqea yuzasidan xulosa chiqarishni o‘quvchi hukmiga havola qiladi. Hikoyaning boshidan oxirigacha o‘tgan „qizil ip“ – **tuproq** asli xalqning asriy ruhiyati, o‘lmas qadriyatlariga ishoradir.

3-topshiriqda o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, so‘zlovchining nutqi qaysi shevaga mansubligini aniqlaydilar va lug‘at daftarlariga tushiradilar (*o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlanadi).

Oka, unaqa vaqtim yo‘q, – dedi shofyor. – Nochorlikdan **chiqovuzde**. *(Sh. Xolmirzayev)*	Toshkent shevasi
Bundan **kattakoniyam** bor. **Apasiyam** bor. *(Sh. Xolmirzayev)*	Surxondaryo shevasi
Bugun Aravonda katta uloq, deng, **ashaqqa** borish kerak. **Endivla** jo‘naymiz, deb turuvdik. *(Tohir Malik)*	Andijon shevasi
Ertaga **biznikiga** nonushta qilsak. *(Said Ahmad)*	Samarqand – Buxoro shevasi
Bundaychikin polvonni yana qaytib davraga **yonoshtirmaslik** kerak! *(Tog‘ay Murod)*	Qashqadaryo shevasi

LUG‘AT ISHI

Boshi shishmoq – o‘ylayverib gangimoq. *Ma’nodoshi*: boshi qotmoq; miyasi g‘ovlab ketmoq. *Misol*: Janjal nimadan chiqqanini o‘ylayverib boshim shishib ketdi.

Enka-tenkasi chiqmoq – 1. Qiynalib ketmoq. *Varianti*: enka-tenkasini chiqarmoq. 2. To‘satdan qattiq qo‘rqmoq. *Misollar*: 1. Uf, yana qancha bor, rosa enka-tenkamiz chiqdi. 2. Voy o‘lmasam, enka-tenkam chiqib ketay dedi-ku!

4-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi. O‘quvchilar matnni ko‘chirib, undagi badiiy maqsad bilan voqelangan adabiy me’yordan chekinish holatlarini aniqlaydilar.

Yechim:

– Kechirasiz, Quvvatjon, – deb yana gap qotdi Gulsara. – **Pisatel**larning **dacha**si bor, deb eshitardim. „Dam olish uyi“ga **o‘xshiydimi**? Boya **biznesmen**lar ham ko‘p **dediyiz.** Demak, sanatoriy **tip**ida?

– Farq qiladi, – dedim. – Uning nomi **to‘lasicha** „Yozuvchilarning ijod va istirohat bog‘i“ deyiladi. Uch qavatli imorat... Ko‘pchilik xonalari bir kishilik. Yashash, ishlash uchun sharoit bor...

– O, yaxshi ekan. Yozda Toshkentda nafas **obo‘miy** qoladi... Bilasizku **o‘ziyiz**?

– Ha.

– **Ponyatno**, – deb qo‘ydi Gulsara. Keyin yana so‘radi: – Bizni begona deb...

– O‘-o‘, yo‘q. Unaqangi temir qoidalar bizda yo‘q... Umuman, uyushmamizdayam **ilgaritdan** qandaydir demokratiya bor edi.

– E-e, yozuvchilaringiz ham bir-birini juda qamatishgan ekan, – dedi Tavakkal.

– Ha, – dedim. – Afsuski, shunday bo‘lgan... (*Sh. Xolmirzayev*)

NUTQNING BOYLIGI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda nutqning boyligi va uni ta’minlovchi vositalar haqidagi tushunchalarni rivojlantirish; og‘zaki va yozma nutqda o‘rinsiz takrorlardan foydalanish g‘alizlik keltirib chiqarishini matn tahlili orqali ko‘rsatish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali unga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash; tilimizni qadrlash, uni himoya qilish ko‘nikmasini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalarini shakllantirish.

1-topshiriqni bajarishda „Muharrir maktabi“ metodi tavsiya qilinadi. Berilgan parchada ayni bir xil birikmaning bir necha marta qo‘llanishi natijasida nutqning kambag‘allashayotganiga diqqat qilinadi va izohlanadi (*o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Asosiy matn	Tahrir qilingan matn
Men esa, iloji boricha, **kuchimning boricha** chopib, jinoyatchidan ortda qolmaslikka, uning qorasini ko‘zdan yo‘qotmaslikka tirishaman... Valitov yo‘l ustiga gursullab ag‘anadi, Davletshin chaqqonlik bilan uning ustiga minib oldi... **Bor kuchi bilan** tipirchilab, oyoqlari bilan tepinib ko‘rsa ham, Valitov uni ustidan irg‘itib tashlay olmadi... Biz yetib kelgan edik. **Bor kuchim bilan** uning qo‘liga yopishdim. (M. Nasibullin)	Men esa, iloji boricha, *oyog‘imni qo‘limga olib,* chopib, jinoyatchidan ortda qolmaslikka, uning qorasini ko‘zdan yo‘qotmaslikka tirishaman... Valitov yo‘l ustiga gursullab ag‘anadi, Davletshin chaqqonlik bilan uning ustiga minib oldi... *Jon-jahdi bilan* tipirchilab, oyoqlari bilan tepinib ko‘rsa ham, Valitov uni ustidan irg‘itib tashlay olmadi... Biz yetib kelgan edik. *Zo‘r berib* uning qo‘liga yopishdim.

2-topshiriqdagi matn o‘qiladi. Ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanish o‘rinlariga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish va yozish kompetensiyalari rivojlanadi*).

Yechim: ilonning yog‘ini yalagan, ayyor, mug‘ambir (ibora va so‘z ma’nodoshligi); chaqqon – ildam. Iboraning qo‘llanishi qahramon xarakterini yorqin ochishga ko‘mak bergan.

Nutq ta’sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo‘lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘zlar, ma’nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.) dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al hisoblanadi va uning ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya’ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo‘llanilgan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o‘lchanadi.

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga turlicha til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so‘zlar, ularning ma’nolari,

so‘z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo‘lmog‘i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo‘lsa, notiq o‘z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko‘proq ega bo‘ladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o‘rin tutadi.

60-mashq *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Bajarish tartibi:

1. Matn eshittiriladi.
2. Mazmuni bo‘yicha tarbiyaviy daqiqa o‘tkaziladi.
3. **Ota** va **padar** so‘zlarining ma’nodoshligidan nutq boyligini ta’minlashda qanday foydalanilganligi izohlanadi.

Izoh: bu matnda **ota** so‘zi ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma (*ustoz*) ma’noda qo‘llangan va shu tariqa matn ta’sirchanligi ta’minlangan.

61-mashqda berilgan matnlar o‘qiladi, ma’nodosh so‘zlar aniqlanib, sinonimik qator tarzida daftarga yoziladi. Ularning qo‘llanishiga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

1-gapda *sas, ovoz, sado; yovuz, dahshatli* ma’nodoshlarini qo‘llash natijasida badiiy tasvirdan anglashilayotgan mazmun kuchaytirilgan.

2-gapda *do‘st, o‘rtoq, birodar* ma’nodoshlarini qo‘llash orqali so‘zni takror qo‘llashning oldi olingan; *tarix* so‘zi uning ma’nodoshi bo‘lgan *o‘tmish* so‘zi orqali izohlangan.

62-mashq uchun „2+“ metodi tavsiya etiladi. Birinchi guruh so‘z shaklidagi, ikkinchi guruh esa ibora shaklidagi sinonimlarni topib, juftlik hosil qilishlari kerak (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

Leksik ma’nodoshlik	Sintaktik ma’nodoshlik
og‘ir – zalvarli	baqadek tosh qotgan – hayratdan tosh qotgan
tabassum qilmoq – kulmoq	kutgan hol yuz bermadi – quturmadi
avvaliga – so‘ng	

63-mashqni bajarishda „Qayta hikoya“ metodi tavsiya etiladi. Matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi yoki audio shaklida eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matndagi obraz tasviridagi so‘z va birikmalarni yodda saqlab, qayta hikoya qilib berishlari kerak. Bu mashq orqali *tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Yechim:

Yigit qiyofasining tasviri	Birinchi yordamchi tasviri
Yoshi qirqda, lekin o‘ttiz yoshdek (**ko‘rinishi yosh, zahmat chekmagan**); qomatdor, xipcha, sochlari orqaga taralgan, silliq taralib, ustidan lok sepilgan **(tashqi ko‘rinishiga e’tiborli)**; to‘qrang kostyumi sutday oppoq ko‘ylakda, misoli tanburning toriday tarang (**kiyimni ham tanlab kiyadi**); yuzida tavoze, ammo jilmaygani sezilmaydi (**sirtiga suv yuqtirmaydi**).	Dehqonsifat (**kiyim tanlamaydi**); semiribroq ketgan (**sog‘lig‘iga e’tiborsiz**); yoshi ham biror ellikni qoralagan (**tajribali**); gaplari keskin va bejog‘siz (**rostgo‘y va dangalchi**).

LUG‘AT ISHI

Iboralar	Izohi		Misollar
Ep bilmaslik	Noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq	**Ma’nodoshi:** ep ko‘rmaslik	*Hotam ortiqcha adi-badi aytib o‘tirishni o‘ziga ep ko‘rmadi.*
Esi ketmoq I	1. Qiynalib holsizlanmoq	**O‘xshashi:** holdan toymoq; holdan ketmoq	*Eskini yamaguncha esing ketadi.*
	2. Qayta-qayta mehribonlik, xayrixohlik bildirmoq	*Har gal qishloqqa borganida opasi aylanib-o‘rgilib esi ketadi.*	
Esi ketmoq II	Xayoli biror narsa haqidagi o‘y-xotiralar bilan band	*Yana bolalik xotiralariga esi ketdi.*	

Darslikdagi savollarga javob topilib, baholar izohlab qo‘yiladi. **64-mashq** uyga vazifa qilib beriladi.

Yechim:

	Sinonimik juftlik	Ifodalanayotgan birlik
1	shovqinlanmoq – boshiga ko‘tarmoq	leksik-frazeologik

	yoqtirmaslik – jini qurishib turish	leksik-frazeologik
2	halim tabiat – yumshoq ko‘ngil	leksik-frazeologik
3	qarab chiqmoq – axtarmoq – titkilamoq	leksik-leksik-leksik
4	yig‘ladi – dod soldi – ho‘ngramoqdan beri bo‘lmoq – ko‘zi yoshga jiqqa to‘lmoq; unmoq – o‘smoq	leksik-frazeologik leksik-leksik

Izoh: nutqda leksik va frazeologik sinonimlarni qo‘llash natijasida takrorlarning oldi olinadi, jozibadorlik va ekspressivlik ortadi, nutqning ta’sirchanligi ta’minlanadi.

NUTQNING BOYLIGINI TA’MINLOVCHI VOSITALAR

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar haqida tushuncha berish; og‘zaki va yozma nutq tuzishlarida ma’nodoshlardan foydalanish orqali o‘rinsiz takrorning oldini olish.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish orqali kitobxonlik madaniyatini oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutq boyligini ta’minlayotgan vositalarni aniqlay olish ko‘nikmasini shakllantirish; *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalarini rivojlantirish.







Mavzu uchun quyidagi videotopishmoq-matndan foydalanish tavsiya qilinadi:

Olimlarning hisoblab chiqishlariga ko‘ra, „Rus poeziyasining quyoshi“ o‘z asarlarida 21197 ta betakror so‘z ishlatgan. „Tragediyalar qiroli“ salkam 20 ming-ta, „Don Kixot“ romani muallifi 1000 taga yaqin so‘z zaxirasiga ega bo‘lgan.

„Shams ul-millat“ esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so‘z qo‘llagan. Boisi shuki, buyuk shoir nafaqat turkiy, balki forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan. (*O.Hoshimov*)

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va

yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarining, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy matnda ijodkor niyati, o'y-xayoliga bog'liq ravishda adabiy me'yor doirasidan tashqarida bo'lgan til shakllari ishlatilishi ham mumkin. Eskilik va yangilik o'rtasidagi kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham, ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. O'z nutqining boy va ta'sirchan bo'lishini istaydigan har bir kishi o'z lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Nutqning boyligini ta'minlovchi vositalar	
Leksik vositalar	1.Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochish maqsadida ma'nodoshlardan foydalanish. 2. Sodda va qo'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplarini qo'llash.
Semantik vositalar	
Grammatik vositalar	
Intonatsion vositalar	

Darslikdagi **topshiriq** „Topqirlar" metodida bajariladi (*tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi). Matnda *kapalak* so'zining yetti marta takrorlanishi natijasida nutqning leksik boyligi zarar ko'rgan.

Yechim:

Asosiy matn	Tahrirlangan matn
Kapalaklarni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan **kapalak**larga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularning hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalak**ka ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa? O‘tkir **kapalak**ni ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **kapalak** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O‘tkir **kapalak**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **kapalak**ni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi. (*A. Sodiqov , „Tog‘da“ hikoyasi*)	**Kapalak**larni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan **bu tabiat mo‘jizalari**ga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularning hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalak**ka ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa?! O‘tkir **u**ni ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **ipak qanotli** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O‘tkir **gul shaydosi**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **jajji farishta**ni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi.

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo‘llanadigan takrorlardan farqlash lozim.

Ko‘proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta’kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog‘lovchi, so‘z, so‘z birikmasi, gaplar takrorlanadi.

Quyidagi parchalardan nazariy ma’lumotni dalillash maqsadida foydalanish mumkin:

1. She’riyat, yo‘llaringda sening,
Eh, kimlar zor-u zor kezmagan.
Eh, kimlar chok etib ko‘ksini,
Qalbini g‘ijimlab ezmagan. (*R.Parfi*)

2. Bobomiz hovlisi Farg‘onada ***bo‘ladi.***
Dalasi Farg‘ona adog‘ida ***bo‘ladi***.
Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi.
Suv gavhar zilol – gavhar zilol suv bo‘ladi.
Suv egilmish tollar majnun-majnun sollanadi. (*T. Murod*)

3. **Nega *inson*** o‘zini ayamaydi, aziz Momo Yer? Axir bor-yo‘g‘i birgina joni bor-ku uning, ikkitamas-ku.

Nega shunday fidoyilar o‘ladi? ***Nega*** yer o‘pirilib, osmon uzilib tushmaydi ***inson*** o‘lganida, ***inson*** yiqilganida?! (*T. To‘la*)

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun **„FSMU“ metodi** tavsiya etiladi:

F – mavzu bo‘yicha **fikr**ingizni bayon qiling.
S – fikringiz **sabab**ini bildiring.
M – **misol**lar keltiring.
U – fikringizni **umumlashtiring.**

65-mashqqa „Audionutq“ metodini tatbiq etish tavsiya qilinadi. Bajarish jarayonida *tinglab tushunish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

1. Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, ozod-ozod to‘lin oy samoda nur sochdi. Bir **malak bor edi**, **kelin bo‘ldi,** bir **jayron bor edi,** qafasga tushdi, bir **qiz bor edi,** turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo‘ydi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: bu gapda takrorlar (***bor edi***) orqali ma’no ta’kidlangan. Ham ma’no ko‘chishi yuz bergan, ham o‘xshatish hodisasi qo‘llangan. Sxemada ko‘ramiz:





2. Farzand ko‘rgach, Ra’no haqiqatan ham gul-gul ochildi. Qizlik go‘zalligi bu tarovat oldida hech nima bo‘lmay qoldi. Gul **edi**, Xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak **edi**, barq urib ochildi. Bulut **edi**, yomg‘irini ayamay to‘kdi. Quyosh **edi,** harorat-la porladi. Oy **edi,** to‘lishdi. Kecha **edi,** bag‘ri yulduzga to‘ldi. Qush **edi**, jo‘shib-jo‘shib sayradi. Zilol **edi,** sharqirab oqdi. (*Isajon Sulton*)

Yechim: matnda Ra’noning onalik baxti tasvirini berishda ta’kidni kuchaytirish maqsadida takrorlar hamda o‘xshatishning go‘zal namunalari keltirilgan:



Edi to‘liqsiz fe’lining takrori badiiylikni ta’minlagan

66-mashq „Intervyu“ metodidan foydalangan holda bajariladi.

1. Matn bilan tanishiladi (*o‘qish, tinglash*).
2. Hozirgi zamon ma’nosining ifodalanishiga diqqat qilinadi.
3. Grammatik ma’nodoshlikning boy nutq tuzishdagi ishtiroki yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

Yechim: yer haydamoqda, urug‘ sepyapti (*har ikkala til vositasi shaklan va mazmunan hozirgi zamon);* **shimarib olgan** (*shaklan o‘tgan*

zamon, mazmunan hozirgi zamon); **yer haydab, ekin ekayotir** (*shaklan va mazmunan hozirgi zamon*); yer haydaydi, xirgoyi qilib qo‘yadi (*har ikkalasi shaklan kelasi zamon, mazmunan hozirgi zamon*).

Izoh: barcha fe’l shakllari mazmunan hozirgi zamonni ifodalagan;

yer ***yumshoq,*** *havo* ***yoqimli,*** *ishning unumi* ***yaxshi,*** *ruhlari* ***ko‘tarinki*** birikmalari tarkibidagi sifatlar tasviriy matnning jozibadorligini ta’minlagan;

yumshoq, yoqimli, yaxshi, ko‘tarinki so‘zlariga ma’nodoshlar topiladi (*yozish*).

Namuna:

yumshoq – muloyim, mayin…

yoqimli – huzurbaxsh, zavq bag‘ishlovchi…

yaxshi – durust, zo‘r, yuqori…

ko‘tarinki – xursand, shod…

67-mashqqa „Hamkorlar“ metodini qo‘llash tavsiya etiladi. Badiiy va ilmiy-ommabop matnda o‘rikka berilgan tavsiflar qiyoslanadi. Nutqning boylik sifati, ayniqsa, badiiy uslubda ahamiyatliligi tushuntiriladi.

Yechim:

<table>
<tr><th>Matnlar</th><th>O‘xshashlik</th><th>Farqlilik</th></tr>
<tr><td>Qandak o‘rik
Otim bor,
Xo‘p mazali
Totim bor.
Mag‘izimga
berkitgan
Qandim bor,
Novvotim bor.
(E. Vohidov)</td><td rowspan="2">Ikkala matnda ham bir tushuncha – o‘rik tavsifi berilgan.</td><td>- badiiy uslubga xos;
she’riy ritmga solingan;
- badiiy tasvir vositalari qo‘llangan: sifatlash (mazali), jonlantirish (mag‘izimga berkitgan);
- intoq mavjud (jonsiz narsa so‘zlayapti);
- estetik zavq beradi;
- obrazlilik kuchli.</td></tr>
<tr><td>O‘rik – ra’noguldoshlar oilasiga mansub mevali o‘simlik. Vatani – O‘rta Osiyo. O‘zbekistonda, asosan, oddiy o‘rik turi ekiladi. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg‘ish; danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillari bor; shirin, shirinnordon. O‘rik – yaxshi asal beruvchi daraxt. (O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi)</td><td>- ilmiy uslubga xos;
- nasriy bayon;
- tavsifda aniqlik, tushunarlilik, ommaboplik belgisi ustun;
- botanikaga oid terminlar (ra’noguldoshlar oilasi, mevali o‘simlik, mevasi etli, danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillar, tur, daraxt) berilgan;
- hissiylik mavjud emas.</td></tr>
</table>

68-mashqqa „Tahrir maktabi“ metodi tavsiya etiladi. Gaplar o‘qiladi va nutqning boyligini ta’minlayotgan birliklar izohlanadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: 1-gapda **ko‘ngling tusagan** (ibora), **ma’rifat, ziyo** (sinonimlar) mavjud; so‘zlashuv uslubiga xos buyruq gapda maslahat ma’nosi ifodalangan, o‘ziga xos kinoyaviy intonatsiya kuchli. 2-gapda **tugab – izzatimiz bitib** (leksik-frazeologik ma’nodoshlik); *mehmonlik izzatimiz bitib* birikmasi orqali kinoya ma’nosi ifodalangan. 3-gapda **ot – tulpor, xush ko‘ramiz – yaxshi ko‘ramiz** (leksik ma’nodoshlik), **tamom o‘zidan ketgan – butkul unutib** (frazeologik-leksik ma’nodoshlik), qisman saj mavjud (unutib – yugurib – sindirib); **yaxshi ko‘ramiz** fe’li I shaxs ko‘plik shaklida tursa-da, kamtarlik ma’nosida I shaxs birlik mazmuniga ega; xitob orqali (**Uch-a, jonivor! Uch, akang qarag‘ayning xo‘rozlari!**), ***akang qarag‘ayning xo‘rozlari*** jumlasi esa so‘zlashuv nutqiga xos jonlilikni bag‘ishlagan.

69-mashqni bajarishda „Suxandon“ metodi tavsiya etiladi. She’riy parchani qiyomiga keltirib ifodali o‘qish bo‘yicha kichik tanlov tashkil qilinadi. Eng yaxshi badiiy o‘qish ustasiga „SUXANDON“ maqomi taqdim etiladi. Leksik takrorning qanday maqsad bilan qo‘llangani izohlanadi.

Shag‘irlaydi betinim daryo,
Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar,
Shag‘irlaydi qorong‘i dunyo,
Shag‘irlaydi vodiy, daralar. (*Hamid Olimjon*)

She’rdagi intonatsion ta’kid va voqelik tasviri ifodasini berish maqsadida *shag‘irlaydi* so‘zi takror qo‘llangan va badiiy nutqqa go‘zal ohang bag‘ishlagan.

Izoh: tun payti shunday osudalik cho‘kadiki, „tiq“ etgan tovush ham jaranglab eshitiladi. Tun qo‘yniga cho‘mgan daryo, jar, vodiy-daralar – dunyoning o‘ziga xos sokin musiqasini shoir *shag‘irlaydi* so‘zini qo‘llash orqali ravshan ifodalab bera olgan.

LUG‘AT ISHI

Esi chiqib ketmoq – nihoyatda qattiq qo‘rqmoq. *Varianti*: esxonasi chiqib ketmoq. *Ma’nodoshi*: jon-poni chiqib ketmoq; joni halqumiga kelmoq. *O‘xshashi*: kayfi uchmoq; yuragi chiqib ketmoq. *Misollar:* 1. Anzirat xolaning bu xabardan esi chiqib ketay dedi. 2.Gapning ochig‘i, jonim halqumga kelib qoldi.

Yuzidan o‘ta olmaslik – biror ishni qilishda kimningdir ra’yi, xohishi bilan hisoblashmoq. *Misol:* shartta hammasidan voz kechib ketgisi kelar, biroq mehribon yangasining yuzidan o‘ta olmasdi.

Uyga vazifa beriladi.

70-mashq. Matnni ko‘chiring. Nutqning boyligini ta’minlayotgan ma’nodosh so‘z va iboralarni aniqlang.

Amir bo‘la(xolavachcha)miz **ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq**, aksariyat savdo ahliga xos **kirishimli,** sal narsaga **yon beruvchi** yigit. U menga juda mehribon, „bolajonim“lab **boshiga ko‘taradi**. Qisqasi, Xudo berganini **birodarlari bilan bo‘lishadigan hotamtoy, muruvvatli** inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham **kek-g‘araz**ini sezmaganman, hamisha **bag‘rini ochib** muomala qiladi. To‘g‘ri, andak **kinoya aralash**, andak **piching-u istehzo bilan**. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyanning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini **xush ko‘rmaslik – iqi suymaslik**mi yoki arzimas bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib **adovat chohi**ga aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi **xarxasha-yu janjal** evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, „o‘gay“ jiyan – Amirga esa odatdagi yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (*Erkin A’zam*)

NUTQNING JO‘YALILIGI

Ta’limiy maqsad: *o‘quvchilarga nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar haqida tushuncha berish; og‘zaki va yozma nutq tuzishlarida ma’nodoshlardan foydalanish orqali o‘rinsiz takrorning oldini olish.*

Tarbiyaviy maqsad: *matnlarni tahlil qilish orqali muomala madaniyatiga rioya qilishni o‘rgatish.*

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.*

Topshiriqni bajarishda **„Qayta hikoya“ metodi**dan foydalanish mumkin. Kaykovusning „Qobusnoma“ asaridan olingan parcha o‘qiladi. Gapni o‘z joyini topib gapirishning foydasi haqida fikrlashiladi. *Tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Tilingni yaxshi hunar **bila** o‘rgat**g‘il** va muloyim so‘z**din** boshqa narsani odat qilma**g‘il. Nedin**kim, tilga har **nechuk** so‘zni o‘rgatsang, shuni ayt**ur**, so‘zni o‘z joyida ishlat**g‘il,** so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u **harnechuk** yaxshi so‘z bo‘lsa ham, yomon, nobop eshitil**ur**. Shuning uchun behuda so‘zlama**g‘ilki**, foydasiz**dur**. Bunday befoyda so‘z ziyon keltir**ur** va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim. Hakimlar deb**dur**lar: „So‘z bir nash’a**dur**, undan xumor paydo bo‘*lur*“. (*Kaykovus*)

Topshiriqlar:

1. Matnni qayta hikoya qiling.

2. Ajratilgan so‘z va qo‘shimchalarning hozirgi kundagi variantlarini toping va daftaringizga yozing.

Izoh: **„So‘z bir nash’adur, undan xumor paydo bo‘lur“** jumlasida *nash’a* so‘zi she’riyatda *estetik lazzat, huzur, gasht* ma’nosini, *xumor* so‘zi esa *mushtoqlik, zo‘r istak* degan ma’noni anglatishini hisobga olsak, hikmatdan shunday mazmun chiqadi: so‘z lazzat, huzur bag‘ishlagani uchun (odamda) unga mushtoqlik, chanqoqlik paydo bo‘ladi.

Agar nutq o‘zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan jo‘yali, ya’ni o‘z o‘rnida bo‘lmasa, u maqsad manziliga borib yetmaydi. Jo‘yalilik yo‘q joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati yo‘qoladi.

Xalqimiz donoligining bebaho boyligi, o‘zbek so‘zining ko‘rki bo‘lgan maqol va matallarda ham bu fikr qayta-qayta uqtirilgan: *„So‘zga tushmagan so‘zni aytma, Sozga tushmagan g‘azalni“; „Jo‘yali so‘z jo‘yasin topar, Jo‘yasiz so‘z iyasin (yegasin) topar“; „Jo‘yaga tuya ham cho‘kadi“; „O‘rinli so‘zga tuya cho‘kadi, O‘rinsiz so‘zga hamma so‘kadi“.*

Kimningdir og‘ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun tuziladigan nutqda ortiqcha chiroylilik, jimjimadorlik, ko‘tarinkilik, tantanavorlik bo‘lmasligi lozim, aks holda nutq o‘rinli hisoblanmaydi. Umuman, nutqning o‘rinlilik sifatini ta’minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan mazmunni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog‘i lozim.

Sinf to‘rt guruhga bo‘linib, darslikdagi mashqlar guruhlarga tahlil uchun bo‘lib beriladi. Ma’lum vaqt ajratiladi. Har bir guruh o‘ziga taqsimlangan matn tahlilini taqdimot qilib beradi.

1-guruh tomonidan **71-mashq**da berilgan matn „Dialog“ usulida o‘qiladi. Nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlar aniqlanadi (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: **O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l**, deganlari haq ekan. (*„Xonadon“ gazetasidan*)

Izoh: suhbatdosh asli Farg‘onada tug‘ilgan, biroq Toshkentda yashaydi. Uning tilidan aytilgan maqol Vatandan ayriliqda yashash azobini tortganlarga nisbatan qo‘llanadi. Farg‘ona ham, Toshkent ham bir mamlakat hududida joylashgan va bordi-keldida hech qanday monelik tug‘ilmaydi. Shuning uchun *„O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l“* maqoli o‘rinsiz hisoblanadi.

2-guruhga **72-mashq**ni bajarish uchun **„Tahrir maktabi“ metodi** tavsiya etiladi. Berilgan gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar nutqning joʻyalilik sifatini nima uchun buzayotganligi izohlanadi *(oʻqish va gapirish)*.

T.r.	Berilgan gap	Tahrirlangan gap	Izoh
1	Nimalar qilyapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan **yaltoqlanib** Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (*M. Nasibullin*)	Nimalar qilyapsiz, ona?! – oʻgʻli yolvoruvchan ovoz bilan Tazkiraning oldida tiz choʻkkan. (*M. Nasibullin*)	*Yaltoqlanmoq – laganbardorlik, xushomadgoʻylik qilmoq. Yolvoruvchan ovoz* birikmasi bilan *yaltoqlanib* soʻzi birga qoʻllanib, mantiqsizlikni yuzaga keltirgan.
2	Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, **shangʻillagancha** quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar. (*S. Ravshanov*)	Onamning jahllari battar qoʻzgʻab, quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar.	*Shangʻillamoq – baland ovozda baqirib gapirmoq.* Farzandning oʻz onasiga nisbatan bu soʻzni qoʻllashi millatimizga xos emas.
3	Ertalab men maktabga, bobom esa harbiy komissariatga joʻnab ketdik. Oʻqishdan kelsam, oyim hali daladan qaytmabdilar. Bobom nimagadir xafa. – Keldingmi, **doʻndigʻim**? – deb xomush jilmaydilar. (*S. Ravshanov*)	Ertalab men maktabga, bobom esa harbiy komissariatga joʻnab ketdik. Oʻqishdan kelsam, oyim hali daladan qaytmabdilar. Bobom nimagadir xafa. – Keldingmi, **bolam**? – deb xomush jilmaydilar. (*S. Ravshanov*)	*Doʻndiq – boʻy-basti kelishgan, doʻmboqqina, loʻppi; yoqimtoy.* 1. Bu soʻz, odatda, qiz bolaga nisbatan qoʻllanadi. 2. Boboning ruhiyatiga *doʻndiq* soʻzi mos tushmagan.

4	„Tikuvchilik fabrikasida biroz ushlanib qoldim, shekilli, u shu orada, bu yerga qanday qilib kelib qoldi ekan!“ deya uning chaqqonligiga **rashkim** keldi shu topda. (*M. Nasibullin*)	„Tikuvchilik fabrikasida biroz ushlanib qoldim, shekilli, u shu orada, bu yerga qanday qilib kelib qoldi ekan!“ deya uning chaqqonligiga **hasadim** keldi shu topda.	*Rashk – qizg‘anish; kunchilik; ko‘ra olmaslik; raqiblik.* Gap mazmunidan kelib chiqib, *rashk* so‘zi *hasad* so‘ziga almashtirilishi lozim.

3-guruh **73-mashq**da berilgan parcha bilan tanishadi. Matnda bola, to‘rtinchi sinf o‘quvchisi tilidan qilingan hikoyada nutqning jo‘yalilik sifatiga salbiy ta’sir etgan so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni tavsiflashga harakat qiladilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: quyida matnda qo‘llanilgan ayrim so‘zlar izohi berilgan:

	So‘zlar	**Izohi**
1	beozor	ozor bermaydigan, dilni og‘ritmaydigan, muloyim
2	dilkash	kishini o‘ziga tortuvchi, suhbatlashsa, zavq, lazzat oladigan
3	odamoxun	odamgarchilikni biladigan, odamning izzat-hurmatini bajo keltiradigan
4	haytovur	har qalay, nima bo‘lsa ham, qanday bo‘lsa ham
5	mulla	madrasa ta’limini olgan shaxs
6	tamaddi qilmoq	ovqatlanmoq
7	sipo	kamtar, kamsuqum, oddiy; odmi kiyim

1) to‘rtinchi sinf bolasi yosh jihatidan **beozor, dilkash, odamoxun** so‘zlarini qo‘llashi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi;

2) **haytovur** so‘zi o‘rnida **ishqilib** modal so‘zini qo‘llagan ma’qul;

3) yosh bola o‘zidan ancha katta odamni **mulla Hamdam** deb aytishi odob-axloq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydi;

4) **sipo, tamaddi** so‘zlari nofaol so‘zlar hisoblanadi, shuningdek, bu so‘zlar 9–10 yashar bola nutqiga xos ham emas;

5) **matndagi voqea tartibi buzilgan:**

– mulla Hamdam kirib keldi;

– bola maktabdan kelib, endi tamaddi qilayotgan edi, darvoza taqilladi;

– mulla Hamdam kelibdi.

4-guruh **74-mashqdagi** parchani o‘qiydi. O‘quvchilar matnda qo‘llangan **xush kelibsiz** iborasining nutq sharoitiga muvofiq emasligi natijasida yuzaga kelgan jo‘yasizlikni tushuntiradilar (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: qabristonning tepasiga „Xush kelibsiz!“ degan tantanavor shiorni ilib qo‘yish kulgili emas, balki axloqiy-siyosiy jihatdan achinarli holatdir. Insonlar qabristonga biror yaqin insonini dafn etgani yoki vafot etgan jigarlarini yo‘qlash, ziyorat qilish maqsadida borishadi. **„Xush kelibsiz“** iborasi bunday kayfiyat uchun jo‘yali emas.

LUG‘AT ISHI

	Iboralar	Izohi	Ma’nodoshi: o‘takasini yormoq. O‘xshashi: kayfini uchirmoq.	Misollar
1	Yuragini yormoq I	qattiq cho‘chitmoq, qo‘rqitmoq		*1.Baqirma, o‘takamni yorib yubording-ku. 2.Shumxabar bangining yuragini yorib, kayfini uchirib yubordi.*
2	Yuragini yormoq II	ichidagi istak yoki dardini aytmoq	**Varianti:** ko‘nglini yormoq	*Nima qilay, opa, siqilganimdan sizga yuragimni yordim-da.*

75-mashq uyga beriladi.

JO‘YALILIK VA USLUBLAR

Ta’limiy maqsad: jo‘yalilik va uslublar munosabati yuzasidan tushuncha berish orqali o‘quvchilarda nutq madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish asosida o‘quvchilarga nojo‘ya so‘zlamaslik, jamoat joylarida, oilada muomala madaniyatiga amal qilish tushunchalarini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Topshiriq. Berilgan parchadagi **jamg‘armoq** so‘zining ma’nosi va uning ko‘proq rasmiy uslubga xoslanganligi haqida fikr yuritiladi (*o‘qish*). Keltirilgan gapda bu so‘zning o‘z o‘rnini topgan-topmaganligi izohlanadi (*gapirish*).

Ramazon aytuvchilar ko‘payib ketgan edi... Mabodo ulardan oldinroq biror eshikka borib qolsak, **jamg‘argan** narsalarimizni zo‘ravonlik bilan tortib olishardi. *(S. Ravshanov)*

Izoh: berilgan gapda *jamg‘armoq* so‘zi *yig‘moq, to‘plamoq* ma’nolarida ishlatilgan.

Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari bor. Bir uslubga xoslangan so‘z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o‘tkazilishi nojoiz, o‘rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning jo‘yaliligi buzilishi mumkin.

Jo‘yalilik sifatini o‘rganishda nutqning yozma va og‘zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida jo‘yalilik o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, yozma va og‘zaki nutqning voqe bo‘lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko‘ra bu ikki nutq shaklining o‘ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning jo‘yaliligiga putur yetadi.

Albatta, badiiy nutqda jo‘yalilik o‘ziga xos namoyon bo‘ladi.

Sinf uch guruhga bo‘linadi. Darslikdagi mashqlar guruhlarda ishlanadi. Tahlil qilingan matnlar yuzasidan taqdimot qilinadi. Mashqlarni bajarish jarayonida *tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. O‘quvchilar jamoaviy ahillikda ishlab, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish ko‘nikmasini egallaydilar**.**

76-mashqni bajarish tartibi: matn bilan tanishiladi. Unda qahramon tilida **o‘lmoq** so‘zining jo‘yasiz qo‘llanishi uning madaniy saviyasini ta’kidlashga xizmat qilayotgani izohlanadi.

O‘lmoq so‘zining quyida berilgan sinonimlari matndagi jo‘yasiz qo‘llangan so‘z o‘rniga qo‘yib ko‘riladi va 1-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar tomonidan munosabat bildiriladi.

O‘lmoq – vafot etmoq, dunyodan o‘tmoq, ko‘z yummoq, qazo qilmoq, yashashdan to‘xtamoq, rihlat qilmoq, yuragi urishdan to‘xtamoq, bandalikni bajo keltirmoq, paymonasi tugamoq.

77-mashqni bajarish tartibi:

1. Parcha bilan tanishiladi.

2. Diniy va’z uslubini so‘zlashuv uslubiga ko‘chirish natijasida yuzaga kelayotgan yumoristik kulgi izohlanadi.

2-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar munosabat bildiradi.

Yechim: avval namunadagidek lug‘at-jadval tayyorlanadi:

So‘zlar	Izohi
Qiroat	Qur’on oyatlarini tavjid qoidalariga rioya qilgan holda o‘qish
Muftiy	musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniy
Fuzalo	o‘qimishli kishilar; donishmandlar, ziyolilar
Shariat	islom huquq tizimida musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalar majmuyi
Fatvo	shar’iy hukm chiqarish; matndagi ma’nosi: kafillik, kafolat, ishonch
Alhol	ayni vaqtda, hozirda, shu paytda
Mullo	madrasa ta’limini olgan kishi
Pora	parchalangan narsaning bir qismi; bo‘lak, parcha
Xatm	tugatish, tamom qilish, oxiriga yetkazish
Maxluqi olloh	xudo yaratgan jonzot

Izoh: xar – eshak; kabut – ko‘k.

Vafo attor shar’iy hiyla ishlatadi: mulla sifatida besh daqiqa ichida eshakni rangi ko‘k, qornida homilasi borligi haqida kafolat beradi.

78-mashqni bajarish tartibi:

1. Parcha bilan tanishiladi.

2. Er va xotinning maqomini atayin almashtirish natijasida, ya’ni nutqning jo‘yalilik sifatining buzilishi asosida yaratilgan o‘tkir kulgining mohiyati izohlanadi.

3-guruh xulosa sifatida taqdim qilgan fikrga boshqa guruhlar munosabat bildiradi.

Yechim: „Debat“ metodi orqali matnga tayangan holda erkak va ayolning odatiy oilaviy vazifalari jadvalga yoziladi:

Erkakning vazifalari	Ayolning vazifalari
uy ta’mirlash	idish-tovoqlarni yuvish
daraxtlarni butash	bolani kiyintirish
sigir-buzoqlarga qarash	kiyimlariga dazmol bosish
tomorqaga ekin ekish	hamma yoqni orasta qilib qo‘yish
mashina tuzatish	un elab, xamir qorish

bozorlik qilish	sigir sog‘ib, qatiq ivitish
hosilni yig‘ishtirish	ko‘ylakchalar tikish

O‘quvchilar xulosasida foydalanishi uchun so‘zlar: *yigitlik oriyati; oilada er va xotin maqomi; mehnat taqsimoti; turmushning „musht“i; ichkuyov – itkuyov; ichkuyovdan it afzal.*

LUG‘AT ISHI

	Iboralar	Izohi	Varianti	Misollar
1	Yuragi orqasiga tortib ketmoq	bir lahza ich-ichidan qo‘rquv aralash qattiq hayajonlanmoq	yuragi orqasiga urib ketmoq	*Bir lahzaga yuragi orqasiga tortib ketdi.*
2	Yuragi toshib ketmoq	kechinmalari ichiga sig‘may, kimgadir aytish ehtiyoji tug‘ilmoq		*Quvonchdanmi, bilmadim, Yuragim toshib ketdi,* *Balki bu sevgimikan, Hislarim jo‘shib ketdi.*

Darslikda berilgan mavzuni mustahkamlovchi savollarga o‘quvchilar javob beradilar va ballarni qo‘lga kiritadilar.

79-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: nutqning boyligi va jo‘yaliligi mavzulari yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimni takrorlash va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: matnlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda mentalitetimizga xos so‘zlashish qoidalariga rioya qilgan holda o‘z fikrlarini erkin bildira olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Darsni rasmda tasvirlangan diagramma asosida og‘zaki matn tuzish bilan boshlash tavsiya qilinadi. *Tinglab tushunish, gapirish, yozish*, *o‘qish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Berilgan diagrammani matnga aylantirib o‘qing. Tuzilgan gaplarni bir sarlavha ostida birlashtirib, daftarga yozing. Nutqingizda o‘rinsiz takrorni yuzaga keltirmaslikka harakat qiling.

Tuzgan matningizning uslubiy belgilarini izohlang.

1-topshiriqni bajarish tartibi:

1. O‘tkir Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ kitobidan olingan matn audio shaklida tinglanadi (*tinglab tushunish*).

2. Badiiy maqsad bilan qo‘llangan leksik, grammatik va intonatsion takrorlar aniqlanib, ularning nutq boyligini ta’minlashdagi ahamiyati izohlanadi (*gapirish*).

3. Har bir abzas mazmuni uchun tezis topib yoziladi (*yozish*).

Yechim:

Leksik takrorlar	**Grammatik takrorlar**	**Intonatsion takrorlar**
odamzod	**So‘z turkumlari takrori:** odamlar (ot)	**So‘roq intonatsiyasi:** Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi?
nima uchun	**Yuklama:** -ku	**His-hayajon intonatsiyasi:** Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku!
undan ko‘ra	**Sodda gap:** Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? **Qo‘shma gap:** Undan ko‘ra sholg‘om eksa, qozoniga tushadi-ku.	**Xabar intonatsiyasi**: Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor.

Namuna:

1. Kaftdek hovlidagi gul.
2. Bulbul chah-chahi bergan huzur.
3. Yulduzlarni tomosha qilish zavqi.
4. Kitob ohanrabosi.
5. Mo‘jizakor alla.
6. Xotira.
7. Ma’naviyat – insoniylik belgisi.

2-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Asqad Muxtorning „Chinor“ romanidan olingan parcha o‘qiladi (*o‘qib tushunish*).

2. Yozuvchi nutqning boyligini ta’minlash maqsadida qanday gap qoliplaridan foydalangani aniqlanadi va izohlanadi (*gapirish*).

3. O‘quvchilar o‘qituvchi matndan ajratib ko‘rsatgan birliklarni daftarga yozadilar va ularning matn qurilishidagi ahamiyati haqida gapiradilar (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Atov gap	Sodda gaplar	Qo‘shma gaplar
Hali oppoq tong	Nur uyg‘otgan qushcha tovushining kumush xalqachalari osmonga o‘rlab ketdi.	Quloq solmaganga bu tovush eshitilmaydi ham, lekin Ochil buva uchun hozir tong ham go‘yo mana shu shovullashdangina iborat edi.
	Nim shabadada yashil bulutning har joy-har joyi sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ridan chiqib kelgan sokin va qudratli shovullash olamni tutdi.	Ana shu tog‘ qishlog‘ida bunday qoyatosh serob, ular yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda ko‘prik, choyxonalarda supa vazifasini o‘taydi.
	U guzardagi katta oq tosh supada tikka turibdi.	

Ajratib ko‘rsatilgan birliklar: *nur uyg‘otgan qushcha, kumush halqachalar, osmonga o‘rlab ketdi, nim shabada, yashil bulut, sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ri, shovullash olamni tutdi, katta oq tosh supa, yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda ko‘prik, choyxonalarda supa.*

3-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Matnlar bilan tanishiladi (*o‘qish*).

2. Ajratib ko‘rsatilgan iboralar ma’nodosh so‘zlar bilan almashtirib ko‘riladi. Iboralarning nutq boyligini ta’minlashdagi o‘rni tavsiflanadi (*gapirish*).

Yechim: mashqni bajarishda „Tushunchalar tahlili“ metodidan foydalanish tavsiya qilinadi.

	Tushuncha (iboralar)	Izohi
1	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik

2	Havosini olmoq	mashqini olmoq, yo‘l-yo‘rig‘ini, usuluni yaxshi egallamoq; o‘rganmoq
3	Quloqni qomatga keltiradigan	juda baland, quloqni kar qilgudek (tovush, ovoz)
4	Es-hushini yig‘olmaslik	parishonlikdan qutula olmaslik; aqli idrok etolmaslik
5	Tagiga yetolmaslik	mohiyatini, sababini oxirigacha aniqlay olmaslik
6	Qattiq gapirmoq	xafa qiladigan, ko‘ngilsiz, malolli so‘z aytmoq
7	Cho‘rt kesmoq	o‘zganing gapini keskin, shart, shartta to‘xtatmoq
8	Ko‘ngliga qaramoq	ra’yiga, xohish-istagiga muvofiq ish tutmoq
9	Yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq	kishi ruhi, dilidagi notinch, bezovta holat; notinchlik, bezovtalik
10	Yo‘lga solmoq	tartibga chaqirmoq; to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmoq

LUG‘AT ISHI

Yuragi qon bo‘lmoq – 1. Diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq. 2. Ruhan azoblanmoq. *Variantlari:* yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq; bag‘ri qon bo‘lmoq; yurak-bag‘ri xun bo‘lmoq; bag‘ri xun bo‘lmoq; qon bo‘lmoq.

Ma’nodoshi: yuragi siqilmoq, yuragi ezilmoq. *Misollar*: 1. Ko‘z yoshlarim marjondek tizildi bu kun, Yuragim qon bo‘ldi, ezildi bu kun. (*Qo‘shiqdan*) 2. Nuri onasining ahvolini ko‘rib, yana yuragi siqildi. (*Oybek*) 3. Axir, yurak-bag‘rim xun bo‘ldi-ku, bolam! (*Said Ahmad*)

O‘pkasi to‘lmoq – iztirob chekib, yig‘lab yuborish holatiga yetmoq. *O‘xshashi*: xo‘rligi kelmoq yig‘lamoqdan beri bo‘lmoq. *Misol*: Cholning tovushi o‘zgardi, o‘pkasi to‘ldi, shekilli, birpas tek qolib, keyin gapirdi. (*Abdulla Qahhor*)

4-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQNING IFODALILIGI

Ta’limiy maqsad: til vositalarini ifoda maqsadiga muvofiq tarzda tanlash hamda bu vositalardan samarali foydalana bilish yuzasidan bilim berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hamjihat bo‘lishga, jamoada ishlash va bir-birining fikrini hurmat qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqdagi ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan birliklarni aniqlash va amaliyotga joriy qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

So‘zlovchining o‘z nutqiga munosabati juda muhim, shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochiladi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa yaxshilanadi. Nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga jiddiy ta’sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni o‘ziga jalb qila oladigan bo‘lishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib bo‘lgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi. Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog‘ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e’tibor qilinsa, ilmiy uslubda o‘rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo‘ladi.

Tilda ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta’minlashga qiynalmaydi.

Nutqning ta’sirchanligiga erishishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, takror kabi badiiy tasvir vositalarining o‘rni beqiyos. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir. Nutqning ta’sirchanligini oshirishda ohang ham muhim o‘rin tutadi. Ohangning o‘zgarishi nafaqat ta’sirchanlikni, ba’zan gap mazmunining o‘zgarishiga ham sababchi bo‘ladi.

l-topshiriqqa diqqat qaratiladi. She’r matni slaydda ko‘rsatiladi yoki audio shaklda eshittiriladi. O‘quvchilar undagi **q** tovushining takrori natijasida yuzaga kelayotgan ifodalilikni izohlashga harakat qiladilar (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Izoh: Bu she’rda ***q*** tovushining takrori alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Alliteratsiya – nutqda tovushlarning bir-biriga ohangdosh bo‘lish

hodisasi. ***Q*** tovushining takrori she’rda ma’lum estetik-emotsional vazifa bajargan va nutqning hissiy ta’siri kuchaygan.

Qo‘shimcha: tovushlar takrori faqatgina she’rda emas, tez aytishlarda ham uchraydi. O‘qituvchi tovushlar takrori mavjud bo‘lgan turli janrlarga mansub bir nechta matnni havola qiladi, o‘quvchilar esa ularni tahlil qiladilar.

Masalan: **S**ochilgan **s**ochingdek **s**ochilsa **s**iring, Anor yuzlaringni kimga tutasan. *(Cho‘lpon)*

Qi**sh**da ki**sh**mi**sh** pi**sh**masmi**sh**,
Pi**sh**sa ki**sh**mi**sh**, qi**sh**masmi**sh**. (*Tez aytish*)

Ku**y**lagan ku**y**ingdan o‘rgila**y**in,
Anvo**y**i ku**y**larga bo**y** buloq. (*Qo‘shiqdan*)

2-topshiriqni bajarish orqali ham *tinglab tushunish, o‘qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Berilgan so‘z juftliklari qiyoslanib, bu so‘zlarning ifodalilik imkoniyatlaridagi farq izohlanadi.

Yechim: bu yerda *izn bermoq* – badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, unda ifodalilik kuchliroq ifodalangan. *Ruxsat bermoq* – ilmiy yoki publitsistik uslublarda qo‘llanadi va bu uslublarda, odatda, ifodalilikka ehtiyoj sezilmaydi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridan hisoblanadi. *Raqam qilmoq* – badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, bunda ham ifodalilik *qayd qilmoq* so‘ziga nisbatan kuchliroq.

Sinf to‘rt guruhga bo‘linib, darslikdagi mashqlar guruhlarga tahlil uchun taqsimlanadi.

1-guruh. 80-mashqni bajarish tartibi:

Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’riy parchalar o‘qiladi (*o‘qish*).

Ulardagi nutqiy ifodalilikni ta’minlayotgan leksik va fonetik vositalar aniqlanadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu she’riy parchada nutqiy ifodalilikni ta’minlayotgan leksik va fonetik vositalar mavjud. Birinchi bandda **q** tovushining takrori alliteratsiyani hosil qilgan. Ikkinchi bandda **b** tovushining takrori alliteratsiyaga misol bo‘ladi va bu yerda „*Bo‘lar elning bolalari bir-birin der*“ jumlasi xalq og‘zaki ijodi mahsuli – maqol hisoblanadi. Uchinchi bandda **k** va **q** tovushlari uyg‘unligi mavjud. *Kapalakday* – o‘xshatish, *qoshingga qo‘nib* – metonimiya. Ushbu fonetik va leksik vositalar nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

2-guruh. **81-mashq**ni bajarish tartibi:

Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*).

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ifodaliligining ta’minlanishiga diqqat qilinadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu matnda nutq ifodaliligiga xizmat qilgan vositalar metaforalardir. Metaforik ma’no ko‘chishi predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Nutq jarayonida metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Metaforik ma’no ko‘chishi turli so‘z turkumlari doirasida kuzatilishi mumkin. Yuqoridagi gaplarda **fe’l** (*yuragida tugilib yotgan, tugunni yechib yuborgan, da’volari sinib, tugilib kelgan alamlarini, bo‘shliqlarga yoyib yuborgan*), **sifat** (*sovuq yuzlari, sovuq so‘filarning*) so‘z turkumlari doirasida kuzatilgan.

3-guruh. **82-mashq**ni bajarish tartibi:

Matn bilan tanishiladi (*o‘qish*).

Nutqiy ifodalilikni ta’minlash maqsadida qo‘llangan birliklar aniqlanadi (*gapirish*).

Yechim: ushbu matnda kinoya „adolatpesha“, „bechora“, „jazolash“ – ifodalilikni ta’minlagan vosita. Kinoya so‘z ma’nosini aks ma’noda qo‘llashdir. Yozuvda kinoyani ifodalash uchun so‘z qo‘shtirnoq ichiga olinadi. So‘zlarning aks ma’nosi o‘z ma’nosidan ko‘ra kuchliroq bo‘ladi. Matnning sarlavhasida ham „Himmatni qarang!“ kinoya ma’nosi mavjud.

4-guruh. **83-mashq**ni bajarish tartibi:

„Manzara“ she’ri ifodali o‘qiladi (*o‘qish*).

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rni izohlanadi (*gapirish*).

Yechim: she’rda nutq ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qilgan ko‘chim turi metaforadir. Metaforik ma’no ko‘chishi turlicha bo‘lishi mumkin. Shulardan biri jonlantirish bo‘lib, u metaforaning maxsus turi sifatida og‘zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o‘xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatib kelinadi. Jonlantirish insonga va jonli mavjudotga xos belgilarni tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko‘chirishdir. She’rda *qushlarning majnuntol boshini suvga egishlari*, *bulutning unga rahmi kelib yig‘lashi, qushlar qochgandan so‘ng majnuntolning bosh ko‘tarishi, bulutlar orqasidan quyoshning kulib qarashi, majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi* jonlantirishning go‘zal namunalaridir.

LUG‘AT ISHI

Iboralar	Izohi	Varianti:	Misollar
Qildan qiyiq axtarmoq	Yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq	**Varianti:** qildan qiyiq qidirmoq **Ma’nodoshi:** tirnoq orasidan kir izlamoq	Har qaysimiz o‘lib-tirilib ishlasak-da, ***qildan qiyiq axtarib***, guruhimizni gazetada qoralab chiqishsa, alam qilarkan. *(H.Numon)*
Qora terga botmoq	Haddan tashqari zo‘r berish natijasida mo‘l-ko‘l terlamoq	**Varianti:** qora terga tushmoq	Nizomjon shu kuni ***qora terga botib*** bug‘doy o‘rdi. *(Said Ahmad)*

Mavzuni mustahkamlashda o‘qituvchi „Zakovatli zukko“ metodidan foydalanib, savollar yordamida o‘quvchilarning tezkor fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi, ularning tafakkur tezliklarini oshirishga yordam berishi mumkin.

84-mashq uyga beriladi va darsga yakun yasaladi.

IFODALILIK VA IBORA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga frazeologik iboralar ifodalaydigan ma’nolar so‘z ma’nolaridan farqlanishi, iboralarning ekspressivligi, bo‘yoqdorligi, obrazliligi haqida bilim berish va uni mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga e’tiqodli bo‘lishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda nutq ifodaliligini ta’minlovchi vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mavzuni tushuntirishdan oldin o‘quvchilar diqqati darslikda berilgan **topshiriq**qa qaratiladi. She’riy parcha o‘qilib, unda qo‘llangan ***jonni baxsh etmoq, boshga ko‘tarmoq*** iboralarining ma’nolari va ularda aks etgan ifodalilikni izohlash orqali *o‘qish, tinglab tushunish, gapirish, yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Yechim: mazkur topshiriq shartiga ko‘ra, avvalo, matnda qo‘llangan iboralarning izohi tayyorlanadi. So‘ngra ularda aks etgan ifodalilikning ahamiyati yuzasidan mulohaza yuritiladi.

Jonni baxsh etmoq – har qanday og‘ir shartni, talabni bajarishga tayyor, o‘zini qurbon qilishga ham rozi bo‘lmoq. *Variantlari:* jonini bermoq, jonini fido qilmoq.

Boshga ko‘tarmoq – yuksak darajada hurmat-izzat qilmoq. *O‘xshashi:* soyasiga ko‘rpacha solmoq.

Iboraning atash ma’nosi biror so‘zning atash ma’nosiga teng, lekin iborada mavjud bo‘lgan qo‘shimcha ma’no so‘zda bo‘lmaydi yoki so‘znikidan „kuchli“ bo‘ladi. Iboradagi ana shu qo‘shimcha ma’no, ya’ni uslubiy va hissiy ma’no uning ifodalilik xususiyatini oshiradi. Yuqoridagi she’rda ham *jonini baxsh etmoq* va *boshga ko‘tarmoq* iboralari badiiy uslubga xoslikni, kuchli ijobiy emotsional ma’noni ifodalayotganligi bilan ahamiyatlidir.

85-mashq. Parchani o‘qing, undagi **xursand bo‘lmoq** so‘zi va **boshi osmonga yetmoq** iborasi (leksik-frazeologik ma’nodoshlik) o‘rtasidagi ifodalilik darajasi farqini tushuntiring.

Yechim: matndagi **xursand bo‘lmoq** (so‘z) va **boshi osmonga yetmoq** (ibora) o‘rasidagi asosiy farq ularda qo‘shimcha ma’noning bor yoki yo‘qligida.

Xursand bo‘lmoq so‘zida qo‘shimcha ma’no (uslubiy yoki hissiy ma’no) mavjud emas. Bu so‘z biron bir uslubga xoslanmagan, ijobiy yoki salbiylik bo‘yog‘i yo‘q, belgining kuchli yoki kuchsizligiga ko‘ra ham betaraf so‘z hisoblanadi;

boshi osmonga yetmoq iborasida esa qo‘shimcha ma’no mavjud. Bu ibora *behad sevinmoq* ma’nosida qo‘llanilib, xursandchilikni o‘ta yuqori darajada ifodalash uchun ishlatiladi va uslubiy jihatdan ham xoslangan, badiiy uslubga mansub.

Mustaqil ish. „Guruhlarda ishlash“ usulidan foydalanib, so‘z va ibora o‘rtasidagi farqni o‘quvchilarga yanada mukammalroq tushuntirish mumkin. O‘quvchilar 3 ta guruhga bo‘linadilar. Ularga quyida berilgan namunadagiday kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar so‘z va iboralarni qatnashtirib gap tuzishlari lozim. Bunda ibora va uning ma’nosiga teng keluvchi so‘zga bir xil gap tuziladi va ularning farqi izohlanadi.

So‘z	Ibora	Misollar
itoatkor	„gah“ deganda qo‘liga qo‘nadi	*O‘zi o‘g‘lim noshud: xotinini **„gah“ deb qo‘lga qo‘nadigan** qilib olmadimi, bunday erkakdan og‘ildagi buzoq yaxshi. (S.Ahmad) – O‘zi o‘g‘lim noshud: xotinini **itoatkor** qilib olmadimi, bunday erkakdan og‘ildagi buzoq yaxshi.*

nihoyatda go‘zal	bir qoshiq suv bilan yutguday	*O‘zi **bir qoshiq suv bilan yutguday** ekan-u, shu... kiyinishi bizga to‘g‘ri kelmaydi-da.– O‘zi **nihoyatda go‘zal** ekan-u, shu... kiyinishi bizga to‘g‘ri kelmaydi-da.*
aralash-moq	burnini tiqmoq	*Uyda o‘tirib qolgan erkak har narsaga **burnini tiqaveradi**. – Uyda o‘tirib qolgan erkak har narsaga **aralashaveradi.***
betoqat, jirtaki	yuragi tor	*Sabr qil, namuncha **yuraging tor**?– Sabr qil, namuncha **betoqat, jirtakisan**?*
abjir	yulduzni benarvon uradigan	*Asad bolaligidan **yulduzni benarvon uradigan**lar xilidan edi. – Asad bolaligidan **abjir** edi.*
g‘amboda	ko‘ksi dog‘	*Ishqdan **ko‘ksi dog‘**lar gapirsin. – Ishqdan **g‘amboda**lar gapirsin.*

Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi va har bir guruhga darslikdagi mashqlar taqsimlanadi. O‘quvchilar belgilangan muddat ichida matnni tahlil qilib izohlaydilar, xulosalarini tezis shaklida bayon etadilar. Mazkur jarayonda *o‘qib tushunish, yozish, gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

1-guruh. 86-mashq. Matndagi iboralarning ma’nolarini izohlang, ulardagi to‘g‘ri ma’nolar asosida yaratilgan kulgining mohiyatini tushuntiring.

Yechim: matnda ***chuchvarani xom sanamoq, sirkasi suv ko‘tarmaydigan*** iboralari va ***„Jo‘jani kuzda sanaydilar“*** maqoli qo‘llangan. Izohlari quyidagicha:

chuchvarani xom sanamoq – xom xayol qilib yurmoq, xomtama bo‘lmoq;

sirkasi suv ko‘tarmaydigan – tanqidga mutlaqo chidamaydigan;

jo‘jani kuzda sanaydilar – bir ishni boshlamay turib yoxud bir ishga endigina qo‘l urib: „Ana unday qilib yuboraman, mana bunday qilib yuboraman“ deb maqtanadigan odamlarga: „Hali shoshmay turing, bu yog‘i nima bo‘ladi-yu, nima qo‘yadi, ish bitgandan keyin gapiring-da“ degan ma’noda aytiladi.

Ma’lumki, iboralar har doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Iboraning shakli va mazmuni o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Ba’zan iboralar erkin birikmalarga teng keladi. Mohir yozuvchi mana shu imkoniyatdan foydalanib, ya’ni turg‘un birikmalarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari-

ni anglagan holda ko‘chma ma’nolarda qo‘llangan birliklarning to‘g‘ri ma’nosini izohlab, undan yumorga boy matn yarata olgan.

2-guruh. 87-mashq. ***Ignaday narsani tuyaday qilmoq – bo‘rttirmoq; igna ustida o‘tirmoq – bezovta bo‘lmoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – mo‘min, yuvosh; tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan – tegajoq, xira*** juftliklaridagi iboralarning ifodalilik darajasi haqida fikrlashing.

Tilning lug‘at boyligidagi so‘zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Berilgan iboralarda ekspressivlik, obrazlilik, alohida ifodalilik uning ma’nosiga teng so‘zga qaraganda ancha kuchli.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi bilan ***tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan*** iborasi antonimik juftlikni hosil qiladi.

Misollar:

Vahimachi ***ignaday narsani tuyaday qilib*** gapiradi. – Vahimachi ***bo‘rttirib*** gapiradi.

Majlis tugaguncha ***ignaning ustida o‘tirdi***. – Majlis tugaguncha ***bezovta bo‘ldi***.

Bu odamni ***qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan***, degandinglar, yutaman, deyapti-ku. – Bu odamni ***mo‘min, yuvosh***, degandinglar, yutaman, deyapti-ku.

Mahallamizning boshida ***tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan*** bola yashaydi. – Mahallamizning boshida ***tegajoq, xira*** bola yashaydi.

3-guruh. 88-mashq. Berilgan parchadagi iboralarni toping. Ularning matn ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

Yechim: ushbu matnda ***ko‘zi tushmoq*** (ko‘rmoq), ***qo‘lini ushlaydi*** (to‘xtatadi), ***qo‘l ko‘targani*** (uringani), ***yo‘l qo‘ymaslik*** (voqe bo‘lishiga imkon bermaslik), ***chap bermoq*** (tutqich bermay, ro‘para kelmay, aldab o‘zini olib qochmoq, qochib yurmoq) iboralari qo‘llangan bo‘lib, ularning matn ifodaliligini ta’minlashdagi o‘rni beqiyosdir. Agar matnda *ko‘zi tushmoq* iborasi o‘rniga *ko‘rmoq* yoki *chap bermoq* iborasi o‘rniga *qochmoq* so‘zlari qo‘llanganda edi, matnning emotsional-ekspressiv hamda uslubiy bo‘yog‘i yo‘qolar, fikr juda jo‘n ifodalangan bo‘lar edi. Chunki matnning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini kuchaytirish uchun bu so‘zlarning o‘zi yetarli emas. Iboralar bilan ifodalangan fikr esa obrazli va jozibali bo‘ladi.

4-guruh. 89-mashq. Berilgan she’rdagi iboraning badiiy qimmatini baholashga harakat qiling.

Yechim: shoir ***kapalagi uchib ketmoq*** (qattiq cho‘chish, qo‘rqmoq) iborasini juda noziklik bilan qo‘llab, ijodiy topilma yaratgan: **kapalak** so‘zi ham to‘g‘ri ma’noda, ham ibora tarkibida ko‘chma ma’noda she’r ifodaliligini ta’minlashda nafaqat leksik-frazeologik, balki fonetik vosita vazifasini ham bajargan. Leksik vosita sifatida emotsionallikni kuchaytirgan bo‘lsa, **k** harfining takrori alliteratsiyani hosil qilgan.

90-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA KO‘CHIMLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, ma’no ko‘chish turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hurmatni saqlash, jamoada bir-birini qo‘llab-quvvatlash ruhida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash, so‘z ma’nosi ko‘chishini nutqda erkin qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash nutq ifodaliligini ta’minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko‘chma ma’no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlatishning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular *ko‘chimlar* nomi bilan umumlashtiriladi. Ko‘chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya’ni ikki narsa yoki tushuncha o‘rtasidagi muayyan munosabat (o‘xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Ko‘chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Metafora so‘zi yunoncha bo‘lib, „ko‘chirish“, „ko‘chirma“ demakdir. Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o‘rni va paytga munosabati jihatidan o‘xshashligiga asoslaniladi. Masalan, choynakning jo‘mragi odamning burniga, dengizning quruqlikka suqulib kirgan joyi odamning qo‘ltig‘iga o‘xshatiladi. Metafora ko‘proq odam tana a’zosi nomiga (bosh, yuz, burun, og‘iz, quloq, til, oyoq); kiyim qismiga (etak, yoqa); hayvon, parranda yoki hasharotning biror a’zosi nomi (qanot, dum)ga o‘xshatib hosil qilinadi.

Narsa va hodisa orasidagi o‘xshashlik quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) shakliy o‘xshashlik: *odamning qulog‘i – qozonning qulog‘i, qush uchdi – odam uchdi;*

2) joylashish o‘xshashligi: *itning dumi – samolyotning dumi, qo‘shni odam – qo‘shni dala;*

3) mazmunan o‘xshashlik: *tomdan yiqilmoq – imtihondan yiqilmoq, sovuq havo – sovuq xabar, qaynoq suv – qaynoq liniya, achchiq o‘t – achchiq sovuq, tomdan tushmoq – mansabdan tushmoq, odam o‘tirdi – fabrika o‘tirdi, akkumulyator o‘tirdi.*

Nutq jarayonida metaforadan o‘rinli foydalanganda so‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo‘lib, nutq ta’sirchan, jozibali chiqadi.

Metonimiya so‘zi yunoncha „yangi nom qo‘yish“, „nomni o‘zgartirish“, „qayta nomlash“ demakdir. Makon va zamondagi o‘zaro bog‘liqligi asosida bir narsa va hodisaning nomini ikkinchiga ko‘chirish – metonimiya. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o‘xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog‘liq predmet, belgi, holatdan birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi.

Masalan:

Fuzuliyni oldim qo‘limga, Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi (H.Olimjon) gapida *Fuzuliy* va *asar* (Fuzuliyning kitobini oldim qo‘limga) bir-biriga bog‘liq bo‘lib, tejash uchun *kitob* so‘zi tushirib qoldirilgan. Natijada, *Fuzuliy* so‘zi shaxs ma’nosini emas, *kitob* so‘ziga xos ma’noni ifodalagan.

Metonimiya turli ko‘rinishda bo‘ladi:

1) o‘ringa munosabatiga ko‘ra: *bir stakan (suv) ichdim, bir kosa (ovqat) yedim, qishloq uyquda;*

2) vaqtga ko‘ra: *o‘nga (yosh) kirdim, yarim yillik (imtihon) topshirildi*;

3) muallif va asar orasidagi munosabatga ko‘ra: *Pushkinni (asar) o‘qidim*.

Metonimiya asosidagi ko‘chma ma’no – fikrni lo‘nda va ta’sirchan bayon qilish vositasi.

Sinekdoxa yunoncha *synecdoche* so‘zidan olingan bo‘lib, „birga anglash“ demakdir. Qism bilan butun munosabati asosida ma’no ko‘chirish sinekdoxa usuli sanaladi. Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ham yuritiladi. Ammo, undan farqli ravishda, sinekdoxada miqdoriy tavsifga asoslanadi. Masalan, *bosh, tuyoq* so‘zi (ya’ni qism) orqali hayvon (ya’ni butun) tushuniladi. *Yurak, tirnoq* so‘zi (ya’ni qism) orqali *odam* (ya’ni butun) anglashiladi. Sinekdoxada butun orqali qism ham anglashishi mumkin. Masalan, *besh qo‘l barobar emas* gapida *qo‘l* (ya’ni butun) so‘zi orqali *barmoq* so‘zining ma’nosi anglashilmoqda.

Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko‘rmagan (Oybek) gapida qism (tuyoq) orqali butun (mol) ifodalanayotir.

Topshiriq. Berilgan misralarda ***lochin*** so‘zining qanday ma’noda qo‘llanganini tushuntiring, undagi ko‘chma ma’no nima asosda yuzaga kelganini ayting.

Qutlug‘ joy ko‘p erur ushbu dunyoda,
Yulduzni ko‘zlagan lochin ham talay. *(A. Oripov)*

Yechim: ma’lumki, so‘zlar o‘z ma’nosi bilan betaraf bo‘lsalar ham, uslubiy ma’no ifodalashi uchun ularning ma’nosi kontekstda ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. She’rda *lochin* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, metaforik ma’no ko‘chishi kuzatilgan. Ijodkor ushbu so‘zni uslubiy mazmun olishi, badiiy uslubga xoslanishi uchun ham ko‘chma ma’noda qo‘llagan. Bu yerda „yulduzni ko‘zlagan lochin“ deganda, aslida, ***baland marralarni ko‘zlagan yurt farzandlari*** nazarda tutilgan.

91-mashq. Cho‘lponning „Kecha va kunduz“ romanidan olingan parchani o‘qing va ko‘chimlarni aniqlang, ularning ifodalilik jihatidan qimmatini izohlang.

Yechim: ushbu parchada qo‘llangan metaforalar**:**
bahor *sevinchi;*
ko‘ngillarni *qitiqlay boshladi*;
tabiatning *dildiragan tanalari*;
iliq qon *yugurdi;*
tollarning ko‘m-ko‘k *sochpopuklari selkillab tushmoqqa boshladi*;
suvlarning *g‘amli yuzlari kuldi;*
suvlar … *horg‘in-horg‘in* oqsalar-da;
suvlar … *erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar*;
bodroq *nash’asi;*
o‘sma ildizidan yana *bosh ko‘tarib chiqdi*;
go‘zal ko‘zlarning *supasida yonboshlashni* muncha *yaxshi ko‘rar ekan* bu ko‘kat.

Yozuvchi asarda ilgari qo‘llanmagan original ko‘chimlar yaratgan va bunday ko‘chimlarning ifodaliligi yuqori bo‘ladi. Matnda metaforaga juda yaqin bo‘lgan vosita – o‘xshatishlar ham nutq ifodaliligiga xizmat qilgan (*qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday, bo‘shalgan qul singari).*

92-mashq. Gaplarni o‘qing. Ularda metonimiya va sinekdoxa yo‘li bilan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolarni izohlang.

Yechim: 1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning ***choklarini*** (metonimiya – tikayotgan gazlamasi) tikishib, xizmatingizni qilib ***yotardim*** (metafora)! *(Cho‘lpon)*

2. Toki ***g‘olib ekan muzaffar o‘lka*** (metafora), Sha’niga she’r aytmoq shoirga odat. *(A. Oripov)*

3. O‘zbek ***Navoiyni*** (metonimiya – Navoiy asarlarini) o‘qimay qo‘ysa, ***Oltin*** (metafora) boshning kalla bo‘lgani shudir. *(E. Vohidov)*

4. Balki, tush ko‘rganday qolursiz hayron, Eshitib ***Toshkentning*** (metonimiya – Toshkent shahrining) ***sabr-u toqatin*** (metafora). *(A. Oripov)*

5. Sevgidan ***yetim***-u (metafora), umrdan yarim, ***Qurigan*** ko‘ksi (metafora)da ***yolg‘iz belanchak*** (metonimiya). Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim, Abadiy visol deb bildi kelinchak. *(A. Oripov)*

6. Bashirjon yoniga ag‘darildi: „Rahmatli chol to‘g‘ri aytarkan. Undan-ku, ***bir tirnoq*** (sinekdoxa – farzand) – men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman“. *(N. Aminov)*

93-mashq. Berilgan misralarda *sor, burgut, lochin* so‘zlarining qanday ma’noda qo‘llanganini tushuntiring, undagi ko‘chma ma’no nima asosda yuzaga kelganini yozma bayon qiling. O‘zingiz ham shunday ko‘chimlar qatnashgan misollarni yozib keling.

Yechim:

Metaforalar:

Tog‘ egasi – sor, burgutlar;

Farg‘ona, Xorazm sor, lochinlari.

O‘xshatishlar:

Qushlar kabi *uchguvchi,* ***Uchar qushday*** *yosh yigitlar.*

94-mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘chimlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Ammo siz hurmatlilarga ma’lumdirki, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an ***tuyoqimiz*** *(sinekdoxa – farzand)* va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. *(Abdulla Qodiriy)*

2. Yuzlari ***tandirdan endi uzilgan nonday*** (*o‘xshatish*) qizil, mo‘ylovli bir odam uloq ***boshi***ga (*metafora*) keldi. Ana shu ***mo‘ylov*** (*sinekdoxa – odam, kishi)* bakovul bo‘ldi. *(Tog‘ay Murod)*

3. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaftiga urdi. Yoqimli hid dimog‘ini ***qitiqladi*** (metafora). *(O‘.Umarbekov)*

4. Kamarlar odatda tog‘ning ***beli***da (metafora), shamoldan pana, atrof yaxshi ko‘rinadigan yerda bo‘ladi. *(Sh. Xolmirzayev)*

95-mashq. She’rni ifodali o‘qing. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligi ta ’minlanishiga diqqat qiling.

Yechim: she’rda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda metafora asosida ma’no ko‘chgan bo‘lib***, gullarning o‘yga tolishi, iymanib, nozlanishi, quyoshni kutishi, atirgulning quyoshdan ko‘zini olmasligi, hayrat bilan quyoshga tikilishi*** metafora asosidagi jonlantirishdir. Jonsiz predmetlarga insonlarga xos xususiyatlarni ko‘chirish (jonlantirish) kitobxon ko‘z o‘ngida oddiy tabiat hodisalarini yanada yorqinroq ifodalashga yordam beradi.

LUG‘AT ISHI

Aravani quruq olib qochmoq – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. *Varianti*: aravani olib qochmoq, quruq aravani olib qochmoq. *Misollar*: 1. – Saidg‘ozi aka! – dedi kinoyali jilmayib, – hadeb aravani quruq olib qochavermang. Siz bilgan siyosatni biz ham bilamiz. (*S.Anorboyev*) 2. Aka, aravani rosa olib qochasiz-da, ishongim kelib ketadi.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – nihoyat darajada beozor, mo‘min. *Misollar*: 1. Kuyovimiz – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan yigit. 2. Bilaman, mingboshi menga hozircha ehtiyot bo‘lib, o‘zini qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, juda yuvosh va sodda qilib ko‘rsatib so‘zlayapti. (*Sh.Rizo*)

96-mashq uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA KINOYA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda kinoyaning yuzaga kelishi, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, iboralarni kinoyaviy qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: ota-onaga, do‘stlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, insoniy fazilatlarni ardoqlashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosida nutq vaziyatiga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

So‘zni teskari ma’noda ishlatish kinoya deyiladi. Kinoya so‘zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo‘lganligi uchun ham so‘z yoki iboraning to‘g‘ri ma’nosiga zid, ya’ni inkor, emotsional-ekspressiv bo‘yoqli ma’no voqelanadi. Bunday kinoyaviy ma’noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham muhim ahamiyatga ega.

Bizni **„homiy“**lardan himoya qilg‘il
Degan sharq xalqida piching – duo bor.
Xo‘sh, janobi oliy, qaysi sho‘rlik xalq
Sizning **„himoyangiz“**ga qolmish intizor. (*G‘.G‘ulom*)

Bu o‘rinda *homiy* so‘zi *zolim*, *himoya* so‘zi *zulm* so‘zi ma’nosida ishlatilgan. Kinoyada so‘z yoki iboraning tildagi ma’nosi bilan nutqda reallashgan ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi zidlik kuchli ta’kid oladi va shunga ko‘ra birdaniga diqqatni jalb etadi. Kinoyaviy qo‘llangan so‘z yoki ibora og‘zaki nutqda o‘ziga xos, farqli intonatsiya bilan aytilsa, yozuvda ko‘pincha qo‘shtirnoq bilan ajratiladi.

Bir so‘zda namoyon bo‘lgan zid ma’nolar tilshunos olimlar N. Mahmudov va Y. Odilov tomonidan tayyorlangan „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“da tavsiflangan.

Mavzuni mustahkamlash darslikdagi **topshiriq**ni bajarish bilan boshlanadi. Berilgan ikki gapda qo‘llangan ***kichkina*** so‘zining ma’nolaridagi farq izohlanadi.

Yechim: mashqda qo‘llangan ***kichkina*** so‘zi 1-gapda o‘z ma’nosida, 2-gapda esa o‘z ma’nosiga mutlaqo zid (Qobil bobo uchun uddalab bo‘lmas darajada ***juda katta***) ma’nosida ishlatilgan. So‘zning o‘z ma’nosidan ko‘ra ko‘chma ma’nosi, ayniqsa, u bosh ma’no bilan zid bo‘lsa, ifodalilik yanada kuchayadi.

97-mashqda „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“da tavsiflangan bir so‘zda namoyon bo‘lgan zid ma’nolarga diqqat qilinadi. O‘z ma’nosiga zid holda ishlatilgan nutqiy ko‘chma ma’no asosida voqelangan kinoya izohlanadi.

Ushbu mashqda berilgan so‘zlarning ma’nosi o‘rganib chiqilgach, „Tanqidiy tafakkur“ metodidan foydalanib **mustaqil ish** berish mumkin. Bunda o‘quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda so‘zlar yozilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu so‘zlarning o‘z va kinoyaviy (zid ma’noli) gaplar tuzishlari lozim. (Mashqni bajarishda N. Mahmudov va Y. Odilovning „O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati“dan foydalanish tavsiya qilinadi.)

So‘zlar	O‘z ma’nosi	Kinoyaviy ma’nosi
botir		
yaxshi		
qadrdon		
hunar		
nodir		

Sinf uch guruhga bo‘linadi va darslikdagi mashqlar guruhlarga taqsimlab beriladi. Bu mashqlarni bajarish jarayonida *o‘qish* va *gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi.

98-mashq. Berilgan gaplarda kinoyaviy ma’noda qo‘llangan so‘zlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Sen!.. – Toshbolta unga ham ikki og‘iz **„shirin“** gaplaridan aytmoqchi edi, qizining ko‘zlariga ko‘zi tushib, shashtidan qaytdi. *(Tohir Malik)* 2. Maxdum o‘zining chekkan tashvishida haqli bo‘lib chiqdi. Anvarning tevaragida **„xolis“** maslahatgo‘ylar ham ko‘rinishib qoldilar. *(Abdulla Qodiriy)* 3. „O‘ttiz ikki tangadan soliq yig‘, emish... Bizning xalqni yer yutsin. Azizbekning **tulkiligiga** uchdi-da, uning kechagi zulmlarini unutdi, yetmish kunlab bir zamon jon berib, jon olib, nihoyat, xizmat haqqi uchun o‘ttiz ikki tanga **„mukofot“,** eng keyingi burda noningni ham ber!“ *(Abdulla Qodiriy)* 4. Xullas, podsho hazratlarining farmoniga muvofiq o‘n yetti yoshdan qirq yetti yoshgacha bo‘lgan yigitlar mardikorlikka olinishi kerak emish... Bunday **„iltifot“**ga viloyat boylari, mirshablar, mingboshilar panja orasidan qarasalar-da, bu aksar mehnat ahlining qonini qaynatib yubordi. *(J. Abdullaxonov)* 5. Ovutish lozim bo‘lib qolsa, bittasini emas, hammasini ikkita „**shirin“** so‘z bilan **„ovutib“** tashlayman. *(A. Muqimov)*

99-mashq. Matnni o‘qing. O‘z ma’nosiga zid holda qo‘llangan iboralar ma’nolarini izohlab, kinoya haqidagi fikrlaringizni yozma bayon qiling.

Yechim: *„nur yog‘ilib“ turgan – badqovoq, ko‘rimsiz; „minnatdor bo‘lsang, bosaman“ – zo‘rg‘a, tamanno va takabburlik bilan; „yaxshi ko‘rsa“ – ko‘rishga ko‘zi yo‘q;* keltirilgan kinoyalar matn mazmunining ta’sirchanligini oshirishga, diqqatni tortishga xizmat qilib, obrazlilikni kuchaytirgan.

100-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolariga diqqat qiling. Qaysi gaplarda so‘zlar kinoya bilan qo‘llanganligini tushuntiring (*o‘qish va gapirish*).

O‘z ma’nosi	Kinoyaviy ma’nosi	Izoh
Ombor hovlisi birpasda qiy-chuv bo‘lib ketdi. Qayoqdandir Mirvosiq paydo bo‘lib qoldi. – ***Yashang***, ota! – dedi u. – Anchadan beri qo‘lga tushirolmay yuruvdik. *(O‘. Umarbekov)*	**Yashang-e!** Kalkulator olib hisoblab ko‘rsangiz ham bo‘lardi, hisobchi xonim! Nima gap so‘rasa, bahonangiz tap-tayyor-a! (*E. A’zam*)	Hisob-kitobga noshudlik piching, istehzo aralash kinoya bilan „olqishlangan“.

Kampir juda ***dono*** xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi deb, qadrdon uyidan jilmasdi. (*S.Ahmad*)	Voy **dono-ye**! O‘zingku bir institutni o‘n yilda zo‘rg‘a bitirding, endi odam qatoriga kirib, boshqalarga aql o‘rgatadigan bo‘lib qoldingmi?! *(A.A’zam)*	Kesatiq ma’nosi kinoya orqali ifodalangan
Shakuriy muallim bolaning ***burroligi***, zakovatidan behad quvondi. (*N.Rahmat)*	Mulla Ostonaquldagi zehn ***burroligi*** yetti yilda ham „Haftiyak“dan nari o‘tishga yo‘l qo‘ymadi. (*G‘.G‘ulom*)	Zehn pastligi, bilimsizlik sub’yektiv kulgi bilan kinoya qilingan.

101-mashq „Davom ettir“ usulida bajariladi. Sifat turkumiga mansub bir necha so‘z yozuv taxtasiga yozib qo‘yiladi. Bir o‘quvchi so‘zni o‘z ma’nosida, ikkinchi o‘quvchi kinoyaviy ma’noda qo‘llab, gap tuzishda musobaqalashadilar.

Namuna:

Sen yaxshisan, Men yomondirman,
Sen borsanki, Men omondirman. *(E. Vohidov)* –
Ja yaxshisan o‘zing ham,
Yomonni yomonlama.
Menga qara, ey odam,
Zamonni yomonlama. *(Iqbol Mirzo)*

Tavsiya qilingan so‘zlar: *sodda, kamyob, muqaddas, boy, baland, zukko, silliq, ravon.*

LUG‘AT ISHI

Ibora	**Izohi**	***Varianti:***	**Misol**
Qo‘li kalta	imkoniyati cheklangan	qo‘li qisqa **Zidi:** qo‘li uzun	O‘ylab qarasam, do‘ppi tor ekan, kattaroq ish qilishga qo‘limiz kalta ekan. (*I.Rahim*)
Qo‘lini sovuq suvga urmaslik	qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaslik	***Varianti:*** qo‘lini sovuq suvga urmaslik	Nusratilla ro‘zg‘orda qo‘lini sovuq suvga urmaydi, ota mulkiga biror tiyinlik naf qo‘shgan emas. (*A.Muxtor*)

102-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi.

IFODALILIK VA O‘XSHATISHLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilar ongida o‘xshatishlarni nutqiy uslublarda qo‘llash hamda nutq ifodaliligidagi ahamiyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, bu vositalardan samarali foydalana bilish kompetensiyasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning badiiy imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni tilimizga nisbatan hurmat hamda muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash va ularni hayoti davomida mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘xshatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta’minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi.

Ushbu mavzudagi barcha mashqlarni bajarishda N. Mahmudov, D.Xudoyberganovaning „O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati“dan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi ***oltindek (-day)*** so‘zining o‘xshatish unsuri sifatida ifodalilikni kuchaytirishdagi ishtirokini izohlang (*tinglab tushunish, gapirish*).

O‘shanda bo‘ychan o‘spirin otasi bilan birga ekib, parvarishlagan bug‘doy **oltindek *sarg‘ayib*** pishayotgan edi. *(G‘.Karimiy)*

Izoh: bu gapdagi *oltindek* o‘xshatishi „sap-sariq, sarg‘aymoq“ ma’nosida bug‘doyning sariq rangini yanada yorqinroq ifodalash uchun qo‘llangan.

Yaproq quyosh nurida **oltindek *tovlanib,*** yengil tebranganicha ko‘kka dadil bo‘y cho‘zib turardi. *(O‘.Umarbekov)*

Izoh: bu gapda esa oltinning yaltiroqlilik xususiyatidan yaproqning sariq rangda jilolanib - tovlanishini kuchliroq tasvirlash uchun foydalanilgan.

Bular so‘zlab bergan har bir hikoya, o‘zi shundoqqina **oltinday** kitob. *(Zulfiya)*

Izoh: bu yerda *oltindek* o‘xshatishi *qimmatli, bebaho* ma’nosida qo‘llangan.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi o‘xshatishlarni izohlang, ularni yaratishda ijodkor mahorati haqida gapiring (*o‘qish va gapirish*).

So‘fining tani shu topda **Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday** qizib yonardi. *(Cho‘lpon)*

Izoh: bu gapdagi o‘xshatish erkin o‘xshatish bo‘lib, u Eshonga ishonib rasvo bo‘lgan, Haj ilinjida kun o‘tkazgan Razzoq so‘fining ruhiy holatini favqulodda aniqlik bilan ifodalash maqsadida Cho‘lpon tomonidan yaratilgan.

Xayollar qo‘ymaydi o‘z holimizga – **Lo‘livachchalardek** yopishqoq, kir-chir. *(Iqbol Mirzo)*

Izoh: bu ham erkin o‘xshatish bo‘lib, yozuvchi o‘zini tark etmayotgan xayolni favqulodda kutilmagan, xayolga umuman aloqasi bo‘lmagan o‘xshatish bilan ifodalaydiki, bunday o‘xshatishlar originalligi, ohoriyligi bilan ajralib turadi.

103-mashqni bajarish jarayonida quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi (*o‘qish va gapirish*).

O‘q so‘zining izohlari	**Qo‘llanishi**	**Misol**
To‘g‘ri, adil	Asosan, egri bo‘lmagan ko‘cha, yo‘l va boshqa narsalar haqida	Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o‘rniga bog‘-rog‘ga ko‘milgan, ko‘chalari **o‘qday** to‘g‘ri, oppoq, ko‘rkam qishloq barpo qildi. (*O. Yoqubov)*
To‘g‘ri	Rost, adolatli so‘z, shuningdek, g‘irromlikni bilmaydigan odam haqida	**Yoydek** to‘g‘ri bo‘lmoqlik kibr-u havoga yo‘l ochmasligi lozim... – negadir o‘ylanib qoldi sohibqiron. (*M. Ali)*
Botmoq, tegmoq, teshib o‘tmoq, sanchilmoq, qadalmoq	Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so‘z, o‘y-xayol haqida	Uning so‘zlari garchi **o‘q kabi** botayotgan bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (*T. Malik)* U ketdi, ketdi-yu endi shum o‘ylar Sanchilaveradi qalbga **misli o‘q.** (*A.O‘ktam)*
Uchmoq	Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq	Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga **o‘q kabi** uchib borarman. (*R. Parfi)* Bizdan uzr so‘rab, „pat-pat“iga o‘tirdi-yu, **o‘qday** uchirib ketdi. (*M.M. Do‘st)*

Otilmoq	Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida	Qamchi yeb o‘rganmagan uchqur bedov oldinga **o‘qday** otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. (*P. Qodirov)*
Otilib chiqmoq	Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so‘z, xitob va shu kabilar haqida	Ko‘kragidan shu so‘zlar **o‘qday** otilib chiqdi: „Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o‘rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi“. (*A. Qahhor)*
Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq	Qattiq, dag‘al, quloqqa ozor beradigan darajada eshitiladigan ovoz, gap-so‘z haqida	Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissyorning tajang qich-qirig‘i Zuhraning quloqlariga **o‘qday** kirdi. (*O‘. Hoshimov)*
Qadamoq, tikmoq	Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko‘z haqida	Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o‘ziga **o‘qdek** qadalib turgan bir juft ko‘zni ko‘rib qoldi. (*E. A’zam)*

Tilshunos olimlarning ta’kidlashicha, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Turg‘un o‘xshatishlar etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi.

104-mashq. Hassos shoir Erkin Vohidov asarlaridan olingan she’riy parchalarni o‘qing, ulardagi erkin va turg‘un o‘xshatishlarni aniqlab, izohlang.

Erkin o‘xshatish mavjud gaplar	Turg‘un o‘xshatish mavjud gaplar
Yarq etgan toleday quyosh ko‘rindi, O‘lkamda bahordir, o‘lkamda bahor.	Bu vatanda bir Vatan Qurmoqni istaydir ko‘ngil, O‘zni ozod **qush kabi** Ko‘rmoqni istaydir ko‘ngil... Sarhad uzra **soqchidek** Turmoqni istaydir ko‘ngil

Ko‘rakdek og‘izni Yumarmiz har dam, Ochmasam **chanoq-dek** Dilni endi ham, Men nechuk shoirman, Men nechuk odam?	Mevalarki, **cho‘g‘day** qip-qizil, Husni yoqut, shirinlikda bol.
Va yo aytmangki, **mo‘rt toldek** Shamollarda sinib ketdi.	Uni kiyib Matmusa, Yigit bo‘ldi **chaqmoqday**.
Dunyoda **o‘z yurtimizdek** jononasi yo‘q, London, Parij – shaharmi? Bir choyxonasi yo‘q.	

105-mashq „Hasharda“ yoki „Navro‘z“ mavzusida matn tuzing, unda turg‘un va erkin o‘xshatishlardan foydalaning (*yozish, o‘qish, gapirish*).

106-mashq. Gaplarni o‘qing. Erkin o‘xshatishlarni aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring, ma’nosini izohlang (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: 1. Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – **kasal odamning kulishiday** og‘ir, bir xil **sovuq hazillarday** malol keltiruvchi, **yolg‘on xushomadlarday** ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi. *(Cho‘lpon)* 2. Hamma uyquda. Yangi yog‘gan qor oyoq ostlarida **g‘irchillama etik singari** ovoz berib yotardi. To‘shakcha ustidagi dumaloq bolish – tepasi qor, ikki yoni quruq – **chala bo‘yalgan tuxum singari** chuchmal va g‘alati ko‘rinardi. *(Cho‘lpon)* 3. Kun issig‘idan anor yuzlari bo‘rtinib ketgan. *Baxt yo‘llariday* oq va keng manglayda **marvarid donalariday** mayda ter. *(G‘afur G‘ulom)* 4. **Ilon chaqqan kishidek** dovdir va besaranjom ko‘zlari bilan tevarakka bejo-bejo nazar tashlar edi. *(Abdulla Qodiriy)* 5. Ko‘chada yuk ortilgan tuyalar ko‘p. Qing‘ir-qiyshiq ko‘cha ular uchun go‘yo **sichqonning qopqoniday** bo‘lganidan tiqilib qolishgan. *(Oybek)*

107-mashq. Gaplarni o‘qing. O‘xshatish etalonlarini aniqlang, ularning nutq ifodaliligidagi o‘rnini tushuntiring.

Yechim: yuqoridagi mashq tahlilida „O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati“dan olingan izohlardan foydalanish o‘rinli:

Kalladek – yumaloq va uncha katta bo‘lmagan. Ko‘proq tosh, qovun-tarvuz kabilar haqida.

Ini buzilgan chumoliday – ko‘plashib, birgalikda harakat qilmoq; muayyan bir joyda tartibli-tartibsiz harakat qilmoq, g‘ujg‘on o‘ynamoq.

Qo‘chqorday – pahlavon, botir, suyumli. Asosan, o‘g‘il farzand, bolalar haqida.

Toychoqday – gijinglamoq, shataloq otmoq, o‘ynoqlamoq, irg‘ishlamoq; sho‘x, yoqimtoy. Yosh bolalar va mashina, suv, soy kabi harakatli narsalar haqida.

To‘ygan qo‘ziday – bu erkin o‘xshatish bo‘lib, biror narsadan xotirjam, beparvo o‘tirgan odam haqida.

Mast tuyaday – bu o‘xshatishning *tuyaday* shakli turg‘unlashgan bo‘lib, *mast tuyaday* o‘xshatishi *kuchli chayqalmoq, g‘ayriodatiy harakatlar qilish* ma’nosida qo‘llangan.

LUG‘AT ISHI

Qo‘ltig‘iga suv purkamoq – biror ishni qilishga o‘chakishtirmoq, gijgijlamoq. *Misol:* Eshonning xotinini kimdir tezlayapti, kimlardir qo‘ltig‘iga suv purkayapti. (*S.Ahmad*)

Hasratidan chang chiqmoq – ortiq darajada norozilik bilan gapirmoq. *Misol:* Maxsum… Qo‘chqorning musulmoni komil bandalarga ko‘p ozor berayotganini gapirib, hasratidan chang chiqdi. (*S. Anorboyev*)

Darslikda berilgan savol va topshiriqlar yuzasidan o‘quvchilarning fikrlari so‘raladi. **108-mashq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

MUSTAHKAMLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga chiqadigan nutqning kommunikativ sifatlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zgalar fikriga hurmat va toqat qilish, murosali qarorga kela olishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

1-topshiriq. Berilgan so‘z va ibora juftliklari ishtirokida gaplar tuzing. Shundan kelib chiqib so‘z va iboraning ifodalilik imkoniyatlarini tavsiflang (*o‘qish, yozish, gapirish*).

Izoh: topshiriqni bajarishda sinf kichik guruhlarda ishlashi mumkin. O‘quvchilarni 6 ta guruhga bo‘lib, har bir guruhga darslikda berilgan so‘z va ibora juftligi taqsimlanadi:

1) xafa – ichiga chiroq yoqsa yorishmaydigan;
2) xursand – og‘zi qulog‘ida;
3) sho‘x – yerga ursang, ko‘kka sapchiydigan;
4) lallaygan – og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadigan;

5) yuvosh – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan;
6) hovliqmoq – o‘pkasini qo‘ltiqlamoq.

Namuna:

Bo‘lib o‘tgan voqealar Salimga juda qattiq ta’sir qilgan, ayni damda bog‘ ichida sayr qilarkan, juda **xafa** edi. – Bo‘lib o‘tgan voqealar Salimga juda qattiq ta’sir qilgan, ayni damda bog‘ ichida sayr qilarkan, **ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi**.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Ko‘chimlarning turini aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi o‘ziga xosligini tavsiflang (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: ko‘chimlar nutq ifodaliligini ta’minlash maqsadida qo‘llanib, ko‘chma ma’no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etgan:

Matnda qo‘llangan o‘xshatishlar:
shoxlarini shirtillatib uzguday yog‘gan yomg‘ir;
bulutlar azim daryodek.
Matnda qo‘llangan metaforalar:
qosh qoraya boshladi;
osmon pardasi ochilmadi;
bulutlar quyuqlashib;
bulutlar ... Sharqqa tomon oqib bormoqda;
yoqimli shabadasi uzoqqa bormadi;
ko‘rpachaga ko‘kragini berib, yostiqni quchoqlab yotgan.

3-topshiriq. Erkin Vohidovning „Boshindadir“ she’ridan olingan parchani o‘qing. Matn mazmuniga singdirib yuborilgan zaharxandani tushunishga harakat qiling. Yaqqol kinoyaviy qo‘llangan so‘zni topib, uning qarama-qarshi ma’noda namoyon bo‘lishiga diqqat qiling.

Yechim: she’rda yaqqol kinoyaviy ma’noda qo‘llangan so‘z ***„rahmat“*** so‘zi bo‘lib, bu so‘z o‘zining aksi –***„la’nat, ta’na-dashnom“*** ma’nosini juda yorqin ifodalagan. She’rdagi ***nay misol, sandiqdayin, savatdek*** kabi o‘xshatishlar zaharxanda bilan aytilmoqchi bo‘lgan ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She’rda otasiga boqimanda, biroq „zamonaviy urf“ – moda bo‘yicha kiyinishni kanda qilmaydigan „erkak“lar yumoristik kulgi tig‘iga olingan.

LUG‘AT ISHI

Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq – 1. Tanishdek tuyulmoq. 2. O‘ziga tortmoq, yoqimli bo‘lmoq. *Varianti*: ko‘ziga o‘tday ko‘rinmoq. *Zidi*: ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq. *Misol*: „…Ko‘zimga issiq ko‘rinasan, qayerliksan, o‘g‘lim?“ (*A. Muhiddin*)

Yuzi shuvut bo‘lmoq – uyatli holatda qolmoq. *Varianti*: beti shuvut bo‘lmoq, yuzi shamgin bo‘lmoq. *Zidi*: yuzi yorug‘ bo‘lmoq. *Misol*: Yuzimizni shuvut qilganing yetmay, tiriklayin judo qilding. (*S.Zunnunova*)

4-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring. Turg‘un o‘xshatishlarning nutq ifodaliligiga ta’sirini baholang (*yozish, o‘qish, gapirish*).

1. Bo‘ldi-da endi, voy-bo‘! Bitta gapni **achchiq ichakday** cho‘zaveradimi! *(Sh. Boshbekov)* 2. Olomon ichidan bir kosib yigitcha bo‘ynini **xo‘rozday** cho‘zib, baralla qichqirdi. *(Oybek)* 3. Avvallari bunday holga tushgan odamni ko‘rganda, xuddi **jismiga paykon sanchilgan sherdek** o‘kirib dunyolarni buzadigan Yusuf hozir miq etmasdi. *(Ulug‘bek Hamdam)* 4. Butun shahar **arining uyasidek** qaynaydi. *(Sh. Boshbekov)* 5. Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola **sharpaday** unsiz yurib keldi-da, zinadan ayvonga ko‘tarildi. *(O‘.Hoshimov)*

Yechim: mashqdagi gaplarda qo‘llangan o‘xshatishlar turg‘un o‘xshatishlar bo‘lib, ular o‘zi ifodalagan ma’no bilan birgalikda so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham bildiradi. Masalan, ***achchiq ichakday*** o‘xshatishida so‘zlovchining salbiy munosabati yaqqol seziladi.

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ TEXNIKASI

Ta’limiy maqsad: nutq hosil qilishda nafas olish va nafas chiqarishning o‘rni haqida o‘quvchilarga batafsil ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘zgalar tanqididan to‘g‘ri xulosa chiqarish, o‘zgalar fikriga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutq hosil qilishda zarur bo‘lgan sifatlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mazkur darsni o‘tishdan oldin o‘qituvchi nutq texnikasi, urg‘u va to‘xtam (pauza) tushunchalari yuzasidan yaxshi xabardor bo‘lishi zarur. Quyi sinflarda faqat urg‘u bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan, nutq texnikasi tushunchasi esa yangi mavzu sanaladi. Talab darajasida shakllangan nutq texnikasi kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim qismi hisoblanadi. Nutq texnikasi deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami tushuniladi. Nutq texnikasini yetarli darajada egallashda umumiy tarzda bo‘lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur.

Nutq texnikasi unsurlari: 1. Artikulatsiya. 2. Diksiya. 3. Orfoepiya. 4. Nafas. 5. Ovoz.

Nutq texnikasining muhim bir qismi bu artikulatsiyadir. Nutq a'zolarining me'yoriy harakatiga *artikulatsiya* deb ataladi. Talaffuz organlari bo'lgan lab, jag', til nutq jarayonida turlicha shaklda harakatlanadi. *Fonatsiya* – nutqni hosil qilish paytida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Bunda nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish – *diksiya*, nutq oqimining mazmun ifodasiga uyg'un tarzda tez yoki sekinligi kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Albatta, ovozning sifati ham nutq texnikasidagi muhim jihatlardan biridir. Masalan, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yoqimli bo'lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan „libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad – muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi.

Topshiriqni bajarish tartibi:

Darslikda berilgan hikoyat matni o'quvchilarga audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Ba'zi so'zlarning izohi tayyorlanadi:

rag'bat – bu yerda *kuchli xohish-istak* ma'nosida;

muazzin – masjidda azon aytuvchi xodim;

mukaddar – xafa; g'amga botgan;

javonmard – baland himmatli zot;

ittifoq aylamoq – bu yerda *kelishmoq, bitim tuzmoq* ma'nosida.

Matn mazmuni yuzasidan o'quvchilar bilan kichik suhbat tashkil qilinadi (*gapirish*). „Suhbat" metodidan foydalanib, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Matnda ifodalangan muazzinga ta'rif bering.
2. Amirning muazzin haqidagi qaroriga qanday munosabat bildirasiz?
3. Ortga qaytib kelgan muazzin amirni nega zulmkorlikda aybladi?
4. Amir nima uchun muazzinga yigirma oltinni olishga ko'nmaslikni maslahat berdi?
5. Hikoyat mazmunidan amirning shaxsiyati haqida nima deya olasiz?
6. Siz amirning o'rnida qanday yo'l tutgan bo'lardingiz va sizning qaroringizning muazzin ovozi sifatiga ta'siri bo'larmidi? Fikrlaringizni rivojlantiring.

Har bir o‘quvchi o‘z munosabatini tezis shaklida daftarda bayon qiladi (*yozish*) va sinfdoshlarini mulohazasi bilan tanishtiradi (*o‘qish*).

109-mashq. Parchani o‘qing. Qahramonning ayrim tovushlar talaffuzidagi nuqsonlariga e’tibor bering, tovushni aniq talaffuz qilish zaruriyati haqida fikrlashing (*o‘qish va gapirish*).

Yechim: ushbu matn bo‘yicha „Munozara“ metodidan foydalanib, o‘quvchilar o‘rtasida qizg‘in muhokama uyushtirsa bo‘ladi. O‘qituvchi bu muhokama uchun quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

1. Matn O‘. Hoshimovning qaysi asaridan olingan va siz ushbu asar bilan tanishmisiz?
2. Ayrim kichkina bolalarning ba’zi tovushlarni ayta olmaslik holatlariga duch kelganmisiz?
3. Odam o‘z nutqidagi nuqsonlarni to‘g‘rilashi mumkinmi?
4. Nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish uchun qanday yo‘l tutish kerakligini bilasizmi?
5. Chiroyli gapirish uchun qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim?

110-mashq. Matn eshittiriladi. Unda ifodalangan fikrlar atrofida mulohaza yuritiladi (*tinglab tushunish va gapirish*).

Izoh: bu mashq o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish va turli doiralarda nutq so‘zlash ko‘nikmasini egallash uchun motivatsiya vazifasini bajarishi zarur. O‘qituvchi mashhur yunon notig‘i Demosfen amalga oshirgan ishning mohiyatini o‘quvchilar ongiga yetkazishda quyidagi rasmlardan qiyosiy foydalanishi mumkin: 1-rasmda bo‘lajak notiqning dengiz bo‘yidagi nutqiy mashqlari manzarasi, 2-rasmda Demosfenning Afina demokratik guruhi yo‘lboshchisi sifatida nutq so‘zlash jarayoni tasvirlangan:





Burro talaffuzni shakllantirishda tez aytishlar muhim ahamiyatga ega.

111-mashqda tez aytish namunalari keltirilgan. Ikki bosqichli „Quvnoq musobaqa“ tashkil qilinadi: 1-bosqichda darslikda berilgan tez aytishlar bo‘yicha, 2-bosqichda o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan tez aytishlari bo‘yicha bellashadilar. Musobaqada so‘zlarni to‘g‘ri, aniq va to‘liq talaffuz qilish qoidasiga rioya etilishi lozim. G‘olib o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

LUG‘AT ISHI

„Ha-hu“ deguncha – juda qisqa muddatda, tezda. *Ma’nodoshi*: „hash-pash“ deguncha; ko‘z ochib yumguncha. *Misol*: Odamning umri qanday tez o‘tib ketadi, „ha-hu“ deguncha ko‘klam ham kelib qolibdi. (*G‘.G‘ulom*)

Hushi boshidan uchmoq – esankiramoq. *Ma’nodoshi*: hushini yo‘qotmoq. *Misol*: Mahmud akaning hushi boshidan uchib, yelkasidagi xurjunining og‘irligini ham sezmay, serrayib qotib qoldi. (*N.Maqsudiy*)

112-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars nihoyalanadi.

NUTQ TEXNIKASIDA URG‘U VA TO‘XTAM (PAUZA)

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga urg‘u, so‘z urg‘usi va uning ma’no ajratuvchanlik xususiyati bilan bog‘liq uslubiy vazifasi, turli adabiy janrlarga oid asarlarni o‘qishda urg‘u va to‘xtam (pauza)ning ahamiyati haqida ma’lumot berish va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: tushunarli, chiroyli, ravon so‘zlash madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqiy vaziyatlarda urg‘uning xususiyatlarini aniqlash; tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Matn qanchalik mukammal bo‘lmasin, u talqin etilishiga qarab, muayyan ta’sir kuchiga ega. O‘tilgan mavzudan ayon bo‘ldiki, nutq texnikasi deyilganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lgani uchun uning texnikasi ham ikki xil bo‘ladi:

1. Og‘zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

To‘xtam (pauza) ovozni vaqtincha to‘xtatish (to‘xtab qolish, dam olish, oraliq) bo‘lib, bu davrda nutq a’zolari artukulatsiyadan to‘xtaydi

va nutq oqimi uziladi. To‘xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko‘riladi. Shuni ta’kidlash joizki, matnning duch kelgan joyida nafas rostlanmaydi.

To‘xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Bugungi darsda to‘xtamning ikki asosiy turi: mantiqiy to‘xtam va ruhiy to‘xtam ustida ishlanadi. Mantiqiy to‘xtam nutqning mantiq tomoni bilan bog‘liq bo‘lib, so‘z guruhlarini bir-biridan aniq ajratish, matnning ma’nosini to‘la ochish uchun xizmat qiladi. Bu to‘xtam mantiq qonunlariga bo‘ysunib, sintaktik talablarga rioya qilinmaydi. So‘zlovchining kuchli hayajonini, borliq voqea – hodisalaridan olgan taassurotlarini ifodalovchi to‘xtam ruhiy to‘xtam deyiladi. Ruhiy to‘xtam emotsionallik bo‘yog‘i bilan bog‘liq.

Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin „Izohli vizual diktant“ olish tavsiya qilinadi. Bunda o‘quvchilar ham ko‘rib, ham yozib boradilar.

Izoh davomida o‘quvchilar quyi sinflarda o‘zlashtirgan bilimlari bo‘yicha klaster tayyorlaydilar. Bu jarayonda urg‘u bilan bog‘liq quyidagi ma’lumotlar yodga olinadi:

1) o‘zbek tilida urg‘u, asosan, oxirgi bo‘g‘inga tushadi: *ishchí, ishchilár, ishchilargá;*

2) rus yoki boshqa chet tillardan kirgan so‘zlarda urg‘u olgan tovush aniq talaffuz qilinadi: *stól, fléjka, texnológiya, ófis, adápter, stadión*;

3) xuddi shunday so‘zlardagi urg‘u olmagan tovushlar kuchsiz talaffuz qilinadi: *rektor – rektir, televizor – televizir, kompyuter – kampyutir*;

4*) muhim, muhit, mumkin, musiqa* so‘zlaridagi **i** tovushi aniq talaffuz qilinishi kerak, aks holda bu tovush o‘rnida **u** tovushi eshitilishi mumkin.

1–2-topshiriqlarni bajarish jarayonida *tinglab tushunish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. **1-topshiriq**da berilgan juftliklardagi so‘zlarning urg‘u va ma’no jihatdan farqlari misollar yordamida izohlanadi. Berilgan so‘zlarni avval o‘qituvchining o‘zi talaffuz qilib beradi, so‘ng o‘quvchilar urg‘uga e’tibor qaratgan holda takrorlaydilar.

Olmá (ot) – ólma (fe’l);
Akadémik (ot) – akadeмík (sifat);

Bog‘dan o‘tgan ariqda qip-qizil *olmá* qalqib kelardi. – Birovning narsasini egasidan so‘ramay *ólma*.

Mehri. Har bir meditsina personali *akadémik* Ivan Pavlov nazariyasiga binoan, shaxsiy gigiyenani o‘ziga shartli refleks qilib olishi kerak. (*S. Ahmad)* – „Fan“ nashriyotida nashr etilgan Oybek asarlarining 20

jildligi, H. Olimjon asarlarining 10 jildligi *akadem*ík nashr hisoblanadi. (O‘zME)

Qo‘shimcha ma’lumot:

suzmá (ot, *quyuq qatiq*) – súzma (fe’l, *suvda suzish* yoki *ovqatni suzish*)

tortmá (ot) – tórtma (fe’l)

qatlamá (ot) – qátlama (fe’l)

bolaginá (ot, -*gina* kichraytirish) – bolágina (ot, -*gina* yuklama)

gráfik (ot, *chizma*) – grафik (ot, *mutaxassis*) – grafík (sifat, *grafik tasvir)*

2-topshiriqdagi gaplar „Kim ohangga usta?“ usulida o‘quvchilarga o‘qitib ko‘riladi. Oxirida o‘qituvchi shunday o‘qib berishi kerakki, o‘quvchilar gaplarning intonatsiyasiga mos ravishda uning mazmuniy turini yaqqol anglay olishsin:

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi. (*Darak gap*)

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi? (*So‘roq gap*)

Ona bolalariga ertag-u naqllar aytib berdi! (*His-hayajon gap*)

Nutqning madaniyligini ta’minlashda undagi ohang ham alohida o‘rin tutadi. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida urg‘u, to‘xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya kabi unsurlar ishtirok etadi. Og‘zaki madaniy nutq tuzayotgan kishi ana shu unsurlarni aniq va to‘g‘ri namoyon qilishi zarur. Nutq oqimidagi noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz to‘xtam (pauza) hatto fikrning yanglish anglanishiga ham olib kelishi mumkin. „Gapda intonatsion o‘zgarish bo‘lar ekan, bu, odatda, sintaktik bo‘linishning, mazmunning boshqaligini ko‘rsatadi“. (*A.G‘ulomov*)

Masalan: 1. *Katta mevali // daraxt* (mevasi katta) – *katta // mevali daraxt* (daraxt katta).

2. *Qalin // muqovali kitob* (kitobning o‘zi qalin) – *qalin muqovali // kitob* (muqovasi qalin).

3. *Uchta bolali // xotin* (uchta bolasi bor xotin) – *uchta // bolali xotin* (bolasi bor uchta xotin). (misollar A. G‘ulomovdan)

4. Afandi podshoga qarab: „*Siz ahmoq odam emassiz*“ – dedi. (latifa) – *Siz ahmoq // odam emassiz* (ahmoq odamsiz).

5. *Kimsan // yomon bola bo‘lmaydi* – yaxshi bola bo‘ladi; *Kimsan yomon // bola bo‘lmaydi* – yaxshi bola bo‘lmaydi, umuman odam bo‘lmaydi.

6. *Bolalar orqasini o‘girib turgan Afandini savalab ketishdi: savalab ketishdi* (yaxlit intonatsiya) – tarkibli kesim; *savalab // ketishdi* – hol-kesim.

Intonatsiya gapning mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

113-mashqni bajarish davomida *o‘qish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. O‘quvchilar so‘z va gap urg‘usi hamda to‘xtam qoidalariga rioya qilgan holda she’rni o‘qib, unda ifodalangan fikrlarni nasriy bayon qilishga harakat qiladilar. She’r mazmunidan kelib chiqib, maqollarni topib yozadilar.

Yechim:

Hatto shohning Ishqi tushgan qurbaqa	Shohning ishqi qurbaqaga tushibdi
Yaxshi so‘zga inidan Chiqadigan ilonlar	**Yaxshi so‘zga ilon inidan chiqar** (Yomon so‘zga pichoq qinidan chiqar.)
Sira bosgan izidan Qaytmaydigan arslonlar	(Yigit so‘zidan,) **arslon izidan qaytmas**
Inga sig‘mas dumiga G‘alvir bog‘lagan sichqon	Chichqon sig‘mas iniga, G‘alvir bog‘lar dumiga
Bolasin botirim deb, Alqagan qo‘rqoq quyon	**Quyon bolasini botirim der** (It bolasini qoplonim der.)
Do‘stlardan ayrilganni Yeydigan ayiqlar bor	**Ayrilganni ayiq yer** (Bo‘linganni bo‘ri yer.)
Changi chiqsa ham, dong‘i Chiqmaydigan yolg‘iz ot	Yolg‘iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas

114-mashq „Saylab yoz“ usulidan foydalanib bajariladi. Matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*).

Yechim: sinf uch guruhga bo‘linadi va birinchi guruh darak gaplarni, ikkinchi guruh so‘roq gaplarni, uchinchi guruh buyruq gaplarni ajratib ko‘rsatadi:

Hikoyatning tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildiradilar (*gapirish*).

Namuna:

Ahillikda ish bitar, Ish bitsa ham, qish bitar.

Ahil ishlasang, ish unar, Har mushkul oson bo‘lar.

Aka-uka yakdil bo‘lmasa, ro‘zg‘ori but bo‘lmaydi.

Xulosa: Ikkisi bir bo‘lmaganning qandoq qilib biri ikki bo‘lsin?! – Ikki aka-uka ahil bo‘lmasa, ularning biri ikki bo‘lmaydi (bir so‘mi ikki so‘m bo‘lmaydi, daromadi ko‘paymaydi).

115-mashqni bajarish tartibi: Matn undagi gaplarning mazmuniga mos ohang bilan hamda so‘z va gap urg‘ularini to‘g‘ri belgilagan holda o‘qiladi (*o‘qish*).

Matn yuzasidan har bir o‘quvchi rivoyatdan chiqargan ibratli xulosasini yozma bayon qiladi (*yozish*).

Namunalar:

Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo‘lar chiroyli.

Bog‘ni boqsang – bog‘ bo‘lur,
Botmon dahsar yog‘ bo‘lur.

Boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘lur,
Yurak-bag‘ring dog‘ bo‘lur.

Xazina g‘oyibdan emas, mehnatdan.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar	
Labi labiga tegmaydi	juda tez va ko‘p gapirmoq	*Yangi kotibamiz juda sergap ekan: labi labiga tegmaydi-ya?*	
Labini tishlamoq	kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq	**O‘xshashi**: tilini tishlamoq	*Oynisa opa jahli chiqqanini bildirmaslik uchun labini tishladi.* *Anvar javob berolmay tilini tishladi.*

Mavzuni mustahkamlash maqsadida savollarga javob beriladi. Faol qatnashgan o‘quvchilar bahosi qo‘yiladi. **116-mashq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. BAYONNOMA

Ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarni ish qog‘ozlari bilan tanishtirish; bayonnoma yozish ko‘nikmasini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘zni anglash, tanlash va o‘rinli qo‘llash madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish.

Adabiy tilning muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan, rasmiylik bo‘yog‘i va shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanalishi ma’lum. Bu uslub diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog‘ozi singari ish yuritish qog‘ozlarida qo‘llaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda, ko‘pincha, darak va buyruq gaplar qo‘llanadi.

„Ish yuritish“ kitobidan olingan matn (**1-topshiriq**) bilan tanishiladi (*o‘qish*), o‘quvchilar „Zanjir“ usulida tushungan ma’lumotlarini aytadilar (*gapirish*):

1-o‘quvchi: „o‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur“.

2-o‘quvchi: „Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak“.

3-o‘quvchi: „O‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallamay turib, bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi“.

4-o‘quvchi: „Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o‘z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Ular o‘zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lmasa, ish vaqtlarining hammasini – 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham, ijobiy natijaga erishish qiyin“.

2-topshiriq „Tadqiqot“ usulida quyidagi jadvalni to‘ldirish bilan amalga oshiriladi (*o‘qish va gapirish*):

T.r.	Hujjatga qo‘yiladigan talablar	Aks holda...
1	Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga javob berishi lozim.	Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo‘la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

2	Hujjatlar matni xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘nda-lik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat bo‘lishi zarur.	Ortiqcha yoki noo‘rin so‘z qo‘llash, jumlalarni noto‘g‘ri tuzish hujjat mazmunining tushunarliligi-ga putur yetkazadi.
3	Ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe’l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifoda-si uchun ham „harakat nomi“ deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi.	Hujjat turida qo‘llanadigan ifo-dalarni almashtirish shakllanib bo‘lgan qolipning buzilishiga olib keladi.
4	Majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o‘tgan (yoki hozir-gi-kelasi) zamondagi fe’l shakllarining qo‘llanish darajasi ancha yuqori.	Fe’l shakllarining no‘o‘rin qo‘llani-shi (masalan, xabar mayli shakllari-ni faol qo‘llash) hujjat maqsadining aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3-topshiriq esa „Bayonnoma“ hujjati tilining sintaktik qurilishi haqi-da bo‘lib, o‘quvchilar berilgan ma’lumot asosida klaster tayyorlaydilar:

1. Asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.
2. Ham xabar berish (axborot), ham buyurish vazifalari amalga oshadi.
3. Gap tarkibida odatdagi so‘z tartibiga qat’iy rioya qilinadi.
4. Gap qurilishi tasniflash, mayda qismlarga ajratish, bu qismlarning sabab-oqibat, shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi.

4-topshiriqda berilgan matn o‘qiladi. Matn mazmunidan kelib chiqib, „Adashgan tushunchalar tahlili“ jadvali to‘g‘rilab to‘ldiriladi.

1	Bayonnoma	U voqelikning o‘rni, vaqti va holati haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi.
2	Maqsadi	Bayonnoma yozishni tashkil qilish, tuzish va va rasmiylashtirishni amalga oshiradi.
3	Asoslovchilik vazifasi (ahamiyati)	Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

4	Kotib(a)	Doimiy ish ko‘ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay’at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko‘ruvchi organlar (konferensiyalar, yig‘ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlari bayonnoma yozish bilan asoslanadi.
5	Javobgarlik	Turli yig‘ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

Tekshirish uchun jadval:

1	Bayonnoma	Turli yig‘ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.
2	Maqsadi	U voqelikning o‘rni, vaqti va holati haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi.
3	Asoslovchilik vazifasi (ahamiyati)	Doimiy ish ko‘ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay’at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko‘ruvchi organlar (konferensiyalar, yig‘ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlari bayonnoma yozish bilan asoslanadi.
4	Kotib(a)	Bayonnoma yozishni tashkil qilish, tuzish va rasmiylashtirishni amalga oshiradi.
5	Javobgarlik	Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Misollar
Kuni qolmoq	1. Biror ishni bajarishda qaram bo‘lmoq	*Toza qaqajonlarga kuningiz qolibdi-ku, bolam. (Oydin)*
	2. Foydalanishga majbur bo‘lmoq	*„Hay, ishi nimasi, bolam, kunimiz sening topadigan pulingga qoptimi?!“ (A.Muxtor)*

Ko‘zi mosh-dek ochilmoq	jazolanib, hushyor tortmoq	*„Bilib qo‘y, bola, ko‘zing moshdek ochilganda ostonamga yalinib kelma“. (A. Korjovov)*

5-topshiriq uyga beriladi va dars yakunlanadi.

BAYONNOMADAN KO‘CHIRMA

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda bayonnomadan ko‘chirma olish haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga jamoaviy ahillik, do‘stlik tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish.

1-topshiriq bayonnomaning tarkibiy tuzilishi aks etgan jadval asosida tushuntiriladi. Hujjat matnining imlosiga diqqat qilinadi.

T.r.	**Zaruriy qismlar:**
1	Muassasa nomi
2	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
3	Shartli raqami
4	Hujjatning nomi (Bayonnoma)
5	Yig‘ilish sanasi
6	Yig‘ilish joyi
7	Tasdiqlash belgisi (agar bayonnoma tasdiqlanishi zarur bo‘lsa)
8	Yig‘ilish raisi va kotibning familiyasi
9	Matn: a) kun tartibi; b) „eshitildi“; d) „so‘zga chiqdilar“; e) „qaror qilindi“.
10	Ilovalar (agar ular mavjud bo‘lsa)
11	Imzolar

2-topshiriqda berilgan „Bayonnomadan ko‘chirma“ matnining tarkibiy tuzilishi o‘rganiladi va „Bayonnoma matnining tarkibiy tuzilishi“ jadvali bilan qiyoslanadi.

T.r.	**Zaruriy qismlar:**
1	Muassasa nomi

2	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
3	Sana (majlis sanasi)
4	Shartli raqami
5	Hujjatning nomi (bayonnomadan ko‘chirma)
6	Bayonnoma tuzilgan joy
7	Matn: a) kun tartibi; b) „eshitildi“; d) „qaror qilindi“.
8	Imzolar
9	Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi (muhr bilan)

„***Qiyosiy tahlil“ asosida xulosa chiqariladi:***

Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo‘lgan bo‘laklargina olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo‘lsa, kerakli masala bo‘yicha qabul qilingan qaror ko‘chiriladi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	O‘xshashi	Misol
Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq	imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq	ko‘rpaga qarab oyoq uzatmoq	*Bu yog‘iga endi ko‘rpangga qarab oyoq uzat, isrofning ham uvoli bor, o‘g‘lim. (M.M.Do‘st)*
Yuragi po‘killamoq	Biror yoqimsiz ishning yuz berishidan hadiksiramoq		*„Baqirishga-ku baqirib qo‘ydi, endi nima bo‘ladi? Akasining yuziga qanday qaraydi?“ – xayoli chuvalashib ketgan Murodning yuragi po‘killardi. (S.Ashur)*

3-topshiriq „Konveyer“ usulida bajariladi. Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi va bayonnomaning yozish kerak bo‘lgan qismlari taqsimlanadi:

1-guruh	Muassasa nomi
	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
	Shartli raqami
	Hujjatning nomi (Bayonnoma)
	Yig‘ilish sanasi
	Yig‘ilish joyi
	Yig‘ilish raisi va kotibning familiyasi
	Kun tartibi
2-guruh	„Eshitildi“ qismi matni
3-guruh	„So‘zga chiqdi“ qismi matni
4-guruh	„Qaror qilindi“ qismi matni

To‘rtala guruh ishi birlashtirilib, yaxlit bayonnoma matni hosil qilinadi. Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. **4-topshiriq** uyga beriladi va dars yakunlanadi.

TAKRORLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning yil davomida o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash va takrorlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga insoniy fazilatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘rganilgan nazariy bilimlarni kundalik hayotda o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

Darslikda berilgan savollarga o‘quvchilar „Zinama-zina“ usulida javob beradilar. Buning uchun sinf to‘rt guruhga bo‘linib, har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Savollar ketma-ket beriladi, javob bergan o‘quvchi bir qadam oldinga, javob berolmagan yoki xato qilgan o‘quvchi bir qadam ortga yuradi. Shu tariqa belgilangan marraga eng avval yetib kelgan guruh g‘olib bo‘ladi.

117-mashq asosida „Kim topqir?“ musobaqasi o‘tkaziladi. Berilgan gaplardagi sheva unsurlari adabiy me’yor shakliga aylantiriladi.

1	Sen me**ni** boshim**di** aylantirma, – deya muallimning gapini cho‘rt kesdi u.	Sen mening boshimni aylantirma, – deya muallimning gapini cho‘rt kesdi u.	

2	Qishloq**di** dunyo tanidi nima, tanimadi nima?	Qishloqni dunyo tanidi nima, tanimadi nima?	Mazkur gaplarda ijodkor qahramonlar qiyofasi va xarakterini ochish uchun sheva unsurlarini qo‘llagan
3	Birov kelib qurbaqa bosgan qudug‘imga toza suv quyib ber**ay**midi?	Birov kelib qurbaqa bosgan qudug‘imga toza suv quyib berarmidi?	
4	Yo **ulimdi** musobaqaga yuborganim uchun menga bir so‘m ber**ay**midi?	Yo o‘g‘limni musobaqaga yuborganim uchun menga bir so‘m berarmidi?	
5	**Shohmot**ning **ketidan** kim boyib ketdi o‘zi, a, kim?	Shaxmatning ortidan kim boyib ketdi o‘zi, a, kim?	
6	Bizdi **andi** deb o‘ylayotgan bo‘lsang, adashasan!	Bizni sodda deb o‘ylayotgan bo‘lsang, adashasan!	

118-mashqda berilgan matn audio shaklida eshittiriladi (*tinglab tushunish*). O‘quvchilar hikoyatdan olgan hissalarini bayon qiladilar (*gapirish*). So‘ngra matnga sarlavha topib, reja tuziladi (*yozish*). Kirish, asosiy qism va xulosa o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlik aniqlanadi.

Sarlavha namunalari:

Malol.

G‘o‘r farzand.

Oqibatsiz o‘g‘il.

Taxminiy reja:

I. Kirish. Ona yosh edi... Bola go‘dak edi.

II. Asosiy qism:

1. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borardi:

a) qishloq guzaridagi noma’lum qush;

b) bolaning hayrat to‘la so‘roqlari;

d) mehr bilan qaytarilgan javoblar.

2. Bola yigit bo‘ldi:

a) daraxt shoxidagi laylak;

b) onaning nursiz so‘roqlari;

d) o‘g‘il shoshib turibdi: mingta ishi bor!

III. Xulosa: Qaytar dunyo: o‘g‘ilning ham g‘o‘r, go‘dak bolalari bor.

119-mashq bilan tanishiladi (*o‘qish)*. Matndagi tagiga chizilgan chet so‘z va birikmalar qahramonning ma’naviy qiyofasini ochishga qay darajada xizmat qilayotganiga diqqat qilinadi. „Qiyosiy tahlil“ metodi asosida matn chet so‘z va birikmalardan tozalanadi. Yuzaga kelgan farq badiiy obraz qiyofasini o‘zgartira olgan-olmagani xususida mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

– Mumkinmi? Gud moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men, k sojaleniyu, sizning sochineniyelaringizni o‘qigan emasman. Xotya, eshitganman. V osnovnom, mamashkalar haqida yozarkansiz. Itak, to‘rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi, pomoyemu, o‘n to‘rtda. Shu yil o‘n to‘rtga kiradi. Kopiya papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliymi, ko‘zining razrezi.... Papasi zamministr edi. (*O‘.Hoshimov*)	– Mumkinmi? Tongingiz xayrli bo‘lsin! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni tanishtirsam... Jonetta Qobulovna Xaltayeva! Men, afsuski, sizning asarlaringizni o‘qigan emasman. Biroq eshitganman. Asosan, onaxonlar haqida yozarkansiz. Xullas, to‘rtta bolam bor. Maratjon – Nukusda. Internatda. Yoshi... bir daqiqa, menimcha, o‘n to‘rtda. Shu yil o‘n to‘rtga kiradi. Naq otasining nusxasi. Chirroyli! Qoramag‘izligimi, ko‘z bichimi... Otasi vazir muovini edi.

LUG‘AT ISHI

Ibora	Izohi	Ma’nodoshi:	Misol
Ko‘zining paxtasi chiqmoq	G‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaymoq	ko‘zi qinidan chiqib keta yozdi	– Tuhmat qilma! – baqirdi rais ko‘zining paxtasi chiqib. (*Q.Norqobil*)
Ko‘zining yog‘ini yemoq	o‘zini kimgadir yaqin ko‘rsatib, uning xayrixohligidan shaxsiy manfaati yo‘lida foydalanmoq		Sizda vijdon degan narsa yo‘q! Ko‘zimning yog‘ini yeb, boshimga ish tushganda qochdingiz. (*S. Ahmad*)

Uyga „Mening hayotdagi maqsadim“ mavzusida matn yaratish topshiriladi va dars yakunlanadi.

TALAFFUZ VA IMLO

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning quyi sinflarda talaffuz va imlo yuzasidan olgan bilimlarini yanada boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar ongi va qalbiga ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy meros bilan faxrlanish tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matnlar tahlili asosida to‘g‘ri talaffuz va savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish.

1.1-mashqda berilgan „Fasohat gulshani“ matni Minhojiddin Mirzo qalamiga mansub.

Yechim: MTRK filmotekasidan „Adiblar xiyoboni“ videoroligini namoyish qilish barobarida „Fasohat gulshani“ matnining audio shakli tinglanadi. Mashqni bajarishda „Qayta hikoya“ metodini qo‘llash tavsiya qilinadi. Matnning lisoniy tahlilini amalga oshirish davomida o‘quvchilarda *tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish* kompetensiyalari shakllantiriladi.

Fasohat – *arab*. gapga chechanlik, notiqlik; nutqning to‘g‘riligi:

1) chiroyli va yoqimli so‘zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi;

2) lisoniy xususiyat, nozik qirralar.

So‘zlar	Ma’nosi
„Unsiya“	*arab*. „Do‘stlik uyi“
istiqomat	*arab*. turg‘unlik, barqarorlik; hayot kechirmoq
oshyon	*f-t.* in, uya; uy qabati
botin	*arab*. ichki tomon, ich; ko‘ngil
ash’or	*arab*. she’rlar
xayrxoh	*ar+f*. (xayrixoh) ezgulik, yaxshilik istovchi
„Bog‘i Eram“	jannat bog‘i; *ko‘chma*: gullab-yashnagan obod joy; gulshan
muanbar	*arab*. anbar surtilgan, xushbo‘y
saodatgoh	*arab*. baxtga to‘la oshyon
„Musallo“	*arab.* joynamoz; katta masjid, namozgoh
shukronalik	*arab+f*. shukur qilish, qanoatli va mamnun holat
qo‘llagay	yoqlamoq, quvvatlamoq, yordam, ko‘mak, madad bermoq; tatbiq etmoq, ishlatmoq

1.2-mashqni bajarish uchun o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, 1.1-mashqda berilgan matndan talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imlo-da aks etmaydigan so‘zlar va yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlarni aniqlab yozadilar.

Talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan so‘zlar	Yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlar
qayd, do‘stlar, ijod, shogird, kamolot, bunyod etgan, muanbar, saodatgoh, bahor, saylgoh, orzumand	deb, atalib, etgan, topgan, taratib, boqib, aytgan, sochguvchi,o‘tdi, yoqib, oqib

1.3-mashq. Testlarning javobi.

1. **D.** Muanbar, kamoloti, shukronalik, Ixlosiya, saylgoh.

2. **C.** „Ul zot Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi“. (Hasan xoja Nisoriy) (*Bobur haqida aytilgan fikr*)

1.4-mashqda berilgan so‘zlardan talaffuzi va imlosi moslarini aniqlab yozish topshirig‘i berilgan.

Yechim: admiral, parta, divan, biyobon, xushxabar, ayrim, yig‘loqi, memuar, idrok, snayper, soddadil.

1.5-mashq asosida „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi tashkil qilinadi.

Yechim:

Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Xitoycha so‘zlar	Rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar
Kitob, maktab, mutolaa, san’at, abadiy, qal’a, taraqqiyot, tamaddun, mahalla	anor, nodon, darvoza, dasturxon, siyoh, barg, oftob, tuxum, mo‘ysafid	lag‘mon, choy, shiypon, manti	1) samolyot, paroxod, stol; 2) palto, tonna – fransuzcha; tank, futbol, smartfon (smart+phone aqlli telefon), logistika – inglizcha; shtab, soldat – nemischa; megapolis – yunoncha

1.6-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi (*o‘qish*).

2. „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi tashkil qilinadi – o‘quvchilar talaffuzi va imlosi mos birliklarni saylab, yozib boradilar (*yozish*).

3. Ustoz shoirning xijolatli ahvolga tushgani sababi izohlanadi (*gapirish*).

Yechim: bir kuni, Mirtemir, uyiga bordim, domla, adabiyot, juda yaxshi, zukko odam, suhbat asnosida, ko‘zga yaqin, …

Izoh: Navoiy ijodi go‘yo ummonga o‘xshaydi: uning tubiga hech kim yetib bora olmagan. Bir baytini o‘qib, mag‘zini chaqqandek bo‘lasiz. Biroz vaqt o‘tib shu baytni takror o‘qisangiz, endi butunlay boshqacha ma’no topasiz. Mirtemir domla buyuk shoir dahosi oldida xijolat bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. O‘zlashma so‘zlar talaffuzi qanday xususiyatlarga ega?

O‘zlashma so‘zlar asos holatida talaffuzi va imlosi jihatidan farq qiladi.

2. O‘zlashma so‘zlar talaffuzining imlosidan farqlanishi qanday tarixiy asoslarga ega?

Bunda xalqning o‘sha chet tilini bilmasligi, ayniqsa, so‘zni o‘z talaffuziga moslab aytishi sababli o‘zlashma so‘zlarning imlosi va aytilishida farq yuzaga kelgan. Masalan: ***shkaf-ishkop, jemfer-jimpir, stakan-istakon*** *kabi.*

3. Talaffuz va imlo munosabati turli nutq uslublarida qanday aks etadi?

Nutq uslublarida so‘zni aslidagidek qo‘llash lozim. Hatto og‘zaki muloqot, so‘zlashuv jarayonida ham to‘g‘ri talaffuzga rioya qilish zarur. So‘zning to‘g‘ri talaffuz qilinishi „O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati“da to‘liq aks etgan.

4. Quyidagi matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning talaffuzi va imlosini izohlang. Sabablarini tushuntiring.

Yechim: muallif personaj xarakterini ochib berish uchun oddiy xalq tilida o‘zlashma so‘zlarning buzib talaffuz qilinishi holatidan mohirlik bilan foydalangan: *Girmon – Germaniya, Maskov – Moskva, Istalin – Stalin, po‘shta – pochta, kamandir – komandir, medol – medal.*

1.1- va 1.2-topshiriqlar uyga vazifa sifatida beriladi va dars yakunlanadi.

NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNLILAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqimizdagi o‘zgaruvchan unlilar haqidagi bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, yomonlik qilmaslik kerakligini matn tahlili orqali singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish* kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

2.1-mashq o‘quvchilarda *o‘qish va tinglab tushunish* kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. „Xotira mashqi“ usulidan foydalanib, matndagi ajratilgan so‘zlarning imlosi va talaffuziga diqqat

qilinadi. O‘quvchilarning mashq shartida berilgan savollarga javoblari umumlashtirilib, matnning tarbiyaviy jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Ba’zi, taom, fuqaro, ma’lum, yasovul, yeydigan, qog‘oz, anvoyi, azbaroyi, orqa, javob, qilmish, ko‘rnamak, jazolayman.

2.2-mashqni „Talaffuz mashqi“ usuli orqali bajarish tavsiya etiladi.

Yechim:

Aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlari mavjud so‘zlar	**Aytilganidek yoziladigan unli harflari mavjud so‘zlar**
„Sh**a**shmaqom“, kulg**i,** and**a**za, tr**o**tuar, bah**a**vo, k**a**vush, to‘p**o**lon, m**u**miyo, televideniy**e,** sup**u**rgi, **o**rbita, hur**i**liqo, f**a**oliyat, naq**a**r**o**t, mug‘**a**mbir, k**o**vatok, avt**o**m**o**bil, b**a**hodir, eskalat**o**r, f**o**t**o**grafiya, mumk**i**n, pantomim**e,** t**a**voze, m**u**-olaja, yug**u**rmoq	chavandoz, xattot, otameros, ajab-tovur, o‘g‘rilamoq, sedana, toyg‘anmoq, ibtido, ho‘plam, gi-na-kudurat, kibernetika, aftodahol, dafina, kukkulamoq, qiyqirmoq

2.3-mashq. Testlarning yechimi:

1. B. Muomala.
2. D. Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurma.

2.4-mashq. Boshqotirmada gap qaysi o‘yin turi haqida ketayotganini matndagi ajratilgan birikma (*ikki tirsak orasidagi masofa*)ga tayanib rasmlar orasidan toping va shu so‘zdagi unli tovushlar talaffuziga diqqat qiling.

Yechim: 1. Domino 2. **Shaxmat** 3. Poker (karta) 4. Shashka.

Shaxmat – shohmot.

2.4-mashqda o‘quvchilar talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzib, daftarga yozadilar.

Yechim: o‘tov, alanga, tomosha, prujina, qulduramoq, tutun, mevafurush, **uzangi,** uchqun, munchoq, **parashut**, mineral, oyoq-yalang, ovunmoq, turtinmoq, **jo‘shqin**, kometa, kuldirgich, **mash-g‘ulot, palata**, suyulmoq.

Atrofdagi ko‘m-ko‘k adirlar – **o‘tov**larda botirlar yotar. (*Sh. Rahmon*)

Qo‘ziboy **uzangi**ga oyog‘ini tirab qaddini rostladi-da, qamchi dastasi bilan yo‘lning chap tomonini ko‘rsatdi. (*S. Ahmad*) Ey ulug‘ daryoning bolakaylari, daryodek jo‘shqindir g‘ayratlaringiz. (*Sh. Rahmon*) O‘g‘li yo‘qolgan kuni ertalab musiqa muallimi kelgan, **mashg‘ulot** o‘tkazgan edi. (*S. Zunnunova*) Kasalxona uning yotib yurgan sharoitidan yuz chandon a’lo edi, to‘shaklari ham yangi, oppoq, **palata** issiq, ovqat

vaqtida tayyor... (*Sh. Xolmirzayev*) Havo desanti uchun yetarli miqdorda **parashut** keltirildi.

2.6-mashq. Matnni o‘qing. Undagi talaffuzi va imlosi nomuvofiq so‘zlarni aniqlang. O‘z xulosangizni bir jumlada ifoda qiling.

Yechim: O‘rmon mudhish tezlikda yonardi. Kichkinagina **chumchuq** yo‘lidagi daryodan panjalari bilan suv **olib**, o‘rmon ustiga **uchdi** va tag‘in daryoga **shoshdi**.

O‘rmonning yonishini **ilojsiz kuzatib** turgan hayvonlardan biri baqirdi:

– Hoy, o‘rmonni bir tomchi suv bilan **qutqarasanmi**?

Chumchuq **javob** berdi:

– Mening qo‘limdan keladigani shu… (*R. N. Guntekin)*

Xulosa: dod-faryod ko‘targandan ko‘ra qurbing yetganicha mushkul vaziyatdan chiqishga harakat qil. „Ha“ degan tuyaga madad bo‘libdi, deydilar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Nima uchun aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlar va yozilganidek aytilmaydigan unli harflar „aldoqchi tovushlar“ deb yuritiladi?

Unli tovushlar talaffuzi bilan unli harflar ko‘p hollarda farqlanadi, shuning uchun ular „aldoqchi tovushlar“ deb yuritiladi.

Mumkin, muhim, tuyilmoq kabi so‘zlarda ikkinchi bo‘g‘indagi „i“ unlisining „u“ ga moyil aytilishini izohlang.

Birinchi bo‘g‘indagi unli ta’sirida *mumkun, muhum, tuyulmoq* tarzida talaffuz qilinadi.

3. Berilgan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Matndan imlosi va talaffuzi nomuvofiq so‘zlarni aniqlab yozing.

Yechim: Agar baxt-**saodat** istasang, g‘urur, **manmanlikdan yiroq** bo‘l, hikmatli so‘zlarni sokinlik va itoat **bilan** tingla, takabburlik, adovat va **qanoat**sizlikdan hazar qil. Qayg‘u-alamlar ustingga **hujum** qilsalar, bu hujumlarga o‘z **odob**sizliging **sababchidir**. (*J. Rumiy*)

Boshingga tushadigan ko‘rgiliklarga o‘z fe’ling sababchi bo‘ladi.

2.1- va 2.2-topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi.

NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNDOSHLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning nutqdagi undoshlarning talaffuz va imlosi haqida bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga qanoat va shukur qilish xayrli ne’mat ekanligini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.

3.1-mashq. *O‘qib (tinglab) tushunish va gapirish* kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tavsiya qilingan. Matn ajratilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qilib o‘qiladi. Izohlashda „Fonetik tahlil“ usulidan foydalansa ham bo‘ladi.

Namuna: odob – odop (jarangli tovush jarangsiz tovushga aylangan) Odob (*odop*), vaqt (*vaxit*), qiyinchilik (*qiyinchilig*), qanchalik (*qanchalig*), foyda (*poyda*), momiq (*momig‘*), tovuq (*tovig‘*), payt (*payit*), ko‘ngli (*ko‘yni*), qalb (*qalip*), shafqat (*shapqat*), sabr (*sabir*), tirikchilik (*tirigchilig*), keyin (*kegin*), farzand (*parzan*), javob (*jovop*), taqdirladi (*taxtirladi*).

3.2-mashqda matn yuzasidan topshiriqlarni **„**Intervyu“ metodini qo‘llagan holda bajarish tavsiya qilinadi (*gapirish*).

3.3-mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar yozilganidek aytilmaydigan undosh harflari mavjud so‘zlarni aniqlab daftarga yozadilar.

Yechim: ertala**b**, muzlat**k**ich, a**f**v, a**f**g‘on, sha**f**qat, xushnu**d**, ma**z**a, bunyo**d**, a**v**tobus, i**j**timoiy, i**z**quvar, loyi**q**, jo**n**bozlik, meta**ll**, beshi**k**, picho**q**, **f**ursat, marvari**d**, zavo**d**, i**z**tiro**b**, kongre**ss**, ko‘ri**n**moq, kilovat**t**, daroma**d**, poyez**d**, qo‘ng‘iro**q**, suvo**q**, e’tiqo**d**, **s**ochmoq, belbo**g**‘.

3.4-mashq. O‘quvchilar „Sabrliga tole yor“ matni asosida berilgan testni yechadilar.

To‘g‘ri javoblar:

D. Sovun kirni ochar, Sabrsiz – sirni.

C. Yuragiga, shunday, ko‘ngli, borligi, go‘zalligini.

3.5-mashqni bajarish uchun sinf uch guruhga bo‘linib, jadvalni tez va to‘g‘ri to‘ldirish bo‘yicha musobaqalashadilar.

Yechim:

Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlar	**Talaffuzi va imlosi farqli so‘zlar**	**Qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlar**

tuz, qush, matonat, yordamlash, quvvat, baralla, metr, tortin, kamxarj, taqiqla, sukunat, zulm	to‘g‘ra, aylana, darz, javon, kofe, buromad, qasd qil, qayd et	yorug‘lik, yurak, o‘rin, ko‘ngil, o‘sha, ushoq, mavqe, sen, o‘g‘il, bag‘ir, so‘roq, tepalik, olti, shaharsozlik

3.6-mashqda matnni o‘qish va unga berilgan sarlavhalardan mosini tanlash vazifasi berilgan. O‘quvchilar o‘zlari tanlagan sarlavhani izohlaydilar (*yozish va gapirish*).

Yechim: Matosi – go‘zal xulq, ipi – murosa.

Qator kelgan undosh harflar ishtirok etgan so‘zlar: *zabardast, donishmand, xulq, sabrdan.*

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

Quyidagi hikoyat yuzasidan o‘z xulosangizni ikki jumlada bildiring. Matndan imlosi talaffuziga mos kelmagan so‘zlarni ko‘chiring.

Yechim: so‘zlarni aniqlashda mavzudan kelib chiqib, undoshlarga diqqat qilish maqsadga muvofiq.

– Basralik bir **arab**ning javohirchilarga shunday hikoya **aytib** berganini **eshitgandim**: „Bir paytlar sahroda yo‘limni **yo‘qotdim**. Yonimda na yeydigan taom, na ichadigan bir qultum suv bor edi. O‘lishimga ishongan onimda uzoqda bir to‘rvani **ko‘rib** qoldim. Shunday yugurdimki, o‘sha **paytdagi** hayajonimni hech qachon unutolmayman. To‘rvani **ochdim**. Qarasam, uning ichi to‘la oltin ekan! To‘rvada non va suvning yo‘qligidan shunchalik **xafa** bo‘ldimki, bu achchiq **iztirobni** hech qachon unutolmayman“. Hikoyani **eshitib**, boriga shukur qilish ham ne’mat-dir, degan xulosaga keldim. (*Shayx Sa’diy Sheroziy)*

Xulosa. Ochlik va yashash uchun kurashda oltinning hech qimmati yo‘qligi, har bir narsa o‘z o‘rnida qadrli ekanligi aytilmoqda.

3.1- va 3.2-topshiriqlar uyga berilib, dars yakunlanadi**.**

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: nutqimizdagi o‘zgaruvchan unlilar va undoshlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: muammoli vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslik va tadbir topish xislatlarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn va lug‘at ustida ishlash orqali imo-ishoralar, raqamlar, belgi-simvollarni ham o‘qishni o‘rganish.

4.1-mashqda berilgan „Ramzlar tili“ matni bilan tanishiladi (*o‘qish va gapirish*).

4.2-mashqni „Tushunchalar tahlili“ usuli yordamida bajarish tavsiya qilinadi (*gapirish*).

Yechim:

Tushuncha (ramz)	Izohi
savdogar	taqdir; vosita
qafas	nafs
to‘tiqush va to‘tilar to‘dasi	inson ruhi va yo‘l ko‘rsatuvchilar (tasavvuf ahli)
qafasdagi qushning harakati	haqqa yetish uchun nafsni o‘ldirish
„o‘lim“dan so‘ng tirilishning xulosasi	komillik
Hindiston to‘tilarining holati	nafsdan ustun komillarning baxtiyorligi; shavq

4.3-mashq. Matn xulosasi: 1. Donoga ishora, nodonga kaltak.

4.4-mashq. Matndagi ajratilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib, jadvalga joylashtirishda „Audiodiktant“ usulidan foydalanish mumkin (*yozish*).

Yechim:

Talaffuzi va imlosi mos so‘zlar	Talaffuzi va imlosi mos bo‘lmagan so‘zlar
savdogar, tadorik, keltir, mening, hasrat, qoyalik, tijorat, bunday, yetkazdi, savdo-sotiq, xatoyim, chiday olmadi, bog‘dagi, meni, hiyla, asirlik	sa**f**ar, azo**b**, darax**t**zor, to**g**‘, g‘a-ri**b**, to‘xati**b**, **f**alon, na**f**as, do‘s**t**, va**q**t, tashri**f** buyurgan, ta**a**ssurot, xursan**d**, saba**b**, g‘ish**t**, yiqili**b**, yig‘la**b**, o‘li**k**, qut**u**ldim

4.5-mashq. Qavs ichidagi qaysi qo‘shimcha qo‘shilganda so‘zda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lishi izohlanadi (*yozish va gapirish*).

Yechim: savdo-sotiqqa; o‘likka; tadorigi, tadorikka; xatoyim, xatosi; yig‘la, yig‘lar; meni, mening; shunda, shunday; sayroqi, sayrovchi; boqqa (yozuvda "bog'ga" tarzida yoziladi).

4.6-mashq „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“dan foydalanib bajariladi. Bunda „+ texnologiyasi“ni qo‘llash tavsiya qilinadi.

So‘zlar	O‘zlashma/o‘zlashma emasligi				So‘z turkumi			
	o‘z qatlam	rus-cha	tojik-cha	arab-cha	ot	fe’l	son	sifat
savdogar			+		+			
bir	+						+	
tashrif				+	+			
mehmon			+		+			
uy	+				+			
taassurot				+				
hamjins			+					+
xursand			+					+
ko‘rmoq	+					+		
deraza	+				+			
daraxt			+		+			
hiyla				+	+			
aldamoq	+					+		
qutulmoq	+					+		
rioya				+	+			

4.1- va 4.2-topshiriq uyga vazifa qilib berilib, dars yakunlanadi.

URG‘U TALAFFUZI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga urg‘u talaffuzi, urg‘u ta’sirida sodir bo‘ladigan ma’noviy o‘zgarishlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘zni to‘g‘ri tanlab, chiroyli gapirish madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘z va o‘zlashma so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘u ta’sirida ma’nosini farqlay olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Darslikdagi **5.1-mashq**ni bajarish asosida o‘quvchilarning *o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. *O‘qish* (yoki *tinglash*) orqali „Kitob Xalqaro Kenglik Stansiyasi“ matni bilan tanishiladi. Matn ostida berilgan savollarga javob topib, kichik suhbat tashkil qilinadi:

Sinf to‘rt guruhga ajratiladi va mashq sharti bajariladi:

urg‘u 1-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *gradus, Bamberg, ikkinchi*;

urg‘u 2-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *noyabr, Hafizov, Sergeyev, Yaponiya;*

urg‘u 3-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *asteroidlar, ekologiya*;

urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushgan so‘zlar: *yangi, xalqaro, geografik, parallelda, sentabrida, zenit-teleskop, rasadxonada, sayyora, Aleksey, Kenglik stansiyasi, Italiyada, obyekt, kosmik, mahalliy, astronomik, pavilyon.*

Xulosa: o‘zlashma so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilsa, urg‘u oxirgi bo‘g‘inga ko‘chadi.

Ilmiy manbalarda o‘zbek adabiy tili me’yorlari tasnifida urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash, ya’ni aksentologik me’yor alohida ta’kidlanadi. Demak, aksentologik me’yor urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq me’yordir. Urg‘u semantik (ma’no farqlovchi), morfologik (grammatik ma’no ifodalovchi), uslubiy vazifa bajaruvchi fonetik hodisa hisoblanadi. O‘zlashma so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishga intilish natijasida o‘zbek tilining urg‘u tizimida ma’lum o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu hol urg‘uning o‘zlashma so‘zda erkin qo‘llanishida, shuningdek, qisman urg‘u orqali so‘z ma’nosini farqlashda ko‘rinmoqda. Urg‘u yordamida yozuvda farqlanmaydigan so‘zlar o‘zaro farqlanadi. Buni quyidagi so‘zlar misolida ham kuzatish mumkin: *atlas – atlas, fizik – fizik, bosma – bosma, hozir – hozir.* Anglashiladiki, urg‘uning o‘zgarishi so‘z ma’nosining o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli har bir so‘zdagi urg‘uni o‘z o‘rnida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Til sohibida o‘z qatlam so‘zlarining talaffuzi muammo tug‘dirmaydi. O‘zlashma so‘zlarning talaffuzini esa so‘zni tinglash, lug‘at asosida mashq qilish bilan o‘zlashtirish mumkin. So‘zlarni urg‘usiga rioya qilib talaffuz qilish madaniy nutq belgisi sanaladi.

5.2-mashq. Berilgan o‘zlashma so‘zlarning urg‘usini to‘g‘ri qo‘yib o‘qiladi va ular ishtirokida gaplar tuziladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Advokatúra, notariál, adresát, lokál, valúta, bróker, ménejer, kardiográmma, logístika, parláment, audít, gipermárket, ekólog, kokós, motoróller, avtotránsport, fléshka, vebinár, platfórma.

Internet tarmoqlarida ***advokatura*** *sohasiga oid yangiliklarni ko‘plab topish mumkin. Ishonchnoma* ***notarial*** *tasdiqlanmasa, vakolatga ega bo‘lmaydi. Korxonada* ***audit*** *tekshiruvini o‘tkazish rejalashtirilgan. Yosh darsturchilar tomonidan masofaviy ta’lim* ***platforma****si yaratildi.*

5.3-mashq. Qaysi so‘zlarda urg‘u belgisi noto‘g‘ri qo‘yilganligi aniqlanadi va to‘g‘rilab yoziladi (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Mexaník (kuch), (mevazor) **bog‘lár**, **geologík** (qidiruv), (faxriy) akadémik, **etník** (qatlam), kollókvium (ma’ruzasi), infeksión (o‘choq), megapólis (hudud), **memoriál** (obida), qándaydir (kishi), **ko‘ylakbóp** (mato).

5.4-mashq. Test yechimi:

1. O‘zbek tilidagi urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydigan so‘zlar qaysi qatorda berilgan:

A. Hamisha, albatta, afsuski, hatto, kimdir.

2. So‘z urg‘usi bilan bog‘liq to‘g‘ri fikrni toping:

A. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi -chi, -mi, -ku, -dir, -gina, -da, -oq (-yoq) yuklamalari urg‘u olmaydi.

5.5-mashq. Juftliklardagi urg‘u ta’sirida sodir bo‘ladigan ma’no o‘zgarishini aniqlang.

Yechim: sinf ikki guruhga bo‘linadi. 1-guruh ma’nosi o‘zgarmagan, 2-guruh ma’nosi urg‘u ta’sirida o‘zgargan so‘zlarni yozadi. Gap juftliklari izohlanadi (*o‘qish, yozish, gapirish*).

1. **O‘**zlarimi (*kesatish ma’nosi olmoshga yuklangan*)? Qaysi shamol uchirdi? – Bugungi ishni qizlar o‘zlar**i** (*olmosh, III shaxs ko‘plik shakli*) bitirib qo‘yishar ekan.

2. Uzoqdagi nishonni k**o‘**zlar (*fe’l*) ekanman, o‘qim bexato ketsa, snayper safdoshlarimni yer tishlatishini yaxshi bilar edim. – Jimgina boqib turgan bu ko‘zl**a**r (*ot, ko‘plik shakli*) juda tanish, qiziq, qayerda ko‘rganman?

3. Ma, yuvib ye, y**a**ngi (*ravish*) uzilgan. O‘zimizning tomorqadan! – Kasallikka qarshi yang**i** (*sifat*) usulni qo‘llash, yangi preparatlarni sinovdan o‘tkazish talab etilmoqda.

4. Heech shu shah**a**rcha (ravish) odatlaring qolmadi-qolmadi-da, Orziqulov. – Qurilajak bu shaharch**a** (*ot, kichraytirish shakli*) harbiylarning oilalariga munosib sovg‘a bo‘ladi.

5. Osm**a** (*sifat*) ko‘prikdan o‘tib, buloq bo‘yiga tushib bordim. – Behuda bilan yelkangga gunoh xaltasini **o**sma (*fe’l*), savobingni ko‘paytir.

5.6-mashqdagi gaplar o‘qiladi. Urg‘u ta’sirida talaffuzda sodir bo‘layotgan tovush o‘zgarishlari izohlanadi (*o‘qish, gapirish*).

Izoh: ba’zan bir tovush talaffuzda ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko‘rsatiladi. Berilgan mashqda ***xo‘o‘p, aancha, uzoooq, o‘o‘o‘tiribman, uchchiga, jaa, yashshamagur, qo‘ydiiing, yumm-yumm, xo‘o‘sh*** so‘zlariga uslubiy vazifa yuklatilgan.

5.1- va 5.2-topshiriqlar uyga beriladi. Bu topshiriqlarni bajarishga o‘quvchilardan ijodkorlik bilan yondashish talab qilinadi.

QO‘SHIB YOZILADIMI, AJRATIB?

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga so‘zlarni qo‘shib yoki ajratib yozishga doir imloviy savodxonlik bilimini berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga mumtoz musiqani qadrlash, kuyni tinglab his qilish tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: qo‘shma va juft so‘zlar, murakkab tarkibli birikmalarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur mavzuni o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida“gi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“dan foydalanish tavsiya qilinadi.

6.1-mashqni bajarish tartibi:

1) matnni „Cho‘li Iroq“ kuyi hamrohligida eshittirish maqsadga muvofiq bo‘ladi (*tinglab tushunish*);

2) „Menga so‘z bering“ usulida har bir o‘quvchi matndan va kuydan ta’sirlangan holatini bir jumla bilan bildiradilar (*gapirish*);

3) matn ostida berilgan savollarga javob berish asnosida musiqa fani bilan integratsiya yuzaga keltiriladi (*o‘qish va gapirish*);

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan „Navo“ kuyi bilan bog‘liq parcha yodga olinadi va ikkala matn misolida kuyning inson ruhiyatiga ta’siri haqida mulohaza yuritiladi (*tinglab tushunish va gapirish*);

4) matn uchun mos sarlavha topib yoziladi (*yozish*).

Namunalar:

Kuy og‘ushida

Sehrli kuy

„Cho‘li Iroq“ nolasi

6.2-mashq yuqoridagi matn asosida bajariladi.

Yechim: sinf uch guruhga bo‘linadi va 1-guruh qo‘shma so‘zlarni, 2-guruh juft so‘zlarni, 3-guruh takroriy (*bu kabi so‘zlar matnda ancha*) so‘zlarni terib yozadi.

Qo‘shma so‘zlar: *namozshom, qo‘shtabaqa, poyabzal, toshbag‘ir, oqko‘ngil, bag‘rikeng, g‘arq bo‘ldi, kinofilm, hikoya qilardi, ishora qildi;*

juft so‘zlar: *sirli-sehrli, muloyim-u oqko‘ngil, tubsiz-nihoyasiz, g‘amli-alamli;*

takroriy so‘zlar: *ich-ichiga, qancha-qancha, ne-ne, ming-ming, uzoq-uzoq, yurak-yuraklarini, yig‘lab-yig‘lab, faryod solib-faryod solib, olis-olislardan.*

6.3-mashq asosida „Bu so‘z bizniki“ bellashuvi o‘tkaziladi.

Yechim:

1) to‘g‘ri yozilgan so‘zlar: *sarf qil, sotib ol, bodomqovoq, devqomat, sheryurak, Urto‘qmoq, O‘rta Osiyo, Oqtepa, erktalab, bilar ekan, xushfe’l, pirpirak, birpas, O‘zMU, hayhaylamoq, AQSH, qo‘ziqorin, Qo‘rg‘ontepa, Yangiturmush, tomorqa, Bo‘zsuv, yozaveramiz, jiqqamusht, birato‘la, lang ochiq, o‘rinbosar, ishyoqmas, beshotar, och sariq, ertapishar, Ekobozor, qushqo‘nmas, jigarrang, Shirmonbuloq, suvosti.*

2) ikki guruh jadvalni to‘ldiradi, bunda so‘zlarni to‘g‘rilab yozish talab qilinadi.

1-guruh: hamma vaqt, to‘q qizil, keta ber, sakkiz yuz, har xil, Yuqori Chirchiq, liq to‘la, Uzoq Sharq, o‘n bir.

2-guruh: Kavkazoldi, Mirzacho‘l, Boltiqbo‘yi, Ochildasturxon, yarimtayyor, Jiydakapa.

6.4-mashqni kichik guruhlarda bajarish ham ijodiy raqobatni yuzaga keltiradi, ham vaqtdan unumli foydalaniladi. Rasmlar to‘rtta guruhga bo‘lib beriladi (*yozish, o‘qish*). Qo‘shma so‘zlar hosil qilib, gaplar tuziladi. *Namuna:*

bolari, asalari. *Olcha guli tegrasida bolarilar g‘ujg‘on o‘ynaydi*;

qo‘ziqorin. *Bolalar momaqaldiroqdan so‘ng bodrab chiqqan qo‘ziqorinlarni terish uchun o‘rmonga yugurishdi;*

moychechak. *Tomoq og‘riganda moychechak damlamasi bilan g‘arg‘ara qilish tavsiya etiladi;*

atirgul. *Atirgullar orasiga ekilgan rayhon shabadada yengil silkinadi.*

6.5-mashq „Kim chaqqon?“ musobaqasi bilan bajariladi.

Hosil qilingan qo‘shma so‘zlar: *fotokamera, televizion ko‘rsatuv – teleko‘rsatuv, diskyuritkich, vebsahifa, kinoteatr, elektrchoynak, radiostansiya.*

6.6-mashqda rus tilidan aynan olingan (*unter-ofitser, metrsekund, shtab-kvartira, fors-major*) yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan o‘zlashgan (*kilovatt-soat*) so‘zlar chiziqcha bilan yozilishi tushuntiriladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar hamkorlikda bajariladi.

Qo‘shma va juft so‘z qismlarining ma’nosi alohida-alohida aniqlanishi mumkinmi? Ularning bir tarkibli so‘zga o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

Ikki mustaqil so‘zning birikib yasalishidan qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar hosil bo‘ladi. Bir tarkibli so‘zlar esa sodda so‘z sanaladi. Qo‘shma so‘z qismlari o‘z ma’nosini yo‘qotadi va yangi tushuncha hosil bo‘ladi: *kirsovun* (yuvish vositasi), *dalachoy* (o‘simlik nomi), *olovqalb* (xususiyat belgisi). Juft so‘z yangi lug‘aviy ma’no anglatsa, yasama so‘z hisoblanadi: *bordi-keldi (aloqa), issiq-sovuq (ahvol), quyuq-suyuq (ovqat).* Masalan, ***chol-kampir*** so‘zining ma’nosi *chol va kampir*, ***aka-uka*** so‘zining ma’nosi *aka va uka*, ***asta-sekin*** so‘zining ma’nosi *asta va sekin* so‘zining alohida-alohida atash ma’nosidan farqlanmaydi. Demak, bular yasama so‘z emas.

O‘zbek tilida *multi, nano, mikro, bio, avto, mini, eko, anti* kabi vositalar yordamida hosil qilingan birliklarni qo‘shma so‘z deb olsa bo‘ladimi? Bu so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlarga qo‘shilib, qo‘shma so‘z hosil qilgan holatlariga misol keltiring. Masalan: *avtoulov, multiilova.*

Quyidagi so‘zlar o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi sanaladi:

*- **multi** (lot. multum – ancha, ko‘p): multiilova, multimillioner, multitasvir;*

*- **mikro** (yunon. mikros – kichik, juda mayda): mikroto‘lqin, mikroqarz, mikroiqtisodiyot, mikroavtobus;*

*- **mini** (lot. minimus – eng kichik) **minimal** so‘zining qisqa shakli: minitest, minimarket, miniloyiha, minidastur;*

*- **nano** (lot. milliardning bir qismi): nanotuzilma, nanoo‘lchov, nanouzatma, nanotexnologiya;*

*- **avto** (yunon. autos – o‘zi, o‘zim): avtoolam, avtoturargoh, avtobo‘yoq;*

*- **bio** (yunon. bios – hayot): bioiqlim, bioqurilma, biomaydon, bioeritma;*

*- **eko** (yunon. oikos – vatan, uy) **ekologiya** so‘zining qisqa shakli: ekotizim, ekosanoat, ekobozor, ekoxonadon, ekoturizm.*

Mazkur qisqartmalar orasidagi ***anti*** *(yunon. anti – qarshi, zid)* grammatik vositasi old qo‘shimcha (prefiks) sifatida qo‘shma so‘z yasamaydi: *antitanachalar, antiquvvat, antihujum, antitezkorlik*.

Matndagi qo‘shib va ajratib yozilgan so‘zlar imlosi izohlanadi.

Yechim: *AQSH* – tarkibli nom (*Amerika Qo‘shma Shtatlari*)ning bosh harflaridan iborat qisqartma qo‘shib yoziladi.

DIQQAT QILING!

Ba’zan qisqartma so‘zlar orasiga nuqta qo‘yib yozish holatlari ham uchrab qoladi, bu imlo qoidalariga mutlaqo ziddir. Shuni yodda saqlash lozimki, qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: SamDU, TDPU. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma esa ajratib yoziladi: O‘zXDP MK (*O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashi)*, O‘zR VM (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamas*i).

AQSH Kongressi kutubxonasi – davlatning muhim madaniy tashkiloti nomini anglatgan tarkibli nom qismlari ajratib yoziladi;

150 (bir yuz ellik) million, 1800 (bir ming sakkiz yuz), 1 million 700 ming (bir million yetti yuz ming) – murakkab son qismlari ajratib yoziladi;

AQSH Prezidenti – tarkibli oliy lavozim nomi qismlari ajratib yoziladi;

kitobsevarlar (ot+fe’l) – qo‘shma so‘z *-ar* qo‘shimchasi bilan tugagani sababli uning qismlari qo‘shib yoziladi;

tashkil etilgan, tashrif buyuradi – qo‘shma fe’l qismlari ajratib yoziladi.

6.1- va 6.2-topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi.

Yechim: Bog‘dagi yumush uchun hamma narsani: tokqaychi, qo‘larra, tesha, belkurak, iskana, zambilgacha taxt qilib qo‘ydim. Ishga kirishishdan oldin biroz atrofni tomosha qildim. **Bo‘tako‘z**, qo‘ng‘iroqgul, **gulsafsarlar** isi atrofni tutgan. Ariq bo‘yidagi **tog‘olcha** va **ko‘ksulton**ga rang kirib qolibdi. Havoda zarg‘aldoq, **havorang**, och sariq, tim qora, hol-hol kapalaklar o‘ynaydi. Oyoq ostidagi maysalar ochko‘zlik bilan quyoshga intiladi. Qayoqdandir qizilishtonning „to‘q-to‘q“ ovozi kela boshladi. **Orombaxsh** havodan chuqur nafas oldim-da, yeng shimarib ishga tushib ketdim.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda matnni lisoniy tahlil qilish va lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga so‘zdan ehtiyotkorona va farosat bilan foydalanish tarbiyasini berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda turli vaziyatlarda mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutq odobining zarur sharti yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeyidan qat’i nazar, suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiy munosabat va hurmat-ehtirom hisoblanadi. Mana shu omillar bo‘lgan joyda so‘zlovchining o‘z shaxsini ustun qo‘yishiga, fikrini ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishiga, suhbatdoshini mensimasligiga o‘rin qolmaydi. Bunday paytlarda, odatda, suhbat ijobiy yakunlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishi: qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha ish qog‘ozlari rasmiy uslubda shakllanadi. Bu uslubning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari, binobarin, ushbu ko‘rinishlarning o‘z me’yorlari mavjud. O‘tilishi lozim bo‘lgan mavzu rasmiy uslubga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

7.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Tabrik mavzusidagi matnlar bilan tanishiladi *(o‘qish, tinglab tushunish*).

2. Faol qo‘llangan til birliklari va ijodkorning badiiy topilmalari aniqlanadi (*gapirish*).

Matnlar	Til birliklari:	Badiiy topilmalar:
1-matn	el-yurt oldidagi buyuk xizmatlari; muborak sakson yoshga qadam qo‘ydi; qalamining o‘tkirligi; sharafli nomga munosib ijodkor; uzoq umr tilaymiz	o‘zbek adabiyotining chinorlaridan, oqsoqollaridan biri; betakror qahramonlar galereyasi
2-matn	uzoq umr tilayman; ellik yoshing qutlug‘ bo‘lsin, oltmishga tomon yo‘ling bexatar bo‘lsin	bitta tokchani to‘ldiradigan kitob; boz ustiga yaxshi chol bo‘ldi; Jambil umridek uzoq umr, Oybekcha donolik, G‘afur G‘ulomga xos quvnoqlik, Qahhorcha zukkolik; o‘zbeklarning qozog‘i, qozoqlarning o‘zbegi.

7.2-mashqni bajarish uchun mavzular o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Tabriknomalar o‘qitiladi va ichidan eng original mazmundagisi aniqlanadi (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Hayot faqat quvonch-shodliklardan iborat emasligi, inson umri davomida ayriliqlarga duch kelishi mumkinligi, eng muhimi, boshiga yaqinlaridan ajralish azobi tushganlarga ta’ziya bildirish, tasalli berish va ko‘nglini ko‘tarish odamgarchilik belgisi ekanligi **7.3-mashq**ni bajarish asosida alohida ta’kidlanadi. Bunday vaziyatlarda kerakli so‘zni topa olish va qo‘llay bilish ham yuksak nutqiy madaniyat sanaladi.

Hamdardlik mavzusidagi matnlarda faol qo‘llanadigan birliklar aniqlanadi (*o‘qish, yozish, gapirish*).

Birinchi matn:	**Ikkinchi matn:**
og‘ir musibat; bevaqt o‘lim; chuqur hamdardlik bildiraman; qalbimni larzaga soldi; yorqin xotira; qalbimizda abadiy yashaydi; sabr-toqat va bardosh tilayman	qayg‘uli kun, olamdan o‘tdilar; katta yo‘qotish; hamdardligimni bildiraman; oxiratlari obod bo‘lsin

Telegram messenjeri xabarlari orasida tilaknomalarning rang-barangligi o‘quvchilarda tilak bildirish, inson kayfiyatini ko‘tarish, ruhiyatiga taskin berish ko‘nikmalarini shakllantirishda salmoqli o‘rin tutayotgani sir emas. Bunday xabarlar o‘quvchilarda axborotlar bilan tanishish, ularni saralash, tanlash va o‘rinli foydalanishni shakllantirishi bilan yana ham ahamiyatli. **7.4-mashq**dagi ijtimoiy tarmoqlardan olingan tilaknomalar eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Bunday xabarlarning yoqimli ta’siri yuzasidan o‘quvchilar fikrlarini bildiradilar (*gapirish*). O‘zlarining ham tajribalaridan namunalar aytib berishlari suhbatni yanada qiziqarli qiladi.

Xalqaro doiradagi xatlar, xabar va yo‘llanmalar rasmiy uslubga xos janrlar hisoblanadi. Diplomatik doira darajasidagi yozishmalarni bitishda so‘z tanlashga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan qaraladi. **7.5-mashq**da favqulodda vaziyat tufayli hamdardlik mavzusidagi yo‘llanma yuzasidan xabar matni berilgan. O‘quvchilar xabar bilan tanishadilar (*o‘qish*), xalqaro munosabatlarni iliqlashtirishda tabrik va hamdardlik mavzusidagi yo‘llanmalarning alohida ahamiyatga ega ekanligiga diqqat qilinadi. O‘quvchilar qanday munosabatlar bilan xabar yo‘llash mumkinligi haqida o‘z bilganlari bilan o‘rtoqlashadilar (*gapirish*).

7.6-mashq o‘quvchilarni kutilmagan murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi. Mashqni bajarish orqali ta’ziya ifodalari tilimiz leksik qatlamida mahkam o‘rnashgani va bu birliklarni farosat bilan o‘rinli qo‘llashning muhimligi ta’kidlanadi.

Ta’ziya ifodalariga misollar:

umumiy ifodalar: sabr bersin; bandasining aytgani emas, Yaratganning buyurgani bo‘larkan; Alloh rahmatiga olsin; Allohning irodasi; oxirati obod bo‘lsin; jannatlarda javlon ursin; savoblari oldilariga dasturxon, boshlariga soyabon bo‘lsin; nomayi a’mollarini o‘ngidan bersin; yotgan joyi nurga to‘lsin...

yoshga nisbatan: umrini farzandlariga qo‘shib bersin; ulug‘ yoshda ketibdilar – to‘ylari ekan; hurlarga qo‘shilib yursin; yerga kerak ekan – olibdi; dunyoning bir qavati shularniki ekan...

jinsga nisbatan: shoyistayi jannat qilsin...

Uyda mustaqil bajarish uchun berilgan **7.1- va 7.2- topshiriqlar** uyda mustaqil bajarish uchun berilgan bo‘lib, ijodkorlik bilan yondashiladi.

NUTQDA O‘RINLI VA NOO‘RIN SO‘ZLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga til birliklarini o‘rinli qo‘llash bilan bog‘liq nutqiy madaniyat haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: tilga e’tiborli bo‘lish, muloqot jarayonida so‘z odobiga rioya qilish qoidalarini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: so‘z ma’nosini anglash va o‘rinli qo‘llash, matnni tahrir qila olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mavzu turli vaziyatlarda so‘z tanlash va so‘zlash odobi bilan bog‘liq. O‘quvchilarga „Aqliy hujum“ uyushtiriladi: „Shirinso‘zlilik deganda nimani tushunasiz? Dilozorlik deganda-chi?“

Xalqimiz orasida „Topib so‘zlagan ishini bitiradi, qopib so‘zlagan eshikdan quviladi“, „So‘zning o‘ttiz ikki xil narxi bor“, – degan naqllar yuradi. O‘rinli so‘zlash uchun, ayniqsa, ma’nodosh so‘zlarning uslubiy bo‘yoqdorligini, paronim so‘zlarning ma’nolarini puxta bilish talab qilinadi. **8.1-mashq**da berilgan matn bilan tanishiladi. Noo‘rin qo‘llangan so‘zlar o‘rniga muqobilini qo‘yib, qayta o‘qiladi (*o‘qib tushunish*).

Yechim:

RUHIY MUAMMOLAR DAVOSI

Kitoblarning ruhiyatni **davolashda** ishlatilishi haqida **eshitganmisiz**? Psixologlar o‘z mijozlariga kitoblar **tavsiya** qilishi, kitob orqali

odam o‘z muammosidan chiqish **yo‘l**ini topa olishi mumkin. Masalan, psixolog sizning muammongiz bilan tanishgach, aynan shu yoki shunga o‘xshash muammoga **duch** kelgan odam haqidagi kitob (biografik yoki avtobiografik bo‘lishi ham mumkin)ni tavsiya qiladi. Kitobni o‘qib, qahramon bilan ma’lum bir yo‘llarni bosib o‘tar ekansiz, sizga insaytlar (avval ma’lum bo‘lmagan yechimni **to‘satdan** anglash) keladi.

Psixolog sizga istalgan janrdagi, **mazmun**dagi kitoblarni tavsiya qilishi mumkin. Detektiv va sarguzasht kitoblar real vaziyatdan chalg‘ishga yordam bersa, ilmiy-fantastik adabiyot esa **faol**lik va tasavvurni **kuchatiradi. Tarixiy** asarlar **hayot**dagi maqsadni aniqlashtirishga yordam beradi. Diniy-axloqiy kitoblar kishida sabr-qanoatni tarbiyalaydi. Yumor va satira janridagi asarlar ijobiy kayfiyat ulashib, psixologik himoyaga o‘rgatadi. Aforizmlar **to‘plami** fikrlarni tartiblaydi va tiniqlashtiradi. San’at haqidagi kitoblar esa **hayrat** hissini uyg‘otadi.

Kitob nafaqat bilim va dunyoqarashni o‘stirishda, balki ruhiyatimizda muvozanat o‘rnatishda ham foydali ekanini anglagandirsiz?

8.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlar tanlab qo‘yiladi va mashq davom ettiriladi. Berilgan gaplarda umumiy mazmun – kitob haqida qiziqarli ma’lumotlar aks etganligiga diqqat qilinadi.

Yechim:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning „Al-jabr va al-muqobala“ kitobi atigi 80 betdan iborat, ammo bu kitobning dovrug‘i **asr**lar osha butun jahonga **yoyilgan**. 2. Londondagi birinchi **xalq** kutubxonasining asoschisi S. Fenkorning talabi bilan kitob varaqlarini buklagan kishilarga nisbatan jazo chorasi qo‘llangan: aybdorlar jazolangan yoki 7 yil qamoqqa **hukm** qilingan. 3. Kitobdan o‘zingizga yoqqan voqea **xayoli** bilan oz muddat bo‘lsa-da, yashab ko‘rganmisiz? (*A. Muxtor*) 4. Bir **marta** o‘qiladigan kitobning hozirgi kuni bor, takror-takror o‘qiladigan asarning **yorug‘** kelajagi bor. *(A. Dyuma)* 5. Abu Rayhon Beruniy yozgan 150 ta kitobning 70 tasi **astronomiya**ga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi ob-havo masalalariga, 3 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi **qadimshunoslik** va etnografiyaga, to‘rttasi falsafaga va 18 tasi adabiyotga **bag‘ishlangan**. (*U. Karimov*) 6. Rimning mashhur shoiri Franchesko Petrarka (1304–1374)ning izzat-ikromini shu darajada joyiga qo‘yishganki, u o‘z sayohati davomida **asl** muxlislaridan biri bo‘lgan zargarning uyida bir kecha **tunagach**, xonadon sohibi shu xonaning devoriga oltin suvini yuritib chiqqan ekan. 7. Kopernikning 40 yil davomida yozgan „Sayyoralarning quyosh

tevaragida aylanishi“ nomli kitobida keltirilgan **dalil**lar bugungi nazariyotchilar uchun haqiqiy maktab bo‘ldi. 8. Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki kutubxona eramizning uchinchi asrida azim Xorazmda **vujudga kelgan**.

NUTQDAGI TAQIQLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga nutqdagi taqiqlar haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda so‘z odobi va muloqotda muloyimlik xislatini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: mantiqiy fikr yuritish va ravon so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Nutqda ayrim tushunchalar odob-axloq, jamiyat madaniyati va etikasi me’yorlariga ko‘ra ochiq aytilmaydi, balki o‘rnida „yumshoq“, „qog‘ozga o‘ralgan“ ifodalar qo‘llanadi. Bunday „taqiq“lar *tabu* deb nomlanadi.

Tabu (tabu, tabo, taboo) so‘zi Polineziyaning tonga tilidan olingan bo‘lib, *man etmoq, taqiqlamoq* tushunchasini anglatadi. Tabuning etnogenezasini, ya’ni qayerda, qachon paydo bo‘lganligi, qaysi urug‘, qabila yoki xalqning udumi ekanligini aytib berish mushkul. Zotan, u ijtimoiy, tarixiy etnografik hodisa bo‘lib, til va tafakkur kabi qadimiydir. Uning ildizlari ibtidoiy ongning, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo‘lishi, borliqning ilohiylashtirilishi (fetishizm), ruh tushunchasining paydo bo‘lishi (animizm), ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya – tanosux), hayvonlarga sig‘inish (animalizm) yoki, umuman, totemik, mifologik tasavvurlarga borib taqaladi.

9.1-mashq. Matn bilan tanishiladi. Ajratib ko‘rsatilgan ifodalar izohlanib, ular o‘rniga hozirgi kunda so‘zlashuvda qaysi so‘zlar ishlatilishi yuzasidan fikr-mulohaza yuritiladi (*o‘qish va gapirish*).

Yechim:

...Qutidor yana tushunolmay taajjub bilan mehmonlarga qarab oldi.

– Tushunolmadim..

– Ya’ni Otabek bu kungacha salomat, – dedi Ziyo aka yana. – Ammo mundan keyingi **sog‘lig‘i sizning qo‘lingizda... (ixtiyoringizda)**

– Menim qo‘limda?

– Sizning ixtiyoringizda (Otabekning sog‘lig‘i qizingiz Kumush bilan bog‘liq).

– Otabek kabi bir yigitning sog‘lig‘i har bir aqlli kishi uchun maqsad bo‘lsa ham, – dedi taajjub bilan Qutidor, – lekin so‘zingizning shu-

nisi qiziqdirkim, **bir yigitning sog‘lig‘i ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo‘lsin** **(Otabekning taqdiri nega menga bog‘liq).**

Ziyo aka boyag‘i vaziyatini buzmadi:

–Ajablanmangiz **(hayron bo‘lmang)**, o‘rtoq, – dedi, – bekning mundan keyingi sog‘lig‘i sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas – to‘g‘ri gap. Qutidor to‘sindan muddaoning kim va nima to‘g‘risida bo‘lg‘anlig‘ini payqab qoldi va o‘zida bir turlik **o‘ng‘aysizlik sezdi…** **(noqulaylikni his etdi)** Ziyo shohichi o‘z tomonidan ham yana bir muncha gaplarni qo‘shib-chatib, so‘zini tugatdi. Qutidor yaxshig‘ina o‘ng‘aysizlangan edi. Qutidorgina emas, sovchilar ham o‘ng‘aysizlangan edilar. **Masalaning noziklig‘iga** **(nikoh masalasining jiddiyligiga)** uchavlari ham tushunarlar va shuning uchun ittifoq qilgandek **chuqur bir sukutka ketgan edilar…** **(uzoq vaqt hech kim gapirmadi).** Garchi muddao kun kabi oshkora bo‘lgan bo‘lsa ham, nima uchundir qutidor yana o‘zini tag‘ofilga solib so‘radi:

– U kimning qizi emish?

Ziyo shohichi qutidor tarafidan o‘ziga beriladirgan shu savolni kutib turg‘an edi.

– Sizning karimangiz **(sizning qizingiz)**, – dedi.

Qutidor o‘zining joysiz savolidan o‘kinib yerga qaradi. O‘rtada tag‘in so‘zsizlik, o‘ng‘aysizlik boshlandi. Bir necha fursat shu yo‘sun jimgina o‘lturishkandan keyin yana Ziyo shohichining o‘zi gapirishka to‘g‘ri keldi:

– Biz o‘zimizning bu kelishimizda sizning uchun **dunyoga orzug‘uliq bir o‘g‘ul hadiya etkanimizdek** **(sizga bir kuyov topdik),** inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun **mujassamai iffat (hayo, ibo mujassam) bo‘lg‘an bir rafiqa tuhfa qilarmiz** **(hayoli, iboli qizga uylantiramiz)**. (*Abdulla Qodiriy*)

9.2-mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagilardan mosini tanlab qo‘ying va sabablarini izohlang.

Yechim: 1. Ukam **sariq** bo‘lib qoldi, shuning uchun na’matak damlab ichiryapmiz. 2. Xayri xola **chechak** bo‘lib, tashqariga chiqolmay qolibdi. 3. Nihoyat, afting qurg‘ur **asfalasofilinga ravona bo‘libdi.** 4. Devor eski, ehtiyot bo‘ling: orasida **oti yo‘q** bo‘lmasin yana. 5. Qarasam, chuqur to‘la **arg‘amchi**! Vashillab yotibdi!

Izoh: kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba’zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Jumladan, jin, arvoh va shunga o‘xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo‘lgan. Bunday xalqlar jin va arvohlarga yaqin bo‘lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o‘ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shu-

ningdek, hozir ham qabila bo‘lib yashayotgan elatlarda qabila boshliqlari o‘lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvohlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go‘yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar yetkazishi mumkin emish. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o‘z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan. Oqibatda, man etilgan so‘zlar o‘rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so‘zni ishlatish zaruriyati tug‘ilgan. Masalan: *qizamiq* so‘zi o‘rniga *gul* so‘zi, *chayon* so‘zi o‘rniga *eshak, oti yo‘q* so‘zlarining ishlatilishi bunga misol bo‘la oladi.

9.3-mashq. Nutqdagi „taqiq“lar ishtirok etgan maqollar bilan tanishiladi. Ular ishtirokida matn yaratiladi (*o‘qish, gapirish, yozish*). Bu maqollar, odatda, „kosa tagida nimkosa“ qabilida qo‘llanadi.

Namunaviy matnlar:

Ota-onalarimiz „Bolam yomonlarga qo‘shilib qolmasin“, deb hali oq-qorani endi taniy boshlagan farzandlari uchun qayg‘uradilar. Albatta, ularning xavotirlari o‘rinli, chunki muhit shaxsga bolaligida katta ta’sir o‘tkazishi mumkin. Lev Tolstoyning „Baldan so‘ng“ hikoyasida „Muhit odamni xarob qiladi“ degan jumla bor. Bunda yomon muhit nazarda tutilgan. Agar noqobil farzand voyaga yetsa, demak, ularda yomon muhitga moyillik bolalikdan qolgan bo‘ladi. **„Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topadi“**, deyishadi. Jamoalarda fe’l-atvori, qiziqishi yaqin kishilar o‘z-o‘zidan bir davra bo‘lib olishadi, o‘zlariga muhit yaratishadi. Bu hayot qonuni bo‘lsa kerak.

Olmaning tagiga olma tushadi. O‘g‘il-qizning fe’l-atvori, xatti-harakati, gap-so‘zi – xoh ijobiy jihatdan bo‘lsin, xoh salbiy jihatdan bo‘lsin – ota-onasinikidan keskin farq qilmaydi, o‘xshash yo yaqin bo‘ladi.

Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. Mazkur eng qadimiy maqollardan biri milodiy V asrda lotin tilshunosi A. Makrobiyning „Grammatika“ kitobida keltirilgan. Maqolning to‘g‘ri ma’nosi shuki, qarg‘a-quzg‘unlar ochiq yerda qolgan odam yoki hayvon murdasining avval ko‘zini, keyin go‘shtini cho‘qib yerkan. Ammo tirik qarg‘a va quzg‘un hech qachon o‘lik qarg‘a va quzg‘unning ko‘zini cho‘qimas ekan. Majoziy ma’nosi: zolim va qonxo‘rlar boshqalarga har qancha jabr-

sitam qilsalar-da, bir-birlariga yomonlik sog‘inmaydilar, bir-birlarining yonini olib, qo‘llab-quvvatlaydilar.

Manba: „Hikmatnoma“ (O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati)

9.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. **D**. Hurmat asosidagi.

Izoh: er-xotin nutqidagi hurmat asosidagi bunday ifodalar yosh avlodda nikoh va oila bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga oilada er va xotin munosabatlarini mustahkamlaydi, ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi. Bu esa farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, sharqona an’analar va o‘zbekona milliy ruhning davomiyligini ta’minlaydi.

2. **B**. Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, uchirib yubormasang bo‘ldi.

Izoh: „yumshoq“ qilib aytilgan fikr aslida „singlingga kuyov topildi, uni qo‘ldan chiqarib yuborma“ ma’nosini bildiradi.

9.5-mashq. Ajratilgan so‘zlarning salbiy yoki ijobiy mazmundagi „taqiq“ asosida qo‘llanganiga aniqlik kiritib, bu so‘zlarning umumiy belgisi topiladi va qator davom ettiriladi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Salbiy mazmun	Ijobiy mazmun
to‘ng‘iz qo‘pibdi	dunyodan chiqib ketadir
yer tishladi	peshanamizga sig‘madi
asfalasofilinga ketdi	ko‘zini yumdi
o‘ldi	shahid bo‘ldi
yer yutibdi	omonatini topshirdi

Izoh: mazkur ifodalar „o‘lmoq“ so‘zining salbiy va ijobiy bo‘yoqqa ega ko‘rinishlari hisoblanadi.

9.6-mashq. Matn o‘g‘rilar nutqiga oid. Yashirin so‘zlar o‘rniga madaniy nutq so‘zlarini qo‘yib o‘qiladi.

Izoh: o‘g‘rilar o‘z olamiga begonalarni aralashtirishni, sirlaridan boshqalar xabardor bo‘lishini istashmaydi. Shu maqsadda ma’noni yashiradigan turli so‘zlardan foydalanadilar. Bular umumxalq tilidan olingan bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlardir. O‘g‘rilar

nutqida qo‘llanuvchi so‘zlarga: „Arra qilmoq“ (o‘g‘rilangan narsani bo‘lib olmoq), „Nota topshirmoq“ (kelishib olmoq,o‘g‘rilik sodir etiladigan joyning rejasini topshirmoq), „ayiq“ (shayka boshlig‘i), „tulki“ (qo‘lga tushmas o‘g‘ri), „soqqa“ (pul) va boshqalar misol bo‘lishi mumkin. Ochiq ma’noli so‘z va iboralar qo‘llanganda esa nutqning ta’sir kuchi va o‘ziga xos uslubi yo‘qoladi, bu bilan o‘g‘rilarning xarakterli qirralari ham ochilmay qoladi.

Mustahkamlovchi savol va topshiriqlar asosida mavzuga xulosa yasaladi.

1. „Taqiq“ so‘zlar til odobi uchun qanday ahamiyatga ega?

Kishilarning o‘zaro so‘zlashuvda ayrim narsalarning nomini aytishdan, ayrim so‘zlarni qo‘llashdan va talaffuz qilishdan qochishi hodisasi uchraydi. Shuning uchun ham kishilar o‘z nutqlarini madaniy, yoqimli qilishga, qo‘pol, odobsiz, aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qiladi.

2. „Taqiq“lardagi „parda“lab gapirish va qo‘pol ifodalash xususiyati hayotdagi qanday vaziyatlarda uchraydi?

So‘zlashuv nutqida ko‘proq quyidagi vaziyatlarda uchraydi:

a) er-xotin nutqida;

b) oila qurish va homiladorlik bilan bog‘liq hollarda;

c) o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda;

d) kishilarning jismoniy kamchiliklarini ifodalovchi hollarda;

e) shifokorlar tilida qo‘llanishiga ko‘ra.

3. Rivoyat bilan tanishib, o‘quvchilar fikrlarini bayon qiladilar.

Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etadi. „Mahbub ul-qulub“ asarida voizlar, til odobi xususida fikr yuritsa, „Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etadi. Nafaqat e’tirof etadi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidlaydi.

Husayn Boyqaroning vafot etgan sevimli xotini haqida Navoiy: *„Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?“* jumlasi bilan murojaat qilishni o‘rgatadi. Xabarni eshitgan shoh osoyishtalik bilan *„Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak“* degan nozik va yumshoq javobni berib, buni Navoiyga yetkazishni topshiradi. Bu yerda ***gul so‘ldi*** jumlasi ***xotiningiz o‘ldi*** ifodasining „pardali“, „yumshoq“, shuningdek, inson ko‘nglini og‘ritmaydigan holdagi ko‘rinishidir.

9.1- va 9.2-topshiriq uyga vazifa qilib beriladi.

EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga evfemizm va disfemizmlar haqida ma’lumot berish hamda mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga muloqot davomida so‘zni anglash va o‘rinli qo‘llash odobini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavzu asosida olgan bilimlarni mustaqil qo‘llash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Yangi mavzu yuzasidan nazariy ma’lumot berishdan avval darslikdagi **10.1-mashq** bajariladi.

Bajarish tartibi: parchalar bilan tanishiladi (*o‘qish*); ajratib ko‘rsatilgan birliklar ikki guruhga bo‘linib ko‘chiriladi (*yozish*).

Yechim: ajratib ko‘rsatilgan birliklar ikki guruhga bo‘lib ko‘chiriladi:

kishiga ijobiy ta’sir qiladigan so‘zlar: *sochimning oqiga qaramayin, kayvoni, menginani lozim ko‘ribdilarmi, farishtali ayol;*

kishiga salbiy ta’sir qiladigan so‘zlar: *peshanang nimaga bundayin sho‘r, olamdan bepusht o‘tgin, juvonmarg o‘lgin, og‘zingdan chiqib, yoqangga yopishsin, Qofqazni sotishgan, kofir to‘ng‘izlardan himoya qilgan, „eshak“, esim qursin.*

Savollarga javob beriladi (*gapirish*):

1. Parchalarda Surxon vohasiga xos qanday so‘z birikmasi, ibora va jumlalar qo‘llangan?

Javob: momo, mazammat, kayvoni, hamsoya...

2. Ijodkorlarga xos xalqona ruh qaysi ifodalarda ko‘proq uchragan deb o‘ylaysiz?

Javob: Abdulla Oripovning mana bu so‘zlarini eslaymiz: „Xalqning o‘lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini, nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli“. Darhaqiqat, milliylikdan holi bo‘lgan tuyg‘u ta’sir kuchidan ayriladi. Milliy ruhdan mosuvo tafakkur bamisoli qanotsiz qushga o‘xshaydi. Xalqimiz ta’birlarini o‘z o‘rnida qo‘llash, xalq tilida mavjud bo‘lgan iboralardan, o‘xshatishlardan unumli foydalanish badiiyatni kuchaytiradi, ta’sir quvvatini oshiradi. Parchalarda xalq ruhini aks ettirgan ifodalarga diqqat qilaylik:

Peshanang nimaga bundayin sho‘r, sochimning oqiga qaramayin, ayollar bosh chayqadi, hamsoya, Yaratganga shukur, el savobini olar bo‘libman.

10.2-mashq asosida „Kim chaqqon?“ musobaqasi uyushtiriladi. Berilgan so‘zlar jadvalga tez va to‘g‘ri joylashtirilishi kerak.

„Yumshoq“ ifodalar	Yostiqdosh, ojiza, turmush o‘rtog‘i, jufti halol, umr yo‘ldoshi, zavj(a), rafiq(a), onasi, dadasi, bu kishim, farzandlik bo‘ldi, yengillashib oldi, ko‘zi yoridi, qutulib oldi, „holva“, „qo‘chqor“, davomchili bo‘ldi, jon taslim qildi, joni uzildi, u dunyoga rihlat qildi, omonatini topshirdi, egasiga kerak bo‘ldi
Betaraf ifodalar	o‘ldi, halok bo‘ldi, qazo qildi
Qo‘pol ifodalar	xotin, er, yer tishladi, to‘ng‘iz qo‘pdi, yer yutdi

10.3-mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan nuqtalar o‘rniga mosini tanlang.

Yechim: 1. – Uyqungiz o‘chdimi, **otasi?** – Ha...O‘zing-chi, yana xastalik azob beryaptimi? *(O. Yoqubov)* 2. Shu turishida opasi Boburga onasining endi **beva** qolgan o‘ttiz yetti-o‘ttiz sakkiz yasharli paytlarini eslatib yubordi. *(P. Qodirov)* 3. Yana, albatta, ko‘rishmoqqa umidim bor, hozircha **xayr**. (*„Onalar_kanali“dan*) 4. Bu amakining o‘g‘li urushdan **oyog‘idan ayrilib** keldi. (*„Suhbat“dan*) 5. Qo‘shnimiz **sal bundayroq,** lekin hech kimga zarari tegmaydi.*(T. Murod)* 6. Qarang-a, bu odam o‘zi **kal** bo‘lsa ham, dimog‘i balandni ko‘zlarkanmi? *(O. Bobojonov)*

10.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. **C**. Odamlar beton tagida qolib o‘lardi.
2. **A**. Siz yanglishyapsiz.

10.5-mashq. Yoshi ulug‘ odamlarga nisbatan qo‘llanadigan evfemizmlarni uslubiy bo‘yog‘iga ko‘ra tartiblang.

Ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar	sochiga oq oralagan; belidan quvvat ketgan ko‘zidan nur ketgan; so‘nggi manzilga tayyorgarlik ko‘rayotgan; yoshi o‘tgan; yoshi bir joyga yetgan; yoshi ulg‘aygan; umrining kuzagi o‘tib, qishi boshlangan; umri poyoniga yetib qolgan; yo‘li oxirlagan
Salbiy bo‘yoqdor so‘zlar	sochlari oqargan; yuzlarini ajin bosgan; sharti ketib, parti qolgan; qarigan; keksalik nuqsi urgan; to‘ridan go‘ri yaqin; o‘limi yaqin; qartayib qolgan; pishib qolgan

10.6-mashq. Berilgan so‘zlar qatorini davom ettirish bo‘yicha musobaqa uyushtiring:

boshi ochiq – uylanmagan, ro‘zg‘or qilmagan, bo‘ydoq, erga tegmagan, turmush qurmagan, turmushga chiqmagan...

sergap – mahmadona, ezma, gap sotuvchi, javraqi...

semiz – to‘ladan kelgan, do‘mboq...

yengiltak – yengil oyoq, xulqi buzuq...

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Evfemizm va disfemizmlar, asosan, qaysi uslublarda qo‘llanadi?

Javob: evfemizm bu og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llaniladigan ma’nosi neytral va so‘zining „vazifasi“ emotsional bo‘lgan so‘z bo‘lib, qo‘pol yoki „beodob“ so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladi. Evfemizm inson faoliyatining barcha sohalarida keng qo‘llanadi. Ayniqsa, so‘zlashuv, ilmiy, publitsistik uslublarda evfemizmning turli ko‘rinishlarini ko‘proq uchratish mumkin.

2. Mehmondorchilik bilan bog‘liq qanday evfemizmlarni bilasiz? Rolli o‘yin (dialog) shaklida namoyish qilishga urinib ko‘ring.

Namuna:

– Assalomu alaykum, bobojon!

– Va alaykum assalom! Kel, *bo‘talogim*, o‘tir. *Ko‘zim yo‘lingda* edi. *Umrim ham poyoniga yetay deb qoldi*, qariganda yaqinlariga suyanib qolar ekan odam. Seni ko‘rib, *boshim osmonga yetdi*. Vaqti-vaqti bilan *issiq-sovug‘imizdan* xabar olib tur. Buvisi, *qozon osdingmi*? Atagan-laringni olib kel.

– Ovora bo‘lmang, men tezda turaman. *Qosh qorayguncha* uyga yetib olishim kerak.

3. Masallar o‘qiladi. Ajratilgan so‘zlarning o‘rnida quyida berilgan evfemizm va disfemizmlarni qo‘llab, yuzaga kelgan farq izohlanadi *(o‘qish, gapirish)*:

– Odamlar **ajoyib-da,** devorning qulog‘i bor, sekin gapiringlar, deb meni **aybdor** qilishadi, – debdi Devor.

– E’tibor berma, ular bir-birlaridan shubhalanib, sendan xavotirlanishadi, – debdi Shift.

Izoh: fikrda yumshoqlik (evfemizm) mavjud.

***

Namuncha yerga **qapishmasang,** – debdi Shamol.

Yerning mehri o‘ziga tortadi-da, – debdi Qor.

Izoh: ifodada qo‘pollik (disfemizm) vujudga keldi.

***

Toshko‘mir buncha qop-qora, **ko‘rimsiz** bo‘lmasa, – debdi Kesak. Sirtdan baho berma, uning bag‘ri naqadar issiq, – debdi Tosh.

Izoh: ifoda bayonida yumshoqlik (evfemizm) paydo bo‘ldi.

Mustaqil bajarish uchun uyga vazifa sifatida **10.1- va 10.2-topshiriq** beriladi. Dars yakunlanadi.

OLMOSHLAR USLUBIYATI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga olmosh so‘z turkumiga xos bo‘lgan uslubiy xususiyatlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va nutqini erkin bayon qilish ko‘nikmasini hosil qilish.

Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar quyidagilar sanaladi:

U, bu, shu olmoshlari o‘rnida ***bir*** (yoki ***bir xil)*** so‘zi qo‘llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.* ***Men*** olmoshi o‘rnida ***kamina*** so‘zi, ***siz*** o‘rnida ***o‘zlari*** so‘zi qo‘llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo‘q. Siz va’da bergan edingiz. – O‘zlari va’da bergan edilar.* Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig‘ilishlarda ***men*** olmoshining o‘rnida ***biz*** olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko‘rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.* Hurmatni ifodalash uchun ***sen*** olmoshi o‘rnida ***siz*** olmoshi ishlatiladi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha, hurmatsizlikni ifodalash uchun esa ***sen*** olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar.* Ko‘rsatish olmoshlari ta’kidlash, ajratish ma’nolarini ifodalaydi: *Kitob – bu dono maslahatchi.*

11.1-mashqni bajarish tartibi: she’riy parchalar bilan tanishiladi (*o‘qish, tinglab tushunish*).

Olmoshlarni topib, ularning badiiy matnlarda qo‘llanishiga e’tibor beriladi. She’rlarda olmoshlarni takror qo‘llashdan maqsad nima ekanligi yuzasidan mulohaza yuritiladi (*gapirish*).

Izoh: ***ul, shul, ul, o‘shal, sanga, anga, ondin*** kabi olmoshlari mumtoz adabiyotda o‘sha davrga xos me’yoriy vazifani bajargan bo‘lsa, hozirgi she’riy nutqda esa tantanavorlik, ko‘tarinkilik uchun ishlatiladi.

Na, ne olmoshlari dialektal xususiyatga ega bo‘lib, badiiy uslubda ishlatiladi.

Ne olmoshi takrorlanib ishlatilganda (ne-ne) ma’noning ortiqligini, hayajonning kuchliligini bildiradi.

11.2-mashq. Berilgan matnlardan olmoshlarni aniqlab, uslubiy qo‘llanishi yuzasidan „*Muhokama daqiqalari*“ni uyushtiring.

1. – Domlajon, **shugina** o‘qisin, odam bo‘lsin, deymiz-da. Otasi ham, **men** ham **bundan hech narsamizni** ayamaymiz. Xudoga shukur, **bu** ham yuzimizni yerga qaratmay kelyapti. *(O. Hoshimov)* 2. **Bu** atrofda **o‘zlaridan** boshqa **hech kim** yashamas ekan-da? Qo‘rqmaysizmi? Tog‘lik joy… *(O. Husanov)* 3. **Shunda qayerdandir** juda tanish bir ovoz keldi. Birdan sergaklanib alangladi. Nahotki… **bu Sizmi**? **Qayerdan** paydo bo‘ldingiz? **Qanchalar** kutganimni bilasizmi **Sizni**? *(Sh. Isaxonova)* 4. – E,odammisan **o‘zi**?! – To‘rayev **uning** tirsagidan ushlab **o‘ziga** qaratdi. – **Nima bo‘ldi**? Tanimayapsanmi? *(Sh. Xolmirzayev)* 5.– Yana **men, mengina** jonim achiydi, **qachongacha shuning** ortidan yurmoqchisan-a? *(O. Hojiyeva)* 6. – Tag‘in noto‘g‘ri xayolga borma. **U-bu** deb qo‘ygan bo‘lsam, aybga buyurma, uka. *(S. Ahmad)*

Izoh: olmoshlar shaxs, narsa-buyum, belgi yoki miqdorning aniq nomini bildirmay, ular o‘rnida qo‘llanadi. Olmoshlarning aniq ma’nosi matn yoki nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab oydinlashadi. Demak, matnsiz olmoshlarning ma’nosi, nimani ko‘rsatishi noma’lum bo‘lib qoladi. Masalan, „shu o‘lka“, „shuncha kitob“ kabi birikmalarning ham ma’nosi faqat matnda aniqlashadi. Ko‘rinadiki, olmoshning muhim belgilaridan biri uning mavhum va umumlashgan ma’nolarni ifodalashidir. Ana shu ma’no xususiyati bilan olmosh umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalab, ot, sifat, son kabi so‘zlarning muqobili bo‘lib keladi. Bu holat olmoshlar uslubiy xususiyatining bir tomoni bo‘lsa, ikkinchisi, ularning o‘zaro sinonim bo‘lib ishlatilishidir. Ya’ni biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishidir. Bundan tashqari, olmoshlarning har bir ko‘rinishi o‘ziga xos hissiy ta’sirchanlik xususiyatlariga ham ega.

11.3-mashq. Said Ahmadning ijodkor O‘tkir Hoshimov haqidagi fikrlari bilan tanishing. Matndagi ko‘rsatish olmoshlari uslubiyatiga diqqat qiling. Sizning-cha, ijodkorning baxti nimada? (*tinglab tushunish, gapirish*)

Izoh: ko‘rsatish olmoshlari so‘zlovchi bilan ko‘rsatilayotgan narsa sodir bo‘lgan vaqtga qarab ishlatiladi. ***Shu*** olmoshi ham, ***bu*** olmoshi kabi ma’noga ega, ammo ***shu*** olmoshida ta’kid ma’nosi kuchli: *Ayniqsa, yosh kitobxonlarning shundoq mashhur yozuvchi bilan suhbatlashganlaridan ko‘zlari yashnab ketadi.*

Mana shu, mana bu, ana shu kabi olmoshlar narsani ajratib ko‘rsatadi. Uning vaqt, masofa jihatdan so‘zlovchiga yana ham yaqinligini ta’kidlaydi: – *Bolam, men hu anavi maktabda farroshman. Buni men maktab kutubxonasidan olgan manavi kitobni o‘qib bildim*.

O‘sha ko‘rsatish olmoshi so‘zlovchiga ilgaridan ma’lum bo‘lgan, ilgari eslatib o‘tilgan narsa, vaqt yoki hodisani ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi: *... o‘sha yigirma yil umrimni shu ukalarimga bo‘lib berishga tayyorman, deb javob qilardim.*

U, bu, shu, o‘sha kabi ko‘rsatish olmoshlari betaraf uslubda qo‘llanadi.

Mana, ana kabi olmoshlar esa ko‘proq so‘zlashuv uslubi nutqida ishlatiladi. Bu ikki uslubga olmoshlarning birgalikda ishlatilishi ko‘rsatishni yanada kuchaytiradi, ta’kidni bo‘rttirish, his-hayajonni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ijodkorning baxti nimada?

El-yurtini sevgan, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun sidqidildan xizmat qilgan farzandlarni tarix ham siylaydi. Xalqimizning tinch, to‘kin va barqaror hayoti, yorug‘ kelajagi yo‘lida ijod qilayotgan insonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir. Ijod baxti – har bir qalam sohibi uchun muhim va yo‘qotgisi kelmaydigan tuyg‘u.

„So‘zda sehr, she’rda esa hikmat bor“, – deyishadi. Ijod baxti so‘z sehrini, sir-asrorini izlash, topish, anglash baxtidir. Ijodkor o‘z asarlari orqali mo‘jizakor hayotning va inson qalbining eshiklarini ocha olsa, ijodining har bir satrida hikmat balqib tursa, insonlar undan bahramand bo‘lishsagina, mana shu baxtni his qila oladi, deb o‘ylaymiz.

11.4-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarning uslubiy vazifalarini izohlang (*yozish va gapirish*).

1. – Kelinposhsha, ovqatni suzdingizmi? – Suzdim, oyijon. **Bularnikini** alohida olib qo‘ydim. – Er-xotin birovlar oldida ochiq murojaat o‘rnida *u (bu), ular*, *bu(lar)* kabi olmoshlar orqali muomala qiladi.

2. – E, Qalashboyevmi? Chayqovchi u, **bizning** molni qishlog‘idagi do‘konga oborib ikki hissa qimmatiga sotadi. **Bular** o‘ziga oladi, hojatlarini chiqarish kerak. – *Biz* olmoshi *men* o‘rnida turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanadi: kamtarlik, faxrlanish, kesatiq, manmanlik kabi. *Bular* olmoshi esa o‘z ma’nosida qo‘llangan.

3. ***Bu kishim*** namuncha tez arazlamasa? – *Erim* so‘zining evfemik ifodasi qo‘llanib, hurmat ma’nosi aks etgan.

4. Ishni **senlar** buzdingmi, hammasi uchun endi **o‘zlaring** javob berasanlar! – Bu gapdagi olmoshlar orqali so‘zlovchining tinglovchiga hurmatsizligi, bepisand munosabati ifodalangan.

5. Rahmat, muxbir uka, umid qilamanki, hujjatlarimizni ko‘rib chiqib, **o‘sha** fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz! – Ko‘rsatish olmoshi uslubiy vazifa bajarmagan.

6. – Bu bog‘ni kim barpo qilibdi o‘zi? – **Biz-da**, xo‘jayin, qo‘ldan kelgancha… – Kamtarlik, ta’kid ma’nosi *biz* olmoshi orqali ifoda qilingan.

11.5-mashq. Testning yechimi.

1.B. Mehnatsiz bir nafas yo‘q, biz ilhomga shaydoyi. (*Mirtemir)*

Izoh: *biz* olmoshi *men* olmoshi o‘rnida o‘zini ta’kidlamaslik, kamtarlik ma’nosini ifodalash uchun qo‘llangan.

2. B. Uyda hech kim yo‘q, erim ham ishga ketgan.

Izoh: berilgan gaplarda qo‘llangan „turmush o‘rtog‘im“, „adasi“, „jufti halolim“ ifodalari „bular“ olmoshi kabi „erim“ so‘zining evfemizmlaridir.

11.6-mashq. Matnlardagi noodatiy qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1. – Sen gapir, – dedi kuyov.

– **O‘zi** gapirsin-da (***O‘zingiz*** *gapiring-da*), – dedi qayliq.

– Nimani gapirayin?

– O‘zimizning oqshomlardan gapirsin. Qirdagi bug‘doy o‘rimidan gapirsin.

– Sen gapir... Men senga zardoli terib berganimni.

– **O‘zi** gapirsin (***O‘zingiz*** *gapiring*), qo‘llari zardoli shoxlarida bo‘lsa-da, ko‘zlari qayda ekanini... *(T. Murod)*

2. – **O‘zi (*Alloh*)** beraman desa, qo‘shqo‘llab beradi. Sendan-mendan so‘rab o‘tirmaydi. Ma, ol, qulim, deydi. Mana ko‘rasan...

– Aytganingiz kelsin, otasi. *(T. Malik)*

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Evfemizmlarni qo‘llash oilaviy muhitga qanday ta’sir ko‘rsata oladi?

Oddiy adabiy nutqda taqiqlangan so‘zlar va iboralar evfemizm bilan almashtiriladi. Bu aloqa jarayonida bunday so‘zlarni ishlatishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni oldini olish, suhbatdosh aloqada noqulaylik sezmasligi uchun oilaviy muhitning axloqiy talablaridan kelib chiqadi.

2. Er-xotin munosabatlarida III shaxs ko‘plik olmoshi qo‘llanadi. Bu odatning sof milliy ildizi haqida o‘ylab ko‘ring.

O‘tmishda yigit va qiz unashtirilishi bilan, xususan, nikohga kirishi bilan bir-birlarining nomini atamaslik ko‘pgina xalqlar kabi bizda ham qat’iylashtirilgan. Boshqacha qilib aytganda, xotin (I shaxs) eri

(II shaxs)ga qaratilgan fikrini *ular, o‘zlari, o‘zi* (III shaxs) olmoshi qatnashgan gap orqali bayon etadi.

3. She’riy parchalarni o‘qing. Noo‘rin qo‘llangan kishilik olmoshlarining uslubiyati haqida fikrlashing.

Izoh: she’riy parchalarda *men* va *sen* kishilik olmoshlarini noo‘rin qo‘llash orqali mazmunning sayozlashuvi yuz bergan. O‘zbek tilining grammatik xususiyatlariga asosan *men* olmoshi, odatda, gapda qo‘llanmaydi. *Sen* olmoshi esa muallif tomonidan ritmni zo‘rma-zo‘raki hosil qilish maqsadida takror-takror qo‘llanib, uslubiy g‘alizlikni paydo qilgan va nutq saviyasini tushirgan.

11.1- va 11.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi**.**

MUSTAHKAMLASH DARSI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning mavzular bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: insonparvarlik, o‘zaro hurmat, ona tiliga ehtirom tuyg‘ularini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil fikrlash, og‘zaki hamda yozma nutq malakasini rivojlantirish.

1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Ajratilgan olmoshlar uslubiyatini izohlang (*o‘qish va gapirish*).

„Hammaning kelini abitta o‘tiriiib kashta tiksa, **meniki** (I shaxs birlik kishilik ilmoshi, -niki qo‘shimchasini olib, „mening kelinim“ ma’nosini ifodalagan) kitobga termiladi! Olima-da!“ Qudasi Qurbon kampirning ma’rakada katta-kichikka eshittirib va atayin **unga** (III shaxs birlikdagi kishilik olmoshi „Sobira xolaga“ ma’nosini ifodalagan) tegizib shang‘illashi Sobira xolaga og‘ir botdi. U ma’rakadan so‘ng boshda tuguni bilan qudasinikiga o‘tdi.

– Quda, – dedi. – Mana **siz** (II shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshi II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o‘rnida kelib, hurmat ma’nosini ifodalagan) kelin-kevat ko‘rgan kayvoni xotinsiz.

Matnda qo‘llangan olmoshlar shu tariqa tahlil qilinadi.

2-topshiriq. Berilgan iboralar va maqollarga mos izohlar tanlanadi.

Yechim: ot tepkisini ot ko‘tarar – mardga mardlik qilmoq, mard xatoni kechira oladi, nomard bunga qodir emas; oyog‘i uzangiga yetmagan, qo‘yniga yarimta non ketmagan – noshud, nodon, bo‘lmas odam; zamonaning ozgani – otdan eshakning o‘zgani – donolar ustidan no-

donlarning g‘olib kelishi; yaxshi it o‘ligini ko‘rsatmas – aqlli odam o‘z g‘amini o‘zi yeb, birovga og‘irligini tushirmaydi; bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq – ayyor, tullak odam hamisha xavfli; Turkistonda qo‘y bir so‘m, kela-kela o‘n bir so‘m – narx-navoning oshishi, qimmatchilik.

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘z tanlanadi.

1. Aylanayin So‘fi Olloyor hazratim, sadag‘angiz ketayin, hazratim, menga shafqat qiling. Ko‘pga bergan tirnoqni mendan-da ayamang. (*T. Murod*) 2. Ko‘r ham hassasini bir marta yo‘qotadi. (*Maqol*) 3. Bu libos yoshingizni katta ko‘rsatyapti. (*So‘zlashuvdan*) 4. Onasi, shu yerdamisan, fotihaga kelganlarga ko‘chatning hammasini ulashinglar, ikkitadan, uchtadan beringlar. Jannatdan chiqqan mevalar bular, denglar. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Ma’lum bo‘lishicha, Oyqiz Bahodirga bolaligidayoq beshikkerti qilingan ekan. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Malika bo‘y yetganda husni jamolining ovozasi yetti iqlimga yoyilibdi. *(Ertakdan)*

4-topshiriq. Qatorlar musobaqa shaklida davom ettiriladi:

1) harbiy sir talabiga ko‘ra harbiy qismlar, hududlarning shartli belgilari:

„A“ punkti, „OMON“chilar, „Bars“, „Shunqor“, „Lochin“...

2) kasallik nomlarini oshkor etmaslik tabulari: gul, chechak (qizamiq), oq (pes), uzun og‘riq (sil)…

3) katta yig‘inlarda, obro‘li odamlar ichida etikani saqlash nuqtayi nazaridan qo‘llanadigan tabular: yuqori, hurmatli boshlig‘imiz, markaz, otaxonimiz…

4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar: taqsir, menga qarang, olampanoh, azizim, toychog‘im, onasi, dadasi…

5) an’analar bilan bog‘liq evfemik vositalar: „chilla saqlash“, „ota-ko‘rdi“, „kampir o‘ldi“, „itirillar“, „sochsiypatar“, „qo‘lushlatar“, „kelin salom“…

5-topshiriq. Testlarning yechimi:

1. **A**. AQSHda – ayiq, Avstraliyada – kenguru, Kanadada – bug‘u, Hindistonda – sigir, O‘zbekistonda – humo.

2. **A**. O‘zlari ijozat bersalar, mashg‘ul bo‘lur edik.

6-topshiriqni bajarish tartibi:

1. Fikr davom ettiriladi: *Shuni unutmangki, hayotdagi sinovlar insonni yengib qo‘ymasligi kerak, chunki ular...*

Namuna:

Shuni unutmangki, hayotdagi sinovlar insonni yengib qo‘ymasligi kerak, chunki ular halokatli, tuzatib bo‘lmaydigan xatoga olib kelishi mum-

kin. Insonning kelajagi, dunyodagi, jamiyatdagi mavqeyi uning faoliyatiga bog‘liq. Faoliyat uning aqliy qobiliyatiga va mehnatiga bog‘liq bo‘lib, kelgusi taqdirini va baxtini belgilaydi.

2. Matnda qo‘llangan olmoshlar uslubiyati izohlanadi.

Izoh: berilgan murakkab qo‘shma gapda ikkita olmosh ishtirok etgan:.

1) **shuni –** ko‘rsatish olmoshi, turlangan, qo‘shma gapning bosh gap qismida kelib, to‘ldiruvchi ergash gap bilan ma’nodoshlik hosil qilgan;

2) **ular** – III shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshi, ot (sinovlar) so‘z turkumi o‘rnida kelgan, ta’sirchanlikni kuchaytirish, ta’kidlash ma’nolarini ham ifodalagan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Narsa-voqea va joylarni muqaddaslashtirish qanday omillarga bog‘liq?

Tirik bo‘lmagan jonsiz buyumlarga sig‘inish ibtidoiy odamlarning ovchilik, xo‘jalik yuritish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ovchi o‘zi ovlagan hayvonning tishini sug‘urib olib, uni bo‘yniga taqib yurgan. Ibtidoiy odamlarning tasavvuriga ko‘ra, yirtqich, qudratli hayvonning tishi bilan birgalikda uning kuchi va qudrati ham ibtidoiy odamga o‘tib, unga doimo omad olib kelishi kerak edi. Hozirgi davrda uyning eshigi, ostonasiga baxt keltirishiga ishonib taqa osib qo‘yish; devorga, eshikka tikan, qalampir va boshqa narsalarni osib qo‘yish ham fetishizmga taalluqlidir. Transport vositalariga har xil baxtsiz hodisalardan himoya qilish maqsadida osib qo‘yiladigan hayvon tishlari, tirnoqlari, qushlarning patlari, tikanlari ham fetishizmning bugungi kunda namoyon bo‘lishiga misol bo‘la oladi.

2. Bugungi kunimizda olovga sig‘inish e’tiqodining qaysi qoldiqlari yashab kelmoqda?

Olovga sig‘inuvchi „majusiy“ deb ataladi. Majusiylar Alloh taoloni nurlarning nuri deb e’tiqod qiluvchi toifadandir. Ayrim chekka hududlarda to‘y kuni kuyov kelinni ko‘tarib, olov atrofida aylantirishi, chillali uyda qirq kun davomida chiroqning yoqib qo‘yilishi, yog‘ga botirilgan yetti pilikni yoqib tilovat tushirish kabi udumlar bugungi kunda olovga sig‘inish e’tiqodining yashab kelayotgan ko‘rinishlari sanaladi.

3. Matnni o‘qing. Yashirin so‘zlarni qo‘llash zaruriyati nima uchun kerak?

Ma’lum bir maxfiy tashkilot a’zolari tomonidan bir-birini tanib olish, rejani yashirish, sir tutish, o‘zini oshkor qilmaslik maqsadida turli shartli belgilar qo‘llaniladi.

Mustaqil bajarish uchun uyga **1–2-vazifalar** berilib, dars yakunlanadi.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda matn va lug‘at bilan ishlash bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, evfemizmga oid bilimlarni kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni rivojlantirish, ularni badiiy ijodga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

12.1-mashq. Matn bilan tanishiladi (*o‘qib tushunish*).

12.2-mashq. „Mehrobdan chayon“ asaridan olingan ushbu parchaning davomi bilan qiziqib ko‘ring. Voqea qaysi ayanchli hodisa bilan tugaydi?

Madalixon bu fatvodan keyin dardini ichiga yutishga majbur bo‘lib, ammo ikkinchi tarafdan o‘zining orzusiga qarshi borgan ulamoni sekin-sekin „ilmiy“ ishlardan olib, ular o‘rniga yangilarini qo‘ya boshlaydi. O‘z orzusiga zamin hozirlagach, bir necha yilni o‘tkazib, yana ulamoga shu to‘g‘rida fatvo so‘rab murojaat qiladi. Tabiiy, yaqindagina og‘zi oshga yetgan yangi ulamolar o‘z valine’matlari bo‘lgan Madalixonga xiyonat qilmaydilar-da:

– „Banazdi mujtahiddini kirom asli e’tibor aqdi shar’iydir. Otangiz marhum: „nikohlanaman“ deb aytgan bo‘lsalar ham, „nikohlandim“ deb aytmaganlar. Bas, amiralmo‘minin mazkurani o‘z nafslariga aqdi shar’iy qilsalar joiz va durustdir. „Vallohi a’lam bissavob“, deb fatvonomani „binni mufti marhum“, „binni mudarris marhum“, „binni Ho‘qandiy marhum“ muhri bohaybatlari bilan qalashtirib beradilar va Madalixon to‘y va tomoshalar bilan murod-maqsadiga yetadi…

Kimlarning vositasi bilandir mazkura go‘zal kanizning ta’rifi Buxoro amiri – amir Nasrullo (Botir) xonga yetib, u ham ilgaridan haligi kanizga g‘oyibona oshiq bo‘lgan edi, ammo qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham, shu kanizni qo‘lga kirgizish fikrida bosh og‘ritib, nos chekib yurgan Botirxonning qulog‘iga bu xabari jonso‘z yetib, dimog‘idan dud chiqadi va darhol Buxoroning zabardast ulamo, mufti, a’lo peshvolarini o‘z huzuriga chorlab, darg‘azab, voqeani so‘zlaydi va ulardan darhol bir „fatvo“ talab qiladi. Ulamoyi kirom ham darhol masalani eshitar-eshitmas, fatvo yozadilarki:„Bir jamoa mo‘minlariga amir bo‘lgan zotning vazifai shar’iysi shuldirkim, islomda ustivor turgay, ahkomi islomni kamokon ijro qilg‘ay. Har bir amirikim arkoni islomdan zarracha yuz

o‘girsa, u kimarsa jamoai islom ustiga amir emas, sharirdir. Farg‘ona va Turkiston mamlakatining alhol amiri bo‘lgan Muhammad Alixon volidining mankuhasi, ya’ni volidayi ayni va rizoisini o‘z aqdig‘a olibdir (emizgan onasiga uylanibdir), nauzan billoh, nauzan billoh. Oyat va ahodisi sharifa va ba chahori mazhab va ba nazdi mujdahidini kirom va ulamoi zulehtirom muttafaqun alayh kofirdir. Kazolika o‘shandog‘ murtadning qatli avvalo digar islom amirlariga va ba’daz barcha mo‘minlarga farzi ayndir!“

„Xolisona“ bu fatvoga amir Nasrullo „betarafona“ qiymat berib, „din yo‘lida xolis bir jihodi akbar“ deb jam’iy qo‘shinlari bilan Farg‘ona ustiga yurish qiladi. Amiri Nasrulloning bu „xolisona“ jihodi Turkiston xonlig‘i tomonidan qanday muqovamatlarga uchradi va ikki tarafdan qancha boshlar kesildi, natijada Madalixon shikast topdi hamda amir Nasrulloxon tomonidan qatl qilindi.

12.3-mashq. Matnga sarlavha toping va reja tuzing.

Amir Umarxonning kanizi

Reja:

1. G‘uncha ochilguncha o‘tgan fursatni...
2. Shariat biyobonida sarson qolgan muhabbat.

12.4-mashq. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan evfemizmlar o‘rniga berilgan so‘zlarni qo‘yib, qayta o‘qing va xulosangizni ikki jumlada bayon qiling: *sevmoq, yetilmaganlik, uylanmoq, o‘lmoq, podsho bo‘lmoq, saqlamoq, to‘siq bo‘lmoq, chiqmoq, xotin qilib olishga qarshi.*

Turkiston xonlig‘i tarixidan xabardor kishilarga ma’lumdirki, Amir Umarxon oxir umrida o‘z saroyidagi yosh kanizlardan birini **sevib qoladi.** Kaniz yosh bo‘lg‘anligi va **yetilmaganligi** uchun unga **uylana olmay** vaqt kutadir. Shu kutib yurish yillarida Umarxon murodiga yetolmay **o‘ladi**, o‘g‘li Madalixon **podsho bo‘ladi.**

Oradan bir necha yillar o‘tib, boyag‘i kaniz qiz balog‘atka erishadir va bir husniga o‘n husn qo‘shulib, otaning bolasi bo‘lg‘an Madalixonni ham o‘ziga oshiq qiladir. O‘z saroyida o‘skan bu qizni yosh xon hamisha **ko‘z o‘ngida saqlasa** ham, **biroq**... **tarixning** bizga xabar berishiga qarag‘anda, Madalixon shu qizning dardida necha yillar yonadir. Chunki ulamolar bu go‘zalni Madaliga ona maqomida hisoblab, nima uchundir xonning **xotin qilib olishiga qarshi bo‘ladilar**: „Otangiz, agarchandi kanizni o‘z nikohlariga olmag‘an bo‘lsalar ham, lekin balog‘atka erishgach olarman, deb niyat qilganlar. Binobarin, bu kaniz sizga ona maqomida, **shari’at to‘sqinlik qiladi**!“ *(A. Qodiriy)*

Xulosa: Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, evfemizlar aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z, ibora o‘rnida silliqroq, pardali so‘zlarni qo‘llash ehtiyoji bilan ishlatiladigan ijobiy bo‘yoqqa ega so‘z va iboralardir. Ikkinchi matnni badiiy qimmati disfemizmlar tufayli tushib, odob doirasidan chetga chiqish holati kuzatildi.

12.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, matnda qo‘llangan ko‘hna so‘zlarning bugungi muqobili bo‘yicha jadval to‘ldiriladi (*yozish*).

xonlig‘i	xonligi
oxir umrida	so‘nggi yillarida
muhabbat qo‘yadir	muhabbat qo‘yadi
yosh bo‘lg‘anligi	yosh bo‘lganligi
balog‘atka yetmaganligi	balog‘atga yetmaganligi
taxtka	taxtga
agarchandi	agarki
boyag‘i	boyagi
o‘skan	o‘sgan
qarag‘anda	qaraganda

12.6-mashq. Izohli lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning ma’nosi tushuntiriladi:

kaniz, ulamo, maqom, shariat.

Kaniz (f-t) – 1. Tutqin ayol, cho‘ri. 2. Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol.

Ulamo (a) – 1. Olim, olimlar. 2. Shariat qonunlarini, diniy bilimlarni mukammal biladigan mulla.

Maqom (a) – 1. O‘rin, joy. 2. Martaba, mavqe.

Shariat (a) – Musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy, fuqarolik qonun va qoidalari majmui.

12.1- va 12.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi.

Yechim: hayotda shu kabi ustalarning „adashishlari“ oqibatida aka-ukalar orasidagi mehr-oqibat rishtasi mahkam bog‘lanadi.

Terak tomiriga tayanar, odam – tug‘ishganlariga.

Tirnoqni etdan ayirib bo‘lmas.

Ota – xazina, aka-uka – tayanch.

Og‘a-ini arazli bo‘lsa ham, g‘arazli bo‘lmas.

SO‘Z VA IBORA TENG EMAS

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilar ongida so‘z va iboraning farqi, hissiy ta’sir kuchi haqida bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, bu vositalardan samarali foydalana bilish kompetensiyasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni o‘zaro hamjihat bo‘lishga, jamoada ishlash va bir-birining fikrini hurmat qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tilning hissiy ta’sir kuchini oshirishda iboralardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Dars so‘z va iboraning farqi, iboraning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltiriladi.

13.1-mashqda berilgan matn bilan tanishiladi (*tinglab tushunish*). Iboralarni aniqlab, ularga mos izohlar topiladi *(yozish*). Asar tilining hissiy ta’sir kuchida iboralarning qanday ahamiyatga ega ekani yuzasidan fikrlashiladi (*gapirish*).

Yechim: quyidagi iboralar qo‘llangan:

Bo‘shashib chiqmoq – hovuridan tushmoq, gapidan, niyatidan qaytmoq, bo‘sh kela boshlamoq, hafsalasi pir bo‘lmoq.

Pasti-balandini tanishtirmoq – turli ikir-chikir, mayda-chuyda (qonun-qoida)larini tanitmoq.

Odam qilmoq – tarbiyalab, chin insonga, yaxshi fazilat sohibiga aylantirmoq.

Qoqqanda qozig‘im, osganda cho‘michim qolmadi – nihoyatda qiynalib ketdim.

Tepa sochi tikka bo‘lmoq – bir lahzaning o‘zida nihoyatda qattiq g‘azablanmoq.

Ko‘zidan o‘t chaqnamoq – qattiq asabiylashmoq, g‘azablanmoq.

Yo‘l ko‘rsatmoq – nima ish qilish lozimligi haqida maslahat bermoq.

Bundan tashqari, matnda quyidagi maqol ham qo‘llangan:

Siylaganni sigir bilmas – bu maqolni o‘z izzatini bilmaydigan, birov tomonidan o‘ziga qilingan yaxshilikni bilmaydigan, qadrlamaydigan, yaxshilikka javoban yaxshilik qilish u yoqda tursin, hatto, yomonlik bilan javob qaytaradigan yaramas, badfe’l, badxulq va h.k. shu kabi jirkanch illat egalariga nisbatan qo‘llaydilar.

13.2-mashq. Gaplardagi iboralarni aniqlab, ularni berilgan so‘z va birikmalar bilan almashtiring. Qaysi birida bo‘yoqdorlik kuchli ekanini izohlang (*o‘qish, gapirish*).

Yechim: ushbu mashqni ishlashda o‘qituvchi „Qiyosiy tahlil“ metodidan foydalanib, o‘quvchilardan har ikkala gapni qiyoslashni so‘raydi. O‘quvchilar ibora yoki so‘z va birikmalar qatnashgan gaplarning farqini topishga harakat qilishadi. Ushbu gaplarni qiyoslash jarayonida ko‘rish mumkinki, iboralar ishtirok etgan gaplarda uslubiy va hissiy ma’no mavjud. Iboralar ifodalagan ma’no obrazli va jozibali bo‘ladi. Shu xususiyati bilan u so‘z ifodalagan ma’nodan farq qiladi. Hatto ayrim ibora bildirgan ma’noni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Shved olimlari yaqinda tabassum vaqtida ajralib chiqadigan baxt garmonlarini hisoblab chiqishibdi.

Ochiq yuz bilan birgina tabassum qilish 400 dona plitka shokoladni iste’mol qilganchalik samara berar ekan. Endi lotereyada omadingiz kelmasa ham, **mamnun qiladigan** latifa tinglamasangiz ham, **xursand bo‘lavering. Shod bo‘ling,** axir tabassum tekin-ku! Buning ustiga **nihoyatda charchatadigan** hech qanday quvvat sarflamaysiz.

Qarang-a, mana man degan shved olimlari kulgi kuchini endigina aniqlagan bo‘lsalar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bir necha yuz yillar oldin **kulib qarashning** yashirin sirlaridan boxabar bo‘lganlar va doimo tabassumda yurishni maslahat berganlar. *(„Norbekov.uz“)*

Tavsiya qilingan izohlar: *mamnun qiladigan; xursand bo‘lavering; shod bo‘ling; nihoyatda charchash; kulib qarash.*

13.3-mashq. Gaplardagi ajratilgan so‘zlarni berilgan iboralar sirasidan mosi bilan almashtiring.

Yechim: 1. Siz **ko‘ngil chog‘ligingizda** o‘zingizdan quvonch energiyasini tarqatasiz, **bahri dilingiz ochiladi** va uni qayerga yubormang, sizga quvonchli tuyg‘ular, quvonchli vaziyatlar, **labidan kulgu arimaydigan** odamlar bilan qaytib keladi. Masalan, radiodan **ko‘nglingizga xush keladigan** kuyni tinglab **boshingiz ko‘kka yetsa**, **ko‘z ochib yumguncha** hayotning tuhfasiga ega bo‘lasiz, kayfiyatingiz chog‘ bo‘ladi – bularning hammasi tortishish qonunining kuchidir. *(Deyl Karnegi)*

13.4-mashq. Quyidagi iboralar asosida og‘zaki gaplar tuzing.

Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan; nomi ulug‘, suprasi quruq; katta boshini kichik qilmoq; dami ichida qolmoq; suvdan quruq chiqmoq.

Namuna: 1. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bu voqea hammani birdek karaxt etgan, hamma hayron edi. 2. Bu lavozimning nomi ulug‘, suprasi quruq ekanligini bilganimda edi, direktordan shu lavozimga meni qo‘yishini so‘ramagan bo‘lardim. 3. Katta boshimni kichik qilib oldingizga keldim, quruq qaytarmassiz. 4. To‘satdan onam kelib gapga aralashdi-yu, damim ichimda qoldi. 5. Bu safar ham suvdan quruq chiqaman deb o‘ylama, endi senga ishonadigan ahmoq yo‘q.

13.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, „Bu so‘z bizniki“ musobaqasi o‘tkaziladi. Berilgan iboralarni 1-guruh sinonimik juftlik, 2-guruh antonimik juftlik shaklida yozadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim:

Sinonimik juftlik	
almisoqdan beri	almisoqdan qolgan
ammamning buzog‘i	og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadi
anqoga shafe	anqoning urug‘i
jag‘i tinmadi	labi labiga tegmaydi
og‘ziga muhr bosilgan	og‘zida osh damlamoq

Antonimik juftlik	
yerga urmoq	ko‘kka ko‘tarmoq
yuragi keng	yuragi tor
ko‘ngli joyiga tushdi	yuragiga g‘ulg‘ula tushdi
jag‘ida jag‘ qolmadi	og‘ziga mum solgan

13.6-mashq. Omonim ibora qatnashgan gap juftliklariga diqqat qiling. Ularning ma’nosini izohlang (*o‘qish, gapirish*).

Yechim:

Dam bermoq:
istirohat qilishga, hordiq chiqarishga imkon bermoq;
havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq.

Ichagi uzildi:
qotib-qotib kulmoq;
juda-juda ochiqmoq.

Boshini yemoq:
juda ko‘p meva qilmoq;
yo‘q qilmoq, halok qilmoq.

Yuz o‘girmoq:
aloqani uzmoq, muomalada bo‘lishni istamaslik;
boshini burib qaramoq.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, iboralar omonimlik xususiyatiga ega.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Metafora yo‘li bilan hosil qilingan iboralarga misol keltiring.

Frazeologik ma’no ibora tarkibidagi biror so‘zning ko‘chma ma’nosiga asoslanishi mumkin. Masalan: *shirin so‘z, achchiq gap, ishning ko‘zi, bel bog‘lamoq* kabi.

2. *Kalima keltirmoq* va *kalima o‘girmoq* iboralari orasida qanday farq bor? Misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.

Kalima keltirmoq – kalimayi shahodatni aynan aytmoq, musulmon bo‘lmoq, kalimayi shahodatni takrorlab yurmoq ma’nosini anglatadi. *Kalima o‘girmoq* ham shunday ma’noda qo‘llanadi, ammo bu iboralarning farqi uslubiy xoslanishi va qo‘shimcha hissiy ma’noga ega ekanligidadir. *Kalima o‘girmoq* iborasida hissiy ma’no kuchliroq ifodalangan.

3. Suhbat matnini o‘qing. Unda qo‘llangan iboralarning izohli lug‘atini tayyorlang**.**

Yechim: ushbu matnda quyidagi iboralar qo‘llangan:

Jag‘i tinmay – tinmasdan ko‘p gapirmoq

Bag‘riginam xun bo‘ldi – ziq bo‘ldi, ruhan azoblandi

Aravani quruq olib qochdi – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi

Suprasida chaksa un yo‘q, uyida sichqonlar hassa tayanib qolgan, lekin tom boshida qo‘sh tandir – aslida hech narsasi yo‘q gadoy, ammo odamlar orasida o‘zini juda davlatmand qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladigan odamlarga nisbatan qo‘llanadi

Lom-mim demay – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

Ichiga yutdi – yashirdi, pinhon tutdi

Bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda – umri tugay deb qolgan

Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq – arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ish qilib qo‘ydi.

13.1 – 13.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi. Dars yakunlanadi.

MAQOLNI O‘RINLI QO‘LLASH

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda maqol va uning ta’sirchanlik ko‘lami haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: maqollardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ziyraklik, ijodiy fikrlash sifatlarini rivojlantirish.

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri, shu bilan birga, til birligi ham. U – ixcham, mazmuniy va ta’sirchanlik ko‘lami baland ifoda. Maqollar biror nutq vaziyatiga xos bo‘ladi, shuning uchun, ko‘pincha, bir-birini inkor etadi:

Yaxshilik qil, umidvor bo‘l. – Yaxshilik qil – unut.
Maqollar evfemizm vazifasini ham bajaradi.

14.1-mashq. Matn bilan tanishing. Maqollarni aniqlang va ularning mos izohlarini toping. Matn badiiyligida maqollarning qanday o‘rni borligi xususida fikrlashing (*o‘qish va gapirish*).

„Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin“, – deganlari shu-da…

El og‘zida **„Ot bosgan joyni toy bosadi“**, degan naql yuradi. Shunga ko‘ra Tursunali ot bo‘lsa, shogirdi toy misol edi. Qo‘polroq tarzda tavsif berilsa, Tursunali tupurgan-u, u yalagan edi. Ustozi qamalganida uning ham paytavasiga qurt tushdi. Har holda ustozi oshni o‘zi oshalagani bilan unga yalatib turardi. Yangi direktor Yaratganga emas, rahbarlariga shukur qiladi: hartugul o‘sha laganlarni olishdi-yu, yalaganlarga marhamat darvozalarini ochishdi. Ular anglashmadiki, yaloqxo‘rlarning nafsi oshalaganlardan ham buzuqroq bo‘ladi. **„Oshalagan qorni to‘ygunicha yeydi, yaloqxo‘r esa ko‘zi to‘ygunicha“**. Ko‘zning hech qachon to‘ymasligi esa barchaga ayon. Xususan, kattalarning xizmatini qilib yurib, fe’l-atvorlarini bilib olgan Toshboltaga ham ma’lum bu. Shu sababli qizi tilga olinganda uning ko‘zlarini o‘yib olgisi kelgan bo‘lsa-da, o‘z aravasini o‘zi tortib ketishga qurbi yetmasligini bilgani uchun o‘zini tiydi. „Yaloqxo‘r“ deb yangi direktordan nafratlangani bilan tirjayib, unga qulluq qilib turishga majbur edi…

– Ming qilsayam, urug‘ urug‘-da, – dedi. – **Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi**... *(T. Malik).*

Yechim: mashqni bajarishda Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning „Hikmatnoma“ asaridan foydalanish zarur. Matnda qo‘llangan maqollarning izohiga e’tibor qaratamiz:

Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin – majoziy ma’noda ozgina boylikka yoki muvaffaqiyatga erishgach, o‘zining avvalgi ayanchli holini unutib, shishinib, bosar-tusarini bilmay qoladigan, boshqalarni mensimay, „oyoq uchi“da ko‘rsatadigan takabbur odamlarga nisbatan achchiq kinoya tarzida qo‘llaniladi.

Ot bosgan joyni toy bosadi – ota-bobolaring g‘ayratli, dovyurak, katta-katta ishlarga qo‘l uradigan, hech narsadan qaytmaydigan, erinmaydigan odamlar edi-ku, nega endi sen unday qilmayapsan?! Erinyapsanmi yo qo‘rqyapsanmi; qo‘rqma ham, erinma ham! Yengil-yelpi ishlar bilan shug‘ullanib, „turmushimni bir amallab o‘tkazsam bo‘ldida, menga nima, jon koyitib?!“ degan fikrni xayolingga ham keltirma, og‘irroq, kattaroq ishlarni ko‘zla, shuning harakatida bo‘l! – degan ma’noda nasihat qiladilar.

Oshalagan qorni to‘ygunicha yeydi, yaloqxo‘r esa ko‘zi to‘ygunicha – ya’ni qorni och odam qorni to‘yguncha yeydi va to‘yadi, yaloqxo‘r, ko‘zi och odam esa ko‘zi to‘yguncha yeydi, qorni to‘ysa ham, ko‘zi hech qachon to‘ymaydi, – degan ma’noda qo‘llaniladi.

Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi – astoydil ayiraman desa, tirnoqni etdan ayirish mumkin, lekin hech kim o‘laqolsa bunday qilmaydi. Chunki tirnoqni etdan ayirgandan ortiq og‘riq dunyoda bo‘lmasa kerak. Maqolda ota-onani bolalardan, bolalarni ota-onadan, tug‘ishganlar va chin do‘st-u qadrdonlarni bir-biridan ayirib bo‘lmasligi, ayirish qiyinligi, ayrilgan taqdirda esa ularning qattiq iztirob chekishlarini majoziy ma’noda ifodalamoq uchun shunday deyilgan.

14.2-mashq. Matnlardagi maqollarni aniqlab, oddiy gaplar bilan almashtiring.

I	Itining tuvagi oltindan bo‘lib ketar edi.	Juda katta manfaat ko‘rar edi.
II	Insofli odam oshini yer, insofsiz – boshini.	Insoflilik yaxshi samara beradi, insofsizlikning esa oqibati yomon bo‘ladi.
III	Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.	Yolg‘on gap baribir bir kun yuzaga chiqadi.
	Ona rozi – Xudo rozi.	Onani rozi qilish dunyodagi eng muhim yumushlardan biridir.
IV	Kimga aza, kimga to‘y?	Hayot adolatsiz: kimgadir yaxshi bo‘lgan narsa kim uchundir yomon bo‘lishi mumkin.
	Shanbada bichma, jumada ko‘chma.	Har narsaning o‘z vaqti soati bor.
	Sichqonning ini ming tanga bo‘lmaydimi menga desa.	Qochgani joy topolmasa, menga nima?!

14.3-mashq. Matnlardagi tegishli gaplarni berilgan maqollarning mosi bilan almashtiring. Fikr mazmunida yuzaga kelgan farqni izohlang.

1. – Yolg‘izligim, yakkaligim kimga xalal beryapti, ena?

– ***Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas,*** bolam, bunday shumshayib o‘tiraverganing bilan ish o‘z-o‘zidan yurishib qolmaydi-ku. Oshna-og‘aynilaring, yor-do‘stlaring bilan kengash, birgalikda harakat qil.

2. Bir o‘rmonda bolta paydo bo‘lib, daraxtlarga qirg‘in keltiribdi. Og‘ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so‘rashibdi. „Bolta deganlaring nima o‘zi? U nimadan ishlangan?“ – deb so‘rabdi Eman. „Bolta – temirdan yasalgan bir matoh“, – deb javob beribdilar. „O‘zi-ku, temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?“ – deb so‘rabdi Eman. „Yo‘q, – debdilar, – dastasi og‘ochdan, o‘zimizdan“. ***O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da’voga,*** – degan ekan Eman.

3. Jolinus hakim bir kimsa donishmand bir zotning yoqasidan tutib, uni haqorat qilayotganini ko‘rdi va shunday dedi:

– ***Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas.***

14.4-mashq. Maqollar juftligini o‘qing. Ularning bir-birini inkor etishi yuzasidan „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling va o‘z mulohazangizni bayon eting.

1. Gap bilan kerilma, ish bilan keril. – Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga.

2. Tekin bo‘lsa, mix yut. – Tekin tomoq tish sindirar.

3. Yomon ko‘rgan kishingga yomon narsangni ber. – Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.

4. Har kim boshiga yog‘gan qorni o‘zi kuraydi. – Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

14.5-mashq. Rasmlar asosida yil fasllari bilan bog‘liq maqollar topib yoziladi.

Yechim:

1. Yoz mevasi – qishga dori.
Yozda g‘amlangan oziq qishga darmondori bo‘lar.
Yozda mevaga to‘ysang, qishda doriga hojat yo‘q.

2. Qishning qori mo‘l rizq-ro‘z keltirar.
Qor yog‘di – don yog‘di.
Qishning qori – bug‘doyning zo‘ri.

14.6-mashq. „Mening taqdimotim“ tanlovi uyushtiriladi.

Yechim: maqollardan ba’zilarining qanday vaziyatlarda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

1. Uzoq bo‘lsa ham, yo‘l yaxshi, yomon bo‘lsa ham, el yaxshi – inson faqat jamiyatda, insonlar orasidagina yuksalib, haqiqiy inson bo‘la oladi. Yaxshimi, yomonmi har bir inson bizga hayotda o‘ziga yarasha dars, tajriba beradi. Inson uchun eng muhimi shu: insonlar orasida bo‘lish. Yoki kengroq ma’noda tushunadigan bo‘lsak, hayotda inson uchun juda muhim bo‘lgan narsadan noligan, shikoyat qilgan insonlarga nisbatan shu maqol qo‘llanadi.

2. Hayronman Shoniyozning ishiga, etik sotib, paytava olib yurishiga – aslida paytava etik kiyish uchun kerak. Etiksiz paytavani olib yurish mantiqsizlik. Hayotda ham biron ishni qilmoqchi bo‘lgan odam shu ishni qilish uchun juda muhim bo‘lgan narsani qo‘yib, ikkinchi darajali narsalarga e’tibor bergan holatda shu maqol qo‘llaniladi.

3. Sulaymon o‘ldi – devlar qutuldi – bu maqol diniy afsonaga asoslangan. Mazkur maqol majoziy ma’noda qo‘llanadi: biror yurt yo oila boshlig‘i o‘z yurti yo oilasini qattiqqo‘llik bilan mahkam ushlab, tinchitib turgan, vaqti soati yetib olamdan o‘tgach, yurt yomonlari yoki noqobil farzandlar o‘z yomonliklarini qila boshlasalar, odamlar ularga qarata: „Ha, Sulaymon o‘lib, devlar qutulibdi-da“, deb qo‘yadilar.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

1. Nutq jarayonida maqollar va hikmatli so‘zlarni qo‘llash qanday ahamiyat kasb etadi? Ular nutq vaziyatini yumshatishga qay darajada xizmat qiladi?

Maqollar va hikmatli so‘zlarni o‘rganib, xotirada saqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay bilish kishining so‘z san’atkori, donishmand bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Mumtoz adabiyotda maqol qo‘llash bilan bog‘liq qanday she’riy san’at yaratiladi? Misollar keltiring.

Mumtoz adabiyotda maqol qo‘llash orqali irsoli masal san’ati yaratiladi. Masalan: Ayog‘ingga tushar har lahza gisu, Masaldurkim, chirog‘ tubi qorong‘u.

3. Berilgan parchani o‘qing. Undagi maqollarning izohini tayyorlang.

Yechim: ushbu matnda qo‘llangan maqollar izohlanadi.

Ro‘zg‘or – g‘or – maqolda oila tebratish oson ish emasligi, kamchiliklari tugamasligi va sabr-matonatli bo‘lish kerakligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Ro‘zg‘or tushdi boshga – qo‘l tegmadi oshga – ushbu maqolda ham ro‘zg‘or tebratishning oson ish emasligini qayd etib, chidamli, bardoshli bo‘lishga da’vat etadilar va bu borada qiynalayotgan odamga tasalli beradilar.

Erta turganga – rizq qo‘sha, erta turmasang, barmog‘ingni osha – xalqimiz qadim-qadimdan saharlab turgan odam rizqqa ega bo‘lishiga ishonadi va ushbu maqol orqali hammani shunga da’vat etadi, erta turmaslik shu kunning rizqini qirqishi haqida ogohlantiradi.

Hovli olma, qo‘shni ol – majoziy ma’noda uy olmoqchi bo‘lgan odam qo‘shnilariga ahamiyat berishi kerakligi uqtiriladi, chunki insonni bir uyda tinib-tinchib yashab ketishida qo‘ni-qo‘shnilarning qanday inson ekanligining ham ahamiyati katta.

Gilam sotsang, qo‘shniga sot – bir chetida o‘zing o‘tirasan – majoziy ma’nosi: biror narsangni sotadigan yoki birovga tekinga beradigan bo‘lsang, notanishga, yetti yot begonaga emas, o‘z tanishlaringga, yaqinlaringga, qo‘ni-qo‘shningga sotganing yo berganing ma’qul. Chunki ular bu narsani har ko‘rganda seni eslaydilar, sendan minnatdor bo‘ladilar, vaqti kelib o‘sha narsangning foydasi o‘zingga ham tegib qoladi.

Qari bilganni pari bilmas – bu maqolda qariyalarning oqil, donoligi, tajribakorligi, mehribonligi, adolat yuzasidan ish ko‘rishi va boshqalar qayd etilib, ularni hurmatlash, aytgan so‘zlariga quloq solib, bergan pand-nasihatlariga amal qilish zarurligi uqtiriladi.

Mustaqil bajarish uchun **14.1 – 14.2-topshiriq**lar uyga vazifa qilib beriladi.

TASVIRIY IFODA – KO‘TARINKI NUTQ VOSITASI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda tasviriy ifoda hamda so‘zning farqli tomonlari, tasviriy ifodaning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyati haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona-Vatanga sadoqatli hamda milliy qadriyatlarimizga e’tiqodli bo‘lish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirishda tasviriy ifodalardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Tasviriy ifoda (parafraza) – narsalar nomining bo‘yoqdor muqobili bo‘lgan birikma. U uslubiy chegaralangan, ko‘proq publitsistikaga xos: 1. *Yoshlarning aql gimnastikasiga qiziqishlari ortib bormoqda.*

2. Oltin qanot qushlar uchsin.

Tasviriy ifoda aniq tushunchani bildirishi bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi bilan farqlanadi.

So‘z ma’nosining kengayishi va ko‘chgan holda qo‘llanishi tilning, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biri. So‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash – lug‘at boyligini ko‘rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta’minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.Tasviriy ifoda ko‘proq ot va sifat turkumiga mansub. Ba’zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo‘llanishi (*zangori ekran, oynayi jahon – televizor*) mumkin. Demak, tasviriy ifodaga omonimlik ham xos.

15.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn o‘qiladi va unga sarlavha tanlanadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Sarlavha namunalari:

Halol va harom tushunchasi

Onamning o‘gitlari

Haromdan hazar

Halollik va harom ko‘rinishlari

2. Matn mazmuni uch jumlada bayon etiladi (*yozish, o‘qish*).

Halol va haromni farqlab olish odamning ikki dunyosi uchun ham muhimdir. Jamiyatdagi illatlar: giyohvandlik, ichkilikbozlik, korrupsiya kabilar qanchadan qancha oilalarning buzilishiga sababchi bo‘lmoqda. Jinoyatchilarni oynayi jahon orqali fosh etib, sud hukmiga topshirish davr talabidir.

3. Ajratilgan ifodalar mos so‘zlar bilan almashtiriladi (*yozish, o‘qish, gapirish*).

Ikki dunyosi – buguni va ertasi; yomonliklar kaliti – ichkilikbozlik; oq ajal – aroq, giyohvand modda; balog‘at ostonasidan o‘tmagan – ulg‘aymagan, voyaga yetmagan; taraqqiyot kushandasi – korrupsiya; payi qirqilmoq – tugatilmoq; jamiyatga tushgan qurtlar – jinoyatchilik; oynayi jahon – televizor; hayot ko‘zgusi – gazeta; adolat qo‘rg‘oni – sud.

15.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan ifodalarga mos so‘zlar qo‘ying.

Yechim: 1. Xotira va qadrlash kuni arafasida Toshkentdagi G‘alaba bog‘ida barpo etilgan „Shon-sharaf muzeyi“da birinchi o‘zbek generali – ***Sobir Rahimov*ning** o‘n tonnalik haykali qad rostladi. 2. Bu kun nafaqat II jahon urushi qatnashchilari, balki ***baynalmilal jangchilar*** – afg‘onchilar holidan ham xabar olindi. 3. Insoniyat tinchligi uchun jonini qurbon qilganlar poyiga kelajak bunyodkorlari – ***yoshlar*** gulchambarlar qo‘yishdi. 4. Davlatimiz sarhadlarida tinim bilmay sergak turgan tinchlik himoyachilari – ***harbiylar*** va kun-u tun halovatimizni ta’minlayotgan osoyishtalik posbonlari – ***ichki ishlar xodimlari*** hamisha hurmat-e’tiborga loyiqdirlar. 5. Yurtimiz tinch ekan, musaffo osmonda tinchlik elchilari – ***kabutarlar*** qanot qoqib uchaveradilar.

15.3-mashq. Adabiy bilimingizga tayanib, berilgan ifodalarga mos izohlarni aniqlang. Ro‘yxatni davom ettirish bo‘yicha musobaqalashing.

1) g‘azal mulkining sultoni – **Alisher Navoiy;**

2) millatni birlikka chorlagan shoir – **Turdi Farog‘iy**;

3) o‘zbek romanchiligi maktabining asoschisi – **Abdulla Qodiriy**;

4) o‘zbek she’riyatida vafo va sadoqat timsoli – **Zulfiya;**

5) qisqa hikoyalar ustasi – **Abdulla Qahhor**;
6) vaqtga haykal qo‘ygan shoir – **G‘afur G‘ulom**;
7) baxt va shodlik kuychisi – **Hamid Olimjon**;
8) erk kuychisi – **Cho‘lpon;**
9) g‘azalga qayta jon bag‘ishlagan shoir – **Erkin Vohidov;**
10) ilohiy ishq kuychisi – **Mashrab**.

15.4-mashq. Ikki guruhga bo‘lining va *„Kim topqir?“* bellashuvini tashkil qilib, jadvalni to‘ldiring.

Yechim:

Bitta predmetga ikki va undan ortiq tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar	**Ikki predmetga bitta tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar**
Maqol – so‘z ko‘rki, otalar so‘zi, fikr qaymog‘i, hikmatli so‘z	*Bahor elchisi – qaldirg‘och, boychechak*
Televizor – zangori ekran, oynayi jahon	*Aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*
Tabiiy gaz – zangori olov, beminnat yordamchi	*Oq ajal – aroq, giyohvand modda*
Sher – hayvonlar shohi, o‘rmon qiroli	*Qora oltin – neft, ko‘mir*

15.5-mashq. Testlarning yechimi:

1**. B.** Fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli, yasharish fasli.

Izoh: tiriklikning bayrami deganda bahor fasli nazarda tutilgan va bahor fasliga nisbatan fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli, yasharish fasli kabi tasviriy ifodalarni qo‘llashimiz mumkin.

2.**C.** Pele, Tayson.

Izoh: Pele – futbol qiroli, Mayk Tayson – „temir musht“li bokschi.

15.6-mashq. Tasviriy ifodalar uchun bir umumiy nom topishga harakat qiling. O‘zingiz yashaydigan hududda shunga o‘xshash joy nomlarini ayting (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Tavsiya: ushbu mashqni ishlashda „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘ladi va bir guruhga yuqoridagiga o‘xshash joy nomlarini topishni, ikkinchi guruhga esa ularni izohlashni topshiradi. O‘rni bilan guruhlarning vazifasi o‘zgaradi. Ikkinchi guruh tasviriy ifodalarni topadi, birinchi guruh esa uni izohlaydi. Izohlash jarayonida turli farqli fikrlar hosil bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi yakuniy xulosani berishi lozim.

INDONEZIYA – „orollardagi Hindiston“
LIVAN – „oq tog‘“
MAROKASH – „uzoq g‘arb“
PEKIN – „shimoliy poytaxt“
YAMAN – „yer cheti“
Manba: geografiya.uz/nomlar so‘zlaganda.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini yaratishda tasviriy ifoda qanday ahamiyatga ega? Odatda, qaysi so‘z turkumlarida ko‘proq tasvirlab ifodalash uchraydi?

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini beradi. Tasviriy ifoda ko‘pincha ot va sifat turkumiga mansub bo‘ladi.

2. „Osmonning ko‘z yoshlari qalbimga tomchilaydi“, gapi misolida tasviriy ifodaning inson ruhiyatiga bog‘liqlik jihatini izohlashga urining.*Osmonning ko‘z yoshlari – yomg‘ir, bu tasviriy ifodada obrazlilik, jozibadorlik kuchli bo‘lib, inson ruhiyatidagi sohir ma’yuslik go‘zal tarzda tasvirlangan.*

3. Tasviriy ifodalar qatori: *yaylov bahodirlari (cho‘ponlar), sportimiz malikalari (gimnastikachilar), asr vabosi (giyohvandlik), oq oltin ijodkorlari (paxtakorlar), charm qo‘lqop ustalari (bokschilar), kumush tola (pilla), zavod „noni“ (temir), yerning yopinchig‘i (osmon), oq chashma (sut), qo‘shiqlar mamlakati (Hindiston), yashil qit’a (Avstraliya), dunyo tomi (Pomir), kumush choyshab (qor), non shahri (Toshkent), baxt qushi (Humo), afsonaviy qush (semurg‘), ko‘kning fonusi (oy)...*

15.1 – 15.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun vazifa sifatida beriladi.

15.1-topshiriq shartiga ko‘ra, berilgan ma’nodosh tasviriy ifodalardan tanlab, matn tuziladi.

15.2-topshiriq. Rasm asosidagi tasviriy ifodalar ro‘yxati:

Hayvonlar (o‘rmon) qiroli; sahro kemasi, oynayi jahon (zangori ekran), po‘lat qush, dala malikasi.

ORTIQCHA QO‘SHIMCHALAR

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda grammatik qo‘shimchalar va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llashning ahamiyati haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni ona tilimizga, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, uning kelajagiga ishonch tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

16.1-mashq. Matnni tinglang. Siz matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz? Ikkinchi tinglashda ortiqcha qo‘shimchalarni aniqlang (*tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish*).

Yechim:

Sarlavha namunalari:

Qalbdagi bo‘rilar

Ezgulik va yovuzlik kurashi

Murosasiz olishuv

Ikki kuchning abadiy jangi

RIVOYAT

Keksa donishmand o‘z nabirasiga shunday hayotiy haqiqatini so‘zlab berdi:

– Har bir inson qalbida ikki kuch doimiy kurashishadi. Bu xuddi ikkita bo‘rining olishuvisiga o‘xshaydi. Bo‘rilarning birisini bejizga yovuzlik timsoli deyilmaydi: unda hasad, xusumat, g‘araz, alam, adovatsizlik, behurmatsizlik, xudbinlik, yolg‘on kabi illatlari mujassam. Ikkinchi bo‘ri esa ezgulik va yaxshilikni timsoli: unda mehr, muhabbat, saxovat, sadoqat, umid va ishonch kabi fazilatlar jamlangan. Har ikkisi o‘zaro murosasiz, betinimsiz olishadi.

Bobosining so‘zlaridan g‘oyat ta’sirlangan nabira biroz o‘ylanib turgach, so‘raydi:

– Oxirisida qaysi bo‘rini yengadi?

Donishmand tabassum bilan shunday javobni berdi:

– Qalbingdagi qaysi bo‘rining ko‘proq parvarishlasang, o‘sha yengib chiqadi.

16.2-mashq. Nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘ying.

Yechim: Mamlakat ishiga nafi eng ko‘p tegadigan toifa uch xildir: birinchisi bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo‘lsa, ikkinchisi botir, sheryuraklardir. Ular bo‘ri – yovga qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruhni so‘zamol kotiblar tashkil etadi.

Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolarni hal etishda yordamga keladi.

Botirlar qo‘liga qilich tutguday bo‘lsa, yov titroqqa tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishini osonlashtiradi. Undan mashaqqat tugunlari yechiladi. *(Yusuf Xos Hojib)*

16.3-mashq. Har bir qatorni nomlab, undagi ortiqcha qo‘shimcha larni olib tashlang.

Yechim:

1) kelishik qo‘shimchalari: -ga, -ning, -dan, -da, -ni, -ka.

2) ot yasovchi qo‘shimchalar: -paz, -bon, -soz, -chi, -don, -zor, -kash;

3) sifat yasovchi qo‘shimchalar: -li, -(v)iy, -simon, -mand, -siz, no-, -dor;

4) sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar: -ta, -(i)nchi, -tadan, -ala, -ov;

5) fe’lning nisbat qo‘shimchalari: -ar, -giz, -(i)n, -t, -(i)l, -tir;

6) ravish yasovchi qo‘shimchalar: -lab, -larcha, -cha, -ona, -an, -chasiga.

16.4-mashq. Testlarning yechimi:

1. C. Tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, qaratqich kelishigi.

2. B. Nafsini jilovlagan sulton bo‘lar.

16.5-mashq. Mumtoz she’riyat talabiga ko‘ra jo‘nalish kelishigi shakllarining qo‘llanilishiga e’tibor qiling. Bu shakllarni noto‘g‘ri qo‘llangan deya olasizmi? (*o‘qish, tinglab tushunish, gapirish*)

Izoh: ma’lumki, mumtoz she’riyatda qo‘shimchalarning qo‘llanilishi hozirgidan farq qiladi. Ularni noto‘g‘ri qo‘llangan deya olmaymiz. Qo‘shimchalar she’riy nutq talabi bilan ham noodatiy holatda qo‘llanilishi mumkin.

16.6-mashq. She’rlarni o‘qing. Badiiy asarlarda qo‘shimchalarni qo‘llash bilan sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga diqqat qilib, sababini izohlang (*o‘qish, tinglab gapirish*).

Izoh: ba’zan she’riyatda badiiy uslub talabi bilan qo‘shimchalar qisqarib yoki o‘z o‘rnini o‘zgartirib qo‘llanilishi mumkin. Masalan, qaratqich va tushum kelishiklari qo‘shimchalari badiiy uslubda, xususan, she’riyatda -n shaklida qisqargan holda qo‘llanilishi va matnga ekspressivlik, poetik ohang baxsh etishi mumkin. Yuqoridagi misollarda *olamg‘a, ko‘nglumdin* so‘zlaridagi qo‘shimchalar -ga, -dan qo‘shimchalarining eski tilimizdagi shakllaridir. *Manim* so‘zida -ning qaratqich kelishigi -im shaklida qo‘llangan. *Olibmi ketding, solibmi ketding* so‘zlarida qo‘shimchalar o‘zining odatdagi o‘rnida qo‘llanmagan. Aslida, *olib ketdingmi, solib ketdingmi* shaklida qo‘llanilishi kerak edi. Lekin bu yerda badiiy uslub talabi bilan ularning o‘rni o‘zgargan.

„Blits savol“ metodidan foydalanib, o‘quvchilardan quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi.

1. Ba’zan qo‘shimchalarni takror qo‘llashning o‘ziga xosligi nimada: sizningcha, bu to‘g‘rimi yo noto‘g‘rimi?

Badiiy nutq talabi va ifoda maqsadiga ko‘ra qo‘shimchalar takror qo‘llanishi mumkin.

2. Qo‘shimchalarning tejalishi, asosan, qaysi nutqiy uslubda ko‘proq uchraydi?

Qo‘shimchalarning tejalishi, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslublarda uchraydi.

Yechim: *O‘zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi Muhayyo Usmonovaning amaliyot ishlari uchun tutgan daftari.*

16.1–16.2-topshiriqlar uyga beriladi.

Tahrirlangan matn:

HARBIY POLIGONGA SAYOHAT

„Harbiy poligonda bir kun“ shiori ostida Surxondaryo viloyati Termiz shahri umumta’lim maktablarining bir guruh o‘quvchilari hududda joylashgan dala-o‘quv maydoniga tashrif buyurishdi. Mudofaa vazirligiga qarashli qismda xizmat burchini o‘tayotgan oddiy askarlarning poligondagi bir kunlik faoliyati, o‘tkazilayotgan jangovarlik ruhiyatidagi ma’naviy, axloqan-ruhan tayyorgarlik mashg‘ulotlarini kuzatish, mashqlarda bevosita ishtirok etish uchun kelgan yoshlar dala-o‘quv maydonida iliq kutib olindi. Yoshlardagi ilk harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda harbiylik sohasiga qiziqish uyg‘otish, Vatanning sarhadlarini himoya qilishning naqadar sharafli va mas’uliyatli vazifa ekanligini o‘g‘il-qizlar qalbiga singdirishdek ezgu maqsadlar ko‘zlangan sayohat mazmunli o‘tdi. Harbiy poligondagi birgina kun o‘quvchilarga olam-olam taassurot baxsh etdi. *(„Tong yulduzi“ gazetasidan)*

QO‘SHIMCHALAR TANLOVI

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda qo‘shimchalar va ularning turlari, ulardagi variantlilik, omonimlik haqidagi bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: ona tilimizning betakror imkoniyatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni tilimizga hurmat hamda muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda grammatik qo‘shimchalarni ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash va ularni hayoti davomida mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars qo‘shimchalarda variantlilik va omonimlik xususiyatlarini aniqlash hamda izohlashga yo‘naltiriladi.

17.1-mashqni bajarish tartibi:

1. Matn bilan tanishiladi. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalarning har ikkisi ham qo‘yilishi o‘rinli ekaniga diqqat qilinadi. Xalqimizga xos milliy an’ana haqida kichik suhbat tashkil qilinadi (*o‘qish, gapirish*).

MEHMONDORCHILIK

Erta turib olganimni ko‘rgan onam hayron. Bugun biznikiga mehmon kelishini kechayoq opam telefonda ammamga **aytayotganida (aytayotganidan)** bilib olganman. Onam qo‘limga savat tutqazdi. Zing‘illab tomorqamiz ortidagi sayhonlikka o‘tdim. Bu **yerga (yerda)** olmazor barpo qilganmiz. Biroz **bog‘ni (bog‘da)** aylandim. Uch yil oldin ekkan olma shoxlari mevasi **ko‘pligiga (ko‘pligidan)** yerga tegay-tegay deydi. Qip-qizil **pishganlarini (pishganlaridan)** saralab, savatni to‘ldirdim-da, uyga qaytdim.

… Ana dasturxon-u, mana dasturxon! Davra ham qizigandan qizidi. Otam ora-sira mulozamat qilib turibdi:

– Qani, **oshni (oshdan)** olinglar, yozilishib-yozilishib o‘tiringlar. Bugun shu yerda qolasizlar, hech qayoqqa ketish yo‘q.

Kelganlardan (kelganlarning) biri gapga ustaroq ekan:

– **Gapingizga (gapingizni)** tushundik, aka, mehmonning kelishi o‘z ixtiyorida, ketishi esa mezbonning ixtiyorida, demoqchisiz-da.

– Ha, yashang! – xursand bo‘ladi otam. – Mana uy, anavi yerda bog‘ bor. Shu yerda **turaverasizlar (turaveringlar).**

– Nasib qilsa, ikki oy ichida maktabning yangi binosini qurib bitiramiz. Bizdan qishloq bolalariga esdalik bo‘lib **qolsin (qoladi)**.

Eshitgan **yangiliklarimni (yangiliklarimdan)** jo‘ralarimga aytmasam bo‘lmaydi. Ko‘chaga otildim. **Sentabrdan (sentabrda)** yangi maktabda o‘qish boshlanadi!

17.2-mashq. „Mehmondorchilik“ matnida qo‘shimcha tanlash natijasida mazmunda o‘zgarish yuz berayotgani yoki mazmunga ta’sir qilmayotgani haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilar o‘rtasida bahs-munozara uyushtirish mumkin. O‘qituvchi munozara uchun quyidagi savollarni o‘rtaga tashlashi mumkin:

1. Bir qo‘shimcha turli ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkinmi?
2. Sinonim qo‘shimchalarni har doim almashtirib qo‘llash o‘rinli bo‘ladimi?
3. Qo‘shimcha tanlash nutq uslubiga bog‘liqmi?
4. Variantdosh qo‘shimchalar bilan ma’nodosh qo‘shimchalar qanday farqlanadi?

17.3-mashqda nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavsdagi mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplar yoziladi (*yozish)*.

1. Tanqidchi adabiyot bog‘ining bog‘bonidir, u butoqlar**ni** qaychilash**da** adashmasligi kerak. 2. Shoir va yozuvchilar**ning** asarlari**da** xalq**ning** yuragi urib turadi. 3. Yaxshi adiblar asarlari orqali inson qalbi ezgulikka to‘y**in**adi. 4. Qalam shun**day** qudrat**li** kuchki, uning haq so‘zini hech kim o‘chira olmaydi. 5. Iste’dodli ijod**kor**, aslida, hayotdan zavq**lan**adi. 6. Yozuvchining asar mazmuniga o‘zi duch kelgan voqealar**ni** ham singdirib yuborishi hayotiy**lik**ni ta’minlaydi.

14.4-mashqda she’riy misralar berilgan.

Yechim:

Shoir topilmalari	**Qo‘shimchaning grammatik xususiyati**	**Izoh**
odam**zor**	o‘rin-joy otini yasaydi	„Huvullagan odamzor“ birikmasi orqali shoir „odamlar o‘sib turgan bog“ da o‘z ruhining yolg‘iz sayrini ifodalagan.
ko‘ngilzor	o‘rin-joy otini yasaydi	Misrada dunyo insoniyat qalbida mavj urib turuvchi tug‘yonlardan iborat ekaniga ishora qilingan.
zamonsoz	sifat va ot yasovchi omonim qo‘shimcha	Bu o‘rinda „zamonsoz yuz“ ifodasi orqali shoir zamonga moslashib oladigan „buqalamun“ kimsalarga nisbat beryapti.
menshunos	shaxs otini yasaydi	Muallif o‘z „men“i – o‘z qobig‘i bilan ovora odamlarni nazarda tutgan.
ko‘ngilbozlik	faoliyat-jarayon otini yasaydi	Shoir inson ko‘ngli bilan o‘ynashishdek razil illatni „ko‘ngilbozlik“ deb nomlagan.
nag‘makor	ham sifat, ham ot yasovchi omonim qo‘shimcha sanaladi	Bu yerda so‘zning turfa ohang bilan tovlanishi haqida fikr yuritilmoqda.

Qo‘shimcha turi	Xususiyati	Misollar
Variantdosh qo‘shimcha	Bir qo‘shimchaning turli ko‘rinishlari	*yurtga – beshikka – bog‘ga – qayiqqa – dunyog‘a – kima; olamdan – olamdin; kelyapti – kelmoqda – kelayotir*
Ma’nodosh qo‘shimcha	Bir umumiy ma’noga ega	*badavlat – davlatli – davlatmand; kelganiga xursand – kelganidan xursand; eshikdan sig‘madi – eshikka sig‘madi*
Omonim qo‘shimcha	Shakli bir xil, ma’nosi turlicha	*ishsiz odam – suvni ichasiz – to‘xtovsiz yugurmoq; to‘lqin kuchi – sotqin kishi – bolani boqqin; o‘qqa uchmoq – qisqa gap – kirni chayqa(moq)*

17.5-mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. A. O‘z vaqtida yetib kelganing(-ga, -dan) xursand bo‘ldim.

Izoh: bu gapda qo‘shimchalar ma’nodoshligi mavjud; *yetib kelganiga* va *yetib kelganidan* so‘zlarining har ikkalasiga *nima sababdan*? degan so‘roqni bera olamiz. Har ikkala qo‘shimcha sabab ma’nosini ifodalashga xizmat qilmoqda.

2. B. Malol kelmasa agar, eshikni narigi tomonidan yopsalar. *(Said Ahmad)*

Izoh: shart mayli *-sa* qo‘shimchasi („yopsalar“) qo‘shimchasi buyruq ma’nosi bilan birga kinoyani ham ifodalamoqda.

17.6-mashq. Gaplar o‘qiladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi „noodatiy“ qo‘shimchalarni aniqlab, qo‘llanish sababi tushuntiriladi (*o‘qish, gapirish*).

1. Bu gapning oxiriga **so‘rov** belgisini qo‘y. 2. She’r shunday sho‘xshanlansin, bo‘lolmasin o‘xshashi, Fikr kunday ravshanlansin, **qoralmasin** quyoshi. *(G‘. G‘ulom)* 3. Do‘rmanchaga ketdim o‘tib, Yoqamni har soat tutib, Yotdim ul oqshom g‘am yutib, Dashti **qaroqchizor** ekan. *(Muqimiy)* 4. Har ko‘cha obod, hamon men turfa vayron ko‘chamen, Yozda **changiston-u** qishda **balchig‘iston** ko‘chamen. *(E. Vohidov)* 5. Ne baxt, **Quyoshiston** ta’rifli diyor Nurli peshanamga bo‘libdi nasib. *(E. Vohidov)* 6. **Manim** peshanamga nelar yozilgan. Saltanatning taqdiri na bo‘lur, qay birini bilasiz? *(Odil Yoqubov)*

Izoh: ushbu gaplarda qo‘llangan noodatiy qo‘shimchalar badiiy uslubda obrazlilikni ta’minlashga xizmat qilgan.

„Tezkor savol-javob“ metodidan foydalanib o‘quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi.

1. *Labing qirg‘og‘idan oqqan zaharni Ko‘z yummayin* ***ichgum****, beshubha. (Shekspir) –* ***Ichgim*** *keldi zilol suvingdan. (M. Yusuf)*

Izoh: birinchi gapda – *ichaman* ma’nosida (I shaxs birlik, fe’lning kelasi zamon shakli); ikkinchi gapda – harakat nomi (I shaxs birlik, egalik shakli).

3. *Valijon – ilon yog‘ini yalagan yigit. – Valijon – ilonning yog‘ini yalagan yigit.*

Izoh: *ilon* so‘zi qaratqich kelishigi shaklida qo‘llansa, ibora (ilonning yog‘ini yalagan – ayyor) hosil bo‘ladi.

17.1 – 17.2-topshiriqlar uyda bajarish uchun beriladi.

Tahrirlangan matn

Nuriddin Yanisning bu gaplarini fahm etmadi, tushunmaganini yashirmay so‘radi:

– Odamlar bo‘riga o‘xshasa, deysizmi?

– Ha, bo‘riga o‘xshasa... Bo‘rilar odamlar kabi bir-birlarini g‘ajimaydilar. Ular ahil-totuv yashaydilar. Ular ozodlikni hech nimaga alishmaydilar. Bunday ahillik, bunday mag‘rurlik boshqa hech bir jonzotda yo‘q. Sen sirkda bo‘rini o‘ynatganlarini hech ko‘rganmisan? Ha, ko‘rmagansan. Fildan tortib to ilonga qadar bir luqma ovqat uchun insonlarga masxara bo‘ladi. Faqatgina bo‘ri bo‘ysunmaydi. Sen turkiylardansan. Ajdodlaring e’tiqod qilgan ramz nima bo‘lganini bilasanmi? Qurt, ya’ni bo‘ri. Turkiylar bayrog‘ida bo‘ri tasviri bo‘lgan, deb eshitganman. Turkiylar qadimda shunday erksevar bo‘lgan ekanlar. E, u zamonlar o‘tib ketdi. – Yanis shunday deb xo‘rsindi… *(T. Malik)*

Xulosa: turkiylar erksevar xalq bo‘lganlar, bugungi avlod ham o‘z ajdodlariga munosib voris bo‘lishlari kerak.

NUTQDA SHAKL VA MAZMUN MOSLIGI

Ta’limiy maqsad: nutqda shakl va mazmun mosligiga doir yangi bilim berish hamda matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda mantiqan to‘g‘ri fikr yuritish va so‘zlash malakasini shakllantirish.

Darsning tashkiliy qismi o‘tkazilgandan keyin uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida nutqda shakl va mazmun mosligiga doir nazariy va amaliy bilim beriladi.

18.1-mashq. Matnni o‘qing. Gaplarni mazmuniga mos holda qavs ichida berilgan so‘zlardan mosi bilan to‘ldiring.

Yechim: Mustahkam do‘stlik **munosabatlari** – hayotda baxt va shodlikka erishishning ishonchli vositalaridan biri.

Yaqinda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, do‘st va qarindosh-urug‘i mo‘l odam ko‘proq **kularkan,** kamroq **xavotirga tusharkan** va natijada uzoq umr ko‘rarkan.

Bolaligimda otam: „Uchta yaqin do‘sti bor odam – haqiqiy badavlat odam“, – deya tez-tez takrorlab turardi. Men bu **naqshinkor fikrni** hech qachon yodimdan chiqarmayman, sizga ham unga jiddiy munosabatda bo‘lishni **tavsiya qilaman**. Ba’zan mustahkam do‘stlik aloqalarini o‘rnatish uchun qulay muhit-sharoitni tark etishga, o‘zingiz unchalik yaqindan bilmagan kishilar bilan **azoblanishga** va samimiy munosabat o‘rnatishga to‘g‘ri keladi. Agar do‘stlik **urug‘ini** eksangiz, albatta, ajoyib do‘stlar timsolida **mo‘l-ko‘l** hosil yig‘ib olasiz.

Davralarda o‘zingiz tanishishni istagan odamning yoniga boring, o‘zingizni tanishtiring. Har qanday inson zotida mehrga, samimiyatga ehtiyoj bor, shu sababli ko‘pchilik sizning tashabbusingizdan **mamnun bo‘ladi**. Agar tanishishni istamagan taqdirda ham nima bo‘libdi? Menga ro‘yxushlik bermadi, deb **siqilmang**. Bu odam nimani yo‘qotganini o‘ylab ko‘ring-da, mulozamat bilan keyingi suhbatdoshga o‘ting. (*Robin Sharma*)

18.2-mashq. Gaplarni ixchamlashtiring. She’riy parchalarni sodda gaplarga aylantirib yozing (*o‘qish, yozish*).

Dushmaning bilan o‘tirgan odamdan uzoq bo‘l.

Ey do‘stim, sensiz bu jahon menga qayg‘uli, shodligim ham tatimaydi.

O‘ziga ravo ko‘rmaganni yori (do‘sti)ga ham ravo ko‘rmagan inson haqiqiy yor (do‘st)dir.

Do‘st bilan vayrona uying ham oboddir.

Do‘sti ko‘pning qaddi bukilmaydi, mard odam mol-u jondan kechsa ham, do‘stidan kechmaydi.

Ayrim sotqin do‘stlardan ko‘ra baland daraxtlar azizroq, qadrliroqdir.

18.3-mashq. Sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring.

– Do‘st deganda shunday odamni bilginki, u senga go‘yo oyna bo‘lsin.

– Agar sendan birov yuz o‘girsa, sen ham uni unut.

– Haqiqiy do‘stdan yaxshi shifokor yo‘q, chunki u qalb jarohatlarini davolaydi.

– Haqiqiy do‘st shunday odamki, u sening yutuqlaringdan quvonadi.

– Kimning sodiq do‘stlari bor bo‘lsa, u inson chinakam baxtlidir.

– Haqiqiy do‘st bo‘lsang, yaxshilikni u senga muhtoj bo‘lmasidan qil.

Fikrni ixcham ifodalash – madaniy nutq belgisi. Shuning uchun ilmiy matndagi so‘zlar, gaplar miqdorining yuqori chegarasi belgilab beriladi, quyi chegara ko‘rsatilmaydi. Fikrni uzun yoki ko‘p jumlalar bilan ifodalash, ko‘pincha, ijobiy qabul qilinmaydi. Shuning uchun gaplarni ixchamlashtirish, matn mazmunini qisqa ifodalash madaniy nutq mezonlaridan hisoblanadi.

Boshlab qo‘yilgan, uzilib qolgan jumlani mantiqan va usluban to‘g‘ri davom ettirish ham so‘zlovchining mahorati hisoblanadi.

18.4-mashq. Gaplardagi g‘alizliklarni bartaraf qiling.

Namuna: Aqli ko‘pni dov olmas, do‘sti ko‘pni yov olmas.

Yechim:

1. Aqli ko‘pni dov olmas, do‘sti ko‘pni **yov** olmas.
2. Do‘stlik do‘sti uchun **o‘z manfaatlaridan voz kechish**, fidokor bo‘lish hamda xudbinlik illatidan ozod bo‘lishdir.
3. **Yot** oshingga qaraydi, do‘st – boshingga.
4. Kimlarningdir kulgisi va rohatini deb do‘stingizni mazax qilish **xayolingizga kelmasin,** chunki bu do‘stingizga juda og‘ir botadi.
5. Dushmaningdan yashirganingni do‘stingga aytma, zero, do‘stlikning **abadiyligiga** kafillik yo‘q.
6. Do‘stlik ishonchsizlik boshlangan joyda o‘z **intihosiga** yetadi.

18.5-mashq. Gaplarni musobaqa tarzida davom ettiring.

1. Chinakam do‘st aytgan har bir o‘git sirti zahar bo‘lsa-da, **ichi asaldir**.
2. Dushmaningga ham shunday samimiy munosabatda bo‘lginki, **u ham do‘stingga aylansin.**
3. Kimki farovon kuningda do‘stlikni da’vo qilsa, **u haqiqiy do‘st emas.**
4. Boringni bir yo‘la sochma do‘stga ham, **u ham bir kuni dushmanga aylanishi mumkin.**
5. Xiyonatkor do‘st – qo‘yningdagi ilon, **sodiq do‘st – belingdagi xanjar.**
6. Do‘stlar bilan suhbatlashayotganda ham hushyor bo‘l, **ularning ham o‘z do‘stlari bor.**

18.6-mashq. Gaplarni ixchamlashtiring.

Haqiqiy do‘st tubsizlikka tushib ketishingga yo‘l qo‘ymaydigan insondir.

Hiyla ishlatadigan g‘addor do‘st dushmandan yomon.

Ota-onasiz o‘zini g‘arib sezgan, dili kemtik kishining qarindosh-urug‘lar qatoridagi mehribon odami bu do‘stdir.

Dushmanlarim otgan toshdan emas, do‘stlarim otgan guldan boshim yorildi.

Ko‘zlarim uchun do‘stlarim manzarasidan-da mahbubroq, quloqlarim uchun do‘stlarim haqidagi xushxabardan-da yaxshiroq musiqa yo‘q.

Agar dushman orasida nizo, jang bo‘lsa, xotirjam bo‘l, yovlarning tili bir bo‘lganda esa, hushyor bo‘l.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida umumlashtiriladi.

1. Matn mazmunini qisqa ifodalashda gaplarni ixchamlashtirishning qanday yo‘llari bor?

Ortiqcha cho‘zib yuborilgan, g‘aliz jumlalarni qisqartirish, keraksiz tafsilotlarni matndan chiqarish, so‘z birikmalarining gap mazmuniga mos keladigan ixcham va mazmundorini tanlay bilish katta ahamiyatga ega. Nutqiy ifodalarni ixchamlashtirish yuzasidan matnga kiritiladigan tuzatishlarini ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) tasvir doirasidagi tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlashtirish;

2) tafsilotlarni saqlagan holda matnni ixchamlashtirish.

Tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlash – ikkinchi darajali qisqartirish hisoblanib, matnning umumiy mazmuniga ortiqcha ta’sir qilmaydigan narsa – hodisalar talqinining matndan chiqarib tashlanishidir.

2. *Har qanday inson zotida qahrga, samimiyatga ehtiyoj bor* gapidagi ortiqcha so‘z olib tashlansa, fikr mazmuni qanday o‘zgaradi?

Qahrga so‘zi olib tashlansa, insonning faqat ezgulikka talpinib yashashi haqidagi ma’no anglashiladi.

3. Berilgan nasriy bayondagi fikrni she’riy jumlaga aylantirishga harakat qiling. *Do‘stlik shunday bir daraxtki, urug‘i vafo, shoxlari umid, yaproqlari saodatdir. Do‘stlik bir shahardirki, kaliti ishonch, aholisi vafodorlardir. Do‘stlikni o‘z hayotingizdan haydab solish – zaminni quyoshsiz qoldirish bilan barobar.*

Namuna: Do‘stlik go‘yo daraxt, urug‘i – vafo,
Shoxlari umiddir, yaproq - saodat.
Do‘stlik shahar bo‘lsa, kaliti - ishonch,

Vafodor ahliga yashash – farog‘at.
Aslo haydab solmang do‘stlik ne’matin,
Quyoshsiz zaminni tutmasin zulmat.

18.1- va 18.2-topshiriqlar uyda mustaqil bajarish uchun beriladi.

Yechim:

Parchaning janrini masal deb nomlash mumkin. Muallif insoniy hamdardlik, mehr-oqibat, sadoqat tuyg‘usi haqida fikr yuritgan.

Bahor chog‘i gulga burkanganimda boshim ustida bolarilar g‘ujg‘on o‘ynab, alyor aytdi.

Yoz pallasi yaproqlarim zumraddek tovlanganda qushlar shoxlarimda panoh topib, oshyon qurdi.

Saraton oftobi olamni yondirganda yo‘lovchilar soyamdan bahramand bo‘lib, jon saqladi.

Kuz kelib, mevalarim g‘arq pishganda odamlar uzib, to‘yguncha tanovul qildilar.

Nogahon bir nomard tanamga bolta urgan edi, sendan boshqa hamma har yoqqa qochdi-ketdi!

TINISH BELGILARINI TO‘G‘RI QO‘LLASH

Ta’limiy maqsad: tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashga doir yangi bilim berish hamda matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda milliy an’ana va urf-odatlarimizni qadrlash hissini kuchaytirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash orqali to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash va shu asosda talaffuz me’yorlarini o‘zlashtirish malakasi shakllantiriladi.

19.1-mashq. „O‘rdak emas, burgut bo‘ling“ matni o‘qiladi. Unda ishlatilgan tinish belgilarining qo‘yilish sabablariga diqqat qilinadi (*o‘qib tushunish va gapirish*).

19.2-mashq. Tinish belgilarini qo‘yib parchani ko‘chiring. Masallardan xulosa chiqarib, uni qisqa sarlavha shaklida yozing (*tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish*).

Yechim:

Har narsada hikmat bor

1. Yo‘l yoqasida bir gadoy tilanchilik qilib turar edi. Bir otliq odam

yonidan o‘tib ketayotib, qamchisi bilan uni bir urdi va yo‘lida davom etdi. Gadoy uning orqasidan qarab:

– Baxtli bo‘l, – dedi. Buni ko‘rib turgan bir yo‘lovchi:

– U seni ursa-yu, sen unga baxt tilasang, bu qanaqasi? – deb so‘radi.

Shunda tilanchi:

– Agar u baxtli bo‘lsa, meni urmas edi, – deb javob berdi.

Hayot tajribasi

2. Katta Mushuk dumi bilan o‘ynayotgan mitti Mushukchadan so‘radi:

– Nega dumingni quvlayapsan?

Mushuk javob berdi:

– Bir mushuk uchun eng asosiy narsa baxt ekanligini, baxt esa dumimdaligini bildim. Dumimni tutganimda, albatta, baxtga erishaman.

Shunda katta Mushuk:

– Yoshligimda men ham dumimni baxt deb bilardim, keyinchalik shuni anglab yetdimki, uni quvlasam, mendan uzoqlashadi, aksincha, qachon o‘z ishim bilan xotirjam ovora bo‘lib yursam, doimo izimdan ergashadi, – dedi mitti Mushukchaga.

19.3-mashq. Tinish belgilari qo‘llanishidagi xatoliklarni aniqlang.

L.N.Tolstoy mulohazalari asosida o‘zingizning baxt to‘g‘risidagi tasavvuringizni bir jumlada bayon qiling.

1. Odamning eng baxtli chog‘i – boshqalarga yaxshilik qilgan onlari.

2. Og‘ir baxtsizliklar uzoq cho‘zilmaydi, maydalari esa e’tibor berishga arzimaydi.

3. Hayotda faqat birgina chinakam baxt bor, u ham bo‘lsa, boshqalar uchun yashamoqlikdir.

4. Haqiqiy baxt daryoga o‘xshaydi: qanchalik chuqur bo‘lsa, shunchalik shovqinsiz oqadi.

5. Agar baxtli yashashni istasangiz, baxtni maqsadga bog‘lang, odamlar yoki narsalarga emas.

6. Baxtli oilalar bir-biriga juda o‘xshaydi, ammo baxtsiz oilalarning har biri o‘zicha baxtsiz.

Namunalar:

Baxt – hayotda borligim, yashash zavqini tuyayotganim.

Baxt – yaqinlarimga kerakligim, hayotda o‘z o‘rnimga ega ekanligim.

Tinish belgilari yozma nutqda gap mazmunidan kelib chiqqan holda qo‘llanadi. Ularni qo‘llash gap mazmuni va qurilishiga ta’sir qiladi. Tinish belgilari gap mazmuni aniqligining shartidir.

19.4-mashq. Tasviriy matndagi tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ifodali o‘qiladi. Insonning umr fasllari haqida mulohaza yuritiladi.

Tong.
Quyoshli ufq.
Maysazor.
Maysazorda kunning go‘dakligi
Emaklaydi qiyqirib.
Yuragida umid g‘unchasi,
Yuzlarida quvonch chechagi,
Ko‘zlarida omad shu’lasi.
Tush.
Maysazor.
Maysazorda o‘spirin kun
Halloslaydi sher misol.
Yuragida shiddat to‘foni,
Yuzlarida hayrat gulxani,
Ko‘zlarida g‘ayrat chaqmog‘i.
Shom.
Maysazor.
Maysazorda sukunat sayri.
Keksaygan kun
Yonboshlaydi qirga hansirab.
Yuragida xayol to‘lqini,
Yuzlarida hasrat uchquni,
Ko‘zlarida armon buluti. (*N. Norqul*)

Izoh: inson umrini yil fasllariga qiyoslash uning tabiat bilan mushtarakligidan dalolatdir. Bahor – yoshlik, yoz – yetuklik, kuz – keksalik, qish – umr poyoni, deya ta’riflanadi.

19.5-mashq. Testlarning yechimi:

1. **D**. Ikki nuqta, qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta.

„Urush va tinchlik“ romanining bir joyi bor: „Biz birovlarni bizga qilgan yaxshiligiga qarab emas, o‘zimizning ularga qilgan yaxshiliklarimizga qarab yaxshi ko‘ramiz“, deyilgan. (T.Sodiqova)

2. B. „Baxt“ o‘zi nimadir, anglay olmadim.

19.6-mashq. Gap juftliklaridagi tinish belgilarini qo‘llash bilan bog‘liq mazmuniy o‘zgarishlar aniqlanadi.

1. Baxtli-taxtli bo‘lgin, onang kabi baxtsiz bo‘lma. – Baxtli-taxtli bo‘lgin onang kabi, baxtsiz bo‘lma.

Onang kabi baxtsiz bo‘lma. – Onang kabi baxtli-taxtli bo‘l.

2. Hoy ahmoq, o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali? – Hoy, ahmoq o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali?

Ahmoq – undalma vazifasida kelgan. **– Ahmoq** (sifatlovchi) **o‘g‘il.**

3. Yigit boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas. – Yigit, boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas.

Yigit (sifatlovchi) **boshingdan. – Yigit –** undalma**.**

4. Erta tong. Yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar. – Erta tong yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar.

Erta tong – atov gap. **– Erta tong(da)** hol vazifasida kelgan**.**

Mavzu savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

1. Qaysi tinish belgilari qo‘shaloq holda ishlatiladi?

Qo‘shtirnoq („“), ikki nuqta (:), ba’zan undov belgisi (!!).

2. Nashriyot ishlarida qisqartirilgan so‘zlar qanday tinish belgilari bilan qo‘llanadi?

Nuqta (.) qo‘yiladi: A.Oripov, A.Qod., h.k., shu k.

3. Inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘rinlarda qanday tinish belgilarini ishlatasiz?

Ko‘p nuqta (…), undov belgisi (!).

19.1 – 19.2-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: matnda shakl va mazmun mosligiga doir bilimlarni matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ziyraklik, o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda matn turlarini farqlash, asosiy fikrlarni ilg‘ay olish, xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida matn turlarini farqlay bilish, asosiy fikrlarni ilg‘ay olish, to‘g‘ri baholash va xulosalash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

20.1-mashq. Matnga qo‘yiladigan talablar bilan tanishiladi.

1. Mos sarlavha qo‘yish.
2. Matndagi asosiy fikr(lar)ni anglab olish.
3. Matn turi va unga xos belgilarni aniqlash.
4. Matn ijodkorining mahoratini belgilash.
5. Matnning til xususiyatlarini aniqlash: muallifning so‘z tanlay olish mahoratini baholash va lug‘at bilan ishlash.
6. Fikr mazmunini bir jumlada xulosa sifatida ifodalash.

20.2-mashq. Matn turlari va ularning tahlili bayon etilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqiladi va mulohaza yuritiladi *(gapirish)*.

20.3-mashq. Berilgan matnning tahlilini tayyorlang. Uning asosiy g'oyasi haqida fikringizni bildiring.

XXI asrda muvaffaqiyat qozonish uchun qanday ko'nikmalar ustida ishlash kerakligini bilasizmi? „Men doimo uddalash qiyin bo'lgan ishni qilaman. Shundagina men uni qanday bajarish mumkinligini bilib olaman", – deb yozgan edi Pablo Pikasso. Ishda yuksalish, baxtiyor yashash va muvaffaqiyatga erishishda quyidagi ko'nikma va qobiliyatlarning o'rni yuqori: - kreativlik, ijodkorlik, ijodiy yondashuv; - tanqidiy fikrlash; - murakkab muammolarni hal qilishga ko'p yechimli yondashuv; - odamlarni boshqarish ko'nikmasi (menejment); - hissiy aql-zakovat (intellekt); - muzokara olib borish qobiliyati; - odamlar bilan o'zaro samimiy muloqot (kommunikativlik). Maktab partasidanoq ushbu ko'nikmalarni egallashga va o'rganishga urinish yorqin kelajagingiz garovi bo'lishi mumkin. (*Internet ma'lumotlaridan)*	***Sarlavha:*** „Yorqin hayot garovi". ***Asosiy fikr:*** shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonishga intilish uchun motivatsiya berish. ***Matn turi:*** muhokama. ***Ijodkor mahorati:*** hayot pillapoyalaridan mustaqil va mustahkam ko'tarilish uchun zarur ko'nikmalarni tavsiya qilish. ***Matnning tili:*** kreativlik, ko'p yechimli yondashuv, intellekt, muzokara olib borish qobiliyati, kommunikativlik. ***Xulosa:*** „Hayotga maktab partasidan tayyorlan!"

20.4-mashq. Matnlar tahlili:

I. Sarlavha: „Aftoda daraxt".

Asosiy fikr: izg'irinda qolgan daraxt ahvolini aks ettirish.

Matn turi: tasviriy matn.

Ijodkor mahorati: tabiat tasviri orqali inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish.

Matnning tili: shams – quyosh, qavs – burj nomi, aftoda – xafahol, g'amgin.

Xulosa: „Adirda aftoda yashar bir daraxt".

II. Sarlavha: „Piyola va ishq".

Asosiy fikr: insonga hayot bir bora beriladi, ikkinchi imkoniyatga esa barcha haqli.

Matn turi: hikoya matni.

Ijodkor mahorati: mavlono Rumiyning go‘zal lutfi hayotsevarlikka undaydi.

Matnning tili: nimtabassum – yarim tabassum, jilmayish;
tark qilmoq – voz kechmoq.

Xulosa: „Hayot davom etadi, to‘xtab qolmaydi“.

20.5-mashqni bajarish tartibi:

1) matn o‘qiladi va turi aniqlanadi (*o‘qish, gapirish*);

2) unga sarlavha topiladi (*yozish*).

Sarlavha: „Umid“.

Asosiy fikr: umid hech qachon insonga xiyonat qilmaydi, undan ajralmaydi. Hamma undan manfaatdor.

Matn turi: hikoya matni.

Ijodkor mahorati: rivoyat orqali qahramonning aql darajasi, hayot tarziga ishora qiladi.

Xulosa: „Umid doimo hamrohingiz bo‘lsin“.

20.6-mashq. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linib, har bir guruh quyida berilgan so‘zlardan foydalanib, matn yaratsin.

1-guruh: hikoya matni.

2-guruh: tasviriy matn.

3-guruh: muhokama matni.

Tavsiya etiladigan so‘zlar: mehr-oqibat, jonsarak, himmat, momaqaldiroq, to‘la-to‘kis, obod, mushtarak, avaylamoq, fidokor, jasorat, qadr-qimmat, yetakchi, olqishlamoq.

20.1- va 20.2-topshiriqlar uyga beriladi. Dars yakunlanadi.

Yechim:

Matn tahlili:

1. **Sarlavha:** „Shaxsiy kundalik“.

2. Asosiy fikr(lar): shaxsiy kundalik yuritishning foydaliligi yuzasidan mushohada yuritish; kundalik inson tasavvurini boyitishga yordam beradi, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

3. Matn turi: muhokama matni.

4. Ijodkor mahorati: kundalik yuritishning foydali jihatlarini qiziqarli bayon qilgan.

5. Matnning tili (lug‘at bilan ishlash): *peshlaydigan* – tartibga soladigan.

6. Xulosa: „Hayotingiz o‘ylashga arziydimi, demak, yozish kerak“.

MUSTAHKAMLASH DARSI

Ta’limiy maqsad: shakl va mazmun mosligiga doir tushunchalarni matn va topshiriqlar asosida mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: ilm egallash, bu yo‘lda sabr va iroda kuchini tarbiyalash tuyg‘usini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda o‘z dunyoqarashini kengaytirish va mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars yuzasidan berilgan barcha materiallar „Nobel mukofoti“ mavzusiga oid bo‘lganligi uchun ushbu darsni „Konferensiya“ usulida o‘tish tavsiya etiladi. Buning uchun darslikdagi mashqlar, topshiriqlar va savollar oldindan o‘quvchilarga taqsimlanadi hamda ularning o‘zlari ham ma’lumotlarni qo‘shimcha boyitishlari talab qilinadi.

1-topshiriq. Matnning audio shakli tinglanadi (*tinglab tushunish*).

2-topshiriq. Dars davomida quyidagi savollarga javob topish vazifasi oldindan beriladi::

1. Olim o‘z mukofoti qaysi fan vakillariga berilmasligini vasiyat qilgan?

Olimning vasiyatiga ko‘ra, Nobel mukofoti matematiklarga taqdim etilmaydi. Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Leffler qirol Oskar II ga murojaat qilib, matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis ettirgan va Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan. Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblagan hamda o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.

2. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan mashhur insonlardan kimlarni bilasiz?

Aziz Sanjar – biokimyo va biofizika professori (AQSH)
Aleksandr Isayevich Soljenitsin – rus yozuvchisi
Romen Rolland – fransuz yozuvchisi, musiqashunos, jamoat arbobi
Pablo Neruda – chililik shoir, diplomat
Najib Mahfuz – arab yozuvchisi (Misr)
Pasternak Boris Leonidovich – rus shoiri

3-topshiriq. Quyidagi izohlardan matnda ajratilgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini aniqlab, imlosini yodda tuting.

1) **fond** – davlat, muassasa va shu kabilarning muayyan maqsad uchun ajratilgan puli, mablag‘i, moddiy boyliklari; jamg‘arma; qat’iy, barqaror daromad keltiruvchi qimmatbaho qog‘ozlar;

2) **an’ana** – hayotda qaror topgan, topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar;

3) **bank** – kredit-moliya muassasasi;

4) **akademiya** – ilm-fan yoki san’atni rivojlantirishga hissa qo‘shgan malakali olimlariga ega bo‘lgan oliy ilmiy muassasa;

5) **nominatsiya** – ijodkorlik, ish-faoliyat sohasi bo‘yicha musobaqa-tanlovlarga nomzodlar ko‘rsatish va g‘olibni aniqlash jarayoni.

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Noto‘g‘ri qo‘llangan qo‘shimchalarni topib, tahrir qiling va ko‘chiring (*o‘qish, gapirish, yozish*).

Yechim: Dunyoning g‘aroyib mukofotlaridan biri Shnobel (Ignobel) mukofoti bo‘lib, u nufuzli Nobel mukofotining teskarisi sanaladi. Bu mukofot 1991-yilda ta’sis qilingan va shubhalili, hayotda qo‘llanilmaydigan ilmiy kashfiyotlar uchun beriladi.

Qizig‘i shundaki, g‘olibga nominantlarning soxta va kulgili ilmiy yutuqlari mohiyati aks etgan haykalcha hamda allaqachon muomaladan chiqarilgan 10 trillion Zimbabve dollari topshiriladi. (*Internet ma’lumotlaridan*)

5-topshiriq. Testlarning yechimi:

1. C. Nobel o‘z mol-mulkini o‘limidan so‘ng fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga mukofot tariqasida berishni vasiyat qilgan edi.

2. D. Alfred Nobelning Beatrisa Chenchi haqida „Nemeziada“ nomli 4 aktdan iborat she’riy pyesa yozgani ma’lum.

6-topshiriq. Matndagi qo‘shma gaplarni aniqlab, sodda gaplarga aylantiring. Tinish belgilarining qo‘yilishi sababini izohlang.

Yechim:

Qo‘shma gap	Sodda gap shakli
Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Leffler qirol Oskar II ga murojaat qilib, matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis ettirgan va Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan.	Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Lefflerning qirol Oskar II ga murojaati asosida matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis etilgani Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan.

Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblagan hamda o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.	Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblab, o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.

Mavzu savol va topshiriqlar asosida umumlashtiriladi.

1-vazifa yechimi: dinamit ixtirosi tufayli boyib ketgan, aslida, tinchliksevar bo‘lgan Alfred Nobel mablag‘ini beshta soha vakillari kashfiyotiga bag‘ishladi. Uning maqsadi, asosan, „amaliy“ foyda keltirgan olimlarni rag‘batlantirish bo‘lgan. Nobel mukofoti fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga beriladi.1968-yilda Shvetsiya davlat banki o‘zining 300 yilligi munosabati bilan iqtisod fanlari sohasidagi yutuqlar uchun beriladigan qo‘shimcha Nobel mukofotini ta’sis etgan.

1888-yilda Alfredning ukasi Lyudvig Kannda vafot etadi. Bir fransuz gazetasi yanglishib ixtirochiga bag‘ishlab, „Le marchand de la mort est mort“ – „O‘lim savdogari o‘ldi“ sarlavhasi ostida ta’ziya e’lon qiladi. Nobel chuqur hayratda qoladi, chunki u halokatli portlovchi moddaning ixtirochisi sifatida insoniyat xotirasida qolishni istamasdi. Ko‘pchilik Nobel aynan shuning uchun ham butun mol-davlatini ilm-fanga vasiyat qilib yuborgan deyishadi, ya’ni u o‘limidan keyin o‘zini reabilitatsiya qilinishini va ismi o‘lim keltiradigan portlovchi modda ixtirochisi sifatida emas, balki nufuzli ilmiy mukofot ta’sischisi sifatida yodga olishlarini istagan.

2-vazifa yechimi: Gabriel Garsia Markes, Ernest Xeminguey, Robindranat Tagorlar adabiyot sohasida Nobel mukofotiga erishgan buyuk yozuvchilardir.

ISH QOG‘OZLARI BILAN ISHLASH

Ta’limiy maqsad: matn va topshiriqlar asosida ish qog‘ozlarini yuritishga doir tushunchalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: savodxonlik insonni yuksaltiruvchi omillardan biri ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda ish qog‘ozlari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Darsning tashkiliy qismi o‘tkazilgandan keyin uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Darslikda berilgan matn va topshiriqlar asosida ish qog‘ozlarini yuritishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi.

21.1 – 21.2-mashq. Bayonnoma matni bilan tanishib chiqiladi. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qilinadi (*o‘qish va gapirish, yozish*).

21.3 – 21.4-mashq. Bayonnomadan ko‘chirma matni bilan tanishiladi. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qilinadi (*o‘qish, gapirish, yozish*).

21.5-mashq. Berilgan shaxsiy va rasmiy xat namunalari bilan tanishiladi (*o‘qish*). Ularning o‘xshash va farqli tomonlari VENN diagrammasida ifodalanadi (*gapirish, yozish*).

Izoh: shaxsiy xatlar kishilarning shaxsiy hayotiga tegishli bo‘lib, uning qolipi majburiy emas. Rasmiy xatlar esa idoralararo, davlatlararo munosabatlar uchun xos bo‘lgan yozma hujjat sanaladi.

21.6-mashq. Mashqning izohi.

Tavsiyanoma yuridik yoki jismoniy shaxslarga beriladi. Uning maqsadi shaxsga ishonch bildirib, uni biror lavozim-mansabga, tegishli ish joyiga yoki o‘qishga tavsiya qilishdan iborat.

Tavsiyanomaning tuzilishi:

Tavsiyanoma muallifining ma’lumotlari.

Asosiy matn (tavsif).

Sana, imzo, ism-sharif.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar bajariladi.

1. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo‘ladi?

2. Elektron hujjatlar „Maykrosoft!“ („Microsoft“)ning qaysi dasturlarida tayyorlanadi?

World Wide Web xizmati (WWW) hamda **Elektron pochta (E-mail)** kabi dasturlardan foydalaniladi. **WWW** xizmatini, odatda, Internet bilan tenglashtiradilar. Aslida, WWW xizmati – bu Internetning ko‘p tarmoqli xizmatlaridan biridir.

Elektron pochta (E-mail). Bu xizmat turi ham dastlabki elektron xizmatlardan hisoblanadi. Internetda uni ta’minlash uchun maxsus pochtali serverlar ishlatiladi. Internetda bitta kompyuter bir nechta server va har xil xizmatlar vazifasini bajarishi mumkin.

3. Berilgan ish qog‘ozlarini tarkibiy qismlari joylashuviga ko‘ra jadvalga joylashtiriladi.

Sodda ish qog‘ozlari	Murakkab ish qog‘ozlari
e’lon	*shartnoma*
tabriknoma	*tavsifnoma*
ariza	*bayonnoma*
taklifnoma	*dalolatnoma*
tilxat	*hisobot*
ishonchnoma	*taqriz*
tushuntirish xati	*buyruq*
faks	*rezyume*
bildirishnoma	*tarjimayi hol*
	so‘rovnoma

21.1-topshiriq. Yechim: quyon barcha jonivorlar nomidan sherga zolim bo‘ri ustidan **arznoma (shikoyat xati)** yozgan. Arznoma ijrosini tekshirish vazifasi aynan shu bo‘rining o‘ziga topshirilishi majoziy timsollar orqali hajv ostiga olingan.

Ramziy timsollar: quyon – oddiy xalq vakili; bo‘ri – hududiy amaldor; ayiq – boshliq o‘rinbosari; sher – yuqori mansabli rahbar.

Masalda ko‘tarilgan mavzu hamma zamonda dolzarb bo‘lib kelgan. Xalq qabulxonasi yoki jurnalistlar aralashmaguncha muammolarni hal qilishga hech kim shoshmaydi. Shikoyat qilganlarni ta’qib qilish holatlari bugun ham hayotimizda uchrab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. 11-sinf „Ona tili“ darsligi. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

2. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf „Ona tili“ darsligi (2-qism). – Toshkent: „O‘QITUVCHI“ NMIU, 2020.

3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: „Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi“ nashriyoti, 2009.

5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: „Ma’naviyat“, 2013.

7. Mahmudov N., Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: „O‘QITUVCHI“, 1978.

9. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

10. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. So‘z qo‘llash san’ati. – „Jayhun“ nashriyoti, www.ziyouz.com kutubxonasi.

11. Rustamova D. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari. – Farg‘ona, 2018.

12. Karimov S., Mahmatmurodov Sh., Karimova O. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: „O‘zbekiston“, 2003.

13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

14. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. Ona tili (qomusiy lug‘at). – Toshkent, 2009. www.ziyouz.com kutubxonasi.

MUNDARIJA

Kirish.....3
11-sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar....5
Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish).....5
Lingvistik kompetensiya (leksika, uslubiyat, nutq madaniyati, tinish belgilariga oid).....6
O‘zbek tili va uning taraqqiyoti.....7
Nutq madaniyati.....11
Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar.....15
Nutqning to‘g‘riligi.....17
Yozma nutqning to‘g‘riligi va me’yor.....21
Mustahkamlash.....26
Nutqning aniqligi.....27
Nutqning aniqligi va badiiy nutq.....32
Nutqning mantiqiyligi.....36
Mantiqiylik va grammatik vositalar.....41
Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi.....46
Nutqning sofligi.....49
Nutqning sofligi va badiiy nutq.....53
Mustahkamlash.....57
Nutqning boyligi.....60
Nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar.....64
Nutqning jo‘yaliligi.....70
Jo‘yalilik va uslublar.....74
Mustahkamlash.....77
Nutqning ifodaliligi.....81
Ifodalilik va ibora.....84
Ifodalilik va ko‘chimlar.....88
Ifodalilik va kinoya.....92
Ifodalilik va o‘xshatishlar.....96

Mustahkamlash....100
Nutq madaniyati va nutq texnikasi....102
Nutq texnikasida urg‘u va to‘xtam (pauza)....105
Ish qog‘ozlari ustida ishlash. Bayonnoma....109
Bayonnomadan ko‘chirma....113
Takrorlash....115
Talaffuz va imlo....117
Nutqda o‘zgaruvchi unlilar....120
Nutqda o‘zgaruvchi undoshlar....122
Matn va lug‘at bilan ishlash....124
Urg‘u talaffuzi....126
Qo‘shib yoziladimi, ajratib?....129
Matn va lug‘at bilan ishlash....132
Nutqda o‘rinli va noo‘rin so‘zlar....135
Nutqdagi taqiqlar....137
Evfemizm va disfemizmlar....142
Olmoshlar uslubiyati....145
Mustahkamlash darsi....149
Matn va lug‘at bilan ishlash....152
So‘z va ibora teng emas....155
Maqolni o‘rinli qo‘llash....158
Tasviriy ifoda – ko‘tarinki nutq vositasi....163
Ortiqcha qo‘shimchalar....166
Qo‘shimchalar tanlovi....169
Nutqda shakl va mazmun mosligi....173
Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash....177
Matn va lug‘at bilan ishlash....180
Mustahkamlash darsi....183
Ish qog‘ozlari bilan ishlash....185
Foydalanilgan adabiyotlar....188

**SAODAT ATOYEVA, SHAHODAT SHAHOBIDDINOVA,
SAIDA MAJIDOVA, GULNORA YO‘LCHIYEVA,
SOHIBA BOBONAZAROVA**

ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
11- sinf o‘qituvchilari uchun
metodik qo‘llanma

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

Muharrir *N. Rustamova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Sobirova*

Nashriyot litsenziyasi AA№0040. 10.12.2019. Original-maketdan
bosishga ruxsat etildi 09.12.20. Bichimi 60×90 $^{1}/_{16}$. Kegli 11 shponli.
Times garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi.
Shartli b. t. 12.0. Hisob-nashriyot t. 12.0.
Adadi 18 704 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnoma № 27-20.

O 58

S. Atoyeva va b.

Ona tili, 11- sinf [Matn]: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11- sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / S. Atoyeva, Sh. Shahobiddinova, S. Majidova, G. Yo‘lchiyeva, S. Bobonazarova – Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 192 bet.

ISBN 978-9943-22-492-6

UO‘K 373.5.016:811.512.133(075.3)
KBK 74.268.1